ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

2024

2-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

2-сан *2024*

март

Шөлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Мавлюда АЧИЛОВА
Азизжан АБДАЗИМОВ
Мусаллам АБДУЖАББАРОВА
Ширин АЛДАШЕВА
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Гулбахар БЕКИМБЕТОВА
Комил ГУЛЯМОВ
Роза ГАЙПОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Дилдора ДАВРОНОВА
Замира ДАУЛЕТМУРАТОВА
Барлықбай ДАВЛЕТОВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ
(Шымкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ

Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
РУҲШОНА ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА
(Тараз, Қазақстан)
Джавдод ПЎЛАТОВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ
(Шымкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Пердебай НАЖИМОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Азамат НОРБЕКОВ
Хуршида НУРИТДИНОВА
Алишер НАРМАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Абдулхамид МИРЗАЕВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Гулзабира БАБАШЕВА
Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Норим РАХМАНОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА
(Москва, Россия)
Мухаббат САЛАЕВА
Гузал СОДИҚОВА
Улбосын СЕЙТЖАНОВА

Даулетназар СЕИТКАСЫМОВ
Айдын СУЛТАНОВА
Қалбай СЕЙТМУРАТОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Go’zal QURBONOVA
Gulmira KAMILOVA
ВОХИД КАРАЕВ
МОХИРА ҚУВВАТОВА
ШАХНОЗА КАДИРОВА
Сарсенбай КАЗАХБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Абдишукур ШОФҚОРОВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Мухаббат ХУДОЁРОВА
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ
ГУЛОРА ЮСУПОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Sobirov B.N. She'riy asar tarjimasida ruhiy-emotsional holat ifodasi muhim omil sifatida (Ibroyim Yusupov asrlari misolida) ... 7
Sobirov B.N. Tarjimada asliyat va uni idrokda qayta tiklash tamoyillari (Ibroyim Yusupov ijodi misolida) ... 13
Turdibekova R.Sh. Interfaol metodlaridan foydalanib o'zbek tili fanini o'qitish usullari ... 17
Muxanova M.G. Til va tafakkur hamda ularning o'zaro munosabatlari ... 21
Ruzmetova D.A. Zamonaviy xoriliy til o'qitish muammolari ... 25
Muratova N.B. O'zbek tilida tilak va tabrik nutqiy aktlarining milliy-madaniy belgisiga asoslangan verbal assotsiatsiyalashuvini o'rgatishda grafik organayzerlardan foydalanish ... 33
Muratova N.B. Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyasini tilak va tabrik nutqiy aktida ifodalanishi ... 41
Hasanov Sh. A. Badiiy asarlar tahliliga yangicha yondashuv ... 45
Алибекова Р. Х. Применение интерактивных методов на занятиях по русскому языку ... 53
Мирзалиева Д.Б. Использование информационно-коммуникационных технологий при обучении переводу ... 60
Шабидинова З. И. Формирование лексической компетенции при обучении иностранному языку ... 63
Разакова Ш. Д. Обучение посредством делания ... 67

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Мадалиев Я.Х. Иброй Олтинсариннинг педагогик фаолияти ва ғоялари ... 73
Мадалиев Я.Х. Абайнинг педагогик ғояларида ибратли ва ҳикматли сўзлар тавсифи ... 78
Qaxxarova N. N. O'qituvchilarda kompetensiya va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ... 82
Yo'ldoshev R.E. Magistrantlarni tayyorlashda ilmiy-pedagogik ta'lim jarayonining dinamik modeli ... 86
Yaxshiboyeva S.T. Ta'limda steam ta'limini amalga oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari ... 92
Xo'jaqulov F.N. Mantiqiy fikrlashning inson tafakkurini rivojlanishidagi ahamiyati ... 96
Mirzayev S. A. Ta'limda ekopedagogikani va bo'lajak pedagog kadrlarning ekologik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari ... 99
Haydarov J.G'. Zamonaviy ta'limda harbiy-pedagogning o'rni va unga qo'yilgan talablar ... 103
Berdiyeva S.E. Inklyuziv ta'lim samarodorligini oshirishning ahamiyati ... 107
Ergashev J. Tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish ... 112
Карахонова О.Ю. Саноген фикрлашнинг педагогик таҳлили ва унинг муҳим хусусиятлари ... 116
Raimberdiyev A.A. Pedagogik qobiliyatni aniqlash va rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ... 120
Qosimova G.I. Таълим жараёнини тадқиқ этишда sinergetika ilmiy tadqiqot yondashuvi sifatida ... 123
Niyazov J.A. Birlashtirilgan didaktik interfaol dasturiy tizimdan elektroenergetika fanlarini o'qitishda foydalanishning nazariy tahlili ... 128
Muratova Sh.I. Umumiy pedagogik fanida talabalarni bilim, ko'nikmalari va o'quv natijalarini diagnostikasi ... 133
Baratova N.T. Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish imkoniyatlari ... 138
Yarmanova Yu.B. Шахс ижтимоий-маданий адаптацияси ва уни шакллантириш омиллари ... 142
Samadov M.S. Ahamiyatli usullar yordamida kimyoviy reaksiyalarning tezligi aniqlash ... 146
Raximov F.R. Bolalar iqtidorini rivojlantirishni boshqarishning tuzilma-funksional modeli ... 151

Alimardonova M. X. Biologiya fanidan kitobxonlik anjumanlarini o‘tkazish 157
Xalilova H.M. Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoy zaruriyat sifatida 163
Axmedova A. Talabalar maxsus tayyorgarligini amaliyotda o’quv materiallari orqali tarkiblashtirish metodlari 168
Yoziyeva U.L., Ergasheva N. Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuvning ahamiyati 172
Umirov A.A. Didaktikada elektron ta’lim resurslarini o‘quv jarayoniga joriy etish xususiyatlari 177
Ergashev N.G‘. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar tizimini joriy etish integratsiyasi va asosiy yo‘nalishlari 182
Choriyeva M.B. Pedagogik amaliyotlar orqali talabalarni ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorlashning afzalliklari 187
Boymatova M.R. O‘qituvchi shaxsida emotsional intellektning o‘ziga xosligi 191
Shonazarov J.U. Ma’naviy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari 195
Choriyeva F.A. O‘quvchilar xulqidagi yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlarni korreksiyalashning pedagogik tizimi 199
Xo‘jamberdiyeva M. Shaxs tarbiyasida eydekologiya tamoyillaridan foydalanishning qiyosiy tahlili 203
Temirov M.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning pedagogik shartlari 207
Очилов А.Э. Педагогика ва психологияда математик ижодкорлик 210
Buriyeva N.R. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish 214
Jabborova D.B. Genetik munosabatlar tushunchasini shakllantirishda maktab kimyoviy eksperimentining ahamiyati va ularda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi 219
Choriyeva Z., Usanova M. Oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich ta’lim talabalari shaxsining o‘qituvchilik kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni 244
Aslonova O.P., Xushvaqtova M. Sh. Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish imkoniyatlari 229
Zaripova M.Q. Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish, davlat-jamoatchilik tamoyiliga ko‘ra boshqarishning psixologik-pedagogik asoslari 234
Yuldosheva Yu.J. Ta’lim tizimini boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish 237
Choriyeva Z.T., Boynazarova M. Pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta’limga integratsion yondashuvning ahamiyati 241
Xalikova Sh.T. Ta’lim jarayonida ko‘rish nuqsoniga ega maxsus maktab tarbiyalanuvchilari tafakkurini rivojlantirishning o‘ziga xosligi 245
Urinbayev S.Q. Ta’lim sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar 249
Ashurov N.R. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida o‘quv jarayonini tashkil etish 254
Xolmatov P.Q., O’tayev A.Y., Mirzaxmatov B.B. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb-hunarga yo‘llash ishlarini tashkil qilish mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari 260
Sharapova Z.F. Ta’lim tizimida ta’lim-tarbiyani tashkil etishning zamonaviy metodlarini qo‘llash masalalari 266
Abduxamidov S. M., Qadamova B. S., Shivoqova R. O‘., Xusniddinova M. S., Ismatullayeva N. R. Bo‘lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ pedagogika ustuvor yo‘nalishi sifatida 270
O‘tayev A. Y. O‘zbekistonda pedagogika fanining dolzarb masalalari 274
Ачилова Э.С. Адабий таълимни такомиллаштириш муаммосининг педагогик тадқиқотларда ўрганилиш тадрижи 279
Meylieva M.S. Individual yondoshuv orqali talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari 284
Musurmonov R. Modernizatsiyalashgan ta’lim sharoitida o‘quvchilarda darsga ijobiy munosabatni barqarorlashtirishda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish 291

Raxmanova M. Q. Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlannirish jarayonida ijtimoiy va pedagogik omillarning o‘zaro aloqadorligi 296
Суяров А. М., Ержанова А.А. Мактаб раҳбарларининг касбий компетентлилигини шаклантириш имкониятлари хусусида 303

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Azimova Ch. A. Odob-axloq va nafosat munosabatlarining Islom madaniyatidagi talqini 309
Казакова М.Қ. Азизиддин Насафийнинг ҳаёт йўли ва ижодий мероси 314
Karamova M.F. Sharq mutafakkirlari ijodida o‘quvchilarning intellektual rivojlantirish tushunchalarining yoritilishi 320
Ernazarova G.O., Abdullayev X.Sh. Tarixiy manbalar sharhi – oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirish omili sifatida 325
Исроилов Қ. Т. Замонавий мутахассисда акмеологик фикрлашни шакллантириш 331
Yuldasheva I.A. Bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashni yangilash 335

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Isroilov N.S. Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasining imkoniyatlari 339
Xoliqulov B.J. Oliy ta’lim muassasalarida python dasturlash tilini o‘qitish hamda talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasi 345
Shaynazarov R.M. 3D grafik modellashtirish uchun eng yaxshi dasturiy vositalar tahlili va ulardan foydalanish texnologiyalari 351
Eshmurodov A.G‘. Web 2.0 texnologiyalari yordamida oshiriladigan aralash ta’lim modeli va uni amalga oshirishning nazariy tahlili 356
Eshtemirov A.N. Fizikadan masalalarni yechishni o‘rgatishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasining nazariy asoslari 361
Berdiyev B. R., Yomg‘urova J. B. Matematika fani o‘qituvchisini metodik tayyorlashda mustaqil ishlarning o‘rni 366
Sayidova M. X. Ta’lim sifatini ta’minlashda raqamli texnologiyalar va ularning roli 371
Qurbonova M. E., Abdulaxatova M. A. Bo‘lajak kimyo fani mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari 378

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Қодиров Р.К. Бошланғич синф ўқувчилари мустақил фикрлашини ривожлантиришнинг дидактик асослари 383
Muminova N.A. Boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish yo‘llari 386
Choriyeva Z.T., Berdinazarova B.M. Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish 390
Raximova R. B. Maktabgacha va boshlang’ich maktab ta’limining zamonaviy muammolari va ularni hal qilish yo’llari 395
Irisova S. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligini oshirish usullari 401
Choriyeva M., Yuldashev S.N. Boshlang’ich sinf o’quvchilarda ona tili faniga oid kompitensiyalarni shakllantirish metodikasi 406
Berdiyeva L.N. Boshlang‘ich sinf o`quvchilarining tafakkur tezligini oshirish imkonyatlari 411
Oripova N.X., Umurqulova M.P. Bolalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda AKTdan foydalanish pedagogik muammo sifatida 416
Choriyeva F., Xusanova D. Maktabgacha yoshdagi bolalar xulqidagi salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqish sabablari va omillari 421

Usarova M.N. Boshlang‘ich sinf o’quvchilari faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ... 425
Hamroyev Sh.E. Boshlang`ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlarni o`tkazish: mummolar, izlanishlar va yechimlar ... 429
Quvanov Z. Boshlang‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlanatirish metodikasi ... 435
Alimardonova M.B. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining bilish ko’nikmalarini rivojlanishida o‘yin muhim vosita sifatida ... 440
Ibragimova G. R. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari ... 445
Botirova L.L. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi ... 449
Xamidjonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ... 454
Jumayev F.A., Raximova L.B. Boshlang‘ich sinflarda bolalar adabiyotini o‘qitilishining didaktik ahamiyati ... 458
Тиркашова Г.Б. Умумтаълим мактабларида инновацион бошқарув фаолиятинининг зарурати ва имкониятлари хусусида ... 461
Nortojiyeva M. Z. O‘quvchilarni arifmetik amallar yordamida og‘zaki hisoblash usullariga o‘rgatish ... 467
Normatova N.K. Adaptivlik tushunchasining mazmuni va mohiyati ... 473
Xo‘jaqulov A.E. Possibilities of game activities in the formation of a valuable attitude towards the family in children of the preschool educational organization ... 477

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Gulmurodova D.M. Ta’lim tizimida o‘quvchilarga rangshunoslik tarixini o’rgatish ... 482
Baymetov B. B. Oliy pedagogik ta’limda bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisini badiiy-ijodiy rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash shartlari ... 487

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Abdullaev I. Jas futbolshílardíń texnik-taktik tayarlıǵin jetilistiriwdíń zamanagóy usillarí ... 492
Bobomuradov S .E. Yosh futbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning vosita va usullari ... 496
Suvonov Q.Yo. Kurash turlari nazariyasi va metodlari tasnifi ... 501
Yoziyeva U.L., Ergasheva N. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari ... 506
Yusupov E. T. Kurash sport turning qoidalari texnika va taktikasi ... 510
Boltabayev Sh. O. Turli toifadagi gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish hujum texnikasi kinematikasini aniqlash va solishtirish ... 515
Xabibullayev S.X. “Yosh futbolchilarning musobaqa va mashg’ulotlardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini o’rganish” ... 527
Shukurllayev J. M., Murodova R. M. Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash ... 532
Nurmatov F.A. Pedagogik kategoriya sifatida kompetentlilikning mohiyati va uning bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilari faoliyatidagi o’rni ... 536
Арзыбеков Т. Проблемы спортивного отбора ... 542
Арзыбеков Т. Проблема допинга в спорте ... 548
Baylepesov K., Seydaliev S. The bases of command formation in rowing ... 555

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

SHE’RIY ASAR TARJIMASIDA RUHIY-EMOTSIONAL HOLAT IFODASI MUHIM OMIL SIFATIDA (IBROYIM YUSUPOV ASRLARI MISOLIDA)

Sobirov B. N.
O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali assistent o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ruhiy-emotsional holat ifodasi, Ibroyim Yusupov asrlari, she’riy asar tarjimasi, qoraqalpoq lirikasi, tafakkur idroki, do’st, farzand, shirin, daraxt, kamtar, shogird, shodlik, baxt.

Ключевые слова: выражение душевно-эмоционального состояния, возраст Ибраима Юсупова, перевод поэтического произведения, каракалпакская лирика, мысленное восприятие, друг, ребенок, милое, дерево, смиренный, ученик, радость, счастье.

Key words: expression of mental and emotional state, age of Ibraim Yusupov, translation of a poetic work, Karakalpak lyrics, mental perception, friend, child, cute, tree, humble, student, joy, happiness.

Ibrayim Yusupov yangi davr qoraqalpoq lirikasi halqasida o’z ijodiy maktabini yaratgan so’z san’atkori sanaladi. Uning ijodida o’ziga xos estetik salohiyatni namoyish etadigan ifoda salmog’i mavjud. Shoir «meni» da shaxs ruhiyati va ijtimoiy muhit ob-havosi g’alati tarzda omuxtalashib ketadi. Unda tahlil zichligi tasvir ruhiyatini belgilaydi, unda tafakkur idroki so’z zalvorini oshiradi, unda sohir bir dard nafosat hujayralariga singadi, unda falsafiy umumlashma ruhiy olam yaxlitligini dalolatlaydi, unda ijodiy tabdil shoira ruhi va nafasi, ovozi va sozini tasvir tasavvurida alohidalaydigan estetik baholash mezonlariga evriladi:

Do’stlarim bor, yo’qdir dushmanim,
Har kimning ham bordir bir yovi.
Yaxshi ko’rsa bittasi mani,
Yoqtirmaydi boshqa birovi .

Shoit poetik idrokida qayta tiklangan o'zlashgan qatlam (do'st, farzand, shirin, daraxt, kamtar, shogird, shodlik, baxt) qoraqalpoq tilining lug'at tizimi boyishi, lisoniy munosabatlarda yangi sinonimik qator hosil bo'lishiga zamin hozirladi. Tarixiy jihatdan faol bo'lgan ta'sir hudud yaxlitligi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy aloqa uzviyligi bilan o'lchanadi. Muallif ingichka sezimni ifodalashda fors-tojikcha shakl nafosati, musiqiy ohangdoshligi va betakror fasohatini uslubda jilolantiradi. Ifoda qo'llanmasi sifatida o'zlashgan lug'aviy birliklar ruhiy tasvir vositasi vazifasini bajaradi. Aynan tafakkur miqyosida ko'zga tashlanadigan keng qamrov ijodkor fitrati umumiy sajiyasini ham belgilab beradi.

She'riy matn tarjimasi ilmiy iqtidor va ijodiy izlanish omuxtalashuvidan hosil bo'ladigan murakkab jarayon hisoblanib, unda mantiqiy butunlik marom va ohang birikuvini taqozolaydi. Yuksak iste'doddan san'atkorona mahoratga qadar qamraydigan uslublararo sintezda ikki shoir ifoda yo'sini bir-biridan keskin farq qiladi. Aslida «she'riy tarjimada bir tilda bunyodga keltirilgan ana shu manzara (ruhiy-emotsional manzara B.S.) ikkinchi tilda qayta yaratilishi lozim. Shu bois she'riy tarjima, nasriy tarjimadan farqli o'laroq, shoir-tarjimonning asari - boshqa bir muallifining ijod mahsuli hisoblanadi va u tom ma'nodagi ijodiy mehnat» darajasiga ko'tariladi. Unda Ikki millat dunyoqarashi, ijodiy quvvat-hofizasi hamda estetik tanlov o'zaro muqoyasaga kirishadi, unda marom va ohang silsilasida ifodalanadigan ruhiy-hissiy butunlik bir-biriga nisbatan raqobat hosil qiladi, unda asliyatda jilolanadigan badiiy harorat ijodkor fitratida qayta tiklanadi, unda tasvir ruhiyati o'ziga xosligi badiiy mantiq bog'lamiga mustahkam zamin hozirlaydi.

Ibrayim Yusupov ijodi qoraqalpoq milliy madaniyati tarixida o'ziga xos maqom kasb etadi. Unda inson ibtidosi va intihosi, umr mohiyati va mavjudlik sinoati, hayot va muhabbat, moziy, bugun va kelajak rishtasi, istak, imkoniyat va a'mol yuksak hissiy pardalarda kuylanadi. Falsafaga qoniq o'y-xayollarda ruhiy holat tebranishlari, tuyg'ular zamzamasida mavjud ijodiy mayl sohir she'riyat teran idrokdan oziqlanganini dalolatlaydi. Mahalliy kolorit ruhi bo'rtib turadigan shoir ijodi turli davrlar adabiy kesimida muayyan darajada o'zbek tiliga o'girilgan. Vaholanki, u «o'zbek mumtoz adabiyotini, xususan, Alisher Navoiy ijodini juda yaxshi biladi. Ulug' o'zbek shoiri g'azaliyotidan bahramand bo'lib o'zi ham aruz vaznida qalam tebratgan, uning an'analarini qoraqalpoq adabiyotida muvaffaqiyatli davom ettirgan» . Mana shu xususiyat uning ijodida fors-tojik tilidan o'zlashgan leksik qatlam qamrovi kengayishiga yo'l ochadi. Muallif adabiy talqinda yangi lug'aviy zahiradan unumli va o'rinli foydalanish asnosida qoraqalpoq adabiy tili taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi.

Qoraqalpoq tilidan o’zbekchalashtirilgan she’riy matnlarda ruhiy-emotsional manzara saqlangan, biroq g’aliz jumlalar ifoda tabiiyligi hamda tuyg’u maromiga putur yetkazadi: «kaltak topilsa» iborasi ruhiy holat tasviriga mos tushadi, «shoh yo’l» sintaktik birikuvi ham shuurga yopishmaydi. Lavhada badiiy mantiq va formal mantiqaro uzilish ko’zga tashlanadi. Shunga qaramay, so’zma-so’z tarjimada asar ruhi, shoir uslubi hamda davr nafasi qayta tiklangan. Aslida she’riy matn asliyati va tarjima munosabati muallif adabiy mahorati hamda milliy mansublikning o’zaro aloqasiga tayanadi:

Toshqindan ovullar to’zg’igan paytda,
Avval qurbon bergan daryo, dengizga.
Qaytib berar bo’lsa Orolni bizga,
Jonni qurbonlikka tikkim keladi.

Rustam Musurmon tarjimasida sharq mulozamati hamda milliy ifoda o’lchami bir-biriga omuxtalashib ketadi. Sariq rang - musibat, zahmat va og’ir mashshaqqatlarga ishora qiladi. Muallif va tarjimon ruhiy ohangdoshligi murojaat mantig’ini dalolatlaydi. She’rda murojaat zalvori favqulodda kechinmani hosil qiladi. Ma’no qobig’i tasviriy ifodani badiiy umumlashmaga aylantiradi. Tasavvur aniqligi hasmda tashbeh tiniqligi bir-biriga tutash holatlarni markazlashtiradi. Unda tarjimon mahorati ijodiy miqyoslarni tadqiq sahniga chiqaradi. Aynan mushohada mantiqiy takomili estetik idrokni hayotiy ziddiyatlar teranligiga yo’l ochadi.

Tabiiyki, mavjud holatda nutq badiiy vazifadoshligi ham o’lchamini o’zgartiradi. Buning natijasi o’laroq, ziddiyat hamda uyg’unlik aloqalantirilgan saviyasi muhokama mag’zini tayin etadi. Muallif adabiy talqinida inson (subyektiv ibtido) va voqelik (obyektiv intiho) plastik tasavvur yaxlitligiga evriladi. Buning natijasi o’laroq kuzatish, sharhlash hamda baholasharo uyg’unlik ijodkor alohidaligini belgilaydigan asosiy omilga aylanadi.

So’z san’ati muntazam fikr, hodisa, g’oya va ruhiy kechinma xarakterini umumlashtirishga moyil. Aniqrog’i, muammo eng muhim qirrasini urg’ulash uning mohiyatini ta’riflaydi. Bu daxldorlik inson, millat va bashariyat manfaatlarini birlashtirsa, poetik kashfiyot hosil bo’ladi. Shakl, so’z va ma’no tuyg’usi evrilishi ijodkor dunyoqarashida xoslanadi. Total ifoda tanlovi kengligi hamda teranligi poetik maqomni rasman tasdiqlaydi. Shu ma’noda, hayotiy tushuncha qamrovi va ijodiy e’tiqod mas’uliyati yaxlitligi ijodkor ruhiy olami o’ziga xosligini ta’minlaydi. Tasavvur, kechinma, taassurot haqqoniyligi shoir badiiy hujayralari qatiga singib ketadi va borliqni ijodiy o’zlashtirish tizimini

muayyan ijtimoiy falsafiy-ruhiy-ma'rifiy-ma'naviy-qadriyaviy mezonlar o'lchamiga aylantiradi. Unda tasvir va tasavvur, tahlil hamda taassurot to'ldiruvchi mohiyat vazifasini bajaradi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, san'at hayot u yoki bu jihatini badiiy tarzda ifoda etadi. Bundan hayotning mohiyatini, ahamiyatni yaxshilab tushuntirib berish va shu orqali tasvir obyekti ustidan o'z «hukmi» ni chiqarish maqsadini ko'zda tutadi. San'atning bu uch vazifasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. San'atning tasvir obyekti ustidan chiqargan «hukmi» uning g'oyasidir. G'oya asarda qo'yilgan va yoritilgan masalalarning mohiyatidan xarakterlar talqinidan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan xulosa. Shunga ko'ra, mavzu asar g'oyasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi hayotining u yoki bu jihati haqidagi fikrni o'quvchiga yetkazmoqchi bo'ladi. Shu fikrni asardagi obrazlar faoliyatiga qo'yilgan masalalar zamiriga singdirib yuboradi. Kitobxon asarni o'qib chiqqach, voqea-hodisalar talqinidan, xarakterlar mantiqidan g'oyani topib oladi. G'oya asar to'qimasiga qanchalik chuqur singdirib yuborilgan bo'lsa, uning badiiy ta'sirchanligi, emotsionalligi shunchalik kuchli bo'ladi. Badiiy asarning g'oyasi xuddi mavzudek asar mazmunida ifodalanadi. Chinakkam badiiy asardagi har bir epizod, har bir obraz hatto alohida detallar asosiy g'oyani ochishga xizmat qildiriladi. Asar g'oyasini tushunish uchun unda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar, detallar haqida chuqur mushohada qilib ko'rish, atroflicha tahlilda o'tkazish kerak. San'at asarining g'oyasi badiiy g'oyadir. Badiiy g'oya san'at asarining mazmunida yotgan umumlashma, emotsional obrazli fikr. Asar g'oyasi haqida so'z yuritilganda uning mana shu xususiyatini albatta hisobga olish zarur. Yozuvchi asardagi hayotni sintetik tarzda tasvirlar ekan, u albatta bir-biri bilan. bog'liq bo'lmagan qator masalalarni qalamga oladi, ularga o'z munosabatini bildiradi bahosini beradi. Shunga ko'ra, asarning g'oyaviy tematik to'qimasi murakkabdir. Asar bu masalalar va ulardan kelib chiqadigan xulosalar bosh mavzu va bosh g'oya atrofida uyg'unlashadi. Aks holda, asarda yagona bir butunlik emas tarqoqlik yuz beradiki, bu badiiylikka butunlay ziddir. Umuman aytganda, asarda tasvirlangan har bir obraz, har bir hayotiy vaziyat o'ziga xos mavzuga va unga berilgan bahoga ega bo'ladi. Shu ma'noda badiiy asar ko'p muammoli, ya'ni ko'p mavzuli va ko'p g'oyalidir. Ko'pgina tanqidchilar muayyan bir asarni tahlil qilganda, bir-birlarini takrorlamaydilar, ularning har biri shu asarda qo'yilgan va yoritilgan masalalardan o'zi uchun qiziqarli bo'lganlarini ajratib olib o'rganadi, boshqalarini esa chetlab o'tadi. Badiiy asardagi g'oyaviy-tematik ko'p qirralilik uning to'qimasidagi yaxlitlikka, bir butunlikka zarar yetkazmasligi kerak. Chunki, hayotning o'zida ham muayyan

bir hodisa boshqa bir hodisa bilan o’zaro aloqaga kirishib, muayyan yaxlit hodisalarni hosil qiladiki, bularga ma’lum bir nuqtai nazardan qarab baho berish taqozo etiladi. San’at hayotning mana shu talabiga amal qiladi. Shunga ko’ra, asar tasvirlangan voqea-hodisalar konkret situatsiyalar, masalalar, obrazlar o’zaro aloqaga kirishib yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. Matnga yaxlitlik bag’ishlashda asosiy mavzu-g’oya hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Mohiyatga ko’ra nafis so’z san’ati vujudga kelgan ko’hna zamonlardan beri lirika olam bilan odamni badiiy-estetik o’rganishdagi ingichka salohiyati bilan badiiy madaniyatimiz tarixida salmoqli o’rin tutadi. Lirika hissiy nafosati, fikriy teranligi bois, adabiyot boshqa turlari silsilasida nufuzi o’zgacha. U olam bilan odam yuragini zabt etgan kechinmalaru mushohadalar uyg’unligida yuzaga kelgan obyektiv mohiyati bilan go‘zal. Har bir avlod shoirlari obrazlar tizimi bir-biriga o’xshamaganidek, so’z darg’alari lirik qahramonlari ham har bir she’rda betakror yo’sinda fikrlaydi. Joriy holat har bir ijodkor avlodi badiiyat tarixidagi o’zlik qiyofasini belgilab olishiga yo’l ochishi barobarida, har bir ijodkorning betakror ma’naviy dunyosini ham inkishof etadi:

Yulduzlarni yerga termultmak bo’lsang,
Yomon shoirlarni yo’qotmak bo’lsang,
Agar men o’lganda tiriltmak bo’lsang,
Ayt sen Ajiniyoz qo’shiqlaridan .

Badiiy jihatdan teran, fikr-his jihatidan to’la adabiy asarlar o’quvchini uzoq vaqt o’ziga bog’lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni mavhum tarzda tushuntirmay, balki aniq badiiy yaxlitlikda umumlashtiradi va ifodada ko’rsatadi.

Tarjima nazariyasi XX asr avvalida shakllanib, 50-60 yillarda mustaqil fan maqomini olgan bo’lsa-da, soha amaliy mohiyati qadim davrlarga borib taqaladi. Tushuncha haqidagi ilk mulohazalar ham dastlabki tajribalar asnosida vujudga kelgan. Gap shundaki, tarjimonlar o’z matni muqaddimasida tarjima qilishga undagan omillarni ko’rsatib, asliyatga yondashish usullarini bayon etganlar, tarjima jarayonida qanday tamoyillarni qo’llaganlari haqida ma’lumot berib, uning negizlarini ko’rsatishgan, asliyat va tarjima o’zaro munosabatini izohlashgan.

Boshqacha aytganda, tarjima nazariyasi vazifasini ham tarjimonlar bajarib, soha tamal toshini qo’yganlar. Albatta, adekvat tarjima hozirgi realistik tarjimashunoslik mahsuli. O’tmishda asosan erkin va ijodiy tarjima, ko’pincha ularning o’zaro omuhta shakli amalda bo’lgan, bir vaqtning o’zida ham erkin,

ham ijodiy tarjima prinsiplari amal qilgan. Ba'zan mutlaqo erkin tarjimalar ham uchrab turadi. Buning sababi tarjimaga original asar sifatida qaralgan. Aslida bu bir jihatdan to'g'ri ham. Chunki tarjima bir tilda yaratilgan badiiy voqelikni ikkinchi til vositasida qayta yaratishdan iborat. Bunda tarjimon adabiy mahorati lug'aviy arsenaldan unumli hamda o'rinli foydalanish layoqatiga borib payvandlanadi.

Adabiyotlar:

1. Salomov G., Boboyev T. Tarjima san'ati. -T.: Adabiyot va san'at, 1973.
2. Isomiddinov Z. Turkiy epos va tarjima masalalari. -Toshkent: Universitet, 1995.
3. Dilmanov I. Folklor aloqalari va badiiy tarjima. -Nukus: Bilim, 2007.
4. Ibrayim Yusupov, Sahro bulbuli. -Toshkent Adabiyot va san'at, 1994.-B. 45.

РЕЗЮМЕ

Maqolada sheriy matn tarjimasida ruhiy-emotsional holat ifodasi muhim omil ekanligi Ibroyim Yusupov ijodi misolida ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, badiiy tarjimada tarjimon mahorati muhim rol o'ynashi, tarjimada milliy koloritni ochib bera olish chinakam badiiy mahorat ekanligiga dalillar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье на примере творчества Ибрагима Юсупова научно-теоретически обосновано, что важным фактором перевода поэтического текста является выражение психоэмоционального состояния. Имеются также свидетельства того, что мастерство переводчика играет важную роль в художественном переводе, а умение раскрыть национальный колорит в переводе является истинным художественным мастерством.

SUMMARY

In the article, using the example of Ibragim Yusupov's work, it is scientifically and theoretically substantiated that an important factor in the translation of a poetic text is the expression of a psycho-emotional state. There is also evidence that the skill of a translator plays an important role in literary translation, and the ability to reveal the national flavor in translation is a true artistic skill.

TARJIMADA ASLIYAT VA UNI IDROKDA QAYTA TIKLASH TAMOYILLARI (IBROYIM YUSUPOV IJODI MISOLIDA)

Sobirov B. N.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali assistent o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: shoir, tarjima, tamoyillar, matnda tasvir ifoda qatlami, yaxlit poetik tizim, lirik tasvir maydoni, badiiy umumlashma.

Ключевые слова: поэт, перевод, принципы, пласт образной выразительности в тексте, целостная поэтическая система, лирическое образное поле, художественное обобщение.

Key words: poet, translation, principles, layer of figurative expressiveness in the text, integral poetic system, lyrical figurative field, artistic generalization.

Chinakam iste'dod shunday xususiyatki, unda mahorat hayot materialini badiiy aks ettirishda rang-barang tasvir vositalaridan nechog'li unumli foydalana olganligi bilan o'lchanadi. She'r cheklangan imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa adabiy janrlardan jiddiy tavofutlanadi. Shoir unda inson hayoti solnomasini oraliq ijodiy quvvatda suvratlantiradi. Boshqacha aytganda, odamzod ruhoniy takomilidagi muhim qirralar badiiy shakl miqyosini belgilaydi. Unda lirik tasvir maydoni shartli va teran mohiyat sari yo'naltiradi. Natijada odamzot turmush tarzi haqqoniyligi ifodani yaxlitlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, adabiy talqin uyg'un ifodasida qahramon shaxsiyatiga katta falsafiy-ijtimoiy umumlashma singdiriladi.

Matnda tasvir ifoda qatlami mavjudligi ijodiy mustaqillik va mantiqiy tugallanganlikni uyg'unlashtirgan holda, yaxlit poetik tizimga intiladi. Ham mazmuniy, ham shakliy, ham uslubiy butunlik badiiylik darajasini tasniflaydi. Asarda estetik qamrov va badiiy niyat o'rtasidagi keskinlikni tafovutlash joiz. ljodiy individuallikdan badiiy umumlashmaga o'tish esa talqin o'ziga xosligini tashkil etadi. Shoir aksar o'rinlarda qahramon xarakteri ham ruhiy, ham ijtimoiy mohiyatini ochib berishga intiladi. Aslida muayyan murakkablik

darajasi uning o’z manfaat-ehtiyojlariga bevosita hamda bilvosita bog’langan jarayon sanaladi.

Tarjimashunoslikda shaklan o’xshash, lekin ma’nolari bir-biridan farq qiladigan so’zlar soxta ekvivalentlar deb yuritiladi. Aslida bu tushuncha XIX asr oxirida ilk bor qayd etilib, XX asr boshlaridan e’tiboran maxsus o’rganila boshlangan. Fransuz lug’atshunoslari M.Kesler va J. Derokini birinchi marta «Inglizcha- fransuzcha tarjimonlarning aldoqchi so’zlari» degan lug’at tuzgan edilar. Keyinchalik bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar ham paydo bo’ldi. «Tillararo omonimlar», «Tillararo analogizmlar», «Ohangdosh so’zlar», «aldoqchi so’zlar» va boshqalar shular jumlasidandir. O’zbek tarjimashunosligida ulardan «aldoqchi so’zlar» o’zlashdi, deyish mumkin.

Taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov turli tillarda fanda ayrim so’zlarninggina fonetik jihatdan o’xshashligini soxta ekvivalent deb olgan bo’lsa, G.Salomov bu termini tuzilishi jihatdan bir-biriga o’xshash, ammo ma’nosi jihatdan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan ba’zida bir-biriga zid bo’lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo’llaydi. Rus olimi V.V. Akulenko bunday so’zlarni tillararo omonimlar (shaklan o’xshash, ammo ma’nolari har xil so’zlar) va tillararo paronimlar (so’zlarning talaffuzdagi tasodifiy o’xshashligi) kabi ikki guruhga bo’lgan edi. Bu so’zlarga misol tariqasida quyidagilarni keltirsak bo’ladi: qoraqalpoqchada arman-orzu, duzde-boshqa joyda, qas-dushman, kabi so’zlarni muvofiq ravishda armon, tuzda, qosh deb tarjima qilib bo’lmaydi. Bunday qilingan taqdirda asliyatda berilgan fikrni tarjimada ifodalab bo’lmaydi.

Ko’pgina turkiy tillarda, jumladan, o’zbek va qoraqalpoq tillarida shakl jihatidan bir biriga o’xshash ammo ma’nolari jihatidan bir biridan farq qiluvchi so’zlar ko’p. Binobarin, «Ko’ngil-ko’ngildan suv ichar» she’rida «Aspang’a ser salip baqsan» misrasini «Ko’kka sehr solib boqsang» (M. Ali) emas, balki «Ko’kka diqqat bilan boqsang» deb tarjima qilish kerak.

Aspang’a, ser salıp baqsan’,
Juldızlar so’yleser aqsham.
O’zın’ bulaq bolip aqsan’,
Kewil kewilden suw isher.

Ushbu banddagi Aspang’a, ser salıp baqsan’misrasi tarjimada «Ko’kka sehr solib boqsang» tarzida beriladi.

Ko’kka sehr solib boqsang,
Yulduzlar so’ylashar oqshom.
O’zing buloq bo’lib oqsang,
Ko’ngil ko’ngildan suv ichar.?

She’rdagi ser salıp jumlasi diqqat bilan qaramoq ma’nosida keladi. Tarjimon bu misrani o’girishda manosi umuman boshqa lekin shu so’zning paronimi bo’lgan sehr so’zini qo’llaydi. Sehr so’zining ma’nosi esa o’zbek tilining izohli lug’atida g’ayritabiiy kuchlar, sehrli afsun va duolar, ko’chma ma’noda So’z yoki hatti-harakatdan kelib chiqadigan maftunkorlik, fusunkorlik, jozibama’nolarini anglatishi ko’rsatilgan. Bu o’rinda tarjimon tomonidan so’z qo’llashda xatolik yuz bergan. Bu xatolik esa kitobxonda noaniqlik kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

Shoirning “Bir do’sting bo’lsin» she’rida M.Jalil «orta» (davra, saf) so’zini «o’rta» deb noto’g’ri talqin qiladi:

Ozi bolg’an háy ezmambet jigitler!
Súrinler dáwrandı, ortańiz tolsin.

Bu yerda do’stlar davrasi, safi va do’stlarning qatori haqida so’z bormoqdaki, uni o’rta deb talqin qilish asliyat mazmunini buzgan. Aynan shu she’rdan yana bir misolni ko’rib chiqamiz:

Ol hám sennen alsın yosh penen quwat,
Asqar taw aybatin- bir dostiń bolsın.

Ushbu misrada shoir: «Ortingda tog’dek senga madad bo’lguvchi do’sting bo’lsin»,-deya ishora qiladi. Ammo,tarjimon bu misrani tarjima qilishda do’stning individual sifatiga urg’u beradi:

Ul ham sendan olsin zavq bilan quvvat,
Asqar tog’ haybatli bir do’sting bo’lsin.

Bunday yangilanishlar katta-kichik barcha tarjmonlar, jumladan, Mirtemirday zabardast mutarjim ijodida ham uchraydi. Masalan, «Bylmoq»so’zi qoraqalpoq tilida to’zmoq, buzilmoq, vayron bo’lmoq, yaroqsiz holga kelmoq deb tarjima qilinadi:

Qaraqalpaqtan xalqi bylip.
Qoraqalpoq xalqi bo’lib.

Holbuki, shoir «Qoraqalpoq xalqi to’zib» demoqchi. Yana shu she’rning keying bandida o’qiymiz:

Bylgen yel qaraqalpaq bo’ldi.
Bo’lgan qoraqalpoq bo’ldi.

«Tamaq» so’zi qoraqalpoqchada tomoq, ovqat ma’nolarini bildiradi. Jumladan, quyidagi misrada u ovqatma’nosida kelgan: «Ashliqtan bolmadi tamaq». Mirtemiresa uni bo’g’iz ma’nosida talqin qiladi: «Ochlikdan quriydi tomoq» «So’zma-so’z o’zgarish, orginal qulivbo’lish qanday xatolarga olib kelishi ko’rinib turibdi. Ayniqsa, tillararo tarjimada so’zma-so’z tarjima ish bermasligi, beparvolik,tarjimani oson ish deb o’ylash yoki orginal mansub

tilni yaxshi bilaman deb xotirjamlikka berilish, uning stilistik tomonlariga, so'zlashuv nutqidagi individual jihatlariga e'tibor bermaslik kulguli holatlarga solib qo'yishi mumkin.

Ta'kidlash joiz, har bir davr ruhiyati borliq va inson munosabatlari haqidagi tasavvurlarni yangilaydi, jamiyat taraqqiyoti darajasini uyushtiradi. Zero, badiiy tizim mohiyati, birinchi navbatda, ong va tuyg'u chorrahasida kesishadi. Negaki, odamzod tiynatiga yig'ilgan ijodkor nuqtai nazarida davr ruhiyati hamda jamiyat a'moli shaxs muammosiga evriladi. So'z san'ati tadriji va o'ziga xosligi hayotiy maishiy ziddiyatlar poetik teranligini umumlashtirish yordamida voqe bo'ladi. Uning mag'zi esa badiiy munosabatlar ruhiy mundarijasidan iborat. Zero, mushohada teranligi, tasavvur tiniqligi hamda tasvir ravonligi markazlashuvi aynan badiiy yaxlitlik tig'izlashuvi tushunchasida qabarib ko'rinadi. Hayot haqiqatini badiiy obraz ruhiyatiga singdirish ijodkor iste'dodi darajasidan, salohiyati miqyoslaridan dalolat beradi. O'z navbatida, joriy o'lcham yozuvchi kun tartibiga qo'ygan, kashf etayotgan inson sajiyasi ruhiy teranligi, ranginligi, ijtimoiy keskinligi va badiiy salmog'i, xarakter tiynatiga yashiringan hayot haqiqati nozik talqini bilan belgilanadi. Unda hayotiy qamrov hamda badiiy to'qima bir-biri bilan to'qnashadi, unda, odatda, ijtimoiy munosabatlar mag'zini belgilab beradigan, odamzodni boshqaradigan asosiy qudratni aniqlash yetakchi mezon hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Salomov G., Boboyev T. Tarjima san'ati. -T.: Adabiyot va san'at, 1973.
2. Isomiddinov Z. Turkiy epos va tarjima masalalari. -Toshkent: Universitet, 1995.
3. Dilmanov I. Folklor aloqalari va badiiy tarjima. -Nukus: Bilim, 2007.
4. Ibrayim Yusupov. Sahro bulbuli. -Toshkent Adabiyot va san'at, 1994.-B. 45.

РЕЗЮМЕ

Maqolada sheriy matn tarjimasida asliyat va uni idrokda qayta ishlash tamoyillari Ibroyim Yusupov ijodi misolida ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, badiiy tarjimada tarjimon mahorati muhim rol o'ynashi, tarjimada milliy koloritni ochib bera olish chinakam badiiy mahorat ekanligiga dalillar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье на примере творчества Ибрагима Юсупова научно-теоретически обосновано, что важным фактором перевода поэтического текста является выражение психоэмоционального состояния. Имеются также свидетельства того, что мастерство переводчика играет важную роль в художественном переводе, а умение раскрыть национальный колорит в переводе является истинным художественным мастерством.

SUMMARY

In the article, using the example of Ibragim Yusupov's work, it is scientifically and theoretically substantiated that an important factor in the translation of a poetic text is the expression of a psycho-emotional state. There is also evidence that the skill of a translator plays an important role in literary translation, and the ability to reveal the national flavor in translation is a true artistic skill.

INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANIB O‘ZBEK TILI FANINI O‘QITISH USULLARI

Turdibekova R.Sh.
Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ta’lim, pedagog, innovatsion texnologiya, intefaol usul, fan, taqdimot, bilim, ko‘nikma, jarayon, metod, texnologiya, imkoniyat.

Ключевые слова: образование, педагог, инновационная технология, интерактивный метод, наука, презентация, знание, умение, процесс, метод, технология, возможность.

Key words: education, teacher, innovative technology, interactive method, science, presentation, knowledge, skill, process, method, technology, opportunity.

Metod yunoncha, “metodos“ so‘zidan olingan bo‘lib, “bilish va tadqiqot yo‘li”, “nazariya”, “ta’limot” kabi ma’nolarni bildiradi. Metodika biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi yoki o‘qitish usullari haqidagi ta’limot — ta’lim berish metodlari, yo‘llari va vositalari haqidagi fandir.

Oliy o‘quv yurtining rusiyzabon guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi fanining predmeti talabalarga o‘zbek tilini o‘rgatish yo‘llari va vositalari, o‘zbek tilini egallash, ya’ni nutqni, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risidagi ilmdir. Metodika maktab oldiga qo‘yilgan ta’lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o‘rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta’lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta’lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Metodika fani quyidagi masalalarni o‘rganadi:

1. O‘qitishning vazifalari va mazmunini aniqlaydi. Nimani o‘qitish kerak? savoliga javob beradi, ya’ni boshlang‘ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta’lim mazmunini belgilab beradi, o‘quvchilar uchun darsliklar va qo‘llanmalar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O‘qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o‘quvchilar amaliy ishlari - mashqlar va yozma ishlaming izchil tizimini ishlab chiqadi, ya’ni “Qanday o‘qitish kerak?” savoliga javob tayyorlab beradi.

3. Talabalarga o‘zbek tilidan bilim berish va ko‘nikma hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni hal qiladi, ya’ni “Nega xuddi mana shunday o‘qitish kerak?” savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, metodlarni o‘rganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o‘z darslarida qo‘llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi.

Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo‘llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi.

Ko‘p yillar davomida an’anaviy dars o‘tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib keldi. An’anaviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa talabaning mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, talabalarning qiziqishini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlashni taqozo etadi.

Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Bunda o‘qituvchi va talaba o‘zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to‘qnashuvi yuzaga keladi. O‘quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog‘onaga ko‘tariladi. O‘qituvchi shu tarzda talabalarni faollashtiradi, o‘zlashtirishi past talabalar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Keng qo‘llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Taqdimot”, “Blits-so’rov”,

“Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”,

“T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo‘llash dars samaradorligini ta’minlab, talabalarning bilimini oshirishga yordam beradi.

So‘zning tarkibi va so‘z yasalishini o‘rganishda metodikaga so‘z yasalishi, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi. Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishni to‘g‘ri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan to‘g‘ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo‘lmagan talabalarda imlo va punktuatsiyadan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Grammatika talabalar nutqini o‘stirishda muhim o‘rin tutadi, chunki grammatika so‘z shakllarini to‘g‘ri tuzish, so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lash va gapni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatadi.

“Taqdimot” usuli. Mazkur usulda ma’lum bir mavzu yoki bo‘limlar yakunida o‘tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda talabalar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo‘yicha mustaqil izlanib, materiallar to‘playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib taqdimot qiladi. Masalan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqdimot darsi o‘tkazilganda o‘quvchilarni avvaldan guruhlarga bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha taqdimot qilish topshiriladi:

1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.

2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring.

3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini “Kungaboqar” usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo‘nalishlar bo‘yicha darslik va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib ma’lumot to‘playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

“Taqdimot” darslari orqali talabalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;

– axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma’lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma’lumotlar bazasini yarata olish;

Xulosa. Boshqa fanlar qatori o‘zbek tili fanini rusiyzabon guruhlarda o‘qitishda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan natijali foydalanish orqali, dars jarayonini qiziqarli tashkil qilib qo‘ymasdan, talabalar faolligini oshirish, ular tomonidan egallanadigan bilim, malaka, ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda ijodiy, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish orqali darsning o‘z maqsadiga to‘liq etishini ta’minlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Rafiyev A., G’ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb - hunar kollejlari uchun darslik). T. ,“Sharq”, 2013.

2. Erkaboyeva N.Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro’z”, 2018.

3. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012.

4. “Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018. 5. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada interfaol usullardan foydalanib o‘zbek tili fanini rusiyzabon guruhlarda o‘qitish usullari haqida batafsil yoritilgan bo‘lib, har xil zamonaviy metodlar va interfaol usullardan namunalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно описаны методы преподавания узбекского языка в русскоязычных группах с использованием интерактивных методов, а также приведены примеры различных современных методов и интерактивных методов.

SUMMARY

This article describes in detail the methods of teaching the Uzbek language in Russian-speaking groups using interactive methods, and also provides examples of various modern methods and interactive methods.

TIL VA TAFAKKUR HAM ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI

Muxanova M.G.
Toshkent davlat agrar universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: til, tafakkur, nutq, nutqiy faoliyat, til materiali, til unsurlari, umumiylik, xususiylik, og'zali nutq, yozma nutq.

Ключевые слова: язык, мышление, речь, речевая деятельность, языковой материал, языковые элементы, общность, специфика, устная речь, письменная речь.

Key words: language, thinking, speech, speech activity, language material, language elements, generality, specificity, oral speech, written speech.

O'zbek tili "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda har tomonlama topgan intelletual salohiyati yuqori bo'lgan yoshlarnitarbiyalash asosiy vazifa qilib belgilangan. Ayniqsa, oliy ta'lim talabalarining ma'naviy dunyoqarashini o'stirishga alohida e'tibor berilmoqda. Boisi, mamlakat taraqqiyoti bugungi avlodning komillik darajasi bilan belgilanadi.Bu o'rinda , Prezident SH.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini eslaymiz: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchunmilliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik , buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini , cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munisonalarimizning allalarini ,ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin". Ma'lumki, til o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, o'zining ichki qonunlariga binoan asta-sekin,yildan yilga,asrdan asrga o'zgarib, boyib, takomillashib boradi.Bu qonuniyatni inkor qilish milliy tillar ravnaqiga jiddiy putur yetkazadi. Sobiq ittifoq davrida milliy tilimiz – o'zbek tili juda ko'p o'zgarishlarni , "po'rtanalarni"boshdan kechirdi.Milliy tillarning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinmadi. Natijada milliy tillarga juda katta zarar yetkazildi. Bunga ishonch hosil qilish uchun birgina o'zbek tilining

boshiga tushgan “kulfat”larni sanab o’tishning o’zi kifoya. Birgina alifboning o’zi bir necha marotaba almashtirildi…

Til uchun kurash, bu faqat tilning ichki hayotiga tegishli qoida, yo’nalish va tartiblar uchun ,ularning aniqligi, tiniqligi, asoslanganligi uchun kurash emas. Til uchun kurash, bu- ayni vaqtda tilning jamiyatdagi o’rni uchun ham kurashdir. Shuning uchun bo’lsa, kerak, mustaqillik shabadalari esayotgan bir paytda o’zbek tiliga davlat tili maqomini berish kun tartibiga qo’yilgan eng muhim masala bo’lib qoldi. 1989 yil 21 sentyabrda “Ozbek tiliga davlat maqomini berish haqida”gi qonun qabul qilindi. Shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz.

Mustaqillik sharofati bilan o’zbek tili – davlat tiliga e’tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O’zbek tilining taraqqiyot va istiqboli to’g’risida g’amxo’rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1993 yil 2 sentyabrda “Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini joriy etishto’g’risida “ Qonun qabul qilinishi Vatanimizning ma’naviy-ma’rifiy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi.Yangi alifboga kiritilgan o’zgartirishlar asosida “O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ishlab chiqildi va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi. Davr taqozosi bilan “Davlat tili haqida”gi Qonunga ham o’zgartishlar kiritildi. 1995-yilning 21-dekabrida O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Davlat tili haqida”gi Qonuni e’lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo’lib, uning birinchi moddasida “Ozbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir”,deb yozib qo’yilgan. Davlat tilini o’rganish ,unga amal qilish tabiiy ehtiyoj va zaruratga,hatto, anglangan majburiyatga aylanib bormoqda. O’zbek tilida to‘g’ri, ifodali so’zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to’g’risida tinmay g’amxo’rlik qilish, uning iste’mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi. Xususan, har bir yosh va o’quvchi-talaba o’z ona tilidagi so’z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o’rinli foydalanishga doimo harakat qilishi lozim.

So’z fikr qurolidir, kishi qanchalik ko’p so’z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo’ladi. Yoshlarga ta’lim berishdan asosiy maqsad, barkamol avlod ongida fan asolarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e’tiqodli qilib o’stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashish ruhida tarbiyalash, egallagan bilim va ko’nikmalarini hayotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu jihatdan, ayniqsa, ona tili va adabiyot darslari yosh avlodni jamiyatimiz olg’a surayotgan yuksak g’oyalar ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

“O’qituvchi, ayniqsa, o’zbek tili va adabiyoti muallimi o’zining kelajak avlodni tarbiyalashda mas’ul ekanini yodidan chiqarmasligi kerak. O’qish va o’qitishning eng ilg’or shakllari va mazmuni, bizningcha, eng avvalo, adabiyot darslarida amalga oshmog’i lozim. Buning uchun esa birinchi navbatda, o’qituvchining o’zi darsda har bir mazmuni yangicha his etish quvvatiga ega bo’lmog’i, o’quvchisiga zamonaviy talablar darajasida tushuncha bermog’i lozim”.

Til va tafakkurning o’zaro munosabati tilshunosligimizdagi eng asosiy muammolardan biridir. Ma’lumki, til bo’lmasa, jamiyat a’zolari orasida ijtimoiy aloqa va munosabat ham, shu odamlar yashaydigan jamiyatning o’zi ham bo’lmas edi. Biz til vositasidagina bir-birimizning fikrimizni anglaymiz, kundalik ishlarimizni olib boramiz, narsa va hodisalarning mohiyatini chuqurroq bilib olamiz. Bu jarayon faqat tafakkur yordamidagina amalga oshiriladi.Inson hayoti tafakkursiz keshishi mumkin emas. U biror faoliyatni amalga oshirish uchun, avvalo, bu haqda fikr yuritadi.Buyum va hodisalarning muhim xususiyatlari, ular o’rtasidagi sababiy bog’lanish hamda qonuniy aloqalarni bilib oladi. Demak, til tafakkur bilan chambarchas bog’liq bo’lib, fikrni moddiylashtiradigan, reallashtiradigan, kishilarning fikr almashinishlarini ta’minlab beradigan quroldir. Til va tafakkur aynanbir hodisa emas.Tafakkur zohiriy olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalangan in’ikosi. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni qayd etib boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasi. Boshqacha ayniqsa, til- tafakkurning borliq shakli.

Til va nutqni bir-biridan farqlash lozim. Til so’zlash vositasi, ya’ni nutq sifatida namoyon bo’lgandagina ma’lum vazifani bajaradi.nutq til materiali, unsurlaridan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Demak, til materiallari faoliyat uchun xizmat qiladi. Til bilan nutqni qiyoslash orqali ularning quyidagi o’ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

1.Til aloqa materiali bo’lsa, nutq aloqa shaklidir.

2.Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

3.Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog’liq holda uzoq bo’ladi, nutqning hayoti esa qisqa,xususan, og’zaki nutq so’zlangan paytdagina mavjuddir. Ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin.

4.Til nisbatan turg’un, barqaror bo’lsa, nutq doimo harakatda bo’lib, o’zgaruvchan hodisa sanaladi.

5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog , monolog, matn shaklida bo’lishi mumkin.

Demak, til bilan nutq umumiylik va xususiylik xususiyatlariga ega bo’lib, til nutqda yashaydi, nutq tilning namoyon bo’lishidir. Tilning ijtimoiy

vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlash, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutqiy faoliyat kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashtirishi, nutqiy aloqaga kirishishlari-dir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: o'g'zaki va yozma tarzda.

Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo qiladi.

Yozma nutq yozuv ta'sirida paydo bo'lgan nutq shaklidir. Nutqning bu shakli adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shakldagi nutq shaklidir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasida bevosita aloqa vositasi emas, u boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir.

Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishi mumkin. Nutqning bu shakllari turli ko'rinishilarda namoyon bo'ladi. Nutq ayrim shaxslarga tegishli bo'lishi (monologik), ikki kishi o'rtasida yuz berishi (dialogik) va bir necha shaxslar o'rtasida bo'lishi (polilogik) mumkin. Nutq ko'rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy-ta'siriy vositalari bilan farqlanadi.yozma nutq uslubiy turlari (ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy) bilan o'ziga xos nutq ko'rinishlarini yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Rasulov R.,Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: Fn va texnologiya, 2006.

2. Rafiyev A.,G. Qurbonova. O'zbek tili . (Ttibbiyot mutaxassislari uchun) O'quv qo'llanma . Toshkent:2008.

3. Qo'chqortoyev I.,Rafiyev A. Kundalik muloqot so'zlashgichi. Разговорник повседневного общения. Toshkent.O'zbekiston. 1995.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada til va tafakkurning o'zaro munosabati, nutq jarayonidagi o'rni, yutuq va kamchiliklari haqida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается взаимосвязь языка и мышления, его роль в речевом процессе, его достижения и недостатки.

SUMMARY

This article discusses the relationship between language and thought, its role in the speech process, its achievements and shortcomings.

ZAMONAVIY XORILIY TIL O'QITISH MUAMMOLARI

Ruzmetova D.A.
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti xorijiy filologiya kafedrasi (PhD) dotsenti v.b.

Tayanch so'zlar: ta'lim mazmuni, metodik tayyorlash, o'rgatish – o'rganish bosqichlari, kommunikativ kompetentsiya, mashqlar sistemasi, kommunikativ – kognitiv metod.

Ключевые слова: содержание обучения, методическая подготовка (методическая организация), стадии обучения и изучения, коммуникативная компетенция, система упражнений, коммуникативный – когнитивный метод.

Key words: content of teaching, methodological preparing, stages of teaching and learning, communicative competence, the system of exercises, communicative and cognitive method.

O'zbekiston aholisining intelektual salohiyatini yuksaltirishda chet tillarni o'qitish alohida ahamiyatga molikdir. Zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayorlash uchun esa ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish metodikasini xalqaro standartlar doirasida ishlab chiqish zaruratini yuzaga chiqardi. Ta'lim mazmuni masalasi har qanday o'quv predmetini o'rgatish metodikasida eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Chunki, ushbu sohada nimani o'rgatamiz, degan savolga javob izlanadi. Bu esa, o'z navbatida ta'lim maqsadlari oddiy qilib aytganda nima uchun o'rgatamiz, savoliga javob bo'ladi. Bu ikki lingvodidaktik muammoni hal qilish orqali qanday qilib o'rgatamiz (ta'lim metodlari) degan nazariy va amaliy ahamiyatga molik lingvodidaktik tushunchaga oydinlik kiritish mumkin bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, chet til o'qitish mazmuni o'ta muhim metodologik masala hisoblanadi.

Amaliyot, ma'lumki, faoliyat, jarayon bilan bog'liq tushuncha, buni chet tilga tatbiq etilganda, o'rganilayotgan tilda nutq faoliyati turlarini egallash jarayoni tushuniladi. Nazariya esa fan-texnika sohasidagi bilimlar majmuidan iborat. Demak, chet til o'qitish nazariyasi u yoki bu begona tilni o'rgatish/o'rganish amaliyotidan umumlashtirilgan qoida, qonuniyat, soddaroq aytganda, xorijiy tilni egallashga oid mavhumot (bilim)lar yig'indisidan iborat. Til o'rganish deganda nimani tushunamiz? Ushbu masalada mutaxassislar orasida turli

qarashlar va noto‘g‘ri talqin etishlar kuzatiladi. Masalan, ikkinchi til degan termin ayrim tilshunoslarimizda noto‘g‘ri munosabat uyg‘otmoqda, ya’ni bir paytlardagi ikkinchi ona tilimiz degan psevdoilmiy, yaqin tariximizda bo‘lgan hodisani tushunishmoqda. Aslida, hech qaysi shaxs yoki millatning ikkinchi ona tili bo‘lmaydi. Ikkinchi va chet tillar esa birdan ortiq bo‘lishi mumkin [4].

Tilni nutq faoliyati sifatida egallash chog’ida psixologiyaning, yanada aniqrog’i psixolingvistikaning nutqiy faoliyat nazariyasi, ya’ni nutqning sodir bo’lishi va idrok etilishi qonuniyatlari asosida ish olib boriladi, tilni o’qitish nazariyasi esa pedagogik psixologiya, didaktika, lingvodidaktika va, muayyan darajada, lingvistika ma’lumotlariga suyanadi.

Mazkur fanlarning ilmiy yutuqlari asosida chet til o’qitish metodikasi fan sifatida shakllanadi. Chet til o’qitish metodikasining tarixi, nazariyasi va amaliyoti tadqiqot ob’ekti bo’lishi mumkin. Metodika tarixi retrospektiv aspektda o’rganiladi, ya’ni hozirgacha o’tgan turli bosqichlarida qanday metodlardan foydalanilganligi ko’rib chiqiladi. Jahon miqyosida chet tilni asosan uch yo’nalishda o’rgatib kelingan va shartli holda ularni quyidagicha nomlashadi: 1. To’g’ri metodik yondashuv (natural metod – M.Val`ter, M.Berlits, F.Guen; to’g’ri metod – V.Fietor, O.Espersen; og’zaki metod – H.Palmer; audiovizual metod – K.Guberina, P.Rivan, R.Mishea, J.Gugeneym; audiolingval metod – Ch.K.Friz, R.Lado va b.). 2. Ongli metodik yondashuv (grammatika-tarjima metodi – V.Humboldt, K.D.Ushinskiy va b.; ongli-amaliy metod – B.V.Belyaev; ongli-qiyosiy metod – L.V.Shcherba, I.V.Raxmanov, V.D.Arakin, A.A.Mirolyubov va b.). 3. Faoliyatga mo’ljallangan metodik yondashuv (aralash metodlar: o’qishni o’rgatish metodi – M.Uest; kommunikativ metod – E.I.Passov; intensiv metodlar: suggestopediya – G.Lozanov; shaxs va jamoa imkoniyatlarini ishga solish – K.A.Kitaygorodskaya; katta yoshdagilarga og’zaki nutqni jadal o’rgatish metodi – L.Sh.Gegechkori va b.).

Har uchala yondashuvda nutq faoliyatini (malakani) egallash va til materialini o’zlashtirish tartiboti turlicha kechadi. Ularning barchasi chet til o’rgatish amaliyotida aralash-quralash tarzda qo’llanib kelinmoqda. Shu bilan birga, o’tgan asrning oxirgi choragida jahon chet til o’qitish nazariyasida kommunikativ-kognitiv metodikaning ilmiy asoslari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Kommunikativ-kognitiv metodikaning asosiy g’oyalari lingvistikadan olingan va psixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik ma’lumotlariga tayanadi. Shu munosabat bilan, kommunikatsiya bir paytning o’zida, ham jarayon, ham natija hisoblanadi. Metod nomidagi “kognitiv” qismiga ko’ra til o’rganuvchi ushbu tilda yangi axborot olishi nazarda tutiladi. Chet til o’rganish madaniyatlararo muloqot maqomini oladi: talabalar tili o’rganilayotgan xalq (mamlakat)larning keng ma’nodagi madaniyati haqida muhim axborot oladilar.

Oliy ta’limni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichi mazmun, tuzilma, natija-maqsadli asos, shakllardagi o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi, bu esa chet tillarini o‘qitish konsepsiyasini tubdan o‘zgartiradi. Bu fakt chet til ta’limining asosiy metodologik tamoyillaridan biri bo‘lgan kognitiv-kommunikativ yondashuv hodisasiga e’tibor qaratishga imkon beradi. Rus tiliga tarjima qilingan «kognitiv» atamasi “bilish” degan ma’noni anglatadi. Chet tillarni o‘qitishda u o‘qitishda onglilik tamoyiliga tayanadi. Kognitiv ko’nikmalar - bu bilim jarayoni bo’lib, uning davomida olingan ma’lumotni idrok etish, anglash, uni keyinchalik o’zlashtirish va bilimga aylantirish, kasbiy sohada va muloqotda olingan bilim va ko’nikmalardan keyingi foydalanishni amalga oshiradi.

To’g’ri o’qitish bilan kognitiv xorijiy til ko’nikmalarini yaxshilash, jarayonning samaradorligini oshirish mumkin. Agar kognitiv qobiliyatlar zaif bo’lsa, ularni kerakli maxsus texnika yordamida mustahkamlash mumkin. Kognitiv ko’nikmalarni shakllantirish nutq faoliyatining barcha turlarining kommunikativ mohiyatidir: ijtimoiy va maxsus lug’at, grammatik qoidalar va til formulalarini o’zlashtirgan holda gapirish, o’qish, tinglash, yozish. Til tizimini nutq orqali izchil maqsadli o’rgatish o’z tilingizni o’rganish imkonini beradi. Zero, aynan nutqda, ya’ni lug‘atda ma’nolar qo‘yiladi, uning yordamida va ular asosida odamlar bir-biri bilan muloqot qiladi. Chet tili o‘qituvchisi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning maxsus atamalarni, kundalik va ijtimoiy lug‘atni, grammatik va stilistik materialni, o‘quv dasturiga muvofiq mashqlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishini ta’minlashi shart.

Mazkur metodik nazariya turli darajada ishlab chiqilgan. Masalan, kommunikativ metodika nazariyotchilari asarlarida (rus tilida [10] E.I.Passov; Yu.N.Abdullaev, A.M.Bushuy; A.N.Shukin; M.A.Abdullaeva; ingliz tilida [2] C.Brumfit) chet tilda faqat nutqiy muloqot jarayoniga e’tibor qaratiladi. Kognitiv nazariya esa metodik aspektda hali etarlicha asoslab berilgan emas. Biroq ayrim o’quv qo’llanmalari [3] kommunikativ-kognitiv metodika g’oyalari asosida tuzilganligini ta’kidlash joizdir. Nazariya va amaliyotning birligi ta’minanmaganligi oqibatida chet til o’qituvchilari nazariy jihatdan kommunikativ-kognitiv metodikadan xabardor bo’lishsa-da, ular qo’llaydigan darslik va qo’llanmalar bu metodikaga asoslangan emas. Yana bir muhim muammo shundan iboratki, aksariyat darsliklar mualliflari tilning kognitiv jihatini mamlakatshunoslik materiallari sifatida taqdim etishmoqda. Aslida esa til haqidagi (lingvomamlakatshunoslikka oid) ma’lumotlar ham qo’shimcha berilishi talab etiladi. Masalan, grammatik qoidalar, so’z yasalishi haqida tushunchalar va h.k.z.

Chet tilda oliy ma’lumotli pedagog – o‘qituvchi ixtisosiy (lisoniy, lingvistik, kommunikativ, lingvokulturologik) va kasbiy (til o‘rgatuvchilik)

kabi kompetensiyalar sohibi bo‘lmog‘i darkor. Kompetensiya – “competence” atamasini amerikalik tilshunos olim N. Chomsky [1] ilmiy muomalaga kiritgan, o‘zbekchada u turli atamalar bilan qo‘llab kelingan layoqat (J. J. Jalolov), omilkorlik (T.Sattorov), maxorat (pedagogika va lingvistikada O’.Yusupov) malaka (psixologiyada).



1.1-rasm. Kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi omillar

Kasbiy kompetensiya deganda o‘qituvchi uchun o‘zgalarga muayyan sohani, bizning xolatda chet tilni o‘rgatishga qodirlilik tushuniladi. Boshqacha aytganda, bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda o‘zi uchun o‘rgangan tilni o‘zgalarga o‘rgatish sharoitiga moslashtirish demakdir. Chet til muallimidan asosan to‘rt sohani bilish talab etiladi: (1) tildan amalda foydalanish (nutq faoliyati turlarida muloqot qila olish), ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv malakalariga ega bo‘lish; (2) mazkur tilga oid nazariy fanlardan bilimlarni o‘zlashtirish; (3) chet til o‘qitish metodikasini nazariy va amaliy jihatdan egallash va nihoyat, pedagogika va psixologiya fanlaridan yetarli va zaruriy ma’lumotlarga ega bo‘lish va ularni chet til ta’lim jarayoniga tatbiq etish. Xorijiy tillarni o’qitish uchun ajratilgan akademik soatlar sonini cheklanganligi xorijiy tillarni yaxshi biladigan mutaxassis-o’qituvchilarga bo’lgan talabning oshib borishi iqtisodiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarga xorijiy tildagi ilmiy so’z va iboralarni o’qitish usulini takomillashtirishni dolzarb mavzuga aylantirdi. Xorijiy tillarni o’zlashtirish talabalarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi eng ahamiyatli ishlardan hisoblanadi, chunki xorijiy tilni o’rganish, bilim egallash va aqliy qobiliyatni faollashtirish demakdir. Kasbiy mahoratning ajralmas qismi bo’lgan xorijiy tillarni egallash orqali egallangan bilim va ko’nikmalar talabalarning kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa qilish mumkinki, kasbga yo'naltirilgan va xorijiy til o'qitiladigan fakultetlarda o'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil etish va xususan, ingliz tilidagi terminlar, so'z va iboralarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq yillar mobaynida xorijiy tilni egallashning asosiy mezoni grammatika bo'lib, buning natijasida yangi so'z va iboralarga (leksikaga) nisbatan oddiy birliklar deb qaralgan va ular vaqti kelganda o'rganuvchi tomonidan o'zlashtirilgan strukturalar o'rnini tildagi boshqa so'zlar egallaydi, deb ishonishgan. So'zlashuvchilarda til to'sig'i yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan leksik xatoliklar ko'payib borib, chet tilni o'rganayotgan o'rganuvchilar so'z boyligi yetishmovchiligidan shikoyat qilishlariga qaramasdan xorijiy tillarni o'qitishda ayni shunday yondashuv hukmronlik qilib kelgan. "So'z yetishmasligi" muammosi va ingliz tilida fikr-mulohazalarni to'g'ri shakllantirilishga ishonchsizlik eng tajribali o'qituvchilarga ham tanish muammo. O'qitiladigan tilning lug'at boyligini yetarli darajada bilmaslik, o'z nutqini yetarli darajada ifodalay olmaslik oliy ta'lim muassasalarida chet tilni o'qitishda yuzaga keladigan asosiy muammo sanaladi [].

Bo'lajak pedagoglar ingliz tili mashg'ulotlarida ilmiy lug'atlarni o'zlashtirishlari chet tilni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi. Qabul qilingan o'quv standartlariga binoan, bo'lajak iqtisodichilar, birinchi kursning o'zidayoq so'z va iboralar bilan bosqichma-bosqich tanishib borib, muntazam ravishda ilmiy nutqiy savodxonlikka oid matnlarni o'qib, ikkinchi kursning oxiriga borib esa, ingliz tilida o'z fikr-mulohazalarini erkin va ravon ifoda etishi va kasbiy faoliyati bilan bog'liq mavzularda bemalol suhbat qurishlari kerak. Bo'lajak pedagoglarga qoida bo'yicha, ingliz tili uchun ajratilgan dars soatlarini kamligidan, ingliz tilida kasbiy muloqot qilishlari uchun kerakli terminlar, so'z va iboralarni yetarli darajada bilmasligidan, kam lug'at zahirasiga egaligidan (faol va nofaol lug'at boyligi), ingliz tilida o'z fikrini teran va ravon ifodalay olmasligidan va nutq ifoda etish jarayonining murakkablashuvidan shikoyat qiladi. Ingliz tilida mutaxassislikka oid darsda qo'llanishi mumkin bo'lgan qiziqarli va ma'lumot beruvchi matnlarning yo'qligi ham shikoyatlarga sababchi bo'ladi.

Tilda yuritiladigan nutq uch funksiyani bajarishi bu psixolingvistika malumotlaridan malum (A.A. Leontev) [4]: nominativ, kommunikativ va kumulyativ. Nominativ nutq - voqelikdagi ob'ekt (predmet va xodisa)larning nomlarini atash bilan chegaralanadi. Ma'lum bir sohaga tegishli potensial leksikani kommunikativ-kumulyativ metod orqali o'rgatish ensiklopedist olim J. J. Jalolov [2] tomonidan ilmiy-istemolga kiritilgan bo'lib, muallif bunda amerikalik olim E. Sepirning "Til – madaniyat ko'zgusidir" degan fikriga asoslanadi. "Kommunikativ nutq – axborot almashish (uzatish, olish)ni ifodalaydi.

Kumulyativ nutq deganda, o‘rganilayotgan tilda to‘plangan tom ma’nodagi madaniyatga oid bilimlar majmuidan iborat nutqiy jarayon va hosila tushuniladi. Madaniyatlararo muloqot ayni kumulyativ nutq orqali ro‘yobga chiqariladi” [6].

nominativ	kommunikativ	kumulyativ
• voqelikdagi ob’ekt (predmet va xodisa)larning nomlarini atash bilan chegaralanadi.	• Kommunikativ nutq – axborot almashish (uzatish, olish)ni ifodalaydi.	• o‘rganilayotgan tilda to‘plangan madaniyatga oid bilimlar majmuidan iborat nutqiy jarayon va hosila tushuniladi.

“Kommunikativ xulq-atvor” termini ilk bora I. A. Sternin [3] tomonidan muomalaga kiritilgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, u yoki bu xalqning umumlashgan holda tasvirlanadigan muloqot xususiyatlari ushbu xalqning kommunikativ xulq-atvoridir. Bu ta’rif shunisi bilan diqqatga sazovorki, u ayni paytda komunikativ ong tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Biz kommunikativ ong tushunchasiga gapirish, o‘qish, yozish, tinglash va tarjima qilish kabi muhim jihatlar bilan birga, chet tilni bilish va egallash omillaridan biri sifatida qaraymiz. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, umumiy ma’noda kommunikativ xulq-atvor u yoki bu xalqning muloqot qilish me’yorlari va an’analarining yig‘indisidir.

Kommunikativ xulq-atvor masalasiga to‘xtalib o‘tishimiz yana shunisi bilan ahamiyatliki, bugungi kunda millatlararo munosabatlar tez rivojlanmoqda, bu esa ko‘plab holatlarni umumlashtirishni talab qiladi. Shuningdek, qiyosiy va madaniyatlararo tadqiqotlar ko‘lami kengaygan bo‘lib, bu madaniyatlararo aloqalarda ba’zi jihatlarni kengroq yoritishni talab qilmoqda. Shu o‘rinda I. A. Sternin [3] tadqiqotlaridagi qiziqarli ta’kidni keltirib o‘tish joiz. Guruhiy me’yorlar ma’lum kasbiy, gender, ijtimoiy va yosh guruhlari uchun madaniyat tomonidan belgilab qo‘yilgan muloqot xususiyatlarini aks ettiradi. Erkaklar, ayollar, pedagoglar, yuristlar, shifokorlar, bolalar, ota-onalar, “gumanitarlar”, “texnarlar” va h.k.larning kommunikativ xulq-atvorida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud.

Yuqorida keltirilganlar asosida ta’kidlash mumkinki, kommunikativ xulq-atvor faqat xushmuomalalik, qat’iy shakllangan muloqotnigina emas, balki real kommunikativ amaliyotni ham ifodalaydi. Kommunikativ xulq-atvor tarkibiy qism sifatida nutq madaniyatini ham o‘z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya to‘g‘risidagi keyingi ta’riflarida, Sandra J. Savignon [4] quyidagi jihatlarini ta’kidlaydi:

1. Kommunikativ kompetensiya faqat og‘zaki nutqni o‘z ichiga olmasligi kerak. Bunga ham yozma, ham og‘zaki nutq tegishli.

2. Kommunikativ savodxonlik matnga asoslangan bo‘lib, muayyan nutq holati yoki matn mazmunida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ jihatdan savodli kishi har doim muayyan holatda qanday muloqot usulini tanlashni bila oladi.

3. Har doim savodxonlik va uning namoyish qilinishi kabi nazariy tushunchalarning farqini anglash muhim. Savignonning fikricha, “Savodxonlik bu kimdir biladigan narsa bo‘lsa, uning namoyon qilinishi esa birovning amaliy harakatini anglatadi”.

4. Kommunikativ kompetensiya nisbiy bo‘lib, muloqotga kirishgan tomonlarning o‘zaro hamkorligiga bog‘liqdir.

Shuni aytish joizki, kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi - ta’lim oluvchilarga ularning bo‘lajak kasbiy faoliyati uchun shaxs sifatlarini, shuningdek vazifasi bo‘yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantira oladigan texnologiyalar deb izohlanadi.

Navbatdagi metodik muammo shundan iboratki, grammatik qoida berishda muallif-metodistlar katta xatoga yo’l qo’yishmoqda, ya’ni nazariy va normativ grammatikadagi bilimlarni bayon etishmoqda. Bu, albatta, kommunikativ-kognitiv metodikaga zid uslubiy yondashishdir. Chet tilni amaliy o’rgatish/ o’rganish jarayonida asosan algoritmik qoidalar (V.S.Tsetlin ta’rifida: operativ qoidalar) qo’l keladi. Kommunikativ-kognitiv metodikaga binoan chet til o’qitishda quyidagi masalalarni hal etishni tavsiya etamiz: 1. Vashington va Sidney metodik maktablarida ishlab chiqilgan “janr yondashuvi”ga yuqori bosqichlarda e’tiborni kuchaytirish. 2. Til materialiga oid lisoniy qoidalarning metodik chegaralash (grading); 3. Turli o’quv yurtlarida o’tkaziladigan korrektiv kurslar xususiyatini farqlash [8].

Xulosa o’rnida quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik: 1) har qanday ta’lim jarayoni u yoki bu ta’lim mazmunini o’rgatishni taqozo etadi. Yuqorida biz taklif qilgan ta’lim mazmunini eng so’nggi innovatsion g’oya sifatida maqbul ko’rdik; 2) o’rgatilmish ta’lim mazmunida verbal va noverbal vositalarni farqlasa, ularni madaniyatlararo muloqot nazariyasiga bo’ysundirish va chet til o’quv predmeti yordamida kognizant (til vositasida madaniyatlararo bilim sohibi)ni shakllantirishga erishiladi; 3)o’qitish mazmunini tayyorlash va amalda tatbiq etish Evropa ittifoqi ishlab chiqqan CEFR ma’lumotlaridan foydalanish ham o’rinli deb o’ylaymiz.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ю.Н., Бушуй А.М. Коммуникативная методика обучения иностранным языкам и зарубежный педагогический опыт. – Самарканд: СамГИИЯ, 2001. – 131 с.

2. Adilbekovna R. D. Challenges in Teaching English as a Specific Purpose //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 93-97.

3. Jalolov J.J. English: 10-sinf. –T.: “O’qituvchi” NMTU, 2005. – 328 b.; Jalolov J.J. English: 11-sinf. – T.: “O’qituvchi” NMTU, 2005. – 328 b.

4. Jalolov J., Ikramov J. Matn mutolaasi didaktikasi//j. Xalq ta’limi.–1993.–1-son.–B.14-19.

5. Jack C.Richards and Theodore S.Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching: Third Edition.: 2014. 270 – P.

6. Jalolov J.J., Umirzaqov T.B., Umirzaqova Sh.G‘., Umirzaqov Q.T. English for specific purposes: O‘quv qo’llanma. – Andijon: 2012. –Б. 312.

7. Ruzmetova D.A. Matn mutolaasi savodxonlikni oshirish omilidir // Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari.–Тошкент, 2021. – №10. –Б. 38-44.

8. Икромхонова Ф.И. Инглиз тилидан коммуникатив–когнитив корректив курс назарияси ва амалиёти (нолисоний олий ўқув юртлари мисолида). П.ф.н. Дисс. ... –Т: 2012. –Б.156.

9. Maksudova, G. O., Ilkhamova, I. N., Ruzmetova, D. A., Mamadzhanova, N. A., & Allamuratov, G.A. (2022). Research of Modern Technologies of Education. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2483-2485.

10. Пассов Е.И. Программа - концепция коммуникативного иноязычного образования. –М.: Просвещение, 2000. – 174 с.;

РЕЗЮМЕ

Maqola chet til o’quv predmeti mazmunining tarkibiy qismlarini qayta ko’rib chiqish va amaliyotga uni tatbiq etishning zamonaviy muammolarini hal etishga bag’ishlanadi.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящается установлению составляющих содержания обучения иностранному языку и практике обучения в рамках современных учебных образовательных технологии.

SUMMARY

The article is dedicated to solve the problems of establishing constituents of content of teaching foreign languages and to work out modern technologies of practical learning the prepared content of teaching.

O‘ZBEK TILIDA TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARINING MILLIY-MADANIY BELGISIGA ASOSLANGAN VERBAL ASSOTSIATSIYALASHUVINI O‘RGATISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Muratova N.B.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: ekspressiv leksemalar, assotsiatsiya, assotsiativ tilshunoslik, verbal assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, psixologik assotsiatsiya, emotsianal leksemalar, leksema, lisoniy birliklar, tilak va tabrik nutqiy akti, ekstralingvistik va paralingvistik vositalar, ko`chma ma’noli so`zlar, nutqiy muloqot, verbal va noverbal vositalar.

Ключевые слова: экспрессивные лексемы, ассоциации, ассоциативная лингвистика, речевая ассоциация, ассоциативная связь, психологическая ассоциация, эмоциональные лексемы, лексемы, языковые единицы, речевой акт пожелания и приветствия, экстралингвистические и паралингвистические средства, образные слова, речевое общение, вербальные и невербальные средства.

Key words: expressive lexemes, association, associative linguistics, verbal association, associative relationship, psychological association, emotional lexemes, lexeme, linguistic units, speech act of wish and greeting, extralinguistic and paralinguistic tools, figurative words, speech communication, verbal and non-verbal means.

“Assotsiativ tilshunoslikning tadqiq ob’yekti assotsiativ tafakkur hosilalari bo‘lmish assotsiatsiyalardir, uning ilmiy-nazariy asosini assotsiativ munosabat nazariyasi tashkil etadi. Inson psixologik tasavvuri bilan bog‘liq holda til birliklari munosabatida kuzatiluvchi assotsiativ munosabat mazkur tilshunoslik yo‘nalishining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi”. Darhaqiqat, til birliklarining inson psixologik tasavvuri bilan bog‘liq tarzda bir-biri bilan bu tarzda munosabatga kirishuvi assotsiativ munosabat deyiladi. Tilshunos A. Nurmonov takidlaganidek “Lisoniy birliklar nutq jarayonidan tashqarida o‘zaro qandaydir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlarga birlashib turadi”. Masalan, Tug‘ilgan kun so‘zi ongda to‘rt, shamlar, tabrik, sovg‘alar kabi bir qancha so‘zlar

bilan bog‘lanib turadi. Ba‘zan tilshunoslar assotsiativ munosabat va paradigmatik munosabat terminlarining muqobil holatda qo‘llanishi kuzatiladi.

Verbal assotsiatsiyada , tilda aniq o‘zining ifodasiga ega bo‘lgan so‘zlar mavjud bo‘ladi va ushbu so‘zlar bir-birini yodga soluvchi voqelik, narsa-predmet va hokazolarda aks etadi. Darhaqiqat, lingvistik assotsiatsiya psixologik assotsiatsiyadan tubdan farq qiladi. Lingvistik assotsiatsiyada tilda aniq verbal ifodasiga ega bo‘lgan va bir-birini yodga solib turuvchi ikki va undan ortiq voqelik, narsa-predmet, belgi, harakat-holat va hokazolar aloqasi aks etsa; psixologik assotsiatsiya inson ongida yuzaga kelgan bir-birini kuzatib yuruvchi psixik elementlar (g‘oyalar, fikrlar, tasavvurlar, his-tuyg‘u va boshqalar) munosabatini ifoda etadi. Masalan: “baxtli” deyilganda, o‘tkazilgan kichik tajribalarda shu ma`lum bo‘ldiki, xotiramizga oila, farzand, umr yo‘ldosh, ota-ona, yaxshi ish, uy, moshina kabi assotsiativ birliklar namoyon bo‘ladi. Psixologik assotsiatsiyada esa insonning ongida yuzaga kelgan tasavvurlar, g‘oyalar, fikrlar o‘z ifodasini topadi. Buni ham yuqorida “baxt” so‘zi misolida ko‘rib chiqamiz. Baxt nomini eshitib, inson hayotining eng buyuk ne‘mati, baxtga hamma ham erisha olmasligi, baxtli bo‘lish har bir insonning o‘z qo‘lida ekanligi, yoki baxt kimga borasan sochi paxmoq, qo‘li o‘xloqqa kabi iboralari ham gavdalanadi.

Assotsiativ tilshunoslikda tadqiqotlar olib borgan tilshunoslarning fikrlariga tayangan holda, assotsiatsiyalarni tasnifini tahlil qildik. Biz bu tasnif asosida emotsianal so‘zlarning verval assotsiatsiyalashuni o‘rgandik va shuni tadqiqotlardan ko‘rdikki, emotsianal leksemalar ham turli belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi. Yuqorida keltirilgan lingvistik omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalarni turlicha tasniflash mumkin: Quyida tilak va tabrik njutqiy aktlarining milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiyani tasnifladik. Tashqi olam va unda sodir bo‘layotgan rang-barang voqea-hodisalar, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, hissiy munosabatlarning verbal ifodasida leksik birliklar alohida o‘rin tutadi. Leksik birliklar semantikasida umuminsoniyatga yoki muayyan etnosga xos madaniyat belgilari ham aks etadi. Muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida ochib beriladi. Ayni shu birliklar tilning milliy-madaniylik belgisini yorqin namoyish eta oladi. Masalan, chaqaloq tug‘ilishi, chaqoloq tug‘ilganda ism qo‘yish, it ko‘ylak kiydirish, cho‘miltirish, soch olish, tirnoq olish, beshik to‘y, kokil olish, bir yoshga to‘lganda o‘tkaziladigan marosim, chaqoloqning tishi chiqishidan oldin, tishi chiqishi kechikkanda, sut tish tushgandagi amalga oshiriladigan irimlar , qilinadigan niyatlar, sunnat to‘y, sumka ko‘tardi, muchal to‘y, ikki yoshning turmush qurish to‘yi va bu jarayondagi ketma – ket amalga oshiriladigan marosimlar: non sidirish, fotiha, uztish, nikoh to‘yi, kampir o‘ldi, oyoq bosti, kuyovning chopanini tikish jarayoni, soch silatar,

ota yupatar, kelinsalom, yuzochar, chaqirdi, qurbonlik, soch oqarsin, yubiley to‘yi bundan tashqari milliy bayramlarimiz: Navro‘z, hayit kabi millilik, urf-odatlar aks etgan marosimlarni ko‘z oldimizga keltirganimizda bizda assotsiatsiya bo‘lishi tabiiy. Shu bilan birga, ematsianal so‘zlarning tafakkurimizda aks etishi ham har bir marosimda o‘ziga xos assotsiatsiya bo‘ladi. Bu jarayon esa, yakka ko‘rinishdagi yoki jamoaviy assatsiatsiya ham bo‘lishi mumkin.

Tilak va tabrik leksemalar ham milliy-madaniy belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi.

Tilak va tabrik leksemalarining milliy-madaniy belgisiga asoslangan verbal assotsiatsiyasi		
Marosim, urf - odat va milliy bayramlar nomi	Marasim haqida tushuncha	Emotsianal(tilak va tabrik) leksemalarning verbal assotsiatsiyalashuvi
Chaqaloq tug‘ilganda		Ota – onasi bilan bersin.
Chaqoloq tug‘ilganda ism qo‘yish	Har bir inson dunyoga kelgandan so‘ng domla yoki oilaning, urug‘ning nuroniy kishisi tomonidan qulog‘iga azon aytiladi va ismi aytiladi.	Otida qarisin, ismi jismiga mos inson bo‘lsin.
Ko‘ylak kiydirish	Chaqaloq tug‘ilganda unga loyiq qilib ko‘ylak tikiladi. Bu “It ko‘ylak” deyiladi. Uning etagi tikilmaydi, qaytarilmaydi.	Davomli bo‘lsin, ko‘ylaklarni ko‘pini to‘zdirsin. Orqasidan yana chaqaloqlar tug‘ilsin.
Cho‘miltirish	Bu marosimda suvga tuz(qiz chaqoloq bo‘lsa, uchta qo‘shnining uyidan olinadi, o‘g‘il chaqoloq bo‘lsa), tandirdan pishgan tuproq, pul, tanga, ba‘zi joylarda tilla taqinchoqlar tog‘oraga solinadi.	Tanasi tandir tuprog‘iday pishiq bo‘lsin, risqli bo‘lsin, qiz bo‘lsa, tiyuv bo‘lsin, o‘g‘il bo‘lsa, bir uydan tiyuv (ya’ni qiz bola tarbiyasiga qo‘shnilar ham mas’ulligiga ishora)
Soch olish		Olim bo‘lsin, aqli to‘la bo‘lsin.
Kokil olish	Bu marosim ancha yillar kutilgan farzandning sochi olinganda kokili qoldirilib, ziyoratgohga olib borilib, o‘sha yerda kokili olinadi.	Orqasidan yana farzandlar tug‘ilsin, umri uzoq bo‘lsin.

Tirnoq olish	Birinchi marta chaqoloqning tirnog‘i olinganda kitob ustiga olinadi. Ba’zi joylarda tirnoq olingandan so‘ng, barmoqlari Qur’onga tekkiziladi.	O‘qimishli bo‘lsin, olim bo‘lsin, iymonli bo‘lsin.
Beshik to‘y,	Chaqoloqni beshikka solish marosimi o‘ziga xos bo‘lib, nuroniy onaxonlar tomonidan o‘tkaziladi.	(O‘ng bo‘lsin – o‘ng bo‘lsin, egasi keldi,bapasi qochsin.) Beshigi qo‘risin Umri uzoq bo‘lsin,
Bir yoshga to‘lganda o‘tkaziladigan marosim	Bu marosim ham ba’zi hududlarda o‘tkazilib, shu kuni birinchi marta sochi olinadi (tojik millati vakillari)	Umri uzoq bo‘lsin, iymonli bo‘lsin aqli etran bo‘lsin
Chaqoloqning tishi chiqishidan oldin	Chaqaloqning tishi chiqishidan oldin qo‘zichoqning ustiga mindiriladi.	Tishi qo‘zichoq tishiday mayda, tekis, marjondek tizilgan bo‘lsin, qo‘zi tishidek chiroyli bo‘lsin.
Sut tishi chiqishi kechikkanda	Tishi chiqishi qiyin bo‘lganda, uchta qo‘shniga guruchdan tayyorlangan oq osh tarqatiladi.	Tishlaring guruchdek oq, tekis bo‘lsin, marjondek oq bo‘lsin.
Sut tish tushgandagi amalga oshiriladigan irimlarda	Sut tish tushganda ba’zi hududlarda tomga, ba’zi hududlarda mevali daraxt tagiga ko‘miladi.	Mevali daraxtday meva versin degan maqsadda, serfarzand bo‘lsin, tomga otganda ona tilaklarini aytadi.
Sunnat to‘y	o‘g‘il to‘y,)Musulmon dinining belgisi	Iymoni budun bo‘lsin. Ollohning sevgan bandasi bo‘lsin.
Sumka ko‘tardi (ba’zi hududlarda)	Birinchi marta maktabga borganda ba’zi oilalar tomonidan nishonlanadi.	Ilmi ziyoda bo‘lsin, o‘qimishli bo‘lsin.

Muchal to‘y	O‘n ikki yilni qamrab oluvchi, har bir yil bir hayvon nomi bilan ataluvchi, 22- martdan boshlanuvchi yil hisobi bo‘lib O‘n ikki yilda bir nishonlanadi. Birinchi marta muchali bo‘layotgan qizga oq yoki qizil ko‘ylak kiydiriladi.	Muchal to‘yingiz muborak bo‘lsin, umringiz uzoq bo‘lsin. Risqingiz davomli bo‘lsin.
Non sidirish	Qizni berishga rozilik bildirgan kun non sindiriladi.	Baxtli bo‘lsin, xayrli bo‘lsin.
Fotiha	Bu marosimda qiz va yigit unashtiriladi.	Baxtli bo‘lsin, xayrli bo‘lsin.
Uzatish	Qizning ota uyini tark etadigan kun o‘tkaziladigan marosimlar.	Borgan joyida toshdek qotsin. Qaynona – qaynotasiga xizmatkor bo‘lsin. Unib o‘ssin.
Nikoh to‘yi	Nikoh qiyilgandan so‘ng bo‘ladigan asosiy to‘y.	Qo‘shganing bilan qo‘sha qari, uvali – juvali bo‘l, serfarzand, serdavlat bo‘ling.
Kampir o‘ldi	Bu marosim uzatish jarayonida qilinadi. Nuroniy onaxon ko‘rpada uxlaydi va uni yangi kelinchak shirin so‘zlar bilan uyg‘otish kerak. Undan so‘ng joyidan turgan onaxon kelinchakka tilak bildiradi.	Tilingiz shirin bo‘lsin, muomalali bo‘ling.
Oyoq bosti		Oilaga bosh bo‘ling.
Kuyovning chopanini tikish jarayoni	Kuyovning ustidagi choponi oq ip bilan tugulmasdan tikiladi.	Hayotingiz tugunsiz bo‘lsin, yo‘lingiz ochiq bo‘lsin.
Soch silatar,	Kuyov kelinning sochini silaydi.	Kelinga shirin so‘z bo‘ling, mehribon bo‘ling, tog‘dek qalqoni bo‘ling.
Ota yupatar	Qiz uzatilgandan so‘ng otasini yupatish uchun yaqinlari, do‘stlari keladi.	Yangi uyga kelin emas, qiz bo‘lsin, e’zozlansin, o‘zidan ko‘paysin.

Kelinsalom	Nikoh to‘yidan so‘ng, ertasi kuni bajariladigan odat.	Oyoq – qo‘lingiz chaqqon bo‘lsin, Oyog‘ingiz qutluq kelsin, baxtli bo‘ling, serfarzand, serdavlat bo‘ling.
Chilla guzaron,	Qiz uzatilgandan so‘ng ota uyiga qirq kun o‘tgandan so‘ng birinchi marta borishi.	Ikki uy o‘rtasida ko‘prik bo‘lsin, borish kelishli bo‘laylik.
Yuzochar	Nikoh to‘yidan so‘ng o‘tkazilaigan odat.	Shirin so‘z bo‘lsin, yog‘li oyoq bo‘lsin, oyog‘I qutluq kelsin, qo‘l – oyog‘I chaqqon bo‘lsin.
Chaqirdi	Yangi kelinchakni kuyovning yoki qizning qarindoshlari birinchi marta uyiga chaqirish marosimi.	Singishib keting, Yangi uyga o‘ralashib qoling
Soch oqarsin	Yoshi keksayib qolganda ham sochiga oq tushmasa, oq tushsin deb qilinadigan marosim. Oq osh qilinadi.	Sochingiz oqarsin, qarilik gashtini suring.
Yubiley to‘y	Ma’lum yoshda tug‘ilgan kunning kata davraa nishonlanishi.	Umringiz uzoq bo‘lsin, farzandlar rohatini ko‘ring.
Qurbonlik	Musulmonlar bajaradigan amallardan biri bo‘lib, qo‘y so‘yib qurbonlik qilinadi.	Iymoningiz butun bo‘lsin, qurbonligingizni Olloh dargohiga qabul qilsin. Niyatingiz qabul bo‘lsin.
Ziyoratga borish jarayoni		Ziyoratingiz qabul bo‘lsin, murodingiz hosil bo‘lsin.
Aza	Inson vafot etganda, vidolashish jarayoni	Olloh sabr bersin. O‘tib ketsin. Ko‘rgan – kechirganing shu bo‘lsin. Umrini qolganini yaqinlariga bersin. Yaxshi kunlariga kelaylik. Bundan keyin bu xonodonda to‘ylar bo‘lsin. Boshqa kulfat bo‘lmasin.
Navro‘z	Milliy bayram	Dasturxoningiz to‘kin – sochin bo‘lsin. Yilimiz barakali kelsin.

Hayit	Musulmonlar bayrami	Tutgan ro‘zalarimizni Olloh dargohiga qabul qilsin. Hammaga iymon, insof bersin. Xonodonlarimizda tinchlik – xotirjamlik bo‘lsin.

Bunday birliklar milliy-madaniy birliklar bo‘lib, leksemalari denotativ ma’nosidan tashqari ular ifoda etgan udumning o‘zbek xalqi madaniyatiga xosligi haqidagi ma’lumotni ham tashiydi. Su bilan birga har bir marosim uchun kishi ongida tabrik va tilaklar o‘ziga xos assotsiatsiyalanadi., Leksik birliklarga xos bu kabi milliy-madaniy belgilar ularning inson tafakkurida muayyan guruhlarga birlashuviga olib keladi. Shu sababli o‘zbek leksemasi o‘zbek xalqi xotirasida millat, xalq, O‘zbekiston leksemalaridan tashqari, kelinsalom, hayit, beshik to‘y kabi milliy-madaniy semali leksik birliklarni ham tiklaydi. Bu holat ayrim leksemalarning milliy-madaniylik belgisi asosida turli assotsiatsiyalarni hosil qilishini ko‘rsatadi.

Ba’zi leksemalar bir qarashda milliy-madaniylik belgisiga ega bo‘lmasada, ayrim kishilar ongida milliy-madaniy assotsiatsiyalar sifatida gavdalanadi. D.Xudoyberganovaning qayd etishicha, «…ayrim hollarda predmetning ongdagi obrazi milliy assotsiatsiyalarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, paxta so‘zini boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Bu so‘zning muqobili bo‘lmagan tilda esa mazkur tushunchani so‘z birikmasi orqali ifodalash mumkin. Lekin paxta haqida boshqa millat vakili ongida paydo bo‘lgan assotsiatsiyalar bilan o‘zbek millatiga mansub kishining ongidagi assotsiatsiyalar o‘rtasida muayyan farqlar bo‘lishi tabiiy» . Darhaqiqat, paxta leksemasi bu xom ashyoni yetishtiruvchi millat xotirasida dala, egat, ko‘sak, etak, terim, paxta terish mashinasi, paxta uyumi, xirmon, hasharchilar, tushlik kabi leksik birliklarni yodga tushirishi aniq. Ammo paxta dalasida bo‘lmagan, paxta terimi haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan til egalarining paxta leksemasiga doir assotsiatsiyalari o‘ta jo‘n va cheklangan bo‘lishi tabiiy.

Yuqoridagi tasnif natijasidan ko‘rinib turibdiki, tilak va tabrik nutqiy aktlarining verbal assatsiatlashuvi jarayoni turli vaziyat, ijtimoiylik, so‘zning semantik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik, milliy – madaniy hayot, til uslublari, gendirga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi. Verbal assotsiativ tilshunoslikning tadqiq ob’yekti assotsiativ tafakkur hosilalari bo‘lmish assotsiatsiyalardir. Demak, bir tushuncha ko‘pchilikka stimul bo‘lib kelsa ham, assotsiatsiya har bir kishida o‘ziga xos yuzaga keladi. Yuqorida o‘zbek tilida emotsianal so‘zlarning verbal assotsiatsiyalashuvini turli qatorlarda qay holatda tafakkurda yuzaga kelishini

tahlil qilib o‘rgatishda grafik organayzerlardan foydalanildi va bu metod mavzuni tushinib tahlil qilishda samaralidir.

Adabiyotlar:

1. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан. номз. дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. -153 б.

2. Искандарова Ш., Ҳошимова Н. Нутқ жараёнида ассоциацияларнинг воқеланиши // АнДУ. Илмий хабарлар. -Андижон, 2010. - № 2. - Б. 85-88 б.

3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. “Мериюс” Тошкент – 2017.

4. Muslimjon Nasirov, Malikaxon Meliqo‘ziyeva. Badiiy matnning assotsiativ tahlili. Innovation in the modern education system issue vol. 2 no. 19 (2022):

5. Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи. Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Академнашр, 2012. – 376 б.

6. Ortiqova H. Maydon turlari va assotsiativ maydon xususida. Til va adabiyot ta’limi. 2022- yil 5-son, 24-25 b.

7. Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar) materiallarining lingvistik tahlili. Til va adabiyot ta’limi. 2022-yil 8- son, 23-25 b.

8. Холбекова Матлубахон. Ассоциация ва ассоциатив тажрибалар моҳияти. Fars int j edu soc sci hum Publishing centre of Finland 1(1); 2022; 176.

9. Yusufjonova D. Verbal va psixologik assotsiatsiyalarning qiyosiy tahlili “pedagogs” International research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 Volume-

РЕЗЮМЕ

Assotsiativ tilshunoslikda tadqiqotlar olib borgan tilshunoslarning fikrlariga tayangan holda, assotsiatsiyalarni tasnifini tahlil qildik. Biz bu tasnif asosida tilak va tabrik nutqiy aktlarinig verval assotsiatsiyalashuni o‘rgandik va shuni tadqiqotlardan ko‘rdikki, ekspressiv leksemalar ham turli belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi. Lingvistik omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalarni turlicha tasniflash mumkin: Quyida leksemalarning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiyani tasnifladik.

РЕЗЮМЕ

Опираясь на мнения лингвистов, проводивших исследования в области ассоциативной лингвистики, мы проанализировали классификацию ассоциаций. На основе этой классификации мы изучили вербальную ассоциацию речевых актов пожелания и приветствия и в результате исследования установили, что экспрессивные лексемы вербально связаны и по различным их признакам. Ассоциации, образующиеся в связи с языковыми факторами, можно классифицировать по-разному: Ниже мы классифицировали ассоциации, основанные на национально-культурном признаке лексем.

SUMMARY

Based on the opinions of linguists who conducted research in associative linguistics, we analyzed the classification of associations. Based on this classification, we studied the verbal association of speech acts of wish and greeting, and we found from the research that expressive lexemes are also verbally associated based on their different signs. Associations formed in connection with linguistic factors can be classified in different ways: Below we have classified the association based on the national-cultural sign of lexemes.

LEKSEMALARNING GENDER XUSUSIYATLARIGA ASOSLANGAN ASSOTSIATSIYASINI TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTIDA IFODALANISHI

Muratova N.B.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch soz’lar: gender, assotsiatsiya, assotsiativ tilshunoslik, verbal assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, psixologik assotsiatsiya, emotsianal leksemalar, leksema, lisoniy birliklar, tilak va tabrik nutqiy akti, ekstralingvistik va paralingvistik vositalar, ko`chma ma’noli so`zlar, nutqiy muloqot, verbal va noverbal vositalar.

Ключевые слова: гендер, ассоциация, ассоциативная лингвистика, вербальная ассоциация, ассоциативная установка, психологическая ассоциация, эмоциональные лексемы, лексемы, языковые единицы, речевой акт пожелания и приветствия, экстралингвистические и паралингвистические средства, слова с переносным значением, речевое общение, вербальные и невербальные. -вербальные средства.

Key words: gender, association, associative linguistics, verbal association, associative attitude, psychological association, emotional lexemes, lexeme, linguistic units, speech act of wish and greeting, extralinguistic and paralinguistic means, words with figurative meaning, speech communication, verbal and non-verbal means.

Verbal assotsiatsiya, uning mohiyati, tahlilida ularning tasnifi muammosi muhim o‘rin tutadi.Ma’lumki, verbal assotsiatsiyalarning ko‘lami til egalarida farqlanadi. Verbal assotsiatsiyalarning ko‘lami til egasining leksik birliklar zahirasiga bog‘liq. Bolalar va kattalar, ayollar va erkaklar, turli kasb egalarida verbal assotsiativ maydon ko‘lami, uning tarkibi turlicha bo‘ladi. N.O.Zolotovaning ma’lumotiga qaraganda, assotsiativ maydon yadrosiga mansub yuqori chastotali birliklar 6 - yoshli bola lug‘at boyligidan o‘rin olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday birliklar kundalik nutqiy faoliyatda qo‘llanuvchi inson va uning tana a’zolari nomlari, qarindoshlik munosabatlarini ifoda etuvchi nomlar, koinot jismlari, tabiat hodisalarini anglatuvchi nomlar, ayrim rang bildiruvchi so‘zlar, harakat va holatni anglatuvchi so‘zlar va boshqalardir. Albatta, bu xulosa bolalar va kattalarda verbal assotsiatsiyalarning ko‘lami bir

xil bo‘lishini anglatmaydi. Yadro a’zolari eng ko‘p qo‘llaniladigan birliklardan tashkil topgani bois bolalar va kattalarda o‘xshash bo‘lishi tayin, ammo assotsiativ maydon ko‘lami til egalarining leksik zahirasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lum bo‘ladiki, tilshunoslikda verbal assotsiatsiyalarning turli tiplari farqlansa-da, hanuzgacha assotsiatsiyalarni aniqlash va tasniflashning yagona tamoyili ishlab chiqilmagan. Assotsiatsiyalar tasnifi masalasiga munosabat bildirgan ukrain olimasi Ye.I.Goroshkoning fikricha, tilshunoslikda “assotsiativ materiallarning sifat jihatdan tahlili hanuzgacha to‘liq yechim topgan emas, assotsiatsiyalarning bir-biriga zid kelmaydigan tamoyilga asoslangan qandaydir har jihatdan mukammal tasnifini tuzish mumkin emas va tuzish kerak ham emas... Assotsiatsiyalar tasnifi muammosi ayrim asoslarga ko‘ra bir-biriga zid kelmaydigan assotsiativ aloqalar mohiyatini aniqlash muammosi bilan bevosita bog‘liq. Erkin assotsiativ tajriba o‘tkazish jarayonida aktuallashgan assotsiatsiyalarni qat’iy tarzda lingvistik, mantiqiy, psixolingvistik yoki falsafiy kategoriyalar orqali tavsiflash mumkin emas”.

D. Lufullayeva Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi monografiyasida verbal assotsiatsiyalarni hosil bo‘lishi nuqtai nazaridan tasniflab o‘rganilgan va quyidagi umumlashtirilgan tasniflarni keltirgan.

Verbal assotsiatsiyalar, xususan, leksik assotsiatsiyalarni hosil bo‘lishi nuqtai nazaridan lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq holda o‘rganish mumkin. O‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari asosida o‘zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning quyidagi lingvistik omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘lishi aniqlandi:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o‘zaro bog‘liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko‘ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko‘ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasalishidagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko‘ra bog‘liqligi.
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko‘ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko‘ra aloqasi.

Bu tasnif yuqorida keldirilgan olimlar fikrlarining umumiy jamlanmasi bo‘lib, biz ham shu tasnifni asosli deb o‘ylaymiz.

Quyida Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyani tilak va tabrik nutqiy aktida ko‘rib chiqamiz. Tildagi gender markerli leksik birliklar aynan shunday belgiga ega leksik birliklar bilan assotsiativ

bog‘lanishlarni hosil qiladi. Masalan, ayol leksemasi xotin leksemasi bilan yoki erkak leksemasi bir vaqtda er leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Bu holat leksik birliklarning semantik belgisi bilan birga gender xususiyati asosida ham inson tafakkurida guruhlarga birlashuvini ko‘rsatadi.

Shunisi xarakterliki, gender belgisiga ko‘ra o‘zaro zidlanuvchi leksik birliklar ham assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, yigit leksemasi qiz leksemasi bilan, chol leksemasi kampir leksemasi bilan gender belgisiga ko‘ra zidlanadi. Bu zidlik ayni leksik birliklarning bir-birini xotirada tiklashiga yo‘l ochadi. Nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi «Eru xotin – qo‘sh ho‘kiz», «Erni er qiladigan ham xotin, qora yer qiladigan ham xotin» maqollarini er, xotin leksemalarining assotsiatsiyasi sifatida baholash mumkin.

Emotsianal (tilak va tabrik) leksemalar ham gendir belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi.

Dinamik model tadqiqot obyektining ma'lum bir holatdan mazmun va tavsif jihatidan yuqoriroq darajada bo'lgan ikkinchi bir holatga o'tish jarayonini ifodalaydi. Mazkur tadqiqot ishida esa bakalavriat talabalarining olib borayotgan tadqiqot ishlarini mazmun va shakl jihatidan yangi bir holatga o'tishini (ya'ni, magistratura talabasi bajaradigan tadqiqot ishlarini) ifodalaydigan modeldir. Ushbu modelga sifat jihatdan o'zgarishlarni ifodalashini inobatga olgan holda dinamik tavsifi beriladi. Ishlab chiqiladigan modellar mazkur vazifani samarali bajarishning muhim vositasi sifatida qaralmog'i va Boshlang'ich ta'lim magistrlarini tayyorlashda hal etuvchi tizim bo'lmog'i lozim.

Talabalar tadqiqot ishlarini tashkil etishda ularning individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan holda dinamik modellashtirish uchun "Qarorlar daraxti(shajarasi)" usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu usuldan foydalanganda talabalar jarayon subyekti sifatida o'z faoliyatlarini loyihalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar va bu holat ularning mustaqil izlanishlari, o'z kasbiy yo'nalishlarini mustaqil tanlashlari imkoniyatini beradi.

Talabalarning tadqiqot ishlarini amalga oshirish tizimini dinamik modellashtirish tizimi quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonini modellashtirishga doir vazifalarni belgilab olish;
- tadqiqiy faoliyatning dinamik modelini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan dinamik modelning faoliyatga (real vaziyatga) muvofiqligini tekshirish;
- faoliyat natijasi va tajribalar, xulosalarga tayangan holda modelga zaruriy o'zgarishlarni kiritish.

Magistrlar tayyorlash tizimini dinamik modellashtirishning maqsadi ularning tadqiqotchilik kompetensiyasini tarkib toptirishdan iboratligi uchun bu maqsadga ko'ra, modellashtirishning vazifalarini belgilab oldik:

1) o'quv faoliyatida har bir talabaga yakka ta'limni shakllantirish;

2) o'quv jarayoni komponentlarini ta'lim trayektoriyalariga moslashtirish;

3) sohalararo ta'lim trayektoriyalarini tenglashtirish.

Talabalarning tadqiqot ishiga doir faoliyatlarini dinamik modellashtirish jarayoni samarali kechishi uchun quyidagi pedagogik talablarga javob berishi maqsadga muvofiqdir:

- talabalar individual ta’lim trayektoriyasini mustaqil tanlay olishi, bunday imkoniyat har bir ta’lim bosqichi va bajariladigan tadqiqot ishlari uchun ham yaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi;
- magistratura ta’limi jarayoni ishtirokchilari va jarayon komponentlari talabalar tadqiqiy faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun xizmat qilishiga qaratilishi lozim bo‘ladi;
- ikki bosqichli oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim jarayonida talabalarning ta’lim jarayoni va tadqiqotchilik faoliyatlari O‘zbekiston Respublikasining huquqiy-meyoriy hujjatlariga muvofiq tarzda tashkil etilishi talab etiladi.

Modeldan foydalanish uchun mo‘tadil shart-sharoit yaratishda bir qator omillarni hisobga olish lozim bo‘ladi. Xususan:

1) magistrlar tayyorlash faoliyatining muqobil variantlarini tanlash oson va qulay bo‘lishi uchun ular sonining cheklanganligi;

2) yakuniy qaror chiqarishning natijalari aynan qaysi ma’qul variant tanlanganligiga hamda tashqi muhitda ro‘y beradigan o‘zgarishlarga bog‘liqligi.

Tadqiqot ishini bajarish davomida magistrlarni tayyorlash jarayonining dinamik modelini ishlab chiqishga harakat qildik.

Mazkur model beshta komponentdan iborat tarzda tuzildi:

maqsad komponenti;

mundarijaviy komponent;

texnologik komponent;

diagnostik komponent;

natija komponenti.

Maqsad komponenti tadqiqot davomida ishlangan modelning asosiy maqsadi o‘z ifodasini topgan. Maqsadni belgilashda bugungi kunda ta’lim jarayoniga quyiladigan talablar, jamiyatning malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari, magistratura “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” mutaxassisligi uchun ishlab chiqilgan DTS va malka talablari inobatga olindi.

Model maqsadi uch yo‘nalishda belgilab olingan:

– ta’lim yo‘nalishidagi maqsadlar: talabalarni magistratura mutaxassisligi DTS talablari asosida o‘quv rejada belgilangan o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga dinamik tayyorlash;
– ***shaxsga qaratilgan maqsadlar:*** *talabalarning tadqiqiy faoliyatga qiziqishlarini tizimli tashkil etish;*
– ***ijtimoiy maqsadlar:*** *bakalavriat va magistratura bosqichi yakunida tadqiqiy faoliyatga yo‘nalgan, pedagogik va tadqiqiy faoliyatini samarali tashkil eta oladigan ijtimoiy faol talaba shaxsini shakllantirish.*



Ta'limiy maqsadlar invariant xarakterda bo'lib, barcha talabalar uchun umumiy tarzda belgilab olinadi. Shaxsga qaratilgan va ijtimoiy maqsadlari esa har bir talaba uchun individual tarzda belgilab olinadi va variativ tavsifga ega bo'ladi. Shuning uchun shaxsning mukammal rivojlanishi uchun ta'lim jarayonlarida barcha maqsadlarni yagona majmua sifatida qarash kerakli natijani beradi.

Magistrlar tayyorlash tizimining dinamik modelini yaratishda: “Dinamik modellashtirish asosida tadqiqiy faoliyatga kompetentli magistrlar tayyorlash jarayonini tizimli tashkil etish” umumiy maqsadi belgilab olindi.

Ushbu maqsadga binoan ko‘rsatilgan vazifalar, bu jarayonni tadbiq etishga oid yondashuvlar va tamoyillar modelning mundarijaviy komponentida ko‘rsatilgan.

Model maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar tanlab olindi:

1. Magistrlarni faoliyatga dinamik modellashtirish.
2. Yo‘llari va darajalarini aniqlash.
3. Dinamik modellashtirish darajalarini aniqlash.
4. Talabalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ta’sir etuvchi omillarni va pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish.
5. Tadqiqotchilarni tayyorlash mezonlarini aniqlab olish.
6. Dinamik modellashtirishga ko‘ra tadqiqotchilar faoliyatining metodlarini tizimlashtirish.
7. Dissertatsiyalarni tahlil qilish mezonlari va ko‘rsatkichlarini belgilab olish hamda natijalarni tahlil qilish.
8. Talabalarni tadqiqiy faoliyatga tayyorlashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Dinamik modellashtirish asosida talabalarni tadqiqiy faoliyatga tayyorlash jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilinishi talab etiladi:

1. Tadqiqotning tizimlashtirilganligi;
2. Ilmiy ishning dinamikligi;
3. Dissertatsiyalarni o‘rganishda nazariy va empirik metodlarni bog‘lash.
4. Ilmiy aniqligi va natijalarni baholashning obyektivligi.
5. Ilmiy-tadqiqot metodlarining optimalligi.

Ularni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashdagi dinamik modellashtirishda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

Tizimlashtirilgan yondashuv;

Majmuaviy yondashuv;

Modulli yondashuv;

Muammoli yondashuv;

Loyihaviy yondashuv.

Magistratura Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodika (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi bo‘yicha talabalar tadqiqiy faoliyatini modellashtirishda asosiy e’tibor pedagogik munosabatlarni modellashtirishga ham qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Ya’ni ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini pedagogik jarayonning asosiy maqsadi va tashkil etuvchisi sifatida dinamik

modellashtirish tizim sifatli rivojiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020). //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. Краснов, Ю. Э. Введение в технологию игрового имитационно деятельностного обучения [Текст] : учеб.пособие для студентов магистратуры / Ю. Э. Краснов. – Мн. : БГУ, 2003. – 226 с.

3. Дьюи, Дж. Психология и педагогика мышления. (Как мы мыслим.) [Текст] / Дж. Дьюи ; пер. с англ. Н. М. Никольской. – М. : Лабиринт, 1999. –192 с.

4. Yo‘ldoshev R.E. Description of the principles and approaches used in the development of a dynamic model. UzMU xabarlari 2022 1/4 89-91P

5. Зеер Э. Ф. Индивидуальные образовательные траектории в системе непрерывного образования / Э. Ф. Зеер, Э. Э. Сыманюк // Педагогическое образование в России. – 2014. – № 3. – С. 74–82.

6. Berdiyev B. R. “Организация самостоятельной работы студентов с содержанием естествознания по курсу“Методика обучения математике”. International conference on Science, technology, education and humanities. Kiyev, Ukraina. 30th nobember 2020 117-118 p.

7. Бердиев Б. Р. Конвенционал ёндашув асосида талабаларда мустақил таълимни ташкил этиш ва унинг самарадорлик натижалари // “Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириўъ” Илмий - методикалық журнал. Нукус, № 5/3 2022 жилд, 62-70 б (13.00.00; №20)

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada magistrlarni tayyorlashda ilmiy pedagogik ta’lim jarayonining dinamik modeli hamda talabalarni tadqiqiy faoliyatga tayyorlashga doir tajribalar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется динамическая модель научно-педагогического образовательного процесса при подготовке магистров и опыт подготовки студентов к научно-исследовательской деятельности.

SUMMARY

This article analyzes the dynamic model of the scientific and pedagogical educational process in the preparation of masters and the experience of preparing students for research activities.

TA’LIMDA STEAM TA’LIMINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Yaxshiboyeva S.T.
Qarshi Xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: STAEM, STEM ta’limi, psixologik, zamonaviy ta’lim, subektivlik, konstruksiyalash, loyihalash.

Ключевые слова: STAEM, STEM-образование, психология, современное образование, субъектность, конструкция, проектирование.

Key words: STAEM, STEM education, psychological, modern education, subjectivity, construction, design.

STAEM yondashuvli o‘qitish Qo‘shma Shtatlarda paydo bo‘lib, bugungi kunda u o‘z ilmiy-texnik elitasini oshirishga qaratilgan mamlakatlarda davlat dasturlari darajasida joriy etilmoqda. Rossiyada STAEM ta’limi birinchi navbatda maktabdan tashqari ta’lim sifatida hozirgi vaqtda juda tez rivojlanmoqda. Dastlab maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun dasturlar qisman ishlab chiqilgan bo‘lib, STAEM pedagogikasi vazifalarini amalga oshirish uchun zamonaviy ta’lim fan muhiti bilan ta’minlangan. Bu Dastur modulli va mustaqil va o‘zaro bog‘langan beshta moduldan iborat:

1. Didaktik tizimilar,
2. Nazariy va amaliy tabiat hodisalari bilan tajribalar o‘tkazish,
3. LEGO qurilishi,
4. Matematik ishlanma,
5. Robototexnika

Har bir modul uslubiy jihozlar bilan ta’minlangan materiallar va maxsus ishlab chiqilgan mavzulardan iborat Dastur Federal Davlat Ta’lim Standartiga mos keladi. Bunda bola rivojlanishini kuchaytirish, bolalikning xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlash, muhim bosqich sifatida bolalikning o‘ziga xosligi va ichki qiymatini saqlash tamoyillariga asoslanadi. Shaxsning umumiy rivojlanishida, shaxsni rivojlantiruvchi va insonparvarlik, kattalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro

munosabatlarning tabiati, hurmat, bolaning shaxsiyati, Dasturni o‘ziga xos shakllarda amalga oshirish yosh xusisiyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyada STAEM ta’limini amalga oshirish eng dolzarb hisoblanib, unda bolalarda tabiatni anglash, ijodiy yondashuvni shakllanishi, muhandislik yondashuviga o‘rgatish orqali kashfiyotchilikni shakllantirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shkallantirish ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash loyihalash hamda konstruksiyalash asoslarini tushunishga imkoniyat beradi.

STAEM ta’limini amalga oshirishni asosan 4 yoshli bolalardan boshlash maqsadga muvofiq chunki shu yoshdan boshlab bolalarda fikrlash rivojlana boshlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarda ham loydan turli narsalarni (uy hayvonlari, avtomobellar, uy jihozlari, daraxtlar va boshqalar) yasash holatlarini ko‘rish mumkin aynan shu yoshda bolalarda atrof muhitdagi jarayonlarni tasiri kuchli bo‘ladi. Shuning uchun ham bolalar atrofidagi narsalarni loydan yasash va unga o‘xshatishga harakat qilishini ko‘rish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida aniq rejalar asosida narsa buyumlarni yasashlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bunda bolalar plastilin yoki LEGO o‘yinchoqlaridan turli narsalarni yasashni o‘rganishadi. Shu davrda STAEM ta’limini amalga oshirish, bolada ijodkorlik va mantiqiy fikr yuritishni shakllanishiga yordam beradi.

STEM ta’limining ko‘p afzalliklari va dolzarbligi bugungi kunda yaqqol ko‘rinib turibdi. Ammo bu amaliy va progressiv tizimni «mahorat» ni rivojlantirishda muhim muammolar mavjud. Bundan ko‘rinadiki, “Maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun STEM ta’limi” dasturini amalga oshirishning eng muhim jihati o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tomondan malakasini oshirish kerak bo‘ladi.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashi va ijodkorligi maktabgacha yoshdagi bolaning subektivligini shakllantirish bilan bog‘liq. Biroq, o‘qituvchilarning o‘zi uchun «subektivlik» tushunchasining tushunish qiyin bo‘lib qolmoqda. Tushunish uchun maktabgacha yoshdagi bola uchun STEM o‘rganish vazifalari qay darajada mavjud bola rivojlanishining yosh-meyoriy modeli bizga normal rivojlanish uchun qulay va noqulay sharoitlarni aniqlashga yordam beradi[3].

Yosh normasini bilish nafaqat ular bilan etarli darajada ishlashga yordam beradi. Shuningdek, rivojlanishning yosh-meyoriy modeli - bu rivojlanish normasining psixologik kontsepsiyasining pedagogik talqini va ongda, umumiylikdan subektivlikning shakllanishini tahlil qiladi. Boladagi faoliyat aniq niyat-maqsadning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Bolaning maqsadga muvofiq material ustida ishlatish va yakuniy natija qayd etirish, uning mustaqil ravishda

namunalarni tanlatish va turli materiallardan nusxa ko‘chiritirish o‘rgatuvchi xohishiga asoslanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola qiziquvchan bo‘lib, u atrofidagi narsalar va hodisalar to‘g‘risida qanday? nima uchun? bu nima? Kabi savollar beradi. Ularni tushuntirishda faktlar va oddiy sabab-oqibat asosida muayyan materiallarni tartibga solishgan holda tizimlashtirib (xaritalar, diagrammalar, piktogrammalar, hikoyalar, rasmlar va boshqalar) o‘rgatish muhim sanaladi[1].

Bolalarda turli kasblarni tanlatish mumkin. Bunda e’tiborga olish kerak bo’lgan quyidagi bir qancha muhim jihatlar mavjud:

Birinchidan bola kelajakdagi ishi bilan qiziqishi kerak va qarindoshlar yoki taniganlarining qiziqishiga ko‘ra emas;

Ikkinchidan bolada ishni tanlashda har bir narsani, kasblar ma’lum bir faoliyatni, fikrlashni va qobiliyatni talab qilishini tushuntirishingiz kerak bo‘ladi;

Uchinchidan Kelajakdagi faoliyat shaxsiy xususiyatlarga mos kelishi kerak.

Shundan so‘ng bola ongida sub’ektivlik o’z-o’zini anglash bilan bog’liq kechinmalar, his-tuyg’ular va boshqa odamlar bilan munosabatlarda bo‘lish rivojlanadi. Bu davrda tabiat hodisalari, dunyo tasavurining shakllanishi, dunyoqarash, va odamlar dunyosi haqidagi dastlabki tasavvurlar prototip shakllanadi. STEM ta’limi maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish normasida eng kerakli yondashuv bo‘lib, ushbu ta’lim tizimining tamoyillari yoshga bog’liq rivojlanish muammolarini tabiiy ravishda hal qiladi.

Bola eng faol tadqiqotchi, eksperimentator hisoblanadi. Ko’plab maxsus psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki allaqachon 3-5 yoshdagi bola yangi g’oyalar, shakllar va dizaynlarni yaratishi mumkin. tayyor muhandis. Yaxshi tashkil etilgan ta’lim jarayoni bilan bolalarning bu tabiiy dunyoni tushunishga bo’lgan qiziqishi texnik ijodkorlikka aylanishi bilan birga kelajakda egallashi mumkin bo‘lgan kasbga qiziqishlarini o‘yg‘otishni taminlaydi[2;4].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Maktabgacha ta’lim va tarbiyada STAEM ta’limini amalga oshirish eng dolzarb hisoblanib, unda bolalarda tabiatni anglash, ijodiy yondashuvni shakllanishi, muhandislik yondashuviga o‘rgatish va tanqidiy fikrlashni shkallantirish, ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash yosh-meyoriy normasining psixologik kontsepsiyasining pedagogik shartlari hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Исаев Е.И. Возрастно-нормативная модель развития в дошкольном детстве Психологическая наука и образование. psyedu.ru. – 2017. – Т. 9. № 2. – С. 166–177. [Электронный ресурс] URL: http:psyedu.rufiles/articles/psyedu_ru_2017_2_Isayev.pdf (дата обращения: 07.01.2018)

2. Короткова Н. А., Нежнов П.Г. Наблюдение за развитием детей в дошкольных группах. – М.: [б.и.], 2002. – 43 с.

3. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1989. – 560 с.

4. Shoxrux Razzoqovich Turdiyev Didactic principles of guiding theoretical knowledge from steam science into practice. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal https://saarj.com Vol. 11, Issue 10, October 2021

5. Yakhshiboeva Sitora. Steam education as future education: scientific theoretical basis of using steam technology in primary education. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 19, | December, 2023

6. Berdiyev B. R.“ Mustaqil ta’lim imkoniyatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar tahlili va talabalar mustaqilligini talab etuvchi omillar. ҚарДУ Хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал, 5/1(60) 2023 Сентябрь –октябрь 141-145 b.

7. Bediyev B. R.“Methods of using math cases problem situation in primary education”// Conference Special Issue ISAE-2020. JournalNX, India 2020 956-957 p

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tarbiyalanuvchilarning STEM ta’limini amalga oshirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari haqida keng tushunchalar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья дает широкое представление о психолого-педагогических условиях реализации STEM-образования студентов.

SUMMARY

This article gives a broad idea of the psychological and pedagogical conditions for the implementation of STEM education for students.

MANTIQIY FIKRLASHNING INSON TAFAKKURINI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Xo‘jaqulov F.N.
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: mantiqiy fikrlash, individual xususiyatlar, masala yoki topshiriq, ko‘p qirrali, murakkab.

Ключевые слова: логическое мышление, индивидуальные особенности, проблема или задача, многогранный, сложный.

Key words: logical thinking, individual characteristics, problem or task, multifaceted, complex.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlash dastavval bo’lajak kadrlar misolida davlat va jamiyat buyurtmasiga hamda talabalarninng kasbiy ehtiyojlariga mosligini ta’minlashda ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini amalga oshirishda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini rivojlantirishi va o‘z-o‘zini namoyon qilishiga yordam beradi. Shu bilan birga bu faoliyat jarayonida ularda nazariy yondashuvlar, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli, kommunikativ-kognitiv kabi nazariy yondashuvlarni amalga oshirishda uzluksizlik va differensial, modul, o‘zaro ta’sir, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv tamoyillariga asoslangan holda uning mazmuni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko‘rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushuncha. Mantiqiy fikr yuritish qobiliyati barcha sog‘lom insonlarga xosdir. Insonning bilish faoliyati uchun mantiqiy fikrlash universal xarakterga ega. Tafakkur ko‘p qirrali, murakkab, shu bilan birga, bir butunni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida, tartibli, aniq, asosli, ya’ni mantiqiy o‘ylay olishi tushuniladi. Barcha insonlarning fikrlash qonuniyatlari bir xil bo‘lganidan turli tillardagi so‘zlarning ma’nosini tushuna olamiz. Mantiqiy fikrlash insonning ilmiy va amaliy faoliyati sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlashning

olam va undagi voqea-hodisalar, inson va tabiat o‘rtasidagi muntlarning mohiyatini teran anglash va shu asosda hayotni to‘g‘ri tashkil etish borasidagi o‘rni beqiyosdir.

Xususiy didaktikada o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini ravojlantirishga oid ko‘plab ilmiy yondashuvlar mavjud. So‘nggi yillarda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida fanlarni o‘qitish, o‘quvchilarda fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari ham takomillashtirildi. Mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, ta’limning yangi paradigmasiga o‘tilishi munosabati bilan o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini ham yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ehtiyoji kuchaydi. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish masalasida mutaxassislar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. O‘quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standartlariga mos bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, vatanparvarlik, mustaqillik tamoyillari asosida demokratiyaga sodiqlik hissini shakllantirish o‘quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda mantiqiy fikrlash faolligini tarkib toptirish uchun qulay davr hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O‘quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko‘nikmalari uning o‘z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda darslar, darsdan tashqari ishlar, bu jarayonda taqdim etiladigan og‘zaki mashqlar ham muhim o‘rin egallaydi. An’anaviy darslarda esa o‘qituvchilar o‘quvchilarga yozma mashqlar bajartirishga alohida e’tibor qaratganlar. Bu jarayonda o‘quvchining diqqati asosan masala va topshiriqlarni to‘g‘ri yozishga qaratiladi. Ko‘chirib yozilayotgan masala yoki topshiriqning mazmuniga o‘quvchilar yetarlicha e’tibor qaratmaydilar. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish abstrakt-obrazli tafakkurini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchilar maxsus tanlangan maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki mashqlar tizimidan foydalanishlari lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda og‘zaki mashqlardan foydalanish muammosi o‘quv jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash bilan bevosita bog‘liq. Bu sohada quyidagi muammolar mavjud: boshlang‘ich sinflarda ta’limning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kuchaytirish zaruriyati bilan ularda mantiqiy fikrlashni maqsadga qaratilgan savol va og‘zaki mashqlar vositasida rivojlantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqilmaganligi; sinfdan tashqari ishlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-biluv faoliyatini tashkil qilishda og‘zaki mashqlardan o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun foydalanishning zaruriyatining mavjudligi; boshlang‘ich sinf

darslarida yozma yechiladigan misol, topshiriqlar bilan og‘zaki mashqlarning o‘zaro bog‘liqligi, bunda og‘zaki mashqlardan foydalanish imkoniyatlarining batafsil ochib berilmaganligi.

Mantiqiylik – tafakkurning, yozma va og‘zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir. Bu jarayonda ayniyat, ziddiyat, inkorni inkor qonunlari o‘zaro uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Ayniyat qonuni har bir narsa-hodisaning aynan o‘ziga tengligini, fikrda, so‘zlashuv va matnlarda takror so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni bildiradi. Ziddiyat qonuni bir vaqtning o‘zida har bir voqea-hodisani ziddi bo‘lmasligini taqozo etadi. Inkorni inkor qonuni esa muayyan sharoitda voqea-hodisalar aynan o‘sha holatda bo‘lishi yoki bo‘lmasligini bildiradi. Insonning nutqi, ilmiy-pedagogik, rahbarlik faoliyati mantiqiy fikrlash bilan uyg‘un bo‘lishi zarur. Shundagina faoliyatning barcha sohalarida mantiqiy ketma-ketlik, izchillik va muayyan samaraga erishish mumkin.

Mantiqsizlik – mantiqiy fikrlashning aksidir. Mantiqiy fikrlash ma’naviy-ma’rifiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi faoliyatni mantiq qonuniyatlari asosida tashkil etish ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning izchilligi, ta’sirchanligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L.S. Fikrlash va nutq//L.S. Vygotskiy - M: AST, 2005 yil.

2. Shodiyev R.D., Yuldoshev J.T., Xudoynazarov E.M. Matematika darslarida sinfdan tashqari ishlar. O‘quv qo‘llanma//Qarshi davlat universiteti, Fan va ta’lim nashriyoti. 2023. 62 b.

3. Yuldoshev J.T. O‘quvchilarni mantiqiy va nostandart fikrlashga o‘rgatish usullari. Urganch davlat pedagogika institute axborotnomasi. Ilmiy nazariy metodik jurnal. 2023 №1.

4. Berdiyev B. R. “The use of independent learning in the formation of mathematical concepts in reschoolers”// Journal NX A Multidisciplinary Peyer Reviewed Journal, Volume-6, Issue-7,Indonesia. – 2020 358-360 p.

5. Berdiyev B. R. Xalqaro baholash dasturlari asosidagi innovatsion usullardan foydalangan holda o‘quv materiallarini ishlab chiqish va taqdim etish. // “Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари”, илмий - назарий журнал 5-сон. Тошкент. -2022. 56-66 б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashlarida o‘qituvchilarni tutgan o‘rni, usullari va yaratgan topshiriqlari haqida qisqa mazmunli tushunchalar keltirilgan. Mantiqiy tushunchalar orqali o‘quvchilarni tafakkurini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar haqidagi ma’lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной стате представлено краткое понимание роли учителя в логическом мишлении учашихся младших классов, созданние методи и задания. Приведени сведения о мероприятиях, направленних на совершенствование мишления учашихся посредством логических понятий.

SUMMARY

This article presents a brief understanding of the role of teachers in the logical thinking of elementary school students, methods and tasks created. Information about measures aimed at improving students’ thinking through logical concepts is given.

TA’LIMDA EKOPEDAGOGIKANI VA BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Mirzayev S. A.
Qarshi davlat universiteti 2 – bosqich doktaranti

Tayanch so‘zlar: ta’lim, ekologiya, kompetentsiya, rivojlantirish, tizimli yondashuv.
Ключевые слова: образование, экология, компетентность, развитие, системный подход.
Key words: education, ecology, competence, development, systematic approach.

Mamlakatimizda oliy pedagogik ta’limning modernizatsiyalashuvi, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kadrlarga bo‘lgan talabning muttasil oshib borayotganligi bilan bog’liqdir. Islohotlar natijalari joriy qilinayotgan oliy ta’lim tizimida pedagogik kadrlartayyorlash bo‘g’ini muhim o‘rin egallaydi. Oliy ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lajak pedagogik kadrlarni talabalarlar ongiga yanada ko‘proq ta’sir qilayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini o‘quv jarayonidagi ifodasidir. Globallashuvning oliy ta’lim tizimiga ta’sirini ma’naviy, iqtisodiy, axloqiy jihatlarini bo‘lajak bakalavrlarga tushuntirish, innovatsion materiallar asosida o‘tkaziladigan ma’ruzalarva amaliy mashg‘ulotlar natijasida amalga oshirish mumkin. Bo‘lajak pedagoglarga internet ma’lumotlaridan ta’lim jarayonida foydalanishning yangi usullarini tushuntirish lozim. «Mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat’iy va izchil tusolgani, odamlarimizo‘zgarib, ularning siyosiy vafuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon atrofda bo‘layotgan barcha voqea- hodisalarga daxldorlik tuyg’usi, ertangi kunga ishonchi oshib borayotgani misolida ko‘rish, anglash qiyin emas» [2]. Hozirgi davrda oliy ta’lim muassasalarida malakali va mohir pedagoglar tomonidan darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarning innovatsion ta’lim texnologiyalar asosida, yangi fikrlar kiritilgan holda tayyorlanganligiga e’tibor berish lozim. Mutaxassis pedagogoliyta’limning pedagogikasohasidagi harbir ma’ruza va amaliyot mashg’ulotlariga puxta tayyorlanishi, metodikjihatdan aprobatsiyadan

o‘tgan materiallarni darslarda keng qo‘llagan holda o‘tkazilishni talab qiladi. Masalaga bunday yondashuv hozirgi davrda oliy o‘quvyurtlarida ta’lim olayotgan talabalarning ta’lim olishlari jarayonida fanlardan atroflicha bilim olganliklarini, oila, maktab, mahalla institutlarining sa’y-harakatlari tufayli orttirgan bilim saviyasi yuqoriligini qayd etish darkor.

Asosiy qism. Ekologik ta’limga tizimli yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirishda pedagogikfaoliyat va nazorat muhitining o‘zaro ta’sirlashuvi mexanizmlariquyidagijarayonlarni o‘zichigaoladi:

Bo‘lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi davlat buyurtmasi va jamiyat talablariga muvofiq oliy pedagogik ta’lim muassasalarida malakali kadrlartayyorlash; Davlat ta’lim standartlarida bitiruvchining pedagogik faoliyatida o‘qituvchilik, tarbiyachilik, o‘quv-metodik, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot vazifalarini amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Bo‘lajak pedagoglar ekologik kompetentligini rivojlantirishda ta’lim mazmuni, o‘quv reja, dasturlar, ta’lim shakli, metod, vositalari va darsliklar, elektron axborot ta’lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, laboratoriya jihozlari, ta’lim texnologiyalari va boshqalardanfoydalanish asosida aniqlanadi. Talabalarkelgusida pedagogik faoliyatni amalga oshirish, nazariy bilimlar va psixomotorik harakatlar asosida amaliy ko‘nikmalarni real sharoitda qo‘llash maqsadida malakaviy pedagogik amaliyot tashkil etiladi. Bunda talabalarta’lim jarayonida egallangan ekologiyaga oid kompetensiyalarni namoyon etish; pedagogik faoliyati jarayonida - ekologik kompetentlikka ega, malakali kadrlarning tayyorlanganligini aniqlash va tahlil qilib borish uchun faoliyat monitoringi amalga oshirildi. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ob’ektiv va subyektiv omillarining ahamiyati muhim hisoblanadi. Jumladan globallashuv tufayli ekologik muammolar mamlakatimizning qator hududlarida chigallashganligi kuzatilmoqda. Bunday holat pedagogika fanlari vakillarining zimmasiga ekologik masalalarni hal qilish va uning ilmiy echimini topish muammosi bilan shug’ullanish mas’uliyatini oshirmoqda. «Shu borada ham jismoniy, ham ma’naviy etuk, o‘z mustaqilfikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning sog’ligini asrash, hayotga yo‘llashda oilaning o‘rnini hech narsa bilan baholab bo‘lmasligini bizyuksak qadrlaymiz» [1]. Ekologik muammolarning ijtimoiy masalalari inson va uning faoliyati natijasida vujudga kelayotgan ijobiy hamda salbiy jihatlarini bo‘lajak pedagoglar ham chuqur tahlil qilishmoqda. Muammoning dolzarbligi uning bevosita shaxs barkamolligiga erishish.jamiyat a’zolarining ekologiyaga tolerant munosabatda bo‘lishlari, milliy iqtisodiyotimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlash va mamlakatimizni jahondagi rivojlangan davlatlarqatoridan o‘rin

olishini ta’minlash strategiyasi bilan bog’liqdir.



1-rasm. Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirish tamoyillari va omillari

Talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishiga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarmavjud. Obyektiv omillarga quyidagilarni: a) megaomillar: kosmos, er shari va planetar jarayonlar; b) makroomillar: mamlakat, davlat, xalq, jamiyat, madaniyat; v) mezoomillar: etnos (millat), hududiyshart-sharoitlar, shaharva qishloqlar, yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari; g) mikroomillar: oila, maktab, do‘stlar, tengqurlar, ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi.

Sub’ektiv omillarga talabaning ichiki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlari mazmunini anglashi kiradi. Bo‘lajak pedagoglar tayyorlashda zarur bo‘lgan ekologik ta’lim- tarbiya vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan tizimli yondashuvni taqozo etadi.

Professor-o‘qituvchilarning faoliyatini va talabalarning ekologik kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bilish faoliyatining xususiyatlarini tamoyillar belgilaydi. Ta’lim tamoyillari fan o‘qituvchilari va talabalarfaoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, mazmunda va har xil yo‘sinda tashkil etiladigan ta’limning samaradorligini belgilaydi [5].

Ta’kidlash joizki, olimlarning ta’lim tamoyillarining soni va nomi to‘g’risidagi fikrlari bir- biridan farq qilsa ham, ularning mazmuni va o‘qitish qonuniyatlarini tushunish an’anasi asosan birxildir. Shu bois, bo‘lajak pedagoglarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim tamoyillari sifatida quyidagilar: ilmiylik, natijani oldindan ko‘ra olish; tizimlilik; izchillik; integratsiya; insonparvarlik; maqsadga yo‘naltirilganlik, talabalarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; faoliyatdatarbiyalash; nazariyaning amaliyotbilan bog’liqligi; fanlararo, mavzulararo aloqadorlikni ta’minlash, maqsadi, mazmun va uni shakllantirish metodlarining birligi va yaxlitligi, ijodiy hamkorlikdagi faoliyat tamoyillaridan iborat. Ta’lim tamoyillari talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan va integratsiyalashgan harbirdarsdadidaktiktamoy illarning birnechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ekologik ta’lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishda alohida ahamiyatga ega.

Xulosa. Ta’limdagi islohotlarva uning modernizatsiyalashuvi professor-o‘qituvchilardan darsjarayonida tashabbuskorlikni, ijodiy yondashuvni

talabalardan mustaqilfikrlashnitalab qiladi. Oliy pedagogik ta’limdagi dars - pedagogik ijodkorlikning asosiy maydonidir. Pedagogning asosiy pedagogik ehtiyoji - o‘rgatish, etkazib berish - aynan dars jarayonida amalga oshiriladi. Shunday ekan, dars oliy pedagogik ta’lim jarayonini tashkil qilishga innovatsion va tizimli yondashuvni talab etadi. Ta’lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgijarayonda talabalarlarga ekopedagogikaga oid bilimlarni berish, ularni erkin, mustaqil fikrlayoladigan kadrlar qilib tarbiyalashda, ta’limning imkoniyatlari va mohiyatini chuqur anglash hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Ахмеджонова А. ва бошқ,. Комил инсон давр талаби. - Т.: Янги аср авлоди, 2004. - 150 б.

2. Аликулова М.М. Булажак педагогларнинг экологик маданиятини ри- вожлантириш асослари: Монография. - Т.: Fan va texnologiya, 2015. - 188 б.

3. Аликулова М.М. Булажак мутахассисда экологик маданиятни ри- вожлантиришнинг педагогик омиллари // Глобал олий таълим тизимида илмий тадк,ик,отларнинг замонавий услублари: Халкдро илмий конферен¬ция. - Навоий, 2015. - Б. 108-110.

4. Бердиев Б. Р. Талабаларда мустақил таълим олиш кўникмасини шакллантиришда конвенциал ёндашувнинг асосий мақсади // QarDU xabarlari. Qarshi, 2021№ 2 (48). 177-181 b. (13.00.00; №35)

5. Murtozayeva M.M. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takmorlashtirish // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. - Namangan, 2022. - 4-son. - B. 710-714.

6. Хасанбоев Ж., Туракулов Х.А., Алваров И., Усманов Н.У. Педагогика. - Т.: Фан ва технология, 2011. - 482 б.

РЕЗЮМЕ

Ta’limdagi islohotlar va uning yangilanishlari professor- o’qituvchilardan oliy pedagogik ta’lim jarayonini tashkil etishda talabalarni ekopedagogik fikrlashga o‘rgatishga innovatsion, tizimli, tashabbuskor, ijodiy yondashuvlarni talab etishi ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyalarni izchil rivojlantirib borishini ta’minlash, ularda ekologik kompetentlikni rivojlantirishga tizimli yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Было отмечено, что реформирование образования и его обновление требуют новаторских, системных, инициативных, творческих подходов к обучению студентов эколого-педагогическому мышлению при организации процесса высшего педагогического образования. Также для обеспечения последовательного развития экологических компетенций будущих педагогических кадров выделены особенности системного подхода к развитию экологической компетентности.

SUMMARY

It was noted that reforming education and its renewal require innovative, systematic, proactive, creative approaches to teaching students environmental and pedagogical thinking when organizing the process of higher pedagogical education. Also, to ensure the consistent development of environmental competencies of future teaching staff, the features of a systematic approach to the development of environmental competence are highlighted.

ZAMONAVIY TA’LIMDA HARBIY-PEDAGOGNING O‘RNI VA UNGA QO‘YILGAN TALABLAR

Haydarov J.G‘.
O‘zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti
Taktika va maxsus fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: harbiy pedagog, texnologiya, zamonaviy, professional, ma’naviy-axloqiy, jarayon, mezon, ta’lim-tarbiya.

Ключевые слова: военный педагог, технология, современный, профессиональный, морально-этический, процесс, критерий, образование.

Key words: military teacher, technology, modern, professional, moral and ethical, process, criterion, education.

Hozirgi kun ta’lim jarayonida harbiy pedagoglarning professionalligiga zamonaviy hamda sifatli ma’lumotga ega bo‘lishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda. Shu sababdan ham kasbiy pedagogik kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mohiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kompetentlik – mansabdor (pedagog) shaxsning shaxsiy imkoniyatlari, uning o‘zida mavjud bilim va ko‘nikmalar, malaka va tajriba yordamida ma’lum bir vazifalarni hal qilish yoki yechimi bilan bog‘liq masalalarni ishlab chiqishga imkon beruvchi qobiliyatidur. Kompetentlik shaxs kasbiy faoliyatining mohiyatini tashkil etuvchi funksional vazifalarni samarali amalga oshirishiga imkon beruvchi bilimlar, malakalar, qobiliyatlar va shaxsiy sifatlarning tizimli namoyon bo‘lishida, uning bilimdonligi, dunyoqarashining kengligi, obro‘si va shu kabilarda namoyon bo‘ladi.

Kompetensiya – ma’lum bir soxada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy tayyorgarligiga qo‘ yilgan talabdir. .

Ta’limga kompetentli yondashuv – muayyan usullar va pedagogik yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Pedagogik mahorat-shaxsning pedagogik sifatlari majmui va o‘qituvchi tomonidan kaspiy pedagogik faoliyatini mustaqil ravishda samarali tashkil etishni

ta’minlash bo‘lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori cho‘qqisiga erishganligini bildiradi.

Aynan pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi.

Mustaqillik yillaridan keyin mamlakatimizda pedagogning kasbiy maxoratini, bilim va ko‘nikmalarini oshirish, aynan pedagolarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha juda ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan ta’lim tizimidagi harbiy pedagoglarning ham bilim va malakalarini oshirish, ularni qayta tayyorlash va juda tez rivojlanib borayotgan zamon talablariga javob beradigan harbiy kadrlarni tayyorlashga nafaqat davlat rahbari balki vazirlik ham katta etibor qaratmoqda.

Zamonaviy pedagogikaning aynan pedagogik kompetentlikga turli manbaalarda turlicha ta’rif beriladi.

Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me’yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Professional kompetentlik o‘z faoliyat sohasida erkin mo‘ljal olishni nazarda tutadi. Ushbu talablardan kelib chiqib, harbiy pedagoglarning tayyorgarligi ham shunga munosib darajada bo‘lishi, pedagogik kampitentligini keng qo‘llagan holda harbiy kadrlarni tayyorlashga safarbar qilishi talab etilayapti.

Kompetentlik uchta muhim omil bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi:

– odamlar bilan munosabat o‘rnatish madaniyatini;
– o‘z faoliyat sohasi haqida o‘quv axborotlarni olish ko‘nikmasini;
– o‘quv axborotini boshqalarga berish ko‘nikmasini.

Shunday qilib, professional-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

– shaxsiy-insoniy mo‘ljal;
– pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
– o‘z faoliyati sohasida mo‘ljal ola bilish;
– pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirganlik.

Pedagogning menejer sifatidagi muvaffaqiyati nima bilan belgilanadi?

N.M. Karamzin: “Buyuk odamlar iste’dodi boshqa odamlarda iste’dodlarni kashf etishdan iboratdir”, degan edi. O‘z-o‘zidan ravshanki, menejment pog‘onasiga ko‘tarilgan har bir pedagog shu uslubda ishlashi shart. O‘z o‘quvchilarida iste’dodlarni kashf etish pedagog yetuk mahoratining tasdig‘idir. Ammo “iste’dodlarni kashf etish” mexanik jarayon emas. Bu yerda pedagogning birinchi bosqichda o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lish orqali ularda qiziqish uyg‘otish

va so‘ngra ularning o‘z tashabbusiga yo‘l ochish qobiliyati alohida rol o‘ynaydi. Bu yerda gap pedagogning liderlik fazilatlari haqida boradi.

Professional-pedagogik kompetentlikning yuqorida zikr etilgan elementlari murakkab tuzilmani, mutaxassisning “ideal modeli”ni tashkil etadi, uning shaxsiy-faol tavsifini belgilaydi.

Kompetentli o‘qituvchi – bu kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan, nafaqat o‘z faoliyatini loyihalashtira oladigan, balki ta’lim jarayonidagi har qanday o‘zgarishlarga sezgir holda pedagogik jarayonni boshqara olishga qodir mutaxassisdir.

Pedagogik jarayonni amalga oshirishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlik pedagogning professionalligini ko‘rsatadi.

Kompetentli pedagog nimaga qodir bo‘lishi lozim?

– o‘zining hayotiy muammolarini tashabbus, mustaqillik va mas’uliyat ko‘rsatgan holda hal eta olishi;
– mutaxassisga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni yaxshi bilishi va kasbiy yutuq pillapoyasidan muvaffaqiyatli harakat qilishi uchun kursantga qanday bilim, ko‘nikma va malakalar kerak bo‘lishini tushunishi;
– o‘z kursantlarining haqiqiy hayotiy va kasbiy qiziqishlarini ko‘ra olishi va tushunishi;
– o‘z kursantlariga, ularning fikrlari va savollariga hurmat bildirishi;
– muammoli vaziyatlarni tushunishi;
– o‘rganilayotgan materialni kundalik hayot va xizmat va kursantlarning qiziqishlari bilan bog‘lay olishi;
– bilim va malakalarni o‘quv va o‘qishdan tashqari amaliyotda mustahkamlashi;
– o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirishda ta’limning turli shakl va metodlarining keng imkoniyatlaridan foydalana olishi;
– maqsadlar qo‘yishi va ularga erishilganlik darajasini kursantlar bilan birgalikda baholay olishi;
– muvaffaqiyat vaziyatini yaratish metodini puxta egallashi;
– kursantlardagi mavjud tajribaga tayangan holda ortiqcha vaqt sarflamasdan yangi tajriba hosil qilish;
– o‘zi yetarli kompetentlikka ega bo‘lmagan masalalarni muhokama qilmaslik, ammo holat shuni taqqozo qiladigan bo‘lsa, muhokama qilish uchun ekspert va mutaxassislarni jalb qila olishi;
– kursantlarning yutuqlarini nafaqat baho bilan, balki mazmunli tavsiflash yordamida ham baholay olishi;
– kursantning nafaqat fandagi yutuqlarini, balki shaxsiy sifatlaridagi rivojlanishni ham baholay olishi;

– nafaqat bilimidagi, balki sotsiumda yashashga tayyorligidagi kamchiliklarni ham ko‘ra bilishi;
– kursantlarga nafaqat fan doirasida balki hayotiy masalalarda ham ko‘mak bera olishi;
– kursantlar bilan muloqatni ofitser-kursant sifatida emas, balki pedagog-ta’lim oluvchi sifatida tashkil qila olishi;
– kursantlarning talab va istaklarini diqqatlik bilan tanglash, muloxaza qilish va imkon darajasida yordam qo‘lini chuza olish.

Harbiy-pedagog professional kompetentligi darajalari qo‘yidagilar bilan belgilanadi:

Aytilganlardan tashqari, harbiy pedagog uchun fan bo‘yicha kompetentlik, umumpedagogik kasbiy kompetentlik, boshqaruvchanlik kompetentligi, refleksiv kompetentlik, axborot-kommunikativ kompetentlik, innovatsion faoliyat kompetentligi, kreativ kompetentlik ham muhim sanaladi hamda ular hammasi birgalikda o‘qituvchining yuksak mahorat cho‘qqisini egallashlariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqoridagi ko‘rsatgichlarni inobatga olgan holda, fanning rivojlanishi bilan ilmiy-texnik taraqqiyot bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta’minlash muayyan darajada boshqarish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Pedagog-ofitserlarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining samarasi ko‘p jihatdan uning axborot ta’minotiga ega bo‘lishini va pedagogik jihatdan boshqarish yo‘nalishlarining tizimli, zerikarsiz hamda uzluksiz bo‘lishini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. // Vatanparvar, 2018 yil 13 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. – T.: Sharq, 2007. – 496 b.
3. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi, 2011. – 206 b.
4. Ochilov M. Muallim – qalb me’mori. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 430 b.
5. Saidov U. Boshqaruv va notiqlik san’ati. //O‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom, 2011. – 176 b.

РЕЗЮМЕ

Bo‘lajak harbiy kadrlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularni yetuk malakali kasb egasi etib tayyorlash va harbiy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish zamonaviy harbiy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib sanaladi.

РЕЗЮМЕ

Развитие профессиональной подготовки будущих военнослужащих, подготовка из них полноценных специалистов, повышение эффективности процесса военного образования считается одной из актуальных задач современной военной педагогики.

SUMMARY

The development of professional training of future military personnel, training of them as full-fledged specialists, increasing the efficiency of the military education process is considered one of the urgent tasks of modern military pedagogy.

INKLYUZIV TA’LIM SAMARODORLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Berdiyeva S.E.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus ta’lim, maxsus yordamga muhtoj bolalar, integratsion ta’lim, inklyuziya, nuqsonlar.

Ключевые слова: инклюзивное образование, специальное образование, дети с особыми потребностями, интегрированное образование, инклюзия, инвалидность.

Key words: inclusive education, special education, children with special needs, integrated education, inclusion, disabilities.

Kirish. Respublikamizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tizimi ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni hamda 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorlarining qabul qilinishi har bir bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini topish yo‘lidagi istiqbolli sa’y-harakatlaridan biridir. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori inklyuziv ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz. O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini keng joriy

qilishga qaratilgan chora tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini o‘rganish bo‘yicha davlat va nodavlat hamkorlik loyihalari amalga oshirilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni (diskriminasiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Inklyuziv ta’limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta’lim olishini qo‘llaydi va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta’lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta’limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta’limni tadbiq etishda dars berish, o‘qitish bir muncha samarali va unumli bo‘lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar uchun bu foydali bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir birlari bilan muloqot qilish jarayonida o‘zlarining o‘qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv ta’lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Forobiy o‘z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o‘zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to‘g‘risidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolarni hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Forobiy «Ilm va san’atning fazilatlari haqida» kitobida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim- bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga qarab borishni uqtiradi. Inson voqelikni idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq va usullar orqali bila oladi. Olim hissiy va aqliy bilish mavjudligini, ular bir-biridan farq qilishini ham aytib o‘tadi.

Sharqda “Shayx-ur rais” unvoni bilan mashhur bulgan Abu Ali ibn Sinoning “Tadbir ul-manozil” asarida bayon etilgan o‘qitish usullari hozirgi davr ta’lim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir:

«Bola baquvvat bo‘lib, so‘zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so‘ng u savod o‘rganishga qobil bo‘ladi, shundan so‘ng savodga o‘rgata borish mumkin”.

Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan irodali, dono, g‘amxo‘r va dinga ishongan o‘qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo‘ladi. U sog‘lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo‘la oladigan tarbiyachi bo‘lishi kerak». Ibn Sino talabaga bilim berishda o‘qituvchining pedagogik mahorati va mas’uliyatli burchi masalasiga alohida to‘xtalib, o‘qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o‘rganishi va bilimlarini tekshirib ko‘rishi, qiziqishi, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so‘ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o‘qituvchiga shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo‘lish, berilayotgan bilimlarning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli o‘qitish usullari va shakllaridan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish, fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish.

Har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarurligini ta’kidlab, bolalarni alohida-alohida o‘qitishdan ko‘ra jamoa, sinf tartibida o‘qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta’kidlaydi: «O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni ilk asoschilari va olimlari. 1996-yilda xorijiy delegatsiya mamlakatimizga kelib, ilk muzokaralarni o‘tkazgan. Ushbu muzokaralar A.Avloniy nomidagi XTTXQTMOI Maxsus ta’lim kafedrasi va RTM maxsus ta’lim bo‘limi va Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakulteti professor o‘qituvchilari ishtirokida o‘tkazilgan.

O‘zbekistonlik olima R.Sh.Shomahmudova mamlakatimizga boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ilk bor Angliya tajribasini olib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Olima rahbarligida RTM da “Inklyuziv ta’lim”ga bag’ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etilgan.

YUNICEF xalqaro tashkiloti va XTB hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilgan.Ushbu loyihalarning koordinatorlari sifatida O‘zbekistonlik olimlar professor L.Mo‘minova dotsent U.Fayziyevalar ish olib borganlar.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. “Salamanka deklarasiyasiga muvofiq har bir o‘quvchining tafovut, xususiyatlarini qo‘llab quvvatlovchi va ma’qullovchi islohot sifatida qarashadi. Uning maqsadlari, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik. Biroq bu konsepsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib chiqdi. Dunyo bo‘yicha maktablarda inklyuziv ta’limga ko‘pincha umumta’lim maktablarida nogironlarni o‘zlarining tengdoshlari bilan birga ta’lim olish deb qaraladi” (Judi Kugelmas).

Biroq inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. “Inklyuziv” va “integratsiyalashgan” atamalari ko‘pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Biroq falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida “inklyuziv” yoki “integratsion” ta’lim atamalari bilan ataladi. “Integratsiya” atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta’rifini bergan G.M. Kajdasparovning “Pedagogicheskiy slovar” lug‘atiga murojaat qilamiz. Unda “guruhlar integratsiyasiga”, “guruhda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish” sifatida qaraladi shuningdek, jamoada faqatgina insonparvrlik munosabatlarni va mazkur guruhda ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tadbiq etish mumkin deb ta’kidlanadi.

UNICEF inklyuziv ta’lim O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalasi bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tegdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yoki imkoniyati cheklangan bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziya integratsiyadan ko‘ra ko‘proq ekanligini ta’kidlash kerak, bu nafaqat ta’limga, balki har bir kishining hayotida istisnosiz, har bir insonning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda, bu farqlarni tan olishdir, bu farqlar haqidagi fikrlarni boyitish tinchlik va jamiyatning

tabiiy hodisasi sifatida, bu ta’lim sohasidagi doimiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zgarishlar tufayli samarali ta’lim olish imkoniyatidir. inklyuziv ta’lim sharoitlarida surdopedagog, oligofrenopedagog va tiflopedagolar faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda asosiy masala sog‘lom bolalar bilan imkoniyati cheklangan bolalarning birgalikda ta’lim-tarbiya olishlari samaradorligini ta’minlash va oshirib borish hisoblanadi va unga asosiy e’tibor qaratish lozim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash. Pedagogik ta’lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.

2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta’lim, 1(2), 111-113.

5. Berdiyev B. R. “Matematika o‘qitish metodikasi”. Darslik II-kitob. Qarshi. “Fan va ta’lim” nashriyoti. -2021. . – 260 b.

3. Berdiyeva S.E. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini shakllantirishning psixologik asoslari. Научний импульс. Международный современный научно-практический журнал. 2023 №8 (100)

4. Berdiyeva S.E. Pedagogik diagnostika olib borish metodlarining ahamiyati va mazmuni. CAJECS. Central Asian journal of education and computer sciences. 2023 volume 2, issue 2.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim va uning mazmun mohiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Inklyuziv ta’lim atamasi, alloma va olimlarning fikrlari orqali bugungi kunda inklyuziv ta’limni amalga oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilar e’tibor berishi hamda amal qilishi kerak bo‘lgan jihatlari qisqacha yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье кратко обсуждаются инклюзивность и ее содержание. Термин инклюзивное образование, аспекты, на которые будущие учителя должны обратить внимание и которым следует следовать при реализации инклюзивного образования сегодня, были освещены через мнения ученых и ученых.

SUMMARY

In this article, inclusiveness and its content are briefly discussed. The term inclusive education, the aspects that future teachers should pay attention to and follow in the implementation of inclusive education today have been highlighted through the opinions of scholars and scientists.

TABIIY FANLARNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashev J.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: integrativ yondashuv, innovatsion ta’lim, tizim, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar.
Ключевые слова: интегративный подход, инновационное образование, система, педагогические технологии, интерактивные методы.
Key words: integrative approach, innovative education, system, pedagogical technologies, interactive methods.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Tabiiy fanlar sohasida ta’lim sifatini tubdan oshirish, umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’limda o‘quvchilarga ma’lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o‘zi bugungi kunda yetarli bo‘lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg‘otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta’lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi-o‘quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta’limda aniq samarador natijaga erishishdir. Pedagogik texnologiya turli-tuman qirralarga ega. Biz ushbu paragrafda faqat bir masala-integratsiya va shu orqali samarali natijaga erishish yo‘l-yo‘riqlari haqida to‘xtalmoqchimiz. Integratsiya-ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. “Integratsiya” tushunchasi XVIII

asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz ham integratsiyani tafakkur o‘stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda ta’lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik. Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo‘lib hisoblanadi. Tabiiy fanlarni integrativ yondashuv uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Mazkur masalaning metodik jihatlarini tahlil qilish va integratsiyaga asoslangan darslarni ta’lim jarayonida qo‘llashning uslubiy taraflarini o‘rganish ushbu ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Hozirgi vaqtda pedagogik faoliyatning tabiati sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Yaratilgan ko‘p qirrali ta’lim amaliyotlari o‘qituvchilardan bolalarga nafaqat bilim, balki uni qanday olish, maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyati va tafakkurini shakllantirish, atrofdagi dunyoni yaxlit tushunishni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ishlab chiqishni ham talab qiladi. Zamonaviy ta’lim psixologiyasining ta’kidlashicha, O‘zbekiston jamiyatida ta’lim maydoni sezilarli darajada kengaydi, rivojlanayotgan ijtimoiy-madaniy muhitni loyihalash, o‘qishga psixologik tayyorlikning turli xususiyatlariga ega, individual farqlarga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim dasturlarini yaratish va amalga oshirishga qodir bo‘lgan o‘qituvchilarga ehtiyoj bor . Uzoq vaqt davomida mahalliy fan va amaliyotda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tayyorgarligi va kasbiy faoliyati fan o‘qituvchisining tayyorgarligi va faoliyatidan boshqacha ko‘rib chiqildi. Hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida bolalarning aqliy rivojlanishini aniq maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalarini bilish darajasida boshqarishga urinish ko‘plab boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari uchun juda muhim vazifadir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining psixologik tayyorgarligi hali ham fan-uslubiy tayyorgarlikdan ajralib turadi, shuning uchun bizning fikrimizcha, u kasbiy talabga ega emas, garchi uning ahamiyati va zarurligi hamma tomonidan e’tirof etilgan. Psixologik savodsiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, afsuski, o‘quv jarayonida bolalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yarata olmaydi, uning o‘ziga xos shartlari va harakatlantiruvchi kuchlarini bilmaydi, shuning uchun buning uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlay olmaydi. Eng iqtidorli o‘qituvchilar o‘zlarining pedagogik amaliyotlarida yosh maktab o‘quvchilari uchun rivojlantiruvchi ta’lim mazmunini yaratish zarurligiga intuitiv ravishda kelishadi, ammo bu muammoni hal qilishga bo‘lgan barcha urinishlari ma’lum metodik usullardan foydalanishdagi farqlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, zamonaviy mahalliy ta’lim psixologiyasida boshlang‘ich ta’lim uchun maxsus progressiv psixologik tushunchalar asosida yaratilgan ko‘plab rivojlanish ta’lim texnologiyalari mavjud. Biroq, ularning amaliy talab foizi kichik. Buning asosiy sababi - boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich kasbiy tayyorgarligi darajasi va ayniqsa, tabiiy fanlar bo‘yicha.

Ta’limdagi interfaol usullar bugungi kunda eng samarali yondashuvlardan biri sanaladi. Interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil etish – bu o‘quvchini mavzuga qiziqishini oshiradi, faollik ko‘rsatishga turtki beradi. Integrativ

yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini takomillashtirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: Amaliyot bilan bog‘liq tajriba darslari. Bunday darslarni bevosita maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borish mumkin. Bolalar psixologiyasi, ijtimoiy moslashuv fanlarining amaliy qismini shunday usullarda tashkil etish orqali, nazariyani amaliyotda sinash orqali bilimlar mustahkamlanadi. Shuningdek amaliy topshiriqlar bevosita bolalar ishtirokida o‘tganligi bois, yangicha fikrlar va yondashuvlarga tayanilgan yaxlit bilimlar shakllanadi. Mustaqil tadqiqot natijalariga asoslangan integral darslar. Bunday darslarda keying dars uchun topshiriq beriladi va bu topshiriqlar mazmuni o‘tilajak mavzu asosidagi mustaqil izlanishga asoslanadi. Bo‘lajak tarbiyachilar topshiriqni bevosita amaliyot obyektlarida bajaradilar va natijalarini dars jarayonida muhokama qiladilar. Darslarda loyiha taqdimotlarini tashkil etish. Loyiha shaklini yaratish o‘qituvchi tomonidan tushuntirilib turiladi. Talabalar kichik guruhlarga bo‘lingan holda taqdimot yaratib, ushbu taqdimotni guruhda namoyish qiladilar. Mazkur metodlarga yana qo‘shimchalar kirgizish va yanada boyitish mumkin. Muhimi, barcha faoliyatlar bir yoqlama emas, ko‘p turdagi faoliyatlardan tashkil topishi va bu faoliyatlarda mavzuga turli tomondan yondashuv tarkib topsin. Fanlarni integratsiyalab o‘qitishda integrativ materiallarga tayaniladi. Integrativ materiallar quyidagi talablarga javob berishi kerak: qiziqarli, ilmiy, o‘quvchilar yosh xususiyati, psixo-fiziologiyasiga mos bo‘lishi; oddiy, sodda tilda yozilgan, tushunarli tarzda bayon etilishi lozim. Integrativ material tarixiy, milliy, umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishi zarur. Jahondagi ko‘pgina mamlakatlar ta’lim tizimida integrativ xarakterdagi o‘quv dasturlari va darsliklardan foydalanilmoqda, Jumladan, Angliyada tabiiy fanlar modulli integratsiya asosida, Vengriyada barcha tabiiy fanlar integratsiya asosida o‘rganiladi. Gong-Kongda xam integrativ dasturlar joriy etilgan. Respublikada fanlarni integratsiyalab o‘qitish bo‘yicha bir qancha ijobiy ishlar qilingan bo‘lsada, hali ko‘pgina muammolar hal etilmagan:

- oliy ta’lim muassasalari uchun integratsiyalashgan ta’lim kontseptsiyasi ishlab chiqilmagan;
- o‘quv predmetlarining integratsiyalashgan mazmuni va uni o‘qitish metodikasi yaratilmagan;
- o‘quv predmetlari mazmunini integratsiyalashning shakl va metodlari ishlab chikilmagan;
- o‘qituvchilar o‘quv predmeti mazmunini integratsiyalab o‘qitish metodlarini aniq tasavvur eta olmaydilar.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, integrativ ta’lim asosida o‘quvchi olamning fizik, biologik, ximik, matematik, texniktexnologik manzarasi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘ladi. Tabiat go‘zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e’zozlashga oid estetik zavq shakllanadi. Fanlarni integratsiyalash tendensiyasi, materiya harakatining o‘zaro aloqa shaklini anglash va uning organik birlikda tuzilishini ilmiy metodologik asoslari orqali tushuntirishdan

iborat. Integratsiyalashgan ta’lim global texnik, texnologik, iqtisodiy ekologik muammolarni yechishga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun integratsiyalashgan bilimlarga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Yurtimizda ta’limga e’tibor rivojlanayotgan bugungi sharoitda hech bir pedagog yangiliklarga befarq bo‘lmasligi, faoliyatini innovatsion usullarda tashkil etishi lozim. Bu esa kelajakka tayyorlanilayotgan bo‘lajak mutaxassislarni ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv Talabani mustaqilikka va ijodkorlikka yo‘naltiradi. Bu esa ta’lim sifatini ko‘tarib, ilmiy rivojlanishlarga yetaklaydi. Odamning ishlashi qancha erkin bo‘lsa, u shuncha izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi. Shakllanayotgan pedagog oilada kattalar, oliygohda o‘qituvchilar hokimligidan qutulsa, uning ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlariga qarab ish tutilsa undada o‘z hatti-harakati uchun javobgarlik hissi paydo bo‘ladi. U o‘z ishi, qarashiga ega bo‘ladi. Ijod egasi hamisha o‘z qarashlarini asoslaydi, kerak bo‘lganda himoya qiladi. Shuning uchun yurtimizda mustaqil izlanuvchi shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e’tibor siyosat darajasiga ko‘tarila oldi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020-yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan Muroaajatnomasi. www.pv.uz.

2. Mavlonova R., Vohidova N.va b. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. 2-n - T.: Fan va texnologiyalar, 2022.

3. R.A.Mavlonova. N.H.Rahmonqulova. “Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalashgan pedagogikasi” Toshkent – “ILM ZIYO” 2009 y. 56 b.

4. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 b https://literature. academicjournal. io/index. php/ literature/ article/view/256

5. Berdiyev B. R. “Speci¬city In The Modern Methodological Training Of Future Teachers Of Primary Education In Mathematics”// The american journal of interdisciplinary innovations and research. USA. Volume-2 Issue-7 2020. 185-189 p

6. A. Munavvarov tahriri ostida. Pedagogika. – T.: O‘qituvchi, 1996. –200 b.

7. Musaev UD. Integratsiya - ta’lim jarayonini optimallashtirishning muhim printsipi. // J. Xalq ta’limi, 2002. № 6. - 4-6 bet.

РЕЗЮМЕ

Maqolada tabiiy fanlarni sifatli o‘qitish ahamiyati yoritilgan. Tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish samaradorligi va bu samaradorlikni oshirish usullari haqida ma’lumotlar bor. Maqolada tavsifiy metoddan foydlanilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье подчеркивается важность качественного преподавания естественных наук. Имеются сведения об эффективности преподавания естественных наук на основе интегративного подхода и путях повышения этой эффективности. В статье использован описательный метод. Заключение приведено в конце статьи.

SUMMARY

The article highlights the importance of quality science teaching. There is information about the effectiveness of teaching natural sciences based on an integrative approach and ways to improve this effectiveness. The article uses a descriptive method. The conclusion is given at the end of the article.

САНОГЕН ФИКРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАҲЛИЛИ ВА УНИНГ МУҲИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Карахонова О.Ю.
Қарши давлат университети, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Таянч сўзлар: саноген, саноген фикрлаш, соғлом шахс, руҳий саломатлик, фикрлаш, когнитив, адекватлик, ҳиссий барқарорлик, когнитив, мотивацион

Ключевые слова:саногенное, саногенное мышление, здоровая личность, психическое здоровье, мышление, когнитивное, адекватность, эмоциональная устойчивость, познавательный, мотивационный.

Key words: sanogenic, sanogenic thinking, healthy personality, mental health, thinking, cognitive, adequacy, emotional stability, educational, motivational.

Инсон саломатлигининг маънавий, психологик ва ижтимоий таркибий қисмларининг узвий ривожланиши долзарб бўлган замонавий жамиятда саноген фикрлаш тушунчаси алоҳида аҳамиятга эга.

Соғлом шахс, бир томондан, уни ташкил этувчи элементларнинг тартиблилиги, иккинчи томондан, унинг яхлитлиги ва уйғун ривожланишини таъминлайдиган жараёнларнинг боғлиқлиги билан тавсифланади. Шу билан бирга, саломатлик инсонни яхлитлиги билан боғловчи муҳим кўрсаткич бўлиб, барча индивидуал таркибий қисмларнинг ягона, ноёб, уйғун ўзига интеграциялашувининг зарурий шарти ҳисобланади.

Руҳий саломатлик - оғриқли руҳий кўринишларнинг йўқлиги, хатти-ҳаракати ва фаолиятини онгли равишда тартибга солиш имконияти билан тавсифланган шахснинг руҳий фаровонлик ҳолатидир. Руҳий саломатлик концепциясининг кўрсаткичлари қуйидаги таркибий қисмлардан иборат:

1) жисмоний ва руҳий шахснинг доимийлиги ва ўзига хослигини англаш;

2) ўхшаш вазиятларда тажрибаларнинг доимийлиги ва бир хиллиги;

3) ўзига ва ўз фаолиятига танқидий муносабат;

4)руҳий реакцияларнинг атроф-муҳит таъсирига адекватлиги (мослашувчанлик);

5) ўз хатти-ҳаракатларини белгиланган меъёрларга мувофиқ бошқариш қобилияти;

6) ўз ҳаётий фаолиятини режалаштириш ва уни амалга ошириш;

7) яшаш шароитларининг ўзгаришига қараб ўз хатти-ҳаракатларини ўзгартириш қобилияти.

Бундан ташқари руҳий саломатлик мезонлари ҳиссий барқарорликни ўз ичига олади:

– ёшга қараб ҳис-туйғуларнинг етуклиги;
– салбий ҳис-туйғуларга нисбатан ўзини тута билиш (уларнинг энг ҳалокатлилари қўрқув, ғазаб, очкўзлик, ҳасад);
– ҳис-туйғуларнинг эркин, табиий ифодаланиши;
– қувониш қобилияти;
– одатдаги (оптимал) фаровонликни сақлаш.

Юқоридаги кўрсаткичлар ва руҳий саломатлик мезонларининг кўп ҳолларда уни когнитив, хулқ-атвор даражаси сифатида тавсифланади. Бундан ташқари, таъсир этишнинг асосий йўналишларидан бири - когнитив-хулқ-атвор-инсон шахсиятининг ҳиссий ва мотивацион кўринишларини у ўрганган фикрлаш жараёнларига, тажриба орқали шаклланган хатти-ҳаракатлар дастурларига боғлиқ. Руҳий саломатлик, шахснинг ижтимоий фаровонлиги билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, у жамиятда воқеликни адекват идрок этишда, ҳаётга қизиқиш уйғотишда, атроф-муҳитга мослашишда ва ҳоказоларда намоён бўлади.

Фикрлаш когнитив соҳада шахс тузилиши функцияларини шакллантириш ва фарқлаш жараёни сифатида қаралади (А. Кустов), улар етук бўлиши билан бир неча босқичлар оддий шакллардан когнитив механизмларнинг етарлилигини таъминлайдиган янада яхлит функционал комплексларга ўтади. Фикрлаш деярли ҳар доим муаммоли вазиятнинг мавжудлиги, ҳал қилиниши керак бўлган муаммодир, ушбу муаммо қўйилган шартларнинг фаол ўзгариши ва янги натижанинг пайдо бўлиши билан боғлиқ бўлади. Фикрлаш субъектнинг маълум бир фаолиятининг намоён бўлиши бўлиб, у нафақат ташқи оламни акс эттиришга қаратилган, балки субъект фаолиятининг (биринчи навбатда, унинг мотивлари ва мақсадлари) инъикосидир. Фикрлаш, гарчи у дунёни адекват тарзда акс эттирса ҳам ҳар доим субъективдир.

Саноген фикрлаш («sano» /lot./ - шифолаш, соғлом қилиш, тасалли бериш, рағбатлантириш, тартибга солиш ва «гено» /лот./ - (ҳосил қилиш) даволовчи, соғлом фикрлаш; саломатлик яратувчи, ақлий, жисмоний каби маъноларни англатиб, грек тилидан таржима қилинганда “саногеник” “саломатлик келтирувчи” (санос – даволовчи; генос – кўтарувчи) деган маънони билдиради.

2005 йилги психологик энциклопедияда саноген фикрлаш (лот. «санитас» - саломатлик ва «генесис» - келиб чиқиши) таъкидланган. Шахс ўз тажрибаларида ҳиссий омилларни онгли равишда таҳлил қилишга асосланган, тикланиш мақсадида онгли равишда ўзини-ўзи бошқаришдан иборат бўлган мураккаб муаммоларни ҳал қилишнинг самарали воситасидир.

Саноген фикрлаш ақлий ҳаракатларни шакллантириш жараёни каби босқичларда содир бўлади.

1. Кириш ва мотивация. Бу босқичда ҳаракат ҳали бажарилмаган, у фақат тайёрланади.

2. Ҳаракатнинг тахминий асосини аниқлаш. Бу вазифада ориентация ҳақида: биринчидан, мавзуга энг кўп эътибор қаратиладиган нарса таъкидланади.

3. Ҳаракат моддий кўринишда шаклланади. Ушбу босқичда инсон амал қилиши керак бўлган фаолият кўрсатмаларидан хабардор бўлади. Ҳаракат автоматлаштирилган, ажралмас ҳолга келади ва уни ўхшаш бўлган вазифаларга ўтказиш мумкин.

4. Ўзини-ўзи назорат қилиш босқичи (ички тилда ҳаракатни шакллантириш). Бу ерда ҳаракат энг автоматлаштирилган ички жараёнга, фикрлаш ҳаракатига айланади, унинг бориши ёпиқ бўлиб, бу жараённинг фақат якуний натижаси маълум бўлади.

Ю.Орлов саноген фикрлашнинг асосий тамойиллари деб ҳисоблайди:

а) ақлий операцияларнинг мақсадга мувофиқлиги;

б) одатлардан хабардор бўлиши;

с) интроспекция (ички қараш);

д) кундалик фикрлашнинг илмийлиги.

Саноген фикрлаш тамойилларини мазмуни:

1) биринчи принцип бўйича: саноген фикрлаш жараёни фикрлаш операцияларини таҳлил қилишни ўз ичига олади.

2) иккинчи тамойилга нисбатан: фикрлашни англаш жараёни, реакцияларнинг одатий усулларини танлаш онгли ёки онгсиз равишда пато- ёки саноген хатти-ҳаракатларнинг пайдо бўлишига эргашади;

3) учинчи тамойилга келсак: ўз-ўзини назорат қилиши натижасида охир-оқибатда ташқи вазиятларга адекват муносабатда бўлишга ёрдам беради;

4) тўртинчи тамойилга келсак: илмий фикрлаш деганда рационал, далилли, тизимли билимга асосланган воқеликни амалга ошириш усули тушунилади, унинг асосий мақсади - атрофдаги борлиқ ҳақидаги объектив ҳақиқатни билишни назарда тутади.

Саноген фикрлаш мазмунининг ўзига хос хусусиятлари субъект билан ишлайдиган махсус фикрлар, ғоялар ва билимлардан иборат бўлиб, қуйидагиларни ўз ичига олади:

1) саноген фикрлашни акс эттириш жараёнида диққатни жамлаш;

2) руҳий ҳолатнинг ишлаш қонуниятлари ва қийин ҳаётий вазиятларда уни бошқариш усулларини билиш;

3) салбий кечинмалардан халос бўлиш қобилияти, бунинг натижасида:

а) руҳий ҳолатнинг ижобий-ҳиссий кўринишининг умумий ўзгариши;

б) шахс ўз хатти-ҳаракатларида ўзининг руҳий ҳолатининг намоён бўлишини тан олишни ўрганади;

в) қийин вазиятларда аналитик фикрлаш қобилияти ошади;

4) салбий фикрлар ва хатти-ҳаракатларни тўхтатиш қобилияти;

5) ижобий тажрибаларга киришиш қобилияти;

6) керакли мақсадга эришиш учун маълумотларни тан олиш;

7) эҳтиёжларни қондириш учун ўзи учун фойдали бўлган вазиятнинг таркибий қисмларини фарқлашдан иборатдир.

Саноген фикрлашни шакллантиришда юқоридаги барча таърифлардан келиб чиқадиган бўлсак, бу салбий ҳиссий ҳолатни тартибга солиш ва қийин ҳаётий вазиятларни ҳал қилиш билан боғлиқ жараён сифатида кўриб чиқилади, бу охир-оқибат руҳий саломатликни яхшилашга ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Орлов Ю.М. Оздоравливающее (саногенное) мышление/ составитель А.В. Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1. - Издание 2-е изд., исправленное. - М.: Слайдинг, 2006. - 96 с.

2. Ataxanova S. Innovatsion ta'lim jarayonida tafakkur // Ilmiy maqola. "Sog'lom avlod uchun" ilmiy-ommabop jurnal materiallari. 2014 yyil. 5/4- 5 b.

3. Abdiraxmonova Z.A. O'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. avtoref. .... -2020. - 48 b.

4. Морозюк С.Н. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуаций характера и повышения эффективности учебной деятельности. Док. псих. наук ... дисс. - М. 2001. – 382 с.

5. Васильева Т.Н. Саногенное мышление учащегося, учителя. - Калининград: ГИПП «Янтарный сказ», 2000. - 152 с.

6. Рассохин А.В. Личностная саногенная рефлексия в изменных состояних создания. Авт. док. дисс. 2009. 41-с.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада талабаларни саноген фикрлашнинг педагогик таҳлили, фикрлаш мазмунининг ўзига хос хусусиятлари ва тамойиллари асосида таълим жараёнига хос тузилмалари ва уларни амалга оширишнинг бир қатор афзалликлари ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изучаются педагогический анализ саногенного мышления учащихся, конкретные структуры образовательного процесса, основанные на особенностях и принципах содержания мышления, а также ряд преимуществ их реализации.

SUMMARY

This article studies the pedagogical analysis of students' sanogenic thinking, specific structures of the educational process based on the features and principles of the content of thinking, as well as a number of advantages of their implementation.

PEDAGOGIK QOBILIYATNI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raimberdiyev A.A.
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: qobiliyat. intellektual qobiliyat, ijobiy qobiliyat, akademik qobiliyat, iqtidor, iqtidorlilik, iqtidorli bolalar, iste’dodli yoshlar.

Ключевые слова: способность. интеллектуальные способности, положительные способности, академические способности, талант, одарённость, одарённые дети, талантливая молодёжь.

Key words: ability. intellectual ability, positive ability, academic ability, talent, giftedness, gifted children, talented youth.

Qobiliyatlar avvalom bor umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi va har birining o‘z psixologik tizimi va tuzilishi mavjud. Shunday qilib, qobiliyat har bir shaxsning o‘ziga xos individual - psixologik xususiyati hisoblanib, u shaxsning butun hayoti va faoliyati, ijtimoiy faolligi, fikr va qarashlari, dunyoqarashi natijasida rivojlanib boradi. Masalan, oliy o‘quv yurt talabalari ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o‘zlashtira oladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “qobiliyat” tushunchasining mazmuni ham ochib beriladi: “qobiliyat – bu mayl, qiziqish, moyillik, qobillik, qodirlik, iste’dod” ma’nolarini anglatishi ta’kidlanadi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.V/Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va b.q. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -317-b.)

“O‘zbekiston milliy ensiklopediya”sida esa “qobiliyat bilim, ko‘nikma, malakalardan farqli o‘laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual psixologik va jismoniy xususiyatlaridir” – deb ta’riflanadi. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.V/Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va b.q. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -317-b.)

Umumiy qobiliyatga ega bo‘lgan shaxslar yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo‘libgina qolmay, muammolarning yoki masalalarning yechimini topishga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi.

Maxsus qobiliyat egalari esa biron-bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o‘ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo‘lgan va mana shu faoliyat bilan shug‘ullanishni afzal ko‘radilar.

Pedagogik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq.

Erta yosh davrlar - maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida ko‘rilishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishlarni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola shaxsi tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog-pedagog, ota-onalar tomonidan e’tibor berilgan qobiliyat “aktual”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat esa “potensial” qobiliyat hisoblanadi.

Bir qancha mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, yosh V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar, aksincha ko‘p hollarda yoshlik davrida hech qanday qobiliyatga ega bo‘lmagan bolalar yetuklik davrida yutuqlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko‘pincha yon atrofdagilar e’tibor bermasliklari mumkin. Tabiiyki, har bir holatda qobiliyatni payqamaslikning sabablari hilma-xildir. Potensial iqtidor va qobiliyat haqiqatdan ham ma’lum bir vaqtgacha namoyon bo‘lmagandir.

Balki, ota-onalar pedagoglar va psixologlar tomonidan bola qalbining nozik harakatlaridagi o‘zgarishlarga yetarlicha ahamiyat berilmagan, intuitiv holda buni payqamaganlar yoki bilimlari yetmagan bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, bu narsalarni tushunmaganliklari sababli boladagi buyuk potensial imkoniyatlarni sezmaganlar, va hattoki, bu ijodkorlikni, intellektual tashabbusni negativ xususiyat sifatida qabul qilganlar. Boshqa, xususiyatlarni esa qadrliroq, deb hisoblaganlar. Ya’ni, barchamizga shaxsiy tajribamizdan ma’lumki, tirishqoqlik, itoatkorlik, saranjom-sarishtalik kabi xislatlarni fikrlar originalligi, dadillik, harakatlardagi va mulohaza yuritishdagi mustaqillikdan ustun qo‘yadigan ota-onalar, o‘qituvchilar, oliy o‘quv yurtlari professor o‘qituvchilari, rahbarlar uchraydi. Amerikalik olimlar tomonidan 400 ga yaqin taniqli odamlarning tarjimai holi o‘rganib chiqilganda ulardan 60 foizi maktab ta’limi davrida jiddiy muammolarga duch kelganliklari aniqlandi. Aktual va potensial qobiliyatlar tushunchasining mavjudligi rivojlanishni oldindan prognoz qilish muammosini muhim, deb hisoblaydi.

Shaxsning har qanday sifatlari va xarakter xususiyatlari, fe’l-atvorlaridagi va faoliyatlaridagi fazilatlari kattalarga kelajakda bolaning buyuk olim, rassom, sportchi yoki davlat arbobi bo‘lishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bu savolga javob topish birmuncha mushkuldir. Psixologlar shaxsning kelajagini

“bashorat” qilish imkonini beradigan bir qator qonuniyatlarni sanab o‘tganlar, ammo asoslangan prognozlar berishga hanuzgacha erishilgani yo‘q. Shu bilan bir qatorda butun jahon pedagogikasi va psixologiyasi sohalaridagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bola shaxsining imkoniyatlariga ishonchning psixolog-pedagoglar va ularning ota-onalarining mahoratiga yo‘g‘rilganligi mo‘jizalar sodir etishga qodir. Ba’zi hollarda hayotda insonga tabiat tomonidan berilgan qobiliyatdan ham ko‘ra u ana shu xususiyatni qanday rivojlantira olgani muhimdir.

Maxsus adabiyotlarda bolalar qobiliyatlari bir nechta kategoriyalarga ajratiladi:

- ***intellektual qobiliyat*** - maxsus intellekt testlari (IQ testlar) bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bolalar;
- ***ijodiy qobiliyat*** - ijodiy qobiliyatlari yuqori bo‘lgan bolalar;
- ***akademik qobiliyat*** - maktabda fanlarni yaxshi o‘zlashtiradigan bolalar.

Intellektual qobiliyat odatda maxsus testlar yordamida intellektual koeffitsiyent (IQ) ko‘rinishda aniqlanadi. Zehn-zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan kishilar faoliyatni o‘ta nozik did, donolik bilan bajaradilar, fanda qilingan yangiliklari bilan nom qozonadilar.

Ijodiy qobiliyatlarga nisbatan esa ikki xil bo‘lib, bir-birini inkor etmaydigan yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuvda ijodiylik qobiliyat deb tasavvur qiladigan bo‘lsak, ikkinchi bir yondashuvga esa ijodiylik shaxs xislati sifatida qarashimiz mumkin va shu sababdan har qanaqa yoshda va har qanday kasb-korda namoyon bo‘ladi. Akademik qobiliyatga ega bo‘lganlar esa ta’limda ko‘proq natijalarga erisha oladilar. Ular nazariy bilimlarni keng doirada, yengil o‘zlashtira oladilar, o‘ziga xos tafakkur va mustahkam xotiraga ega bo‘ladilar. Akademik qobiliyatlarni aniqlashda, maxsus standartlashtirilgan bilim testlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. G‘oziyev E. Psixologiya. - T.: O‘qituvchi, 1994. -224 b.
2. G‘oziyev E. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish. T.: O‘qituvchi, 1984. - 104 b.
3. Raimberdiyev A. Coverage of the problem of personality giftedness in the spiritual heritage of the east. 2023
4. Raimberdiyev A Shaxs iqtidori va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni muammosining talqini. - Qarshi, 2022
5. Raimberdiyev A Elimination Of Social And Pedagogical Problems In Working With Talented Students. 2022
6. Раимбердиев А. Бошланғич таълим жараёнида иқтидорли ўқувчилар билан олиб борилади-ган иш усуллари. Қарши, 2021

РЕЗЮМЕ

Pedagogik qobiliyatni aniqlash va rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida tushunchalar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Выделены представления о педагогико-психологических особенностях выявления и развития педагогического мастерства.

SUMMARY

Concepts about pedagogical-psychological features of identification and development of pedagogical skills are highlighted.

TA'LIM JARAYONINI TADQIQ ETISHDA SINERGETIKA ILMIY TADQIQOT YONDASHUVI SIFATIDA

Qosimova G.I.
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, P.f.f.d (PhD), dotsent

Tayanch so'zlar: sinergetik yondashuv, shaxs, o'quvchilarning ijodiy faoliyati.
Ключевые слова: синергетический подход, личность, творческая деятельность студентов.
Key words: synergetic approach, personality, creative activity of students.

Jahonda bugungi kunda turli global muammolar – ekologik halokatlar, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi illatlar xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan bir paytda bunyodkor g'oyalarni o'zida mujassam etgan, odamlarni ezgulikka da'vat eta oladigan milliy ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh etish hozirgi davrdagi murakkab ilmiy-konseptual muammolarni tahlil qilishda, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, milliy o'zlikni anglashda muhim amaliy ahamiyatga ega

Bizning fikrimizcha, sinergetik yondashuv pedagogik jarayonning har bir subyektini (ota-ona, talaba, o'qituvchi) rivojlanishdan o'z-o'zini rivojlantirishga o'tishini amalga oshiradigan rivojlanayotgan kichik tizimlar sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Shuning uchun ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri, davlat ijtimoiy siyosatining bir qismi bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z g'oya, fikr va qarashlarini faoliyati davomida amalda qo'llaydi va yangilik yaratadi. Ana shu yangilik yaratish ijodkorlik bo'lib, tafakkurning eng oliy shaklidir. Qo'yilgan vazifani hal etishda ma'lum bo'lgan usullardan foydalanmaydi. Faoliyatning maqsadi va usullarning tarkibi sifatida mahorat va tashabbuskorlikning asosiy sharti sifatida uni ijodiy faoliyat darajasiga ko'taradi.

“Ijod” so‘zining lug‘aviy ma’nosi: “yaratish”, “yangilikni kashf etish” so‘zlariga monand keladi. Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir.

Ijodkorlik – sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Shunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta’lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o‘qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Psixolog olim V.A. Krutetskiy bu haqda haqqoniy fikr bildirgan: “Qobiliyat faqat mehnatda namoyon bo‘libgina qolmaydi, balki mehnatda shakllanadi, kamol topadi, barq urib yashnaydi ham. Aksincha harakatsizlik halokatga mahkum etadi,”. A.V. Petrovskiy fikri bilan aytganda “Qobiliyat faqat o‘sishdagina mavjud bo‘ladi.

Qobiliyat inson faoliyatidan tashqarida mavjud bo‘lmaydi, ta’lim va tarbiya sharoitlarida esa u shakllanadi”. B.M. Teplov esa “Qobiliyat inson faoliyatidan tashqarida paydo bo‘lishi mumkin emas”, – deb ta’kidlaydi. Biroq ma’lum bir faoliyat tufayli iste’dod belgilari va qobiliyatlar har doim ham bolalikdan namoyon bo‘lavermaydi. Shuning unun qobiliyati bor deb bolani bir yoqlama tarbiyalash bolani bezdirib qo‘yib, faoliyatning boshqa turlari bilan shug‘ullanishini bug‘ib qo‘yish mumkin.

Sinergetika lingvistik bilimlarga yondashuv sifatida tilshunoslikning barcha sohalarida zarurdir. Masalan, so’z yasashda bu yondashuv murakkab so’z yasalish birliklarini o’rganishda, sintaksisda gapdagi bog’lanish turlarini o’rganishda va hokazo. Ilmiy tadqiqotga bir qancha yondashuvlar mavjud. Ular orasida: kontseptual, aspektual, empirik, pragmatik, balki tizimli. Tizimli yondashuv - bu predmetni ko’plab o’zaro bog’langan va o’zaro bog’liq bo’lgan tarkibiy qismlardan tashkil topgan tizim sifatida ko’rib chiqish, shuningdek, ushbu komponentlar va ularning dinamikasi o’rtasidagi jarayonlar.Va bugungi

kunda sinergetika yangi bilim sohasi, jumladan, tizimli fanlarning munosabatlari deb hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiyada bolalarning har tomonlama kamolga etkazish asosiy maqsad qilib qo'yilgani ham tarbiyaning ana shu qonuniyatlariga asoslanadi. Har tomonlama ta'lim-tarbiya berish bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Buning uchun o'quvchilarni kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat berilishi maqsadga muvofiq. Har bir bolaning qobiliyatini namoyon etuvchi faoliyatga yo'llashning eng maqbul yo'li ularda ijodkorlikni rivojlantirishdir. O'quvchi ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot yarata olmaydi va bu maktabning vazifasiga kirmaydi ham.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan bilimlari, mahoratini o'z saviyasi darajasida qo'llaydilar. Aqliy faollik, o'tkir zehn, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon etadi. Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning ijodiy faoliyati u yaratayotgan o'quv jarayonida masalalar yechish, muammolarni hal etishda, insholar yozishda rivojlana boradi. O'quvchi bu borada maktabgacha ta'limda va undan keyin shu vaqtgacha olgan bilimlarini tatbiq etadi.

Bunda o'quvchi yangi usullarni qo'llydi. Topshiriqni bajarish uchun faollik ko'rsatish, zehnliligi, zukkoligi, kashfiyotchiligi, zarur bilimga ega bo'lish uchun harakat qilishi, muammolarni yechishda harakatchanligi, mustaqilligi, mehnatsevarligi, voqea- hodisalar ichida eng muhimini tanlay bilishi, umumiysini ko'ra bilish qobiliyati kabilarni rivojlantirishga imkon beradigan faoliyat ijodiy samarali faoliyatdir. Maqolaning ilmiy mohiyati. Ushbu maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, tadqiqot natijasida ta'lim jarayonini sinergetika metodologiyasining imkoniyatlaridan keng foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan. Ta'lim sistemasini tahlil etishda sinergetik yondashuv va bunday yondashuvning o'ziga xos jihatlarini ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqot ishida bayon etilgan xulosalar ushbu yo'nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Sinergetik ta'limot vujudga kelishi natijasida olamning ilmiy manzarasi shakllandi. Bu olamga yangicha metodologik nuqtai nazardan yondashuvdir. Olimlar, tadqiqotchilar borliq, jamiyat, inson to'g'risida yangicha fikr yurita boshlashdi. Chunki bugungi kunda globallashuv, taraqqiyot jadal sur'atlar bilan kechayotgan bir davrda yangicha tafakkur tarziga ega bo'lish, har bir tadqiqot obyektini har tomonlama eng yangi metodlar orqali o'rganish davr talabidir. Hozirgi davrda ijtimoiy fan metodologiyalari asosiy e'tiborini sinergetika g'oyalari va u bilan bog'liq xaos nazariyasi tobora ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Sinergetikaning asosiy nazariyalari paydo bo'lishini Ilya Prigojin – kimyoviy

fizika sohasidagi Nobel mukofoti laureati, belgiyalik olimning ilmiy faoliyati bilan bog‘liqdir. Sinergetika o‘z-o‘zini tashkillashtirish nazariyasi, murakkab dinamik tizimlar taraqqiyotining nomuntazam davrlarda holati keskin o‘zgarishi mumkin bo‘lgan uni versal qonuniyatlar to‘g‘risidagi ta’limotdir.

Sinergetik metodologiyaning tasdiqlanishi falsafiy qarashlar rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Sinergetika (o‘zini tashkil qilish nazariyasi) xaos va tartibning holatini chegaralash zaruratini belgilaydi. Sinergetika ilmiy yo‘nalishi vujudga kelguniga qadar nochiziqli, muvozanatsiz, betartib holatlarga ijobiy munosabatda bo‘linmagan. Aynan sinergetika ta’limoti tufayli tartibsizlik (xaos) holati ham taraqqiyot uchun, yangi tizim hosil bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi. Sinergetikada barqarorlik va xaos kategoriyalarining o‘zaro munosabati ham o‘rganiladi. Mazkur ilmiy soha tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra har qanday eski tuzilma yangi tuzilma bilan almashinar ekan, dastlab beqarorlik, xaos yuz beradi, tizimdagi unsurlar barqarorligiga putur yetadi12. Aynan ta’lim tizimidagi jarayonlar ham o‘tgan yillar (mustaqillik yillari) xuddi shu kabi eski tuzilma yangisi bilan almashgan davrdan boshlab muvozanatli va muvozanatsizlik orasida doimiy kurash borayotgan ko‘rinishda namoyon bo‘lib kelmoqda.

Sinergetik ta’limotga ko‘ra bu jarayon nuqtasidagi holatni o‘zgarishida oddiy tasodif ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Tadqiqot maqsadimiz asosida biz ta’lim jarayonini aynan sinergetika nuqtai nazaridan tadqiq etar ekanmiz, uning asosiy kategoriyalari haqida qisqacha tushuntirish berish to‘g‘ri bo‘ladi.

Sinergetika lingvistik bilimlarga zarur sohalarda zarur tilshunoslikning barchadir. Masalan, so’z yasashda o’rganish murakkab so’z yasalish birliklarini o’zida, sintaksisda gapdagi bog’lanish turlarini o’rganishda va hokazo. Ilmiy tadqiqotga bir qancha miqdorlar mavjud. Ular orasida: kontseptual, aspektual, empirik, pragmatik, balki tizimli. Tizimli tizim - bu predmetni ko’plab o’zaro bog’langan va o’zaro bog’liq bo’lgan mahsulotlar qismlardan tashkil topgan tizim sifatida ko’rib chiqish, komponentlar va komponentlar ushbu dinamikasi o’ziga xos jarayonlar va bugungi kunda sinergetik yangi bilim sohasi, tizimli fanlarning munosabatlari deb hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent, 2005. – 104 b.

2. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

3. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primarys chool as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.

4. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school// ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Scienc. – P. 37- 41.

5. Qosimova G.I.Systematic model of formation of the images of natural skiense and its effective implementation didaktik state// International Journal for innovativer Engineering and Management Research (Hindiston). Vol 10 Issue01, Jan 2021 ISSN 2456 – 50832021. – P. 63-68.

6. Qosimova G.I. The process of cognition of the surrrounding vorld by primary skool students and the balance of the lavs ofscientific knovledge// AKADEMICIA Aninter national Multidisc iplinary Research Journal (Hindiston). Vol. 11, Issue 2, February 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. – P. 2249-7137.

7. Qosimova G.I. Development of natural scientific thinking in elementary school students style// galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 9, Issue 5, May (2021). – P. 467-470.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada sinergetik yondashuv, pedagogik sinergetika o'zini o'zi aniqlash va shaxsni rivojlantirish. Ta'lim jarayonini falsafiy tahlil ztishda bosqa falsafiy metodologiyalar bilan bir qatorda sinergetik metodologiyadan foydalanishning ahamiyati muhim ekanligi asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается синергетический подход педагогического синергетического самоопределения и развития личности. В его основе лежит важность использования синергетической методологии наряду с другими философскими методологиями в философском анализе образовательного процесса.

SUMMARY

This article discusses the synergetic approach of pedagogical synergetic self-determination and personality development. It is based on the importance of using synergetic methodology along with other philosophical methodologies in the philosophical analysis of the educational process.

BIRLASHTIRILGAN DIDAKTIK INTERFAOL DASTURIY TIZIMDAN ELEKTROENERGETIKA FANLARINI O‘QITISHDA FOYDALANISHNING NAZARIY TAHLILI

Niyazov J.A.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tadqiqotchisi

Tayanch so’zlar: dasturiy tizim, dasturiy tizim, birlashtirilgan didaktik interfaol dasturiy tizim, elektroenergetika, pedagogika, ommaviy axborot vositalari, raqamli texnologiyalar, televizion o’yin, internet.

Ключевые слова: программный комплекс, программный комплекс, интегрированный дидактический интерактивный программный комплекс, электроэнергетика, педагогика, средства массовой информации, цифровые технологии, телевизионная игра, интернет.

Key words: software package, software package, integrated didactic interactive software package, electrical power engineering, pedagogy, media, digital technologies, television game, Internet.

Kirish. Ta’lim sohasida qabul qilingan farmon va qarorlar haqida ma’lumotlar kiritib yozish. Kompyuter o‘qitish dasturi va talaba o‘rtasidagi dialogni tashkil etish masalalari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarda ma’lum darajada ko‘rib chiqiladi.

Ilmiy ishda [Robert, 2004] interfaol dialog ostida foydalanuvchining dasturiy tizim bilan o‘zaro ta’siri tushunilib, u matnli buyruqlar (so‘rovlar) va javoblar (takliflar) almashishni o‘z ichiga olgan dialog o‘zaro ta’sirdan farqli ravishda, yanada rivojlangan dialog olib borish vositalarini (masalan, cheklangan belgilar to‘plami bilan ixtiyoriy shaklda savollar berish imkoniyati) amalga oshirish bilan tavsiflanadi; bunda o‘quv materialining mazmuni va ish rejimlari variantlarini tanlash imkoniyati ta’minlanadi.

Ushbu ta’rifda, bizning fikrimizcha, ikkita xususiyatni ajratib ko‘rsatish kerak: o‘quv dialogi – bu shunchaki axborot almashish emas; o‘quv dialogining maqsadi bo‘lib talabada muhokama qilinayotgan materialning mohiyati bo‘yicha eng to‘liq va adekvat bilimlarni rivojlantirish hisoblanadi;

talabaning kompyuter o‘quv dasturi bilan dialogining moslashuvchanligi va ravshanligini ta’minlash foydalanuvchi interfeysini oqilona tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchi jihat, xususan, [Demushkin va boshq, 1995] ishida tadqiq qilingan. Bu yerda, hatto yangi foydalanuvchilar uchun ham, dastur bilan ishlash qoidalarini tezda o‘zlashtirish imkoniyatlarini amalga oshirish haqida gapirilgan. Foydalanuvchi interfeysini ishlab chiqish usullari keltirilgan.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, aksariyat tadqiqotchilar va kompyuter o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilari interfaol dialogning didaktik imkoniyatlariga yetarlicha e’tibor qaratmaganlar. Masalan, ilmiy ishda [Masalitina va boshq., 2000] o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan kompyuter o‘quv dasturlarini tahlil qilish ularning ko‘pchiligining talaba bilimini shakllantirish nuqtai nazaridan cheklangan imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bunday dasturlar ko‘pincha o‘quv ma’lumotlarini (nazariy material, topshiriqlar) taqdim etadi va ma’lum test tizimi yordamida talabaning alohida uslublarni egallashini tekshiradi. Bunday dasturlarning talabaning bilish faoliyatiga cheklangan nazorat ta’siri qayd etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘quv-bilish faoliyatni o‘zlashtirish jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish muammolari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Masalan, [Talizina, 1984] ilmiy ishida boshqaruvning umumiy nazariyasi (kibernetika) va uning talablariga adekvat psixologik-pedagogik nazariyani sintez qilish taklif qilingan. Boshqaruv turini tanlashda quyidagilar hisobga olinadi: insonning bilish faoliyatining oqilona tuzilmasi; o‘quv jarayonining murakkabligini, uning ko‘plab omillarga bog‘liqligini hisobga olish.

Shu sababli, N.F.Talizina o‘zlashtirishning yakuniy natijalari bo‘yicha o‘quv jarayonini boshqarish samarasizligi to‘g‘risida xulosaga keladi, chunki ular va ularga olib keladigan bilish faoliyati o‘rtasida aniq bog‘liqlik yo‘q. Siklik (yopiq) boshqaruvning tuzilmasi taklif etiladi: a) boshqaruv maqsadi ko‘rsatiladi; b) boshqariladigan jarayonning dastlabki darajasi belgilanadi; v) jarayonning asosiy o‘tish holatlarini nazarda tutuvchi ta’sirlar dasturi aniqlanadi; g) boshqaruvning har bir momentida boshqariladigan jarayonning holati to‘g‘risida ma’lum parametrlar tizimidan ma’lumotlar olinishi ta’minlanadi (teskari aloqa); d) teskari aloqa kanali orqali olingan axborot qayta ishlanadi; tuzatish ta’sirlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.Ushbu tuzilma umumtexnik fanlar uchun DIDT bo‘yicha [Zaynutdinova, 1999] ishi uchun asos bo‘ldi va rivojlantirildi. L.X. Zaynutdinova ED yordamida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish imkoniyatlarini tadqiq qildi. Ta’kidlanadiki, o‘qitish jarayonini bunday avtomatlashtirilgan boshqarish interfaol ta’lim dialogining chuqur jihati, mohiyati

bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, DIDT ga qo‘yiladigan didaktik talablar orasida interfaollik talabi yetakchi bo‘lib hisoblanadi.

L.X. Zaynutdinova bo‘yicha interfaol jarayonni amalga oshirish jihatdan ED tuzilmasini keltirib o‘tamiz.

Teskari aloqa bloki				
Nazariy material mazmuni bloki	O‘rgatuvchi ta’sirni shakllantirish bloki	O‘quv topshirig‘ini yechish bloki	Talabalar kiritadigan javoblarni tekshirish bloki	Talabalar o‘quv faoliyati natijalarini baholash bloki

Quyidagi tuzilmaviy komponentlar keltiriladi: o‘quv fanining mazmuni bloki (nazariy material), o‘quv ta’sirini shakllantirish bloki, o‘quv topshirig‘ini yechish bloki, talabalarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish bloki, mazkur faoliyat natijalarini baholash bloki va teskari aloqa bloki. Mazkur tuzilma komponentlarining orasidagi aloqani hisobga olib, har bir komponentning vazifasini ko‘rib chiqamiz.

O‘quv ta’sirlarni shakllantirish bloki nazariy materialning mazmuni blokidagi ma’lumotlardan foydalangan holda talabalarga individual topshiriqlar berishni ta’minlaydi. Individual o‘quv topshiriqlarining variativligi dastlabki ma’lumotlarning raqamli qiymatlarining tasodifiy generatsiyasi va alohida turdagi topshiriqlarning tasodifiy variatsiyasi orqali ta’minlanadi.

Tahlil va natijalar. Topshiriqni bajarish jarayonida talaba o‘z yechimining barcha oraliq natijalarini kompyuterga kiritadi. Keyinchalik, javoblarni tekshirish bloki talabalar tomonidan kiritilgan javoblarni o‘quv topshirig‘ini yechish bloki tomonidan ishlab chiqiladigan etalon javob bilan taqqoslaydi. Shunday qilib, talabaning o‘quv faoliyati natijalarining oraliq nazorati bajariladi. Ushbu nazorat asosida talabaning o‘quv faoliyati natijalarini baholash bloki yordamida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni, urinishlar soni va boshqa omillarni hisobga oladigan yakuniy baho shakllanadi. Teskari aloqa bloki ED interfaolligini ta’minlaydi. Talabalarning dastur bilan shunday o‘zaro ta’siri darajasiga erishiladiki, bunda o‘quv-bilish faoliyatini o‘zlashtirish bo‘yicha kuzatuv, nazorat va tuzatish amalga oshiriladi. Masalan, talabaning harakatlarini tahlil qilish orqali dastur ma’lum turdagi nazorat harakatlarini (maslahat, tushuntirish, yangi savol yoki topshiriq va hok.) beradi. Teskari aloqa talabaning o‘quv-bilish faoliyatini yopiq boshqarishni ta’minlashning asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi.

Teskari aloqani amalga oshirishda turli xil o‘quv ta’sirlarini shakllantirish zarurati va shu sababli o‘quv faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirishng murakkabligi o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Mazkur muammoni hal qilish uchun talaba o‘quv faoliyatining shunday bir fragmenti hajmini to‘g‘ri aniqlash kerakki,

unga ma’lum bir o‘quv ta’sirni muvofiq qo‘yish hamda natijalarini ED vositalari yordamida kuzatish mumkin bo‘lsin. L.X. Zaynutdinova tomonidan aniqlandiki, umumtexnika fanlari sohasi uchun o‘quv topshiriqlari doirasida shunday interfaol o‘quv dialogini tashkil etish maqsadga muvofiqki, unda o‘qitishning nazorat qilinadigan bosqichi bitta operatsiyani bajarishga to‘g‘ri kelsin. Boshqacha qilib aytganda, talabalarning barcha harakatlarini bosqichma-bosqich nazorat qilishni amalga oshirish kerak. Ushbu yondashuv natijasida bir ma’noli tuzatuvchi o‘quv ta’sirlarini tezkor shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, talabaga bevosita yechim usulini o‘rgatish imkonini beradi. Ko‘rib chiqilayotgan tizim ED dan foydalangan holda o‘quv faoliyati chegaralarini qat’iy belgilaydi. Talaba dasturda qo‘yilgan topshiriqni yechishning belgilangan algoritmga qat’iy amal qiladi. Yechimning boshqa yo‘lini tanlashning har qanday boshqa imkoniyat istisno qilinadi. Talaba o‘quv topshirig‘ini yechishning namunaviy algoritmi doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega emas. Natijada o‘quv-bilish faoliyatining faqat reproduktiv algoritmiik darajasiga erishiladi [Zaynutdinova, Polskiy, 2005].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, L.X. Zaynutdinova tomonidan taklif etilayotgan interfaol o‘quv dialogining tuzilmasi talabalarning namunaviy o‘quv topshiriqlarini yechishda yaxshi tayyorgarligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, talabalarning evristik o‘quv-bilish faoliyatini o‘zlashtirish jarayonini boshqarishni tashkil etish masalalari ochiqligicha qolmoqda. “Elektrotexnika ta’limida yangi axborot texnologiyalari” xalqaro ilmiy-uslubiy anjuman materiallarining [Materiallar, 1998, 2000, 2003] tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, talabalarning produktiv o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan kompyuter o‘quv dasturlaridan foydalanish yo‘nalishlari eng past ishlab chiqilgan bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda taklif qilingan BDIDT tuzilmasi ko‘rsatilgan.

Birinchi va ikkinchi darajali topshiriqlarni bajarishda BDIDT doirasida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish ED da bo‘lgani kabi amalga oshiriladi, ya’ni: ta’lim ta’sirini shakllantirish bloki nazariy material mazmuni blokidagi ma’lumotlarni jalb qilgan holda namunaviy individual topshiriqlarning berilishini ta’minlaydi. Javoblarni tekshirish bloki talabalar kiritgan javoblarni o‘quv topshirig‘ini bajarish bloki tomonidan ishlab chiqiladigan etalon javob bilan taqqoslaydi.

Talabaning o‘quv faoliyati natijalarini baholash blokidan foydalanib, to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar sonini, ko‘rsatmali va ko‘rsatmasiz urinishlar sonini hisobga olgan holda yakuniy baho shakllantiriladi.

Interfaol o‘quv dialogini amalga oshirish jihatdan birlashtirilgan didaktik interfaol dasturiy tizimning tuzilmasi.

Evristik darajadagi topshiriqlarni qo‘yishda biz shunday interfaol o‘quv dialogini tashkil qilishni taklif qilamizki, bunda o‘qitishning nazorat qilinadigan bosqichi dastur bo‘yicha ishning mantiqiy yakunlangan bitta bosqichini bajarishga to‘g‘ri kelsin. Har bir bosqich – bu oraliq natijaning olinishini ta’minlaydigan elementar operatsiyalar to‘plamidir. Boshqacha qilib aytganda, talabaning o‘quv-bilish faoliyatini bosqichma-bosqich nazoratini amalga oshirish kerak. Bu holatda talabaga namunaviy bo‘lmagan topshiriqlarni bajarishning qulay yo‘lini tanlash erkinligi beriladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan BDIDT tuzilmasi ilmiy yangilikka ega, xususan: u kompyuter modellashtirish bilan birgalikda vizual-suggestiv teskari aloqa bloki vositasida talabaning produktiv evristik o‘quv-bilish faoliyatining yopiq yo‘naltirilgan avtomatik bosqichma-bosqich boshqaruvini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Попков, В.А. Теория и практика высшего профессионального образования: учеб, пособие для системы дополн. пед. образования / В.А. Попков, А.В. Коржуев. - М.: Академический проект, 2004.-432с.

2. Резвиг, В.Д. Соперничество Electronics Workbench и , Microcap / В.Д. Резвиг И PC Week / Re. - № 29-30. - 1999. - С. 18.

3. Рейнхардт, Р. Flash MX. Библия пользователя: пер. с англ. / Р. Рейнхард, С. Дауд. - М.: Изд. дом «Вильямс», 2003. - 1088 с.

4. Рейнхардт, Р. Macromedia Flash MX ActionScript. Библия пользователя : пер. с англ. / Р. Рейнхард, Д. Лотт. - М.: Изд. дом «Вильямс», 2003. - 1280 с.

5. Скибицкий, Э.Г. Комплексный подход к проектированию, созданию и применению целостных компьютеризированных курсов в общеобразовательной школе / Э.Г. Скибицкий. - Новосибирск: Изд-во Новосиб. ун-та, 1996. - 105 с.

6. Федотов, В.Ю. Диагностика электротехнических знаний и умений учащихся с использованием адаптивной компьютерной программы: дисс. канд. пед. наук / В.Ю. Федотов. - Екатеринбург, 2002. - 237 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada birlashtirilgan didaktik interfaol dasturiy tizimdan elektroenergetika fanlarini o‘qitishda foydalanish nazariy tahlil qilingan. Shuningdek, elektroenergetika ta’limi sohasi va o‘zlashtirish tizimining asosiy jihatlari, elektroenergetika va elektr mashinalari fanini o‘qitish tarixi hamda metodikasi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, raqamli mediamadaniyatida ommaviy axborot vositalarini iste’mol qilishning asosiy sabablari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье теоретически анализируется использование комбинированной дидактической интерактивной программной системы в преподавании электротехники. Также были обсуждены основные аспекты области электроэнергетического образования и системы его освоения, история и методика преподавания науки об электроэнергетике и электрических машинах. Кроме того, представлены основные причины медиапотребления в цифровой медиакультуре.

SUMMARY

This article theoretically analyzes the use of a combined didactic interactive software system in the teaching of electrical engineering. The main aspects of the field of electric power education and the system of its development, the history and methodology of teaching the science of electric power and electrical machines were also discussed. In addition, the main reasons for media consumption in digital media culture are presented.

UMUMIY PEDAGOGIK FANIDA TALABALARNI BILIM, KO‘NIKMALARI VA O‘QUV NATIJALARINI DIAGNOSTIKASI

Muratova Sh.I.
Qarshi Innovatsion Ta’lim Universiteti

Tayanch so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, talaba, yondashuv, pedagogik diagnostika, an’anaviy usullar, pedagogik jarayonni optimallashtirish, o’qitish funktsiyasi.

Ключевые слова: знания, умения, квалификация, студент, подход, педагогическая диагностика, традиционные методы, оптимизация педагогического процесса, обучающая функция.

Key words: knowledge, skills, qualifications, student, approach, pedagogical diagnostics, traditional methods, optimization of the pedagogical process, teaching function.

Kirish. Hozirgi kunda turli soxalarni diagnostika qilishda, eng ko’p uchraydigani ta’lim tizimlarining rivojlanishiga va turlari o’qituvchilar va psixologlarning maxsus tadqiqotlari mavzusiga aylandi. Ushbu tadqiqotlar diagnostik qo’llab-quvvatlash tizimiga, pedagogik, ijtimoiy, psixologik diagnostika munosabatlariga bo’lgan ehtiyojni belgilaydi. Pedagogik diagnostika ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. «Pedagogik diagnostika» tushunchasi K.Ingenkamp tomonidan 1968 yilda tibbiy-psixologik diagnostika bilan bog’liq usuli bilan taklif qilingan. Bunga ko’ra pedagogik diagnostikaning vazifalari, maqsadi va qo’llanish doirasiga ko’ra mustaqildir.

Material va tadqiqot usullari. Bunga ko’ra pedagogik diagnostikaning vazifalari, maqsadi va qo’llanish doirasiga ko’ra mustaqildir. Bu tushuncha usullarini va qo’llanish jarayoni ko’p jihatdan psixologik diagnostikaga borib taqaladi. Shuningdek o‘z navbatida bu jarayon tibbiyotning ko’plab usullari va modellarini o‘z ichiga oladi. Ko’nikma - bu malakaning tarkibiy qismi bo’lib, harakatning nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o’z-o’zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi hamda o’quvchilarda takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan ko’nikma ongli faoliyatni tez, tejamli, to’g’ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflagan holda bajarish

jarayonining natijasi hisoblanadi. O'quvchilarning ko'nikmasi o'zlashtirgan bilimlari asosida tarkib topadi. Ko'nikma quyidagi xususiyatlarga ega:

– bilim olishga odatlanish;
– axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish;
– ijtimoyi jihatdan faollashib borish;
– yangiliklarni o'zlashtirishga qiziqish.

Bular umumiy oliy va o'rta ta'lim o'quvchilarining ko'nikmasini tashxis etishda mezonlar hisoblanadi. Bularning barchasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi. Shu jihatdan bu jarayonda tashxis etish omilidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. G'arbda «Avitsenna» nomi bilan shuhrat qozongan Abu Ali ibn Sino hayotga, undagi borliqdagi savollarga o'z ma'naviyati bilan javob berar ekan shu jumlani aytib o'tgan:

> "O'qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yo'llarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. Muallim o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim"

Diagnostika (pedagogik) didaktik jarayonning barcha holatlarini oydinlashtirish, uning natijalarini aniq belgilashdir.«Pedagogik diagnostika - pedagogikaning bir kichik bo'limi bo'lib, pedagogik jarayonning normal yoki deviant borishini tavsiflovchi belgilarni aniqlash qo'llash tamoyillari va usullarini o'rganadi. U shuningdek tashxis qo'yish tartibini belgilaydi». «Pedagogik diagnostika - muayyan pedagogik jarayonning sifatini baxolovchi, uning shart-sharoitlarini, kursni o'tkazish shartlari va olingan natijalarni aniq belgilashdir».

Umuman olganda pedagogik diagnostikaning vazifalari:

– pedagogik jarayonni optimallashtirish (ta'lim, tarbiya yoki boshqaruv sifatini baholash, ta'lim muassasasi ishidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash);
– jamiyat va shaxs manfaatlaridan kelib chiqib, ta'lim natijalarini (ta'lim, boshqaruv) to'g'ri belgilashni ta'minlash;
– tanlangan mezonlarga asoslanib, pedagogik xatolarni minimallashtirish;
– ta'lim muassasasida talabalar va o'qituvchilarga yagona pedagogik pozitsiyalar va talablarni shakllantirishga ko'maklashish.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkomyatdir.

Natijalar va ularning muxokamasi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati naflida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- talabalarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- talabalarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

- ta'lim jarayoni boshida (boshlang'ich baholash);
- ta'lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta'lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- ta'lim maqsadiga yo'nalganlik;
- muntazam o'tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standardariga asoslanganlik.

Shunday qilib umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda xalqaro ta'lim dasturlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pedagogik diagnostika yordamida talabalarni bilim, ko‘nikmalarni diagnostik nazoratini o‘rganib chiqib, natijalarni olish hamda ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatningyoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o‘z qobiliyati va iste’dodini to‘la ro‘yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo‘shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda. Yoshlaming kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqi dagi nuqsonlami korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish,ta’lim-tarbiya tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shaklllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg‘or metodikalar uzluksiz ta’lim tizimida tahsil olayotgan yoshlaming tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo‘nalish sifatida fikrlarni aytib o‘tishimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика, пер. с нем. - М.: Педагогика, 1991. - 240с
2. Педагогическая диагностика в школе / Под ред. А.И. Кочетова - Мн., 1987
3. B.X.XODJAYEV Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 154-157
4. Педагогический энциклопедический словарь. - М., 2002. С. 190
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloqT.: "O'qituvchi". 1996 y. 206-bet.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –.Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006 Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010y.

РЕЗЮМЕ

Maqolada talabalarning bilim, ko'nikma va o'quv natijalarini diagnostikasi zaruriyati to'g'risida fikr yuritilgan. O'quv faoliyatini samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostika haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.Shuningdek, o'quvchilarning bilimini oshirishda pedagogik diagnostikaning maqsadi pedagogik jarayonning borishini o'z vaqtida aniqlash, baholash samaradorligi bilan bog'liq holda tahlil qilinib, kasbiy pedagogik diagnostikasi maqsadlari, vazifalari va ish mazmuni keltirilgan. O'quv natijalarini diagnostikasini o'quv jarayonining talabalarning individual xususiyatlariga ta'sirining sharti, sharti va natijasi sifatida ko'rib chiqamiz.

РЕЗЮМЕ

В статье размышляется о необходимости диагностики знаний, умений и результатов обучения учащихся. Описаны отзывы о педагогической диагностике в повышении эффективности образовательной деятельности. Также при повышении знаний студентов анализируется цель педагогической диагностики в связи со своевременным определением хода педагогического процесса, эффективности оценки, а также представлены цели, задачки и содержание работы профессиональной педагогической диагностики. Давайте рассмотрим диагностику образовательных результатов как условие, обусловленность и результат влияния образовательного процесса на индивидуальные особенности учащихся.

SUMMARY

The article reflects on the need to diagnose the knowledge, skills and educational results of students. Feedback on pedagogical diagnostics in improving the effectiveness of educational activities is described. Also, in improving the knowledge of students, the purpose of pedagogical Diagnostics is analyzed in connection with the timely determination of the course of the pedagogical process, the effectiveness of the assessment, and the goals, objectives and content of the work of professional pedagogical diagnostics are presented. Let's consider the diagnosis of educational results as a condition, condition and result of the influence of the educational process on the individual characteristics of students.

TA’LIM MUASSASASI FAOLIYATINI BOSHQARISH IMKONIYATLARI

Baratova N.T.
Qashqadaryo viloyati PYaMO’MMI katta o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat ta’lim, tarbiya, bilim, intelekt, islohat, boshqarish, rejalashtirish, menejment, boshqarish tamoyillari .

Ключевые слова: духовность, просвещение, культура, образование, воспитание, знание, интеллект, реформа, управление, планирование, менеджмент, принципы управления.

Key words: spirituality, enlightenment, culture, education, upbringing, knowledge, intelligence, reform, management, planning, management, management principles.

“Boshqaruv” (Menejment) tushunchasining mohiyati. Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish tushunchasining tavsifi. Ta’lim muassasasini boshqarish. Boshqarish ma’lum bir ob’yektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir.Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag’batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.Ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Menejment mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Olimlar ta’lim menejmetining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

– ta’lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so‘zi bilan aniqlanadigan ma’naviy o‘lchovga ega;
– ta’lim menejmenti – bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi);
– menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi;

– ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, endilikda ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi – ta’lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota-onalarga ta’lim dasturlarini, turlarini, ta’lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Boshqarish funktsiyasi deganda u yoki bu ob’yektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdagi ishlar majmui tushuniladi. Boshqarish nazariyasi asoschilaridan Anri Fayol XX asrning boshlarida boshqaruvning besh funktsiyasini ajratib ko‘rsatgan: rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat. A.T.To‘xtaboev mazkur funktsiyalarni faqat ma’muriy ekanligini ta’kidlab, ma’muriy boshqaruv funktsiyalarining uch guruhini ajratib ko‘rsatadi: umumiy funktsiyalar; ijtimoiy-psixologik funktsiyalar; texnologik funktsiyalar.

Turli olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, boshqaruvning quyidagi funktsiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Axborot-tahlil funktsiyasi. Mazkur funktsiya Yu.Konarjevskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, boshqaruvda alohida o‘rin tutadi; bunda axborotlarni olish va tahlil qilishda jarayon boshlanadi va tugallanadi.

Maqsadli-motivlashtirish funktsiyasi. Motivlashtirish belgilangan maqsadga erishish bo‘yicha barcha boshqaruv sub’ektlarida qiziqishlar uyg’otishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Oldindan ko‘rish-rejalashtirish funktsiyasi. Boshqaruv faoliyatini oldindan ko‘rish (anglash) va rejalashtirish funktsiyasi uchun maqsadli-motivlashtirish boshlang’ich asos bo‘lib xizmat qiladi, oldindan ko‘rish-rejalashtirish funktsiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta’sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me’yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik tizimni va uning ishtirokchilarining harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Tashkiliy-ijrochilik funktsiyasi. Bu funktsiya boshqaruv faoliyatining barcha yo‘nalishlarida o‘z ifodasini topadi. Bu kadrlar tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ijrochilarning o‘zaro ta’sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to‘plash va ularga ishlov berish faoliyatlari bilan bog’liq bo‘ladi. Buning natijasida u yoki bu pedagogik tizimga xos tarkibiy tuzilish vujudga keladi.

Nazorat-tashxis funktsiyasi. Nazorat – bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo‘lib, u boshqaruvning barcha funktsiyalari bilan bog’liq bo‘ladi. Umumiy holda nazorat rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o‘zaro solishtirish jarayoni bo‘lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Tartibga solish – muvofiqlashtirish funktsiyasi pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko‘tarish va pedagogik jarayonda yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklarni tuzatish hamda pedagogik jarayon ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi.

Mazkur funktsiyalarni amalga oshirishda boshqaruv metodlari muhim ahamiyat kasb etib, ular boshqaruv jarayonida xodimlar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qo‘llaniladigan ta’sir etish yo‘llari va usullarining yig’indisi hisoblanadi.

Boshqaruv metodlari. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta’lim muassasalarini boshqarishga ko‘p darajada mos keladigan metodlarning to‘rt asosiy guruhi: iqtisodiy, tashkiliy-ma’muriy, ijtimoiy-psixologik va axborotlar to‘plash metodlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Iqtisodiy metodlar o‘zaro bog’liq bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yig’indisini tavsiflab, har bir ishchi va butun muassasa uchun talablar belgilash bilan birgalikda zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko‘rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, innovasion jarayonlarni kuchaytirish, ya’ni xodimlarning innovasion faoliyatlarini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda iqtisodiy metodlardan foydalaniladi.

Rahbarlar tomonidan boshqaruv jarayonida, xodimlarning faoliyati batafsil o‘rganilgandan keyin, faoliyatnitakomillashtirish va rivojlantirish uchun bajariladigan vazifalar rejalashtiriladi. Bunda rahbarlar o‘z xodimlarining faoliyatlari natijalariga ko‘ra rag’batlantirish, mukofotlash, jazolash (jarima solish) yoki moddiy yordam ko‘rsatishlarida boshqarishning mazkur metodidan foydalanishlari zarur bo‘ladi. Iqtisodiy qayta tashkil etishlar mazkur metodlarni kuchaytirishga yo‘naltiriladi.

Tashkiliy-ma’muriy metodlar ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni bajaradi, faqat ularning ta’sir ko‘rsatish usullari va shakllari o‘zaro farq qiladi. Iqtisodiy metodlarda belgilangan masalalarni hal qilish uchun rahbarlar ta’sir ko‘rsatishning turli xil usul va shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tashkiliy-ma’muriy metodlar qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko‘rsatmalar tayyorlash, ularni o‘z vaqtida tegishli shaxslarga etkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Mazkur metod rahbarlar va xodimlar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar, umuman olganda, barcha jamoa a’zolari o‘rtasidagi mavjud munosabatlarni inobatga olgan holda ularning qiziqishi, manfaatlari, ko‘nikma va malakalari, bilimi hamda qobiliyatlarini o‘rganib, jamoadagi mavjud sharoitlarni yaxshilash va boshqa zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jamoa a’zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy-ma’muriy metoddan fodalanishdan ko‘zlangan maqsad belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo‘lishi zarur bo‘lgan o‘zaro

munosabatlar, aloqalar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o‘zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzluksiz rivojlanishni huquqiy va me’yoriy hujjatlarga mos ravishda ta’minlashdan iborat.

Ijtimoiy-psixologik metodlar jamoa a’zolari o‘rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda rahbar xodimlarning bemalol, erkin harakat qilishi, o‘zini-o‘zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun shart-sharoitni va ijodiy muhitni yaratishi zarur.

Boshqaruv uslublari. Boshqaruv uslubi – bu ish uslublarining to‘plami bo‘lib, u o‘zining faoliyatida ushbu boshqaruv apparatini qo‘llaydi. Menejment uslubi – bu rahbarni shaxsiy sifatlarining to‘plami, rahbarni qo‘l ostidagilar bilan munosabati, rahbarning o‘z faoliyatida ishlatadigan uslubi va yo‘llari, rahbarning xodimlarni amalda bilishidir. Boshqaruv uslubi boshqaruv usulidan kelib chiqadi. Boshqaruv usuli – bu boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi usul va yo‘llarning to‘plamidir. Boshqaruvning uchta uslubi keng tarqalgan:

Avtoritar (direktiv) uslubda rahbar o‘z irodasini qo‘l ostidagilarga ma’muriy kuch vositasida o‘tkazishga intiladi, ya’ni majburlash, qo‘rqitish, rag’batlantirish va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi.

Liberal (erkin ish yuritish) uslub rahbarning o‘z qarorlarini taveiyalar ko‘rinishida berishi, xodimlarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda rahbar vositachi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, xodimlariga keng doirada mustaqillik, to‘la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e’tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi.

Demokratik (kollegial) uslubda rahbar o‘z faoliyatini o‘zining jamoasi a’zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik xodimlar o‘rtasida taqsimlanadi. xodimlarning o‘zaro munosabatlarini rag’batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag’batlantirib boradi.

Adabiyotlar:

1. Конаржевский Юрий Анатольевич XVI Международная конференция. Дата обращения: 14 августа 2020.
2. A.T.To‘xtaboyev Umumiy pedagogika Toshkent 28 окт. 2023
3. Anri Fayol Sanoat va umumiy ma’muriyat. Fransiya. 1916 yil.

РЕЗЮМЕ

Maqolada menejment tushunchasining mohiyati, xusisiyatlari, boshqarish funksiyalari, ta’lim muassasasini boshqaruv metodlari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается сущность понятия управления, особенности, функции управления, методы управления образовательным учреждением.

SUMMARY

The article discusses the essence of the concept of management, features, functions of management, methods of managing an educational institution.

ШАХС ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ АДАПТАЦИЯСИ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Yarmanova Yu.B.
Qarshi DU "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi v.b dotsenti

Таянч сўзлар: шахс, жамоа, ижтимоий, жамият, адаптация, индивидуаллик, бола, индивид, маданий, ижтимоий-маданий адаптация.

Ключевые слова: личность, коллектив, социальный, общество, адаптация, индивидуальность,ребёнок, индивид, культурный, социо-культурная адаптация

Key words: personality, team, social, society, adaptation, individuality, child, individual, cultural, socio-cultural adaptation.

Bola shaxsini shakllantirishda shaxsiy va jamoaviy muammolar har doim diqqat markazda va juda murakkab bo'lib, turli xil tarixiy davrlarda o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'lgan. Bu esa ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik bir tomonga yoki boshqa tomonga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Bu davrlarda pedagogik tizimlar ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan yoki "shaxs – jamoa – jamoatchilik" o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga intilishgan. Shaxs ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi ularning "adaptatsiyaga moyilligi" tushunchasiga bog'liq. Adaptatsiyaga moyillik yoki beriluvchanlik uning tashqi olam ta'sirlariga javoban o'z-o'zini o'zgartirishga bo'lgan tayyorlik darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni shaxsning yangi muhit, yangi jamoa va tashqi olamda mavjud yuo'lgan ijtimoiy-madaniy meyorlarni qabul qila olish va ularga moslashishi bilan belgilanadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit talablari bilan subyektiv ehtiyojlarini uyg'unlashtirishi o'zgaruvchan bo'lib, bu shaxsning indiviudal xususiyatlari, kayfiyati, dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy va tabiiy fanlar doirasida keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, tirik organizmlar (yoki ular tarkibiy qismlari) ning ma'lum bir muhitga, vaziyatga moslashuvini nazarda tutadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da adaptatsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, adapdatio –moslashuv ma'nosini anglatishi va organizmning atrof-

muhit sharoitlariga moslashishi, ko‘nikishi ma’nolarida ishlatilishi qayd etiladi. Umumiy holda adaptatsiya barcha tirik organizmlarning o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi bilan bog‘liq bo‘lgan fundamental xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tushuncha tirik organizmlarning tabiiy, biologik, ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda, tabbiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar tizimida keng qo‘llaniladi.

Sotsiologiyada «ijtimoiy adaptatsiya» individ va turli ijtimoiy guruhlarning jamiyatga, ijtimoiy va maishiy o‘zgarishlarga moslashuvini nazarda tutadi.

Ijtimoiy moslashuv – individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda individning o‘z faoliyatini va o‘zini o‘rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o‘zgartirish davrlari bilan bog‘laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta’sir etish ko‘rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko‘rinishi bo‘ladi. Ijtimoiy moslashish shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir .

Ijtimoiy adaptatsiya jarayoni shaxsning ichki olami, ma’naviyati va ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lib, individual tavsifga ega bo‘ladi. Ya’ni ayrim insonlarda ma’lum bir jamoaga tartiblariga moslashish yengilroq kechadigan bo‘lsa, ayrimlarda ushbu jarayon bir oz qiyinroq va asta-sekinlik bilan kechadi. Ushbu jarayon bir tomondan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan jamoada qabul qilingan meyorlar, tartiblar, munosabatlar va an’analarning shaxs ichki olami va psixologik xususiyatlariga mos kelishi bilan izohlanadi. Fanda ushbu jarayon “shaxsning ijtimoiylashuvi” tushunchasi bilan ifodalanadi. Ya’ni shaxs ma’lum bir jamoada erkin faoliyat yuritish uchun jamoa tartibini qabul qiladi, jamoa hatida faol ishtirok etadi va keyinchalik o‘z fikri yoki qadriyatlarini jamoa hayotiga tatbiq eta boshlaydi .

Jamoa yoki jamiyatdagi munosabatlar, an’analar o‘ziga xos madaniy meyorlarga asoslanadi. Ushbu nuqtai nazardan shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi tushunchasini izohlash ehtiyojini paydo qiladi. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiya shaxsning ma’lum bir jamiyat , jamoa yoki ijtimoiy institutlar madaniy hayoti, qadriyatlari, munosabatlari, meyorlari va an’analarini qabul qilish hamda moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiya mazmuniga shaxsning ma’lum bir jamoadagi mavjud madaniy meyorlari asosida o‘z xulq-atvoriga o‘zgarish kiritishi yoki jamoa madaniy tizimlar transformatsiyasi bilan bir qatorda yangi madaniy va ijtimoiy munosabatlar tizimining yaratilishi, jamiyat hayotida yangi madaniy, ma’naviy, iqtisodiy o‘zgarishlar yuzaga kelishi kabi jarayonlar ham kiradi. Bu jarayonda asosiy vazifani refleksiv jarayon natijasida o‘zi va sotsiumni o‘zgartirish ehtiyojini

anglagan individ bajaradi. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiya shaxs va jamoaning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro bir-birini taqozo etishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyadagi ishtiroki passiv yoki faolligi bilan farqlanadi. Ya’ni passiv ishtirokchi jamoadagi madaniy muhitga nisbatan ko‘nikma hosil qiladi va madaniy meyorlarni qabul qiladi. Faol ishtirokchi esa jamiyatdagi ijtmoiy-madaniy meyorlarni o‘zgartirishga va o‘zi yoki ma’lum bir guruh meyorlari, tartiblarini jamoa hayotiga singdirishga harakat qiladi.

Shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi quyidagi o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan bosqichlarda kechadi:

1-bosqich: anglash bosqichi – jamoadagi ijtimoiy-madaniy muhit, meyorlar va ana’analarning shaxs ongida aks etishi hisoblanadi. ya’ni jamoaga yangi kirib kelgan individ jamoadagi mavjud vaziyatni va muhitni o‘rganadi.

2-bosqich: baholash bosqichi – shaxs jamoadagi ijtimoiy-muhitni baholaydi. Baholashda ma’lum bir shaxsiy yoki ijtimoiy mezonlarga moslik darajasi aniqlanadi.

3-bosqich: qiyoslash bosqichi – jamoadagi ijtimoiy-madaniy muhitning shaxsiy madaniy qarashlar va hayotiy rejalarga moslik darajasi aniqlanadi.

4-bosqich: affektiv bosqich – shaxs jamoadagi o‘zi uchun yangi bo‘lgan munosabatlar tizimini qabul qilishda ichki yoki xulqida ifodalanuvchi qarama-qarshiliklarni his etadi va turli affektiv holatlarni tuyishi mumkin. Masalan, jamoada o‘zini noqulay va begona his etishi, diskomfort, kutilgan munosabatlarning mavjud emasligi natijasida tushkunlik, orqaga qaytish, ikkilanish, muloqotdan qochish kabilar.

5-bosqich: reaksiya bosqichi – shaxs jamoadagi mavjud madaniy munosabatlar tizimiga nisbatan o‘z munosabatini va javob reaksiyasini bildiradi. Bu turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: yakkalanishga intilish, muloqotdan o‘zini olib qochish,xotirasining pasayishi, odamovilik, jamoadan chetlashish yoki aksincha, o‘zining kim ekanligini va imkoniyatlarini jamoaga ko‘rsatib quyishga intilish (tashqi qiyofasi, bilimi, kiyinishi, muloqot uslubi, jismoniy kuchi va hokazolar bilan).

6-bosqich: qaror qabul qilish bosqichi – shaxs jamoada qolish yoki qolmasligini, jamoa madaniy meyorlarini qabul qilishi va yoki o‘zgartirishga intilishi, jamoa rahbarini tan olish yoki liderlikka intilishi yuzasidan yakuniy qaror qabul qiladi. Ushbu qaror uning kelajakda jamoadagi ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rnini beligilab beradi va jamoadagi pozitsiyasini mustahkamlashga, jamoadagi ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy adaptatsiyaning yana bir xususiyati shundaki, shaxs jamiyatdagi qadriyatlar tizimini o‘zlashtirib boradi va o‘z navbatida shaxs qadriyatlari tizimi u a’zo bo‘lgan jamiyat tomonidan qabul qilinadi. Ushbu

jarayoni o‘z ichiga ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimining o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta’sirini qamrab oladi. Ijtimoiy qadriyatlar jamoadagi tartibni belgilash, an’analar asosida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy-madaniy muhitni sog‘lomlashtirish va jamoada barqaror muhitni shakllantirishga qaratiladi. U o‘z ichiga madaniy meyorlar, an’analar, urf-odatlar, ko‘rsatmalar, rahbar organlar nazorati, axborotlarni qabul qilish tizimi kabilarni oladi.

Shaxsiy qadriyatlar tizimiga insonning shaxsiy xarakter xususiyatlari, kundalik odatlari, shaxsiy meyorlar, madaniy saviyasi, qarashlari, shaxsiy ustanovkalari kirib ular ijtimoiy-madaniy adaptatsiya davomida korreksiyalanib boradi. Natijada ijtimoiy va psixologik jihatdan sayqallangan shaxs shakllanadi.

Ijtimoiy-adaptatsiya borasidagi izlanishlarimiz asosida xulosa qilishimiz mumkinki, shaxs jamoadagi ijtimoiy-madaniy meyorlarni qabul qiladi va o‘zlashtiradi. Keyingi bosqichda esa u obyekt rolidan faol harakat qiluvchi subyekt roliga o‘ta boshlaydi. Ya’ni endi u o‘zlashtirgan ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalari asosida sotsiumda o‘z o‘rnini egallaydi hamda faol harakatlari asosida ijtimoiy-madaniy hayotga o‘z ijodiy ta’sirini o‘tkaza boshlaydi. Demak, shaxs ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi dinamik xarakterga ega va u rivojlanishiga ko‘ra jarayondagi rolini o‘zgartirib boradi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.1. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. -600 б.

2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 704 б.

3. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.T., Alimbayeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T., 2010. – B.121-125.

4. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. P.f.d.professor M.X.Toxtaxodjayevaning tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – 480 b.

5. Ro‘ziyeva D. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 127 b.

6. Y.Yarmanova. Jamoa munosabatlari asosida amalga oshuvchi ijtimoiy-madaniy adaptatsiya jarayoni. O‘zMU XABARLARI. Mirzo Ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. T.:2022. 1/2

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада шахс ижтимоий-маданий адаптацияси ва уни шакллантириш омиллари тўғрисида сўз юритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о социальной и культурной адаптации человека и факторах ее формирования.

SUMMARY

This article talks about social and cultural adaptation of a person and the factors of its formation.

AHAMIYATLI USULLAR YORDAMIDA KIMYOVIY REAKSIYALARNING TEZLIGI ANIQLASH

Samadov M.S.
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi va sanoat uzumchiligi" fakulteti dekani

Tayanch so'zlar: ahamiyatli usullar, kimyoviy reaksiyalar, kimyoviy reaksiyalar tezligi aniqlash, moddalar, konsentratsiya.

Ключевые слова: важные методы, химические реакции, скорость химических реакций определение, вещества, концентрация.

Key words: meaningful methods, chemical reactions, speed determination of chemical reactions, substances, concentration.

Kirish. Reaksiya tezligi deb, vaqt birligi ichida reaksiyaga kirishuvchi (yoki hosil bo'luvchi) moddalar konsentratsiyasining o'zgarishiga aytiladi. Agar vaqt -t (sek) va konsentratsiya – S (mol/l) bilan belgilansa, reaksiya tezligi V=dS/dt bo'lib, ulchov birligi -mol/l.sek bo'ladi. Reaksiya gomogen sistemada, ya'ni bir xil agregat xolatdagi moddalar (M:faqat gazsimon yoki suyuq xolatdagi moddalar o'rtasida) borsa, reaksiya tezligi yuqoridagi birlikda ifodalaniladi. Agar reaksiya geterogen sistemada, turli ageregat xolatlardagi moddalar,ya'ni (gaz-qattiq; qattiq-suyuq) o'rtasida borsa, qattiq modda reaksiyada faqat sirti bilan gaz (suyuq) modda bilan ta'sirlashadi. Bunday reaksiya tezligi birligini ifodalashda qattiq moddaning sirt yuzasini xisobga olinadi va mol/(m2*s) birlikda o'lchanadi.

Bunday reaksiyalarga yonish reaksiyalari, metallarning gazlar (O2 , CI2 , F2 ...) muxitida oksidlanish, NH3, H3, CO ishtirokida qaytarilish, metallarning korroziyalanishi misol bo'ladi.Umuman: aA + vV = rS + dD tenglamaga mos keluvchi reaksiya bulsa, bu reaksiya tezligini dastlabki (A va V) moddalar konsentratsiyalari orqali yoki hosil bo'luvchi (S va D) moddalar konsentratsiyalari orqali ifodalash mumkin. Reaksiya tezligi dastlabki moddalar konsentratsiyalari orqali ifodalansa,(bu moddalar konsentratsiyalari reaksiya

mobaynida kamayib borgani uchun): V = -dC / dt ko‘rinishda, agar hosil bo‘layotgan moddalar (ularning miqdori vaqt utishi bilan ko‘payib boradi) konsentratsiyasi orakali ifodalansa V =+dC / dt ko‘rinishida bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘pchilik xollarda juda qisqa vaqt ichida (dt) reaksiya tezligini o‘lchashga to‘g‘ri keladi. Bu tezlik «ayni vaqt» dagi yoki «oniy» tezlik deyiladi va moddalar konsentratsiyasi o‘zgarishining vaqt bo‘yicha hosilasi xolida yoziladi.

Bunday tezlikni aniqlash uchun grafik usulidan foydalaniladi. Reaksiyaning xar bir ma’lum vaqtida modda konsentratsiyasi o‘zgarishi aniqlab boriladi va bu qiymatlar asosida S ~ t boglanishini kursatuvchi grafik chiziladi (10-rasm). Grafikdagi urinmaning vaqt uki bilan kesishuv burchagining tangensi (tg) reaksiyaning «oniy» tezligi qiymatiga teng bo‘ladi.

Bu usul bilan aniqlangan tezlik qiymati reaksiyalarning mexanizimini aniqlashda foydalaniladi.

Reaksiyalarning kinetik xarakteristikalariga reaksiya tezligidan tashqari, reaksiyaning molekulyarligi, tartibi kiradi.

Tahlil va natijalar. Ximiyaviy o‘zgarishlar ro‘y berishida reaksiyada ishtirok etuvchi moddalarmolekulalarining o‘zaro to‘qnashuv jarayonida, ya’ni «elementar akt» da bitta molekula, ikkita molekula va uchta molekula bir vaqtda baravariga o‘zaro to‘qnashuvi ishtirok etishi mumkin. Shunga ko‘ra reaksiya bir (mono) molekulyar,ikki (bi) molekulyar, uch (tri) molekulyar turlarga bulinadi.

Monomolekulyar reaksiya. Bunday reaksiyalarda ximiyaviy o‘zgarishda bitta modda molekulasi ishtirok etadi.

Bimolekulyar reaksiyalar. Bu reaksiyalarda bir vaqtning o‘zida 2 ta molekula o‘zaro ta’sirlashadi, Boshqacha aytganda reaksiya sodir bo‘lishi uchun reaksiyaga kirishuvchi moddaning 2 ta molekulasi o‘zaro to‘qnashuvi ruy beradi.

Ximiyaviy reaksiyalarning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasiga, bosimga, temperaturaga, katalizatorga va moddalarning tabiatiga, agregat xolatiga (qattiq moddalar uchun maydalanish darajasi - dispersligiga) bog‘liq bo‘ladi.

Moddalar konsentratsiyasining ta’siri. Ma’lumki, moddalar bir turdan ikkinchi turga utishi, ya’ni ximiyaviy reaksiya borishi uchun reaksiyada ishtirok etuvchi moddalar molekulalari o‘zaro to‘qnashuvi kerak. Agar biror xajm (yoki yuza) birligida ma’lum vaqt oraligida zarrachalarning o‘zaro to‘qnashuvlar soni kanchalik ko‘p bulsa, yangi modda hosil bo‘lishi xam shunchalik ko‘p bo‘ladi. Uz - o‘zidan ayenki, zarrachalar soni bevosita moddalarning konsentratsiyasi

(xajm birligiga to‘g‘ri keladigan «mol» lar soni) ga bog‘liq bulgani uchun reaksiyaning tezligi bevosita moddalarning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagi bog‘liqlikni K.M.Guldberg va M.Vaage (1867 y) o‘rganib turli reaksiyalar uchun moddalar massalari ta’siri qonunini kashf etgan.Bu qonunga ko‘ra: ximiyaviy reaksiyaning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyalari ko‘paytmasiga to‘g‘ri proporsionaldir.

Temperaturaning ta’siri. Ximiyaviy reaksiyalarning borishi va ularning tezligi Ko‘pchilik xollarda sistemaning temperaturasiga bog‘liq bo‘ladi. Bu bog‘liqlikni Vant-Goff koidasi bilan tushuntirilib, u kuyidagicha ta’riflanadi: sistema temperaturasi xar 100S ga o‘zgarganda ximiyaviy reaksiya tezligi 2 - 4 marta o‘zgaradi.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi tabiiy savol kelib chiqadi. Nima uchun Ko‘pchilik xollarda temperaturaning ortishi bilan ximiyaviy reaksiya tezligi ortadi. Bu savolga javob berish uchun xar qanday ximiyaviy o‘zgarishning asosiy sharti bulgan - reaksiyaga kirishuvchi modda molekulalari (atom, ionlari) ning o‘zaro to‘qnashuvi shart degan tushunchaga e’tibor berish kerak. Boshqacha aytganda reaksiyaning aktivlanish energiyasi tushunchasini bilish kerak.

Reaksiyalarning aktivlanish energiyasi. Ximiyaviy reaksiyalar ruy berishining asosiy sharti - reaksiyada ishtirok etuvchi zarrachalarning o‘zaro to‘qnashuvidir. Lekin, zarrachalar o‘rtasida, yuz beradigan xar qanday to‘qnashuv xam yangi modda hosil bo‘lishiga olib kelavermaydi. Juda kamchilik to‘qnashuvlargina ximiyaviy o‘zgarishlarga olib keladi. Bunday to‘qnashuvlar «aktiv to‘qnashuv» deyiladi.

Ximiyaviy muvozanat siljishiga moddalar konsentratsiyasining ta’siri. Agar ammiak hosil bo‘lishi reaksiyasida (muvozanatda to‘rgan) dastlabki moddalardan N2 (yoki N2) ning konsentratsiyasini oshirsak massalar ta’siri qonuniga ko‘ra V to‘g‘ri = K to‘g‘ri [N2]*[H2]3 ifodaga muvofik to‘g‘ri reaksiya tezligi ortishiga olib keladi. Bunda sistemada N2 va H2 ning miqdori kamaya boshlaydi. NH3 miqdori muvozanat xolatidagi nisbatan ortadi. Reaksion aralashmada NGs miqdorining ortishi uz navbatida teskari reaksiya tezligi V teskari ortishiga sabab bo‘ladi va ma’lum vaqtdan so‘ng sistemada yangi muvozanat xolati qaror topadi.

Bu muvozanatda to‘rgan sistemada yana N2 (yoki N2)ning miqdorini oshirsak yana xuddi yuqoridagi singari xolat qaytariladi. Ximiyaviy muvozanat ung tomonga siljiydi (Vto‘g‘ri > Vteskari) va yana qaytadan muvozanat qaror topadi (Vteskari = Vto‘g‘ri).

Agar sistemada reaksiya maxsuloti NGs ning miqdori oshirilsa, muvozanat teskariga - chapga siljiydi (V to‘g‘ri < V teskari) va yana qaytadan muvozanat qaror topadi.Umuman, muvozanatda turgan sistemada dastlabki moddalar konsentratsiyasining ortishi bu moddalar miqdorini kamaytiruvchi reaksiya tezligi ortishi (V to‘g‘ri > V teskari) ga olib keladi, muvozanat o‘ngga, ya’ni reaksiya maxsulotlari miqdori ortishi tomonga siljiydi. Reaksiya maxsulotlaridan birining miqdorini ortishi, shu maxsulot miqdorini kamaytiruvchi reaksiya, ya’ni dastlabki moddalar hosil bulish reaksiyasi (V to‘g‘ri < V teskari) tezligi ortishiga, muvozanatni chapga siljishiga olib keladi.

Bosim o‘zgarishigacha barcha moddalar konsentratsiyasi: [N2]muv., [H2] muv., [NH3]muv. Reaksiyalar tezliklari: V to‘g‘ri = K [N2]muv.*[H2] 3 muv. . va V teskari = K [NH3]2muv. Gazlarning bosimi 3 marta oshirilganda ularning konsentratsiyalari: 3[N2]muv.; 3[H2]muv. va 3[NH3] bo‘ladi. Har bir reaksiyaning tezligi: V to‘g‘ri = K (3[N2]muv.) (3[H2]muv.) = 81 K[N2]muv. [H2]muv.

V teskari =K(3[NGs]muv.) = 9K[NGs]muv. bo‘ladi. Demak, sistema bosimining 3 marta ortishi to‘g‘ri reaksiya tezligini 81 martaga, teskari reaksiya tezligini esa 9 marta ortishiga olib kelar ekan.

Natijada to‘g‘ri reaksiya tezligi teskari reaksiya tezligidan 3 marta yuqori bo‘lib, muvozanat bo‘zilib (Vto‘g‘ri >> Vteskari bulgani uchun) ungga siljiydi.

Bu xolat reaksiya tenglamasining ung va chap tomonlaridagi stexiometrik koeffitsiyentlar (1 mol N + 3 mol H = 2 mol NGs) yigindisi (4 mol) o‘zaro teng bulmagani uchun ruy beradi. Agar tenglamada dastlabki moddalar «mol» lar soni hosil bulgan moddalar «mol» lari soni bilan teng bulsa, masalan H2 + Cl2 = 2HCl (1 mol + 1 mol = 2 mol) bosimning o‘zgarishi sistema muvozanatini o‘zgaruviga olib kelmaydi. Lekin tenglamadagi moddalardan birortasining konsentratsiyasi o‘zgarishi, muvozanatni u yoki bu tomonga siljitgan bular edi.

Yuqoridagilarga asosan xulosa kilsak, sistema hajmini kamaytirish bilan bosimning ortishi ximiyaviy muvozanatni gaz molekulalari soni kamayadigan tomonga, ya’ni bosim kamayadigan tomonga siljitadi. Bosimning kamayishi esa muvozanatni bosim ortadigan tomongan siljitadi. Reaksiyaning ung va chap tomonlaridagi stexiometrik koeffitsiyentlar yigindisi o‘zaro teng bulsa, bosimning o‘zgarishi muvozanat siljishiga ta’sir etmaydi.

Temperaturaning ta’siri. Ximiyaviy muvozanat siljishiga temperaturaning ta’siri reaksiyaning endotermik yoki ekzotermik ekanligiga, ya’ni reaksiyaning issiklik effektiga bog‘liq bo‘ladi.

Temperatura pasaytirilsa, issiklik chiqishi bilan boradigan reaksiya to‘g‘ri tezligi ortadi (Vto‘g‘ri > Vteskari) va muvozanat ungga NGs hosil bo‘lishi tomonga siljiydi.

Har qanday muvozanatda turgan sistemada temperaturaning ortishi endotermik reaksiya tezligi ortishiga, temperaturaning pasayishi – ekzotermik reaksiya tezligi ortishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Ko‘rib chiqilgan ximiyaviy muvozanat siljishiga uch faktor ta’siridan umumiy xulosa: agar muvozanatda to‘rgan sistemaga tashqaridan ta’sir etilsa (moddalar konsentratsiyasi, bosimi, temperatura o‘zgartirilsa) sistema o‘z muvozanatini shu ta’sir kamayadigan reaksiya borishi tomoniga siljitadi. Buni ximiyaviy muvozanat siljishi to‘g‘risida Le-Shatelye prinsipi (yoki koidasi) deyiladi. Bu koida xar qanday ximiyaviy muvozanatda to‘rgan reaksiya (texnologik jarayon) uchun kullanilib, jarayonlar borishini boshqarishning asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Х. Р. Рахимов «Анорганик химия», Тошкент «Ўқитувчи», 1981., 96-101 бетлар.
2. Н. С. Ахметов «Неорганическая химия», Москва «Высшая школа», 1969 г., 172-175 бетлар.
3. Т.М. Миркомилов, Х.Х.Мухитдинов «Умумий химия», Тошкент «Ўқитувчи», 1987 й., 73-77 бетлар.
4. Н.Х. Максудов «Умумий химиядан практикум», Тошкент «Ўқитувчи», 1979 й., 79-85 бетлар.
5. З.К. Кодиров, Ш.К. Норов, А.Г. Муфтахов «Анорганик химиядан амалий машғулотлар», Тошкент «Ўқитувчи», 1996 й., 39-40 бетлар.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada, ma’lumki har qanday ximiyaviy hodisa natijasida bir modda boshqa moddaga aylanadi. Bu ma’lum vaqt ichida dastlabki modda miqdorini kamayishi va yangi hosil bulayotgan modda miqdorini ortib borishi bilan ruy beradi ya’ni har bir reaksiya ma’lum tezlik bilan boradi. Ushbu mulohazadan kelib chiqib ximiyaviy reaksiyalar tezligiga ta’rif berib o’tiladi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье известно, что в результате любого химического явления одно вещество превращается в другое. Это означает, что при уменьшении количества исходного вещества за определенный промежуток времени и увеличении количества вновь образующегося вещества каждая реакция протекает с определенной скоростью. Исходя из этого соображения, дается определение скорости химических реакций.

SUMMARY

In this article, it is known how as a result of a chemical host, one substance is converted into another substance. It gives ruy with a decrease in the amount of the initial substance over a certain period of time and a new crop increases the amount of the dividing substance, that is, every reaction goes with a certain speed. Depending on this mulochase, the rate of chemical reactions is described.

BOLALAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISHNING TUZILMA-FUNKSIONAL MODELI

Raximov F.R.
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi Shahrisabz shahar ixtisoslashtirilgan maktabi direktori

Tayanch so'zlar: bolalar iqtidori, rivojlantirish, boshqarish, tuzilma-funksional modeli.
Ключевые слова: одаренность детей, развитие, управление, структурно-функциональная модель.
Key words: children's talent, development, management, structure-functional model.

Kirish. Boshqaruv tuzilmasi ostida biz boshqaruv va boshqariladigan quyi tizimlarning, ularning o'zaro ta'sirlashadigan va boshqaruv jarayonida o'rniga muvofiq tartibga solinadigan tashkil qiluvchi bo'g'inlarining ajralmas tuzilmasini tushunamiz [4, 47-bet].

Bolalar iqtidorini rivojlantirishning boshqaruv modeli tuzilmasini aniqlashda biz boshqaruvning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatuvchi M.M.Potashnik fikriga qo'shilamiz: direktor darajasi; muovinlar va ma'muriyatning boshqa a'zolari darajasi; o'qituvchilar, tarbiyachilar darajasi; o'quvchi darajasi. Har bir darajada gorizontal bo'yicha tashkiliy birlashmalar, guruhlar, komissiyalar, kengashlar va boshq. o'z tuzilmasi ochilib boradi.

Tuzilma-tashkiliy jihat nuqtai nazaridan, bolalar iqtidorini rivojlantirishni maktab ichidagi boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rahbariyat apparati (direktor, o'quv-uslubiy, ilmiy, uslubiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, uslubiy birlashmalarning rahbarlari);
- kollegial boshqaruv organlari (pedagogik kengash, ilmiy-uslubiy kengash, uslubiy birlashmalar, ijodiy guruhlar, tarbiyachilar yig'ilishlari);
- talabalarning o'z-o'zini boshqarish organlari (o'z-o'zini boshqarish kengashi, tashabbus va ijod markazi, sinf kengashlari, yotoqxona kengashi);

Maktab ma’muriy “vertikal” deb ataladigan boshqaruvni hamda ijtimoiy-kasbiy pedagogik “gorizontal” boshqaruvni tashkil etish bilan ifodalanadi. Boshqaruv darajalarining har biri boshqaruv subyektlarining ta’sir ko‘rsatish zonasiga ham gorizontal, ham vertikal bo‘yicha albatta kiradi. Vertikal va gorizontal boshqaruvning keltirilgan modelida ikkita omil ajralib turadi: asosiy funksiyalarning bir vaqtning o‘zida integratsiyasi bilan ularni taqsimlash bo‘yicha ixtisoslashuv va o‘quv jarayonini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan mehnat hajmi. Ushbu model boshqaruv subyektlari o‘rtasidagi aloqaning o‘ziga xos xususiyatiga ega bo‘lgan demokratik markazlashtirilgan va maqsadga yo‘naltirilgan tizimni ifodalaydi; boshqaruv mexanizmining mohiyati huquq, majburiyat, mas’uliyat va vazifalarni pastdan yuqoriga topshirishdan iborat. Bunday boshqaruv har bir ishtirokchiga shaxsiy va jamoaviy ish natijalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga imkon beradi. Modelda to‘rt daraja o‘zgarishsiz qoladi. Iyerarxik zinapoyaning har bir pog‘onasida biz faoliyatning asosiy funksiyalari, mazmuni va yo‘nalishini tavsifini berdik. Barcha darajadagi funksiyalar asosan bir xil bo‘ladi, ammo mazmuni jihatidan yuqori darajada ular strategik tabiatga, quyi darajalarda esa taktik-faoliyatli tabiatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz qo‘llagan boshqaruv va boshqariladigan quyi tizimlarni modellashtirish boshqaruvni tizimli ko‘rish vazifasini osonlashtiradi, boshqaruv subyektiga tizimni boshqarish funksiyalarini oqilona tanlash imkoniyatini beradi. Tashkilot modelini loyihalashning istiqbolli usuli bo‘lib maqsadli tuzilma tuzish, ya’ni boshqaruv tizimlarida markazlashtirish va markazsizlashtirishning optimal nisbatlarini izlash asosida, rejalashtirish va nazorat qilish shakllarida, maktab jamoasidagi har bir toifadagi xodimlarning, o‘quvchilarning, shuningdek, ota-onalar va jamoatchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutgan boshqaruvning shaxs va jamiyat manfaatlari bilan eng samarali bog‘lanishi uchun boshqaruv funksiyalarini taqsimlashga asoslangan blok-maqsadli tuzilmalarni qurish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshqaruv uning faoliyatining alohida ajralgan qismini, boshqaruvda bo‘linish va ixtisoslashuv mahsulini ifodalovchi funksiyalar orqali amalga oshiriladi [2, 38-bet]. Boshqaruv modelining funksional tarkibini ko‘rib chiqishda biz P.I.Tretyakov tomonidan taklif qilingan funksiyalar tizimiga amal qilib, unga quyidagi funksiyalar kiradi: axborot-tahliliy, motivatsion-maqsadli, rejalashtirish-prognostik, tashkiliy-ijro, nazorat-diagnostika va tartibga solish-tuzatish funksiyalari. Biroq, E.V.Yakovlev fikriga qo‘shilib, biz tizimni mobilizatsion funksiya bilan to‘ldirishni zarur deb hisoblaymiz. Bolalarning iqtidorini rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun barcha mavjud resurslarni (materiallar, kadrlar va boshq.) jalb qilish sifatida

talqin qilinadigan ushbu funksiya qolgan funksiyalarni “markazlashtiradi” va butun ta’lim faoliyatining “motori” bo‘lib hisoblanadi.

Taklif qilingan funksiyalar tizimini tavsifini beramiz.

Axborot-tahliliy funksiya bolalar iqtidorini rivojlantirish nuqtai nazaridan boshqariladigan va boshqaruvchi quyi tizimlarning holatini aniqlash, uni tahlil qilish va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilariga yetkazishni o‘z ichiga oladi. Har bir quyi tizim uchun axborotning uchta darajasi ajratiladi: ma’muriy-boshqaruv, jamoaviy-kollegial, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish darajasi. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, o‘z vaqtida optimal tarzda tashkil etilgan maksimal to‘liq va fanga oid muayyan axborot boshqaruv faoliyatining samarali tizimi uchun asos yaratadi. Shuningdek, u tahliliy ish jarayonida ma’lumotlarni tabaqalashtirilish optimal darajasini va integratsiyasini qo‘llab-quvvatlab, qaytar aloqani ta’minlaydi. Shunday qilib, axborot-tahliliy faoliyat, shu jumladan, o‘ziga xos refleksiv komponent funksiyasini ham bajaradi.

Tahlil va natijalar. Boshqaruvning motivatsion-maqsadli funksiyasi bolalar iqtidorini rivojlantirishni boshqarish tizimining shunday holatiga erishishni nazarda tutadiki, unda tizimning barcha ishtirokchilari o‘z zimmalariga yuklangan vazifalaridan kelib chiqib, shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga muvofiq ishlarni bajaradilar. Ushbu qoidaning markaziy nuqtasi bo‘lib shaxsiy maqsadlar va jamoa maqsadlarining muvofiqlashtirilganligi hisoblanadi.

Rejalashtirish-prognostik funksiya bolalarning iqtidorini rivojlantirishni maktab ichidagi boshqarish maqsadlarining ularga erishish jarayonining asosiy bosqichlari bilan bog‘liqligini ifodalaydi. Mohiyatan, rejalashtirish va prognozlash maqsadlarni optimal tanlash va ularga erishish dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat bo‘lib hisoblanadi.

Tashkiliy-ijro funksiya bolalarning iqtidorini rivojlantirishni boshqarish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga mos keladigan boshqaruv modellarini qurish va ularni o‘quv rejalari, dasturlari, texnologiyalari va boshqaruv qarorlari tizimi orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bolalar iqtidorini rivojlantirishni boshqarishning nazorat-diagnostik funksiyasi ta’lim jarayonining turli bosqichlarida bolalar iqtidorini rivojlantirish darajasining aniq diagnostik o‘lchovlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, u kvalimetrik yondashuv asosida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va baholashni, so‘ngra ushbu ma’lumotlarni hisobga olgan holda faoliyatga tuzatishlar kiritishni nazarda tutadi.

Tartibga solish-tuzatish funksiyasi boshqaruv jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritishga qaratilgan faoliyat sifatida amalga oshiriladi. Tartibga solish-tuzatish funksiyasini amalga oshirish samaradorligi sezilarli darajada

nazorat-diagnostika funksiyasini amalga oshirishga bog‘liq. Nazorat-diagnostik funksiyasi qanchalik obyektiv ma’lumotni taqdim etsa, boshqaruv jarayonining “tartibga soluvchilari” faoliyati tuzatish nuqtai nazaridan shunchalik ishonchli bo‘ladi. Bundan tashqari, axborot-tahliliy funksiya orqali aniqlangan ziddiyatlarning kelib chiqishi va tabiatiga qarab, tartibga solish-tuzatish funksiyasi boshqaruv zanjirining har qanday turiga chiqishni ta’minlab, buzilgan o‘zaro ta’sirni prognostik belgilangan holatga nisbatan optimal darajaga olib keladi.

Mobilizatsion funksiya bolalarning iqtidorini rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun moddiy, kadrlar va boshqa turdagi resurslarni jalb qilishdan iborat bo‘lib, pedagogik tizimning o‘z-o‘zini rivojlantirishning ichki tendensiyalarini saqlashga qaratilgan. Boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi bo‘g‘inlarning tarkibi va ketma-ketligi nisbatan mustaqil faoliyat turlari sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ularning barchasi bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ketma-ket, bosqichma-bosqich tarzda bir-biri bilan o‘rin almashib, yagona boshqaruv siklini tashkil qiladi. Bunda axborot-tahliliy faoliyat boshqaruv harakatlarining deyarli barcha boshqa turlarini funksional ravishda bog‘laydi va o‘z mahsuloti bilan ta’minlaydi.

Har bir boshqaruv funksiyasida, o‘z navbatida, hajman ixchamlashgan, qisqartirilgan shaklda xuddi shu bosqichlar siklik ravishda o‘tib, ularni quyi funksiyalar sifatida belgilash mumkin.

Tashkiliy-ijro faoliyatidagi bosqichlarni, funksional darajalarni aniq belgilash maktab ichidagi boshqaruvning butun tizimida har bir bo‘g‘in (subyekt) faoliyatining mazmunini loyihalash imkonini beradi.

Maktab rahbarlari va pedagogik jamoa o‘rtasida funksional vazifalarning ilmiy va amaliy asoslangan taqsimoti ta’lim-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Iqtidorli bolalar maktab-internatining tashkiliy tuzilmasida funksiyalar taqsimoti. Birinchi daraja – strategik – asosiy yo‘nalishni belgilaydi va maktabni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Direktor – ta’lim muassasasini iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat sifatida rivojlantirish, pedagoglarning ijodiy o‘sishi uchun sharoit yaratadi, maktabning faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi jarayoniga to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi va boshqaradi.

Maktabning ota-onalar umumiy qo‘mitasi va O‘quvchilar kengashi maktabning mikro- va makro-jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradi. Ularning faoliyati jarayonida iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan

maktab-internatda bo‘lib o‘tayotgan voqea va tadbirlar haqida jamoatchilik fikri shakllanadi.

Pedagogik kengash (har qanday maktabda bo‘lgani kabi) – bu pedagogik jamoa faoliyatida birinchi navbatda axborot-yo‘naltirish funksiyasini bajaradigan doimiy organdir. Shu sababli yig‘ilishlar tavsiyaviy va aniqlovchi xarakterga ega (semestr, yil natijalari sarhisobi), bundan tashqari, jamoani umumiy rag‘batlantirish muammolari hal qilinadi va fan yutuqlari va ushbu nazariy ishlanmalarni maktabning kundalik amaliyotida joriy etish to‘g‘risida axborot aks ettiriladi.

Sinov-tajriba va innovatsion ishlar kengashi yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning maqsadi bolalarning iqtidorini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov faoliyatni rivojlantirish rejimini ta’minlashdan iborat. Asosiy vazifasi – bolalar iqtidorini rivojlantirishning yangi usullari, texnologiyalari, innovatsion jarayonlarini sinovdan o‘tkazish; rivojlantiruvchi kurslar – ularning diagnostikasi; iqtidorli bolalar bilan ishlash sohasidagi davlat standartlari va meyoriy hujjatlarga muvofiq o‘quv rejalari va ta’lim dasturlariga tuzatishlar kiritish; “harakatda tadqiqot” usullarini rivojlantirish; iqtidorli bolalar bilan ishlash tizimi; ijodkor shaxsni rivojlantirish va boshq.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, tizimli va dasturli-maqsadli yondashuvlar asosida biz ta’lim tizimini boshqarishning nafaqat uning tashqi mazmunini, balki ichki xususiyatlarni ham belgilab bergan tamoyillari (rejalilik, samaradorlik, optimallik, dinamiklik, uzluksizlik va sikliklik) asosida qurilgan modelni ishlab chiqdik. Ushbu turdagi pedagogik tizimlarni ishlab chiqishda ushbu tamoyillarga amal qilish, bizning tadqiqotlarimizga ko‘ra, ochiqlik, murakkablik, ko‘p jihatlilik, texnologiklik va yaxlitlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Ochiqlik tizim va tashqi muhit o‘rtasidagi aloqalarning mavjudligini aks ettiradi, bu esa pirovard natijada uning mazmuni va rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Murakkablik – tizimning iyerarxik tuzilishi, uning tuzilma darajalarining o‘zaro bo‘ysunishi va o‘zaro ta’siridir. Ko‘p jihatlilk tizim ishlashi natijasiga ta’sir qiluvchi ko‘p sonli omillarni hisobga olish zarurligini tavsiflaydi. Texnologiklik biz qurgan model doirasida boshqaruv faoliyatini algoritmlash va uning samaradorligi bilan bog‘liq. Yaxlitlik tizimda ko‘zda tutilgan barcha protseduralar to‘liq amalga oshirilganligi shartida ko‘zlangan natijaga erishish imkoniyatini anglatadi.

Adabiyotlar:

1. Колодий Николай Владимирович. Управление развитием детской одаренности в условиях специализированной школы-интерната для одаренных детей : диссертация ... кандидата педагоги-

ческих наук : 13.00.01 / Колодий Николай Владимирович; [Место защиты: Челяб. гос. пед. ун-т].- Челябинск, 2007.- 190 с.: ил. РГБ ОД, 61 07-13/2300.

2. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности / К.А. Абуль-ханова-Славская.-М.: Наука, 1980.- 324 с.

3. Байтукова Б.О. Педагогика и психология одаренности школьников: учебное пособие для учителей, психологов и студентов психолого-педагогических специальностей / Б.О. Байтукова; Под ред. У.Б. Жек-сембаевой, А.К. Сатовой. Алматы, 2002. - с. 193-215.

4. Винтер Е.И. Педагогическое стимулирование как фактор профессионально-творческой подготовки будущего учителя: Дис.канд. пед.наук: 13.00.08 / Е.И. Винтер; Челяб. гос. пед. ун-т. Челябинск, 2004-178 с.

5. Инновационно-педагогическая деятельность по проблеме одаренности в Казахстане / под ред. А.К. Сатовой, Ж.Б. Самуратовой. Астана: Да-рын, 2004. - 248 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada biz qurgan modelning mohiyatini ochib berishdan oldin shuni ta’kidlaymizki, iqtidorli bolalar uchun maktab-internat kabi katta, murakkab, sun’iy pedagogik tizimni yagona tarzda ifodalab bo‘lmaydi. Tizim komponentlarining substrat bir jinsliligi xususiyatini buzilishini oldini olish imkoniyati uning holati va faoliyatining turli jihatlarini tavsiflovchi modellar to‘plamini qurishdan iborat bo‘ladi.

РЕЗЮМЕ

Прежде чем раскрыть суть построенной нами в этой статье модели, отметим, что такая большая, сложная, искусственная педагогическая система, как школа-интернат для одаренных детей, не может быть представлена единым образом. Возможность предотвращения нарушения свойства однородности субстрата компонентов системы будет заключаться в построении набора моделей, описывающих различные аспекты ее состояния и функционирования.

SUMMARY

Before revealing the essence of the model we built in this article, we note that such a large, complex, artificial pedagogical system as a boarding school for gifted children cannot be expressed in a single way. The possibility of preventing the degradation of the substrate homogeneity property of the system components would be to construct a set of models describing various aspects of its state and functioning.

BIOLOGIYA FANIDAN KITOBXONLIK ANJUMANLARINI O‘TKAZISH

Alimardonova M. X.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar kafedrasi o`qituvchisi

Tayanch so`zlar: biologiya fani, kitob, kitobxonlik, kitobxonlik anjumanlari, tarbiyaviy ishlar.

Ключевые слова: биологическая наука, книга, чтение, читательские конференции, учебные работы.

Key words: biological science, book, reading, reading conferences, educational works.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli qaroriga ko‘ra kitobxonlik ma’naviy tafakkurni va yuksak ongni o‘stiruvchi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Prezidentimiz SH.M. Mirziyoev kitobxonlikka e’tibor berar ekan „Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan

va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham kitob aql qal'asidir", degan edi Sh.M.Mirziyoev

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning muhim shakllaridan biri-kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish hisoblanadi. Bizningcha, umumiy o`rta ta`lim maktablarida kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish jarayonida bir qator xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda:

aksariyat o'rta maktablarda kitobxonlik konferensiyalari juda kam, ba'zi hollarda esa, turli sabablar bahonasida nomigagina o'tkazilmoqda;

ko'plab o'qituvchilar, chunonchi, biologiya fani o'qituvchilari kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish metodikasini deyarli bilmaydilar. Shu sababli, nomigagina o'tkazilayotgan bunday konferensiyalar orqali ko'zda tutilgan maqsadga erishilmayapti. Ko'p hollarda esa kitobxonlik konferensiyalari juda zerikarli o'tmoqda;

biologiya fanidan kitobxonlik konferensiyasi o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar yo'q hisobi, borlari ham eski, hozirgi zamon talablariga javob bera olmaydi.

Biz tajriba-sinov ishi davomida bir qator umumiy o'rta ta'lim maktablarida kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazdik. Kitobxonlik konferensiyalari o'tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edik:

1. O'quvchilarni mustaqil mutolaa qilishga odatlantirish, kitobga mehr uyg'otish.

2. Biologiyaga oid matnlar bilan tanishtirish va bu orqali o'quvchilarga ta`lim-tarbiya berishning samarali shakl-usullari, yo'llarini ishlab chiqish.

3. Biologiyaga oid kitobxonlik konferentsiyalarda o`qilgan asarlardagi tarbiyaga doir she'r va hikoyalardagi yaxshi xulqlardan, ijobiy fazilatlardan o'rnak olishga va yomon xulqli kishilardan uzoqroq yurishga, nafratlanishga odatlantirish.

4. Biologiyaga oid kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish jarayonida yaxshi va yomon xulqlarni, odat va fazilatlarni farqlay olishni o'quvchilarga o'rgatishni nazarda tutgan edik.

Olib borgan tajriba-sinov ishlarining ko'rsatishicha, kitobxonlik konferensiyasi o'tkazishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

– kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish;
– konferensiyani o'tkazish. (konferensiyani tayyorlash va o'tkazish rejasi);
– konferensiyadan keyin qilinadigan ishlar.

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkaziladigan "Hayvonot dunyosi va uni muhofaza qilish"

mavzusidagi kitobxonlik konferensiyasini tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha reja:

Bajariladigan ishlar	Bajarish vaqti	Bajaruvchi
1	2	3
O‘quvchilar mutolaasini o‘rganish va unga rahbarlik qilish	Sentabr (birinchi hafta)	Biologiya fani o‘qituvchilari
Kitobxonlik konferensiyalari o‘tkaziladigan sinflarda suhbatlar o‘tkazish	Sentabr (birinchi hafta)	Maktab direktorining “Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha o‘rinbosari
Kitobxonlik haftaligini o‘tkazish	Sentabr (ikkinchi hafta)	Maktab rahbariyati
Kitoblar ko‘rgazmasini tashkil qilish	Sentabr (ikkinchi hafta)	Maktab kutubxonachisi
Kitobxonlik konferensiyasiga maktab badiiy havaskorlik a’zolarini tayyorlash	Sentabr (ucninchi hafta)	“Yosh ijrochilar” to‘garagi a’zolari va Biologiya fani o‘quvchilari
Konferensiyaga bag‘ishlab devoriy gazetalar chiqarish va tadbir bo‘ladigan joyni jihozlash	Sentabr (to`rtinchi hafta)	“Yosh rassomlar” to‘garagi a’zolari va Biologiya fani o‘quvchilari
Kitobxonlik konferensiyasina mehmonlarni taklif qilish	Sentabr (to`rtinchi hafta)	Maktab ma’muriyati
Konferensiya o‘tkazilgandan keyin stendlar va albomlar tayyorlash	Sentabr (to`rtinchi hafta)	Biologiya fani o‘qituvchilari va o‘quvchilari
Kitobxonlik konferensiyasida faol ishtirok qilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarni rag‘batlantirish, mukofotlash	Sentabr (to`rtinchi hafta)	Maktab va maktabgacha ta`lim bo‘limi, maktab ma’mu-riyati va homiy tashkilotlar, ota-onalar qo‘mitasi

– **Kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko‘rish.** Konferensiya o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish unga qay darajada tayyorgarlik ko‘rilganligiga bog‘liq. Bunda quyidagilarga alohida e’tibor berish kerak:
– maktab pedagogik kengashida kitobxonlik konferensiyasi o‘tkazish uchun hay’at a’zolarini tasdiqlash;

– kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish uchun hay’at a’zolarini tayinlash;
– o‘quvchilar mutolaasini o‘rganish va unga rahbarlik qilish;
– konferensiyani tayyorlaydigan sinflarda suhbatlar o‘tkazish;
– kitobxonlik haftaligini o‘tkazish;
– kitoblar ko‘rgazmasini tashkil qilish;
– kitobxonlik konferensiyasiga maktab badiiy havaskorlik to‘garagi a’zolarini tayyorlash;
– konferensiyaga bag‘ishlab devoriy gazetalar chiqarish va tadbir bo‘ladigan joyni jihozlash;
– konferensiyaga mehmonlarni taklif qilish.
– **Kitobxonlik konferensiyasining tuzilishi.** Qiziqarli, munozaraga boy, belgilangan maqsadga erishishda kitobxonlik konferensiyasining tuzilishi va tarkibiy qismlarini to‘g‘ri tanlay bilish juda muhim bo‘lib, biznigcha, bunda:
– kirish;
– o‘quvchilarning so‘zga chiqishlari va munozara;
– viktorina;
– badiiy qism;
– xotima kabilarga jiddiy yondoshish kerak.
– Kirish qismida: kitobxonlik konferensiyasining o‘tkazish tashabbuskori bo‘lgan shaxs yoxud tadbirga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish hay’atining raisi, qisqa, sodda va aniq ma’ruza qilib, konferensiyani ochiq deb aytadi;
– konferensiyani o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadni, konferensiyada ko‘riladigan masalalarga qisqacha sharh beradi; konferensiyada qatnashuvchi sinflarni va konferensiya shartlarini tushuntiradi; konferensiyaga bag‘ishlab tayyorlab kelingan devoriy gazetalarga baho beruvchi hakamlar hay’atini tanishtirib o‘tadi.
– **Munozara**- kitobxonlik konferensiyasining asosiy qismi bo‘lib, unda tadbirdan ko‘zda tutilgan maqsad to‘la yoritib beriladi. O‘quvchilar ma’ruza qiladilar. Ma’ruzalar bo‘yicha munozaralar bo‘ladi. Ma’ruza va munozaralarni jonli, qiziqarli, foydali o‘tishida quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:
– tadbir bo‘ladigan auditoriyada erkin muhit yaratilishi;
– ma’ruza uchun berilgan mavzular konferensiyadagi barcha qatnashuvchilarga dolzarb bo‘lishi;

– munozaraga ko‘proq o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qo‘shiq, raqs, ifodali she’r o‘qish, qiziqarli o‘yinlar navbatma-navbat ijro qilinishi;
– tadbir bo‘layotgan auditoriyada tartib-intizom buzilib ketishga yo‘l qo‘ymaslik;
– har bir ma’ruza uchun 9-12 daqiqa, munozara uchun esa 3-5 daqiqa vaqt ajratish diqqatga sazovor.

Qiziqarli savol-javob o‘yini (viktorinalar) – kitobxonlar konferensiyasida qiziqarli savol-javob o‘yinlari o‘tkazish juda muhim bo‘lib, bunda savollar 4-5 tadan qilib tuzilishi, bu savollar tadbir bo‘ladigan bolalar yoshi, individual xususiyatlari, bilim darajalariga mos bo‘lishi kerak. Qiziqarli savol-javob o‘yinida asar qahramonlarining kiyimlari, so‘zlaridan namunalar, she’rlardan parchalar tanlab olinib, ularga javoblar berishni so‘rash yaxshi natija beradi.

Badiiy qism – bu qismda o‘quvchilar tayyorlab kelgan she’r, qo‘shiq, har xil o‘yinlar hamda sahnalashtirilgan ko‘rinishlar namoyish qilinadi. Sodda, sho‘x qo‘shiq va she’rlarni tayyorlash kerak. Bunda she’rlar tadbir ruhiga mos kelishi kerak.

Xotima – kitobxonlik konferensiyasining oxiri xulosalovchi qism bo‘lib, bunda o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda mehmonlar bo‘lib o‘tgan tadbir haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Homiy tashkilotlar esa esdalik va qimmatbaho sovg‘alarini topshiradilar.

Kitobxonlik konferensiyasidan keyingi ishlar. Olib borgan kuzatishlarimizning ko‘rsatshicha, aksariyat o‘rta maktablarda kitobxonlik konferensiyasi tugagandan keyin hech qanday ish qilinmaydi. Bizningcha bunga aslo yo‘l qo‘ymaslik kerak. Kitobxonlik konferensiyasi bo‘lib o‘tgandan so‘ng quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

– kitobxonlik konferensiyasi bo‘lib o‘tgunga qadar, tadbirdan ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq anketa savollarini tuzib, o‘quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajalarini o‘rganish, tadbir bo‘lib o‘tgandan so‘ng ham anketa savollariga javoblar olish va oradagi farqni tahlil qilish kerak. Bu asosda metodik qo‘llanmalar yoxud tavsiyanomalar yozish mumkin;
– kitobxonlik konferensiyasi haqida gazeta va jurnallarga maqolalar berish, ishni ommaviylashtirish alohida tahsinga sazovor;
– tadbirga bag‘ishlab stendlar, devoriy gazetalar chiqarish, albom tayyorlash maqsadga muvofiq;

– konferensiyada qilingan ma’ruzalar hamda munozarada bildirilgan fikrlarni alohida-alohida jamlab, maktabning “Tarbiyaviy tadbirlar” papkasiga tikib qo‘yish kerak;
– konferensiyada faol ishtirok qilgan, eng ko‘p kitob o‘qigan o‘quvchilarning rasmlarini “Bizning kitobxonlarimiz” doskasiga chiqarish hamda ota-onalariga tashakkurnomalar izhor qilish, shubhasiz muhim ishdir.

Biologiya faniga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiyadan keyin quyidagi xulosalarga keldik:

biologiya faniga bag‘ishlab kitobxonlik konferensiyalarining o‘tkazilishi o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatni, mutolaa qilish madaniyatini shakllantirishga katta hissa qo‘shdi;

biologiya faniga bag‘ishlab o`tkazilgan kitobxonlik konferensiyalar natijasida, o‘quvchilarda hayvonat va nabobat olami, flora va fauna haqida chuqur bilimlar hosil bo‘ldi;

biologiya faniga doir o`qilgan asarlardagi qahramonlardan o‘rnak olish, salbiy sifatlarga qarshi kurashish ko‘nikmalari shakllanishi hamda rivojlanishi kuzatildi.

Adabiyotlar:

1. Бекназов Р.У., Новиков Ю.В. Охрана природы. – Т.: «Ўқитувчи».2019.
2. O`zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, 2-tom, O`simliklar. – T.: «Chinor ENK», 2009.
3. Sultonov P.S. “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari” darslik. – Toshkent, 2017.
4. Hamroyev Sh. E. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish” Qarshi; “Fan va ta`lim”, monografiya,2023.-248 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada biologiya fanidan kitobxonlik anjumanlarini tashkil etish masalalari yoritilgan.`

РЕЗЮМЕ

В статье освещены вопросы организации читательских конференций по биологии.`

SUMMARY

The article covers the issues of organizing reading conferences on biology.

TARBIYA DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOY ZARURIYAT SIFATIDA

Xalilova H.M.
Qarshi davlat universiteti Pedagogika kafedrasi v/b dotsenti

Tayanch so‘zlar: шахс, komil inson, sog‘lom e’tiqod, majburiyat, ma’rifat,, масъулият, milliy bag‘rikenglik, huquqiy ong, madaniyat.

Ключевые слова: человек, совершенный человек, здоровая вера, целеустремленность, просвещенность, ответственность, национальная толерантность, правосознание, культура.

Key words: man, criterion, requirement, responsibility, morality, control, habit, responsibility, virtue, man, mind, mentality.

Jahon ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar uzluksiz ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligi va kreativ tafakkurini rivojlantirishning variativ shakllarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ta’lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mexanizmlarini yangicha yondashuvlar bilan integratsiyalashda Xitoy, Singapur, Yaponiya, Koreya, Finlandiya, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya kabi davlatlar tajribalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Komil inson tarbiyasi har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasidagi loqaydlik jamiyatni ma’naviy inqirozga olib kelishi o‘tmish ajdodlarimiz tajribalaridan yaxshi ma’lum. Negaki, taraqqiyot uchun har qanday jamiyatda ham moddiy, ham ma’naviy boyliklar doirasi to‘xtovsiz ravishda kengayib borishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarorida “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy

istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1–9-sinflarda 2020–2021 o‘quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021–2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi” belgilab qo‘yilgan [1;1]. Shuningdek, mazkur qarorda shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqod, ma’rifat, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masala ekanligiga alohida urg‘u berilgan. Yoshlar tarbiyasida muhim vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish;

ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish;

hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantirishga o‘rgatish;

oila – jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar uzilib qolishining oldini olish;

loqaydlik, huquqbuzarlik, “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlaridan saqlash;

mustaqil va erkin fikrlashni hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;

ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentliligini shakllantirish;

umumta’lim fanlarini o‘qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta’lim-tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash [1; 3].

Aytish o‘rinliki, boshlang‘ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, o‘quvchilar fanning mazmun-mohiyatini anglab yetishlari Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son Qarori, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida quyidagilarga e’tibor qaratilgan:

2030 yilga kelib O‘zbekiston Respublikasining PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash;

o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash;

milliy mentalitetga yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash [3;7].

Yuqoridagi belgilangan vazifalar asosida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali o‘quvchi-yoshlarda yuksak ma’naviy tolerantlik, umummadaniy dunyoqarashni kamol toptirish nazarda tutiladi. Buning uchun:

- boshlang‘ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mazmuniga buyuk allomalar ma’naviy merosini kiritish;
- o‘tmish ajdodlarimiz asarlarini o‘rganish va ularning faoliyatiga qiziqish, shaxsiyatiga ehtirom tuyg‘ularini tarbiyalash maqsadida tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirish va shu orqali xalqaro ta’lim tizimiga integratsiyalashish;
- o‘quvchilarning vatanimiz tarixi, madaniyati va atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirish, ta’lim olishda erkin mobilizatsiyasiga erishish;
- ajdodlarimiz tomonidan to‘plangan madaniy merosni asrab- avaylashga o‘rgatish;
- milliy tajribalar va xalqaro standartlarga mos tarbiyaviy faoliyat mazmunini kengaytirish;
- fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash;
- an’anaviy yondashuvlarga nisbatan innovatsion ta’lim usullariga kengroq o‘rin berish;
- yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni ta’minlash, bunda ularning san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishlarini oshirish;
- boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar tahlillaridan ma’lum bo‘ladiki, boshlang‘ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirishning quyidagi tarkibiy komponentlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq:

Tarbiya darslari mazmunini o‘zlashtirish darajalarini baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;

tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillari asosida ajdodlarimiz merosidan oqilona foydalanish metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

uzluksiz tarbiya tizimida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish;

kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish;

fanni o‘qitishning metodik ta’minotini boyitish;

o‘quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali ta’lim tizimiga ta’limning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish [4;6].

Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishdan asosiy maqsad axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo‘lgan vatanparvar o‘quvchilarni milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yutuqlari yordamida tarbiyalashdir [6;16].

Ta’kidlash o‘rinliki, XVII asrdayoq didaktikaning asoschisi Yan Amos Komenskiy tomonidan ta’limning “Vaqt, fanlar va metodlarni mohirona taqsimlashdan” boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibini topishga harakat qilingan. Komenskiyning fikricha, ideal o‘qitishning yagona mukammal metodi topilsa, “hamma narsa og‘irliklari to‘g‘ri muvozanatlangan soatga nisbatan aniqroq, faqat ana shunday mahorat bilan yaratilgan asbobda erishish mumkin bo‘lgan bexatolik bilan ilgarilaydi”.

Pedagogik adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, mamlakatimiz kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyul 422–son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “TARBIYa” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/4885018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-Tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020 yil 6 noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PQ-3931-son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari to‘plami, 2018.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 29 aprel.

5. Jo‘rayev R.H., Safarova R.G‘., Ibragimov X.I, Musayev U.Q. Pedagogika fani kontseptsiyasi //J. Xalq ta’limi. –2004. –№5. –B. 4-33.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада муаллиф tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning ijtimoiy dolzarb masalasi ekanligini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilgan, shuningdek komil inson tarbiyasi, o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqod, ma’rifat, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi fazilatlarni shakllantirishning ahamiyati va bu jarayonni amalga oshirishda Tarbiya darslarini loyihalashtirishning bevosita tutgan o’rni va алоқадорлиги илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье автор с научно-педагогической точки зрения проанализировал, что совершенствование механизмов проектирования учебных уроков является актуальной социальной задачей современности, а также совершенное образование человека, ответственность, целеустремленность, правосознание и культура, глубокая мировоззрение, здоровье в подготовке учащихся к успешной общественной жизни. Важность формирования таких качеств, как вера, просвещенность, религиозная и национальная толерантность, духовная, гражданская, межкультурная, социальная гибкость, а также непосредственная роль и актуальность проектирования образовательных занятий в реализации этот процесс был научно проанализирован.

SUMMARY

In this article, the author examines the problem of personal responsibility, the meaning and importance of educating a person to comply with moral standards, the social value of personal responsibility, all parts of responsibility, human self-control, self-control. personality, self-control, pedagogy of security service assessment, compliance with the requirements of the moral criterion of the individual, social value of individual responsibility. The responsibility of organic relationships is scientifically analyzed.

TALABALAR MAXSUS TAYYORGARLIGINI AMALIYOTDA O'QUV MATERIALLARI ORQALI TARKIBLASHTIRISH METODLARI

Axmedova A.
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Tayanch so'zlar: ta'lim tizimi, o'quv jarayoni, o'quv materiallari, zamonaviy texnologiyalar.
Ключевые слова: система обучения, процесс изучения, образовательные материалы, современные технологии.
Key words: education system, learning process, educational materials, modern technologies.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayoygan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda.

Ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan boxabar bo'lib va ta'lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidar. Bugungi kundagi eng dolzarb vazifa pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning interaktiv metodlar, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodikalar, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassis bo'lishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi

ta’lim muassasalaridagi barcha o’qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko’nikmalari bilan qurollangan, o’z pedagogik faoliyatiga kreativ yondosha oladigan, kompetentli va madaniyatli shaxs sifatida bo’lishlarini yana bir bor ta’kidlab bermoqda.

Bugungi milliy ta’lim tizimining holati ba’zi bir xususiyatlari bilan ta’riflanib, ular doimiy ravishda pedagogik tadqiqotlarning yangicha yo’nalishlari vujudga kelishga sabab bo’ladilar. Bunga birinchi navbatda o’quv jarayonini tashkillashtirish bo’yicha ishlab chiqilgan yangicha yondashuvlarga mos keluvchi o’quv materiallarini tanlash va tizimning ishlab chiqilmagan metadologiya kiradi. Shu sababli har bir talabani ta’lim ehtiyojlarini qondiruvchi ta’lim tizimini yaratish maqsadida sohada ilmiy- tadqiqot va innovatsion faoliyatlarni rivojlanishi kuzatilmoqda. Hozirgi vaziyatda muhandislik yo’nalishini isloh qilish sohasida turli fanlar va xususan, umumkasbiy va maxsus blok fanlari o’rganishga ajratilgan auditoriya soatlarini qisqarish tendensiyasi ko’zga tutilmoqda.

Ilmiy texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ilmiy-texnik axborotlarning jadal o’sishiga va yangilanishiga olib keldi. Ayni paytda, dunyoda har yili yuz minglab kitoblar, jurnallar chop etiladi, yuz minglab dissertatsiyalar himoya qilinadi. Internet global tarmog’idagi axborotlar oqimini amalda o’lchab bo’lmaydi. Ommaviy kasbiy ta‘limning bunday sharoitda, zamonaviy talablarga mos mutaxassislarni tayyorlash murakablashishini tassavur qilish qiyin emas.

“Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo’lsak, uni aynan innovatsion g’oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qo’ydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda o’ziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz” – deb, ta`kidlagan edi Respublikamizning Prezidenti Sh Mirziyoyev.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi davrida paydo bo_lgan «Ta‘lim texnologiyalari» o’quv fani mazkur muammoni yechishga yordam beradi. Talabalarga pedagogik texnologiyalar va kasb mahoratini shakllantirish, uni amalda qo’llash bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini tarkib toptirishini nazarda tutadi. Pedagogik texnologiyalarni loyihalash, malakasini hosil qilish, bo’lajak kasb egalarini ilg’or pedagogik texnologiyalar asoslari to’g’risidagi mavjud bilimlar tizimi bilan qurollantirish, o’qitishning hamkorlik modeli, inter faol metodlari va turli darajali o’qitish texnologiyalari bo’yicha malakalarni hosil qilish uning asosiy vazifalaridandir.

Adabiyotlar tahlili va metodlari.Tadqiqot jarayonida Ta’lim to’g’risidagi qonun, Prezident Sh.Mirziyoyev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo’llanildi.

Muhokama. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedogogik texnologiyalarda yangicha yondoshuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondoshuvlar o‘z navbatida o‘quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o‘zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko‘pchiligi pedogogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq.

Ta’limga texnologik yondashuv zamirida o’quv materiallarini tuzish asosiy o’rin egallaydi. Asosan o’quv materiallari har doim muayyan standartlarga javob berishi kerak bo’ladi. Ta’limni boshqaruvchi muassasalar tomonidan belgilangan va ta’lim mazmuniga tegishli bo’lgan standartlardan tashqari o’quv materialini ilmiy nazariyaga qo’yiladigan mezonlariga ham mos kelishi kerak. Ushbu mezonlar orqali fanlar mazmuni ishlab chiqish va tuzish mumkin.

Amaliyotda talabalar diqqat e’tiborini quyidagilarga qaratadilar;



1-rasm. Amaliyotda ta’lim oluvchilar e’tibor qaratadigan faktlar.

Maxsus fanlar bloki qamrovidagi bilimlarni to’plash, ularni tizimlashtirish, ma’lumotlar tartibini yaxshiligi bu vaziyatda sodir bo’lmaydi. Talaba har doim nima asosiy, nima keyingi darajada, sababi nima, oqibati nima, qaysi qonun ustuvor va qaysi ma’lumotning element va bloklari qanaqaligini anglay olmaydi.

Har bir alohida blok fani ichida va turli fanlar orasida aniq va yaqqol aniqlik mavjud bo’lib o’zaro bog’liqlik va ta’sirlar o’rnatilgan dinamik bilimlardan farqli ravishda, bu vaziyatda talaba statik bilimlarga ega bo’ladi. Tarqoq va tartibsiz bilimlar to’plash va ularni tizimini bir maromga keltirish uchun xususiydan umumiyga va umumiydan xususiyga o’tishni aniq ko’zatuvini ta’minlay oladigan materiallarni tarkiblashtirish shakllarini tanlash zarur. Bilimlarni qisqa, lo’nda, foydalanish uchun qulay ko’rinishda nomoyon qilishning turli modellari yaratilmoqda. Bularga: mantiqiy,semantic tarmoqlar, produksion va boshqa turlari. Bu bilan bir qatorda o‘quv axborotlarini unumli

qisqartirish usullari mazmunli umumlashtirishning ma'lum psixologik-pedogogik nazariyalarda va didaktik birliklarni kattalashtirishda va umuman aytganda bilimlarni tizimliligini shakllantirishda mavjud.

Xulosa hozirgi kunda axborot texnologiyalari sohasida talabalarni bilimini rivojlantirish, amaliyotda taqdim etish va foydalanish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonida o'quv materiallar muhim o'rin egallaydi bu orqali talabalar bilimini nazariy jihatdan balki amaliyotda ham rivojlantirishi mumkin. Zamonaviy va mahsuldor ta'lim metodlari ta'lim samaradorligining kafolatidir. Bunda ta'lim uchun o'qituvchining bilim mahorati va salohiyati o'quvchining sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Albatta bu metodlar o'quvchilarning boshlang'ich ta'limdan toki oliy ta'limgacha o'quvchilarning kelajagi va manfaati uchun ishlashi va kerakli natijani berishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini -Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha Ilmiy-uslubiy risola. Toshkent, "Ma'naviyat", 2017, - 416 b.

2. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni.- T.: O'zbekiston, 2020.

3. Usmonboyeva. M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan" 2005.

4. Pedogogik mahorat. Darslik A.A. Xoliqov; Oliy va o'rta maxsus ta"lim vazirligi.-T... (Iqtisod -moliya), 2011.

5. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.- T.: (Sano- Standart) nashriyoti, 2017.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalar tayyorgarligini amaliyotda o'quv materiallarini tarkiblashtirishning metodik yo'llari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются методические пути организации учебных материалов в практике подготовки студентов.

SUMMARY

This article discusses methodological ways of organizing educational materials educational materials in the practice of training students.

PEDAGOGIK JARAYONLARDA REFLEKSIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Yoziyeva U.L.
Qarshi davlat universiteti, dotsenti
Ergasheva N.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so‘zlar: refleksiya, vatanparvarlik, qobiliyat, fikrlash, tarixiy xotira, imkoniyat, uslublar, faoliyat, bilim, subyekt, dunyoqarash, daraja.

Ключевые слова: рефлексия, патриотизм, способности, мышление, историческая память, возможность, методы, деятельность, знания, предмет, мировоззрение, уровень.

Key words: reflection, patriotism, ability, thinking, historical memory, opportunity, methods, activity, knowledge, subject, outlook, level.

Pedagogik jarayonlarda refleksiv ta’limiy muhitni vujudga keltirish o‘quvchi talabalarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan mavzuga, uningahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqish shakllantirish asosida ularning faolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Adabiyotlarda refleksiya tushunchasi fikrlash, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi nazoratqilish; o‘zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchunyo‘naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya’ni o‘tmishga(orqaga) murojaat qilish sifatida talqin etiladi. obyektiv Pedagogik adabiyotlarda pedagogik refleksiya o‘qituvchining o‘zini va o‘z xatti harakatlarini baholash, qabul qilinayotganligini, eng avvalo, o‘quvchi-talabalar tomonidan o‘zini qanday u muloqot jarayonida kimlar bilan o‘zaro ta’sirdaekanligini tushunish qobiliyati, deb keltiriladi. Ba’zi adabiyotlarda refleksiya o‘zini o‘zi anglashning tasvirlanishi, muloqotjarayonida subyektning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi,subyektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko‘ra olishi, aniqlashi, o‘rganishi va tahlil qila olish qobiliyati sifatida keltiriladi. Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuv o‘quvchi-talabalarni ma’lum birtushuncha to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga, ya’ni o‘rganilayotgan tushunchalarningahamiyatini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash

asosida ularda asoslangan tushunchalar shakllantirish yoki o‘tmishdagi munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish vaobyektiv baholash asosida o‘z tarixiy o‘tmishimizni o‘rganishga qiziqish hamda tarixiy xotirani shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi-talabalarga Vatan va vatanparvarlik, mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati to‘g‘risidagi tushunchalarni shakllantirishda refleksiv yondashuv o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki o‘tmishga murojaat qilish, yaqin tariximizni o‘rganish orqali bizgacha yashab o‘tgan avlod ajdodlarimizning o‘z Vataniga, xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbati va sadoqati uchun bo‘lgan munosabatlarni o‘quvchi-talabalar o‘rganib yaqin o‘tmishda, sovet xokimiyati yillarida xalqimiz, millatimiz boshiga qanday mash’um kulfat, tahlika solib turganini his etadi va bugungi mustaqillik kunlarining qadrini yanada chuqurroq va teranroq anglaydi. Pedagogik jarayonlarda tashkil etiladigan refleksiv ta’limiy muhit o‘quvchi-talabalarda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ijodiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhit sifatida xizmat qiladi. Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o‘quvchi talabalar o‘rganilayotgan mazularning mazmun-mohiyati hamda o‘tmishdagi va bugungi kundagi ahamiyatini mustaqil ravishda tahlil qilish va obyektiv baholash asosida xulosa chiqaradi. Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuv o‘quvchi-talabalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi turli xil omillar bilan o‘zaro aloqaga kirishadi, bunda xatti-harakatlarning mazmun va mohiyati, maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartiruvchi faoliyatning ehtiyojini anglash mumkin bo‘ladi, chunki o‘zini-o‘zi chuqur anglab yetish natijasida o‘zo‘rnini aniqlash, o‘zligini isbotlash, o‘zini-o‘zi (harakatlarini, fe’l-atvorini) ma’qullash, o‘zining ichki imkoniyatlaridan, qobiliyatidan foydalanish, o‘zini-o‘zi boshqarish vujudga keladi. Pedagogik jarayonlarda tashkil etiladigan refleksiv ta’limiy muhit o‘quvchi talabalarda:

– mavjud voqelikni qabul qilishda ochiq va keng mushohadali, sezgir vamuammolarga nisbatan murosasiz bo‘lish;
– har tomonlama o‘ylab ko‘rish asosida tahlil qilish va obyektiv baholash;
– o‘z yangi tushunchalarni o‘rganishda ularning ahamiyatini inobatga olish, mazkur tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, taqqoslash;
– tushunchalarning mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyatini anglash;
– barcha qarashlar, urf-odatlar, an’ana, qadriyat va madaniyatni yaxlit va o‘zaro bog‘liqligini tushunish;
– dunyoqarashini kengaytirishga o‘rganish, bilmaganlarini o‘zlashtirish;

– yordam beruvchi voqea va vositalarni - noto‘g‘ri tasavvurlar, xato va qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, shuningdek, yangicha dunyoqarashni shakllanishiga imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchi-talabalarda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish refleksiv jarayonlarga asoslanadi, ya’ni refleksiv ta’limiy muhitda o‘quvchi-talabalar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahliliy faoliyat uchun zaruriy shart-sharoitlarni vujudga keltirish, ya’ni voqelikni va tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarni o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida xulosalar chiqirishga o‘quvchi-talabalar uchun imkoniyat yaratib berish kabi muhim ahamiyatga egabo‘lgan vazifalar amalga oshiriladi. Refleksiv yondashuvning o‘ziga xos jihatlaridan biri mazkur yondashuv asosidatashkil etiladigan ta’limiy muhitni o‘quvchi-talabalarning tahliliy faoliyatinitashkil etish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi bo‘lib, mazkur jarayonda o‘rganilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyatini, bugungi kundagi ahamiyatini o‘tmishdagi munosabatlarni o‘rganish asosida o‘quvchi-talabalarni tahlil qilish va obyektiv baholashga undash, ularning tahliliy faoliyat jarayonidagi ijodiy yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlash, faolligi va obyektiv xulosalarini rag‘batlantirish asosida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko‘raularning dunyoqarashini rivojlantirib borishni nazarda tutadi. Pedagogik jarayonlarda refleksiv ta’limiy muhit jarayonida o‘quvchi-talabalarning tahliliy faoliyati samaradorligini ta’minlashda ularning faoliyatini kuzatib borish, tahliliy faoliyat natijalarini tahlil qilish, o‘quvchi-talabalaro‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish va ularni refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularning faolligini ta’minlash zarur hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuvni joriy etish asosida refleksiv ta’limiy muhitni vujudga keltirish o‘quvchi-talabalarda o‘tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurlarni shakllantirish, ularni tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiyani rivojlantirish, o‘quvchi-talabalarning shaxsiy tushunchalarini rivojlantirish, mustaqillik, uning mazmun mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini yetarli darajada yoritib berish orqali ularda tarixiy xotirani shakllantirish, kelajakka ishonch tuyg‘ularini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonlarda refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirishda shunday shart sharoitlarni yaratish zarurki, bunda o‘quvchi-talabalar o‘tmishni o‘rganish, yaqin tariximizda milliy an’analar, urf-odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, qadriyatlarimiz va ona tilimizga bo‘lgan munosabatlarni tanqidiy anglash asosida mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetishi hamda bugungi kunda yaratilayotgan shart-sharoitlarni obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘lsin. Bunday ta’lim jarayonining asosini refleksiv yondashuv tashkil etadi.

Shundayekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etishda refleksiv yondashuvni joriy etish asosidamazkur jarayonlarni samaradorligini ta'minlash mumkin. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda, ya'ni o'quvchi talabalarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va buyuk ajdodlar manaviymerosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarjarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida g'oyalarni, millatlararo mamlakat, do'stlik, millat hamjihatlikning ildizlari kelajagini ahamiyatini, belgilaydigan yurtimizda ilg'or tinchlik vabarqarorlikni saqlash, mintaqamizda yashayotgan millatlarning madaniy, marifiy, manaviy taraqqiyot mushtarak ekanligini targ'ib qilish, diniy ekstremizm va fundamentalizmning asl mohiyatini o'quvchi-talabalarga ochib berish jarayonlariga refleksiv yondashuvni tatbiq etish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'quvchi-talabalar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning barcha jabhalarini qamrab olishi zarur. Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuv asosida refleksiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish o'quvchi-talabalarning refleksiv faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi. Refleksiv faoliyat jarayonida o'quvchi-talabalar o'rganilayotgan tushunchalarga nisbatan o'tmishdagi va bugungi kundagi munosabatlarni o'rganadi, tahlil qiladi va obyektiv baholaydi, natijada ularda mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati bo'yicha mustahkam tushunchalar shakllanadi. Refleksif faoliyat ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Vatan, Vatan tuyg'usi, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mustaqillik, mustaqil davlat, mulkiy mustaqillik, adolat, an'analar, qadriyatlar, manfaat, urf-odatlar, rasm-rusumlar, umuminsoniy qadriyatlar, umuminsoniy an'analar, milliylik, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy qadriyatlar, milliy manfaatlar, milliy g'urur, milliy an'analar, milliy g'oya, ma'naviyat, ma'naviy jasorat va h.k. Pedagogik jarayonlarda tashkil etiladigan refleksiv ta'limiy muhitning asosini refleksiv faoliyat tashkil etadi. Refleksiv faoliyat tahliliy fikrlashga oid faoliyat bo'lib, tahlil qilish, voqea va hodisalarni o'zaro bog'liq holda tekshirish, ishonchli va asoslangan ma'lumotlarga asosan hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida ma'lum bir voqea va hodisalarga tegishli bo'lgan va ularning kelib chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan omillarni ikkinchi darajali hisoblanadigan va bevosita ta'sir ko'rsata olmaydigan omillardan farqlash, hodisalarni va uni komponentlarining o'zaro bog'liqligini va aloqadorligini o'rganish va tahlil

qilish asosida xulosa chiqarishdan iborat. Shunday ekan, o‘quvchi-talabalar ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘nalishidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish jarayonlarida ularning refleksiv faoliyatini tashkil etish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, pedagogik jarayonlarga innovatsiyalarni tatbiq etish, o‘quvchi-talabalar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va muvofiqlashtirish samaradorligi o‘quvchi-talabalarning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularning ichki dunyosi, tafakkuri, dunyoqarashining rivojlanishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishini, ya’ni mazkur jarayonning natijaviyligini ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Yoziyeva U. L. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilagan texnologiyasi. QarDU xabarlari. – Qarshi, 2020. -№3. - B. 178-182.

2. Сухобская Г.С., Горбунова Л.Л. Взаимосвязь теории и практики в процессеподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. – М.: НИИ ИОО АПН,1990. – 92 с.

3. Yoziyeva U.L. O‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning tamoil va qoidalari. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Нукус, 2019. - №2, Б. 53-57.

4. Yo‘ldoshev J.G‘., Ahlidinov R. Sh., Otaboyeva R. N. Mustaqil O‘zbekiston ta’limi. – Toshkent: “ Sharq”, 1997.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Pedagogik jarayonlarda tashkil etiladigan refleksiv ta’limiy muhit o‘quvchi-talabalarda tanqidiy va rivojlantirishga ijodiy va tahliliy ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘nikmalarini shakllantirish va refleksiv yondashuv jarayonida o‘quvchi-talabalarni tahliliy faoliyatga undash va ularda refleksiyani rivojlantirish borasida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рефлексивная образовательная среда, организованная в педагогическом процессе, речь идет о формировании критически-аналитических умений студентов-студентов, оказывающих критическое и аналитическое воздействие на их развитие, и в процессе рефлексивного подхода, побуждающих студентов-студентов к заниматься аналитической деятельностью и развивать в ней рефлексию.

SUMMARY

In this article, the reflexive educational environment organized in pedagogical processes is about the formation of critical and analytical skills of students-students, which have a critical and analytical effect on their development, and in the process of reflexive approach, encouraging students-students to engage in analytical activities and developing reflection in them. is conducted.

DIDAKTIKADA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI O'QUV JARAYONIGA JORIY ETISH XUSUSIYATLARI

Umirov A.A.
QDU Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tasavvur, diqqat, model, vosita, didaktika, fikrlash, , zamonaviy texnologiyalar,multimedia.

Ключевые слова: воображение, внимание, модель, инструмент, дидактика, мышление, современные технологии, мультимедиа.

Key words: imagination, attention, model, tool, didactics, thinking, modern technologies, multimedia.

Bugungi kunda oddiy elektron darsliklar hamon o'sha g'oyani bajaradi, lekin oddiy matnli fayllardan ancha katta hajmga ega. Ular foydalanuvchilarga qulayroq bo'lishi uchun moslashtirilgan . Bu hol oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga elektron darsliklarni joriy etish borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkonini berdi.ETR yaratishda va uni oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy etishda yagona tushuncha – "multimedia" ostida birlashtirilgan texnologiyalar alohida o'rin tutadi.

Multimedia texnologiyasining asosiy g'oyasi axborotni taqdim etishning turli usullaridan foydalanish, elektron o'quv materiallari tarkibiga matnlarning video- va audio- hamrohligi, yuqori sifatli grafika va animatsiya kabi elementlarni kiritishdan iborat. Bunday yondashuv, yuqorida aytib o'tilganidek, bir vaqtning o'zida axborotni qabul qilish turli kanallariga ta'sir o'tkazish qobiliyati tufayli dasturiy ta'lim ta'lim mahsulotini ma'lumotlarga boy va tushunarli qilish, kuchli didaktik vositaga aylantirish imkonini beradi.

Multimediyadan foydalanishga bag'ishlangan ilmiy maqolalarda ushbu turdagi texnologiyani yaratish uchun Microsoft PowerPoint kabi vosita bo'yicha tavsiyalarni topishingiz mumkin. Asosan, mazkur paketli dasturiy ta'minot ilovasi ma'ruzalarning multimedia kurslarini yaratish uchun ishlatiladi. Bunday kurslar ko'pincha o'zida an'anaviy o'quv materiallarining elementlarini, masalan, ma'ruzalarni tinglash jarayonida qayd etish uchun ishtirokchilarga

beriladigan tarqatma materiallar va elektron, ya’ni kompyuter tasvirini chiqarish ekranlari yordamida namoyish qilish orqali amalga oshiriladigan elementlarni birlashtiradi.

Biroq ushbu turdagi texnologiyani oliy ta’lim muassasasining o‘quv jarayoniga joriy etish va qo‘llash bir qator shartlarning mavjudligiga uchrab, ularning yo‘qligi ETR da multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalda imkonsiz qiladi. Gap, birinchi navbatda, oliy ta’lim muassasalarida quyidagi jihozlar bilan maxsus jihozlangan o‘quv xonalarining mavjudligi haqida bormoqda:

- multimediya proektori;
- o‘qituvchi uchun kompyuter;
- ekran yoki multimedia doskasi
- o‘quv jarayonini amalga oshirish uchun qulay muhit (kompyuter sinflari, elektron kutubxonalar, media kutubxonalar, Internet tarmog‘iga kirish va boshq.) .

Shunday qilib, ETR yaratish va oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga joriy etish jarayonida bir qator tendensiyalar paydo bo‘lib, ular quyidagi savollarda ifodalanadi:

- Har bir o‘qituvchi o‘z faniga alohida ETR tuzishi kerakmi yoki kompyuter texnologiyalari bo‘yicha mualliflar, uslubchilar va mutaxassislardan iborat markazlashgan jamoa kerakmi?
- ETR yaratish uchun har xil turdagi ilovalardan foydalanish kerakmi yoki bitta ta’lim tizimi doirasida ilovalarning universal ro‘yxatlarini yaratish kerakmi?

Ushbu savollar bo‘yicha mutaxassislarning fikrlarini tahlil qilish bizga quyida muhokama qilinadigan ba’zi xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Bir qator tadqiqot materiallarida dunyoning turli mamlakatlaridagi o‘quv jarayoniga elektron o‘quv materiallarini joriy etish misollari va tajribasi keltirilgan. Ta’lim muassasalarida, shu jumladan oliy o‘quv yurtlarida ETR joriy etish jarayonining xususiyatlarini tushunish uchun bir qator umumiy namunaviy misollarni tahlil qilish lozim.

Janubiy Koreya. 2012-2015 yillarda mamlakatda o‘qituvchilarni elektron qo‘llanmalar va didaktik materiallar bilan ishlashga o‘rgatish bo‘yicha maxsus dasturlar amalga oshirildi. 2015 yilda ta’lim muassasalarining o‘zlari an’anaviy qog‘oz darsliklar va ularning elektron analoglari o‘rtasida tanlov o‘tkazdilar. Aksariyat ETR ni tanladi.

AQSh. Amerika Qo‘shma Shtatlari, ehtimol, ta’lim tizimining barcha darajalariga elektron o‘quv materiallarini joriy etish bo‘yicha eng boy tarixga ega.

2001-yilda Massachusets texnologiya instituti huzurida ochiq o‘quv materiallarining birinchi yirik repozitariysini yaratish loyihasi ishga tushirildi. Notijorat tashkilotlar ko‘magida mazkur ta’lim muassasasida o‘rganiladigan turli fanlar bo‘yicha 9 mingdan ortiq o‘quv-uslubiy materiallar internet tarmog‘ida chop etildi. ETR ga ruxsat ochiq bo‘lgan va har kim ularni nusxalashi, tarqatishi, o‘zgartirishi va boshqa tillarga tarjima qilishi mumkin edi.

AQSh da elektron darsliklarni ishlab chiqish uchun butun alohida dastur ishlab chiqilgan. Shunday, Brigam Yang universiteti tadqiqotchilari 2011 yilda elektron darsliklarning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha tajriba dasturini amalga oshirdilar, unda 22 o‘qituvchi va 2700 ga yaqin talaba ishtirok etdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, metodologiya va didaktika nuqtai nazaridan elektron qo‘llanmalar an’anaviy qog‘oz analoglaridan farq qilmaydi. Shu munosabat bilan, Yuta shtati ta’lim departamenti mahalliy maktab o‘quvchilari uchun bepul elektron darsliklarni ishlab chiqish dasturini ishga tushirdi. O‘tkazilgan tadbirlar natijasida Yuta maktab o‘quvchilari ta’lim standartlariga to‘liq javob beradigan darsliklarni internetdan bepul yuklab olish imkoniga ega bo‘ldi. 2011-yil oxiridan boshlab AQShda bepul elektron darsliklarni joriy etish milliy dasturga aylandi. Hozirda AQSh ta’lim vazirligi Federal aloqa agentligi bilan birgalikda barcha talabalarni elektron darsliklar bilan ta’minlash bo‘yicha besh yillik loyiha ustida ish boshladi .

Buyuk Britaniya. 2012-2013 yillarda bir qator nashriyotlar ko‘magida Bornmut universitetida talabalarni elektron o‘quv materiallari bilan ta’minlash bo‘yicha tajriba loyihasi ishga tushdi. Elektron o‘quv adabiyotlaridan foydalanish imkoniyati modeli ularni elektron darsliklarni eng yirik yetkazib beruvchilardan biri bo‘lgan “CourseSmart” kompaniyasining elektron resursidan ijaraga olish imkoniyatiga asoslandi. Elektron darsliklarning narxi bosma nashrlardan 60% ga arzon edi. Barcha operatsiyalar universitet kutubxonasi orqali amalga oshirilib, u talabalar uchun shaxsiy kabinetlar yaratish, tizimga kirish va foydalanish uchun darsliklarni tanlash imkonini berdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Bornmut universiteti kutubxonasi 2012-2013 yillarda elektron o‘quv materiallariga uch milliondan ortiq so‘rovlarni qayd etgan.

Rossiya. 2011 yilda Ta’limni rivojlantirish federal instituti huzurida “Rossiya Federatsiyasi bir qator sub’ektlarining ta’lim muassasalarida interaktiv multimedia elektron darsliklarning har xil turlarini sinovdan o‘tkazish” loyihasi ishga tushdi. 2012 yilda bu tajriba natijalari ilmiy davra suhbatida sarhisob

qilindi. Bu yo‘nalishdagi ijobiy siljishlarga qaramay, bir qator tadqiqotchilar ta’lim jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish xohlagandek tez va ravon o‘tmayotganini ta’kidladilar [107].

2013-yilda 60 kun ichida Moskvaning 75 ta maktabida ETR joriy etish bo‘yicha tajriba o‘tkazildi. Natijalar o‘qituvchilar tomonidan yuqori baholandi, ammo elektron o‘quv materiallarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berildi. 2014 yilda tajriba takrorlandi, biroq oltita maktabda to‘rtta fan bo‘yicha elektron darsliklar joriy etilishi bilan. Natijalar ijobiy deb qayd etildi va qonunchilikka ko‘ra, 2015 yildan boshlab barcha Rossiya maktablari elektron versiyadagi darsliklarga o‘tishlari kerak edi. Biroq, bu muammo to‘liq hal qilinmagan [110].

Eron. Eron Islom Respublikasi hududida masofaviy ta’lim tajribasi XX asrning 80-yillarida Payomi Nur universitetining 29 ta markazlari ishi asosida boshlanadi. 1987 yilda Eron standartlashtirish va sanoat tadqiqotlari tashkiloti “elektron ta’lim” standartini tayyorladi. AKT rivojlanishi bilan 2002 yilda Tehron universitetida elektron ta’lim markazi tashkil etildi, 2004 yilda esa Sheroz va Tusiy Amir Kabir nomidagi Fan va sanoat universitetlarida birinchi virtual ta’lim kurslari boshlandi. Eronda masofaviy ta’lim “yozishmalar bo‘yicha” o‘qitish usulidan boshlanib, so‘ngra ta’lim radiosi va televidenie eshittirishlari yordamida rivojlantiriladi.

MDH. 2011 yilda YuNESKO Ta’lim va axborot texnologiyalari instituti MDH mamlakatlarida, xususan: Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, O‘zbekiston va Ukrainada OTR ning rivojlanish darajasi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdi. Yakuniy hisobotda MDH davlatlarida oliy kasb-hunar ta’lim uchun elektron ta’lim resurslarining eng muhim manbai bevosita OTM veb-saytlari, shuningdek, ilmiy-ta’lim loyihalari veb-saytlari ekanligi ta’kidlandi. Ko‘rsatilgan turdagi materiallarning eng katta ulushi OTM larning alohida bo‘limlari: fakultetlar, kafedralar, laboratoriyalar, ilmiy guruhlarning veb-saytlari sahifalarida, shuningdek o‘qituvchilarning shaxsiy sahifalarida bepul ruxsat uchun joylashtirilgan. Shu bilan birga, hisobotda qayd etilishicha, o‘sha paytda mavjud bo‘lgan statistik ma’lumotlar MDH mamlakatlarida AKT ning o‘ta notekis rivojlanishini va aholining telekommunikatsiya texnologiyalari bilan notekis qamrab olinishini ko‘rsatadi. Hukumatlar AKT infratuzilmasini yaratish va yangilash uchun ko‘p kuch sarflashlari kerak, shuning uchun ta’limni axborotlashtirish strategiyalari kamdan-kam hollarda OTR rivojlanishini rag‘batlantiradi. Infratuzilma va aloqa xizmatlarining rivojlanish darajasi onlayn ta’limga imkon bermagan hollarda, ya’ni maktablarning Internet tarmog‘iga keng polosali ulanishi hali juda keng tarqalmaganligi sababli, muammoning yechimi ta’lim resurslarini

CD da ko‘paytirish va tarqatish bo‘ladi. Shuningdek, o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlar o‘quv jarayoniga ETR ni joriy etishning qo‘shimcha xususiyatlarini aniqladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, elektron o‘quv materiallari bilan ishlashni tashkil etishda OTM texnik jihozlanishi muhim rol o‘ynaydi. Biroq, hatto yuqori texnik jihozlanish ham ETR muvaffaqiyatli joriy etilishini har doim ham kafolatlay olmaydi. Bir qator mutaxassislarning fikriga ko‘ra, elektron o‘quv materiallarini texnik joriy etilishidagi asosiy muammo ETR ning yangi turlari bilan ishlashda texnologiyalarning o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bulishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga muljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi//Xalq so’zi, 2017 yil 16 yanvar.

2. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi Xalqaro konferensiya materiallari. – T.: «O‘zbekiston», 2012.

3. Xurramov, A.J., Komolov, E.R. Razrabotka algoritma upravleniya s uchetom trudnoformalizuemoy informatsii // Academic research in educational sciences, 2020. Volume 01, Issue 03, -pp: 240-247. February, 2022

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada didaktikada elektron ta’lim resurslarini modellashtirishning nazariy asoslari ustida ham aytib o’tilgan. Maqolada jarayoniga elektron axborot ta’lim resurslarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье также затрагиваются теоретические основы моделирования электронных образовательных ресурсов в дидактике. В статье рассматриваются педагогические условия внедрения в процесс электронных информационных образовательных ресурсов, описывается роль и значение инновационных технологий в образовании.

SUMMARY

This article also touches on the theoretical foundations of modeling electronic educational resources in didactics. The article discusses the pedagogical conditions for introducing electronic information educational resources into the process, describes the role and significance of innovative technologies in education.

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TIZIMINI JORIY ETISH INTEGRATSIYASI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

Ergashev N.G‘.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
Axborot texnologiyalari kafedrasi professori v.b.

Tayanch so‘zlar: ta’lim jarayoni, raqamli texnologiyalar, integratsiya, iyerarxik yondashuv asosida o‘qitish, didaktik ta’minot, raqamli ta’lim, innovatsion faoliyat, raqamli ta’lim muhiti.

Ключевые слова: образовательный процесс, цифровые технологии, интеграция, обучение на основе иерархического подхода, дидактическое обеспечение, цифровое образование, инновационная деятельность, цифровая образовательная среда.

Key words: educational process, digital technologies, integration, training based on a hierarchical approach, didactic support, digital education, innovation, digital educational environment.

Kirish. Raqamli ta’lim muhiti afzalliklaridan foydalangan holda innovatsion faoliyatga kadrlar tayyorlash tizimida umumiy didaktik metodlardan tashqari, raqamli ta’lim muhitida o‘qitishni an’anaviy didaktikadan ajratib turadigan metodlardan ham ommaviy ravishda foydalaniladi [1].

O‘qituvchi va boshqa talabalarning minimal ishtirokida talabalarning ta’lim resurslari bilan o‘zaro ta’siri vostasida o‘qitish metodlari amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida o‘qitishda ushbu metodlardan foydalanish multimedia vositalari: interfaol ma’lumotlar bazalari, elektron jurnallar, kompyuter o‘quv dasturlari, elektron darsliklar va boshqalar taqdim etuvchi keng didaktik imkoniyatlar bilan bog‘liq.Bu va boshqa o‘quv vositalari haqida mazkur tadqiqot ishimizla quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu metodlar va tegishli o‘quv vositalaridan foydalanish raqamli ta’lim muhitida o‘zi o‘zini o‘qitishning muhim komponetini ta’lim jarayoniga amaliyotga joriy qilinadi.

Ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi interfaol o‘zaro ta’sirga asoslangan metodlar iborat.

Ushbu metodlarni ishlab chiqish amaliyotga joriy qilish o‘quv guruhlardagi bahs munozaralar va konferensiyalar o‘tkazish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va boshqalar bilan bog‘liq. Ushbu tadqiqot ishimizda raqamli ta’lim muhitida o‘ziga xos tatbiq etish xususiyatlariga ega bo‘lgan juftlik muhokamasi metodi ham keng qo‘llaniladi. Bunday muhokama ishtirokchilari guruhning boshqa a’zolaridan bo‘sh joy bilan ajralib turadi, qulay sharoitlarda ishlaydi (hech kim aralashmaydi, bir zumda fikrga ta’sir qila olmaydi), ular ham onlayn, ham oflayn rejimda ishlash imkoniyatiga ega, bu esa auditoriyani sezilarli darajada kengaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur tadqiqot ishimizda (M.V.Klarin tomonidan amalga oshirlgan tadqiqot ishlari asosida) raqamli ta’lim kontekstida texnologiyaning yetakchi xususiyatlari quyidagilardan:

– raqamli vositalar imkoniyatlarini kengaytirish sharoitida o‘quv jarayonining takrorlanishi;
– raqamli vositalarni, aloqani tashkil qilish uchun samarali vositalarni oqilona tanlash;
– tadqiqot faoliyati natijalarini sifatli baholash;
– amalga oshiriladigan bahs munozaraning ochiqligi va xayrixohligi;
– tezkor (operativ) teskari aloqa;
– ta’lim jarayoni natijasida raqamli izlardan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli ta’lim muhitida o‘qitishda ham qo‘llaniladigan individual o‘qitish, o‘rganish va o‘zaro ta’sir qilish usullari.

Individual ta’lim usullari ta’limning barcha bosqichlarida o‘qituvchining har biriga ko‘rsatilayotgan psixologik-pedagogik yordam, skayp, messenjer, ovozli pochta, elektron pochta, elektron kitoblar kabi zamonaviy vositalar orqali amalga oshiriladi [2].

Talabaning muloqotda faol ishtirokisiz o‘qituvchi yoki o‘qituvchi tomonidan talabalarga o‘quv materialini taqdim etishga asoslangan usullar: audio yoki video kasetlarga yozilgan ma’ruzalar, an’anaviy usullarda yoki Internet texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qiladi. Ta’kidlanganidek, bu usullar reproduktiv usullarning tarmoq modifikatsiyasining bir turidir. Shu bilan birga, multimedia imkoniyatlaridan keng foydalanish materialning bu tasvirini an’anaviydan sifat jihatidan farq qiladi.

Tizimli yondoshuv nuqtai nazaridan qo‘llaniladigan o‘qitish usullari uning tashkiliy shakllariga mos kelishi juda muhim.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta’lim muhitida o‘qishda an’anaviy shakllar qo‘llaniladi: ma’ruzalar, seminarlar, maslahatlar, amaliy mashg‘ulotlar, testlar, imtihonlar, mustaqil ishlar va boshqalar. Bundan tashqari, mazkur

tadqiqot ishimizda har bir mashg‘ulotda turli xil ta’lim shakllaridan birgalikda foydalanishga e’tibor qaratilib, bunday yondashuvlar pedagogik maqsadlar nuqtai nazaridan asoslaniladi.

Elektron o‘quv kursini ishlab chiqishda talabalar ishini nazorat qilish shakli haqida o‘ylash kerak. Masalan, o‘rganilgan, o‘qilgan, ko‘rilgan narsalarning mazmunini tushunish uchun savollar yaratish mumkin bo‘lgan fikr-mulohazalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Teskari aloqa yordamida talaba ma’lum bir fan bo‘yicha o‘rganish darajasini tashxislash, muayyan muammoga o‘z munosabatini aniqlash, talabalarning e’tiborini, kognitiv qiziqishni o‘rganish, veb-seminar boshlovchisiga savollar berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur o‘qitish texnologiyasi o‘qituvchining maqsadli malakasini oshirish va nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirishning asosiy g‘oyalaridan biri – o‘qituvchining buyrug‘i bilan ishlab chiquvchilarning dolzarb tadqiqot mavzularini taqdim etish va materiallar – diskret ma’ruzalar tayyorlashni amalga oshiradi. Iyerarxik yondashuv asosida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o‘qituvchi dars shakllarini tanlaydi, ularni dastur va o‘quv materiali mazmuni mantig‘i asosida belgilaydi.

Seminarlar o‘quv mashg‘ulotlarining an’anaviy faol shakli bo‘lib, o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimida tarmoq o‘qitishda keng qo‘llaniladi.

Forum -seminarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlab chiqilgan texnologiyaga ko‘ra, ishtirokchilarning o‘zaro hamkorlikdagi o‘zaro munosabatlarini o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

1. Forumda muhokama qilingan mashg‘ulot mavzusi o‘qituvchi tomonidan e’lon qilinadi. Barcha muhokamalar tuzilgan mavzu doirasida amalga oshiriladi. O‘qituvchilarning o‘zlari taklif qilingan mavzu doirasida muammoni muhokama qilish yo‘nalishlarini taklif qilishlari mumkin.

2. Mavzuni muhokama qilish muddatini vaqt bilan cheklash tavsiya etiladi. Vaqt birligi odatda kundir. Agar kerak bo‘lsa, talaba muhokama qilingan mavzuga (masalan, agar uning sharhlari yoki savollari bo‘lsa) qaytishi mumkin.

3. O‘qituvchi ko‘rib chiqilayotgan mavzu doirasida kirish so‘zini e’lon qiladi, umumiy maqsad va unga erishish uchun qo‘llaniladigan yondashuvlarni belgilaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchi talabalar uchun ma’lumotlarni e’lon qiladi: o‘quv materiallaridan nimani o‘qish kerak, qanday vazifalarni amalga oshirish haqida qiqacha ma’lumot beradi.

4. Mavzuni muhokama qilishda o‘qituvchi savollarni boshlaydi, xulosa qiladi, ya’ni, amalga oshiriladigan bahs munozaraga rahbarlik qiladi (o‘qituvchi

tomonidan tayinlangan talaba moderator vazifasini ham bajarishi mumkin). Seminarda ishtirok etayotgan talaba, birinchidan, muammoni o‘zi hal qilishni taklif qiladi, ikkinchidan, seminarning boshqa ishtirokchilarining nuqtai nazariga o‘z munosabatini shakllantiradi va o‘qituvchi yoki moderator, o‘z navbatida, seminarning borishini bahs munozarani qanday amalga oshirilishini boshqaradi.

5. Seminarlarda qatnashishning eng muhim qoidasi talabalarni o‘z fikrlarini bildirishdan oldin qobiqda chop etilgan barcha materiallar va bayonotlar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

6. Bunday seminarlar shartlariga ko‘ra, o‘qituvchi ham, talabalar ham muntazam ravishda kuniga kamida ikki marta (masalan, har kuni ertalab va har oqshom) forumni “ko‘rib chiqishlari” va kengaytirilgan muhokamada ishtirok etishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Videokonferensiya - bu tarmoq audio-video texnologiyalari orqali pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining tarmoq pedagogik audiovizual o‘zaro ta’sirining bir shakli hisoblanadi. Videokonferensiya vositachilik aloqasini jonli, to‘g‘ridan to‘g‘ri yaqinlashtirishga yordam beradi hamda shuning bilan o‘qituvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikdagi ta’sir samaradorligini oshiradi [4]. Videokonferensiya raqamli ta’lim muhitida ta’limning samarali tashkiliy shakllaridan biri hisoblanadi. Videokonferensiya rejimida pedagogik muloqot aniq tuzilgan, raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan optimal foydalanish maqsadida metodik jihatdan tayyorlangan bo‘lsa, didaktik maqsadlar nuqtai nazaridan samarali bo‘ladi.

Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimida didaktik vosita sifatida gipermatn va multimedia versiyalaridagi elektron darsliklar va kompyuter o‘qitish tizimlari, audioo‘quv axborot materiallari, videoo‘quv axborot materiallari, masofaviy laboratoriya ustaxonalari, elektron kutubxonalar va boshqalardan foydalanildi.

Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga iyerarxik yondashuv asosida o‘qitishda biz pedagogik jarayonda raqamli ta’lim tizimining innovatsion imkoniyatlariidan maksimal darajada foydalanish tamoyiliga e’tibor qaratiladi.

Elektron kurslar, elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, onlayn o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda ularni ishlab chiqishga ilmiy yondashish zarurligini ham e’tiborga olindi. Jumladan, darslik yoki o‘quv qo‘llanmasini nashr etishga tayyorgarlik ishlari bosqichida yangi o‘quv qurollaridan foydalanishni nazariy tushunish amalga oshiriladi. Shu bois elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish an’anaviy darslik yoki o‘quv qo‘llanma yaratishdan ko‘ra ko‘proq vaqt talab qiladigan muhim dolzarb muammo hisoblanadi.

Elektron darslikning mohiyati va mazmunini nazariy tushunishdan tashqari, uni ishlab chiqish vazifasi raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi va o'quvchining harakatlarini batafsil o'rganish zarurati bilan murakkablashadi. Bunday jarayon ishlab chiquvchilar guruhining quyidagi: kurs muallifi (mazmun tomoni), masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanish bo'lgan metodist, dasturchi, loyihachi kabi jamoaviy ishlarini o'z ichiga oladi.

Elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda mazkur tadqiqot ishimizda professor A.A.Andreyevning elektron axborot ta'lim vositalaridan foydalanish uchun darslik yoki kurs yaratish bo'yicha tavsiyalariga tayanildi va ularni ko'p bosqichli o'qituvchilar tayyorlash tizimimizga moslashtirildi:

Xulosa va takliflar. O'rganish jarayonida pedagogik kadrlarni iyerarxik yondashuv asosida o'qitishda o'qitishni amalga oshirish uchun didaktik yordam ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: fanni kompleks yordamida o'rganish tartibi va tavsiyalari, hisobot va nazorat shakllari, o'qituvchi bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etish tartibi); ma'lumot va o'quv bloki (o'quv mavzusiga teng hajmdagi modullar - har bir modul o'zi o'zini tekshirish uchun testlar, amaliy topshiriqlar bilan birga keladi);

Adabiyotlar:

1. Кларин, М.В. Инновационные модели в зарубежных педагогических поисках / М.В. Кларин. – М.: Арена, 1994. – 365 с.

2. Бендова, Л.В. Педагогическая деятельность тьютора в сети открытого дистанционного профессионального образования : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Л.В. Бендова. – М., 2006. – 23 с.

3. Ergashev Nuriddin G'ayratovich. Uzluksiz ta'lim sharoitida muxandislar malakasini oshirishni rivojlantirishning metodik shartlari. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558, Volume 1, Issue 2, July 2022, 54-59 b. www.rnasav.com.

4. Аракелов, А.В. Комплексная инновационная технология профильного обучения в структуре послевузовского педагогического образования : дис. ... канд. пед. наук / А.В. Аракелов. – Краснодар, 2008. – 452 с. : 34 ил.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan foydalangan holda pedagogik kadrlarni innovatsion faoliyatga iyerarxik yondashuv asosida o'qitishda o'qituvchini bajaruvchi, innovator, ijodkor, o'z mahorati va bilimini yaratuvchisi pozitsiyasiga hamda o'zining pedagogik loyihasini amalga oshirish imkoniyatini beradigan metodlar qo'llanilishi keltiriladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье, используя возможности цифровой образовательной среды, в подготовке педагогических кадров на основе иерархического подхода к инновационной деятельности вводятся методы, дающие учителю позицию деятеля, новатора, творца, творца своих умений. и знания, и предоставляется возможность реализовать собственный педагогический проект.

SUMMARY

In this article, using the capabilities of the digital educational environment, in the training of teaching staff based on a hierarchical approach to innovation, methods are introduced that give the teacher the position of a doer, innovator, creator, creator of his skills. and knowledge, and is given the opportunity to implement their own pedagogical project.

PEDAGOGIK AMALIYOTLAR ORQALI TALABALARNI IJTIMOIY ADAPTIV FAOLIYATGA TAYYORLASHNING AFZALLIKLARI

Choriyeva M.B.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, adaptatsiya, ijtimoiy moslashuv, madaniy moslashuv, psixologik adaptatsiya, ijtimoiy moslashuv, faoliyat, adaptiv, pedagogik amaliyot.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, профессиональная подготовка, адаптация, социальная адаптация, культурная адаптация, психологическая адаптация, социальная адаптация, деятельность, адаптация, педагогическая практика.

Key words: professional activity, professional training, adaptation, social adaptation, cultural adaptation, psychological adaptation, social adaptation, activity, adaptive, pedagogical practice.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekisyon Respublikasi hududida faoliyat olib borayotgan tegishli ta'lim tizimlarida ta'lim oluvchilarning o'quv vaqtini amali ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy olib boorish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayon bo'lajak pedagoglarni tayyorlovchi ta'lim tashkilotlarida ham tizimli tarzda yulga qo'yilmoqda, bu masala tegishli xujjatlarda ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022-2026 yillarda xalq ta'limni rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi PF-134-son Farmonining 7-v bandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 2l-iyundagi» Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-289-son qaroriga muvofiq, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun «4+2» shaklida amaliyot o'tash tartibini belgilaydi. Dastur mazmunidan kelib chiqib hozirda talabalar ta'lim shakli mazmunidan kelib chiqib belgilangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'rta-maxsus, maxsus-maktab internatlari, akademik litsey va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'tkazilmoqda. Masalaning

ahamiyatli jihati shundaki joriy qilingan “4+2” dasturi bo‘lajak mutaxassislarni o‘quv davridan boshlab kasbiy faoliyatga tayyorlab boradi.

Talabalar amaliyoti oliy kasbiy ta’limning asosiy ta’lim dasturining (OTM) ajralmas qismi bo‘lib, u talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, bevosita pedagogik amaliy ko‘nikma yoki ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Pedagogik nazariya g‘oyalariga ko‘ra shaxs kamolotida tarbiya va ijtimoiy muhit muhim o‘rin tutadi. Jamiyatning a’zosi sifatida u ijtimoiy ahamiyatga ega muayyan vazifalarni bajaradi yosh jihatidan ulg‘aygani sari u tomonidan bajarilayotgan ijtimoiy rollar shakli va mazmuni o‘zgarib boradi qiziqishlari va qobilyati darajasida atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi. Mazkur jarayon o‘z mohiyatiga ko‘ra bevosita shaxsning ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning ijtimoiylashuvida esa ta`lim tizimi, unda ustuvor bo`lgan maqsad hamda ana shu maqsadni amalga oshirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayonning sezilarli ta`siri va rolini inobatga olgan holda ta`limni shaxsga yo`naltirish talab etiladi. Bu esa o`z navbatida shaxsni shakllantirish jarayoniga texnologik yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta`lim to‘g`risida”gi qonunda butun dunyo ta`lim me`yori asosida tuzilgan davlat ta`lim talablari darajasida, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida chet el ta`limi bilan raqobat qila oladigan, raqobat jarayonida Vatan sha`ni, manfaati va obro‘sini munosib himoya qila oladigan milliy kadrlarni yetishtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bu muhim vazifani amalga oshirish yalpi ta`lim va tarbiya tizimini, uning murakkab qismlaridan biri pedagogik amaliyotni tashkillashtirishni tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Chunki yangi zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos Yangi pedagogik xodimlarni avvalgi pedagogik texnologiya asosida tayyorlash aslo mumkin emas. Shu bois, kadrlar tayyorlash milliy dasturida Yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqish, rivojlantirish va uni hayotga tadbiq etishga talaba-amaliyotchilarni o‘rgatish alohida ta`kidlangan.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeliga muvofiq pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har bir talabaning pedagogik faoliyatga ongli, qiziquvchanlik bilan;
2. Pedagogik yoki malakaviy amaliyotga qatnashishini shakllantirish;
3. Pedagogik kasbga muhabbat hissi bilan qarashga o‘rgatish;
4. Maxsus, pedagogik va psixologik fanlarni chuqur o‘rganishga yordam berish;
5. Bo‘lajak o‘qituvchining Yangi jamiyat talablariga moslashishiga ko‘maklashish;
6. Bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga ega bo‘lgan holda kasbiy mahoratni egallashiga yordam berish;

7. Talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash;

8. Yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish;

9. Talabalarni o‘quvchilarning bilim faoliyatini jadallashtiruvchi har xil usul metodlarni ko‘rgazmali texnik vositalarni, an`anaviy va noan`anaviy dars va tarbiya turlarini foydalanishga jalb qilish tayyorlash darajasini oshirish;

10. O‘quvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, shakllanyirish va bilim o‘rganish maqsadida talabalarning ular bilan o‘zaro munosabatini tashkil qilishga jalb qilish, ularda pedagogik izlanuvchanlikka bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Talabalar pedagogik amaliyot davrida xohlagan masala bo‘yicha pedagogika institutining pedagogik amaliyot va tashkilot rahbariyatiga, o‘quv o‘rni amaliyotning tashkiliy masalalari bo‘yicha tavsiyalar berish o‘quv muassalaridagi bolalar va o‘smirlar yoshlar va kasaba uyushmalarining konferensiya va yig‘ilishlariga qatnashish kutubxona fan kabinetlaridan va mavjud o‘quv-uslubiy qurollardan faoydalanish huquqiga ega. Bundan tashqari pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish bo‘lajak mutaxassislar uchun foydaliligini ta’minlovchi omillar mavjud va bu omillarning quydagilari muhim.

– o‘qituvchi va tarbiyachilariga murojaat qilishi, o‘quv -tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
– amaliyot bo‘yicha rahbari, guruh rahbari, metodistlar, pedagogika va psixologiya o‘qituvchilari, tashkilot rahbariyati va o‘qituvchilarning topshiriqlarini ma`suliyat bilan bajarish;
– texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidasini qat`ian amal qilish;
– kamtarinlik, tashkilotchilik, tartib-intizom, odoblilik va mehnatsevarlilik kabi ijobiy jarayonlarda namuna bo‘lishi;
– pedagogik amaliyot dasturlarida ko‘rsatilgan barcha vazifalarni bajarish;
– bolalar bilan o‘tkaziladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning tashkil qilinishi va uyushtirilishiga puxta tayyorlanish;
– ularning reja va dasturlarini, konspektlarini tuzishga, uni o‘qituvchi, sinf rahbari va uslubiyotchiga tasdiqlatish o‘rganish;
– dars jadvaliga muvofiq barcha o‘quv tarbiyaviy ishlariga va ularning tahliliga faol qatnashish;
– amaliyot kundaligini yuritish va amaliyot yakunida guruh rahbariga hisobot berishi va amaliyot bo‘yicha sinov topshirishi shartligini bilish;

Yuqorida e`tirof etilgan talablarni bajarmagan amaliyotchi pedagogik amaliyotdan chetlashtiriladi. Pedagogik amaliyotdan chetlashtirilgan yoki pedagogik amaliyot davridagi faoliyati uchun noloyiq baho olgan talaba ushbu semestrdagi o‘quv rejasini bajarmagan hisoblanadi.

A. Xodjaboyev, I. Husanov “Kasbiy ta’lim metodologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmada bo‘lajak mutaxasislarni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashning nazariy va ishlab chiqarish nomli usullari mavjudligi bo‘lajkak mutaxassislar tashkil etilayotgan darslardan o‘z mehnat faoliyatlari uchun kasbiy tayyorgarlik mezonlarini egallab borishlari mumkinligi haqida yoritilgan. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darsligida keltirilgan mavzular mazmuni kasb-hunar ta’limida tahsil olayotgan o‘quvchilarni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashning metodologiyasi yoritilgan bo‘lsada mazkur tadqiqot mavzusining ilmiy ahamiyatini ochishda foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar. Biz yuqorida aytib o‘tgan talabalarni pedagogik amaliyot davomida ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorllashning ba’zi muhim jihatlariga oid tahlillarimiz va chiqargan xulosalarimizdan ta’lim jarayonlarida samarali foydalanilsa o‘ylaymizki, keng tafakkurli, mustaqil dunyoqarashga va nochiziqli firklaydigan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, har bir muammoga aql ko‘zi bilan qaraydigan, intellektual jihatdan salohiyatli va mamlakatimiz barqaror taraqqiyotiga o‘zining munosib hissa qo‘sha oladigan yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son Qarori. https://lex.uz/docs/4749364

5. A. Xodjaboyev, I. Husanov “Kasbiy ta`lim metodologiyasi” o`quv qo`llanma T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti 2007-yil 192 bet.

6. B. M. Umarov «Psixologiya» darslik T.: «Voris-nahriyoti» nashriyoti 2012-yil 352 bet.

РЕЗЮМЕ

Maqola mazmunida talabalarni pedagogik amaliyot davomida ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorllashning ilmiy nazariy mohiyati yoritilgan bo‘lib mavzuning metodologiyasida bu tushunchaning paydo bo‘lishi va ommalashishga zamin hozirlovchi fikrlar tahlili berilgan bo‘lib adabiyotlar tahlili qismida “Ijtimoiy moslashuv”da shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni va uni amalga oshirish shartlari haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В содержании статьи освещена научно-теоретическая сущность подготовки студентов к социально-адаптационной деятельности в ходе педагогической практики, в методологии темы дан анализ мыслей, подготавливающих почву для возникновения и популяризации данной концепции, анализе литературы личностно-ориентированного образования по специальности «Социальная адаптация» поясняются содержание и условия его реализации.

SUMMARY

In the content of the article, the scientific theoretical essence of preparing students for social adaptive activities during pedagogical practice is highlighted, in the methodology of the topic, an analysis of the thoughts that prepare the ground for the emergence and popularization of this concept is given, and in the literature analysis, individual-oriented education in «Social Adaptation» the content and conditions of its implementation are explained.

O‘QITUVCHI SHAXSIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘ZIGA XOSLIGI

Boymatova M.R.
Qarshi davlat Universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: his tuyg‘u, rezonans yaratish, yetakchilikning neyron asosi, hissiy barqarorlik.

Ключевые слова: эмоции, создание резонанса, нейронная основа лидерства, эмоциональная устойчивость.

Key words: emotions, creating resonance, neural basis of leadership, emotional stability.

O‘qituvchi his-tuyg’ularni qanchalik samarali boshqarishi va jamoa maqsadlariga erishish uchun foydalanishi uning hissiy intellekt darajasiga bog’liq. Rezonans yaratish qobiliyati yuqori hissiy intellekt bilan ajralib turadigan yetakchilarning belgisidir. Ularning ishtiyoqi, g’ayrati guruhning har bir a’zosi bilan rezonanslashadi. Agar jamoadagilarni jiddiyroq yo’lga qo’yish kerak bo’lsa, o’qituvchi boshqalarning pozitsiyasini egallash va ularning hissiy kayfiyatini idrok etish qobiliyatiga ham muhtoj bo’ladi. Shunday qilib, agar biron bir voqea umumiy g’azabga sabab bo’lsa yoki jamoani qattiq xafa qilgan bo’lsa (masalan, hamkasbning jiddiy kasalligi), hissiy jihatdan dono o’qituvchi nafaqat hammani tashvishga soladi u ham his-tuyg’ularini ochiq ifoda etadi.

Yuqori hissiy intellektga ega bo’lgan o’qituvchining ta’siri ostida jamoadagilar ozodlikka erishadilar. Ular fikr almashadi, bir-biridan o’rganadi, birgalikda qarorlar qabul qiladi va birgalikda ishlaydi. Shunday qilib, kuchli hissiy aloqa paydo bo’ladi, bu ularga hatto global o’zgarishlar va noaniqlik sharoitida ham yo’qolmaslikka yordam beradi. Ehtimol, eng muhimi, boshqa odamlar bilan hissiy aloqada bo’lish bizning ishimizni yanada mazmunli qiladi. Kimdir bilan hayajonli lahzalarni baham ko’rish qanchalik ajoyib ekanligini hamma biladi: masalan, ishni muvaffaqiyatli yakunlash quvonchi. Bu his-tuyg’ular odamlarni yolg’iz hech kim qila olmaydigan va hatto qilishga urinmaydiga narsalarni qilishga undashi mumkin. Va yuqori hissiy intellektga

ega bo'lgan yetakchi, bunday aloqani yaratish uchun nima kerakligini biladi. Boshqa tomondan, agar o'qituvchi hissiy munosabatni qanday uyg'otishni bilmasa, unda jamoa hamma narsani to'g'ri bajaradi, lekin mexanik ravishda ishni bajaradi, lekin eng yaxshisini bermaydi. Yaxshi iliqlik bo'lmasa, o'qituvchi yetakchilik qilishi mumkin, lekin u boshqarolmaydi. Dunyoda bir qanoti bilan ucha oladigan qushlar yo'q. Iqtidorli rahbar o'qituvchi ham qalbga, ham boshga ega bo'lishi kerak - biz his-tuyg'u va fikr birligi haqida gapiramiz. Bu ikki qanot rahbar o'qituvchining yuqoriga ko'tarilishiga imkon beradi. Har qanday o'qituvchiga hozirgi vazifalar va qiyinchiliklarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirish uchun ma'lum bir aql kerak. Albatta, tiniq fikrga, analitik va kontseptual fikrlashga ega bo'lgan rahbar o'qituvchilar ko'proq foyda keltiradi. Biz aql-zakovat va tiniq fikrlashni, asosan, yetakchilikka yo'l ochadigan fazilatlar sifatida ko'ramiz. Busiz kirish ta'qiqlanadi. Biroq, aql-zakovatning o'zi odamni yetakchiga aylantirmaydi. Rahbar o'qituvchilar o'z qarashlarini rag'batlantirish, yo'l-yo'riq berish, ilhomlantirish, tinglash, ishontirish va eng muhimi, hayajonga solish orqali amalga oshiradilar. Albert Eynshteyn ogohlantirganidek: "Biz aqlni xudomizga aylantirmaslikka harakat qilishimiz kerak. U, albatta, kuchli mushaklarga ega, ammo shaxsiyat yo'q. U boshqara olmaydi - u faqat xizmat qilishi mumkin.» Bir tomondan, intellekt uchun mas'ul bo'lgan asab tizimlari va boshqa tomondan, hissiyotlar alohida, ammo o'zaro bog'liqdir. Siz fikrlar va his-tuyg'ularning qanday bog'langanligini sxematik tarzda ko'rsatishingiz mumkin, ya'ni hissiy yetakchilikning neyron asosini ko'rsatishingiz mumkin. Ishbilarmonlik madaniyati ko'pincha aql-zakovatga katta ahamiyat berishiga qaramay, bizning his-tuyg'ularimiz bizning aqlimizdan ko'ra kuchliroqdir.

Ma'lumki, o'rganish yangi neyron aloqalarni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yetakchilikni rivojlantirish haqida gap ketganda, asab tizimidagi

o'zgarishlarga ta'sir qilish uchun hissiy aql talab qilinadi, chunki u bevosita hissiy -

markazlarda ishlaydi. Olimlar quyidagi xulosaga kelishdi: "Agar limbik aloqa

ma'lum bir asab strukturasini shakllantirgan bo'lsa, uni o'zgartirish uchun boshqa

limbik bog'lanish kerak". Samarali yetakchilik qobiliyatlarini o'rganish imkoniyatlari dastlab o'smirlik davrida paydo bo'ladi va yigirma yoshlargacha davom etadi. Bu davrda inson tanasining anatomik jihatdan rivojlanayotgan so'nggi organi bo'lgan miya hissiy odatlarning asosiy mexanizmini tashkil qiladi. Muayyan fanni o'rganish yoki jamoaga qo'shilish yoki notiqlik

san'atini egallashga intilayotgan yoshlar keyinchalik ularga jiddiy yordam beradigan, yetakchilik mavqeini saqlab qolishga yordam beradigan neyron asosni qurmoqda. Agar yoshlikda odamning u yoki bu yetakchilik qobiliyatini egallashiga imkon beradigan tajribasi kam bo'lsa, bu muammo emas - endi odamga ushbu ko'nikmalarni egallash uchun motivatsiya kerak bo'ladi. Miyaning yangi aloqalarni shakllantirish qobiliyati umr bo'yi davom etadi. Faqat balog'at yoshida erta yoshlik davrida osonlik bilan beriladigan saboqlarni o'rganish uchun ko'proq kuch va kuch kerak bo'ladi, chunki bu yangi haqiqatlar bizning miyamizda allaqachon o'rnatilgan naqshlar bilan qattiq kurashishga majbur. Shunday qilib, oldimizda ikki tomonlama vazifa turibdi: biz o'zimizga mos kelmaydigan odatlarni yo'q qilishimiz va ularni o'zimiz uchun qadrli bo'lgan yangilariga almashtirishimiz kerak. Shuning uchun yuqori motivatsiya yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi: odatni o'zgartirish uchun biror narsani birinchi marta o'rganishdan ko'ra ko'proq va uzoqroq ishlash kerak. Hissiy intellektni rivojlantirish faqat samimiy istak va mashaqqatli harakatlar bilan mumkin. Shaxsiy o'sish va moslashish jarayoni butun umrni qamrab oladi. Odamlar o'zlarining «men» ni samarali o'zgartiradigan siklning bosqichlarini yana nomlaymiz:

- Birinchi kashfiyot. Mening idealim o'zim: men kim bo'lishni xohlayman?
- Ikkinchi kashfiyot. Mening haqiqiy mohiyatim: men kimman? Mening fazilatlarim nima va mening haqiqiy mohiyatim idealdan qanday farq qiladi?
- Uchinchi kashfiyot. Mening o'z-o'zini takomillashtirish dasturi: qanday qilib haqiqiy va ideal men o'rtasidagi tafovutni yo'qotib, o'z fazilatlarimni rivojlantira olamanmi?
- To'rtinchi kashfiyot. Yangi usullarni amaliyotga joriy etish bilim, yangi ko'nikmalar va ular ustida ishlashni o'zlashtirish darajasiga yetkazish.
- Beshinchi kashfiyot. Boshqalar bilan xavfsiz va ishonchli munosabatlarni o'rnatish, bu barcha o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ideal holda, qadrli tasvirga yaqinlashish ideal va real o'rtasidagi bo'linishni anglash orqali - to'satdan kashfiyot orqali sodir bo'ladi, bu nafaqat o'z-o'zini anglashni rag'batlantiradi, balki o'zgarish istagini ham uyg'otadi. Agar hissiy intellektga ega bo'lgan rahbarlar samarali yetakchilik uslublaridan foydalansa va qo'rquv va beadablikni keltirib chiqaradigan uslublar o'rniga sog'lom, samarali ish munosabatlarini targ'ib qiluvchi me'yorlarni tashkilotlarga singdirsa, ular yangi kuch manbai - tashkilotning jamoaviy energiyasini ochishlari mumkin. Har qanday biznes strategiyasini amalga oshirishga erishish uchun ijobiy

fikrda yashaydilar, ilhomlantiruvchi missiyani shakllantirishga intiladilar va odamlarga o’z ishlarining hissiy ahamiyatlilik tuyg’usini beradilar.

Adabiyotlar:

1. Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.

2. Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67

3. Маджидов Дж Б, Маджидова В, Шарофиддинов А. Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. страницы: 22-24 источник: актуальные вопросы современной психологии материалы международной научной конференции. 2017 167

4. Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. Eurasian Scientific Herald, 5, 65-68.

5. Sharafitdinov Abdulla, Qurbonboyev Miraziz Zulxaydar o‘g‘li Psychological Characteristics of DecisionMaking in Management Global Scientific Review A Peer Reviewed, Open Access, International Journal www.scienticreview.com Volume 1, February 2022 ISSN (E): Pending

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada yetakchilik uslubini baholash haqida fikr-mulohazalar keltirilgan bo‘lib, o’qituvchi shaxsida emotsional intellektning o’ziga xos xususiyatlari va uni tahlil qilishning turli yo’llari va usullari bayon etilgan. Hissiy intellekt har qanday samarali o’qituvchiga kerak bo’lgan qobiliyatlardan biri ekanligini va bu ko’nikmalarni ham individual, ham butun jamoa darajasida o’rganish va mustahkamlash mumkinligini ko’rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье даны отзывы об оценке стиля руководства, описаны характеристики эмоционального интеллекта учителя и различные способы и методы его анализа. Было показано, что эмоциональный интеллект является одним из навыков, необходимых любому эффективному учителю, и что эти навыки можно изучать и укреплять как на индивидуальном, так и на командном уровне.

SUMMARY

This article provides feedback on the assessment of leadership style, describes the characteristics of a teacher’s emotional intelligence and various ways and methods of its analysis. It has been shown that emotional intelligence is one of the skills needed by any effective teacher, and that these skills can be learned and strengthened at both the individual and team level.

MA’NAVIY BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shonazarov J.U.
Xalqaro innovatsion universitet “Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: boshqaruv, ma’naviy boshqaruv, ta’lim-tarbiya, ta’lim tizimi, pedagogik jarayon, barkamol shaxs, innovatsiya, globallashuv, kreativ fikrlash, ta’lim texnologiyalari, ilg‘or pedagogik tajriba.

Ключевые слова: менеджмент, духовное управление, образование, система образования, педагогический процесс, всесторонняя личность, инновации, глобализация, креативное мышление, образовательные технологии, передовой педагогический опыт.

Key words: management, spiritual management, education, education system, pedagogical process, well-rounded person, innovation, globalization, creative thinking, educational technologies, advanced pedagogical experience.

Ma’lumki, boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga hos bo‘lgan ichki xususiyatdir. Mehnatning har qanday shakli-ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat – idora qiluvchiga ma’lum darajada muhtojdir. Bugungi kunda jamiyatda to‘g‘ri boshqaruvning muhim sharti ham boshqaruvchining ya’ni rahbarning faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shunga muvofiq boshqaruvning 3 ta asosiy yo‘nalishi bor:

1. Iqtisodiy boshqaruv
2. Ijtimoiy-siyosiy boshqaruv
3. Ma’naviy boshqaruv.

Biz yashayotgan jamiyat taraqqiy etmog‘i uchun yuksak intellektual potensialga ega bo‘lishi kerak. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma’rifat berishni, aholiga madaniy maishiy xizmat ko‘rsatishni, ilmiy asosda boshqarish zaruriyati ana shundan kelib chiqadi.

Hozirgi davrda ma’naviy boshqaruv jamiyatimizda g‘oyat katta ahamiyatga ega. Bu shakldagi boshqarish umumiy ta’lim maktablari, maktabgacha, maktabdan

tashqari bolalar muassasalari, xalq ta’lim organlari, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari, professional ta’lim, va akademik litseylar hamda oliy o‘quv yurtlari, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san’at, madaniyat, sog‘liqni saqlash kabi sohalarni boshqarish tizimini o‘z ichiga oladi. Aynan ushbu boshqaruv tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish jamiyat oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi muammolarni hal etish ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni hal etish hozirgi kunda milliy pedagogikamiz erishgan yutuqlar, ilg‘or pedagogik tajribalar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish natijasi va pedagogik mahorati, ijodiy izlanishi asosida amalga oshishi mumkin. Shu bois, ta’lim-tarbiya tizimida ham bu kabi muammolar o‘ziga xos dolzarb muammo sifatida tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi [1].

Ta’lim tizimi innovatsiyalari hayot ehtiyojlarini qay darajada to‘la qondirsa, jamiyat hayoti boshqa sohalarining rivojlanishiga uning ta’siri shu darajada kuchli bo‘ladi. Ayni shu sababli fan va ta’lim tizimi o‘rtasida vujudga kelgan tafovutni bartaraf etish oliy ta’lim tizimining kun tartibida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifa yosh avlod ijodiy tafakurini rivojlantirishni nazarda tutishini anglatadi, zero, hayot tinimsiz ilgari suruvchi nostandart vazifalarni faqat shu yo‘l bilan yechish mumkin. Shunday ekan, bilimni muttasil yangilashga bo‘lgan intilishni tarbiyalash ta’lim innovatsiyalarining muhim elementi sanaladi. Bu esa, o‘z navbatida, globallashuv jarayonida hayotda yangicha dunyoqarashga ega, kreativ fikrlaydigan va ijodiy izlanuvchan yosh avlodni tarbiyalashni nazarda tutadi [2].

Ta’lim innovatsiyalari – bu uni tashkil etuvchi ta’lim institutlarigina emas, balki tegishli davlat idoralari tomonidan olib boriluvchi ta’limga oid davlat siyosati, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonining moddiy ta’minoti, «jamiyat – shaxs – davlat» munosabatlarida manfaatlarning muayyan nisbati hamdir. Shu sababli bir mamlakatda vujudga kelgan va rivojlangan ta’lim tizimini boshqa mamlakatga, o‘zga tarixiy sharoitlarga ko‘r-ko‘rona ko‘chirish mumkin emas. Shuning uchun ham milliy ta’lim tizimida vujudga kelgan ijobiy an’analar, to‘plangan tajriba, shakllangan ilmiy maktablarni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning kelajagi, uning taraqqiyoti va ravnaqi ko‘p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma’naviy etukligiga bog‘liq ekan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va ta’lim-tarbiyaga innovatsiyalarni jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaratilgan. Hukumatimiz bu borada mamlakat hayotida ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini yuqori baholab, tahlil etgan holda bu tizimga katta moliyaviy sarmoyalar kiritilishi ijobiy natijalar bermoqda. Ushbu amaliy ishlar va maxsus dasturlarga muvofiq barkamol shaxsni tarbiyalash va kamol toptirish Respublika ta’lim hodimlari zimmasiga o‘ta ma’suliyatli vazifani yuklaydi va bu ta’lim-tarbiya tizimida o‘quvchi-talabalarni

o‘qitishga yangicha yondashishni taqazo etadi. Shu boisdan ma’naviy boshqaruv tizimida pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy maktabga davr talablari asosida yondashish, o‘quv-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy o‘qitish texnologiyalardan samarali foydalanish asosiy vazifa qilib qo‘yildi.

Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas balki bilimdon, ma’naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Biz mana shu sohaga e’tibor berar ekanmiz undagi ba’zi moddiy va ma’naviy kamchiliklarni bartaraf etishda ularning individual va yosh xususiyatlari, ijodkorlik qobiliyatlari hamda kreativ fikrlashlarini hisobga olishimiz maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan xalqimiz o‘z bolalarini o‘sib-unib kamolga yetishini, xalq koriga yaraydigan shaxs bo‘lib yetishishini istaydi va bu yo‘lda tinmay harakat qiladi. Vatanimizda inson manfaatlari eng oliy qadriyat, ya’ni avvalo inson omiliga bo‘lgan e’tibor birinchi o‘rinda bo‘lib kelgan. Bugungi kunda texnika-texnologiyalar o‘qituvchi kasbi faoliyatini yangilik sifatida uni o‘rganishni zamon talabi deb quyar ekan, bu borada nazariy izlanishlar bilan birga hozirgi ta’lim voqeligiga oid keng tadqiqotlar maydonida harakatlanish ta’lim-tarbiya sohasidagi innovatsiyalarni to‘g‘ri anglash va ulardan o‘z faoliyatida samarali foydalanish ekanligini tasdiqladi va kelgusi ilmiy izlanish yo‘nalishini aniqlash imkoniyatini berdi [3].

Ta’limdagi innovatsiya - innovatsiyaning mehnat taqsimoti tarixiy jarayoni mobaynida ajralib chiqqan muayyan tipi hisoblanadi, degan fikr tegishli dalillar bilan asoslandi. Ta’limdagi innovatsiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda asosan innovatsion faoliyat sifatida tashkil etilgan subekt-subekt, subekt-obekt munosabatlariga ijodkorlik asosida yondashiladi. Mazkur faoliyatning predmeti sifatida ta’limning gumanistik paradigmasiga o‘tishning asosi hisoblanadigan ta’limga oid subekt-subekt munosabatlari tizimi amal qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda ta’lim innovatsiyalarini qo‘llash afzalligi – bu ta’limning rivojlanish jarayonini boshqarishda optimallashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda uning tuzilishi va mazmunini izchil, tizimli o‘zgartirish imkoniyatini beruvchi alohida shaklidir, degan qoidaga asosan amalga oshiriladi [4]. Pedagogik tizimga innovatsiyalar kiritilar, qullanilar va yaratilar ekan, yoshlarni o‘quv-bilish jarayonida motivatsion muhit o‘zgaradi, ular orasidan yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan qiziqish va intilishlar yanada paydo bo‘ladi. Natijada yaxlit pedagogik jarayonda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligida tadqiqot faoliyatlari rivojlanadi, yaratuvchanlik muhiti shakllanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning ta’lim tizimiga kiritilishi loyihalash ishlarining natijasi bo’lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlar asosida ilmiy-ijodiy yaratuvchanlik jamoalari yuzaga keladi va jamiyatimiz hayotida instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqarishni

yanada takomillashtiradi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

O'quv jarayonida innovatsion faoliyatning takomillashishi talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Bunday o'zgarish amalga oshirilishi natijasida ma'naviy boshqaruv yo'nalishida boshqaruv madaniyati ham o'zgaradi, chunki rivojlanishning innovatsion usuli unga alohida talablar qo'yadi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har bir pedagog globallashuv sharoitida pedagogik mahoratga erishish, ilg'or pedagogik tajribalarni egallashi va mazkur jarayonda, ya'ni pedagogik jarayonda o'zini o'zi o'zgartirishi, izlanishi, lozim bo'lsa o'z faoliyatini ongli va tizimli rivojlantirishi uchun kreativ fikrlashi va yondashishi maqsadga muvofiq. Shu tariqa ta'limdagi innovatsiyalar ijtimoiy rivojlanish resursi sanalgan hozirgi zamon ta'limining rivojlanishini ta'minlovchi noyob ijtimoiy mexanizmga aylanadi va jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimining yuksalishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: "Nihol", 2016.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008 yil. 130 bet.

3. Tolipov U.K,., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). -T.: «Fan» nashriyoti, 2006 yil.

4. Xudoyqulov X.J. Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim samaradorligining asosidir. –Toshkent.: "Navro'z", 2013 yil. 92-bet.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshqaruv tizimida mavjud muammolar, ularni bartaraf etishda jamiyat oldidagi vazifalar, innovatsion yondashish, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar mexanizmi, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan hamda hal etilishi lozim bo'lgan pedagogik vazifalar bayon etilgan.Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion texnologiyalardan pedagogik jarayonda foydalanish zarurati, o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash, ta'lim innovatsiyalarining pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri va ijobiy mexanizimlariga oid xos xususiyatlari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны проблемы, существующие в системе управления, задачи, стоящие перед обществом по их устранению, инновационный подход, механизм реформ в сфере образования, педагогические задачи, которые возникают в педагогическом процессе и должны быть решены. Также перечислены необходимость использования в педагогическом процессе передового педагогического опыта и инновационных технологий, обучения студентов творческому мышлению, применения инноваций в образовательном процессе, влияние образовательных инноваций на эффективность и положительные механизмы учебной деятельности.

SUMMARY

This article describes the problems existing in the management system, the tasks before the society in their elimination, innovative approach, the mechanism of reforms in the field of education, the pedagogical tasks that arise in the pedagogical process and must be solved.Also, the need to use advanced pedagogical experiences and innovative technologies in the pedagogical process, teaching students to think creatively, applying innovations to the educational process, the impact of educational innovations on the effectiveness and positive mechanisms of educational activities features are listed.

O‘QUVCHILAR XULQIDAGI YOSH BILAN BOG‘LIQ O‘ZGARISHLARNI KORREKSIYALASHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Choriyeva F.A.
Qarshi davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti

Tayanch so‘zlar: bola, o‘quvchi, xulq-atvor, o‘zgarish, salbiy o‘zgarish, ijtimoiy, kichik maktab yoshi, tizim

Ключевые слова: ребенок, ученик, поведение, изменение, негативное изменение, социальное, младший школьный возраст, система.

Key words: child, student, behavior, change, negative change, social, junior school age, system.

Bizga ma’lumki, bola shaxsi dastlab oilaviy muhit ta’sirida shakllanadi. Natijada u oilada ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan voqea-hodisalarni o‘zlashtirib boradi, kattalar va tengdoshlari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa bolaning ijtimoiylashuvi yuz beradi.

Kichik maktab yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalash tizimi va uning funksiyasi haqida fikr yuritishdan oldin tizim tushunchasiga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik. Negaki, tizim tushunchasining mazmunini ochib bermasdan bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalash tizimi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘la olmaymiz.

Darhaqiqat, biz kundalik hayotimizda tizim tushunchasini juda ko‘p qo‘llaymiz. Ushbu tushuncha har bir sohada qo‘llaniladi. Xoh u iqtisodiy, xoh ijtimoiy, siyosiy soha bo‘ladimi, har biri tizimlashtiriladi va ushbu tizim ular faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ta’lim va pedagogik sohada ham tizim tushunchasi tez-tez ishlatiladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida tizim tushunchasining mazmuni quyidagicha ochib berilgan: “O‘zaro bog‘liq va uzviy tartibda bo‘lgan narsa, hodisalar birligi, majmui; o‘zaro bog‘liq qismlardan tashkil topgan tuzilma, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatdan tuzilish shakli; biror-bir ish faoliyatini tashkil etish,

amalga oshirishning shakl va tartib-qoidalari majmui [1;84-b]. Demak, tizim - bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan va o‘zaro ketma-ketlik va yaxlitlikni keltirib chiqaradigan elementlarlarning yig‘indisidir.

O‘z navbatida, element tizimning ma’lum bir qismi bo‘lib, u o‘z xususiyatiga ko‘ra mustaqil obyekt sanaladi.

Har qanday tizim quyidagi belgilarga ega bo‘ladi. Bular :

tizimning butunligi;

tizimning o‘zaro bog‘liqligi;

tizim elementlari o‘rtasida munosabatlarning o‘rnatilganligi;

ichki va tashqi tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va boshqalar [4;30-b].

Ushbu yondashuvlarga asoslanib, o‘quvchilar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalash tizimini yaratib olish mumkin. Biz bu jarayonda nimalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va yaxlitlikni tizim desak bo‘ladi. O‘z-o‘zidan shu kunga qadar bunday tizim mavjud bo‘lmaganmi?- degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga biz “Albatta bo‘lgan, biroq bu tizim aynan bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni korreksiyalashga xizmat qilmagan”,– deb ayta olamiz.

Xo‘sh bu tizimga nimalarni kiritamiz va ular qanday ishlashi kerak, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabat qay tarzda amalga oshirilishi lozim. E’tirof etish joizki, biz tanlagan muammoning dolzarbligi ham ana shundadir.

Ushbu tizimga biz oila – maktab – mahalla – tibbiyot muasssalari – reproduktiv salomatlik markazlarini kiritish lozim deb hisobladik. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, tizim markazida bola turibdi, demak u tizimning yadrosini tashkil etadi. Uning atrofidagilar esa tizim elementlaridir. Qachonki bu elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq va yaxlitlik ta’minlansa hamda uzviylik amalga oshirilsa, tizim muvaffaqiyatli ishlay oladi. Bu tizimdagi har bir elementning o‘z funksiyasi mavjud bo‘lib, ular amalga oshiradigan ish ko‘lamiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Quyidagi biz tizim elementlarining funksiyasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Oila – tizimning asosiy elementidir. Uning vazifasi davlat va jamiyat uchun ma’nan va jismonan sog‘lom, yetuk avlodni tarbiyalab berishdan iborat. Buning uchun oilada bolalarga reproduktiv, tarbiyaviy, psixoterapevtik xizmatlar ko‘rsatiladi. Oila bola uchun shaxsiy fazilatlar va ijtiomiylashuvni amalga oshirishning dastlabki obyektidir. Bolaning ilk ijtimoiylashuv davri oilada yuzaga keladi. Bola oila orqali nafaqat jamiyatda yashashni, balki kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirishishni, axborot almashishni o‘rganib boradi.

Oilaning yana bir muhim vazifasi u ajdodlardan qolgan qadriyatlarni keyingi avlodlarga yetkazib beruvchi halqa hisoblanadi. Bola oilada milliy an’analar,

urf-odatlar, bir so‘z bilan aytganda, qadriyatlarni o‘zlashtira borib, ularga amal qilishni o‘rganadi. U kichikligidayoq odob-axloq, mehnat qadriyatlarini o‘rganadi. Mehnat qilish, o‘zidan kattalarni hurmat qilish, toza va ozodalik, ilm-ma’rifatli bo‘lishga intilish, ona-Vatanni sevish kabi xalqimizning yuksak tuyg‘ularini o‘zlashtiradi [2;112].

Dastlab oilaviy tarbiya natijasida bolaning tafakkuri va nutqi rivojlanadi. Demak, oila bolaning nafaqat ruhiy-hissiy rivojlanishini ta’minlab qolmay, balki uning xulq-atvori va axloqiy fazilatlarini ham o‘stiradi. Shu sababli oilaviy tarbiya o‘rnini hech bir maskan bosa olmaydi.

Tizimning yana bir muhim elementi bu – mahalladir. Demak, mahalla o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan va xalqimizning asl qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan boshqarishning tarixiy va zamonaviy shaklidir.

Kichik maktab yoshdagi bolalar xulqidagi salbiy o‘zgarishlarni samarali korreksiyalash yo‘lida maktab faoliyatiga bolalarni to‘laqonli jalb etish, ularni tizimli ishtirokini ta’minlash katta ahamiyat kasb etadi. Bola mazkur jarayonda o‘yin, mehnat, o‘qish kabi faoliyat turlariga kirishadi, o‘z tarbiyachilari, o‘rtoqlari, atrofidagilar bilan muloqotga kirishish qobiliyati ko‘zga tashlanib, do‘stlari bilan munosabat o‘rnatish borasida ko‘nikma va malakalari shakllanib boradi.

O‘quvchilar xulqidagi salbiy o‘zgarishlarni bartaraf etish ularning ijtimoiy hayotga tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Bunda avvalo bolani ijtimoiy adaptiv ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki maishiy turmush bola hayotining asosiy qismi bo‘lib, tiriklikning negizi sanaladi. Ma’lumki, xulqida salbiy o‘zgarishlar kuzatilgan bolalar boshqa tengdoshlaridan farqli ravishda sharoitga moslashuvi qiyin kechadi. Shu bois faol ishtirokchi sifatida e’tirof etilmaydi. Bu borada bolalarni, avvalo, oila a’zolari va qo‘ni-qo‘shnilar bilan hamjihatlikka o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Pedagogik diagnostika natijalari o‘quvchilarda kuzatiladigan salbiy o‘zgarishlarni bartaraf etishning quyidagi usullari samarali ekanligi tasdiqlaydi:

Birinchidan, bola xulqidagi salbiy holat paydo bo‘lishining sabablarini aniqlash.

Ikkinchidan, bolaning o‘ziga murojaat qilgan holda u tomonidan salbiy xatti-harakatlar sodir etilayotganligi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri (yaxshi yoki yomon) ekanligi haqidagi fikrini bilish

Uchinchidan, salbiy xulq-atvorga moyil bolalarga pand-nasihat qilish emas, balki ularni muloqotga kirishishga undash lozim [3;153].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki bugungi kunda bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni o‘rganishda xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish, rivojlangan

davlatlarning tajribasini o‘rganish, ilg‘or tadqiqot markazlarining xulosalari bilan tanishish bolalar xulqini korreksiyalashning milliy metodologiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali mamlakatimizda bolalar tarbiyasini zamonaviylashtirish, yangicha yondashuvlarni olib kirish va tajriba almashish yo‘llari bilan yuqori samaraga erishish mumkin. Shuningdek, bolalar tarbiyasiga, ularning ruhiy sog‘lomligiga erishishda bu sohaga katta investitsiya kiritish ancha samarador ekanligini bu borada yaxshi natijaga erishgan davlatlar amaliyotidan ham bilsa bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.2. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.572.

2. Мунавваров А.Қ. “Оила педагогикаси”. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994. – 112 б.

3. Зарипов К.З. “Педагогическая диагностика в системе непереривного повышения квалификации учителей”.: пед. фанл. докт. дисс. – Тошкент. Низомий номли ТДПУ, 1990. – 153 б.

4. Жўраев Р.Ҳ. Сафарова Р.Ғ. Ибрагимов Х.И., Мусаев У.Қ. “Педагогика фани концепцияси”. // “Халқ таълими”. – 2004, № 5. – Б. 8-31.

5. Freud Z. Gesammelte Werke. – London: Imago, 1952. –Vol. – P. 1-17.

РЕЗЮМЕ

Yoshlarning xulq-atvori ilk bolalik davridan boshlab shakllana boshlaydi. Bolalar xulq-atvorining shakllanish jarayoni birmuncha murakkab jarayon bo‘lib, u o‘ta mas’uliyatli va e’tiborli bo‘lishni talab etadi. Ushbu maqolada o‘quvchilar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqish sabablari va korreksiyalash haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

Поведение молодых людей начинает формироваться с раннего детства. Процесс формирования поведения детей — достаточно сложный процесс, требующий предельной ответственности и внимания. В данной статье представлена информация о причинах и коррекции негативных изменений в поведении учащихся.

SUMMARY

The behavior of young people begins to form from early childhood. The process of the formation of children’s behavior is a somewhat complicated process that requires extreme responsibility and attention. This article provides information on the causes and correction of negative changes in student behavior.

SHAXS TARBIYASIDA EYDEKOLOGIYA TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING QIYOSIY TAHLILI

Xo‘jamberdiyeva M.
Qarshi davlat universiteti doktoranti

Tayanch so‘zlar: shaxs, ta’lim oluvchi, tamoyil, qiyosiy tahlil, bilim, qadriyatlar, munosabatlar, qarorlar qabul qilish tajribasi.

Ключевые слова: личность, обучающийся, принцип, сравнительный анализ, знания, ценности, установки, опыт принятия решений.

Key words: personality, student, principle, comparative analysis, knowledge, values, attitudes, decision-making experience.

Eydekologiya tamoyillaridan izchil foydalanish ta’lim oluvchining dunyoqarashida o‘ziga xos o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu borada bir qator xorijiy davlatlar ta’lim tizimi ma’lum rivojlanishga va tajribaga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Buyuk Britaniya ta’lim tizimida faoliyatining yangi vazifalari tizimiga ekologik qadriyatlarni kiritishni belgilab berdi. Mamlakat rahbariyati ekologik ta’limni barqaror rivojlanish siyosatining “yuragi” deb belgilagan. Barqaror rivojlanishning maqsadi, britaniyalik ekspertlarning ta’riflariga ko‘ra, jamiyat va iqtisodiyotning barcha sohalaridagi turli xil inqirozlarni chetlab o‘tib, «silliq» harakat qilish uchun birgalikdagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlashdir.

Birlashgan Qirollik ta’lim tizimlarining xarakterli xususiyatlari shundaki, barcha hududlar uchun asosiy va qo‘shimcha sinflar tizimida ekologik muammolarni o‘rganish majburiydir. Shu bilan birga, bunday darslarga ajratilgan o‘quv soatlari soni ta’limning ichki imkoniyatlari hisobidan belgilanadi.

Britaniya ta’lim jarayonining milliy ta’lim dasturiga muvofiq eydekologiya quyidagi ijtimoiy muhim vazifalarni bajarishlari shart:

“barcha shaxslarga atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilash uchun zarur bo‘lgan bilim, qadriyatlar, munosabatlar, qarorlar qabul qilish tajribasi, ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini berish;

shaxsning tabiatni kuzatish va atrof-muhitni turli nuqtai nazardan (geografik, jismoniy, sotsiologik, biologik, iqtisodiy, texnologik, siyosiy, tarixiy, axloqiy, estetik va ma'naviy) o'rganishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash;

shaxsda ekologik muammolarga tabiiy qiziqishni, shuningdek, haqiqiy ekologik muammolarni hal qilishda amaliy ishtirok etish istagini uyg'otish" [82].

Angliyaning mazkur tartibdagi ta'lim siyosati natijasida shaxs o'z qadriyatlari tizimida ekologik axloq, madaniyat, munosabat, mas'uliyatni ham qaror toptirishga sabab bo'ladi. Bu esa ta'lim oluvchining:

"o'zi va atrof-muhit muhofazasi;

uzoq muddatli tashabbuslar uchun javobgarlik;

Angliyada elektr ta'minoti ishonchliligi kafolati;

ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ta'minlash;

boshqa davlatlarning ishtirokini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik sifatlarini tarkib toptirish kabilarga imkon beradi" [93].

Eydekologiya tamoyillari asosida ta'lim samaradorligini oshirishda Skandinaviya tajribasini (Shvetsiya va Norvegiya misolida) o'zlashtirish maqsadga muvofiq. Bu mamlakat aholining ekologik ta'lim olishi nuqtai nazaridan o'ziga xos "standart" hisoblanadi.

Norvegiyada ekologik ta'lim jamiyatda atrof-muhit muammolariga qiziqishning ortib borishi bilan bevosita bog'liq. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, atrof-muhitga oid xabardorlik 1970-yillardan boshlab Norvegiyada va butun Yevropada eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylana boshlaganini bilib olamiz. Atrof-muhit muammolari bo'yicha tashvishlarning kuchayishi 1972-yilda Norvegiyaning iqlim va atrof-muhit bo'yicha birinchi vaziri saylanishiga olib keldi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tez o'zgarishi Norvegiya maktablarida 1974-yildan boshlab yangi o'quv dasturining yaratilishiga va amalga oshirilishiga olib keldi. 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan konferensiya va 21-kun tartibi qabul qilingandan so'ng, hukumat tomonidan maktablarning o'quv dasturiga ekologik barqaror rivojlanish g'oyalarini kiritish bo'yicha yangi chora-tadbirlar ko'rildi. O'qituvchilar uchun "Tabiat - Jamiyat – Atrof" deb nomlangan yangi majburiy kurs taqdim etildi. Uning maqsadi Norvegiya maktablarida ekologik qadriyatlarning rolini oshirish uchun o'qituvchilarni ekologik madaniyat va "Barqaror rivojlanish" asoslariga o'rgatish edi.

Bugungi kunda Norvegiyaning Bergen shahrida joylashgan Flaktveyt maktabida eydekologiya tamoyillari muvaffaqiyatli joriy etilganiga yorqin misoldir. Bu tamoyil ta'lim oluvchilariga (6-13 yosh) "Barqaror rivojlanish" maqsadlariga erishish imkoniyatini beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish” maqsadlari o‘z ichiga 17 ta maqsad va 169 ta vazifani olgan bo‘lib, BMTga a’zo barcha davlatlar (191 ta) 2030-yilga qadar erishishga kelishib olgan. Maqsad va vazifalar murakkab va ajralmas bo‘lib, “Barqaror rivojlanish”ning barcha uch komponenti: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni ta’minlaydi. Ushbu tizim ta’lim inson hayotining muhim qismi ekanligi haqidagi g‘oyaga asoslanadi. Biroq hozirgi iqlim o‘zgarishlari ekologik qadriyatlar borasidagi bilimlarni amaliy qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu ta’lim muassasasi uchun tabiat hukmronlik qiladigan muqobil qadriyatlar tizimini ko‘rsatib, ta’lim va tarbiyaning axloqiy tuzilmasini mustahkamlash muhimdir. Bunda ta’limning maqsadi - boshqalar tabiat va jamiyat uchun g‘amxo‘rlikni tushunishdir. Bu esa eydekologiya tamoyillari izchiligi asosida amalga oshiriladi [89].

Norvegiyada shaxslarning o‘zlari zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topishda va barqaror kelajak uchun harakat qilishda mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishni o‘rganadilar.

“O‘qituvchilar guruhlarda birgalikda ishlaydi va tadbirlarni rejalashtirishadi, ularning ba’zilari aralash yosh guruhlarda o‘tkaziladi. Faoliyatlar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

ta’lim chiqindilarni qayta ishlash kompaniyalari bilan hamkorlik qiladigan qayta ishlash va ajratish tashabbusi;

suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik qilish; ularning faoliyatini o‘rganish va yirik korxonada turli xil ekologik muammolarni qanday hal qilishni tushunish uchun yirik kompaniyalar bilan hamkorlik qilish”[68].

Ta’lim oluvchilar notijorat tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu ularga o‘zlarining kichik hissalarini qo‘shish va dunyoni o‘zgartirish, shuningdek, axloqiy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Norvegiyada eydekologiya tamoyillari ta’lim rahbariyati faoliyatida aniq ko‘zga tashlanadi. Rahbar shaxslarni o‘zlariga va boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishga, mahalliy aholiga ko‘mak berishga, tabiatni asrashga, sayyoramizga e’tiborli bo‘lishga o‘rgatadi. Ta’lim rahbariyati shaxsning demokratik jamiyat va butun sayyora kelajagi haqida adekvat va muvozanatli, barqaror qarorlar qabul qila olishlariga umid qiladi. Bu borada “Veches Tidende”, “Bergensavisen” va “Asane Tidende” kabi gazetalarda ko‘plab maqolalar yozilgan. “Ta’lim 2008-yilda Hordaland tumani atrof-muhit mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Eydekologiya tamoyillariga asoslangan ta’lim sohasida yetakchi davlat – Shvetsiya tajribasi qiziqish uyg‘otadi. Chunki bugungi kundagi voqelikda ko‘plab davlatlar “shved modeli”ni qabul qilishga intilishmoqda.

Shvetsiya jamiyati 1970-yillardagi iqtisodiy o‘sish davrida rivojlandi va mamlakat 1980-yillarga kelib odamlar hayoti uchun farovon jamiyatni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. 1990-yillarga kelib Shvetsiya jamiyati tushunchasi “Odamlar va atrof-muhit uchun barqaror jamiyat” bosqichiga yetdi. Shvetsiya 1972-yildagi Stokgolm konferensiyasidan beri xalqaro ekologik hamjamiyatga rahbarlik qiladi, shuningdek, 1992-yilda Rio konferensiyasida faol ishtirok etdi. Ijtimoiy ta’minot tizimi, muhojirlar uchun ta’lim, “Uglerod” solig‘i - bularning barchasi Shvetsiya jamiyatining yutug‘idir. Aytish mumkinki, Shvetsiya butun insoniyatga “manifest”ni ilgari surdi, unda u “insoniyatni tabiatga nisbatan o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga” chaqirdi[75].

Atrof-muhit masalalarida Shvetsiya yetakchiligi uchun zarur shartlar mavjud. Shvetsiyaning butun tarixi, madaniyati va jamiyati tabiat bilan uzviy bog‘liqdir. Bularning zamirida eydekologiya tamoyillari izchilligi yotadi[75].

Shvetsiyadagi eydekologiya tamoyillariga amal qilishda tabiiy va gumanitar fanlarning o‘rni beqiyos. Tabiiy fanlarga quyidagilar kiradi: biologiya, fizika, kimyo va keng ma’noda texnologiya. Gumanitar fanlarga: geografiya, tarix, dinshunoslik va huquq.

Eydekologiya tamoyillari fakultativ kurslar negizida tizimli foydalaniladi va haftasiga 6-7 soat davom etadi. Maqbul ish shakllari dala yoki amaliy laboratoriya ishi hisoblanadi. Shvetsiyaning ko‘pgina ta’lim muassasalarida eydekologiya tamoyillari ekologik ta’lim negizida tashkil etilib, alohida o‘quv xonalarida, fakultativ kurslar va “seminar”larga rahbarlik qiluvchi mutaxassislar yordamida olib boriladi.

Adabiyotlar:

1. Махмутов М. И. Организация проблемного обучения в школе. - М.: 1977. - 240 с.

2. Махмутов М.И . Проблемное обучение: основные вопросы теории. - М.: «Педагогика». – 1975.-367 с.

3. To‘xtaev A. S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi”, 2001. - 144 b.

4. Shodiev R. D., Aslonova O. P. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi, va integratsiyasi. Darslik. Qarshi. “Fan va ta’lim”, 2021. – 150 bet,

РЕЗЮМЕ

Maqolada xorijiy davlatlar ta’lim tizimi ma’lum rivojlanishga va tajribaga ega ekanliginining muhim ahamiyati tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируется важность того, что образовательная система зарубежных стран имеет определенное развитие и опыт.

SUMMARY

The article analyzes the importance of the fact that the educational system of foreign countries has a certain development and experience.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHI SHAXSINING KASBIY O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Temirov M.Sh.
Xalqaro innovatsion universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: bo‘lajak pedagog, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogik faoliyat, o‘qitishga an’anaviy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: будущий педагог, профессиональное саморазвитие, педагогическая деятельность, традиционный подход к обучению, компетентностный подход.

Key words: future pedagogue, professional self-development, pedagogical activity, traditional approach to teaching, competence approach.

Hozirgi vaqtda jamiyat shaxsning ijro faoliyatiga tayyorligidan qoniqishi mumkin emas, buning natijasida u har bir bitiruvchini yosh avlod kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga yo‘naltiradi. Shuning uchun kelajakdagi o‘qituvchi shaxsining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish masalalari, uning o‘zini rivojlantirishga tayyorligi bugungi kunda zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining pedagogik malakasini oshirish zarurati O‘zbekiston ta’lim siyosatining asosiy vazifasidan kelib chiqadi. Ta’limning fundamentalligini saqlab qolish, shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlariga mos kelishi asosida zamonaviy sifatga erishish zamonaviy pedagogik hamjamiyatning ustuvor vazifasiga aylanib bormoqda. Ko‘rinib turibdiki, ta’lim sifatining natijasi o‘qituvchi shaxsi, uni doimiy ravishda takomillashtirib borish, kasbiy mahorat darajasini oshirish zarurati bilan bog‘ liq. Oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayoni kelajakdagi mutaxassisning hayoti va dunyoqarashini belgilaydi, universitet devorlarida ilmiy va pedagogik bilimlarga qiziqish, ularni doimiy ravishda yangilashga tayyorlik, o‘z faoliyatini pedagogika

– tashkiliy va faollik (kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik shakllari, usullari va vositalari);
– diagnostika (diagnostika majmuasi o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorlik darajasi va mualliflik dasturi). Ichki omil esa kelajakdagi o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorligini shakllantirishdir [1]. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini o‘zi

rivojlantirishga tayyorligi mezonlari quyidagilardir: shaxsning kasbiy yo‘nalishi, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyati, refleksli ko‘nikmalarni rivojlantirish.

V.G.Maralov o‘z-o‘zini rivojlantirish xususiyatlarini o‘z ichiga oladi: hayotiy faoliyat maqsadlarni belgilash, faoliyat va inson xatti-harakatlarining doimiy jarayoni sifatida; shaxs faoliyati; o‘z-o‘zini anglashning rivojlanish darajasi, o‘zini o‘zi bilish qobiliyati . K.Y.Vazina o‘z-o‘zini rivojlantirishda aks ettirishni ustuvor deb biladi va o‘z-o‘zini rivojlantirishning aks ettiruvchi texnologiyasini taklif qiladi [2].

E.F.Zeyer shaxsni rivojlantiruvchi kasbiy ta’limning kontseptual qoidalarini shakllantirdi.

Ular orasida biz o‘z-o‘zini rivojlantirish jihatidan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatdik:

1) talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi asosiy maqsad sifatida qaraladi;

2) talabaning o‘zi ham ta’limotni o‘zi yaratadi;

3) ta’lim standartining mazmuni maqsadni emas, balki ta’lim vositasini tavsiflaydi;

4) o‘qituvchilar va talabalarning hamkorligi kasbiy o‘quv jarayonini to‘liq tashkil etishning kalitidir.

Pedagogik ta’lim tizimida hozirgi holatida yuqoridagi qoidalar to‘g‘ri aks etmaydi. Hali ham bilimga, ta’lim mazmunining nazariy tarkibiy qismiga ustuvorlik beriladi, bitiruvchilar pedagogik kasbga intilmaydilar, amaliy ishlarda etarli ko‘nikmalarga ega emaslar, talabalarni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish muammolarini hal qilishga tayyor emaslar. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘rganishga an’anaviy yondashuv o‘z pozitsiyalarining mustahkamligini saqlab qolishda davom etmoqda. Ta’lim jarayonini isloh qilish ko‘pincha o‘qituvchilarning inersiyasi bilan cheklanadi, chunki yangi yondashuvlardan foydalanish, talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun sharoit yaratish o‘qituvchilardan faoliyat

strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni, kasbiy xulq-atvoming mavjud stereotiplaridan voz kechishni talab qiladi.

Ammo an’anaviy yondashuvni to‘liq rad etish, bizning fikrimizcha, mantiqsiz bo‘ladi. Uning elementlari ta’limning ma’lum bosqichlarida, xususan, talabalarning dastlabki g‘oyalari, asosiy tushunchalari va ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida zarur funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun talabalarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash nuqtai nazaridan an’anaviy va kompetensiya-faoliyat yondashuvlarining imkoniyatlarini tahlil qilish va taqqoslash zarur. O‘qituvchining har bir yondashuvni amalga oshirishdagi afzalliklari, kamchiliklari va muammolaridan xabardorligi unga o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini qurishda ko‘proq ongli tanlov qilishga imkon beradi.

An’anaviy yondashuvning imkoniyatlari asosan shaxsning bilim sohasi, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bog‘liq. Kompetensiya-faoliyat yondashuvining

potensiali talabalarning o‘qitish va kompetensiyani o‘zlashtirishdagi subyektiv pozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu mutaxassisning tizimli xarakteristikasi hisoblanadi. Shuning uchun, ta’lim muhitini loyihalashda har bir yondashuvning xususiyatlarini hisobga olish kerak. Yondashuvni tanlash nafaqat «an’analar» va «innovatsiyalar» jihatlariga, balki zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri bo‘lgan talabalarning kasbiy shakllanishi va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishdagi roliga ham bog‘liq bo‘lishi kerak. Binobarin, universitetda o‘quv jarayonini qurishda an’anaviy va kompetensiya-faoliyat yondashuvlarining kombinatsiyasini ta’minlash kerak, chunki ularning har biri uning roli talabalarning shaxsiyatini kasbiy tayyorlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida eng samarali bo‘lgan hollarda qo‘llanilishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsini shakllantirishni va pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning etarli darajasini ta’minlaydigan kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning pedagogik shartlari va omillari, shu jumladan: o‘z-o‘zini rivojlantirish o‘z-o‘zini rivojlantirish asosi sifatida; kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni ta’minlaydigan ijodiy faoliyat; hamkorlik pedagogikasi tamoyillarini amalga oshiradigan subyekt-obyekt faoliyatining dialogik, jamoaviy taqsimlangan mexanizmlarini ifodalovchi tashkilot shakllari; o‘z-o‘zini aks ettirish qobiliyatlari va shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish; bag‘rikenglik dunyoqarashi insonparvarlik, adolat va qadrsiz munosabat manbai, shuningdek muqobil pedagogik qo‘llab-quvvatlash sifatida muhim rol o‘ynaydi .

Adabiyotlar:

1. Маралов В.Г. Основы самопознания и саморазвития. М.: Академия, 2002. 256 с.

2. Зеер Э.Ф. Личностно-развивающие технологии начального профессионального образования. М.: Академия, 2010. 176 с.

3. Данилюк А.Я. Принципы модернизации педагогического образования // Педагогика. 2010. № 5. С. 37-46.

4. М.У.Курбанов. Таълим-Тарбия Жараёни Самарадорлигини Оширишда Педагогик Жамоани Бошкаришнинг Узига Хос Хусусиятлари. Academic research in educational sciences 4. 2023

РЕЗЮМЕ

Bo‘lajak pedagoglar uchun har tomonlama rivojlanishning muhim shartlaridan biri ularni o‘zi o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish hozirgi kunda pedagogika oliy ta’lim muassasalarining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning o‘z o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvlarning qiyosiy tahlili o‘tkazildi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

РЕЗЮМЕ

Одним из важных условий всестороннего развития будущих педагогов является формирование навыков их саморазвития, что является одной из важных задач педагогических вузов. В данной статье проведен сравнительный анализ подходов к саморазвитию будущих педагогов, выявлены их специфические особенности.

SUMMARY

One of the important conditions of all-round development for future pedagogues is the formation of their self-development skills, one of the important tasks of pedagogical higher education institutions. In this article, a comparative analysis of approaches to self-development of future pedagogues was conducted, their specific features were identified.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА МАТЕМАТИК ИЖОДКОРЛИК

Очилов А.Э.
Халқаро инновацион университет,
Педагогика ва жисмоний маданият кафедраси доценти

Tayanch so‘zlar: қобилият, имкониятлар, мустақил фикрлаш, мантиқ, ижод фикрлаш, фаол фикрлаш, мустақил фикрлаш.

Ключевые слова: способности, возможности, самостоятельное мышление, логика, творческое мышление, активное мышление, самостоятельное мышление.

Key words: abilities, possibilities, independent thinking, logic, creative thinking, active thinking, independent thinking.

Олий таълим тизимини асосий йўлишидан бири талабанинг хусусиятлари, имкониятлари лаёқати ва қобилиятларини эътиборга олинган ҳолда уни шахс сифатида максимал ривожлантиришга қаратилган таълимдир.

Бўлғуси ўқитувчи ўзининг интилишлари, қобилияти ва имкониятларига кўра ҳаётда ўз ўрнини тўғри топа олган шароитда ривожланувчи жамиятни барпо этишга ўз ҳиссасини қўшиши мумкин. Маълумки, шу кечаю–кундузда жамиятдаги инсоннинг тўлақонли фаолияти, яъни унинг ҳар кунги хаёти, ишлаб чиқариш фаолияти, ундан юқори даражадаги билим ва юксак маданиятни талаб қилади. Бизнинг асосий мақсадимиз ёшларни билимга ундаш, фаоликка чақириш, амалий фаолиятнинг ҳар бир турида билимларнинг муҳимлигини курсатиш, мустақил фикрлашга ўргатишдан иборат. Демак, олий таълим олдида талабаларга университет партасидан бошлаб мустақил фикрлаш ва ижод қилиш талабини сингдириш вазифаси турмоқда.

Замонавий фанда ижод қилишни бир неча йўналишлари белгиланди: фалсафа билимларнинг ҳаққонийлик муаммосини кўриб чиқади; мантиқ ижод қилишни ривожлантирувчи билим тизими деб ўрганади, социологлар жамоа муҳит омили деб ҳаракатлантирувчи ва секинлаштирувчи ижодий қобилиятларнинг намоён бўлиши нуқтаи назаридан қарайди; психология ҳар бир шахснинг мустақил фикрлаш ва ижод қилиш жараёнини нимага боглиқлигини, ижодкорликни пайдо бўлишини, инсон фикрлаш жараёни ёрдамида номаълумни, янгиликни топади? – деган фаразни кўриб чиқадилар; педагогика талабалардаги ижодий фаолиятни шакллантириш йўлларини, ёш авлодни ижодий меҳнатга тайёрлашни текширади.

Талабаларни мустақил фикрлашини ва ижод қилишини шакллантириш учун педагогика, фалсафа, мантиқ, психология ва бошқа бир қатор фундаментал фанларда ўрганиладиган билишнинг хусусиятлари ва қонуниятларини сингдириш керак.

Талабалардаги мустақил фикрлаш, уларнинг билимларини ҳақиқий ҳаётдан, аксинча ҳаётдан ажралмаган ҳолда дунёни чуқурроқ, тўлароқ ўрганишга имкон яратади. Бунда талабаларда шаклланадиган гоя катта аҳамиятга эгадир. Ҳар бир янгидикдан олдин ғоя пайдо бўлади, кейин шу янгилик ҳақида фикр юритилади. Инсоннинг фикри бир жойда турмайди, у фан, техника, тиббиёт, қишлоқ хўжалигини олдинга қараб ҳаракатланишга ундайди. Фикр ўз қарорини топиши учун воқеаларни таққослайди, куриб чиқади ва уларга асосланиб келиб чиққан натижаларни исботлаш учун умумий услубни англашга ва шу натижани умумий ифодалашга ҳаракат қилади.

Математик масалаларни ечиш жараёни ва ижод қилиш ўзининг моҳияти буйича мустақил фикрлашни талаб қилади. Мустақил фикрлаш даражаси турли инсонларда турлича булади. Унинг ривожланиши доимий машқ қилишни талаб қилади. Ҳар бир мустақил ечилган масала, тузилган масала ва масалани ечиш жараёнида учраган қийинчиликларни мустақил енгишида характер шаклланади, ижодий қобилиятлар ривожланади.

Руҳшуносларнинг фикрига қараганда мустақил фикрлаш ва ижод қилиш тушунчаси – мураккаб ва серқирралидир. Ўзининг моҳияти буйича ҳар бир фикр ижодийдир, паст ёки юқори даражанинг маҳсулидир. Ҳар бир фикр – изланиш ва янгиликни яратишдир, уни оммалаштиришга мустақил ҳаракатдир.

Бу борада В.А. Крутецкий бундай ёзади: «Фаол фикрлаш», «Мустақил фикрлаш» ва «Ижодий фикрлаш» тушунчалари орасидаги муносабатларни умумий , яъни айланалар йигиндиси шаклида ифодалаш мумкин». Бундай фикрлашнинг даражалари турличадир.

Адабиётлар таҳлиллари ва тажриба натижалари шуни кўрсатадики, мустақил фикрлаш ва ижод қилиш маҳсулининг юқори даражасидаги янгилиги, унга эришиш жараёнининг ўзига хослиги ва ақлий ривожланишга сезиларли таъсир курсатиш билан ифодаланади. Айрим муаллифлар ўқувчининг турлича фикрлашлари уларнинг олдида турган янги муаммоларни мустақил ечишга, чуқур билимларни тезлик билан эгаллашга, қулай имкониятга енгил ўтишга ундайди деб ҳисоблайдилар.

С.Л.Рубинштейн биринчилардан умумий ақлий ривожланиш борасида қилинган изланишларни ўрганишда руҳшуносликдаги фаолият тоифасини руҳий изланишнинг объекти ва мақсади қилиб киритди ва асослади. Фаолият назарияси асосида Рубинштейн фаолият тушунчасини субъектдан объекга ўтиш деб киритади. Рубинштейн фаолиятнинг иккинчи босқичи объекдан субъектга қараб борган алоқадан деб ҳисоблайди. Рубинштейннинг диққат марказида, инсон фаолият жараёнида фақатгина ўзига хос бўлган шахс сифатида ўзининг хусусиятларини намоён этиб қолмай, балки ундаги руҳиятнинг шаклланиши объект бўлиб аниқланади деган мазмун туради.

«Фаолият», «Ҳаракат», «Операция» тушунчаларининг фундаментал психологик тушунчалари А. Н. Леонтьев ишларида ёритилган.

Пардаева фаолият – субъектнинг бир – бирига боғланган реаллигининг ўзаро таъсир кўрсатиши деб реалликнинг инсон онгида акс эттирилиши – «таъсир» нинг натижаси бўлмай, ўзаро таъсир, яъни бир – бирига дуч келган жараёнларнинг натижасидир деб ҳисоблайди.

Мустақил фикрлаш ва ижод қилишни ривожлантиришда фаолият шаклларининг ишланмаси ва ишлатилиши, ҳамда таълимдаги фаолият тамойилларининг бир – бирига кетма–кет ўтказилиши энг фойдали ва натижали йўналишдир. Ижодкор бўлғуси математика ўқитувчиси квадрат тенгламалар мавзуси бўйича қуйидагича мулоҳазалар юрита олади: $ax^2+bx+c=0$ квадрат тенглама берилган бўлсин. Бу тенгламани ечмасдан

1) $x_1 - x_2$;
2) $x_1^2 \pm x_2^2$;
3) $x_1^3 \pm x_2^3$;
4) $x_1^4 \pm x_2^4$

ларни топиш табиий. $x_1^{-2} + x_2^{-2}$ ёки $x^2 + px + q = 0$ учун

$$S = \sqrt[4]{x_1} + \sqrt[4]{x_2} \quad (x_1 > 0; x_2 > 0)$$

қандай топилади? Бундай ташқари a нинг қандай қийматларида

$$2x^2 - 2ax + a^2 - 2 = 0$$

тенгламани илдизларининг тескари қийматини йиғиндиси $\frac{2}{3}$ га тенг бўлиши ва $x^2 - ax + a - 1 = 0$ учун $x_1^2 + x_2^2$ ифоданинг қийматини ва

$x^2 - ax + a - 6 = 0$ учун илдизлар айирмасини энг кичик бўлиши,

$x^2 - (a+10)x + a = 0$ учун ҳар иккала илдизни манфий бўлиши,

$x^2 + ax + 1 = 0$ учун $\left(\frac{x_1}{x_2}\right)^2 + \left(\frac{x_2}{x_1}\right) > 1$

бўлиши, $y = x^2 + ax + 2$ уч ҳадни $0 < x < 1$ шартни қаноатлантириши,

$$x^2 - 2a(x-1) - 1 = 0$$

учун илдизлар йигиндиси илдизлар йиғиндиси квадратига тенг бўлиши масалаларини қўйиш мумкин.

Иккинчи томондан бутун коэффицентли $ax^2 + 6x + c = 0$ учун $a - c$ ва $a + c$ тенгламани ечими бўлмаслигини, илдизлари

$$px^2 + 4x + n = 0$$

ни илдизлари $a : b$ муносабатда бўлса $a \neq 0$, $b \neq 0$, $u \neq 0$, $p \neq 0$ ҳолда

$$\sqrt{\frac{a}{b}} + \sqrt{\frac{b}{a}} + \sqrt{\frac{u}{p}} = 0$$

бўлишини,

$$5x^2 - 2(5k+3)x + 5k^2 + 6k + 1 = 0$$

ни илдизларини айирмаси k га боғлиқ бўлмаслигини,

$$ax^2 + 6x + c = 0 \ (a \neq 0, b \neq 0, \ c \neq 0)$$

тенгламанинг коэффициентлари

$$2b^2 - 9ac = 0$$

муносабат билан боғлиқ бўлса, унда бу тенглама илдизларини нисбатини 2 га тенглигини исботлаш мумкин.

Муаммоли масала $x^2 + px + q = 0$ ни илдизларидан бири α ва $x^2 + 2x + s = 0$ ни илдизларидан бири β бўлса $\alpha = k\beta$ бўлиши учун $(q - r^2 s)^2 + k(p - kr)(ksp - qr) = 0$ тенгликни бажарилиши зарур ва етарли эканлиги исботлаш мумкинми?

Демак, математик масалалардан кенг миқёсда фойдаланилса, ўқувчиларда чуқуррок фикрлаш, фикрлашдаги кетма–кетлик, мустақиллик, танқидийлик каби фикрлаш хусусиятларини тарбиялашга имкон яратади деган хулосага келдилар. Булғуси математика ўқитувчиси илмий фараз қилиш, мулоҳаза қилиш, таҳлил қилишни билиш, бир-бирига боғлаш, умумийлаштириш каби қобилиятларни тарбиялаш учун турли масалалардан фойдаланишни билиши керак.

Адабиётлар:

1. Velikova, E. (Ed.): Proceedings of the 3rd International Conference «Creativity in Mathematics Education and the Education of Gifted Students», Rousse Bulgaria 2003.

2. Ochilov A. Differinsial talimning va mantikiy rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari. 2020 yil 6/1 soni.dekabr Nukus. mugallim-uzliksiz-bilim.

3. Berdiyev B. R. “Matematika o‘qitish metodikasidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo‘llari”.// “Muallim hem uzluksuz bulumlenduruy‘” Ilimiy - metodikaliq jurnal. Nekus, № 4-2 2020 jil,76-79 b.

4. Бердиев Б. Р. “Математика ўқитиш методикаси” курсидан мустақил таълимни ташкил этишда методик таъминот тизимидан фойдаланиш”// ЎЗМУ хабарлари. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали. Тошкент, 2021 1/3/1. 51-55 б

5. Ochilov.A.E. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy nazariy aspektlari. 2020 yil 4/2 soni Nukus. mugallim-uzliksiz-bilim.uz.104 б.

РЕЗЮМЕ

Талабаларни мустақил фикрлашини ва ижод қилишини шакллантириш учун педагогика, фалсафа, мантиқ, психология ва бошқа бир қатор фундаментал фанларда ўрганиладиган билишнинг хусусиятлари ва қонуниятларини сингдириш мақолада очиб берилган.

РЕЗЮМЕ

В целях формирования самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся в статье раскрываются особенности и законы познания, изучаемые в педагогике, философии, логике, психологии и ряде других фундаментальных наук.

SUMMARY

In order to form independent thinking and creative abilities of students, the article reveals the features and laws of knowledge studied in pedagogy, philosophy, logic, psychology and a number of other fundamental sciences.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Buriyeva N.R.
Qarshi davlar universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: innovatsiya, kompleks, instrumental, interfaol metodlar, axborot kommunikatsiyalari, intellektual rivojlanish.
Ключевые слова: инновационные, комплексные, инструментальные, интерактивные методы, информационные коммуникации, интеллектуальное развитие.
Key words: innovative, complex, instrumental, interactive methods, information communications, intellectual development.

Ta’limdagi innovatsion faoliyat ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va usullari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bolishi mumkin. Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo‘lishi loyihalash ishlarining natijasi bo‘lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonlar sifatida o‘qituvchi-pedagog va o‘quvchi-talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarish kiritadi. Bu yangilanishlarni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan samarali foydalaniladi. Interfaol metodlar – bu jamoa bo‘lib fikr yuritish, pedagogik ta’sir etish usullari sifatida ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘ziga xosligi shundaki, u pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda doimiy faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiyalar axborot kommunikatsiyalari bilan bog‘liq

holda ta’lim jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan texnik vositalar, masofali o‘qitishdan samarali foydalanishdir.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi esa o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning belgilangan maqsad sari intilish orqali kutilgan natijaga erishishda samarali usulni tanlash hisoblanadi. Ya’ni, ta’lim jarayonida kutilgan natijaga erishish yo‘lida qo‘llanilgan har bir zamonaviy texnologiya o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga turtki bersa, o‘quvchi mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantira olsa, ijodkorlik, izlanuvchanlik xususiyatlarini rivojlantirsa, o‘qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa shundagina bu usul samarali va maqsadli hisoblanadi.

Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta’lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O‘quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Innovatsion ta’lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi qurilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeligiga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi vakolatlardir. Mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o‘z ichiga oladi.

2. O‘qitishda zamonaviy, innovatsion usullarni qo‘llash. Bunday usullar bo‘lajak mutaxassisning kompetensiyalarini shakllantirishga, o‘quvchilarni faol o‘quv va amaliy faoliyatga jalb etishga, o‘quv jarayonida tashabbus ko`rsatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘quv dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

3. Ta‘lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U ta’limning yangi shakllari va usullarini, xususan, masofaviy ta’limni qo‘llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak. Ta’limda innovatsion texnologiyalar o‘qitishda muayyan yondashuvlarni qo‘llash asosida qo‘llaniladi, ya’ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o‘quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o’zlashtirishga qaratilishi kerak.

Har bir dars, mavzu, o‘quv fanining o‘ziga xos texnologiyasi bor. Ya’ni, o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu o‘quvchi ehtiyojidan kelib chiqib, bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan, kutilgan natijaga erishishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta’lim jarayonida biror bir metodni qo‘llashda oldindan loyihalashtirish zarur va bunda o‘qituvchi o‘quv fanining o‘ziga xos jihatlarini, shart-sharoitni, texnik vositalarni, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyat va ehtiyojlarini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishni hisobga olishi lozim. O‘qituvchining har bir darsni yaxlit holda ko‘ra olish va tasavvur etish talab etiladi va bu jarayon mashg‘ulotni loyihalashtirib olishda namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi uchun navbatdagi darsning texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga ega. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu uchun o‘qitilayotgan fanning xususiyati, o‘quvchilarning imkoniyat va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda.

Pedagogik texnologiya fan sifatida pedagogikaning san’at, mahorat darajasidagi sohasini o‘rganuvchi fani hisoblanadi. U ma’lum bir konsepsiyaga tayanib, o‘quv-tarbiya jarayoni va uning qismlari bilan o‘zaro bog‘liq holda ta’limni rejalashtiradigan natijalarga erishish jarayoni va tafsiloti, shu bilan birga didaktik tizimning tarkibiy qismidir. Pedagogik texnologiyaning maqsadi quyidagilardan iborat:

- barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish;
- jamiyatda mustaqil va erkin fikrlovchi shaxsning shakllanishiga xizmat qilish; - o‘zinig qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash;
- ta’lim-tarbiya jarayoni sifat smamardorligini oshirish kabilardir. Pedagogik texnologiyaning tarkibi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, axborotlarni avloddan-avlodga uzatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish va o‘zlashtirishga erishish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda turli metodikalarni qo‘llash va takomillashtirishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalarda insonparvarlik, demokratik, do‘stona muhit, o‘zaro hurmat, hamkorlik va g‘amxo‘rlik, qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga amal qilinadi. Har bir fanning maqsad va vazifalariga mos bo‘lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda asosan o‘qituvchi, o‘quvchi-talaba va ta’lim vositalari ishtirok etadi. Agar pedagog ijodkor, o‘z fanining bilimdoni bo‘lsa, darsning maqsadiga erishiladi, o‘z kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda dars mazmuniga mos

vositalarni oldindan tanlasa, o‘quvchilarni qiziqtira olishi mumkin. Biroq ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishda turli vositalarning ta’siri o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmaydi. Ulardan to‘g‘ri, o‘z vaqtida, unumli ravishda foydalanish kerak, Shunday ekan, ta’lim jarayonida interfaol usullar samarasi quyidagilarga bog‘liq: (o‘qituvchi biror usulni qo‘llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rishi, rejalashtirishi; (ushbu usulni qo‘llash uchun tegishli vaziyat yaratishi; (interfaol ta’lim jarayonini umumpedagogik talablar asosida, hissiyot va ehtiroslarga berilmagan holda do‘stona, samimiy tashkil etish; (individual yondashuv jarayoni o‘quvchining mustaqil fikr yuritishi va kechinmalarini erkin bayon qilishiga sharoit yaratilishi; (interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

O‘quvchi faoliyatidagi asosiy jarayon -ko‘rsatish, so‘zlash, mashq bajarish -so‘zlash, ko‘rsatish, vazifa topshirish -tinglash -ehtiyojni aniqlash -o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash,bartaraf etish yo‘llarini izlash, yo‘naltirish -ko‘rish -maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash (muammolar yechimini topish) -do‘stona muhitni tashkil etish, huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish -izlanish -ta’lim-tarbiyani rivojlantirish -o‘quvchilardagi mavjud bilimlar asosida yangilarini shakllantirish va ijtimoiy hayotga yo‘naltirish tahlil qilish -tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish -rahbarlik qilish, nazoratni amalga oshirish - mashq bajarish, amaliyotga tatbiq eta olish Agar pedagog ijodkor, o‘z fanining bilimdoni bo‘lsa, darsning maqsadisha erishiladi, o‘z kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda dars mazmuniga mos vositalarni oldindan tanlasa, o‘quvchilarni qiziqtira olishi mumkin. Biroq ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishda turli vositalarning ta’siri o‘z-o‘zidan yuzaga chiqmaydi. Ulardan to‘g‘ri, o‘z vaqtida, unumli ravishda foydalanish kerak, Shunday ekan, ta’lim jarayonida interfaol usullar samarasi quyidagilarga bog‘liq: (o‘qituvchi biror usulni qo‘llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rishi, rejalashtirishi; (ushbu usulni qo‘llash uchun tegishli vaziyat yaratishi; (interfaol ta’lim jarayonini umumpedagogik talablar asosida, hissiyot va ehtiroslarga berilmagan holda do‘stona, samimiy tashkil etish; (individual yondashuv jarayoni o‘quvchining mustaqil fikr yuritishi va kechinmalarini erkin bayon qilishiga sharoit yaratilishi; (interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Hozir pedagogik amaliyotda interfaol metodlarning 200 dan ortiq turi mavjud. Ushbu interfaol metodlarni tatbiq etishda turli yondashuvlardan foydalaniladi. Ammo zamonaviy ta’lim jarayoni talabalar faolligini oshirishga qaratilgan interfaol metodlarni qo‘llashni talab etadi. Interfaol metodlarni tanlashda uning samaradorlik darajasini e’tiborga olish ahamiyatga ega. O‘quv

materiali og‘zaki bayon etilganda talaba ma’lumotning 5-10 foizini eslab qoladi. O‘quv adabiyotlaridan mustaqil o‘qish 10-15 foizni, ko‘rgazmali materiallar esa 20-25 foizni o‘zlashtirishga imkon beradi. Amaliy interfaol metodlar eng samarali hisoblanib, talabalar ongida ma’lumotning 75 foizi saqlanib qoladi. Lekin o‘quv materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq. Bunda 90 foiz bilim o‘zlashtiriladi, ko‘nikma shakllanadi, talabalar faolligi yanada oshadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimiga kiritilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida darslarni olib borish ta’lim samaradorligining bir necha barobarga oshishini 227 ta’minlaydi hamda talaba-ishlarimizni yanada bilimli va har tomonlama barkamol insonlar bo‘lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar:

1. Bordovskoy N.V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. -2- nashr, ko‘chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.

2. Gushchin Yu.V. Oliy ta’limda interfaol o‘qitish usullari / “Dubna” Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012 - No 2.- B.1-18.

3. Zaxarova, I.G. Ta’limda axborot texnologiyalari: oliy ta’lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: “Akademiya”, 2008., 338-bet

5. Muxin. T.G. Oliy ta’limda faol va interaktiv ta’lim texnologiyalari (darslarni o‘tkazish shakllari): darslik / komp.- Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.- 97 p.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi, o‘qituvchi pedagog va o‘quvchi –talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish, jamoa bo‘lib fikr yuritish, yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishida shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liq masalalari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет об эффективности использования инновационных технологий в процессе дошкольного образования, внедрении инноваций и изменений в деятельность педагогов, педагогов и учащихся, мышлении в команде, создании условий для появления новых технологий.

SUMMARY

In this article, the effectiveness of using innovative technologies in the process of preschool education, innovation, changes in the activities of the teacher, pedagogue and student-student, thinking as a team, creating conditions for the emergence of new technologies related issues are disclosed.

GENETIK MUNOSABATLAR TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB KIMYOVIY EKSPERIMENTINING AHAMIYATI VA ULARDA FOYDALANILADIGAN TAMOYILLAR TAVSIFI

Jabborova D.B.
QARMII

Tayanch so‘zlar: eksperiment, kimyoviy tushuncha, kimyoviy birikma, eksponentlik, obyekt, didaktik, evristik, korrektiv, umumlashtiruvchi, tadqiqot, moddiy model, vizual.

Ключевые слова: эксперимент, химическая концепция, химическое соединение, показательная функция, объект, дидактический, эвристический, корректирующий, обобщающий, исследование, модель материала, наглядность.

Key words: experiment, chemical concept, chemical compound, exponential, object, didactic, heuristic, corrective, generalizing, research, material model, visual.

Fandagi falsafiy tadqiqotlarda tajriba uchun bilishning eng muhim empirik usuli sifatida katta e’tibor berilgan. Quyidagi ta’riflarda uning mazmun-mohiyati o‘z ifodasini topadi: “Eksperiment har qanday hodisalarni yangi shart-sharoitlarga mos keladigan tadqiqot maqsadlarini yaratish orqali ularga faol ta’sir ko‘rsatish yoki bu shartlar orqali jarayonning to‘g‘ri yo‘nalishda borishini o‘rganish orqali o‘zgartirishdir”. “Eksperiment - ilmiy shakldagi tajribadir”. U nafaqat hodisalar va shu bilan birga ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi, balki nazariya va farazlarni isbotlovchi vositadir, bilim haqiqatini va mavhum mezonlar aniqlashtirish usuli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Eksperimentni kognitiv vositaga aylantirish uchun buyumlarning “mantig‘i”ni tushunchalar mantig‘iga, moddiy bog‘liqlikni esa mantiqiyga aylantirish imkonini beradigan amallar zarur. Bularga turli fikrlatuvchi yoki mulohazali vazifalarni qo‘yish, fikrlashning mantiqiy usullari, nazariy tushuntirish, modellashtirish kiradi.

Eksperimental-nazariy va amaliy fan bo‘lgan kimyoda eksperiment katta ahamiyatga ega bo‘lib, maktabda uning asoslarini o‘rgatishda birdek muhim

rol o‘ynaydi. Ilmiy tarafdan o‘quv kimyoviy eksperimenti ba’zi farqlarga ega, lekin ko‘p jihatdan unga o‘xshaydi.

Ta’kidlash joizki, o‘qitish jarayonida tajribalarni ko‘rsatish yoki bajarish o‘quvchilarga nafaqat hodisalarning o‘zini, balki kimyo fanining metodlari bilan ham yaqinroq tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, tajriba asosida yangi nazariya, yangi tushunchalar shakllanadi, bu uning eng muhim jihati, kimyo fanini o‘qitishda nihoyatda qimmatli hisoblanadi.

Metodistlar va o‘qituvchilarning ko‘pgina ishlari-bilish metodining o‘qitishdagi o‘rni, ahamiyati, uni takomillashtirish imkoniyatlari masalalariga bag‘ishlanganligi kuzatiladi. Bu kimyoviy tajribaning bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan bog‘liq. Bularga quyidagilar kiradi: eksponentlik, jarayonning faqat natijasini emas, balki jarayonning o‘zini kuzatish imkoniyati, qisqa davom etishi, tashkil etish va o‘tkazishning qulayligi, noaniqlik, qiyosiy, guruh va boshqa eksperiment shakllarini o‘tkazish imkoniyati, ko‘p variantlilik va boshqalar.

Eksperiment talabalarning xatolarining oldini olish va ularning bilimlarini tuzatish vositasi bo‘lib, keyingi eksperimentlarni o‘zlashtirish manbasiga aylanadi.

Dunyo haqidagi ilmiy bilimlarning obyektivligi, dunyoning inson bilishi uchun ochiqligi va tabiatni o‘zgartirish imkoniyatining inkor etilmaydigan isboti bo‘lib xizmat qiladigan eksperiment, kimyoviy obyektlar va hodisalarni bilish usuli hisoblanadi. O‘qitish usuli va vositasi sifatida eksperiment o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi hamda rivojlantiruvchi, o‘rgatuvchi (didaktik) va tarbiyaviy vazifani bajaradi. Ta’lim tamoyillarini joriy etishning zamonaviy sharoitida ta’limni modernizatsiyalash va rivojlantirish zarur. Masalan, evristik, korrektiv, umumlashtiruvchi, tadqiqot va boshqa usullar ham unga xos bo‘ladi.

Eksperimentning o‘quv kimyoviy mazmuni: a) kimyoviy birikmalar va ularning xossalari; b) kimyoviy reaksiyalarning muayyan sharoitlarda borish xususiyatlari va transformatsiyalar; v) hodisalar orasidagi munosabatlarning sabab-oqibatlari; g) tajribalar asosida yoki umumiy nazariy qoidalarga asoslangan mantiqiy xulosalar natijasida tuzilgan qonun va nazariyalarning haqqoniyligi va hokazo. Ko‘rsatib o‘tilgan eksperimentning barcha mazmuni kimyoviy tushunchalarning shakllanishi bilan bevosita aloqadordir.

Kimyoviy hodisalar va jarayonlarning muhim belgilari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan bilimlar kimyoviy tushunchalar bo‘lib, ularni idrok etish orqali shakllanadi. Tahlil qilish ularning barchasiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlarni aniqlash va shu asosda kimyoviy qonunlarni belgilash imkonini

beradi. Kimyoning eksperimental tabiati, birinchi navbatda, har bir ilmiy tushunchaning o‘z oldiga qo‘yilgan vazifadan mantiqiy ravishda kelib chiqishi va amaliyotda asoslanishi zarurligida namoyon bo‘ladi.

Ta’riflarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish, o‘ziga xos umumiy bilish jarayoni bo‘lib, u bosqichma-bosqich quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi: jonli tafakkur→mavhum fikrlash→amaliyot.

Bu yerda o‘rgatiladigan kimyoviy eksperimentining o‘rni ham empirik, ham nazariy tushunchalarni shakllantirishda, maktabda ayniqsa katta ahamiyatga ega. Nazariya bilan o‘rganilayotgan kimyoviy eksperiment chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular aniq kimyoviy tushunchalarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va uning asosida eksperimental ma’lumotlar umumlashtiriladi. Bu jarayonda nazariya va eksperiment o‘rtasidagi munosabatlarning quyidagi asosiy turlarini ajratib ko‘rsatilgan:

1. Empirik tushunchalar va ularning tizimlari, reaksiya belgilari, kimyoviy xossalari, moddalarning guruhlari va sinflarini shakllantirishning asosiy usuli bu- eksperimentdir.

2. Eksperiment va nazariya birlik vazifasini bajarib, kimyoviy reaksiya va kimyoviy ishlab chiqarish haqidagi bilimlar tizimini shakllantiradi.

3. Nazariya tushuntirish asosi bo‘lib, tarbiya manbaidir. Eksperiment – bashorat va xulosalarning to‘g‘riligini isbotlash usuli.

4. Tushunchani shakllantirishda nazariya yetakchi rol o‘ynasa, eksperiment, ayniqsa aqliy hamda yordamchi ahamiyatga egadir.

Shu bilan birga, bilishning yakuniy bosqichi amaliyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan umumlashtirilgan bilimlarni aniqlashtirish ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

Demak, kimyo kursida nazariy umumlashtirishlar asosida moddalar va ularning o‘zgarishi to‘g‘risidagi g‘oyalar gnoseologiya nuqtai nazaridan hamda ta’riflarni shakllantirish ularni aniq kuzatishsiz va tajribalarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Idrok konkret predmetlar, hodisalar, jarayonlar, dalillarni sezish va idrok etishdan boshlanib, so‘ngra umumlashtirish va abstraksiyaga o‘tadi. Shu bilan birga, kuzatilayotgan kimyoviy hodisalarning mohiyatini, tajriba jarayonida yuz beradigan jarayonlarni tushuntirish uchun talabalardan qonun va nazariyalarni chuqur bilish talab etiladi.

Kimyoviy hodisalarni tushunishning eng muhim vositasi sifatida eksperimentga o‘quv jarayonida asosiy o‘rin berilishi kerak, chunki tajribalarni kuzatish va o‘tkazishda talabalar nafaqat moddalar va sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘rganadilar, shu bilan bir qatorda, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun zarur dalillarni ham egallaydi.

Ko‘plab o‘rganuvchilar kimyo fani kursida o‘rganilayotgan dalillar va nazariya o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar. Nazariyani o‘rganish va uni tasdiqlash uchun dalillar (eksperiment) asos bo‘lishi kerak. Nazariyadan foydalangan holda dalillarni oldindan aytish mumkin. “Nazariyalarga haddan tashqari ishtiyoq yuksalishga emas, balki sxolastik tasavvurlarga olib kelishi mumkin”.

O‘quvchilarning aniq moddalarni ko‘rsatishi zarurligi va o‘quv jarayonida qo‘llash prinsipi va turli o‘quv vositalaridan foydalanish masalasini tahlil qilar ekan, o‘quvchilar olayotgan bilimlarini o‘zlashtirishida har doim kursda oladigan vizual tasvirlarga yoki o‘zlarining kognitiv tajribasi yoki maxsus ko‘rgazmali qurollarga tayanishlarini ko‘rsatdi. Bu tasvirlar kognitiv faoliyatning asl belgilaridir.

Kimyoviy eksperimentning rolini qonunlar, hodisalarni bilishning eng muhim usuli, shuningdek, organik kimyoning fundamental tushunchalarini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rsatdi.

Kimyoviy tajriba → kuzatish → mikro obyektlarning aqliy qiyofasini yaratish — moddiy model → belgili model kabi yo‘nalishda kimyoviy tushunchalar shakllanadi. Eksperiment shunday bo‘lishi kerakki, u haqiqat mezoni yoki o‘qituvchining so‘zi emas, darslik emas, fikr yuritish mantig‘i emas balki real jarayondir.

Tabiiyki, o‘quvchilarda ushbu tushunchalarni shakllantirish uchun o‘quv jarayoni tadqiqotlariga kimyoviy tushunchalarni haqqoniy kiritmasdan turib amalga oshirish imkonsizdir. Empirik tekshirishga berilgan ta’riflar, nazariyalar, qonunlar tizimi obyektiv ravishda haqiqiy nazariya yoki spekulyativ tizim ekanligini qo‘shimcha ravishda aniqlashning iloji yo‘q. O‘rgatiladigan kimyoviy eksperiment ilmiy eksperimental bilimlar tadqiqot tavsifi yo‘lida o‘z aksini topadi:

Eksperiment → nazariya → farazlar, taxminlar → yangi tajriba → sakrash → yangi nazariya → yangi taxmin → tajriba.

Konsepsiyani shakllantirish jarayonida kognitiv faoliyatni faollashtirishning eng muhim omili sifatida kimyoviy eksperimentdan foydalanishga alohida ahamiyat qaratilgan. Eksperimentdan kimyo fanidan birlamchi bilim manbai, muammoli vaziyat yaratish asosi, o‘quvchilar tomonidan ilgari surilgan taxminlarni isbotlash yoki rad etish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

O‘quvchilarning kimyoviy eksperiment natijasida hosil bo‘ladigan sezgilari va in’ikoslari ularning aqliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. Hissiyot va idrokga asoslangan tafakkur esa tajribani shakllantirish bilan bog‘liq holda obyektiv olamning predmet va hodisalari o‘rtasidagi bog‘lanish

hamda bu bog‘liqliklarni o‘rnatilishi, umumlashtirishga, mavhumlashtirishga, chuqur ilmiy tushunchalarning shakllanishiga olib kelishi kerak.

Shunday qilib, tushunchalarni o‘zlashtirish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir va bu yerda kimyoviy tajriba juda katta imkoniyatlarga ega, chunki uning asosida faktik materiallarni to‘plash muhim aqliy amallarni: taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, xulosalash kabilarni amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Грибакина Л.В. Исследование функций химической символики как фактора активизации познавательной деятельности учащихся. автореф. дисс. ... канд. пед. наук. -Л., 1987. – 24 с

2. Давыдов В.В., Варданян А.У. Учебная деятельность и моделирование. - Ереван: Луйс, 1981.– 256 с.

3. Ёриев О.М., Ихтиярова Г.А. Умумий ва анорганик кимё. Электрон дарслик. // № DGU 01493. - 2008. – 158 с.

4. Кузнецова Н.Е. Теоретические основы формирования системы понятий в обучении химии: автореф. дисс. ... д- ра пед. Наук.-Л.,1986.-45с

5. Ixtiyarova G.A., Jo‘raqulova N.X., Ayupova M.B., Aripdjanova M.A.“Noorganik kimyo”dan elektron darslik. № DGU 06464. 19.04.2019.

6. Jabborov F.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarda kimyo fani mazmunida umumlashtiriladigan ko‘nikmalar. Xalq ta’limi” O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali № 4. 2021.

РЕЗЮМЕ

Tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonlarini shakllantirishda, psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilishda “genetik munosabatlar” tushunchasining o‘ziga xos belgilari aniqlanib, talabalar tomonidan uni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar shakllantirilishi ko‘rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ

При формировании процессов усвоения понятий, при анализе психолого-педагогических особенностей были определены специфические особенности понятия «генетические отношения» и показаны условия, необходимые для его успешного усвоения учащимися.

SUMMARY

In the formation of processes of mastering concepts, in the analysis of psychological-pedagogical features, the specific features of the concept of «genetic relations» have been determined, and the necessary conditions for its successful mastering by students have been shown.

OLIY TA'LIM MUASSASASIDAGI BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARI SHAXSINING O'QITUVCHILIK KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONI

Choriyeva Z.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Usanova M.
Shahrisabz davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

Tayanch so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, gnostik faoliyat, o'quv faoliyati, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, o'qitish, ta'lim, tarbiya

Key words: competence, professional competence, gnostic activity, educational activity, pedagogical activity, pedagogical process, teaching, education, upbringing

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, познавательная деятельность, учебная деятельность, педагогическая деятельность, педагогический процесс, обучение, образование, воспитание.

«Kasbiy kompetentlik» - xorijiy ta'lim tizimida keng tanilgan tushunchadir. So'nggi yillarda O'zbekistonning Yevropa hamjamiyatiga integratsiyalanishga intilishi sababli nafaqat kasbiy ta'lim rivojlanishi strategiyalari, balki innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish uchun ta'riflar asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim tizimida kompetentli yondashuv Boloniya va Kopengagen jarayonlari doirasida yagona yevropa ta'lim muhitini tashkil etish prinsiplariga yo'naltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining egallagan kasbiy tayyorgarliklari (bilimlar, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalar) natijasiga asoslaniladi. Ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz.

Ta'lim sifatini oshirish boshlang'ich ta'lim talabalarining pedagogik va kasbiy faoliyatlarining muvofiqlashtirilgan o'zaro aloqadorligi tizimini ko'zda tutadi, shakllangan o'quv ishining yakuniy natijasi esa pedagog shaxsi va uning

kompetentligi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot jarayoni tushunchaviy apparatni dastlabki aniqlashni talab etadi. Biz tomonimizdan quyidagi ta'riflar tanlandi:

Kompetentlik – mutaxassisning integral sifati bo'lib, shaxsning u yoki bu ijtimoiy rolni (professional, jamoat a'zosi, fuqaro va h.k.) ratsional amalga oshirishga tayyorligini tavsiflaydi.

Kasbiy kompetentlik – xodim (mutaxassis)ning integral sifati bo'lib, nafaqat maxsus faoliyatning u yoki bu sohasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini, shuningdek jamiyatda samarali ishlash malakasini ifodalovchi shaxs sifatlarining majmuidir. Kompetensiya – mutaxassisning ichki va tashqi zaxiralaridan foydalanish asosida ma'lum kasbiy vazifalarni amalga oshirishga tayyorligida ifodalanuvchi ta'lim natijasidir. Maxsus kompetensiya – ma'lum mutaxassisning kasbiy faoliyatining funksional o'ziga xosligini ifodalovchi kasbiy kompetensiya.[6]

Adolf, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.V.Krayevskiy, N.V.Kuzmina, P.I.Pidkasistiy, V.A.Slastenin va boshqa rossiyalik olimlarning tadqiqotlari pedagogik kasbni egallashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish darajasi tayyorgarlikning asosiy turlarini o'zlashtirish sifatiga bog'liqligini isbotlaydi. Boshlang'ich ta'lim talabasining boshqa pedagoglardan farqli jihatlari u kelajakda o'quv fanlarining katta miqdorini o'qitishi va sinf rahbari hisoblanishidir.[2]

O'tkazilgan maktab direktorlarining (ish beruvchilar) va boshlang'ich ta'lim talabalarining anketa so'rovlari talabaning birinchi sinf o'quvchilarini yozuvga o'rgatish misolida ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi boshlang'ich ta'lim va oliy ta'lim malaka talablarining nomuvofiqligi, shuningdek boshlang'ich sinflarda o'qitish amalga oshiriladigan o'quv-metodik majmualarining xilma-xilligi bilan bog'liq katta ilmiy va amaliy qiziqishni ifodalashini ko'rsatdi.

O'qitishning variativligi sharoitlarida talabalar har bir O'MMning xususiyatlarini bilishlari va ular bo'yicha ishlashni bilishlari kerak.

Afsuski oliy ta'lim muassasasi darsliklarida, zamonaviy o'quv-metodik majmualarida innovatsion metodikalarni kiritish lozim. Shuning uchun yosh pedagog OTMni bitirganidan so'ng qo'shimcha qayta tayyorlovdan o'tishiga to'g'ri keladi. Yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish uchun boshlang'ich ta'lim talabasining kasbiy kompetentlik strukturasini ishlab chiqish, jarayonning ratsional texnologiyasini tanlash, boshlang'ich ta'lim talabalarida alohida kompetentliklar shakl va rivojlanganligi darajasining zaruriy nazorati muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim talabalarining bilim, ko'nikma va malakasini oshirish bo'yicha tadqiqotlar tahlili quyidagilar o'rtasida qator ishlarni amalga oshirish imkonini berdi: boshlang'ich ta'lim talabalarining kompetentliklari

darajasiga zamonaviy talablar va fanda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning konseptual-texnologik asoslarining yetarli ishlab chiqish; yaxshi amaliy tayyorgarlikka ega boshlang‘ich ta’lim talabalariga talab va so‘nggi yillarda o‘quv-tarbiyaviy jarayonining talabaning nazariy tayyorgarligiga yo‘naltirish; kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim talabasini takomillashtirish zarurati va maqsadga muvofiq o‘quv-metodik ta’minotni ishlab chiqish; kasbiy kompetensiyalar shakllanganligi va rivojlanganligi darajasini o‘lchash orqali ta’lim sifatini baholash monitoringini o‘tkazish.

Boshlang‘ich ta’lim talabalarning bilim va malakasini oshirishda, kasbiy o‘z-o‘zlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishni talab etadi.

Ehtimol ko‘pgina faoliyat turlarining kompleks birligidagi ulardan birortasining sharoitga muvofiq ustunligi to‘g‘risida ta’kidlash zarurdir. Masalan, pedagog faoliyatidagi mavjud tashkilotchilik qobiliyatlari albatta o‘quvchilar bilan muloqotga e’tibor qaratishni, gnostik qobiliyatlar (bilishga oid rivojlanish) o‘rganish va o‘yinning ustuvorligini nazarda tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim talabasi ta’limining o‘ziga xosligi ko‘pincha “o‘quv faoliyati” tushunchasi bilan tenglashtiriladigan “o‘qitish” atamasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi.

O‘qitishning asosiy maqsadi – “ma’lum bilim, ko‘nikma, malaka, xulq shakllari va faoliyat ko‘rinishlarini o‘zlashtirish” hisoblanib, u “faol gnostik faoliyatda ifodalanadi va unga asoslanadi”. Biz ular barcha yosh davrlarini qamrab olinishi bilan tushunilishi yanada samarali deb hisoblaymiz.

«O‘quv faoliyati – bu o‘z mazmuniga ko‘ra ilmiy tushunchalar sohasidagi hatti-harakatlar umumlashgan usullarini egallashni ifodalaydigan faoliyatdir».[3]

I.A.Zimnyaya o‘quv faoliyatiga tavsif berib, bu “subyektning o‘quv hatti-harakatlar umumlashgan usullarini egallash va o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholashga aylanuvchi tashqi nazorat hamda baholash asosida o‘qituvchi tomonidan maxsus qo‘yilgan o‘quv vazifalarini yechish jarayonida o‘zini rivojlantirish bo‘yicha faoliyati” deb ta’kidlaydi. [4]

Bunday tushunishda o‘quv faoliyati birinchi o‘ringa o‘qituvchi shaxsini chiqarishni nazarda tutadi. O‘zining gnostik yo‘nalganligini yo‘qotmay, u bir vaqtda mazmuni ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun optimal sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lgan pedagogik faoliyatga aylanadi. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi u ta’lim oluvchining hamda ta’lim beruvchini rivojlantirish va takomillashtirishni anglatadi. O‘quv-tarbiya jarayonida talaba nafaqat bilimlarni yetkazuvchi sifatida xizmat qiladi, balki o‘quvchi uchun katta avlodning tajribasi va madaniyati mujassamlashgan timsoli sifatidagi ustoz va tarbiyachi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning asosiy tashkil etuvchisi pedagogik hatti-harakat hisoblanadi. V.A.Slastenin pedagogik faoliyatning tashkil etuvchisi tarbiyaviy ish va o‘qitish hisoblanadi deb ta’kidlaydi. Birinchisi o‘quvchilarning ustuvor ravishda bilishga oid faoliyatlarini boshqarishga qaratilgan, tarbiyaviy muhitni tashkil etishga va tarbiyalanuvchilarning turli-tuman faoliyatlari ko‘rinishlarini boshqarishga yo‘naltirilgan.

V.A.Slastenin o‘qitishga pedagogik jarayonni tashkil etish usuli sifatida murojaat etib, “o‘qitish pedagog tomonidan boshqariladigan o‘ziga xos bilish jarayoni” deb ta’kidlaydi. Bundan o‘qitish – bu ko‘pgina hollarda tarbiyaviy ta’sirdan kam bo‘lmagan malakalarni talab etuvchi kasbiy pedagogik faoliyat ekanligi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mumkin. Bizning fikrimizcha, talabaning professionalligi o‘qitish va tarbiyaviy malakalarning birligidir. Natijada muallif o‘qitishning muhim funksiyalarini sanab o‘tib (ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi) hamda talaba faoliyatining mazmuni “o‘quvchilarning faol va ongli bilishga oid faoliyatlarini boshqarishdan iborat”ligini ta’kidlaydi.[7]

Talabalarni bilim olish sifatini oshirish, takomillashtirish, metodika fanlarini o‘qitishni ko‘zda tutuvchi yuqori darajadagi dasturlarni amalga oshirish amaliyotini kengaytirish, shuningdek ularning qo‘shimcha ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishlariga e’tibor berilishi kerak. Oliy ta’lim tizimida asosiy va yuqori darajadagi ko‘p darajali pedagogik ta’lim tizimi yaratilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim talabalarini tayyorlashning malaka talablari, dasturlar, o‘quv rejalar va metodikasini ishlab chiqish quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1) ilmiy va kasbiy metodik tayyorgarlikni kuchaytirish;
2) ta’lim tizimini insonparvarlashtirish;
3) ta’lim mazmunini tanlashga kompetentli yondashuv;
4) ta’lim bosqichlarining uzluksizligi;
5) shaxsning mustaqil ta’lim olish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
6) ta’lim dasturlarining xilma-xilligi va tizimining kafolatli moslashuvchanligi.

Talabalar o‘zining kasbiy vazifalarini, bilim va ko‘nikmalarni ifodalashga, boshlang‘ich ta’limning odatiy vazifalarini hal etishga tayyor bo‘lgan usta darajasida amalga oshirishi kerak: bu – metodik faoliyat usullarini egallagan, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini o‘qitishning asosiy, amaliyotda qo‘llaniladigan dasturlari bo‘yicha ongli ijrochilik faoliyatiga tayyor bo‘lgan talabadir.

Jamiyatdagi integratsion jarayonlar ta’lim tizimi oldiga talabalarni bilim, ko‘nikma va malakasini oshirishni zamonaviy maktab talablariga mos ravishda takomillashtirish muammosini ilgari suradi. Shu sababli, o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun u kasbiy kompetentlikning bazaviy darajasiga

ega bo‘lishi kerak. Kasbiy kompetentlik – birgalikda yoki alohida holda mutaxassisning ma’lum kasb, mutaxassislik, ixtisoslik, malaka talablarining, egallagan yoki bajaradigan xizmat faoliyatining malaka zaruriyatiga, ehtiyojiga va talablariga, jismoniy va ma’naviy mosligini ta’minlaydigan pedagogning sifati, xususiyati yoki holatidir.

Tadqiqot ishimiz tahlili, boshlang‘ich ta’lim talabalari quyidagi sifatlarga ega bo‘lishlari kerak: qat’iy ishonch; ilmiy dunyoqarash; ijtimoiy faollik; kasbiy-metodik yo‘nalganlik; xilma-xil psixologik bilim va malakalar; o‘z mutaxassisligi bo‘yicha keng bilimlar; metodik bilimlar va malakalar shakllangan va rivojlanganligining yetarli darajasi; axloqiy sifatlar; mustaqil ta’lim ko‘nikma va malakalari hamda malaka oshirish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. Адолф В.А. Теоретические основи формирования профессионалной компетентности учителя: дисс. … д-ра пед. наук. М., 1998. – 356 с.

3. Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессионалное образование. - Екатеринбург, 1998. - 186 с.

4. Зимняя И.А. Ключевие компетенсии - новая парадигма резултата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня - 2003. № 5. С. 34-42.

5. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped. fan. dok. ...diss. –T.: 2007, – 315 b.

6. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. - М., 1997.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich ta’lim talabalari shaxsining o‘qituvchilik kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini boshqarish omilari keltirilgan. Shuningdek oliy ta’lim muassasining bitiruvchilari egallashi lozim bo‘lgan kasbiy kompetentligi, uni egallashdagi integratsion jarayonlar hamda shakllanishi kerak bo‘lgan kasbiy sifatlar xususida tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование и развитие педагогических профессиональных качеств учащихся начальных классов в высшей школе. Также даны рекомендации по профессиональным компетенциям, которыми должны овладеть выпускники вуза, интеграционным процессам их приобретения, формируемым профессиональным качествам.

SUMMARY

This article discusses the factors governing the formation and development of the teaching-professional qualities of elementary school students in higher education. Recommendations are also made on the professional competencies to be acquired by the graduates of the higher education institution, the integration processes in its acquisition, and the professional qualities to be formed.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Aslonova O.P.
Qarshi davlat universiteti dotsenti
Xushvaqtova M. Sh.
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: integratsiya, bog‘liklik, aloqadorlik, ilmiylik, dunyoqarash.
Ключевые слова: интеграция, соединение, связь, научность, мировоззрение.
Key words: integration, connection, connection, scientific character, worldview.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilar ongida bilimlar tizimini shakllantirish, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish hamda har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazishda fanlararo aloqaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Мазкур муаммо интегратив ёндашув асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Бизга маълумки, fanlar o‘rtasidagi fanlararo bog‘lanishni “integratsiya” atamasi bilan yuritish odat tusiga aylangan. Integratsiya - lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “to‘liq, yaxlit, bir butun” degan ma’nolarni bildiradi.

Fanlar integratsiyasi murakkab va ko‘pqirrali jarayondir. Bu tushunchaga falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, u fan va ilmiy bilimlarning bir-biri bilan bog‘langan holda rivojlanish muammolaridan vujudga kelganligi anglatiladi. Bugungi innovatsiya asriga kelib, fanlar integratsiyasi jadal sur’atda amalga oshmoqda. Shu asosda o‘quv fanlari integratsiyasi ham zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida o‘z aksini topgan. O‘qitish nazariyasi va amaliyotida o‘quv fanlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik dunyoning umumiy manzarasini tasavvur etishda, o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Fanlar taraqqiyotidagi ikki obyektiv tendensiya-differensiatsiya (tarmoqlanish) va integratsiya (qo‘shilish), pirovard natijada, olamning yaxlit, umumiy ilmiy manzarasi yaralishida beqiyos o‘rin tutadi[1].

Fanlar integratsiyasi evaziga sivilizatsiyaning eng noyob yutuqlari qo‘lga kiritilmoqda. Insonning tashqi dunyoni va o‘zligini anglashi, odam va jamiyat munosabatlarining yangi qonuniyatlarini bilib olishi sodir bo‘lmoqda. Fan inson va jamiyat faoliyati mahsuli bo‘lib, narsa va hodisalarning xossalari, munosabatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan tizimlar yig‘indisidir. Shu bilan bir qatorda, fan ijtimoiy ong shakllarining biridir. U bilimlarni egallash bilan bog‘liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli bo‘lgan olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning vazifasi voqelik haqidagi obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy jihatdan sistemaga solishdan iborat bo‘lib, inson faolligini oshirishga xizmat qiladi, insonlar faoliyati bilan obyektlarning o‘zaro aloqasini ifodalaydi va moslashtiradi, narsa va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini ochishga ko‘maklashadi, axborotlar to‘playdi va axborotlar bilan insonlarni ta’minlaydi, ilmiy dunyoqarashni kengaytiradi. Fanning maqsadi inson tafakkurining faoliyati orqali oldindan taxmin qilingan jarayonning harakatlantiruvchi kuchini aniqlashdan iborat. Fan jamiyat singari soddalikdan asta-sekin murakkablashish evolyutsiyasi asosida rivojlanadi.

Shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini tarkib toptirishda fanlar integratsiyasini amalga oshirishini taqozo qiladi.

Axborotlar globallashuvi, fan va texnika rivojlangan, chet elning chiqindisiz texnologiyalari amaliyotga joriy etilayotgan bir paytda, jamiyat har tomonlama chuqur meyorlangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega, zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirgan, muammolarni bartaraf etishga qodir shaxslarga ehtiyoj sezadi.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotining har bosqichi ta’lim tizimi oldiga o‘zining ijtimoiy buyurtmalarini qo‘yadi. Mustaqillik yillarida ishlab chiqarish korxonalarida mexanizmlarning murakkablashuvi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik va chorvachilikka innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi o‘sib kelayotgan yosh avlodning fan asoslarini chuqur o‘zlashtirishi bilan bir qatorda ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, faol aqliy faoliyat ko‘rsatishini talab etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish ta’lim muassasalariga yuklatilgan bo‘lib, mazkur ta’lim muassasalarida shaxsni har tomonlama barkamol

etib voyaga yetkazish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ayonki, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish va rivojlantirishda o'quv rejadan o'rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy- matematik, umumkasbiy fanlar o'rtasida fanlar integratsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Bugungi innovatsion ta'lim muhiti sharoitida ham ushbu muammoning ilmiy-amaliy ahamiyati ilmiy dunyoqarashning rivojlanishida muhim o'rin egallashi o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida o'z aksini topdi. Shu nuqtai nazardan ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda falsafa fani bilan asinxron fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish yuzasidan metodik tavsiyalar tayyorlandi.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda shaxsning tafakkuri muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois adabiyotlar tahlili, tafakkurning sofistik, eklektik, metafizik-dogmatik usullari dialektik tafakkur usullari mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur tafakkur usullari inson tafakkuri faoliyatining turli qirralari sifatida bir-birlariga qarama-qarshi, ayni vaqtda, bir- birlarini to'ldiradilar. Adabiyotlar tahlili o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda muammoli o'quv vaziyatlarini hal etishda tafakkur operatsiyalaridan foydalanish muhim o'rin tutishini ko'rsatdi.

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi.Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.Tafakkur xotirada yig'ilgan axborotni qayta ishlashi, umumlashtirishi natijasida voqealarning rivojlanishi, takomillashishi to'g'risida taxmin qilish, oldindan aytib berish shart-sharoitlari tug'iladi[2].

Boshlang'ich sinflarda foydalanilgan keys-stadi, aqliy hujum, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari, fanga doir xususiy kompetensiyalarni baholash maqsadida shakllantirilgan nostandart test topshiriqlari axborotni qayta ishlash, tahlil, sintez, qiyoslash, abstraksiyalar orqali umumlashtirish, xulosalash, o'quv muammosining yechimini topish natijasida yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi.

Tafakkurning muhim belgilari: voqelikni umumlashgan holda, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni bevosita aks ettirish, so'z (nutq) orqali narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish kabilar o'quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish yuzasidan olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarida foydalanilgan standart va nostandart o'quv hamda test topshiriqlarini tuzishda inobatga olindi.

O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda falsafa(dialektika) ning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, inkorni-inkor qilish qonunlari hamda yakkalik, xususiylik va umumiylik kategoriya, ya’ni tushunchalari asosiy o‘rinni egallaydi.

Ma’lumki, yakkalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har biriga xos alohida, ma’lum guruhiga xos maxsus va hammasiga xos umumiy xususiyatlar hamda ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorlikni ifodalaydi.

O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda falsafadan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari asosida mavjud tirik organizmlarni yaxlit tizim sifatida o‘rganiladi hamda ular yuzasidan umumlashma xulosalar chiqarishi muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo boglanishni amalga oshirish muammosi juda ko‘p tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, M.N.Skatkin o‘z tadqiqotlarida vaqtinchalik fanlararo bog‘lanishni uch turga bo‘ladi.

1. Avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan o‘rganilayotgan bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanish.

2. O‘rganilayotgan bilimlar bilan kelgusida o‘zlashtiriladigan bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanish.

3. Bir vaqtda o‘zlashtiriladigan bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanish [4].

K.P.Koroleva vaqtinchalik fanlararo bog‘lanishning quyidagicha to‘rtta turini ajratadi.

1. Faktik materiallar bilan tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanish.
2. Tadqiqot metodlari bilan ilmiy tafakkur o‘rtasidagi bog‘lanish.
3. Umumiy ko‘nikma va malakalar o‘rtasidagi bog‘lanish.
4. Bilish faoliyati usullarini o‘rgatish o‘rtasidagi bog‘lanish [4].

Fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitish jarayonida ekologik tafakkurni shakllantirish va ekologik ta’lim- tarbiyani amalga oshirishning quyidagi turlaridan foydalanilishi mumkin:

- obyektga doir integratsiya - bir obyektning turli fanlardagi timsollari bir mavzu, bo‘lim yoki kurslarga kiritiladi.
- tushunchaga oid integratsiyada umumiy tushunchalar mazmunni ochib beradigan mavzu yoki kurslar qamrab olinadi.
- nazariyaga oid integratsiyada - fizika, kimyo, biologiyadagi nazariyalar umumiy holatda o‘rganiladi.
- metodologik integratsiyada - ilmiy bilishning alohida metodlariga oid integratsiyani amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

- muammoli integratsiyada fanlararo muammolar qamrab olinadi va hal etish yo‘llari ishlab chiqiladi.
- faoliyatga oid integratsiyada muammoni hal etish yuzasidan munozara o‘tkazish, kichik guruhlarda ishlash, fanlararo tadbirlar rejasini tuzish, loyihalar tayyorlash kabilar ko‘zda tutiladi.
- amaliy integratsiyada ahamiyatga molik bo‘lgan jarayonlar asosida texnik mahsulotlarni yaratish nazarda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili o‘qitishda fanlararo bog‘lanishning umumiy didaktik asoslarini ishlab chiqish, ularni tasniflash borasida juda ko‘p tadqiqotlar olib borilganligini, fanlararo bog‘lanish, яъни integrativ yondashuv o‘quvchi ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish omili sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. Shadiyev R.D., Aslonova O.P. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovasiya va integratsiyasi. Darslik. Qarshi, 2021.- 146 b.

2. Xasanov A.A. O‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning pedagogik-psixologik asoslari // Zamonaviy ta’lim ilmiy amaliy ommabop jurnali. Toshkent, 2017 y. 10-son . B. 9-14.

3. Хуторской А.В. Эвристический тип образования: результаты научнопрактического исследования // Педагогика. - 1999. - №7. - С 15-22.

4. Шарова О.О. Оценка уровня развития инновационной среды вуза / О.О. Шарова // Инновации и инвестиции. - 2011. - № 2. - 0,4 п.л.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada o‘quvchi dunyoqarashini rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikni o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается роль и значение междисциплинарной коммуникации в развитии мировоззрения студента.

SUMMARY

This article emphasizes the role and importance of interdisciplinary communication in the development of a student’s worldview.

TA’LIM MUASSASASI FAOLIYATINI BOSHQARISH, DAVLAT-JAMOATCHILIK TAMOYILIGA KO‘RA BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Zaripova M.Q.
Qashqadaryo viloyati PYaMO’MM katta o’qituvchisi

Tayanch so`zlar: davlat boshqaruvi, menejment, professional ta’lim, maqsadga muvofiqlik, pedagogik faoliyatini boshqarish.

Ключевые слова: государственное управление, менеджмент, профессиональное образование, целесообразность, управление педагогической деятельностью.

Key words: public administration, management, professional education, expediency, management of teaching active.

Ta’lim muassasasini boshqarish amaliyoti. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tamonidan 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-sonli qarori bilan qabul qilingan “Ta’lim to‘g’risidagi” qonunida ham ta’lim tizimini boshqarish tartiblari ko‘rsatilgan.

26-modda. Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

– ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;
– ta’lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
– ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;
– davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti) va davlat ta’lim talablarida kadrlarning ma’lumoti

darajasiga va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo‘yilgan talablarning ta’lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta’lim talablari ishlab chiqilishini ta’minlaydi va ularni tasdiqlaydi;
- ta’lim oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash tartibini belgilaydi;
- professional ta’limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek bilim sohalari va ta’lim sohalari ro‘yxatini belgilaydi;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta’minlaydi;
- ta’lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqadi, o‘quv dasturlarini takomillashtiradi;
- o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi;
- o‘zlashtirishni baholashga, o‘quv jarayonini, ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi, shuningdek eksternat tartibida ta’lim oluvchilarning toifalarini belgilaydi;
- davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;
- ta’lim tashkilotlarida moddiy-texnika resurslaridan foydalanishga doir talablarni ishlab chiqadi;
- ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;
- ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

“Boshqaruv” tushunchasining mohiyati. Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish tushunchasining tavsifi. Ta’lim muassasasini boshqarish. Boshqarish ma’lum bir ob’yektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir.Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag’batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.Ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining

menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Menejment mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Olimlar ta’lim menejmetining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

– ta’lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so‘zi bilan aniqlanadigan ma’naviy o‘lchovga ega;
– ta’lim menejmenti – bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi);
– menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi;
– ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, endilikda ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi – ta’lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota-onalarga ta’lim dasturlarini, turlarini, ta’lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Конаржевский Юрий Анатольевич XVI Международная конференция. Дата обращения: 14 августа 2020.
2. A.T.To‘xtaboyev Umumiy pedagogika. Toshkent. 28 окт. 2023.
3. Anri Fayol Sanoat va umumiy ma’muriyat. Fransiya. 1916 yil.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshqaruv tushuncha, ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish, davlat-jamoatchilik tamoyiliga ko‘ra boshqarishning psixologik-pedagogik asoslari haqida fikr yuritilgan

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются понятие менеджмента, управление образовательными учреждениями, психолого-педагогические основы управления по государственно-общественному принципу

SUMMARY

The article discusses the concept of management, management of educational institutions, psychological and pedagogical foundations of management according to the state-social principle

TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Yuldosheva Yu.J.
Qashqadaryo viloyati PYaMO’MMI katta o’qituvchisi

Tayanch so`zlar: davlat boshqaruvi, menejment, professional ta’lim, maqsadga muvofiqlik, pedagogik faoliyatini boshqarish.

Ключевые слова: государственное управление, менеджмент, профессиональное образование, целесообразность, управление педагогической деятельностью.

Key words: public administration, management, professional education, expediency, management of teaching active.

Ta’lim muassasasini boshqarish amaliyoti. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tamonidan 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-sonli qarori bilan qabul qilingan “Ta’lim to‘g’risidagi” qonunida ham ta’lim tizimini boshqarish tartiblari ko‘rsatilgan. Pedagogik Kengash – ta’lim muasasasasining boshqaruv organi. Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog’liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o‘stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko‘rsatadi. Pedagogik Kengash ta’lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– ta’lim muassasasining tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o‘tkazadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;
– ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydi;
– ta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;
– ta’lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqadi;
– pedagogik jamoaning ma’lum yo‘nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

– ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o‘z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

– ta’lim muassasasini rivojlantirish yo‘nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;
– ta’lim muassasasi jamoasi oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;
– o‘quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;
– o‘quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;
– ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga oid barcha masalalarni o‘z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;
– pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z takliflarini berish;
– o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo‘yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o‘tkazish shakli va vaqtini belgilash;
– ta’lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko‘chirish va bituvchilarni yakuniy attestasiyaga qo‘yish bo‘yicha qaror qabul qilish;
– ta’lim darayonini tashkil qilish hamda ta’lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo‘yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;
– ta’lim maqsadiga muvofiq holda o‘quvchilarni rag’batlantirish va jazolash bo‘yicha masalalarni hal etish;
– chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;
– pedagogik Kengash a’zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;
– ta’lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko‘rsatgan ta’lim muassasasi xodimlarini rag’batlantirishga tavsiya qilish;
– yakuniy attestasiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘quvchilarga o‘rnatilgan tartibda hujjatlar berish to‘g’risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig’ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta’lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o‘z akini topadi: ish rejasi, kengash bayonnomasi yoziladigan muhrlangan daftar, kengash materiallari, hisobot.

Ta’lim muassasasi hujjatlari besh yil davomida ta’lim muassasasida saqlanadi.

Ta’lim muassasasi Metodik Kengashi va uning vazifalari. Ta’lim jarayonining sifati har jihatdan o‘qituvchilarning g’oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog’liqdir. Ana shu maqsadda ta’lim muassasasida metodik Kengash va fan metodik birlashmalari ish olib boradi. Metodik Kengash ta’lim muassasasida ta’lim jarayonining sifatini ta’minlash, o‘qituvchilarning g’oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir.

Metodik Kengashning faoliyat doirasi keng bo‘lib, u tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

– ta’lim jarayonining metodik ta’minot holatini o‘rganadi, ta’lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;
– ta’lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;
– yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;
– ta’limga doir me’yoriy va metodik hujjatlarni o‘rganadi, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;
– ta’lim muassasasi o‘quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;
– o‘qituvchilarning g’oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;
– o‘qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo‘limlari mazmuni bo‘yicha tavsiyalar beradi;
– ta’lim muassasasi ta’lim jarayonida qo‘llashi uchun ilg’or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;
– o‘qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;
– davlat ta’lim standartlari talablari, o‘quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;
– tashqi va ichki nazorat natijalariga Davlat ta’lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;
– o‘quv jarayoniga o‘qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlarini tashkil qilish;
– ta’lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongni shakllantirishga doir ko‘rsatmalar berib borish;
– o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko‘rsatmalar berish;
– yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;
– o‘qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma’naviy va moddiy rag’batlantirishga tavsiya qilish;
– pedagogik xodimlarning attestasiyadan o‘tkazish bo‘yicha materiallarni tayyorlash;

– ta’lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo‘yicha darsdan tashqari (fakultativ, to‘garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodika Kengashi yig’ilishlari qarorlashtirilib, Kengashning quyidagi hujjatlari ta’lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi: ish rejasi, Kengash yig’ilishi bayonnomasi, Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar, Ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar, yillik hisobot.

Fan-texnika taraqqiy etib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni axborotlarga tobora boyib borayotgan, fan olamidagi yangiliklar, psixologiya-pedagogika fani rivoj topayotgan bir davrda o‘qituvchilarning o‘z ustida mustaqil ravishda ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari, mustaqil izlanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish va ijodkor bo‘lishlarini talab qiladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o‘qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning kasbiy bilimlarini takomillashtirish, natijada esa o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifatini keskin oshirishdan iboratdir. Ta’lim-tarbiya ishlarining murakkablashib borishi o‘qituvchi oldida turgan vazifalarni kengaytirmoqda. Shunga ko‘ra, pedagoglarning malakasini oshirish tizimida ularni ijodiy izlanishga odatlantirish, ijodkorlikdagi faolligini rag’batlantirish maqsadiga muvofiq ish olib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning bir qancha shakllari ishlab chiqilgan. Bu shakllardan nafaqat maktab pedagoglarining malakasini oshirishdagina emas, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining rahbarlari ham xabardor bo‘lishlari va ulardan muvaffaqiyatli foydalana olishlari lozim. Pedagoglarning malakasini oshirish shakllari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi: ta’lim muassasasi doirasida malaka oshirish va ta’lim muassasasidan tashqarida malaka oshirish.

Adabiyotlar:

1. Конаржевский Юрий Анатольевич XVI Международная конференция.
Дата обращения: 14 августа 2020.
2. A.T.To‘xtaboyev Umumiy pedagogika Toshkent 28 окт. 2023
3. Anri Fayol Sanoat va umumiy ma’muriyat Fransiya 1916 yil

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshqaruv tushuncha, ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish, davlat-jamoatchilik tamoyiliga ko‘ra boshqarishning psixologik-pedagogik asoslari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются понятие менеджмента, управление образовательными учреждениями, психолого-педагогические основы управления по государственно-общественному принципу.

SUMMARY

The article discusses the concept of management, management of educational institutions, psychological and pedagogical foundations of management according to the state-social principle.

PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMGA INTEGRATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI

Choriyeva Z.T.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
Boynazarova M.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: ta'lim jarayoni, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, integratsiya, integrativ yondashuv.

Ключевые слова: образовательный процесс, компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, интеграция, интегративный подход.

Key words: educational process, competence, competence, professional competence, integration, integrative approach.

Hozirgi tez rivojlanib borayotgan zamonda yurtimizda turli sohalarda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Ta'lim sohasi ham mustasno emas, albatta. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish maqsadida bilimli, yetuk mutaxasis kadrlarni tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, mehnat bozoridagi raqobatdosh munosabatlarga dosh bera olish bozor munosabatlarida pedagoglardan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish va kasbiy sifatlarni rivojlantirib borish, ta'lim jarayonida kreativ va integratsion yondashuvni amalda qo'llay olish kabi xususiyatlarni talab qiladi. Kompetentlik va integratsiya kabi tushunchalar yurtimizga kirib kelganiga uzoq yillar bo'lmagan bo'lsa-da, ta'lim jarayoniga tez sur'atlarda singib ketishga ulgurdi. Xususan, kompetentlik kutilmagan holatlar, noan'anaviy vaziyatlarda mutaxasislarning o'zini qanday tutishi, ular bilan muloqot olib borishi va munosabatga kirishishi bo'lsa, integratsiya shaxsning integrativ xuxsusiyatlarini, ya'ni egallagan bilimi, ko'nikma, malaka, amaliy tajriba, qobiliyat kabi shaxsiy sifatlarini ifodalaydi. Integrativ yondashuv esa shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlashga va uni kuchaytirishga zamin yaratadi.

Yurtimizda tub islohotlar olib borilishi mobaynida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanish yo‘li tanlab olindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli qarorida belgilangan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.[1]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim sohasidagi islohotlar davlat prinsiplari asosida olib borilishi, bo‘lajak pedagoglarni shakllantirish vazifalari ko‘zda tutilgan bo‘lib, oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatdosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va shu kabi bir qancha vazifalar ilgari surilgan.

Asosiy qism. Bugungi kun zamon talabi bilan pedagoglar nazariyani chuqur bilish va uni qiziqarli qilib yetkaza olish, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish, har bir shaxsni hurmat qilish, nutq ravonligi va o‘z ustida ishlash kabi kasbiy sifatlarni o‘zida mujassamlashtirish bilan birga kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integratsiyaga bo‘lgan yondashuv, integrativ dars yaratish jarayoni haqida tushunchalarga ega bo‘lishi va uni amalda qo‘llay olishi muhum ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va uni rivojlantirishdagi muammolarni tahlil qilish kompetentlik tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishga ehtiyoj tug‘iladi. Kompetentlik atamasi (lotincha “competens” – qobiliyatli) kompetensiyalarga ega, ma’lum sohaga oid bilimdon shaxs degan ma’noni anglatadi. Shu bilan birga “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari bir –biri bilan chambarchas bog‘liqligi sababli biroz chalkashliklar yuzaga keladi. Bu borada olib borilgan izlanishlarga qaraydigan bo‘lsak bir qancha olimlar bu ikki tushunchani bir-biridan farqlab berishgan.

D. I. Ushakov: “Kompetentlik - xabardorlik, avtoritetlik; kompetentsiya - shaxsning bilimi, tajribasi» deb ta’kidlaydi[2].

O. M. Mutovkinaning fikriga ko‘ra: “«kompetensiya» “kompetentlik”dan olingan ikkilamchi tushunchadir va insonning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini qo‘llash doirasini bildiradi, «kompetentlik» esa ularning ichki umumiyligini aks ettiradi” deya aytib o‘tilgan.

I. A. Zimnyaya kompetensiya haqida shunday fikrlaydi: «ichki salohiyat, yashirin psixologik hosilalar: bilim, g‘oyalar, harakatlar, munosabatlar yig‘indisi»

A.V.Xutorskiy kompetensiya to‘g‘risida “ta’limga tayyorgarlik, mahorat, shaxsiy sifatlar yig‘indisi” deb aytadi [4].

S.Ya. Batishev va B.S. Gershunskiy kasbiy kompetentlik haqida fikr bildirib o‘tgan bo‘lib, uni “savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat - mentalitet” umumiy bo‘g‘inidagi ta’lim natijasi sifatida qaraydi.

N. A. Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlagan [5].

Bundan ko‘rinadiki, kasbiy kompetentlik pedagogdan nazariy bilimlarni egallash, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lish bilan birga integrativ bilimlarni o‘zlashtirish, ushbu bilimlarni doimiy ravishda boyitib borishni, yangi axborotlar izlab topishni va faoliyat davomida uni qo‘llay bilishni ham talab qilar ekan.

Integrativ bilimlar va harakatlar asosida integrativ dars tashkillashtirish, integrativ dasturlar tuzish va ta’lim jarayoniga integratsion holatda yondashgan holatda bularning barchasini amalga oshirish esa hozirgi zamon pedagogik muammolaridan biridir.

Bu borada olib borilgan izlanishlarga qaraydigan bo‘lsak, integratsiyaning nazariy, falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik asoslari Ye.N.Kabanova-Meller, Yu.A.Samarina. S.L.Rubinshteyn, S.E.Kamenskiy, I.D.Zverev, V.N.Maksimova. G.Spenser, M.G.CHepikov, N.K.CHapaev, R.G.Safarova, R.SH.Axlidinov UD.Musaev, I.V.Makuxina, P.Musaev, M.G.Nishonbaeva, M.X.Lutfullaev, M.Jumaniyozova kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

D.N.Zokirovaning ishlarida kasb ta’limi o‘qituvchilarining salohiyatini oshirish, ijodkorlik, tadborkorlik kabi sifatlarni shakllantirish muammolari o‘rganib chiqilgan va bu muammolarga tizimli yondashish to‘g‘risida aytib o‘tilgan.

Bilamizki, ilmiylik, politexnizm, kasbiy yo‘nalganlik, muntazamlik, tizimlilik, uzviylik, tushunarlilik, ko‘rsatmalilik, tabaqalashtirish kabi bir qancha didaktik tamoyillar mavjud bo‘lib, integrativ yondashuv aynan mana shu didaktik tamoyillar bilan uyg‘undir. Ya’ni, integrativ yondashuv bizga yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillarni yaxlit bir tizim sifatida tasavvur qilishga yordam beradi.

Zamon talabiga mos pedagoglarni shakllantirish uchun ta’limga integratsion yondashuv esa bo‘lajak o‘qituvchilarda quyidagicha sifatlarga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi:

– o‘rganilayotgan jarayonni tahlil qilish orqali umumiy maqsadni aniqlab olish;

– fanlararo aloqadorlikni to‘la o‘zlashtirgan holatda uni amalda qo‘llay olish;
– o‘qitish jarayonida o‘quv materiallari orasidagi umumiy yaxlitlikni topa bilish va o‘zaro aloqadorlikni aniqlay olish;
– fanlarni integratsiyalash uchun qo‘yiladigan asosiy g‘oyani aniqlash.

Xulosa. Pedagoglarni kasbiy sifatlarini shakllantirishga ko‘p omillar ta’sir qilishi mumkin. Lekin bu borada ta’limga integratsion yondashuvning ahamiyati anchagina kattadir va bu bugungi kun uchun dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, o‘quv jarayonini integratsiyalash asosida umumiy bilimlarni tarkib toptirish pedagoglar uchun muhim o‘ringa egadir.

Adabiyotlar:

1.“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” 8.10.2019 yil, PF-5847.

2. Зеер Э. Ф. Психология профессий : учеб. пособие для студентов вузов / Э. Ф. Зеер. - М. : Акад. проект ; Фонд «Мир», 2005. - 336 с.

3. Лернер, И.Я.Дидактические основы методов обучения : монография / И.Я. Лернер. – Москва : Педагогика, 1981. – 186 с.

4. Хуторской, А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения /А.В. Хуторской. - М.: Изд-во МГУ, 2003.- 416 с.

5. Choriyeva Z.T. “Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish” pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiya. – T.: 2023

6. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. / Monografiya. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013. 76-81 b.

7. Nematillaevna, Z. D. (2021). Problems in providing independent learning education and ways to prevent them. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(1), 1431-1436.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola “Pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta’limga integratsion yondashuvning ahamiyati” xususida bo‘lib, unda pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish va ularni to‘g‘ri shakllantirishda ta’lim jarayonini integratsiyalashning muhimligi haqida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье речь идет о значении комплексного подхода к образованию в формировании профессиональных качеств педагогов.

SUMMARY

This article is about the importance of an integrated approach to education in the formation of professional qualities of pedagogues.

TA’LIM JARAYONIDA KO‘RISH NUQSONIGA EGA MAXSUS MAKTAB TARBIYALANUVCHILARI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Xalikova Sh.T.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti “Pedagogika”fakulteti dotsenti

Tayanch so’zlar: nogironlik, ko’rish, ruhiyat, sotsializatsiya,rivojlanishi, ijtimoiylashuv, psixologiya, muammo, jamiyat, maxsus maktab, ta’lim jarayoni konkret tafakkur.
Ключевые слова: инвалидность, зрение, психика, социализация, развитие, психология, проблема, общество, специальная школа, конкретное мышление , обучения.
Key words: disability, vision, psyche, socialization, development, socialization, psychology, problem, society, special school, concrete thinking, learning

Ko‘rish nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi psixologiya fanida muammo sifatida o‘rganilishi kishilik jamiyatining turli davrlarida ham olimlarini qiziqtirib kelgan. Maxsus maktabdagi ta’lim jarayonida bola konkret tafakkurga ega bo‘la boradi. Ta’limning ta’siri bilan narsa va hodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta-sekin ularning ichki mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga, sinf jamoasida o‘zini to‘g‘ri tutishga,ijtimoiylashuvga o‘rgatib boriladi.Bu esa dastlabki umumlashtirish, birinchi xulosa chiqarish, dastlabki taqqoslash va solishtirishlarni o‘tkazish hamda sodda xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ana shu asosda bolada asta-sekinlik bilan tushunchalar tarkib topa boshlaydi. Bolalarda ilmiy tushunchani tarkib toptirish uchun ularni narsalarning belgilariga differentsial yondashishga o‘rgatish kerak bo‘ladi. Maxsus maktab o‘quvchilariga narsalarning muhim belgilari borligini, shu muhim belgilar asosida narsalarni biron tushuncha yoki turkumga kiritish mumkinligini ko‘rsatish kerakBu muhim belgilarni hamma vaqt ham osonlik bilan ko‘rib va ajratib bo‘lmaydi. Ko‘rish nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi psixologiya fanida muammo sifatida o‘rganilishi kishilik jamiyatining turli

davrlarida ham olimlarini qiziqtirib kelgan. Ana shunday mulohazalarni umumlashtirgan rus psixologi A.V.Brushlinskiy shunday yozadi:

“Koinot cheksiz bo‘lganidek, uni bilish jarayoni ham cheksizdir. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan, yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgandir. Har bir odam fikr yuritar ekan, bu bilan u shu paytgacha qandaydir yangilikni, noma’lum narsani mustaqil ravishda kashf qiladi.Tafakkur – jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog‘liq, aloqador bilish jarayonidir. Uning tahlili va tasnifiga qaraganda, voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirishdan iboratdir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilimlardan paydo bo‘ladi va hissiy bilish jarayonidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog‘lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi”.[1].

Bolalar narsalarning o‘zgarmaydigan ba’zi belgilari doimiyligini payqay olmasligi ulardagi tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Hodisalarning xossalari, qonuniyatlari, murakkab ichki bog‘lanish va munosabatlarining muhim belgilari bo‘yicha umumlashtirishga o‘tadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv faoliyati jarayonida buyumlarning tashqi belgilariga–jozibadorligiga ko‘proq e’tibor beradilar. M: quyosh, momaqaldiroq, sigir, avtomobiль, qush va hokazolar to‘g‘risida fikr yuritishda “Quyosh isitadi, oy yoritadi”, “Momaqaldiroq guldiraydi”, “Sigir sut beradi”, “Avtomobiль yuk tashiydi”, “qush sayraydi” kabi hukmlar chiqaradilar.

O‘quvchilarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat’iy hukmlardan taxminiy hukmlarga o‘ta boshlaydilar, ya’ni narsa va hodisalarning turli xususiyatlarga egaligini voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan emas, balki ko‘p sabablardan paydo bo‘lishini anglash bosqichiga ko‘tariladilar. Taxminiy hukmlar ikkinchi sinfdan boshlab namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar “Nega bugun falonchi darsda ko‘rinmaydi, balki kasal bo‘lib qolgandir, uxlab qolgandir, dars tayyorlay olmay, uyalganidan kelmagandir” deb gumonsirab, taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy hukm chiqara boshlaydilar.

Ta’lim jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim roль o‘ynaydi. O‘quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo‘laklarga ajratib, ularning uzviy bog‘lanishini aniqlaydi, sintezda esa buning aksini bajaradi, ya’ni bo‘laklarning yaxlit buyumga bog‘lanishini aniqlaydi. Maxsus tashkil etilgan mavhumlashtirish va umumlashtirish usullarini o‘rgatish bolalar tafakkurining rivojlanishini yangi bosqichga ko‘taradi.Maxsus maktabda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda ma’lum bo‘lishicha, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini egallashlari bilan

farqlanadi. Ta'lim jarayonida tafakkur jarayonlarini mustaqil fikrlashni o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir. Yetuk o'zbek olimlaridan marhum psixolog M.Vohidov tafakkur haqida fikr yuritar ekan, jumladan shunday deydi: "Tafakkur qanchalik murakkab aks ettirish jarayoni bo'lishidan qat'i nazar, u hamisha til vositasi bilan amalga oshiriladi. Til va tafakkur o'zaro uzviy, ya'ni bir-biridan ajralmas jarayondir. Shuning uchun ham fikrning realligi tilda namoyon bo'ladi, deb bekorga aytilmagan." [2].

Tafakkur murakkab aks ettirish jarayoni ekanligi tufayli, uning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'stining qandaydir bir cheklangan qismi bilan bog'liq emas

Turli predmetlar bilan turli ko'rgazmali qurollarni ko'rish, idrok qilish natijasida so'zli umumlashtirish usuliga o'tadi. O'quv yili oxiriga kelib tushunchali-so'zli umumlashtirish usuli paydo bo'ladi. Nutq ko'rinishlaridan biri – nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi, bunda she'rni yoki so'zni, gapni aniq esga tushirish yuz ifodasini topadi.. Obraz – bu bilimlar, turmush tajribalari, bavosita xuli, reja esa u yoki bu natijaga erishish yulini aniilovchi ko'rsatmadir. Ular tafakkurga oid topshiriilarni yechishni sistematik (uzluksiz) va evristik reja asosida amalga oshirishni ko'rsatib berdilar. Ko'зи то'liq ojiz o'quvchilar oldilariga qo'yilgan vazifani zaif ko'ruvchi tengdoshlariga nisbatan ko'proq vaqt sarflab bajardilar, chunki ko'zi ojiz bolalar o'zining qo'l-teri sezgilariga suysngan holda vazifani amalga oshiradilar.Mazkur izlanishni olib borishda vaqt birligi (t) asosiy me'zon qilib olindi

2-sinfning ko'zi to'liq ojiz o'quvchilari fan asoslarini o'zlashtirishda ilmiy tushunchalarni egallashi bu toifa bolalar uchun ilmiy tushunchalarni egallash ularning aqliy taraqqiyotlari uchun muhim ahamiuatga ega. Ko'zi to'liq ojiz o'quvchilar ongli ravishda qo'llari bilan paypaslab o'rganib chiqadilar.Zaif ko'ruvchilar to'liq ko'zi ojiz tengdoshlariga nisbatan biroz tezroq ushbu vazifani bajardilar. Ko'zi to'liq ojiz o'quvchilar bu vazifani o'rtacha 18,1 s da bajargan bo'lsalar, zaif ko'ruvchilar 14,10 s da bajarishga muvaffaq bo'ldilar, chunki,ko'rish analizatorining ishdan chiqishi tafakkurning tezligiga,chuqurligiga ,sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.Ma'lumki, bu toifa nogiron bolalarda tafakkur faoliyatining rivojlanishida ko'rgazmali qurollarning ahamiyati kattadir.Umuman olganda kozi ojiz bolalar ta'lim –tarbiyasini tashkil etishda ularning imkoniyatlarini inobatga olish zarur omillardan hisoblanadi va albatta jamiyatdagi ijtimoiylashuv sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Petrovskiy V.A. Umumiy psixologiya. -Toshkent. "O'qituvchi".1992. -353- 354 b[1].
2. G'oziyev E. Psixologiya. -T.: "O'qituvchi", 1994, 123-128 b[2].
3. Vohidov M. Bolalar psixologiyasi. -T.: "O'qituvchi", 1982, 2-169 b].

РЕЗЮМЕ

Maqolada ko‘rish nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi psixologiya fanida muammo sifatida o‘rganilishi kishilik jamiyatining turli davrlarida ham olimlarini qiziqtirib kelgan. Maxsus maktabdagi ta’lim jarayonida bola konkret tafakkurga ega bo‘la boradi. Ta’limning ta’siri bilan narsa va hodisalarni tashqi tomondan bilishdan asta-sekin ularning ichki mohiyatini bilishga, muhim xususiyat va belgilarni tafakkurda aks ettirishga, sinf jamoasida o‘zini to‘g‘ri tutishga,ijtimoiylashuvga o‘rgatib borish muammolariga etibor qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье основное внимание уделяется развитие и социализации, учащихся с нарушениями зрения. Проблема социализация незрячих школьников интересовала ученых в разные периоды развития их личности. В процессе обучения в специальной школе у ребенка формируется конкретное мышление. Под влиянием обучение, начиная с познания вещей и явлений извне, человека постепенно учат познавать их внутреннюю сущность, отражать важные черты и признаки в мыслях, правильно вести себя в классном сообществе, социализироваться.

SUMMARY

The article focuses on the development and socialization of visually impaired students. The problem of socialization of blind schoolchildren interested scientists in different periods of their personality development. In the process of studying at a special school, a child develops a specific mindset. Under the influence of learning, starting with the knowledge of things and phenomena from the outside, a person is gradually taught to know their inner essence, reflect important features and signs in his thoughts, behave correctly in a classroom community, socialize.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Urinbayev S.Q.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya “Tezkor savol-javob” metodi.

Ключевые слова: критическое мышление, креативность, сотрудничество, коммуникация метод “Быстрых вопросов и ответов”.

Key words: critical thinking, creativity, collaborationism, communication «Quick question-and-answer» method.

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiya ekanligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Yangi O‘zbekistonga ilm-fanga e’tibor yuqori cho‘qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi kunda ta’lim va tarbiyani oiladan va maktabgacha ta’lim sohasidan boshlasak, yaxshi natijaga erishishimiz mumkin. Shu etapdan o‘tgandan keyin esa maktab ostonasiga qadam qo‘ygan yosh avlodni ta’lim-tarbiyasini ota-onalar muallimga ishonch bilan topshirar ekan, bu ishonchni qadrlash o‘qituvchi zimmasiga juda katta ma’suliyatni qo‘yadi. Aslida esa sifatli ta’lim faqat o‘qituvchiga bog‘liq emas. Nega deysizmi? Bilim uchun poydevorni muallim qo‘yadi, u go‘yoki me’mor, bezakchi, bolani to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi mutaxassisdir. Muallim o‘z kasbining ustasi bo‘lsa, ta’lim sifati ham o‘sadi.

Ammo tasavvur qiling: bolaning xotiri parishon, tushkun kayfiyatda o‘tirsayu, o‘qituvchi ming jonini koyitganidan nima naf? Fanlardan o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchining muvaffaqiyatsizligiga faqat o‘qituvchi aybdor emas.

O‘quvchidagi bunday holatga, aksariyat hollarda, oiladagi tushunmovchiliklar ham sabab bo‘ladi. Bola ota-onasi bilan yaxshi munosabatda bo‘lib, ertalab

yaxshi kayfiyatda uydan chiqsagina, darsga chin ma'noda quloq soladi. Demak, ta'lim sifatini oshirishda ota-onaning ham ishtiroki muhim va bu ishtirok ota-onalar majlisida hozir bo'lish bilan ado etilmaydi. Oilada bola tarbiyasi uchun muhit dunyoga kelishidan ilgariroq yaratilmagan bo'lsa, keyin vaziyatni o'zgartirish oson kechmaydi. Ta'limga bog'liq bo'lmagan omillar, oilalarning yashash tarzidagi tafovutlar ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, maktab o'quvchilarining darsdan bo'sh paytida akademik uy vazifalarini bajarish uchun yetarli sharoit yaratib beriladi, deb bo'lmaydi. Hozirgi kunda prezidentimiz bejizga ayol-qizlarni o'qitish kerak, chunki ayol oilada ta'lim-tarbiya beruvchi birinchi shaxs deya jon kuydirmayapti. Demak, ta'lim sifatini oshirish bevosita va bilvosita oiladan boshlanadi desam mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim sohasini rivojlantirishda o'qitish sifati uchun hattoki prezidentimiz bir qator farmonlarni imzoladi, shuningdek, davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan edi.

Shunga muvofiq, o'gan uch yil davomida darsliklarni yangilash bo'yicha bir qator samarali ishlar olib borildi. Maxsus ishchi guruh tomonidan ilg'or xorijiy metodikalar asosida 1-4-sinf kitoblari yangidan tayyorlandi. Mazkur darsliklarning XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ligi tahsinga sazovordir. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan mazkur darsliklarning o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, ularni tayyorlashda PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardagi namunaviy vazifalar asos qilib olingan. Darslik bilan birga mashg'ulot daftarlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ham chop etilgan.

Shuningdek, bu tizimga Estudy electron ta'lim platformasi integratsiya qilingan. Undan o'quvchilar dars paytida ham, darsdan bo'sh vaqtda ham foydalanishlarimumkin. Bu esa ularning o'z bilimlarini yanada mustahkamlashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, yaratilgan mazkur darsliklarni farzandlarimizga yetkazuvchi shaxs, albatta muallim ekanligi, shu bois muallimning obro'sini ko'tarish haqida takror-takror fikr yuritilganligi bejiz emas.

Prezidentimizning Oliy Majlisga va xalqimizga qilgan Murojaatnomasida maktablarda darslar mavjud 22 ta fan bo'yicha olib borilayotganligi, bundan

buyog‘iga esa yoshlarga kreativ sohalarda dars berish lozimligi aytib o‘tildi. Tizimni isloh qilish barobarida fanlarni ham, dars soatlarini ham ko‘rib chiqishimiz kerakligi ta’kidlandi.

Sifatli ta’lim jarayonini tashkil etish esa malakali pedagog-kadrlardan boshlanadi. Zero, maktab eng zamonaviy texnik jihozlar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlangan bo‘lsayu, o’qituvchining malakasi yetarli darajada bo‘lmasa, ko‘zlangan natijaga erishish imkonsiz.

O‘qituvchi o‘z faoliyati davomida duch keladigan muammolarga yechim topishda metodik ko‘makka ehtiyoj tug‘iladi. O’qituvchi jahon bozorida raqobatlasha oladigan kadrni tarbiyalashi uchun zamonaviy fikrlashi, o‘z ustida doimiy ishlab borishi talab etiladi. Zero, 21-asr yoshlarini 20-asr ta’lim metodikalari orqali o‘qitib bo‘lmaydi. Jamiyatning boshqa sohalari singari dars o‘tish metodikasi ham doimiy yangilanishga, rivojlanishga muhtoj. Shunday ekan, har bir pedagog kadr zamonaviy pedagogika asoslarini bilishi va uni o‘quv jarayonlariga tadbiq eta olishi shart.

Ta’lim sohasining eng muhim qismlaridan yana biri – bu to‘g‘ri tanlangan dastur va baholash tizimi hisoblanadi. Chunki, o‘quvchining bilimi dasturda belgilangan ta’limiy maqsadlar asosida baholanishi kerak.

Hozirda ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan test tizimi o‘quvchining real bilimi va ko‘nikmasini ko‘rsatib bera olmaydi. U faqatgina o‘quvchining ma’lumotni eslab qolish qobiliyatiga baho berishi mumkin. Ammo, hozirgi texnologiyalar asrida ma’lumotlarni xotirada saqlab qolishga katta ehtiyoj yo‘q – bu vazifalarni kompyuterlar va internet bajaradi. O‘quvchidan 21-asrda tanqidiy fikrlash, muammoni halqilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari talab etilmoqda.

Shu o‘rinda mutaxassisligimdan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlashim mumkinki, agar o‘quvchining matematik bilimi va tafakkuri yaxshi rivojlangan bo‘lsa, u boshqa har qanday muammo va vaziyatlarni bemalol yechimini topa oladi, hamda boshqa har qanday fanlarni o‘zlashtira oladi. Shuning uchun ham matematika darslarida ko‘proq mantiqiy va tanqidiy masalalarni ko‘proq ishlab chiqarish kerak. Hammamizga ma’lumki, matematika fani murakkab fanlar qatoriga kiradi, bu fanni interfaol metodlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsion usullardan foydalanib darslarni tashkillashtirilsa, bu fanni yangi qirralarini ochib bera olamiz va o‘quvchilarni bu fanga qiziqtira olamiz. Matematika fani uchun XXI asr metodikasi juda muhim, chunki hozirgi zamon o‘quvchilarini har bir sohada yangiliklarsiz hech bir tushunchani yetkazib bo‘lmaydi, chunki XXI asr axborot texnologiyalari asridir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydlaniladi.

Interfaol (“Inter”- bu o‘zaro, “act”- harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo‘lish) ni anglatadi. Interfaol ta’limning mohiyati o‘quvchilarni bir-birlaridan o‘rganishlariga yo‘naltirilgan ta’lim ekanligi. Interfaol ta’lim, interfaol uslublar tizimi bo‘lib, o‘quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta’lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini korib chiqamiz.

«Fikriy hujum» metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

«6x6x6» metodi. «6x6x6» metodi yordamida bir vaqtning o’zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o’qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakilbo’ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o’z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Matematika darslarida “A4 format” metodi, “Smayliklar” metodi, “Bermurd uchburchagi” metodi, “Tezkor savol-javob” metodi, “Vitaminlar” metodidan har bir dars jarayonida foydalanish mumkin.

Ta’lim sifatini oshirmasdan kelajak uchun munosib yosh avlodni yetishtira olmaymiz, bunday sharoitda o‘quvchilar uchun buyuk imkoniyatlarni biz yaratib bera olamiz, buyuk ajdodlar me’rosi buning uchun juda katta asos bo‘la oladi, chunki bizning farzandlarimizda ularning qoni oqmoqda. XXI asr ko’nikmalarini ularga singdira olishimiz kerak, shundagina oldimizga qo‘yilgan maqsadga erisha olamiz, bu maqsad buyuk yurt uchun buyuk daholar yetishtirishdir.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги, ПФ-4947-сонли Фармони. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.11.2020 й., 06/20/6108/1483-сон)

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сон Қарори. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.11.2020 й., 07/20/4884/1484-сон).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонун”. ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сон фармони.

6. Турғунов С.Т. Таълим тизими: бошқарув тамойиллари ва янгича ёндашувлар // Ж. Касб-ҳунар таълими. -Т., 2006. -№3, -Б. 2-4.

7. Иноятов У. Таълим сифатини назорат қилиш ва бошқариш // Ж. Касб-ҳунар таълими. Т., 2004. –№1, – Б. 2 –5.

8. Мавлянов А., ва б.қ.лар. “Илғор педагогик технология бўйича ўқув машғулотини лойиҳалаш”. Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29.

9. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142 б.

10. Мавлянов А., ва б.қлар. Педагогик технология тамойиллари асосида машғулот машғулотларини олиб бориш технологияси. Ўқув-услубий қўлланма. - Тошкент: Ворис, 2010. - 117 б.

11. Ta’lim jarayonida fanlararo aloqalarni rejalashtirish va amalga oshirish”. Pedagogik ta’lim, -T. 2007.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta’lim sifatini oshiruvchi omillar keltirilgan. Interfaol metod tushunchasi keng tushuntirilgan. Matematika darslari misolida ta’lim sifatini oshirishda foydalaniladigan innovatsion metodlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье перечислены факторы, повышающие качество образования. Понятие интерактивного метода широко разъяснено. На примере уроков математики представлены инновационные методы, используемые для повышения качества образования.

SUMMARY

The article presents factors that improve the quality of Education. The concept of an interactive method is widely explained. An example of mathematics lessons is the innovative methods used to improve the quality of Education.

MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOT DAVRIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

Ashurov N.R.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti prof. v/b., p. f. n.

Tayanch so‘zlar: amaliyot dasturi, dars samarodorligi, metodik ko‘rsatma, o‘quv kompleks, pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar, shakl, usullarini, dars samarodorligi.

Ключевые слова: программа практики, эффективност урока, методические указания, учебный комплекс, педагогические игры, формы, методы, эффективност урока.

Key words: internship program, lesson effectiveness, methodological guidance, educational complex, pedagogical playful activities, form, methods, lesson effectiveness.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qaroriga asosan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari tahsil olayotgan pedagogika ta’lim yo‘nalishi 2-4-bosqich talabalari uchun 3-8-semestrlarda haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibi joriy etilgan.

Tahsil oluvchi talabalarining amaliyot davri “4+2” shaklda (4 kun nazariy ta’lim, 2 kun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot) 15 haftadan (semestrda haftaning ikki kunida kunlik 3 soat amaliyot va 4 soat mustaqil ta’lim vaqti, semestrda haftaning ikki kunida kunlik 3 soat amaliyot va 2 soat mustaqil ta’lim vaqti ajratiladi) tashkil etiladi. Amaliyot kafedra professor-o‘qituvchilari va umumiy o‘rta ta’lim tashkilot rahbarligida olib boriladi

Birinchisi – ryespublikamiz viloyatlaridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik amaliyot o‘tashi uchun 1, 2 tadan talaba yuboriladi. O‘zlarining yashash joylariga yaqin joylarda amaliyot o‘taydilar. Bu shakllning yutug‘i shundaki, talabaga keyinchalik bu umumiy o‘rta ta’lim maktablariga ishga borish imkoni yaratiladi, amaliyot dasturi to‘liq bajariladi. Bu usulning ayrim kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ular kursdoshlari orasidagi o‘zi o‘tgan dars samarodorligini muhokama qilish imkoniga ega bo‘lmaydi, ma’naviy-

ma’rifiy tadbirlarni bir o‘zi hal qilishga to‘g‘ri keladi, amaliyot o‘tash joylari ko‘p bo‘lishi sababli rahbar o‘qituvchi maslahatidan to‘liq foydalanish imkoni kamayadi

Ikkinchisi – to‘liq guruh (18-20 talaba) bilan bitta umumiy o‘rta ta’lim maktablarda amaliyot o‘tiladi. Bu usulning yutug‘i – talabalar o‘qituvchi maslahatidan to‘liq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar; o‘zlari o‘tgan dars sifatini guruhdoshlari tomonidan har tomonlama muhokama qilinadi. Kamchiligi esa talabalarning hammasini ham maxsus fan o‘kituvchilariga biriktirish imkoni bulmaydi; 20 ta talabaga rahbarlik kilish o‘qituvchiga qiyinchilik uygotadi; amaliyot dasturi to‘liq bajarilmaydi.

Uchinchisi – talabalar yashash joyiga yaqin umumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik amaliyot o‘tashii tashkil etiladi. Ular 4-6 kishidan guruhchalarga bo‘linadi va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qituvchilariga 1-2 tadan talaba biriktirilib quyiladi. Oliy o‘kuv yurtidan amaliyotga bitta o‘qituvchi rahbarlik qiladi. Uning yutugi - amaliyot dasturi to‘liq bajarildi; rahbar o‘qituvchi talabalarga to‘liq maslahat berish imkoniyatiga ega bo‘ladi; talabalarga shu bilim yurtida ishga qolish imkoniga ega bo‘ladilar. Yuqoridagilarni tahlil qilib ko‘rsak 3-variantdagi pedagogik amaliyotni tashkil etish shakli ish samarador ko‘rinadi. Shunday qilib, amaliyotni tashkil qilish shakllarining tahlili quyidagilarni xulosa kilishga olib keladi

1. Amaliyotni tashkil etish shakllari uni o‘tkazish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar va metodik ko‘rsatmalar saviyasi talab darajasida o‘tashiiga asoslanishi kerak.

2. Pedagogika ta’lim yunalishida pedagogik amaliyotlar o‘tashi buyicha alohida nizom ishlab chiqilishi va shu asosda amaliyot o‘tkazilishi lozim.

Pedagogika fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tishning yana bir shakli «o‘yinli mashg‘ulotlar» o‘tkashshdir.

Talabalar “Pedagogika” fanidan olgan bilimlarini “Pedagogik amaliyotlar” mustahkamlaydilar va o‘zlarining ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakalarini egallaydilar. Bu pedagogik amalyotlarni tashkil etish shakllaridir. Bunda bir necha dars o‘tish usullaridan foydalaniladi.

O‘yinli mashg‘ulotlar - *sun’iy tashkil kilinadi.* Bunda o‘yin ishtirokchilari ma’lum rollarni bajaradilar (ishlab chikarish ustalari, o‘qituvchi, bosh usta, ota-ona, tarbiyachi, rahbar va boshkalar) yoki faol ko‘zatuvchi sifatida qatnashib, o‘yin harakatini baholaydilar. Pedagogika fanini o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar talabalarning bilish faoliyatini yanada faollashtirishga ko‘maklashadi (mashg‘ulotda ular faol qatnashishadi, ekspertlar mustakil

xulosalar chikarishadi, kuyilgan maksadlar amalga oshiriladi va talabalar mashg‘ulotlarni ma’lum bilimlarga ega bo‘lgan holda tark etadilar). Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar o‘qitishning faol, samarali usuli hisoblanadi. O‘yinli metodlarni ta’lim jarayoniga kiritishga, ochishga birinchi urinishlar 1932 yillarda M.M.Birshteyn tomonidan bo‘lgan. Keyinchalik o‘qitishning, bu metodlari pedagogika ilmida kam ko‘llana boshlandi.

Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar quyidagilarga bo‘linadi: ishlab chiqarishli, tashkiliy faoliyatli, muammoli, o‘quv va kompleks. Pedagogika fanini o‘qitishda o‘quv kompleks turdagi pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarda qatnashuvchilarning na fakat kasbiy bilim va malakalari balki, shaxsning ayrim kasbiy va axlokiy xususiyatlari (tayyorgarlik, bajaruvchanlik, ijro etuvchanligi, ijodiy faollik, intiluvchanligi, asoslanganligi, jamoatchilik va boshkalar) ham shakllantiriladi.

Kompleks pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar mazmunida pedagogika, pedagogika tarixi, milliy pedagogika, psixologiya, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi kabi fanlarning o‘quv materiallari o‘z aksini topadi(b). Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar mutaxassisni bulgusi kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta’lim olishga kizikishini uygotishga va guruh,ini jipslashtirishga imkon beradi

Shuni ta’kidlash joizki, pedagogik uyinni mashg‘ulotlar qatnashchilardan rollarni o‘ynashda avval o‘rganilgan bilimlarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishini hamda umumiy me’yor qoidalarini bajarishini talab qiladi. Hakikiy pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar o‘zida o‘quv va o‘yin elementlarini mujassamlashtirishi kerak.

Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni asosiy yunalishlari bo‘yicha shartli ravishda quyidagi ***uch kismga*** bo‘lish mumkin:

- aniq pedagogik malakalarga o‘ratish;
- talabalarni o‘yin jarayonida o‘zaro xarakatda bo‘lishga o‘rgatish;
- talabalarga pedagogik psixologiya, o‘qitish uslubiyoti fanlaridan ma’lum darajada bilim berish xamda ularda pedagogik tafakkurni rivojlantirish

Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarning mohiyati va tamoyillari pedagogika fanini o‘qitish tajribasida pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni keng kullashning ijobiy va salbiy tomonlari mavjuddir.

Ijobiy tomoni: shaxsni shakllantirishda qurol sifatida foydalanish imkoniyatiga egaligi bilan tasdiqlanadi va o‘quv jarayoiini faollashtirish maksadlari bilan amalga oshiriladi.

Salbiy tomoni - kuyidagi x,ollarda vujudga keladi, ya’ni o‘yinli darslarni ishlab chikishning psixologo-nedagogik ilmiyuslubiy asoslariga tayanilmaydi, fakatgina o‘yinli darslarning tashki shakligina olinadi

Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarning mohiyatini pedagogika va psixologiya fanlarining o‘quv tarbiyaviy jarayonisiz tushunib bo‘lmaydi. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar “og‘ir artilleriya” bo‘lib, uni o‘quv jarayonini boshka usullar bilan amalga oshirish mumkin bo‘lmagan hollardagina qo‘llash maksadga muvofiqdir.

Kompleks pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni ishlab chiqish ularni modellantirish bilan birlashtirishni taqozo etadi. Ya’ni o‘yin qatnashchilari uchun o‘zaro bog‘langan pedagogik holatlarning modelini tashkil etish kerak.

Hozirgi kunda pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha konsepsiya yuq;. Shuning uchun pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni psixologo-pedagogik olimlarning ko‘rsatmalariga tayangan holda olib borilmokda.

Taqlidli model – haqiqiy voqealikning biron-bir qismini namoyon etadi. O‘yinli model esa. taqlidli model bilan o‘yin qatnashchilarining ishlash usullarini yoritadi. Taqlidli va o‘yinli modellarni ta’lim jarayoniga tad biq e tish uchun pedagog o‘quv topshiriqlari tizimini ishlab chiqish.

Bu xolatlar bir-biriga qarama-qarshi, noaniq, yetishmagan ma’lumotlarni topishga olib keladi. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlar jarayonida talaba ma’lumotlarni tahlil qilishi, muammoni aniqlashi, uni masalali xolga keltirishi hamda uni yechish usul va vositalarini ishlab chiqishi. qaror kabul kilishi va unga boshkalarni ishontirishi, amaliy xarakatlarni amalga oshirishi kerak.

Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni ishlab chiquvchi o‘qituvchilarga maslahatlar:

1. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni qo‘lllash, uning maqsadi va o‘quv jarayonidagi o‘rnini aniq asoslashni talab etadi. Tarbiya fani o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim berishnishning boshqa shakl va usullarini kerakli natijani bermaganda pedagogik uyinli mashgulotlarni qo‘llash mumkin va zarur. Natijada kelgusidagi kasbiy faoliyatni bajarish uchun bir butun tajribani egallash; ta’lim oluvchilarni nazariy darslardan egallagan ko‘nikma va malakalarni bir tizimga keltirish; jamitdagi ilg‘or tajribadan foydalanish hamda qaror qabul qilish, o‘zaro munosabatlar bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish; bilish kasbiy asoslanish, ijodiy, kasbiy tafakkurini shakllantirish lozim.

2. O‘quv jarayoniga bitta o‘yinni yoki biron bir yangilikni joriy etish, foydalaniladigan o‘kitish usuli va unga kiruvchi mazmun, shakl, vositalarni, o‘kituvchi hamda talabalar faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. O‘qituvchi bu masalaga tayyor bo‘lishi va tizimli yondoshishi zarur. Shu bilan birga har bir yangilik boshqa o‘qituvchilarning ish faoliyatiga va qiziqishlariga har xil ta’sir etishi mumkin, natijada yangilik qo‘llab quvvatlanadi yoki qarshilikka uchraydi.

3. O‘yin qatnashchilari faol ishtirok etishlari kerak. O‘kuv vaziyatlari bo‘yicha talabalarda yetarlicha tushunchalar bo‘lmasa, ularning o‘yinda qatnashishlariga hojat qolmaydi. Shuning uchun bu mashg‘uloglarga o‘kituvchi ham, talabalar ham yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi shart. Shundagina pedagogik o‘yindan ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarga ungacha bo‘lgan mashg‘ulotlardan zamin tayyorlanadi. Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarga qadar talabalarda munozara olib borish hamda isbotlash mantiqini, inkor etish madaniyatini, boshqalarning fikrini tushunish, ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Bularni to‘garaklarda, oddiy amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

4.Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni oddiy mashg‘ulotga aylantirish kerak emas. Ko‘pincha o‘yinli darslarda ikki rejali tamoyil amalga oshmaydi. O‘kuv jarayonida fakat taqlidli modelni qo‘llash uning uchun yetarli emas. Bunda albatta o‘yinli modelni ham amalga oshirish shart, shundagina bir yo‘la maqsadga erishiladi.

5.Yaxshi sharoitda tayyorlangan o‘yinda o‘qituvchi asosan o‘qitishning boshlanishiga qadar va uning oxirida, o‘yinni muhokama qilishda faol ishtirok etadi. Bu harakatlarda o‘z-o‘zini yunaltirish hamda ta’lim olish bilan belgilanadi. O‘qituvchi o‘yin jarayoniga qanchalik kam aralashsa, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish darajasi, o‘yinning o‘qitish sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Lekin bunday yuqori natijaga erishish uchun o‘qituvchi ko‘p ishlashi xamda pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni ishlab chiqish va o‘tkazish bo‘yicha nazariy bilim hamda malakaga ega bo‘lishi lozim. O‘yin jarayonida o‘qituvchi uch holatni egallashi mumkin: o‘yin markazida, uning rahbari, maharotli pedagog bo‘lishi; hamma (iplar) unga kelib tutalishi kerak; o‘yin ishtirokchilaridan birontasini vazifasini bajarishi; o‘yin o‘tkaziladigan xonani uni tark etib chikib ketishi mumkin. Talabalar o‘z faoliyatlarini o‘zlari boshqarishga xar doim, intilishlari kerak, lekin bunga erishish uchun u uslubiy va didaktik asoslangan bo‘lishi shart.

6.Talabalar iloji boricha ko‘prok; adabiyotlardan foydalanishi kerak. Shuningdek, ular o‘yin qoidalariga qatiy rioya qilishi, belgilangan vaqtda qaror qabul qilishlari va muhokamaga kech qolmasliklari zarur.

7.Pedagogik o‘yinli mashg‘ulotlarni ikki va to‘rt soat davomida oxirgi mashg‘ulotlarda o‘tkazish maqsadga muvofivdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, pedagogik amaliyot davrida ta’lim-tarbiyaga oid muammolarni yechish va topshiriqlarni bajarishga jalb etish, talabalarni mustaqil ravishda ish olib borishlarini muhim shakli hisoblanadi. Bunda ta’lim tizimiga taalluqli bo‘lgan muayyan ta’lim tarbiyaviy vaziyat bayon etiladi

xamda tug‘ri javobini topish, talabalar (o‘kituvchi, tarbiyachi va ota -onalar) faoliyatini tug‘ri baholash, bu faoliyat motivlarini aniqlash, shuningdek, talabalarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash maqsadida ularga ta’sir ko‘rsatish, ta’lim-tarbiyaviy, ishlarni tug‘ri tashkil etish va uni takomillashtirib borishning shakl, usullarini, vositalari va yunalishlarini ko‘rsatib berish talab kilinadi

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi PQ-289-son qarori.
2. M. M. Birshteyn Delovыye igrы– Riga : AVOTS, 1989. – 304 s.
3. N.R.Ashurov “ Malakaviy pedagogik amaliyot ” o‘quv qo‘llanma “ARIAL”-Toshkent-2020 y.
4. Z.K.Ismoilova Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar «Fan» nashriyoti - Toshkent - 2001 y.

РЕЗЮМЕ

Maqolada bakalavriat talabalarining oliy ta’lim tizimida o‘qish jarayonida amaliyot o‘tash tartibi va kasbiy rivojlanish bosqichlari tahlili keltirilgan. Malakaviy pedagogik amaliyot o‘quv jarayonida boshqa fanlaridan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar va o‘zlarining ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakalarini egallaydilar kasbiy kompetensiyasining o‘zgarishi haqidagi tushunchani kengaytiradi va tadbiq qiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье представлен анализ проседуры прохождения практики и этапов профессионального развития студентов бакалавриата в период обучения в системе высшего образования. Квалифисированная педагогическая практика в образователном процессе закрепляет знания, полученные по другим предметам, и приобретает квалификасию по своей спесиалности, расширяет и применяет понимание изменения профессионалной компетентности

SUMMARY

The article presents an analysis of the internship procedure and stages of professional development of undergraduate students during their studies in the higher education system. Qualified teaching practice in the educational process consolidates knowledge acquired in other subjects and acquires qualifications in one’s specialty, expands and applies understanding of changes in professional competence

DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA KASB-HUNARGA YO‘LLASH ISHLARINI TASHKIL QILISH MAZMUNINI TANLASHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEZONLARI

Xolmatov P.Q.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti.p.f.n.
O’tayev A.Y.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti v.b. dotsenti,(PhD).
Mirzaxmatov B.B.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: mashg’ulot, kasb, hunar, qiziqish, bilim, malaka, ko’nikma, mezon, mehnat, amaliyot, sifat, tafakkur, ijodiy, shakllfntirish.

Ключевые слова: занятие, профессия, призвание, интерес, знания, квалификация, умение, критерий, труд, практика, качество, мышление, творчество, формafnting

Key words: occupation, profession, craft, interest, knowledge, skill, skill, criterion, work, practice, quality, thought, creative.

Yurtimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan talim tarbiya olayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Respublikamiz ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib yoshlarni jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan etuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida juda zarur ishlar amalga oshirildi.Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning sifatli ta’lim olishiga oid huquqlari mustahkamlab qo‘yilgan. Ana shundan kelib chiqib, o‘tgan yillar davomida ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Umuman olganda kasb tanlashda inson salomatligi ma`lum bir kasb talablariga muvofiq kelish yoki kelmasligini aniqlash – shifokorning maslahati zarurdir. Inson ishga yoki o‘qishga kirayotgan har bir kishi tibbiy ko`rikdan o‘tadi ammo ko‘pincha shunday bo`ladiki, inson o‘zining nazarida kasb tanlab bo‘lganidan song bunday tibbiy ko‘rikga boradi. Keyin afsuslanib yoki iztirob chekib yurmaslik uchun o‘z vaqtida vrach bilan maslahatlashib olish muhim ahamiyatga egadir.

Faoliyat turini inson tanasiga organizmi ko`rsatadigan ta'siri bo'yicha kasblarni to'rt guruhga ajratish mumkin.

1. Mehnat sharoiti maishiy kasblarga yaqin bo'lgan kasblar masalan tariqasida soat ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarni aytishimiz mumkin.

2. Oshpazlik kabi ishlab chiqarish omilining mo'tadil yoki notekis ta'sir etishi bo'yicha ishlagan vaqtda organizmga vaqtincha yuqori darajadagi havo harorati, namlik hamda boshqa shu singari omillar ta'siri boladi. Insonning tomir urishining tezlashib ketishiga, ter ajralib chiqishining kuchayishigaolib keladi. Yuqoridagi kasblarni faqat termoregulyasiyasi yaxshi bo'lgan kishilargagina, shuningdek, yurak-tomir tizimida, nafas organlarida kasalligi bo'lmagan kishilargagina tavsiya etiladi.

3. Noqulay ishlab chiqarish omillarining yig'indisi xarakterli bo'lgan kasblarga to'qimachi kasbini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuragi, o'pkasi, eshitish organlari, tayanch harakat apparati kasal bo'lgan (yoki kasallik alomatlariga moyillik sezilgan), ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishilar uchun bu kasb tavsiya etilmaydi.

4. Og'ir va zararli mehnat sharoiti bilan bog'liq bo'lgan kasblar, elektr payvandchi, po'lat quyuvchi va boshqalar ana shunday kasblar qatoriga kiradi.

Maktab texnologiya fani Milliy o'quv dasturiga asosan 1-4, 5-7 va 8-9-sinflarda yo'nalishlar, bo'limlar kesimida har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga soha oid





kasblar o‘rgatiladi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalariga ko‘ra o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishining mazmunini tanlashda biz pedagog olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, shuningdek amalga oshirgan ilmiy izlanish va tajriba-sinov ishlarimiz natijasida umumiy holda 1-shaklda keltirilgan mezonlarni belgilab oldik. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari darsdan tashqari mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishining mazmunini tanlash mezonlari tuzilmasi quyidagilar tashkil etadi:

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.Vosita muayyan o‘qitish metodi yoki usullarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallaridir. Ta’lim vositalari asbob uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar),videoroliklar, robotlar, ko‘rsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, radio, televideniye, kompyuter va hokazolardan iborat bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida o‘qitish vositalaridan foydalanish-dars jarayonida tabiiy yoki tasviriy ko‘rgazma materiallar (predmet, sxema, diagramma, surat va boshqalar) laboratoriya yoki demonstratsiya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan asbob-uskunalar, o‘quv qurollari, mikroskop va boshqa apparatlar, shuningdek, mavzuga oid dalillar (sitatalar, ta’rif, qoida, formula va boshqalar)ning ishlatilishi anglanadi.



Individual yondashuv asosidagi ta'lim o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji, xohishiga ko‘ra muayyan kasb-hunar yuzasidan chuqur ma'lumotlar olishi va kelajakda tanlagan kasbi bo‘yicha kasb-hunar kollejlariga o‘qishga borishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Amaliy tajriba mashg‘ulotlarini tashkil qilish tuzilmasi quyidagicha kprinishda bo'ladi.

Maktab ma'muriyati hamda pedagogik jamoa oldiga har bir o‘quvchining fakulьtativlardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishini ta'minlash vazifasi qo‘yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo‘lib qoladi. Amaliy-tajriba mashg‘ulotlari maxsus jihozlangan xonalarda va alohida ajaratilgan tajriba maydonida olib borildi.

Bunday ta'lim mashg‘ulotlarini tashkil qilishda asosan darsdan tashqari ishlarning amaliy-tajriba mashg‘ulotlari va ekskursiyalar shakllaridan foydalanildi va ekskuriyalarning yo‘nalishlari va tarkibiy tuzilish uyidagicha:

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalarni tashkil qilishda biz ularning sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlardan tubdan farq qiluvchi quyidagi jihatlariga e’tibor qaratdik:

a) o‘tkaziladigan ekskursiyalarning hammasiga o‘qituvchi rahbarlik qilsada, u ekskursiya ob’yektlarining barchasi bilan yaxshi tanish bo‘lmasligi mumkin, bunday hollarda ekskursiya uyushtirilayotgan korxona, muassasa yoki xo‘jalikning mas’ul vakili mashg‘ulot olib boradi;

b) ekskursiya muddati turlicha bo‘lib, ularni tashkil qilishda mintaqaviy, mavsumiy va ekskursiya uyushtiriladigan ob’yekt xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Jumladan, qishloq xo‘jalik korxonasiga hosilni yig‘ishtirib olish davrida, avtokorxonalarga texnik qarovlarni o‘tkazish paytida ekskursiya uyushtirilishi eng yuqori unumdorlikka erishish imkonini beradi;

v) o‘qituvchi yoki ekskursiya uyushtirilgan ob’yekt vakili bo‘lgan ekskursovodning rahbarlik usuli va o‘quvchilarning faoliyati turlicha bo‘lishi mumkin.

Ekskursiya davomida bir o‘rindan ikkinchi o‘ringa ko‘chib yuriladi. Shu bois o‘quvchilardan intizomga qat’iy rioya qilish talab etiladi. O‘qituvchilar ob’yektni kuzatish jarayonida vaqti-vaqti bilan savollar beradilar, zarur ma’lumotlarni yozib boradilar. Ekskursiya yakunida o‘qituvchi bugungi kuzatganlarini avval o‘zlashtirilgan materiallarga bog‘lab suhbat o‘tkazadi. Ekskursiya materiallari asosida bayon yoki insho yozdirish mumkin.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.Vosita muayyan o‘qitish metodi yoki usullarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallaridir. Ta’lim vositalari asbob uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko‘rsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, radio, televideniye, kompyuter va hokazolardan iborat bo‘ladi.

Ta’lim texnologiyasi talablari bo‘yicha ta’lim jarayoni «ta’lim oluvchi-ta’lim jarayoni-ta’lim beruvchi» an’anasiga muvofiq olib boriladi. Mazkur an’anaga muvofiq ta’lim beruvchi avvalgidek tayyor bilimlarni ta’lim oluvchiga yetkazib beruvchi shaxs sifatida emas, balki yo‘llanma beruvchi, boshqaruvchi, maslahat beruvchi, baholovchi shaxs sifatida faoliyat olib boradi. Ammo ta’lim jarayoni avvalgidek ta’lim beruvchi hamda ta’lim oluvchi faoliyatlarining o‘zaro aloqadorligi, bog‘liqligi hamda «teskari ta’sir» xususiyatini saqlab qoladi. Murakkab vaziyatlarda o‘zlashtirilishi jihatdan qiyin bo‘lgan nazariy ma’lumotlarni ta’lim beruvchi tomonidan bayon etib berilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktabda o‘quvchilar kasb tanlashga oid bilimlarning asosiy hajmini 8-9-sinflarida texnologiya fani jarayonida egallaydilar. Kasbga yo‘naltirish

ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina, o‘quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo‘lishiga erishiladi.

O‘quvchilar kelajakda tanlaydigan kasblariga to‘g‘ri yo‘l topishlariga mukammal asos sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘zining xarakteri, bilimi, qobiliyati hamda kasb talablari bo‘yicha o‘z ustida ishlashlari hamda izlanishiga qo‘llanmadagi topshiriq hamda mantiqiy savodxonlik mashqlari, kasb turi hamda tiplari bo‘yicha berilgan mashqlarni bajarishlari tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.// www.ZiyoNet.uz

2. Xolmatov P. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish. Monografiya. Fan. 2016

3. Xolmatov P.Q., Eshmurodov O.E, Pardayev B.A. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni takomillashtirish metodikasi (metodik qo‘llanma) Jizzax. 2021 112 b.

4. Шодиев Н.Ш. Внеклассная и внешкольная работа профориентации учащихся. – Т.: Фан. 1988. – 112 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o’rta ta’lim maktablarida o quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

Вданной статье рассматривается вопрос совершенствания профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ

SUMMARY

This article discusses the issue of improving the proessional orientation of studens in secondary schools

TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARINI QO‘LLASH MASALALARI

Sharapova Z.F.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarbiya, modernizatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - tarbiya, aralashtirilgan ta’lim, gamifikatsiya.

Ключевые слова: образование, воспитание, модернизация, личностно ориентированное образование и воспитание, смешанное образование, гамификация.

Key words: education, upbringing, modernization, personally oriented education and upbringing, mixed education, gamification.

Bugungi globallashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo‘lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o‘zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o‘z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san’at, madaniyat singari barcha sohalarda o‘sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonda har bir sohani rivojlantirish jarayonida eng avvalo ta’lim sifati eng muhim rol o‘ynaydi. Aynan ta’lim sohasi innovatsiyaning dastlabki qadamlaridandir.

Mamlakatimizda ta’lim taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun bir qancha strategiyalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. “Najot ta’limda, najot tarbiyada, najot bilimda” g‘oyasi Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilishi pedagogika zimmasiga ham katta ma’suliyat yuklanmoqda. Shu jumladan yoshlarimizni ta’lim-tarbiya olishi uchun qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Xususan, pedagogik innovatsiyalarni ta’limning yangi usullari, yondashuvlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va mamlakatimizda joriy etish ta’lim tizimimizda modernizatsiyani olib kirishga sabab bo‘ladi [1].

Rivojlangan xorijiy davlatlar ta’limining mamlakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi e’tirof etilgan. Zamonaviy mamlakatlar doimiy ravishda o‘zlarining ta’lim tizimini takomillashtirishga intilishadi va talabalarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari va jahon iqtisodiyoti talablariga mos keladi. Zamonaviy mamlakatlardagi pedagogik innovatsiyalarga misollar keltiramiz:

1. Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Ko‘pgina mamlakatlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va manfaatlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan ta’lim yondashuvlarini qo’llaydilar. Bunga moslashtirilgan ta’lim dasturlari, onlayn platformalar va ma’lumotlar tahlilidan foydalanib, o‘qitishni moslashtirish va shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etish kiradi.

2. Aralashtirilgan ta’lim: Aralashtirilgan ta’lim an’anaviy yuzma-yuz sinfda o‘qitishni onlayn ta’lim bilan birlashtiradi. Bu talabalarga o‘z tezligida o‘rganish, onlayn manbalar va materiallarga kirish va shaxsiy va virtual hamkorlikda faoliyat yuritish imkonini beradi.

3. Gamifikatsiya o‘quv jarayoniga mukofotlar, qiyinchiliklar va raqobat kabi o‘yin elementlarini kiritishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

Zamonaviy mamlakatlardagi pedagogik innovatsiyalar talabalarni kelajak muammolariga tayyorlaydigan yanada qiziqarli, inklyuziv va samarali ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan. Bular turli mamlakatlarda zamonaviy o‘qitish uslublari qanday tatbiq etilayotganiga bir necha misoldir. Ushbu yondashuvlar orasida umumiy mavzu o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish, texnologiyalarni integratsiyalashuvi hamda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikka e’tibor qaratishdir.

Har qanday davlatning ta’lim tizimiga zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etishda bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu qiyinchiliklar har bir mamlakatning o‘ziga xos konteksti va sharoitlariga qarab farq qilishi mumkin. Ba’zi umumiy muammolarga duch kelishi mumkin:

1. Infratuzilma va resurslar: zamonaviy o‘qitish usullarini tatbiq etish ko‘pincha texnologiya, internetga ulanish va boshqa resurslarga kirishni talab qiladi. Ayrim mamlakatlarda, ayniqsa cheklangan infratuzilma yoki resurslarga ega bo‘lgan mamlakatlarda bu vositalar va resurslarni barcha maktablar va talabalarga taqdim etish qiyin bo‘lishi mumkin. Mamlakatimizda bunday holatlarni bartaraf etish uchun chekka tog‘li hududlardagi maktablarda internet tarmoqlari o‘rnatilmoqda.

2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish: O‘qituvchilarni o‘qitishning zamonaviy usullarini samarali tatbiq etish uchun zarur ko‘nikma va bilimlar

bilan ta’minlash zarur. O‘qituvchilar uchun tegishli tayyorgarlik va malaka oshirish imkoniyatlarini ta’minlash, ayniqsa, o‘qituvchilar soni ko‘p bo‘lgan yoki o‘qitish uchun cheklangan resurslarga ega mamlakatlarda qiyin bo‘lishi mumkin. Shuni bartaraf etish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunda belgilangan tartibga binoan kadrlarni malaka oshirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

3. Madaniy va ijtimoiy omillar: zamonaviy o’qitish usullari ba’zi mamlakatlarda an’anaviy o’qitish amaliyoti va madaniyat me’yorlariga qarshi chiqishi mumkin. O’qitish usullarini o’zgartirishga qarshilik yoki shubha bo’lishi mumkin va bu yangi yondashuvlar barcha manfaatdor tomonlar tomonidan qabul qilinishi uchun vaqt kerak bo‘lishi mumkin. Shu sababdan chet el ta’limi tajribasini O‘zbekistonga joriy etishdan oldin avvalo bir nechta maktablarga sinov tariqasida o‘tkaziladi, agarda kamchiliklar bo‘lsa bartaraf etiladi.

4. Ko‘pgina ta’lim tizimlari baholash va javobgarlik maqsadlarida standartlashtirilgan testlarga tayanadi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim va tanqidiy fikrlashga qaratilgan zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish standartlashtirilgan testlarga katta e’tibor qaratadigan tizimlarda qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan an’anaviy baholash shakllaridan voz kechishni talab qilishi mumkin.

5. Tenglik va foydalanish imkoniyati: Barcha talabalar uchun zamonaviy o‘qitish usullaridan teng foydalanishni ta’minlash, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikka ega mamlakatlarda yoki resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan chekka hududlarda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Barcha o‘quvchilarning zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash uchun ushbu tenglik masalalarini hal qilish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, har qanday davlatning ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etishda muammolar mavjud bo‘lsa-da, bu yondashuvlarning o‘quvchilar faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va ijodkorlik kabi salohiyatli afzalliklari uni izlashga arziydi. Bu muammolarni hal qilish va talabalarni zamonaviy dunyo talablariga tayyorlaydigan ta’lim tizimini yaratish uchun siyosatchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da,

biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda ta'sirchan mexanizmlarni topish, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon bo'lib, komil inson tarbiyasiga mos ravishda olib borilishi shart. Bilimlarni amaliyotda qo'llash, ya'ni amaliy masalalarni yechish bu ta'limning asosiy tamoyilidir. Ijodkorlik va innovasiya, tanqidiy fikrlash, loyihalash ishlari ham bu ta'limning asosiy xususiyatlaridir. Chunki zamonaviy jamiyat ijodiy fikrlaydigan, innovatsion qarorlar qabul qila oladigan, moslashuvchan, keng dunyoqarashga va boshqaruv ko'nikmalariga ega mutaxassislarga muhtoj [6].

Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.// www.ZiyoNet.uz.
2. M.J.Mutalipova, B.X.Xodjayev. "Qiyosiy pedagogika" // darslik.
3. X.Ibragimov, SH.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. –Toshkent, 2008.
4. H.T.Omonova, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat 99-bet.
5. J.Yo'ldoshev. "Yangi pedagogik texnologiya: yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. 1999-yil.
6. Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni rejalashtirish va amalga oshirish". Pedagogik ta'lim, –T. 2007.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta'lim sifatini oshiruvchi omillar, ta'lim sifatini oshirishda foydalaniladigan innovatsion metodlar keltirilgan, ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash ularni yangilash va ta'lim tizimini modernizatsiyalash maqsadida Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish mahalliy shart - sharoit iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyatimizda ta'lim tizimini takomillashtirishning bir nechta masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье перечислены факторы, повышающие качество образования на основе инновационных подходов, посвящено изучение опыта развитых стран мира с учетом местных условий - экономических и интеллектуальных ресурсов освещено несколькими вопросами совершенствования системы образования в нашем обществе.

SUMMARY

The article lists factors that improve the quality of education based on innovative approaches, is devoted to studying the experience of developed countries of the world taking into account local conditions - economic and intellectual resources are covered by several issues of improving the education system in our society.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KREATIV PEDAGOGIKA USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

Abduxamidov S.M.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti v.b., dotsenti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori.
Qadamova B.S.
Shivoqova R.O‘.
Xusniddinova M.S.
Ismatullayeva N.R.
Pedagogika va psixologiya ta’lim yo’nalishi 2-kurs 22/1-guruh talabalari

Tayanch so‘zlar: “Kreativ pedagogika”, turkum fanlar, innovatsion, kasbiy kamol, ontogenezining, metodologik g‘oyalari, ijtimoiy-iqtisodiy, integratsiyasi, uzluksizlik, vorisiylikni, ta’lim departamenti, stimul, muayyan, mushohada, original g‘oyalar, strategiya.

Ключевые слова: «Креативная педагогика», категория наук, инновационность, профессиональное развитие, онтогенез, методологические идеи, социально-экономические, интеграция, преемственность, преемственность, отдел образования, стимул, специфика, наблюдение, оригинальные идеи, стратегия.

Key words: «Creative pedagogy», category of sciences, innovative, professional development, ontogenesis, methodological ideas, socio-economic, integration, continuity, succession, department of education, stimulus, specific, observation, original ideas , strategy.

Zamonaviy pedagogikada “Kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi.

Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)

dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shartsharoitlar hamda inson ontogenezi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturi ishlab chiqiladi, yangi quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o‘quv yilining oxiriga kelib oliy ta’lim muassasalarida alabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu - shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti.

Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish -istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda. uning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. O‘quv mashg‘lotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi

Natija. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar.

Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari

turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. «create» yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi.

Kreativlikiqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va kreativlik qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko‘p qirrali. Shuning uchun ta’lim oluvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning milliy hunarmandchilikka va o‘quv fanlariga bo‘lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon

sanaladi. Buning uchun, “Texnologik ta’lim” fanini o‘kitishda kreativ xarakterga ega mashg‘ulotlarni tashkil etish maksadga muvofik.

Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirib, ularni yanada ko‘prok xarakat kilishga undaydi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin.

O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol

aks etishi mumkin O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsivlovchi qobiliyatini belgilaydi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Xulosa. "Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1. O'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2. O'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish, qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

"Kreativ pedagogika" fani bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service,Inc., 2004.

2. Nishonova S. Vospitanie sovershennogo cheloveka v razvitii pedagogicheskoy m'sli epoxi vozrojdeniya Vostoka: Ped. fanlari dokt. diss. avtoref. – T., 1998. – 37 b.

3. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. Bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Academik research in educational sciences (ARES), ISSN 2181-1385, volume 2, issue 4, april 2021, p.1613-1619.

4. Ernazarova G.O., Yakubova M.Yu.Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari // Pedagogicheskie i lingvopsixologicheskie osobennosti razvitiya, formirovaniya i stanovleniya lichnosti vracha, sbornik tezisov Mejdunarodnoy konferensii, Samarkand, 2021 g. 198-199 str.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kreativ pedagogika fanining zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi, shuningdek shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish ahamiyati yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается тот факт, что наука творческая педагогика является одним из приоритетов современной педагогики, а также важность развития творческих качеств в личности.

SUMMARY

This article highlights the fact that the science of creative pedagogy is one of the priorities of modern pedagogy, as well as the importance of developing creative qualities in a person.

O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIKA FANINING DOLZARB MASALALARI

O‘tayev A.Yo.
Toshkent iqtisodiyot va padagogika instituti,
Pedagogika fakulteti (PhD)

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston, taraqqiyot, stranegiyasi, pedagogika, fan, ta’lim, tarbiya, dastur ,muammo, nazariya, amaliyot, sifat, yondoshuv, malaka.

Ключевые слова: Узбекистан, развитие, стратегия, педагогика, наука, образование, воспитание, программа, теория, проблема, подход, практика, качество, подход, квалификация.

Key words: Uzbekistan, development, strategy, pedagogy, science, education, training, program, theory, problem, theory, practice, quality, approach, qualification.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi qabul qilinib, mamlakatda 2022-2026 yillarda sifatli ta’limga erishish vazifalari amalga oshirilmoqda[1]. Sifatli ta’lim konsepsiyasiga ko‘ra, bilim berish va o‘zlashtirish jarayoni butunlay yangi ko‘rsatgichlarni ifodalashi kerak. Shu jihatda mamlakatda Pedagogika faninng olidida zamonaviy vazifalar va muammolarni hal etish tarkib topdi. Bunda salkam yuz yillik ilmiy tarixga ega bo‘lgan Pedagogika fani islohotlar va yangilanishlar jarayonida turibdi. Chunki bu fan birinchidan, mamlakatda sifatli ta’limga erishishning pedagogik nazariyasi, didaktikasi va metodikasini taqdim etishi kerak; ikkinchidan, fanning o‘zida yangilanish jarayoni kechishi taqoza etilmoqda. Shu sababli o‘zbek Pedagogika fanining dolzarb masalalari pedagogik olimlar va maliyotchi pedagoglar tomonidan idrok etilishi lozim bo‘ladi. Bu o‘rinda e’tiboringizni ana shu masalaning eng muhim jihatlari tahliliga tortamiz.

1. Halqaro ta’lim dasturlarini joriy etish zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaamsining 2018 yil 21 fevraldagi 197-son Qarori bilan mamlakat ta’lim tizimiga TIMSS, PISA, PRLS va STEAM halqaro baholash dasturlari joriy etilmoqda. Shu jihatdan o‘zbek Pedagogika fani quyidagi muammodarning ilmiy-metodik yechimlarini ishlab qichishi dolzarb bo‘lib turibdi:

a) halqaro dasturlarni milliy ta’lim tizimiga joriy etish metodikasini ishlab chiqish;

b) milliy ta’lim dasturlarini halqaro dasturlarga moslashtirish mexanizmlarini yaratish;

v) ta’lim jarayonini halqaro dasturlar asosida tashkil etishning didaktik asoslarini shakllantirish;

g) ilmiy tadqiqotchilik yo‘nalishlarida halqaro dasturlar bo‘yicha nazariy va metodik tadqiqotlvarni amalga oshirish mavzularini belgilash;

d) Pedagogik fanining o‘quv dasturlarini halqaro davturlarga moslashtirish texnologiyaisni ishlab chiqish.

E’tibor berilsa, bu masalalar nazariy, metodik va amaliy pedagogik tadqiqotchilikni taqoza etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida iqtidorli talabalarni pedagogik ilimiy tadqiqotchilikka keng jalb etish zaruriyat bo‘lib turibdi. Buning uchun mamlakat oliy pedagogik ta’im muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Talabalar akademiyasi”, “Kelajak o‘qituvchisi” va “Pedagog” kabi ilmiy – tadqiqot – loboratoriya tuzilmalari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi [2]. Talabalarning bu tuzulmalari ularning tashabbuslari asosida ilmiy tadqiqotchidik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu jihatdan talabalarning o‘z tashabbuslariga ko‘ra pedagogik ilmiy tadqiqotchilikni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada an’ana bo‘lib kelayotgan talabalarga mavzular taqdim etish tajribasini takomillashtirish va ularni pedagogik ilmiy muammolarga yo‘naltirish kerak bo‘ladi. Shu ma’noda Ustoz-shogird an’anasini yangilash va unda Ustozning faqat yo‘naltirish vazifasini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bularning barchasi halqaro dasturlar bo‘yicha ilmiy ishlanmalar, metodikalar va texnologiyalarni yaratishni Pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

2.O‘quv adabiyotlarini yangilash ehtiyoji. O‘zbek Pedagogika fanida yuz yildan buyon an’anaviy shakllarda o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va o‘quv-uslubiy majmualar yaratish hamda ta’lim jarayonida foydalanish amalga oshirilib kelmoqda. Biroq, mamlakatning innovaesion rivojlanish konsepsiyasi qabul qilinib, amaliyotga joriy etila boshlagach Pedagogika fanida ham o‘quv adabiyotlarini yangilash, metodikani takomillashtirish va o‘quv adabiyotlarining zamonaviy turlarini ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Bu masalalar juda kamchilik pedagogik olimlar tomonidan idrok etilmoqda. Ayni paytda, oliy pedagogik ta’lim jarayoni innovatsion xarakterdpgi o‘quv adabiyotlarni yaratishni tabiiy ravishda taqoza

emoqda. Shu jihatdan o‘zbek Pedagogika fani oldida quyidagalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi:

a) elektron va djayjest kabi zamonaviy hamda yangi turdagi o‘quv adabiyotlarini yaratish;

b) o‘quv adabiyotlarining dasturlari, mavzulari, ma’lumotlari va ifoda metodikasini yangilash;

v) Pedagogika fanining milliy va halqaro ta’lim dasturlarini uyg‘unlashtirgan yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish;

g) har bir o‘quv yili boshida Pedagogika fanining yangilangan va takomillashtirilgan o‘quv adabiyotlarini qo‘llash amaliyotiga o‘tish;

ye) mamlakatda va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tajribali pedagoglarni Pedagogika fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yaratish ishiga jalb qilish.

Diqqat qilinsa, bu masalalar Pedagogika fani tomonidan tezkor ravishda hal etilishini taqoza etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilarning o‘quv adabiyotlarini yaratish ishlarini muafiqlashtirish maqsadga uvofiq bo‘ladi. Buningg uchun mamlaka hudularidagi oliy pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv adabiyotlarini yaratish bo‘yicha faoliyatini birlashtirish va yagonalashtirish maqsadga uvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda mamlakatda yangi avlod o‘quv adabiyotlari yaratish bo‘yicha pedagogik, ijtimoiy va metodik imkoniyatlar mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Chunki mamlakat oliy pedagogik ta’lim muassasalari zamonaviy binolar, yuksak darajadagi axborot-resurs manbalari, Internet jahon axborot tarog‘i, tadqiqotchilik tajribasi kabi keng imkoniyatlarga ega. Bunda faqat yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishni tashkiliy va moliyaviy jihatdan yo‘lga qo‘yish taqoza etiladi. Shu ma’noda zamonaviy keng e’tirof etilgan pedagogik o‘quv adabiyotlarini yaratgan pedagogik kadrlarga ilmiy darajalar va unvonlar berish amaliyotini yo‘lga qo‘yishning vaqti kelganligini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Yangi ta’lim turlarining metodikasini yaratish. Dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatilganidek, O‘zbekistonda ham COVID-19 kabi pandemiyaning murakkab sharoiti ta’limning noar’anaviy va yangi turlarini amaliyotga joriy etishni taqoza etdi. Shu jihatdan ko‘p asrlik an’anaga ega o‘zbek Pedagogika fani ijtimoiy murakkabsharoitlarda ta’lim va tarbiya berish sinovidvn larzalar bilan o‘tganligini eslatib o‘tish joiz. Bunda ilg‘or o‘qituvchilarning individual tajrialari qutqaruvchi omil bo‘lganligini alog‘ida ta’kidlash lozim. Shu ma’noda bugungi kunda o‘zbek Pedagogika fani oldida quyidagi vazifalar o‘tkir bo‘lib turibdi:

a) masofaviy ta’lim, mustaqil ta’lim kabi ta’limning yangi turlari bo‘yicha didaktik asoslar, metodik omillar va texnologiya majmualarini yaratish;

b) masofaviy ta’lim va mustaqil ta’lim sharoitida shaxsni tatbiyalash nazariyasi, metodtkasi va texnologiyasini ishlab chiqish;

v) ink4hlyuziv ta’limning yangi avlod o‘quv adabiyotlarinm yaratish va unda elektron nusxalarining amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

g) katta yoshlar ta’limi bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlarini yaratish hamda ulardakatta yoshlilar Pedagogikasi qonuniyatlarini aks ettirish;

ye) dual ta’lim nazariyasi, didaktikasi va metodikasini ishlab chiqish.

Diqqat qilinsa, bu masalalarni hal etish o‘zbek Pedagogika fanini yangilaydi va uning asoslarini boyitadi. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur fan rivojlanishning bosh yo‘lida turibdi. Buning uchun eng zaruriy va birlamchi muammolarni hal etish ishidan boshlash muhim aahmiyatga egadir[3].

4. Professional pedagog kadrlar tayyorlash zaruriyati. Mamlakatda iqtidorli va professional pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi ta’lim siyosatining ustuvor masalalardan biri sifatida belgilangan. Bunda asossiy e’tibor ta’lim tizimini oliy ma’lumotli professional pedagogik kadrlar bilan qamrab olishga varatilmoqda. Shu sababli mamlakatda yigirmaga yaqin oliy pedagogik ta’lim muassasi faoliyat yuritmoqda va ularda kunduzgu, kechki, sirqi hamda mustaqil ta’lim turlari amal qilmoqda. Ayni paytda, proqessional pedagog kadrlar tayyorlash maasalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu jihatdan o‘zbek Pedagogika fani oldida quyidagilarni hal etish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz:

a) o‘quvchilar orasidan iqtidorli bolalarni pedagogika kasbiga yo‘naltirish va tanlab olish metodikasini ishlab chiqish;

b) pedagogik kadrlar tayyorlashning an’anaviy ta’lim jarayonini yangilash va bunda amaliyotga joriy etilayotga 4+2 tizimi (haftaning 4 kunida oliy pedagogik ta’lim muassasasida nazariy bilim olish va 2 kunini ta’lim muassasasalarida amaliyot o‘tash)ning metodikasini ishlab chiqish hamda uni texnologik jihatdan takomillashtirib borish;

v) iqtidorli talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini yaratish;

g) pedagogik ta’lim jarayoniga xorijiy tajribalarini tadbiq etishning pedagogik assolarini iglab chiqish;

ye) milliy pedagogik ta’lim tajribasini ommalashtirish.

E’tibor berilsa, mazkur masalalarni hal etish o‘zbek Pedagogika fanining ahamiyatini yuksaltiradi va mamlakatda professional pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni kuchayadi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘yicha pedagoglar uyushmasi faoliyatini tashkil etish maqsadga muofiq bo‘ladi.

O‘zbek Pedagogika fanining mazkur dolzarb masalalari zamonaviyligi va tezkor ravishda hal etilishi xuussiyatlariga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bunda iqtidorli yoshlar va pedagogik kadrlarning ilmiy-amaliy hamkorligini kuchaytirish taqoza etiladi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek Pedagogika fani nihoyatda boy pedagogik me’ros va tajribaga ega. Misol uchun, birgina o‘rta asrlarda yaratilgan pedagogik me’ros olitn fond bo‘lib, pedagogik ilmiy tadqiqotchilikning poydevori hisoblanadi[4]. Chunki bu me’rosda pedagogik ilmiy tadqiqoqchilikning nazariyasi, metodologiyasi va amaliyoti uchun muhim qarashlar, yondoshuvlar, ma’lumotlar va metodikalar o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan pedagogik me’rosimiz bugungi kunda o‘zbek Pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal etishda tayanch vazifani bajaradi.

Shunday qilib Pedagogika fanimizning bugungi dolzarb masalalari mazkur fanning yangilanish va takomillashi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalalar idro etilishi va ularning yechimini topishga kirishilishi dolzarb bo‘lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.//www.gogle.uz.

2. O‘tayev A.Y.Bo‘lajak o‘qituvchilarda siyosiy tarbiya ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik asolari.-Toshkent, 2023

3. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan elektor-didaktik ta’minotni ishlab chiqish texnologiyasi.-Toshkent, 2021

4. O‘zbek pedagogikasi ensiklopediyasi. 2 Tom.-Toshkent, 2018

РЕЗЮМЕ

Maqola O‘zbekistonda Pedagogika fanining dolzab masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan va ushbu masalaga doir muallifning individual yondoshuvlari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье размышляются важные вопросы педагогики Узбекистана и описывается индивидуальный подход автора к этому вопросу.

SUMMARY

The article reflects on the important issues of Pedagogy in Uzbekistan and describes the author’s individual approach to this issue.

АДАБИЙ ТАЪЛИМНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МУАММОСИНИНГ ПЕДАГОГИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ЎРГАНИЛИШ ТАДРИЖИ

Ачилова Э.С.
ЧДПУ Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси ўқитувчиси

Таянч сўзлар: адабий таълим, адабиёт ўқитиш методикаси, адабий таълимни такомиллаштириш технологияси, адабий таълим мазмуни, шакли ва воситалари.

Ключевые слова: литературное образование, методика преподавания литературы, технология совершенствования литературного образования, содержание, форма и средства литературного образования.

Key words: literary education, methods of teaching literature, technology for improving literary education, content, form and means of literary education.

Мустақиллик йилларининг биринчи декадаси мактаб таълимини тубдан ислоҳ қилиш ишлари билан бошланган бўлса-да, адабий таълимнинг сустлашуви жадал давом этганлигининг гувоҳи бўламиз. Бу ҳол синфдан синфга ўтувчи имтиҳонларнинг олиб ташланиши, она тили ва адабиёт дарсларига ажратилган соатларнинг камайтирилиши билан изоҳланади. Адабиёт, унинг ўқитилишига бўлган эътиборнинг камайиши ўзбек халқи, миллатини рус файласуфи В.Непомняший таъбири билан айтганда, “аҳоли”га айлантирди. Адабиёт ўқитувчисининг эндиги вазифаси янги ижтимоий шароитда тарбия олаётган замонавий ўқувчига унинг индивидуал қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда миллий қадриятларимиз – бадиий асарларни тушуниш, англаш ва шу асосда ўз ҳаётий позицияларини белгилашларига ёрдам беришдан иборатдир. Ўқувчи китоб ўқиймай қўйган, дея умумий ҳолатга қараб хулоса чиқариш тўғри эмас. Бир синфда турли хил ўқувчилар ўқийди. Баъзилари ёзги таътилдаёқ барча бадиий адабиётни ўқиб чиқиб, ўзини қизиқтирган саволларга жавоб олишни кутадилар, афсуски, баъзилари асар билан юзаки танишиш учун ҳам алоҳида рағбатга муҳтож. Бизнингча, замонавий адабий таълимнинг муаммоли нуқтаси ҳам айнан шу ерда. Адабиётшунос Озод Шарафиддинов адабиёт ўқитувчисининг биринчи галдаги вазифаси ўқув-

чиларда бадиий мутолаага бўлган қизиқишни уйғотишдан иборат, деганда ҳақ эди. Синфдаги барча ўқувчини мутолаа жараёнига жалб қилиш учун адабиёт ўқитишни қандай ташкил этиш масаласи ўқитувчи олдида турган муҳим маммолардан биридир.

Маълумки, адабиёт ўқитиш методикасини мустақил фан сифатида XX аср бошларида таркиб топди. Фанга доир назарий қарашлар рус адабиёт ўқитиш методикаси асосчилари Ф.И.Буслаев, В.Г.Белинский, Н.Г.Чернишевский, Н.А.Добролюбов, В.Я.Стоюнин, В.П.Острогорский, М.А.Рибникова, В.В.Голубков қарашлари асосида юзага келди.

Ф.И.Буслаевнинг "Ватан тилини ўқитиш ҳақида" номли рисоласи умумий адабиёт ўқитишнинг назарий асосини ташкил этади. Методист олимнинг қарашларида ўқитиш методида индукциянинг зарурлиги, дастлаб конкрет материални ўрганишни, сўнгра назарий умумлаштиришни тавсия қилиши билан замонавий адабиёт методикасида муҳим аҳамиятга эга.

Ўз қарашларида адабиётнинг ижтимоий ва тарбиявий аҳамиятини тўғри ёритиб берган, рус адабиётшунослиги, адабиёт ўқитиш методикаси, адабий танқид соҳаларида дадил тадқиқотлар олиб борган В.Г.Белинскийнинг қарашлари, шубҳасиз, адабиёт ўқитишда ҳозирги кунга қадар янгича ёндашувларнинг пайдо бўлишига турки бўлмоқда.

В.Г.Белинскийнинг адабиёт ўқитишга доир энг муҳим қарашлари унинг бадиий асар шакли ва мазмуни бирлигини сақлаган ҳолда таҳлил этиш, шу орқали асарга тўғри баҳо бериш мумкинлиги ҳақидаги фикрларидир. Танқидчи олим бадиий асарларнинг тарбиявий аҳамиятига ҳам алоҳида тўхталиб ўтиш баробарида бадиий асар таҳлили усулларини ишлаб чиққан.

Замонавий адабиёт методикасига В.Я.Стоюниннинг амалга оширган тадқиқотлари ҳам мустаҳкам замин вазифасини ўтайди. Методист олимнинг "Рус адабиётини ўқитиш ҳақида" номли китобида фақат табиат ва инсонга тегишли бўлган ҳақиқий билимни ўқувчига етказиш; уларнинг "тафаккур кўникмалари ва яхши муҳокамаларини", инсонпаварлик, "муҳаббат ва ҳақиқатга интилиш", ватанга муҳаббат, эстетик туйғуларини ўстириш; меҳнат малакасига одатлантириш каби адабиёт ўқитишнинг вазифаларини санаб ўтилганлиги замонавий методиканинг асосий вазифалари билан уйғунлик касб этган.

Адабиёт ўқитиш методикасида амалга оширилган муҳим ишлар қаторида В.П.Острогорскийнинг фикрлари ҳам ўз қимматига эга эканлигини таъкидлаш жоиз. В.П.Острогорский тадқиқотларида ўқувчиларни ахлоқий-эстетик тарбиясида поэтик образларнинг руҳий кечинмаларини таҳлилга тортиш зарурлиги ҳақидаги қарашни илгари суради.

Мактабда адабиётдан машғулотларни тизимлаштиришнинг асосий дидактик қоидаларини ишлаб чиққан методист олимлар М.А.Рибникова ва В.В.Голубковлар ўқитиш методини ҳозирги замонавий ўқитиш талабларига хос психологик қонун билан асослашга ҳаракат қилишади. М.А.Рибникова ўзининг "Очерки по методике литературного чтения" китобида ўқитувчи маҳоратини мураккаб фикрни содда қилиб, янги нарсани ўқувчига танишдек тушунтириб беришда дея эътироф этган. Бу фикрлар янгича ёндашувни талаб этаётган замонавий методикага тегишли эканлиги билан аҳамиятли.

В.В.Голубковнинг ишларида бадиий адабиёт – борлиқни билишнинг кучли қуроли эканлиги айтилади. Бу икки олим ҳам таълимда мавжуд ҳаммабоп методлардан воз кечиш, ўқитувчининг дарси мураккаб педагогик ва ижодий жараён сифатида талқин қилиниши кераклигини айтиб ўтишган. Уларнинг фикрига кўра адабиёт дарслари ўқитувчидан машғулотга ижодий жараён сифатида қараш, ўқувчиларда бадиий дид ва савияни кўтариш, ҳаётнинг бадиий инъикоси бўлган асарларни ўқитишда муайян қолипга тушган ёндашув ва методлар атрофида ўралашиб қолмаслик талаб қилинади.

Умуман олганда, рус олимлари томонидан асос солинган адабиёт ўқитиш методикаси борасидаги фундаментал қарашлар ўзбек адабиётини ўқитиш методикасининг шаклланиши ва ривожланишида андоза вазифасини ўтайди.

Ўзбек адабиётини ўқитиш масалаларини тадқиқ этиш русларникига қараганда бирмунча кеч шаклланди.

Ўзбек адабиётини ўқитиш муаммолари юзасидан Миллий уйғониш даври намоёндалари бўлмиш Абдурауф Фитрат, Абдулла Қодирий, Абдулла Авлоний, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Абдураҳмон Саъдий кабиларнинг "Адабиёт қоидалари", "Адабиёт парчалари", "Гўзал ёзғичлар", "Амалий ва назарий адабиёт дарслари", "Тил саботлиги" каби асарларида ўша давр методикасининг етакчи тенденцияларини ўз аксини топган.

Миллий уйғониш даври адабиёт ўқитиш методикасида Абдулла Авлоний томонидан тузилган "Адабиёт" I ва II жузъларида ўқувчиларни аруз вазнидаги шеърлар ва уларни ифодали ўқиш техникаси билан таништириш кўзда тутилган, бу ўз навбатида мумтоз адабиётни англаш йўлидаги биринчи қадам ҳисобланади. Бу биринчи қадамни қўйиш масалалари замонавий методиканинг ҳам долзарб муаммолари қаториги киради. Авлоний тартиб берган "Мактаб ва Гулистон" дарслигида ифодали ўқишнинг якка ва кўпчилик бўлиб ўқиш, ифодали ўқиш, диалог, драма ҳолига келтириб ўқиш турларини ажратиб кўрсатдики, буни ўз навбатида методика соҳасида амалга оширилган илк тадқиқот сифатида талқин қилиш мумкин.

Замонавий методика муаммоларига ечим вазифасини ўташи мумкин бўлган тадқиқотлардан бири Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий томонидан олиб борилган изланишлардир. Методист сифатида Ҳамза ифодали ўқиш, матн устида мустақил ишлаш, синфдан ташқари ўқишни ташкил этиш усулларни ёритди. Қисқа давр фаолият юритган "Усули савтия" мактабларида адабиёт дарслари "изоҳли ўқув" методи асосида ташкил этилганлиги ҳам эътиборга лойиқ.

1918 йилда ташкил этилган "Макотиб" методик бирлашма сифатида фаолият юритган уюшмада ҳам замонавий методикага алоқадор бир қанча масалаларни ҳал этишга ҳаракат қилинди. Жумладан, дарсда адабиёт қонунларини ёритишга, ёзувчи ижодини аниқ тарихий шароит билан боғлиқ ҳолда, унинг асарларини шакл ва мазмун бирлиги асосида ўрганиш йўлга қўйилдики, бу методик ёндашув ҳозиргача ўз "оҳори"ни тўкмаган.

Илк методик қарашлари билан ўзбек адабиётини ўқитиш методикасига Абдураҳмон Саъдий муносиб ҳисса қўшган. Амалга оширилган асосий ишлар қаторига 1922 йилда А.Саъдий томонидан тузилган ўқув юртлари учун тузилган она тили ва адабиёт дастурини киритиш мумкин. Дастур ўзида ўзбек адабиётни даврлаштиришнинг илк намунасини акс эттириши билан қадрли.

А.Саъдий ҳозирги замон ўзбек адабиётини ўқитишнинг долзарб муаммоларидан бўлган мумтоз адабиёт намуналари, хусусан, лирикани ўқиш ва тушуниш усулларини ёритиб берган. Олимнинг баён этган ўқитиш методлари ҳозирги кунга қадар ифодали ўқиш дарсларида қўлланиши мумкинлиги билан аҳамиятга молик.

А.Саъдий ўзининг "Амалий ва назарий адабиёт дарслари" китобида ёзувчилар ижодига муносабат билдириш билан бирга адабий оқимлар ҳақида ҳам тушунча бериб кетиши ўз даврида адабиёт ўқитиш методикасида янги ҳодиса сифатида эътироф этилган.

Бадиий асарнинг лингвопоэтик таҳлили номли таҳлил тури А.Саъдий томонидан "Адабий-бадиий усталик техникаси"дея юритилиб, унда адабиёт дарсларида асар тилини ўрганиш кўзда тутилган.

1930-40-йилларда ҳам адабиёт методикасида янгича ёндашувлар кузатилди. Хусусан, Иззат Султоновнинг "Адабиёт назарияси" дарслигида бугуни кун методикасида ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган дидактик материаллар – савол ва топшириқлар устида ишлаш билан боғлиқ масалалар тизимлаштирилди.

1970-80-йиллар адабиёт ўқитиш методикасида муҳим ёндашув – адабиётни бошқа гуманитар фанларга боғлаб ўрганиш методикаси, яъни инте-

грацион методика йўналиши майдонга келди. Бу соҳада илк тадқиқотлар А.Зуннунов, А.Алиевларга тегишли.

2000-йиллардан бошлаб адабиёт ўқитиш билан боғлиқ методик ишлар янги босқичга кўтарилди. Боқижон Тўхлиев томонидан яратилган "Адабиёт ўқитиш методикаси" ўқув қўлланмаси бунинг ёрқин далилидир. Мазкур қўлланмада шу давргача яратилган жамики методик қарашларнинг жамланмаси ўз аксини топган. Қўлланмада адабий асарни жанрий хусусиятларига кўра ўрганиш масалалари батафсил ёритилган.

Мантиқий тафаккурга асосланган фаолиятни ташкил этиш масалалари дастлаб антик даврга доир адабий ҳамда илмий манбаларда келтирилган. Бу фаолият тури файласуфлардан ташқари бошқа соҳа вакилларининг ҳам тадқиқот объектига айланган. Адабиёт таълимида мустақил фикрлаш, унинг ўқитишда тутган ўрни тилга олинган "Адабиёт ўқитиш методикаси" дарслигида атрофлича баён этилган. Жумладан, адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишда дарс шаклини аниқлаб олиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги, бунда ўқув материалининг мазмуни, ҳажми, дарснинг ўз олдига қўйган мақсадлари ва қийинлик даражасини белгилаш; материалнинг ўқувчи ҳаётий тажрибаси, илгари ўзлаштирган билими ва ақлий-амалий фаолияти билан алоқасини ўрнатиш; ўқувчининг мустақил ишлари ва ўқув топшириқлари тизимини аниқлаш; дарснинг жиҳозларини, ахборотларнинг асосий ва қўшимча манбаларини ўрнатиш муҳим эканлиги далиллаб берилган.

Умуман, адабиёт ўқитиш методикаси фан сифатида ўзи тараққиёт тадрижига эга.

Адабиётлар:

1. Адабиёт ўқитиш методикаси. /С.Долимов, Ҳ.Убайдуллаев, Қ. Ахмедов/ - Тошкент: "Ўқитувчи", 1967.

2. М.А.Рибникова "Очерки по методике литературного чтения".-М.:1963.

3. Адабиёт ўқитиш методикаси. /А.Зуннунов, Н.Ҳотамов, Ж.Эсонов, А.Иброҳимов/ - Тошкент: "Ўқитувчи", 1992.- 37-бет.

4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: 2018 й.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада адабий таълимни такомиллаштириш муаммосининг рус ва ўзбек педагогикасида ўрганлиши ва унинг тадрижий тараққиёти ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описывается исследование проблемы совершенствования литературного образования в русской и узбекской педагогике и ее поэтапное развитие.

SUMMARY

This article describes a study of the problem of improving literary education in Russian and Uzbek pedagogy and its phased development.

INDIVIDUAL YONDOSHUV ORQALI TALABALAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Meylieva M.S.
CHDPU Pedagogika fakulteti tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: talabalar motivatsiyasi, individual yondoshuv, bo‘lajak kasbdan qoniqish, zamonaviy yoshlar psixologiyasi, yo‘naltiruvchi mavqe.

Ключевые слова: мотивация студентов, индивидуалный подход, удовлетворенност будущей профессией, психология современной молодежи, руководящая позиция.

Key words: motivation of students, individual approach, satisfaction with their future profession, psychology of modern youth, leadership position.

O‘zbekistonda oliy pedagogik ta‘limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish masalasiga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Bundan maqsad Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida sifatli ta‘limga erishishdir. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi mana shunday turli yondashuvlarning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida yangi yondashuv va standartlarning joriy etilishi ta’lim sifati va samaradorligini ortishiga olib keladi hamda talabalarning rivojlanishi uchun ijtimoiy pedagogik vaziyatlarni yaratadi, ular uchun ahamiyatga ega bo‘lgan, yosh xususiyatlariga mos keladigan omillarni ta’limda namoyon bo‘lish va ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashini ta’minlaydi.

OTMlarda zamonaviy talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan yangicha yondashuv va standartlarning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri individual ta’lim jarayonidir. Individual ta’lim ijtimoiy yo‘naltirilgan ta’limning tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan texnologik omillarga muvofiq tashkil etiladigan, maqsad va mazmun uyg‘unligini ta’minlaydigan pedagogik yondashuv kombinatsiyasini muvofiqligini yuzaga chiqaradi.

Individual yondashuv pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo’lib, u barcha bolalarni dastur materialini o’zlashtirish uchun faol mehnatga jalb

qilishga yordam beradi. Individual yondashuv ta’lim jarayonlarining barcha bug‘unlarida muhim pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim oluvchiga xos bo‘lgan tipologik xususiyat, temperamenti va xarakteri, qobiliyati va moyilligi, motivi, qiziqishi va shuningdek shaxsga xos bo‘lgan boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish va tarbiyalash tamoyillariga muvofiq ta’lim dasturlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Ta’limda individual yondashuv ta’lim oluvchini har jihatdan o‘rganish va unga pedagogik ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydigan omil bo‘lib, ta’lim oluvchiga o‘zini anglash, individual yo‘nalganligini aniqlashtirish, etakchi o‘quv faoliyatini motivlashtirish, o‘z imkoniyatlarini baholash, ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish, amaliyotda ichki ziddiyatlar natijasida yuzaga keladigan ruhiy azoblarni engib o‘tish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish va malakani oshirishda boshqa etakchi ta’lim texnologiyalaridan samarali natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Rus va xorijiy ilg’or pedagogikaning ko’plab vakillari bolalarni tarbiyalashda individual yondashuv muammosiga e’tibor berishdi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi qoidalarida bolalarni o’qitish va tarbiyalashning butun jarayoni ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi va tizimli kuzatishlar orqali ushbu xususiyatlarni aniqlash kerakligi aniq ko’rsatilgan.

Ajoyib rus o’qituvchisi K.D.Ushinskiy bolalarga individual yondashish usullarining keng uslubini, yaxshi odatlarni rivojlantirish bo’yicha profilaktik ish asoslarini ishlab chiqdi. Shu bilan birga, u bolaga individual yondashishning murakkab jarayonida biron bir aniq retseptlar berish mumkin emasligi haqidagi fikrni bildirdi va shu bilan muammoni hal qilishning ijodiy xususiyatini ta’kidladi.

Shunday qilib, E.N.Vodovozova bolaning xatti-harakatlarini har tomonlama tahlil qila olishi uchun pedagoglar va ota-onalarning psixologiya va fiziologiyasining ilmiy asoslarini bilish zarurligini ko’rsatdi. Bolalarni tarbiyalashda u mehnatga katta o’rin ajratdi, uni eng samarali, eng yaxshi tarbiya vositasi deb bildi. Shu bilan birga, u istisnosiz barcha bolalarga yaqinlashish uchun yagona qoidalarni ishlab chiqish mumkin emasligi haqida ogohlantirdi, chunki bolalar o’zlarining individual xususiyatlarida juda farq qiladi.

A.S.Makarenko bir qator pedagogik muammolarni hal qilishda, masalan, bolalar jamoasini tashkil etish va tarbiyalashda, bolalarni mehnat tarbiyasida, o’yinda bolalarga individual yondashish tamoyilini juda muhim deb hisobladi. U shaxsni tarbiyalashning umumiy dasturini amalga oshirishda o’qituvchi unga bolaning individual xususiyatlariga mos ravishda «tuzatishlar» kiritishi kerak degan xulosaga keldi. Shaxs xarakteridagi umumiy va xususiylik bir-

biri bilan chambarchas bog‘lanib, “chigal tugunlar”ni hosil qiladi. Ushbu ta’rif bilan A.S. Makarenko bolalarga individual yondashuvning murakkabligini ta’kidladi. U ta’lim va tarbiya jarayonida bolaning ijobiy fazilatlariga e’tibor qaratish zarur deb hisoblardi - bu umumiy ta’lim tizimidagi va bolalarga individual yondashishning asosiy tayanch nuqtasidir. Shuning uchun har bir bolada, birinchi navbatda, xarakter va xatti-harakatlarning ijobiy tomonlarini aniqlash va shu asosda uning o’z kuch va imkoniyatlariga bo’lgan ishonchini mustahkamlash kerak. Ta’lim juda yoshlikdan shunday bo‘lishi kerakki, unda ijodiy faollik, faollik, tashabbuskorlik rivojlanadi.

Individual yondashuv talabalarni kasb tanlashga ijobiy (pozitiv) motivlarini shakllantirishda shuningdek, oila va maktab, mahalla va jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa tuzilmalar yaxlit tizim sifatida bir maqsad atrofida uyushishlari lozim.

Uzluksiz ta’lim tizimida individual yondashuv asosida kasb-hunarga yo‘naltirish har bir o‘quvchiga o‘zligini anglash va o‘ziga xosligi asosida ham hayotiy, ham kasbiy istiqbolini belgilashda yordam beradi.

Kasbga yo‘naltirish jarayoniga amaliy-psixologik texnologiyalarni tatbiq etish bilan shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi va kasbiy istiqbol rejasini belgilashi uchun bevosita ijtimoiy psixologik sharoit yaratiladi. Bu faoliyat samaradorligini oshirishning zarur omillaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida alohida insonning bir qarashda sof individual tanlovi yotadi. Shunday ekan, birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim.

Individual yondoshuv orqali talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirish uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, ularni kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakillantirish, respublika iqtisodiyoti tarmoqlari uchun zarur mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlaydi. Shu bois o‘quvchilarga maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasb bo‘yicha ijodiy fikraydigan, tashkilotchilik hamda tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashda hamda o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlashda ularga ko‘maklashish zarur.

Hozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki ehtiyojga kata ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq-atvorini bir muncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Shuning bilan birga o‘quvchi (talaba) da barqaror bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e’tibor qilinadi. Darhaqiqat, barqaror bilishga qiziqishlar qo‘zg‘atuvchi turtki (kuch)

sifatida o‘quv motivlarini vujudga keltirib, muvaffaqiyatni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug‘ilishi ko‘p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi.

Ma’lumki, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta’sirida vujudga keladi va etarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta’minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart.

Bo‘lajak o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini innovasion yondashuv asosida rivojlantirish to‘g‘risidagi yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish quyidagi asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi:

birinchidan, kasbiy kompetensiya o‘qituvchilarning innovasion va o‘quv faoliyati bo‘lib, pedagogik faoliyat sifatining ko‘rsatkichidir;

ikkinchidan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat yakuniy, balki o‘qituvchilar va talabalarning o‘quv jarayonida innovasion yondashuv asosida o‘zgarishi jarayonida uchinchidan, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi o‘qituvchining tafakkurini shakllantirish jarayoniga ta’sir qiladi. Oddiy qoida shundan iboratki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalar yangi bilimlarni egallaydilar, so‘ngra noan’anaviy usullardan foydalanish orqali olingan bilimlar mustaqil tahkilashtirish kerak.

a) Hamkorlikda kasbiy-kasbiy faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilar- qo‘shma kasbiy va uslubiy faoliyat: kasbiy va uslubiy faoliyatning ushbu turi o‘qituvchi va talabaning bevosita o‘zaro ta’siri bilan tashkil etiladi, o‘qituvchi talabalarga mustaqil uslubiy faoliyatni amalga oshirishda amaliy yordam beradi, ma’lum ko‘rsatmalar, maslahatlar beradi, shu asosda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi;

– o‘qituvchi: kasbiy, uslubiy va pedagogik faoliyati davomida talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha o‘quv materiallari va ularning mazmuni bo‘yicha mustaqil ishlar va vazifalar tayyorlaydi va ularni bajarish uchun talabalarga tegishli uslubiy ko‘rsatmalar beradi; - talaba: o‘qituvchi ko‘rsatmalari asosida mustaqil kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Amaliy ish usullari, vositalari va shakllarini o‘qituvchi bilan kelishgan holda tanlaydi, amaliy ish va ijodiy vazifalarni bajaradi;
– usullar, shakllar, vositalar: o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mustaqil ish usullari, vositalari va shakllaridan foydalanish asosida talabalar texnologik jarayonlar va texnik ob’yektlarga oid topshiriqlarni mustaqil tanlaydilar va ijodiy

bajaradilar;

– o‘qituvchi nazorati: o‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan harakatlarni tahlil qiladi. Talaba kasbiy-uslubiy ishlar jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlaydi, amaliy ish metodlarini namoyish yetadi.
– tuzatish: o‘qituvchi tomonidan aniqlangan xatolar bartaraf etiladi va amaliy ishning eng yaxshi usullari ko‘rsatiladi;
– natija: bitiruvchilar ko‘rsatmalar asosida mustaqil ishlay oladigan, ijodiy fikrlaydigan, jarayon va ishlanmalarni samarali amalga oshiradigan malakali mutaxassislar bo‘ladi.

b) Individual tarzda kasbiy-kasbiy faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilari:

– individuallik: talaba kasbiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishda olingan bilim, ko‘nikma va malakalardan foydalangan holda individual oladi;
– talaba: olingan vakolatlar asosida mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Kasbiy va uslubiy faoliyatni amaliy faoliyatiga mos ravishda amalga oshirishi, shakl, usul, vositalarni tanlashi;
– motivlar: talaba o‘z xohish-istaklari, ma’naviy ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasbiy-uslubiy faoliyatni amalga oshira oladi. Iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy ob’yektlarni imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlaydi va tegishli masalalar yechimini topadi; - o‘z-o‘zini nazorat qilish: talaba o‘quv jarayoni bilan

bog‘liq kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga tanqidiy munosabatda bo‘lib, xatolardan xulosa chiqaradi. Mustaqil faoliyat samaradorligini

oshirish uchun maqbul usullardan foydalanadi; - ijodkorlik: talaba o‘z xulosalari

asosida kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirishda sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshiradi;

– natija: talaba o‘zining intellektual qobiliyati va uslubiy qobiliyatiga muvofiq kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirishga qodir, ijodiy fikrlashga ega, jarayonlar va pozisiyalarni mustaqil tanlaydi, mustaqil ijodiy ish olib boradi. ga innovasion yondashuv va interfaol metodlar avvalo pedagog ongida qaysidir bir yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi. Har bir yondashuv alohida fan, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi. Hozirgi paytda metodlar o‘zgarishining haqqoniy zamini ishlab chiqarish jarayonlaridagi ko‘pgina kasbdagi ishchilar mehnatining mazmuni va xarakterining

kompleks mexanizasiyalash va avtomatlashtirish sur'atining oshishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan o'quv jarayonini jadallashtirish (talabalar ning murakkablashgan mazmunini egallay olmaydilar), ko'nikmalarni maqsadga yo'nalgan holda shakllantirish, faollik, tashabbus ko'rsatish imkonini beruvchi yondashuv va kasbiy usullarni qo'llash zarurati yuzaga keladi. metodlarini tanlash turli sharoitlarga bog'liq. Bu - tarbiya masalalari, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'quv materialining mazmuni, ularning yoshi va xususiyatlari hamda moddiy-texnik bazasi bilan izohlanadi. da turli metodlardan foydalanish zarur, lekin ularning maqsadga yo'nalganligini hisobga olish kerak. Hech qanday metod asosiy va universal bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga amaliyotda yetarli sinovdan o'tmagan metodlarni qo'llash o'rinsizdir. metodlarini tanlashda quyidagi holatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

– ish joyida yuqori lik, yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan kelajakdagi mutaxassislarning mahorati va madaniyatini o'zlashtirish;
– ularga ishga ijobiy va ijodiy munosabatni rivojlantirishga yordam berishi kerak;
– jarayoni talabalarning unumli mehnatiga asoslanishi kerak;
– tanlangan usullarning vazifasi talabalarning faolligini, aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga ilg'or ishlab chiqarish fazilatlarini singdirishdir;
– o'qitish usullari shunchalik xilma-xil bo'lishi kerakki, ular birlashtirilganda talabalarni texnologik jarayonni rejalashtirishga, ishlarini nazorat qilishga o'rgatish mumkin;
– ishlab chiqarish metodlarining operasion-kompleks tizimiga mos bo'lishi va talabalar tomonidan alohida usul hamda operasiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, ushbu usullar va operasiyalar keng qamrovli ishda birlashtirilishini ta'minlash ham muhimdir;
– metodlar talabalarning ma'lum bir kasbga xos bo'lgan barcha ishlarni mustaqil va samarali bajarish qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
– myetodlar ishlab chiqarish i bilan ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o'rganish o'rtasidagi hayotiy aloqani doimo amalga oshirishi; o'quv jarayonida ishlab chiqarishi va didaktikaning umumiy tamoyillarini amalga oshirishi kerak.»rezonansi» innovasion yondashuvi o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari, o'qitish va o'rganishga qaratilgan aniq harakatlar, harakatlar va usullar to'plami sifatida amaliyotga joriy etildi. Mavjud tarbiyaviy vaziyatga qarab

o‘qituvchi doimo ijobiy o‘zgarishlarni izlaydi va zarur vaqtda har bir talaba yoki talaba uchun alohida-alohida kuch jihatidan zaif lekin, rezonans xarakterli “to‘lqinli, aks ta’sirli” pedagogik ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun esa talabaning pedagogik jarayondagi harakatining yo‘nalishi va darajasini pedagogik anglab yetishi lozim.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: «O‘zbekiston», 1992.-46 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xaqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. –104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b.
7. Raxmanova M.Q. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
8. Rakhmanova M. Q. Features of Development of Social Competence of Students // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X2021 Journal Impakt Faktor:8.2, 2023, - 130-137 b
9. Rakhmanova M.K. Formation of development of sosial astivity in students // International Journal on Integrated Edusation 2021 Journal Impakt Faktor:7.242 2021, - 241-244 b
10. Rakhmanova Mukaddas. “Scientifik and pedagogisal bases of preparation of students for development of sosial astivitu in the prosess of professional and pedagogisal edusation” // Volume: 7 Issue: 11 November 2021 SJIF Impast Fastor 2021: 8.047|| ISI Value: 1.188. 2021 EPRA IJMR | www.eprajournals.som | Journal DOI URL: https://doi.org/10.36713/epra2013 B.283-287.
11. Raxmanova M.Q. Problems of Improving Sosial Sompetense of Students in the Prosess of Higher Pedagogisal Education // Sentral asian journal of literature, philosophy and sulture 12 Des 2022 B.48-52
12. Raxmanova M.Q. O‘quvshilar kasbiy ta’limining psixologik jihatlari va motivlari // O‘zMU xabarlari. 2021. –№1/3/ – B. 114-116.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o‘quvchilar kasb tanlashda kasbiy faoliyatlari va kasbiy rag‘batlantirishning psixologik jihatlari aniqlashda individual yondoshuv haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ilmiy yutuqlarni yaxshilashga yordam beruvchi turli uslublar hamda talabalarning tanlagan kasblarga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartiruvchi omillarni aytib o‘tgan.

РЕЗЮМЕ

В стате рассматривается индивидуалный подход к определению профессионалной деятелности студентов и психологические аспекты профессионалной мотиватsiи при выборе профессии. Также автор упомянул различные методы, помогающие совершенствоват научные достижения, и факторы, меняющие отношение студентов к выбранной ими профессии.

SUMMARY

The article discusses an individual approach to determining the professional activity of students and the psychological aspects of professional motivation when choosing a profession. The author also mentioned various methods that help improve scientific achievements and factors that change students’ attitudes towards their chosen profession.

MODERNIZATSIYALASHGAN TA’LIM SHAROITIDA O‘QUVCHILARDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATNI BARQARORLASHTIRISHDA REFLEKSIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Musurmonov R.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktab menejmenti” kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Tayanch so‘zlar: modernizatsiyalashgan ta’lim, darsga ijobiy munosabat, refleksiv ko‘nikmalar, o‘quvchilar, pedagogik xodimlar, tizimli yondashuv.

Ключевые слова: модернизированное образование, позитивное отношение к уроку, рефлексивные умения, учащиеся, педагогический коллектив, системный подход.

Key words: modernized education, positive attitude to the lesson, reflective skills, students, teaching staff, systematic approach.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlarida ularda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish uchun ularni tahliliy fikrlashga o‘rgatish asosida refleksiv faoliyatini tashkil etish zarur, chunki ko‘proq tahliliy fikrlash ularning o‘zi tomonidan mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonlarida, ya’ni o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. O‘quvchi tomonidan ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish yo‘nalishidagi o‘zining irodaviy xatti-harakatlarining amaliy ahamiyatini va zaruratini mustaqil ravishda tahlil qilishi hamda tushunishi ularning refleksiv faoliyati jarayonlari hisoblanadi.

Refleksiv yondashuv asosda tashkil etilgan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlari o‘quvchilarni o‘z faoliyati va faolligini, bilimi va dunyoqarashini o‘zi tomonidan tahlil qilishga, darsga bo‘lgan munosabatini mustaqil ravishda ob’ektiv baholashga undaydi [6].

Demak, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlarida refleksiv yondashuv o‘quvchilarning o‘z faoliyati natijalarini hech qanday qarshiliksiz o‘zi tomonidan mustaqil o‘rganish, o‘z shaxsiy imkoniyatlari va undan foydalanish samaradorligini o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholashga

undovchi vaziyatlarni vujudga keltirishi bilan bir qatorda, o‘qituvchi tomonidan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarni mustaqil ta’lim olishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida motivlashtirish jarayonlarini tashkil etishga keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o‘quvchilarni tahliliy faoliyatga undashga xizmat qiluvchi qulay refleksiv ta’limiy muhit vujudga keladi. Refleksiv ta’limiy muhitni vujudga keltirish o‘quvchilarning ta’lim olishga shaxsiy moyilligi va qiziqishi darajasini aniqlash va o‘rganilayotgan mavzuga, uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqish shakllantirish asosida ularning refleksiv faoliyatini amalga oshirishga, faolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyat jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi rivojlanib borib, ularda o‘qish va o‘rganishga moyillik o‘z faoliyatini tahlil qilish asosida shakllanadi. Refleksiv faoliyat jarayonida dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar o‘qish va o‘rganishi uchun qanday to‘siqlar xalaqit berayotgani, o‘zi nimaga ko‘proq qiziqayotgani, ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishning amaliy ahamiyati nimadan iborat ekanligini mustaqil tushunib yetadi. Refleksiv faoliyat jarayonida nafaqat dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar, balki faol o‘quvchilar ham o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qiladi hamda ob’ektiv baholaydi. Shuningdek, ularda o‘qish va o‘rganishga moyillik va qiziqishlar shakllanishi bilan bir qatorda, ularda to‘g‘ri kasb tanlash va kasb-hunar o‘rganish mas’uliyati shakllanadi.

Demak, refleksiv faoliyat jarayonlarida o‘quvchilarning refleksiv qobiliyatlari rivojlanib borib, ularda refleksiv ko‘nikmalar shakllanadi. Refleksiv ko‘nikmalar shakllangan o‘quvchi o‘qish va o‘rganish, o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish va ob’ektiv baholash qobiliyatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida unda ma’lum bir voqelik yoki hodisani, o‘tmishni yoki o‘tmishdagi jarayonlarning oqibatlarini o‘rganish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash kabi fazilatlar shakllangan bo‘ladi.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi esa qo‘llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlariga hamda tatbiq etiladigan yondashuvlarni vaziyatlarga ko‘ra to‘g‘ri tanlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, beriladigan axborot va ma’lumotlar hajmi hamda mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarning moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlariga mos kelishi, axborot va ma’lumotlarning aniqligi, ishonchli dalillar asosida qiyosiy tahlil qilinishi ham samaradorlikni ta’minlashaga xizmat qiladi.

Demak, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining sifat va samaradorligi, eng avvalo, mazkur jarayon sub’ektlarining mahorati, tashkilotchilik, ijodkorlik va izlanuvchanlik qobiliyati, bir so‘z bilan aytganda ularning kasbiy kompetentliligiga

bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish texnologiyalarining maqsadi va vazifasiga ko‘ra ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlarda refleksiya, pedagogik refleksiya, refleksiv faoliyat, o‘qituvchining refleksiv faoliyati tushunchalari turlicha talqin qilinsa-da, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari o‘quvchilar tomonidan o‘zini o‘zi va o‘z faoliyati natijalarini o‘zi tomonidan mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, baholash va ob’ektiv xulosalar shakllantirish jarayonlari ma’nosida qo‘llaniladi.

O‘qituvchining refleksiv faoliyati haqida fikr yuritilganda esa, eng avvalo uning mazkur jarayondagi prinsipialligi, ya’ni dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabatlar va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlaridagi prinsipiallikni tushinish mumkin. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonidagi prinsipiallik o‘quvchilarning o‘z faoliyati yoki xatti-haraktlarini mustaqil tahlil qilish, ishonchli dalillar vositasida taqqoslash, baholash va ob’ektiv xulosalar shakllantirishga o‘rgatishda o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lishidir [6, 80].

O‘quvchining refleksiv faoliyati esa o‘z faoliyati yoki xatti-haraktlarini mustaqil tahlil qilish, ishonchli dalillar vositasida taqqoslash, baholash va ob’ektiv xulosalar shakllantirish asosida o‘z o‘quv faoliyati ahamiyatini tushinishi va ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish yo‘nalishida yangi pozitsiyasining shakllanishidir. Shunday ekan, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilar bilan ishlashda o‘qituvchining refleksiv faoliyati tushunchasi o‘quvchining refleksiv faoliyati (o‘quvchi pozitsiyasi) tushunchasidan farq qiladi. O‘quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, murakkab pedagogik tizim hisoblanadi.

Demak, innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish zarur. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga tizimli yondashuvni tatbiq etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sifat va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [5].

Shunday ekan, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashqi muhitda xizmat qilayotgan innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish, tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning

refleksiv faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish zarur. O‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyati yo‘nalishida vaziyatlarga ko‘ra vujudga kelayotgan talablar hamda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish zaruriyati samaradorlikni ta’minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlari samaradorligi dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari majmui hisoblangan tizim komponentlarini o‘zgartirish, ularni qayta tashkil etish va moslashtirishga bog‘liq bo‘lib, o‘zgartirish, qayta tashkil etish va moslashtirishda ham tizim komponentlari hisoblangan jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Xususan, ta’lim va mustaqil ta’lim jarayonlari, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, motivlashtirish jarayonlarining har birining o‘ziga xos xususiyatlarini misol keltirish mumkin.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda, yaxlit tizim sifatida tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda mazkur jarayonlar samaradorligini ta’minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq etishning ahamiyatini quyidagi tamoyillar orqali asoslash mumkin:

– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari sub’ektlari sifatida o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat ko‘rsatishi, ya’ni mazkur jarayonlarda sub’ekt-sub’ekt munosabatlarining qaror topishi;
– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari sub’ektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;
– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion murakkab pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;
– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;
– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
– refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi ahamiyatlidir [6: 86].

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ana shu sifat va vositalarga jiddiy e’tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talabalik davrida ularda refleksiv faoliyat yuritish ko‘nikmalari

shakllanmagan bo‘lsa, bu juda katta yo‘qotish, bo‘lajak o‘qituvchining kompetentlik darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktab menejmenti” kafedrasi professor-o‘qituvchilari talabalarga o‘z faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilish, erishilgan yutuqlarning sabab oqibatlari va yo‘l qo‘yilgan kamchilik-nuqsonlarga barham berish uchun mustaqil ta’lim olish, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning sabablarini tafakkur qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida e’tibor berib kelmoqdalar. Professor-o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorlikda klaster metodi asosida olib borayotgan faoliyatlari natijasi o‘laroq, darsdan tashqari maktab menejmenti yo‘nalishi talabalari bilan tashkil etilgan to‘garaklarda ta’lim samaradorligini ta’minlashning nozik jihatlari o‘rgatilib kelinmoqda. Bu borada pedagogika fanlari doktori, professor Himmataliev Do‘stnazar Omonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Rahmatilla Musurmonov, pedagogika bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Akbar Nomozovich Rasulovlarning olib borayotgan amaliy ishlari va nazariy ma’ruzalari boshqalarga o‘rnak bo‘lib, o‘zining samarali natijalarini bermoqda.

Adabiyotlar:

1. Hasanov J., To‘raqulov X.A., Alqarov Sh., Usmonov N.O‘., Pedagogika. – T.: «Noshir», 2011.
2. Abdullayeva D., Yorqulov R., Atabaeva N. Oila psixologiyasi. - T.: «Tafakkur Bo‘stoni», 2015.
3. Asqarova. O‘.M., Xayitboev M., Nishonov M.S. Pedagogika. – T.: «Talqin», 2008.
4. G‘oziev E.F., Meliboeva R.N. Ijtimoiy psixologiya. – T.: «Faxrizoda», 2009.
5. Musurmonov R., Musurmonova M. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabatlarini klaster asosida o‘rganish. O‘quv-metodik qo‘llanma. T: “ZEBO PRINT” MCHJ, 145 b.
6. Musurmonov R. Klaster texnologiyalari asosida o‘quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish/ Monografiya, T.: “ZEBO PRINT” – 2023. 188 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktab o‘quvchilarida dars jarayoniga ijobiy munosabatni barqarorlashtirishda o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklarini aniqlash va korreksiyalash (refleksiv faoliyat) ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari to‘g‘risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются педагогические условия формирования умений выявления и исправления (рефлексивной деятельности) ошибок, допущенных путем самоанализа, в стабилизация положительного отношения к учебному процессу у школьников и даются рекомендатsii.

SUMMARY

In the article, the pedagogical conditions for the formation of the skills of identifying and correcting (reflexive activity) the mistakes made by self-analysis in stabilizing a positive attitude to the lesson process in schoolchildren are discussed and recommendations are given.

TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANNIRISH JARAYONIDA IJTIMOIY VA PEDAGOGIK OMILLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Raxmanova M. Q.
p.f.d., (DSc)

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy faol ma’naviyat, madaniyat innovatsion texnologiya, interfaol yondashuv.

Ключевые слова: социально активная духовность, культура, инновационные технологии, интерактивный подход.

Key words: socially active spirituality, culture, innovative technologies, interactive approach.

Jamiyatning demokratlashuvi va insonparvarlashuvi sharoitida kasbiy etuklikka yaxlit tizim sifatida yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi, tabiiy. Eng avvalo, e’tiborni «kasbiy etuklik» tushunchasining mohiyatiga qaratsak.

Unda «kasbiy etuklik» eng umumiy ma’noda, «xodimning alohida ish beruvchidan ma’lum ma’noda mustaqil bo‘lishiga olib keluvchi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoni», deya ta’kidlab o‘tilgan. Ta’rifdan kelib chiqib, shuni dadil aytish mumkinki, professionallashuvning bunday tushunilishi, birinchi navbatda ta’lim jarayoni hamda o‘qituvchi va murabbiylar faoliyati bilan mos keladi. Kasbiy tayyorgarlik - ta’lim oluvchilarda biror ishni bajarish uchun zarur malakalarni jadal ravishda egallash maqsadidan kelib chiquvchi kasbiy ta’lim tizimidir.

Kasbiy ta’lim - kasblar olamiga yo‘nalganlik va moslashuvni ta’minlovchi, ijtimoiy va pedagogik tashkil etilgan shaxsning mehnatga doir ijtimoiylashuv jarayoni, aniq mutaxassislik va malakaviy darajani egallash, inson faoliyatining turli sohalarida uzluksiz ravishda malaka, mahoratning oshib borishi va qobiliyatlarning rivojlanishi. Kasbiy ta’lim shaxsning mahoratini qaror topishi, rivojlanishi va shaxsni o‘z-o‘zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib beradi

va jamiyatning insonparvar va demokratik maqsadlariga erishishiga yordam beradi .

Kasbiy etuklik - kasbiy faoliyatdagi vazifalarni bajarishdagi yuqori darajadagi tayyorgarlikni ifoda etsa, professional deganda, o‘z kasbiga to‘la moslashgan va mehnatning psixologik vositalariga ega bo‘lgan inson tushuniladi .Talabaning kasbiy tayyorgarligi -integrativ shaxs xususiyati bo‘lib, uning OTMni tamomlagandan keyingi faoliyati samaradorligining muhim shartidir .

Kasbiy etuklik o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun bo‘lajak mutaxassisda shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarbiyalash talab etiladi. Biz bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash haqida fikr yuritayotgan ekanmiz, «kasb tarbiyasi» tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tishimiz zarur.

V.A.Slastyonin, S.B.Elkanov, A.J.Ajibaevalar « kasb tarbiyasi» tushunchasini quyidagicha izohlashadi: «Natijasi bo‘lajak mutaxassis tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallash, uning ma’naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy-qadriyatli motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg‘ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko‘nikma, malaka, odatlarni, o‘z-o‘zini refleksiya qilish tajribasini egallash kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir».

Kasbiy etuklik yaxlit tizim sifatida bir kancha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. I.P.Podlasыyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, biz ta’limdagi kasbiy etuklik , ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo‘nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- madaniyat;
- ijodkorligi;
- aql-idrok;
- kasbiy chukur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo‘naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kasbiy etuklik (professionallashuv) ka yaxlit hodisa sifatida qarash, uni tashkil etuvchilarning roli va ahamiyatini pasaytirmaslik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash masalasi ham umumiy shaxsning rivojlanishi muammosi singari qarama-qarshiliklar jarayoni va natijasidir. Chunki bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllanishi ko‘plab ichki, o‘zaro ta’sir etuvchi mahsuldor sabablar(omillar)ni taqozo etadi. Pedagogik adabiyotlarda mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta’sir etuvchi mahsuldor sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya’ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo‘naltirilganlik nuqtai nazaridan talqin etilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko‘ra, pedagogik madaniyat - tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik kadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma’naviy shakllarda mavjud bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko‘ra, pedagogik madaniyat - bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi sub’ekt sifatida kasbiy etuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko‘ra, pedagogik madaniyat - bu pedagogik qadriyatlarning tadbiq etilishini ta’minlovchi, mutaxassis kasbiy faoliyatining o‘ziga xos usullari majmuidir.

Pedagogik madaniyat - bu inson shaxsining integrativ sifati tariqasida aniqlanadigan dinamik tizimli ta’lim bo‘lib, bu sifat o‘zida ijtimoiy va shaxsiy-kasbiy vazifalar, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy umuminsoniy qadriyatlar darajasida taraqqiy etishni hisobga olgan holda, pedagogik qadriyatlarni ijodiy tarzda amalga oshira olish layoqatini jamlashi zarur

Pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: «Pedagogik madaniyat - bu umuminsoniy madaniyatning bir bo‘lagi bo‘lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo‘lgan ma’naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan.

Pedagogik madaniyatning eng asosiy kadriyati - bola, uning rivojlanishi, ta’limi, tarbiyasi, ijtimoiy himoyasi, uning qadr-qimmati va xuquqlarining muhofazasidir.

Pedagogik madaniyatni pedagogik faoliyatni ijodiy o‘zlashtirish usuli sifatida qarash lozim. Bugungi kun o‘qituvchisi pedagogik madaniyatidagi yaqqol na’muna sifatida hamkorlik pedagogikasini keltirish mumkin.

Pedagogik madaniyat - bu qadriyatlarning, pedagogik faoliyat usullarining va o‘qituvchi kasbiy xulq-atvorining dinamik tizimi. Mazkur tizimning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

a) pedagogik pozitsiya va shaxs sifatlari;

b) kasbiy bilimlar va fikrlash madaniyati;

v) kasbiy malakalar va faoliyatning ijodiyligi;

g)shaxsni o‘z-o‘zini boshqara bilishi va kasbiy xulq-atvori.

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo‘lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

1) shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o‘tish jarayonida ro‘y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar) , voqeliklar hamda ularning ta’siri etakchi o‘rin tutadi (J.Piaje, A.V.Mudrik);

2) bolaning kamol topishi, shaxs bo‘lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega (3.Freyd);

3) shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi (J.Piaje);

4) shaxs ijtimoiy ta’sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o‘zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo‘ladi - mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi (T.Persons, R.Beyla);

5) shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davri shaxsning ijtimoiylashuvida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi (R.Benedikt, M.Mid);

6) ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo‘lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi (Z.Freyd, T.Persons, R.S.Nemov).

Bizning tadqiqotimiz doirasida mazkur tushunchaning mohiyati A.V.Mudrik tomonidan berilgan ta’rifga ko‘proq mos keladi: «Ijtimoiylashuv - madaniyatni o‘zlashtirish va qabul qilish jarayonida insonning rivojlanishi hamda o‘z-o‘zini o‘zgartirib borishidir».

Demak, ijtimoiylashuv - insonning uning barcha yosh bosqichlaridagi tabiiy, maqsadli yo‘naltirilgan hayot sharoitlari bilan o‘zaro muvofiqlikda sodir bo‘ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o‘z-o‘zini o‘zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi - insonning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o‘z o‘rnini va shaxsiy orzu-intilishlari yo‘nalishini anglaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo‘lib etishishiga erishishdan

iboratdir. Ushbu holatda, pedagogik faoliyat esa muhim bunyodkor ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafakat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi, uning madaniy va ishlab chiqarish salohiyati ta'minlanadi. Pedagogik faoliyatning kelajakni oldindan ko'ra olish bilan bog'liqlikdagi tavsifi uning maqsadlarining ko'p qirraliligini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuvinigina emas, ularning faoliyat sohasini innovatsiyalanib borishini ham aniqlab beradi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy etuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab etganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan takdirda amalga oshadi. Boshqacha aytganda, shaxsning ijtimoiylashuvi -- ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuvning mufassal tavsifini va uning pedagogik faoliyatdagi o'rnini A.M.Stolyarenko quyidagicha keltirib o'tadi: «Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir». Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil - madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni — tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning sub'ekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi sub'ekt sifatida qaraladi.

Ijtimoiylashuv jarayonining ko‘p omilliligi va keng qamrovliligini hisobga olib, kasbiy etuklikni uning bir qismi sifatida qarash mumkin.

Bugungi kundagi ijtimoiy taraqqiyot ijtimoiylashuv va kasbiy etuklik jarayonlari tavsifining murakkablashuvi bilan ifodalanadi. Buning oqibatida kasbiy ta’lim hamma vaqt ham talabaning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish masalasini muvafaqqiyatli hal eta olmaydi. Shuning uchun bugungi kunda kasbiy ta’lim oldiga quyidagi vazifalar ko‘ndalang qo‘yilmokda: talabaning kelgusidagi shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, boshqa qo‘shimcha mutaxassislik bilan qurollantirish va faoliyat sohasini o‘zgartira olishiga imkon berish, shaxsiy hayotida va kasbiy faoliyatida duch keladigan ijtimoiy, shaxsiy muammolarni hal etishga qodirligi va hozirjavobligini shakllantirish.

Eng asosiysi, kasbiy ta’lim shaxsning muvafaqqiyatli ijtimoiylashuvining zarur sharti bo‘lib xizmat qilishi lozim.Mazkur jarayonda ta’lim shaxsni faol mustaqil faoliyatga jalb etib, uning talaba maqomini egallashi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarishi lozim.

Kasbiy ijtimoiylashuvga tayyorlashning quyidagi vazifalari:

1) talabalarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlash;

2) talabalarning hayot mazmunini ifoda etuvchi maqsadlarini rivojlantirish, ularning o‘z ehtiyoj va imkoniyatlarini to‘la anglab etishlariga ko‘maklashish;

3) shaxslararo va kasbiy faoliyatga doir munosabatlar tizimida ularni o‘z o‘rnini aniq belgilay olish va o‘z-o‘zini namoyon qila olishga o‘rgatish;

4) talabalarning hayotiy faoliyatini tashkil etishda faoliyatli-munosabatli yondashuvni joriy etish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

5) shaxsning odamga (o‘z-o‘zini xolis baholash, o‘z-o‘zini hurmat qilish, qadr-qimmat, or-nomus, vijdon) va olamga nisbatan (insonparvar, demokratik, dialektik, ekologik tafakkur) yuksak axloqiy munosabatini shakllantirish;

6) talabalarning tashkilotchilik va boshkaruvga doir fazilatlarini rivojlantirish;

7) talabalarni murakkab pedagogik va hayotiy vaziyatlarda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar qabul qilishga tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Semina Ye.A. (2010). Kompetentnostnaya model vыpusknika pedagogicheskogo vuza - budushego uchitelya matematiki. Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. - № 5 (36). - S. 133-135.

2. Столяренко А.М. Общая педагогика. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. - 25 с.

3. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. - 43 с.

4. Фалсафа: қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир .Назаров). - Т.: Шарқ, 2004. -173-174 б.

5. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

6. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.

7. Mitina L.M. (2004). Psixologiya truda i professionalnogo razvitiya uchitelya. - M.: Akademiya. - 320 s.

8. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.

9. Raxmanova M.Q. Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped. fan. dokd... diss. – T., 2023. – 220 b.

10. Raxmanova M.Q. Kasbiy ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda interfaol ta'limning nazariy-amaliy jihatlari // Mug'allim hәm үzliksiz bilimlendiriw. 2022. –№3/3, – B. 39-43.

11. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish funksiyalari / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

12. Raxmanova M.Q. Kasbiy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish mazmuni / "Ta'lim tizimida fan innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax. (2021-yil, 20-noyabr).- B.- 782-786.

13. Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2016). Innovatsionnaya deyatelnost pedagoga v obrazovanii. Molodoy uchyonыy, № 8 (112), S. 978-979.

10. Anorkulova G.M., Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Metodologicheskie osnovы sistemnogo podxoda pri podgotovke uchiteley professionalnogo obucheniya. Molodoy uchyonыy, 93:13, S. 588-590.

14. Anorkulova G.M., Kulieva Sh.X., Rasulova Z.D. (2015). Model podgotovki uchiteley professionalnogo obrazovaniya na osnove sistemnogo podxoda. Molodoy uchyonыy, 93:13, S. 590-592.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada yoshlarimizning ta'lim tizimida ijtimoiy faolligini oshirish yoritilgan. Maqolada uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy faolligini oshirish uning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik omillari aniqlangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается повышение социальной активности нашей молодежи в системе образования, определяются особенности и педагогические факторы повышения социальной активности в системе непрерывного образования.

SUMMARY

This article emphasizes the increase in social activity of our youth in the education system, and identifies the features and pedagogical factors for increasing social activity in the system of lifelong education.

МАКТАБ РАҲБАРЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИЛИГИНИ ШАКЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ ХУСУСИДА

Суяров А.М.
Чирчиқ давлат педагогика университети
“Мактаб менежменти” кафедраси катта ўқитувчиси
Ержанова А.А.
Чирчиқ давлат педагогика университети
Педагогика факультети
“Мактаб менежменти” йўналиши 22/1-гуруҳ талабаси

Таянч сўзлар: мактаб бошқаруви, мактаб раҳбарияти, раҳбарнинг компетентлиги, таълим-тарбия, инновацион таълим технология, таълим, принцип, дидактика, инновацион бошқарув, компетентлик, компетенция, педагогик жараён, илмийлик, нотиқлик, конструктивлик.

Ключевые слова: управление школой, руководство школой, компетентность лидера, образование, инновационная образовательная технология, воспитание, принцип, дидактика, инновационный менеджмент, компетентность, компетентность, педагогический процесс, научность, красноречие, конструктивность.

Key words: school management, school management, leader competence, education, innovative educational technology, upbringing, principle, didactics, innovative management, competence, competency, pedagogical process, scientific character, eloquence, constructiveness.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёевнинг Ўзбекистоннинг ўз тараққиёт йўлида, миллий тарбия моҳияти ва мазмунини теран англаши, чуқур илмий назарий салоҳияти, педагогик ижод, ўз фанининг тарбиявий имкониятларини мукаммал билиши, педагогик билимларни такомиллаштиришга интилиш зарур деб такидлайди ҳамда касбий фаолият, касбий билимлар негизида педагогнинг хатти-ҳаракати ва хулқининг асосини ташкил этувчи, педагогик принциплар ва қоидалар вужудга келади. Бу принцип ва қоидаларни ҳар бир педагог ўз тажрибасига ва эгаллаган билимларига таянган ҳолда яратади ва уларни доимий равишда такомиллаштириб боради.

Таълим муассасани бошқариш мазмун-моҳиятига кўра таълимни бошқаришдан фарқ қилади, чунки мактабда фақат таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш ва уни бошқариш вазифалари амалга оширилмайди, балки таълим-тарбия жараёнини илмий-методик асосида ташкил этишнинг ўзиёқ бир қанча вазифаларнинг бажарилишини, яъни таълим-тарбия жараёни иштирокчиларига зарурий шароитларни яратиш, уларнинг фаолиятини ташкил этиш, мувофиқлаштириш, назорат қилиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш, шунингдек мазкур жараённи амалга ошириш учун моддий-техника базасини яратиш, юқори малакали мутахассислар билан таъминлаш каби қатор бошқа вазифаларни ҳам амалга оширишни назарда тутади.

Таълим муассасаси раҳбарлари инновацион таълим технологияларни кенг ўзлаштирилиши, ўқувчиларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимга табақалаштирилган ёндашувни жорий этилиши ҳамда таълим беришнинг замонавий инновацион технологияларини, халқаро ўқув-услубий мажмуаларни яратилиши, таълим-тарбия жараёнини дидактик жиҳатдан таъминланиши таълимни бошқариш тизимини такомиллаштиришга асос бўлмоқда.

Бу ўз навбатида таълим муассасалари раҳбарлари зиммасига таълим, фан, техника ва технологияларнинг жаҳон миқёсидаги ютуқларини, замонавий инновацияларни татбиқ этган ҳолда педагогик жараённи илмий-методик асосида ташкил этиш ва уни лойиҳалаш йўналишлари, шунингдек бошқарув фаолиятларида вужудга келаётган ноанъанавий муаммоларни ижобий хал этиш борасида турли янги вазифаларни юклайди.

Мактабда бошқарув фаолиятини ташкил этувчи раҳбарлар нафақат педагогик тажрибага, балки бошқарув функциялари ва уларнинг вазифалари, бошқарув методлари ва улардан фойдаланиш, бошқарув алгоритми ва унинг моҳияти, бошқарув қарорлари ва уларнинг қабул қилиш йўллари ҳамда раҳбарлик услублари ва уларни қўллаш каби қатор тушунчаларга ҳам эга бўлиши зарур деб ҳисоблайди.

Амалиётда кўпчилик раҳбарларнинг бошқарув фаолияти самарадорлиги кўп жиҳатдан раҳбарнинг ўз лавозимида қанча муддат ишлаганига, яъни бошқарув жараёнида ортирган тажрибасига боғлиқ деб ҳисоблайди. Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, таълим муассасаси фаолиятини ташкил этиш ва такомиллаштиришда раҳбарларнинг бошқарув фаолияти самарадорлиги асосан уларнинг бошқарув йўналишидаги тушунчалари, билими, замонавий инновацион технологияларни ўзлаштирирганлик даражасига ҳамда уларнинг шахсий хусусиятлари, интеллектуал қобилят-

лари ва касбий аҳамиятига эга бўлган шахсий сифатлари, хислатлари ва фазилатларига боғлиқ, деб кўрсатилмоқда.

Муассаса раҳбарлари ҳар қандай вазиятларда ҳам ўзини тута олиши, инсофли, диёнатли, ҳар қандай вазиятлардан жамоани олиб чиқа олиши, тараққиёт билан баробар қадам ташлаши, кўпчилик дарди билан яшаши, ҳамкорлик, ҳамижодкорлик, ҳамжиҳатлик билан иш юритиши, касбий-услубий маҳорат эгаси бўлиши мақсадни аниқ қўя оладиган ва унинг ижросини таъминлайдиган бўлиши, виждонли, адолатли ва имонли бўлиши, ижодкор, бунёдкор ва яратувчан бўлиши, талбчан ва меҳрибон, вақтнинг қадрига етадиган, хушмуомала инсон бўлиши керак.

Раҳбар компетентлиги:

- амалдаги ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатларни амлиётга татбиқ этишга бош бўлади;
- мактаб директори компетенциясига тегишли вазифаларни талаб даражасида бажарилишини таъминлайди;
- ходимлар фаолиятини масъулияти доирасида фаол ишлашга ундайди;
- белгиланган вазифаларни “Компетент раҳбар” деган фахри, талабга мос тайёрлайди.

Мактаб раҳбарининг бошқарув компетентлиги:

- раҳбарнинг реал ҳолатларда вужудга келадиган типик касбий муаммоларни ҳал этиши;
- касбий-бошқарув фаолиятининг устунлиги ва объектив тарзда масалаларни зудлик билан ҳал этиши;
- юксак салоҳияти, раҳбар сифатида намуналиги, шахсий фаолияти,
- тажрибаси;
- юқори даражадаги касбий интеллекти орқали мақсадга эришиш даражасидир.

Қуйидагилар раҳбар компетенцияси ва фаолиятига таъсир этади:

- ўқитувчилар талабининг ўсиши;
- иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий шароитларнинг ўзгариши;
- замонавий инновацион технологияларни такомиллашуви;
- жамият эҳтиёжи ҳамда таълимга талабнинг ўсиши;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида раҳбар субъекти ролининг ўзгариши;
- ДТС ва ўқув дастурларини оптималлаштирилиши;
- таълим соҳасида халқаро тажрибалар ва қиёсий таҳлил натижалари ва ҳ.к.

Демак, компетентлик таълим муассасаси раҳбарининг маънавий дунёқараши, психологик-педагогик ва ташкилий технологик салоҳияти, яъни унинг касбий имкониятлари салоҳиятини ифодалайди. Мазкур салоҳиятни таълим муассасаси раҳбари ўз фаолияти жараёнини ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, улар томонидан ташкил этилаётган таълим жараёнларнинг ҳолати ва самарадорлиги орқали аниқлаш мумкин бўлади.

Таълим муассасаси раҳбарлари касбий компетентлилиги таълим муассасаси фаолиятини илмий-методик ва инновацион технологиялари асосида ташкил этиш ҳамда бошқариш йўналишидаги тушунчалар даражаси, унинг ташкилотчилик, тадқиқотчилик, бошқарувчилик ва педагогик қобилияти ва кўникмаси, унинг ўзини ўзи ривожлантиришга ва узлуксиз мустақил таълим олишга бўлган мойиллиги, интилишлари, шунингдек замонавий талаблар асосида таълим муассасаси фаолиятини ташкил этиш, бошқариш ва такомиллаштириш имкониятлари орқали аниқланади.

Юқорида таъкидланган маълумотларнинг мазмун-моҳияти таълим муассасаси раҳбарлари касбий компетентлилигини унинг фалсафий ва маънавий дунёқараши, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳияти, яъни таълим муассасаси фаолиятини илмий-методик ва инновацион технологиялари асосида ташкил этиш, бошқариш ва такомиллаштириш имкониятлари салоҳияти сифатида кўриб чиқиш мумкинлигини тасдиқлайди.

Таълим муассасаси раҳбарлари касбий компетентлилиги йўналишида белгиланадиган қуйидаги асосий талабларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

- “Умумий ўрта таълимни ташкил этиш” ҳақидаги Низом ва умумий ўрта таълимга, тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий, меъёрий-услубий ҳужжатларни мукаммал билиши ва ўз фаолиятида уларга амал қилиш малакасига эга бўлиши;
- таълим муассасасини бошқаришга оид меъёрий ҳужжатлар, мактабни бошқариш тамойиллари, усуллари асосида мактаб ички бошқарув тизимини ташкил қилишни билиши;
- муассаса ишини илмий-методик, инновацион йўналишлар асосида режалаштириш усулларини билиши ва амалда қўллай олиш малакасига эга бўлиши;
- мактабни педагог кадрлар билан таъминлаш, уларни жой-жойига қўйиш, улар билан ишлаш, уларга услубий ва амалий ёрдам кўрсатиш ҳамда рағбатлантириш йўлларини билиши;

- бошқарувнинг демократик ва инсонпарварлик тамойилларини билиши ва уларга амал қилиш малакасига эга бўлиши;
- муассасани молиялаш, ҳисоб-китоб юритиш, жиҳозлаш, моддий таъминоти масалаларини билиши;
- муассасага белгиланган тартибда бюджетдан ташқари маблағ киритиш ва улардан фойдаланиш йўлларини билиши;
- таълим муассасаси фаолияти ва ўз фаолияти самарадорлигини таҳлил қилиш ва объектив баҳолашга хизмат қилувчи рефлекцив кўникмаларга ҳамда тизимли фикрлаш, кенг дунёқараш ва рефлекцив тафаккурга эга бўлиши;
- тадқиқотчилик ва таҳлилий фаолиятга, республикадаги ва хориждаги илғор тажрибаларни ўрганиш, педагогик маҳоратни ошириш, мустақил таълим олиш ва ўзини ўзи ривожлантиришга, инновацион жараёнларга ва креативликка мойиллик;
- бошқарув жараёнларида вужудга келиши мумкин бўлган муаммоли вазиятларда субъектлар фаоллигини таъминлаш ва фаолиятини мувофиқлаштира олиши;
- Ватанпарварлик, инсонпарварлик, фидойилик, принципиаллик, коммуникативлик тушунчаларининг мазмун моҳияти ва аҳамиятини тушуниши зарур.

Таълим муассасаси раҳбарига қуйидаги янги ижтимоий кўникмалар муҳим:

- ўз фикрини ифодалай олиш;
- мулоқотга кириша олиш;
- раҳбарлик фаолияти маҳоратини такомиллаштириш;
- вазиятни баҳолай олиш ва муаммоларни еча олиш кўникмаси;
- ташаббускорлик, ижодий ёндошув ва уддабуронлик;
- бошқарувчанлик кўникмалари;
- бағрикенглик;
- ўз-ўзини баҳолай олиш кўникмаси.

Демак, компетентли – раҳбар таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш ва бошқариш йўналишида зарурий тушунчаларга эга бўлган, ходимлар психологиясини яхши биладиган, бой ва юксак ахлоқий фазилатларга эга бўлган, таълим жараёнига илғор педагогик, инновацион технологияларни татбиқ эта оладиган, тегишли маълумоти ва касбий тайёргарлиги бор, юксак педагогик маҳорат ва бой касбий тажрибага эга бўлган шахсни ифодалайди.

Хулоса қилиб, шуни таъкидлаш лозимки: мактаб раҳбариларининг касбий компетентлилигини шаклантириш имкониятлари ва бошқарув фаолиятини самарали таъминловчи фаолият усуллари тизимидан иборат. Ҳар доим ҳам раҳбар доимий равишда ўз устида мустақил изланиб, фаолият олиб бориши зарур.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5712-сонли фармони.

2. Аҳлидинов Р. Ш. Таълим муассасасини бошқариш санъати. – Т.: “Фан”, 2006. – 303 б. 721

3. Пўлатов Ш.П. Таълим менежменти ёхуд таълим муассасасини илмий методик бошқаришга инновацион ёндашув./ Т.: “Ёш куч”.2022 й.

4. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика назарияси. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2008.

5. Р.Ж.Эшмуҳаммедов, А.А.Абдуқодиров, А.Х.Пардаев ”Директорнинг иш китоби”(амалий тавсиялар)-Т :2007.

6. Усаров Ж.Э. Ўқувчиларнинг малакасини шакллантириш Таълим самарадорлигини ошириш омили сифатида // Назарий ва амалий фан. - 2017. - Т. 53. - №. 9. - С. 79-82

РЕЗЮМЕ

Мақолада Мактаб раҳбарларининг касбий компетентлилигини шаклантириш имкониятлари хусусида фикр юритилиб, мактаб раҳбарларининг касбий компетентлилиги шаклантириш имкониятларини ташкил этиш ва самарали фойдаланиш механизмларини ривожлантириш ҳақида таклиф ва тавсиялар берилган.

РЕЗЮМЕ

В статье размышляются возможности формирования профессиональной компетентности руководителей школы, предлагаются и рекомендации по организации и развитию эффективных механизмов формирования профессиональной компетентности руководителей школы.

SUMMARY

The article reflects on the possibilities of developing the professional competence of school leaders, and offers recommendations for organizing and developing effective mechanisms for developing the professional competence of school leaders.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

ODOB-AXLOQ VA NAFOSAT MUNOSABATLARINING ISLOM MADANIYATIDAGI TALQINI

Azimova Ch.A.
Toshkent Arxitektura-qurilish universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: axloqiy; estetik; islom madaniyati; islom san'ati; xattotlik; arxitektura; insonning go'zalligi.

Ключевые слова: этическое; эстетическое; исламская культура; искусство ислама; каллиграфия; архитектура; красота человека.

Key words: ethical; aesthetic; Islamic culture; Islamic art; calligraphy; architecture; beauty of a person.

Falsafiy fikrlar tarixida axloqiy va estetik mazmun o'rtasidagi munosabatlar muammosi munozarali bo'lib, ushbu tushunchalarni aniqlash va qarama-qarshilik bilan bog'liq ko'plab turli xil talqinlar mavjud. Axloq va estetika o'rtasidagi bog'liqlik va farqlarni anglash ularning ijobiy ma'noni anglatuvchi yagona, sinkretik "yaxshi" tushunchasida u ilohiylashtirgan tabiatli odam va o'z xatti-harakati farq qilmaslikdan boshlandi. Yunon an'analari falsafiy darajaga ushbu birlik g'oyasini saqlab qolgan maxsus toifani olib keldi – "kalokagathia" (yunoncha kalos - chiroyli, agatos - yaxshi, ya'ni go'zal-yaxshi), axloqiy va estetik g'oyalar sohasida harakat qilgan, ideal shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib xizmat qilgan. Sokrat uni donolik bilan bir darajaga qo'ydi va adolat, estetik qabul qilish qobiliyati bilan bog'liq axloqiy fazilatlar majmuasini birlashtiradi. Xristianlik estetikasiga kelsak, u ikkala qadriyat sifatlarini – "chiroyli" va "yaxshi"ni "ilohiy" tushunchasida yoritib, ularga kategoriyani bog'ladi. Xuddi shu mistik transsendental mohiyatning yana bir "haqiqiy" ko'rinishi sifatida anglatadi.

Axloqiy-estetik muammolar O'rta asrlar Markaziy Osiyo falsafasi yirik namoyandalari, jumladan, Abu Nasr Forobiy merosida o'z aksini topdi. U o'z asarlarida, xususan, ellinistik, arab-fors va turkiy madaniyat g'oyalarini, urf-odatlarni o'rganib, qayta o'zlashtirgan holda yangicha ma'noda yaratdi va

ularni “Sharq va G‘arb o‘rtasidagi kommunikativ va ma’naviy aloqalarning kontsentratsiyasiga” aylantirdi [6:7].

Al-Forobiyning bir yuz oltmishdan ortiq mantiq, falsafa, matematika, tabiatshunoslik, musiqa muammolariga bag‘ishlangan ijodiy asarlarini, risolalarini she’riyatni yunon asoslaridan ajralgan holda ko‘rib bo‘lmaydi [7:5]. Olimning ijodiy va ilmiy tafakkurida qadimgi yunon falsafasining chuqur izlari bor. Shuning uchun fanda Al-Farobiyni Aristotelning izdoshi sanab, uni “Ikkinchi muallim” deb ataydi.

Al-Forobiy o‘z risolalarida estetik muammolarni axloqiy kategoriyalar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, insoniyat ezgu niyatlar uchun yaratilgan bo‘lib, ezgu xulq-atvorga intilishda aqlning o‘rni katta. Bu haqda Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: “Inson aynan aql tufayli odam bo‘ldi” [2:37].

Bu fikr uning insonning ma’naviy qadr-qimmati haqidagi hukmlarida boshlang‘ichdir. Bu yerda asosiy e’tibor inson ongi va inson ruhiyatining kamolotiga qaratilgan. Forobiy shunday tushuntiradi: “Faol aqlning harakati aqlli hayvonga (insonga) g‘amxo‘rlik qilishdir va unga o‘zi uchun mavjud bo‘lgan eng yuqori kamolot darajasiga, ya’ni eng yuqori baxtga erishish imkoniyatini berishga intilish” [O‘sha joyda:48-49].

Baxt - bu “mutlaq yaxshilik” [O‘sha joyda:113]. Bu al-Forobiy axloqining asosiy tushunchalaridan biridir: aynan unda axloq va estetika birlashadi, chunki dunyoning umumiy uyg‘unligini bilmasdan, go‘zallikka erishmasdan haqiqiy baxtga erishib bo‘lmaydi.

Axloqiy va estetik muammolarni hal etishning kaliti adolatli tashkil etilgan jamiyat, ilm-fan va san’at gullab-yashnagan ezgu shahardir. Olimning ta’kidlashicha, go‘zallik va ezgulikka fazilatli inson bosh bo‘lgan ideal holatdagina erishiladi. Shu bilan birga, fazilatli shaharda mukammal qonunlar amal qiladi va uning aholisi qonunga bo‘ysunadi [O‘sha joyda:125-127].

Islom madaniyatida go‘zallik tushunchasi ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, inson

hayotining u ikkala tomonini qamrab oladi ya’ni estetik xususiyatlari va axloqiy fazilatlari, shuningdek, uning ma’naviy qadriyatlarini tasdiqlaydi. Bu yuksak, abadiy go‘zallik namunasini ifodalovchi estetik va axloqiy uyg‘unlik islom san’atining barcha turlarida o‘zini namoyon qiladi. G.G.Mahri va U.D.Alievalar to‘g‘ri ta’kidlaydilar: “Har qanday ijodiy asar islom san’ati sohasida tomoshabinlarga ma’naviy tortishish yuklaydi. Har bir rang shakl va so‘z o‘zining asl tabiiy kuchini yo‘qotib, ma’naviy kuchga ega bo‘ladi. Bu tasvirlangan obyektga ustunlik sifatini beradi” [5:102-103].

Axloq va estetika o‘rtasidagi munosabat islom madaniyatida alohida e’zozlangan va eng avvalo Qur’ondagi ilohiy xabarni saqlash va tarqatish vositasi bo‘lgan arab xattotligi kabi san’atda uchraydi. Xattotlik san’atini egallaganlik darajasi hamisha insonning bilimliligi, aql-zakovati va ma’naviy kamoloti ko‘rsatkichi bo‘lib kelgan. “Xattotlik o‘zining estetik tarkibiy qismini yaxshilash yo‘llarini qidirmoqda va bu, o‘z navbatida, axloqqa olib keladi”, deb yozadi qozoq xattoti A.Urinbasarov. “Insonning fe’l-atvorini o‘lchay olmaysiz, unda qancha “untsiya” yaxshilik, yomonlik yoki jaholat borligini aniqlay olmaysiz, ammo xattotlik bu haqda aytib berishi mumkin” [9].

Sharqdagi xattotlar inson qalbining go‘zalligi uning qo‘lyozmasining go‘zalligi bilan belgilanadi, deb hisoblashgan. Chiziqlar, harflar, chiziqchalarni mahorat bilan chizgan xattot “o‘z qalbini ifodalaydi”, o‘z tajribasini ochib beradi. Shuning uchun xattotlik musulmon uchun o‘ziga xos “chiqish” sifatida qaraladi.

Arab xattotligi orqali tasvirlashning ijodiy jarayoni ibodatga o‘xshash bo‘lib, u “tahorat, pokiza fikr, pokiza kiyim va Allohdan yordam so‘rash bilan birga keladi. Xattot Allohning kalomini yozadi va bundan go‘zalroq nima bo‘lishi mumkin? Muqaddas Qur’oni Karimni qayta yozish orqali xattot nafaqat bu dunyoda kamol topadi, balki ajrga ham ega bo‘ladi – bu xudojo‘y ishni oxiratda ham qo‘lga kiritadi. Xattotlik dinga yordam beradi, aralashmaydi va zid kelmaydi”.

Qur’onda tasvirlarni taqiqlash aniq e’lon qilinmagan bo‘lsa-da, hadisda payg‘ambarimizning odamlar yoki hayvonlar - jonli mavjudot sifatida tasvirlamaslik kerak – degan amri mavjud. Ammo atrofdagi dunyoning go‘zalligi odamni hayajonlantira olmaydi, shuning uchun uning turtki va istagi asosan xattotlik bilan qoplanadi. Qadimgi yunon matematigi va faylasufi Evklidning xattotlikni “ruh geometriyasi” deb atagani bejiz emas [3].

Islom asoslarining daxlsizligi va fundamentalligi, butun musulmon olamining birligi islom me’morchiligida o‘z ifodasini topdi. Diniy islomiy binolarning kubik shaklida inshootlarining go‘zal me’moriy shakli tasodifiy emas. Bu mujassamlangan barkamollik ham “go‘zallikning hissiy tajribasini... ham, koinotda ko‘tarilayotgan umumiy ilohiy uyg‘unlik tuyg‘usini” uyg‘otadi [8:62]. Musulmon me’morchiligi va uning rivojlanishini, qoida tariqasida, bunday estetik tushunchalar - ramzlar bilan aloqasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. “jamol” - masjid gumbazining mukammalligida ifodalangan ilohiy go‘zallik sifatida; “jalol” – minoralarda ifodalangan ilohiy buyuklik; “Sifat” – masjid devoridagi yozuvlarda o‘qilgan ilohiy ism.

Mohir yozuvda qilingan kalligrafik devoriy yozuvlar masjidning ajralmas qismi hisoblanadi. Qur'on matnidan Xudoning tabiati va unga bo'lgan iymon haqida hikoya qiluvchi ko'plab parchalar masjidga kirish va ichki tomonlarida aks etgan. O'qish uchun mo'ljallangan, ular vizual tasvirlarni o'z ichiga olmaydi. S.S.Vaneyanning fikriga ko'ra, Qur'onning ushbu matnlari samoviy prototipning nusxasini anglatadi, yaratilmagan va abadiy tabiatga ega [4:689]. Islom madaniyatidagi masjidlar nafaqat mo'minning axloqiy pokligini, balki Alloh yaratgan dunyoning go'zalligini ham ifodalaydi. Masjid fenomeni go'zallik, ezgulik va hikmat uyg'unligi sifatida go'zallik va ulug'vorlik g'oyasini o'zida mujassam etgan.

Islom dini axloqiy va estetik mazmunni uyg'un tarzda o'zida mujassam etgan inson go'zalligini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Qur'onda Jamol – "chiroyli", Hasan – "go'zal", Komil – "mukammal", Sof – "poklik", Kabir – "buyuklik" kabi tushunchalarni uchratamiz. Bu va boshqa tushunchalarda insonning go'zalligi, eng avvalo, uning ichki xotirjamligi va mehr-oqibati ifodalanadi.

Islom diniga ko'ra, haqiqiy go'zallik tashqi emas, balki his bilan emas, aql bilan idrok etiladigan ichki go'zallikdir. U muloqot jarayonida albatta, olijanoblik, taqvodorlik, adolatlilik, mehr-oqibat va odamlarga muhabbat bilan ajralib turadigan insoniy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Tashqi go'zallik ham muhim, insonni jozibali qiladi. Zamonaviy Musulmon mutafakkiri M.G'azzoliy shunday yozadi: "Islom dini insonni go'zal va odobli qiyofani saqlashga buyurgan va u bu axloqni namoz odobiga kiritgan. "Ey Odam farzandlari! Bezaklaringizni hamma masjidlardan olinglar..." (7-sura, 31-oyat)" [1:239]. Haddan tashqari nafislik va nafosat, jingalaksiz chiroyli ko'rinishga intilish - bularning barchasi ma'naviy yuksaklikka va tashqi ko'rinishning go'zalligiga qaratilgan. [O'sha joyda:240].

Demak, axloqiy va estetika munosabatlari islom madaniyatida aks etishi arab-musulmon klassik davr falsafasi ilmiy merosida talqin etilgan bu tushunchalar bilan uzviy bog'liqligida ifodalanadi. Umumiy ezgulik va go'zallik g'oyasida, turmush tarzi va xulq-atvor madaniyatida mujassamlangan axloqiy va estetika uyg'unligi arab xattotligi va musulmon me'morchiligi kabi islom san'ati turlarining o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi, shuningdek, "inson go'zalligi" tushunchasida, yuqori axloqiy ichki mazmun va estetik jozibali ko'rinishni o'zida mujassam etgan.

Adabiyotlar:

1. Аль-Газали М. Нравственность мусульманина / пер. с арабского А.И.Рустамова. К. – М.: Ансар Фаундейшн; Умма, 2005. 364 с.

2. Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата: Наука, 1973. 436 с.

3. В РИИ преподают «геометрию души» [Электронный ресурс]. URL:http://www.e-vid.ru/index-m-192-p-63-article-35566-print-1.htm (дата обращения: 22.09.2016).

4. Ванеян С.С. Тело символа. Архитектурный символизм в зеркале классической методологии. М.: Прогресс-Традиция, 2010. 831 с.

5. Мэхри Г.Г., Алиева У.Д. Исламская эстетика и форма в исламском искусстве // Alma mater (Вестник высшей школы).2015. № 8. С. 101-104.

6. Наследие Абу Насра аль-Фараби в трудах Института философии, политологии и религиоведения КН МОН РК (библиография: 1991-2012 гг.) / под ред. З. К. Шаукеновой. Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2012. 78 с.

7. Рахимшикова М. К. Эстетические взгляды Абу Насра аль-Фараби: автореф. дисс. ... к. филос. н. Ташкент, 2010. 27 с.

8. Сейтахметова Н.Л., Бектенова М.К. Гармония этического и эстетического в феномене мечети: на примере г. Ал-маты // Алматы – столица исламской культуры 2015 года: материалы Международной конференции (г. Алматы, 24-25 февраля 2015 года). Алматы, 2015. С. 54-66.

9. Урынбасаров А. От эстетики – к этике [Электронный ресурс]. URL: http://e-islam.kz/ru/islam-zhane-qagam/vnutrenniekategorii/islam-zhane-madeniet/item/6977-ot-estetiki-k-etike (дата обращения: 28.10.2016).

РЕЗЮМЕ

Maqola islom madaniyatida axloq va estetika munosabatlari muammosiga bag‘ishlangan. Mualliflar O‘rta asr musulmon falsafasining atoqli namoyandasi Abu Nasr Forobiy qo‘ygan muammoni tushunishni tahlil qiladilar. Axloqiy va estetika o‘rtasidagi munosabat islom san’atining arab xattotligi va musulmon me’morchiligi kabi turlarining o‘ziga xos xususiyatlariga murojaat qilish orqali, shuningdek, “inson go‘zalligi” tushunchasining estetik mazmuni, uning axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlari orqali talqin qilish doirasida o‘rganiladi.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена проблеме взаимоотношения этического и эстетического в исламской культуре. Авторами анализируется осмысление поставленной проблемы ярким представителем классической арабомусульманской философии Абу Насром аль-Фараби. Взаимосвязь этического и эстетического исследуется в ходе обращения к характерным особенностям таких видов искусства ислама, как арабская каллиграфия и мусульманская архитектура, а также в рамках интерпретации понятия «красота человека» через его нравственное и эстетическое содержание.

SUMMARY

The article is devoted to the problem of the relationship between the ethical and the aesthetic in Islamic culture. The authors analyze the understanding of the problem posed by the prominent representative of classical Arab-Muslim philosophy Abu Nasr al-Farabi. The relationship between the ethical and the aesthetic is explored by referring to the characteristic features of such types of Islamic art as Arabic calligraphy and Muslim architecture, as well as within the framework of the interpretation of the concept of “human beauty” through its moral and aesthetic content.

АЗИЗИДДИН НАСАФИЙНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ ВА ИЖОДИЙ МЕРОСИ

Казакова М.Қ.
Қарши Давлат университети
Бошланғич таълим кафедраси доценти

Таянч сўзлар: маънавий мерос, таълим - тарбия, илмий-методик жиҳат, камолот, баркамол авлод, қадрият.

Ключевые слова: духовное наследие, образование - образование, научно-методический аспект, совершенство , идеальное поколение, значение…

Key words: spiritual heritage, education - education, scientific and methodological aspect, perfection, ideal generation, value .

Азизиддин Насафий ҳижрий 700 йилларнинг (милодий 1200-1300 йиллар) йирик файласуф шоири ва буюк тасаввуфчиларидан бири бўлган. У мазкур даврнинг йирик суфийси Саъдуддин Ҳамавийнинг муриди ёки бошқача айтадиган бўлсак шогирди ҳисобланган. Азизиддин Насафий ўзининг кўплаб асарларида у кишини ҳурмат ва эҳтиром ила "кекса (пир)", "мурод", "бизнинг шайх" ва бошқа номлар билан атаган. Азизиддин Насафий Қорахонийлар, Салжуқийлар, Ғазнавийлар ва муғул хонларининг босқинчилик, талон-тарожлик даврида яшаган. Бу вақт аҳолининг барча қатламларини, жумладан фан ва маданият аҳлини сиқувга олинган пайтига тўғри келади. Натижада, уларнинг кўпчилиги ўзларининг қадрдон манзилларини ташлаб ўзга юртларга бош-пана излашдан бошқа чоралари қолмаганлиги таъкидлаб ўтилган. Бобокалонимиз Азизиддин Насафийнинг ҳам бу қисматдан қутилиш имкони бўлмаган. Эҳтимол, буюк мутафаккирнинг бой мероси ўрганилиши тадқиқотчилар эътиборидан четда қолганлигининг сабаби ҳам балки шундадир. Эронлик тадқиқотчи Махдавий Домғаний бу ҳақда қуйидагича ёзади: "Улкан илмий меъросининг мавжудлигига қарамасдан ушбу буюк инсон номаълумлигича ва ўрганилмаганлигича қолиб келган. Ундан тасаввуф ва илмий ижодда анча пастда турадиган кишилар кўпроқ ўрганилганлигининг са-

баби ҳам шундадир” . Кўплаб мутафаккирлар билан бирга Абдураҳмон Жомий ҳам Азизиддинни амалга оширган ишларини эътибордан четда қолдиришган ва ҳаётда уни омадсиз деб қарашган, Домғаний эса уларни фикрига қўшилмаслигини қайд этган.

Азизиддин Насафий ҳақидаги бундай ҳолатни Домғаний қуйдагича изоҳлайди: “…бир сўз билан айтданда бу беташвиш ва ҳилватни ёқтирадиган тасаввуф номоёндаси манбаларнинг қайд этишича шахсан, машҳурлик ва таниқлиликдан кўра машҳур бўлмасликни, тарки-дунёчиликни афзал билган” .

Мазкур тадқиқотчининг сўзлари ҳақиқатдир. Маҳмуд Домғанийнинг фикрларига қўшилган ҳолда айтишимиз мумкинки, мутафаккирнинг асарлар ва солномалар муаллифлари диққат эътиборидан четда қолишининг сабабларидан бири – унинг ҳаётий беҳаловатлиги бўлса, бошқа сабабларидан бири эса унинг тарки дунёчилиги ва зоҳидлигидадир. Бу мутафаккирнинг “камтарлик машҳурликдан устунроқдир” деган фири билан ҳам ўз тасдиғини топади.

Азизиддин Насафий ҳақида биринчилардан бўлиб антология муаллифи (таскирачи) Ҳусайин Бойқоро “Мажлис ал ушшоқ” (Севишганлар мажлиси)да маълумотлар беради. Сўнгра эса Ризоқулихон Хидоят “Риёзул-орифин” (Тасаввуфчилар боғи) да юқоридаги муаллифнинг фикирларини деярли такрорлаб ўтади. Бир қанча бошқа антологиялар (таскиралар) муаллифлари ҳам Ҳусайн Бойқоро маълумотларини такрорлайди. Бошқа муаллифлар эса бу маълумотлар билан чекланмаган ҳолда ривоят ва нақилларни ҳам келтириб ўтганлар.

Аммо, Европа шарқшунослигида Азизиддин Насафий алоҳида эътибор ва ўринни эгаллайди. Европа тадқиқотчиларида тасаввуф ва сўфизимга ўзига хос муносабат ҳамда боғлиқлик мавжуд. Хусусан, Ғарб тадқиқотчилари бошқа тадқиқотчиларга қараганда Азизиддин Насафийнинг ижодини ўрганишга алоҳида эътибор қаратишган.

1665 йилда Август Муюллер Насафийнинг “Мақсад-у-ақсо” (“Олисдаги мақсад”) номли китобини бир неча қисмини лотин тилида нашр эттирди. Шундан сўнг, узоқ йиллар давомида сўфизм бўйича классик иш ҳисобланган “Суфизм кўзгуси” деб номланган асарда унинг муаллифи Солвак Август Мюллернинг ишидан манба сифатида фойдаланган. Ўн тўққизинчи асрга келиб шарқшунос олимлар Ф.Толюк ва Е.Пальмерлар Азизиддин Насафийнинг меросига мурожат қилишди. Пальмер “Мақсадул-ақсо” (“Олисдаги мақсад”) асарига изоҳлар ва шарҳларни чоп эттиради. Шундан сўнг эса ўтган асрнинг ўрталаригача немис шарқшуноси

Фриц Мейер Азизиддин Насфийнинг иккита асарига “Кашфул ҳақойиқ” ва “Ат- Танзил” (“Ерга юборилган туҳфа”) асарига эътиборини қаратмагунча давом этди. У мазкур асарлар қўлёзмасини Истанбул кутубхонасида учратади ва Азизиддин Насфийнинг ҳаёти, ижодига бағишлаб унча катта бўлмаган асар ёзиб чоп эттиради. Кейинчалик унинг бу асари кўплаб шарқшуносларнинг эътиборини ўзига қаратади ва улар Мейернинг ушбу асаридан фойдаланишади.

1964 йилда Море Жан Мола Азизиддин Насфийнинг “Инсони комил” номли асарлар тўпламини кенгайтирилган кириш қисми билан француз тилида чоп эттиради. Эронлик тадқиқотчи Аҳмад Маҳдавий Домғаний 1965 йилда Азизиддин Насфийнинг “Кашф-ул-ҳақойиқ” асарини тайёрлаб чоп эттиради. Рус шарқшунос олими А.Е.Бертельс “Беш фалсафий асар” деб номланган китобида “Афок ва анфус” мавзусида Азизиддин Насфийнинг “Зубдат-ул-ҳақойиқ” асарини рус тилидаги таржимасини шу китобида жойлаштирди. “Кашф ул ҳақойиқ” (“Ҳақиқатлар кашфи”) асари мутафаккирнинг энг қизиқарли ва ажойиб асарларидан бири ҳисобланади. Унда Азизиддин Насфий билишнинг асосий муаммоларини қараб чиқади ва турли диний-фалсафий оқимлар нуқтаи назарини объектив равишда баён этади. Шариат тарафдорлари, бирлашиш тарафдорлари таълимотини ва суфийлик оқимларини у шу асарида ёритиб берди. Асарда уларнинг қарашларини, айтганларини ҳеч қандай қўшимча ва ўзгаришларсиз келтириб, унинг ниҳоясида мутафаккирларнинг у ёки бу мулоҳазаларига ўз муносабатини ифода этади.

Азизиддин Насфий ўзининг “Мабдаъ ва маод” (Чиқиш ва қайтиш) асари ҳақида фикр билдириб, унинг айтишича бу асар ҳажми жиҳатида жуда катта бўлиб, маълумотсиз кишилар учун уни тушуниш қийин кечадиган асардир. Шу сабабдан ҳам улар мутафаккирдан “Мабдаъ ва маод” асарини асосий мазмун-моҳиятини қисқартирилган шаклда баён қилиб беришини сўрашади. Азизиддин уларни илтимосини инобатга олиб, мазкур асарни, яъни “Мабда ва маод”ни қисқартирилган вариантини яратади ва уни “Зубтат-ул-ҳақойиқ”

(“Ҳақиқатлар қаймоғи”) деб номлайди. Насафий бошқа асарларидагидек “Зубдат-ул-ҳақойиқ” асарида ҳам мавжуд турли фалсафий таълимотларнинг тарихий қиёсий таҳлилини келтиради, жумладан, макро ва микро дунёни билишга нисбатан, “манба” ва “қайтиш”, “пасайиш” ва “кўтарилиш” кабиларни қиёсий таҳлил қилиб беради. Мутафаккир объектив тарзда бирор-бир гуруҳни фикрига қўшилмаган ҳолда уларни таълимотларини баён қилади.

Насафийнинг айтишича “Баёни танзил” (“Нузул баёни”)ни бир гуруҳ дарвишлар ундан ҳажми жиҳатидан “Танзил”дан катта ва “Кашф ул ҳақойиқ”дан кичик бўлган китоб ёзиб беришни илтимос қилишади. Бу китоб таркибига кўра “Танзил” шаклида ёзилиб, тўққиз бобни ташкил қилади. Юқорида айтиб ўтилган асарлардан ташқари манбалар Азизиддин Насфийнинг қаламига мансуб бўлган кўплаб китоблар яратилганлиги ҳақида айтишади, аммо мазкур асарларни айнан Азизиддин Насфийга тегишли эканлиги баҳслидир, яъни маълумотлар аниқ эмас. Азизиддин Насфийдан мерос бўлиб қолган асарлар Истанбул, Теҳрон, Лондон, Калкутта, Вена ва Санкт Петербург ва Душанбе шаҳарлари кутубхоналарида сақанмоқда. Республикамизда Нажмиддин Комилов томонидан ўзбек тилига Азизиддин Насафийнинг “Зубдат-ул-ҳақойиқ” асари таржима қилинди ва 2001йилда чоп эттирилди. У кишининг “Тасаввуф” номли асаридаги комил инсон ҳақидаги фикрлари асосини Азизиддин Насафий асарлари негизидаги талқин ётади.

Шу билан бирга, Азизиддин Насафийнинг “Комил инсон китоби” таркибидаги бешинчи ва еттинчи рисолалари, яъни “Сулук баёнида” ва “Ишқ баёнида” рисолалари адабиётчи изланувчи Олим Давлат томонидан ўзбек тилига таржима қилиниб, китобхонларга тақдим этилган

Лекин, бу асарлар нашр эттирилиши ҳам орадаги бўшлиқни тўлдира олмайди. Чунки, Азизиддин Насафийнинг ҳаёт йўли ва ижодини ўрганишдаги қийинчиликлар, унинг исми ва таҳаллусини маъносини аниқлашда ҳам учрайди. Суфизимнинг баъзи-бир намоёндалари уни “Азизуддин” деб, баъзилари эса “Абдулазиз” ёки қисқача қилиб “Азиз” деб, бошқалари эса унинг тўлиқ исми “Абдулазиз Мухаммад ибн Муҳаммад ан- Насафий” деб атайдилар, бу эса ҳақиқатдан йироқдир. Шу сабабдан ҳам у кишининг ҳақиқий исми ҳақидаги маълумотлар ҳалигача жуда кўп баҳс-мунозарага сабаб бўлиб келмоқда. “Зубдат-ул-ҳақойиқ” асарининг мундарижасида келтирилишича бу файласуфнинг исми Шайх Азизиддин Насафий деб битилганлиги сабабли бу ҳақиқатга яқинроқдир. Тахминларга кўра Насафий исми у яшаган даврга бориб тақалади. “Кашф-ул-ҳақойиқ”, ҳамда “Китоб инсон -ал-комил-фи маърифат-ал-вофир” асарларининг кириш қисмларидаги унинг сўзлари мазкур ҳолатни тасдиқлайди. Мутафаккир ўз асарлари тўпламини айнан шу исм ва шу усул билан билан бошлаган яъни, “кучсизлар дармонсизлиги ҳақида гапирувчи ва ожизлар хизматкори Азиз ибн Мухаммад Насафи, …” .

Азизиддин Насафий тахминан 1240 йилда Насаф шаҳрида (ҳозирги Қарши шаҳрида) дунёга келган. У кишининг отаси маълумотга эга ўқи-

мишли киши бўлган бўлса керак. Ёшлик чоғларини туғилган қадрдон шаҳрида ўтказади ва дастлабки саводини шу ерда чиқарган. Шундан кейин, илм олишни давом эттириш мақсадида Бухорога келади ва таҳсил олишни ўша ерда давом эттиради. Азизиддин Насафий 1273 йилда Бухорони тарк этиб, Хуросонга йўл олади, бир неча вақт Бахрободда устози Шайх Саъдиддин Ҳумавийнинг уйида яшайди, кейинчалик эса Исфахон ва Шерозга йўл олади. Кун ва тунни хар хил жойларда ўтказиб, ўзи учун қулай бўлган истоқомат жойини топа олмайди .

Насафийнинг таъкидлашига кўра у умрини кўп қисмини йўлда ва бегона юртларда сарсон-саргардонликда ўтказган, бу беҳаловатлилик, танҳолик унинг шаклланиши ва ҳаётида ўчмас из бўлиб қолади.

Азизиддин Насафийнинг Ватани бўлмиш Насаф ёки Нахшаб 13-асрда Мавароуннаҳрдаги энг эътиборли нуфузли шаҳарлардан бири ҳисобланган. Чунки, Насаф шаҳри маданиятининг юқорилиги, шу даврдаги ўзининг маърифатли кишилари билан машҳур бўлган. Насаф ёки Нахшаб шаҳри Мовараунаҳрдаги ривожланишига кўра катта шаҳарлардан бири саналган.

Тарихий манбаларда Насаф мустақил вилоят сифатида қайд этилиб, ислом дини кириб келгунига қадар ҳам ривожланиши нуқтаи назаридан жуда юқори ҳисобланган. Насаф шаҳри ҳукмдорининг салтанати султон салтанатига тенглаштирилган .

Домғонийнинг таърифлашича Насафнинг шуҳрати ва таъсири султон даражасида ва бу ҳақда Хурдодбех ўзининг “ал-Масолик вал-мамолик” асарида Нахшаб ҳукмдорини “Нахшабоншоҳ” яъни Насаф Шоҳи деб атайди.

Насаф ва унинг тарихи ҳақида кўплаб солномачилар ва таскирачилар бир қанча маълумотларни ёзиб қолдиришган. Хусусан, Муқаддаси Башори “Ақсон ун-тақсим” асарида, Ёқубий ўзининг “Ал-булдон” (“Доно билимдон”) асарида, “Ҳудуд ал-олам” муаллифи Ибн Хурдодбек ўзининг “ал-Масолик вал-мамолик” асарларида Насаф ҳақида бир қанча маълумотларни келтириб ўтганлар. Шунингдек атрофлича маълумотларни Ёқубнинг “Муъчам-ул-булдон” ва Казвинийнинг “Осор ул-булдон” асарларида ҳам топиш мумкин. Махдавий Домғаний қайд этиб ўтилган манбалардаги маълумотларга таяниб, инглиз шарқшунос тадқиқотчиси Лустаранджунинг “Шарқ Халифатидаги ерлар” асарида Насаф шаҳри ҳақида атрофлича, жуда қимматли маълумотларни келтириб ўтганлигини қайд этади.

Шуни атйишимиз мумкинки, Азизиддин Насафий лаганбардорлик қиладиган ва мукофот кутувчи сўфийлардан бўлмаган. У таркидунёчиликни танлади, дунёнинг лаззатларидан ва бойлигидан кўра илм ўрганиш фойдалидир деб ҳисоблади. Билгилки, сулук шарти олтитадир. Биринчиси, тарк эрур - мол-дунё, амал-мансаб ҳаваси, маъсияту ёмон хислатларни тарк этмокдир. Иккинчиси - сулҳдир. Яъни олам аҳли билан бирваракайига сулҳ қилур, бировга қўли ё тили билан озор бермас, шафқат ва марҳаматини ҳеч кимдан дариғ тутмас, ҳаммани ўзидек ожиз, бечора ва толиб деб билур. Учинчиси -узлат, тўртинчиси - хомушлик, бешинчиси - очлик, олтинчиси сеҳр ҳақида билим ҳосил қилиш эрур деб таъкидлаб ўтган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак Азизиддин Насафийнинг комил инсон тарбиясига доир қарашлари саккиз юз йил ўтса ҳам ўз қадр-қимматини йўқотмаган. дунёда глобал муаммо саналган инсонпарварлик яъни шахс маънавиятини шкллантиришда дастурул амал манбалиги билан аҳамиятлидир.

Адабиётлар:

1. Ахмад Махдави Домғони. Мукаддима ба «Кашф-ул-ҳақоиқ». -Техрон, 1353х. 18-б.
2. Азиз Насафи. Китоб инсон-ал-комил-фи маърифат-ал-вофир. 16-б.
3. Азизддин Насафи. Китоб -ул - инсон. – 95-б
4. Абдурафеъи Хакикат (Рафеъ). Таърихи ирфон ва орифони Эроний. - Техрон, 1372,- 23 б.
5. Насаф ва Кеш тарихи манбаларда / Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Масъул муҳаррир О.Бўриев. – Тошкент: Қарши давлат университети, 2010. – 3-бет.
6. Комилов Н.Тасаввуф. 1–китоб. Тошкент., Ёзувчи, 1996, 147-152-б.

РЕЗЮМЕ

Бугунги кунда мамлакатимизда Шарқ мутафаккирлари меросини ўрганиш бўйича кўламли ишлар бошлаб юборилди. Жумладан, Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг “Қадимги ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора - тадбирлари тўғрисида”ги 2017йил 24-майдаги Қарори асосида муқаддас динимиз, миллий қадриятларимизни, буюк азиз-авлиёларимизнинг хотираси, меросини тиклаш, қадамжоларини обод қилиш бўйича жуда кўплаб ишлар қилинди ва қилинмоқда. Ушбу мақола қадимий ва ҳамиша навқирон Насаф (ҳозирги Қарши) заминида туғлган аждодимиз Азизиддин Насафийнинг ахлоқий-маънавий меросининг таълм – тарбия жараёнидаги аҳамиятига тўхталамиз.

РЕЗЮМЕ

Масштабное изучение наследия восточных мыслителей уже началось в нашей стране. В частности, президент Мирзиёев Ш. на основании Постановления от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, изучения и популяризации древних письменных источников» Много работы было проделано и продолжается. Эта статья посвящена важности морального и духовного наследия нашего предка Азизиддина Насафи, который родился на земле древнего и вечно молодого Насафа (ныне Карши).

SUMMARY

A large-scale study of the heritage of Eastern thinkers has already begun in our country. In particular, President Mirziyoyev Sh. On the basis of the Decree of May 24, 2017 “On measures to further improve the system of preservation, study and popularization of ancient written sources”, a lot of work has been done and continues.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI IJODIDA O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHALARINING YORITILISHI

Karamova M.F.
Xalqaro innovatsion universitet o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: intellekt, tafakkur, ilm, aqliy kamolot, qobiliyat, o‘qituvchi, metod, ta’lim, dars, tarbiya.

Ключевые слова: интеллект, мышление, наука, интеллектуальная зрелость, способности, учитель, метод, урок, воспитание.

Key words: intellect, thinking, science, intellectual maturity, ability, teacher, method, lesson, education.

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini inson tafakkuri va aqliy salohiyati, ma’naviyati va madaniyati belgilab beradi. Insondagi ushbu hislatlar bevosita ta’lim dargohlarida shakllanadi va rivojlanadi. Maktabdagi ta’lim va tarbiya tizimi esa farzandlarimizning rivojlanayotgan qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga, ularning intellektual imkoniyatlariga asoslanib, kuchli shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borlikni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi».

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yovuzliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo‘ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma’rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish yetakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm-ma’rifat zulm va bid’atdan forig‘ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g‘oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam bo‘ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli,

bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg‘u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur».

Sharq mutafakkirlari o‘quvchining aqliy salohiyatini oshirishda o‘qituvchining roli beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, ularning boy merosida jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o‘rni haqida batafsil to‘xtalingan. Jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar o‘z davrida Sharq mutafakkirlarining asarlarida o‘z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o‘qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya’ni, u o‘zi ega bo‘lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o‘rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo‘la oladi.

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida o‘qituvchi bolalarga ta’lim berishdek mas’uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvafaqiyatga erishish garovi bo‘lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;

2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish;

3) ta’limda turli shakl va metodlardan foydalanish;

4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

5) fanga qiziqtira olishi;

6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

8) har bir so‘zning boalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish.

Alisher Navoiy o‘z davrining ayrim maktabdorlari ega bo‘lgan sifatlar, xususan, qattiqqo‘llik, ta’magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo‘yadi. Xususan, «mudarris

kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgazmasa va olg‘irlik uchun gap-so‘z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa. ... Yaramasliklardan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».

Ayni o‘rinda o‘qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta’kidlab o‘tadi: «Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to‘dada fahm-farosati ozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila».

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta’kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur», - deydi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish muhimdir. Jamiyat taraqqiyoti teran fikrlovchi, aqlli shaxslar rivojiga bog‘liq, bunda jamiyat inson intellekti rivojini ta’minlasa, inson ana shunday jamiyat rivojlantirgan intellekti, kreativligi bilan jamiyatni taraqqiy ettiradi. Aqliy kamolatning rivoji ko‘p jihatdan o‘quv faoliyati bilan bog‘liq masaladir. O‘quv faoliyatida ushbu vazifani bajarish esa o‘qituvchilardan katta mas’uliyat talab etadi. O‘qituvchilarning faoliyatini munosib baholab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o‘qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo‘lgan bu mo‘tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatishimiz kerak”, – deb ta’kidlaydi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub.– Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, Yoshlar mashriyot uyi, 2018.

3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. //Darslik. - Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

4. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993.

5. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino, Ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O'qituvchi, 1991.

6. O'zbek pedagogikasi antologiyasi //Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Safo Ochil. – Toshkent, O'qituvchi, 1995.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining ijodida inson aqliy bilimi, tafakkuri hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari haqida ma'lumot berilgan. Ta'lim jarayonida o'qituvchining roli hamda o'quvchilar ilm egallashining amaliy ahamiyati yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены сведения о психических познаниях человека, мышлении и развитии интеллектуального потенциала учащихся в трудах восточных мыслителей. Выделены роль преподавателя в образовательном процессе и практическая значимость приобретения студентами знаний.

SUMMARY

This article provides information about human mental knowledge, thinking, and the development of students' intellectual potential in the works of Eastern thinkers. The role of the teacher in the educational process and the practical importance of students' acquisition of knowledge are highlighted.

TARIXIY MANBALAR SHARHI – OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUSIQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Ernazarova G.O.
ChDPU, "Umumiy pedagogika" kafedrasi mudiri, p.f.d., prof.
Abdullayev X.Sh.
ChDPU, mustaqil tadqiqodchi

Tayanch so`zlar: musiqiy madaniyat, tarixiy manba, ma'naviy musiqiy madaniyat, ma'lumot, mustaqil ishlar, musiqiy meros, musiqa atamalari, madaniy sifatlarni tarbiyalash.

Ключевые слова: музыкальная культура, исторический ресурс, духовная музыкальная культура, информация, самостоятельная работа, музыкальное наследие, музыкальные термины, воспитание культурных качеств.

Key words: musical culture, historical resource, spiritual musical culture, information, independent work, musical heritage, musical terms, education of cultural qualities.

Yosh avlodning hayot va san'atdagi go'zalliklarni teran idrok etishida, ularning madaniy tuyg'u va badiiy didlarini o'stirishda adabiyot, madaniyat va san'at katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham pedagogika fani, ta'lim amaliyotida o'ziga xos maktab yaratgan mashhur allomalar, olimlar, tarbiyachilar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida musiqiy mazmun va mohiyat kasb etuvchi bilimlarga alohida ahamiyat berganlar. Ular musiqiy madaniyatga daxldor har bir mashg'ulot shaxsning barkamol rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazishda muhim vositalardan biri ekanligini ta'kidlaganlar .

Xususan, Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin Sheroziy (1236-1310), Abdulqodir Marog'iy (XIV asr), Mahmud Omuliy (vafoti 1349), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Zaynulobidin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabiy (XVI asr), Darvish Ali Changiy (XVII asr) kabi allomalar Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiylarning musiqa ilmi haqidagi asarlari shunga misol bo'la oladi. X-XI asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini manbashunoslik va matnshunoslik jihatidan o'rganish XX asrning o'ttizinchi yillaridan qizg'in pallaga kirdi.

Bu xayrli ishning peshqadami buyuk frantsuz olimi baron D' Yerlanje bo'ldi. 1930-1939 yillar davomida uning Parijda nashr ettirgan "Arab musiqasi" nomli ko'p jildlik asarida o'rta asrlarda arab tilida yaratilgan musiqiynazariy risolalardan asosiylari frantsuzcha erkin tarjimasi, tahlili va sharhi bilan berilgan edi. Biroq bu ulkan ish tarkibiga risolalarning asl matnlari kirmagan [2].

Hozirgi kun nuqtai nazaridan musiqa atamalarining sharhida noaniqliklar bordek tuyuladi. Bu noaniqliklar Sharq (arab) musiqa atama va tushunchalarini Yevropa xalqlari musiqa atama va tushunchalariga moslashga harakat qilishida bo'lishi mumkin.

Ammo D' Yerlanjening mazkur asari o'z qiymatini yo'qotgan emas, o'rta asrlar Sharq musiqa ilmiga tegishli risolalarni o'rganuvchilar uchun u hamon qimmatli manbadir. X-XI asrlarda O'rta Osiyodan chiqqan olimlar tomonidan arab tilida yaratilgan musiqa ilmiga oid uch muhim asar qo'lyozmalari XX asr arab sharqshunoslari tomonidan tadqiq etilgan, tanqidiy matnlari tuzilgan va nashr etilgan [1].

Birinchisi, Ibn Sinoning "Musiqa ilmi to'plami"ning tanqidiy matni 1956 yil Qohirada nashrdan chiqdi. Tanqidiy matn va kitob muqaddimasini Zakariya Yusuf tayyorlagan. Muqaddimada "Musiqa ilmi to'plami"ning mavjud va ma'lum qo'lyozmalari haqida gap boradi. Kitobda Mahmud Ahmad Hafniyning kirish so'zi ham bor. Kirish so'zida o'rta asrlar Sharq musiqashunosligi, Kindiy, Forobiy va Ibn Sino musiqiy-nazariy qarashlari muhokama qilinadi va tanqidiy matnni tayyorlashda foydalanilgan qo'lyozmalardan ikkitasiga baho beriladi [5].

Umuman, Ibn Sinoning "Musiqa ilmi to'plami" asarining tanqidiy matni uchun yozilgan muqaddima ilmiy jihatdan kamtarona yozilgan. Ikkinchisi, 1964 yil Zakariya Yusuf Ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitob"ining tanqidiy matnini chop etdi. Nihoyat, 1967 yilda G'attos Abdulmalik Hashaba Forobiyning "Katta musiqa kitobi"ning tanqidiy matnini ilmiy sharhi bilan e'lon qildi.

Mazkur tadqiqotga Mahmud Ahmad Hafniy muharrirlik qildi va kirish so'zi yozdi. Bundan tashqari, tanqidiy matn oldidan tadqiqotchi G'attos Abdulmalik Hashabaning muqaddimasi bor.

Ustoz Hashaba betma-bet berib borgan sharhlar hajmi tanqidiy matnning hajmidan ancha katta. Matnning sharhi ilmiy tomondan puxta jihozlangan. Tarixiylik tamoyilini tashkil etish biz kuzatgan OTM sharoitida «Musiqa adabiyoti» kursini o'qitish jarayonida Sharq mutafakkirlarining ta'limoti hamda zamonaviy yangi uslubiy-nazariy ma'lumotlarni talabalarga yetkazishda muhim ahamiyatga egadir. Bunda eng muhim vazifalardan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz-shoirlar, olimlarning merosini xalq mulkiga aylantirishdan iborat.

Shuningdek, yoshlarda xalqning o'z tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq manbalarga ishonchni orttirish zarurdir. Madaniy saviyaning shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha jihatlari bilan birga chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi.

Tadqiqotimiz jarayonida qimmatli tarixiy manbalar hisoblangan «Avesto», Ma'mun akademiyasi olimlari asarlari va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiylarning ma'naviy axloqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, ularni ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida talabalarga taqdim etishga harakat qildik.

Tadqiqot vazifalariga muvofiq talabalarning musiqiy madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari pedagogik qarashlar, tarixiy manbalar, talaba musiqiy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalar, ularning pedagogika fani rivojidagi ahamiyati, mutaxassislar tayyorlashdagi imkoniyatlari, bu imkoniyatlarni pedagogika fanini o'qitishda foydalanishga qaratilgan model ishlab chiqish borasida amaliy ish olib borildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi [4].

Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilar uchun talabalarning musiqiy madaniyatini shakllantirish, «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi allomalari qarashlari orqali talabalarda madaniy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirish mazmuni quyidagilardan iborat deb topildi:

1. O'qituvchi o'rganiladigan fan, har bir mavzuning talabalar musiqiy madaniyatini shakllantirish va ularni o'tmishning boy merosi bilan tanishtirish imkoniyatlarini bilishi va hisobga olishi zarur.

2. Musiqiy madaniyatni shakllantirishning ildizlari qadim o'tmishga borib taqalishini, ta'lim-tarbiya masalalarini tarixiy va nodir manbalar bilan bog'lay olishi kerak.

3. Mutafakkirlar Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiyning pedagogik g'oyalarining asosiy yo'nalishlari, ularning inson, uning jamiyatdagi o'rni, fan va dinning o'zaro munosabatlari, tarbiyaning maqsadi, tarkibiy qismlari, musiqa va estetik tarbiya; ularni tashkil etish shakli va usullari, tamoyillari, ta'lim jarayonlari bo'yicha gnoseologik qarashlarini bilishi muhim.

4. Sharq allomalarining musiqiy madaniyatni shakllantirishga oid fikr va g'oyalarini yoritib beradigan materiallarni har bir mavzuga zo'rmazo'raki emas, balki ularni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv materiali mazmuniga mantiqiy va tabiiy mos holda uyg'unlashtirish zarur.

5. Tanlangan material ilmiy, asosli, izchil, ishonchli, yorqin va obrazli bayon qilinishi, talabalarning alohida qiziqish va e'tiborini jalb qilishi kerak.

6. Talaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarida uzviylikka e'tiborni qaratish va amal qilinishi lozim. Sharq musiqasi – sharq falsafasining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o'rni benihoya buyuk.

Sharq xalqlari musiqa madaniyati tarixini o'rganishda o'rta asrlar musiqa ilmiga oid asarlar asosiy manba sifatida qaralishi kerak. Bu asarlar turli shaqllarda, jumladan, mustaqil risola sifatida yoki qomusiy asarning bir qismi sifatida arab, fors va turkiy tillarda Yaqin va O'rta Sharqda ko'p asrlar davomida, ya'ni VII asrdan XX asrga qadar yaratildi [6].

Musiqa ilmining rivojida eng muhim davrlardan biri, Sharq Uyg'onish davri yoki Musulmon Uyg'onish davri deb ta'riflangan X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga xos musiqa ilmi quyidagi belgilar bilan ajralib turar edi:

1) beqiyos samaradorligi (musiqa ilmiga oid yuzlab asarlar yaratilgan, biroq ulardan ba'zilarigina bizgacha saqlanib qolgan);

2) yuqori nazariy saviyasi;

3) arab tilining ilm tili sifatida hukmronligi (musiqa ilmiga oid asarlar asosan, arab tilida yozilgan);

4) musiqaga doir manbalarning to'plana boshlashi bilan O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olim va mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Abu Abdulloh Xorazmiy X-XI asrlar Sharq musiqa ilmining shakllanishiga va rivojiga asosiy va hal qiluvchi hissa qo'shganlar.

Musiqaning kelib chiqishini turli afsonalar, diniy rivoyatlar bilan bog'lamagan holda ilmiy yondashuv bilan sharhlagan bu zotlar musiqa ilmini matematikaning tarkibiy qismi deb qaraganlar va ular yaratgan bu sof ilmiy yo'nalish xalaflar tomonidan qabul qilingan [6].

Masalan, "Qobusnoma" muallifi Kaykovus shunday yozadi: "Hamma vaqt chalaverma, chunki barcha yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham birbirlariga muvofiq emas, chunki xalq xilmaxildir.

Shuning uchun musiqa ilmining ustozlari musiqa asboblariga shunday tartib berganlarki, avval podshohlar majlisi uchun hisravona dostonlar tuzganlar, undan keyin vaznsiz bir og'ir yo'l tuzdilarki, uni maqom bilan aytsa bo'ladi, unga og'ir yo'l deb nom berdilar. Bu yo'l keksalarning va aqlli odamlarning tabiatiga mos

keladi. Bu yo'lni shunday qavm uchun yaratdilar. So'ngra ustozlar ko'rdilarki, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilar emas.

Shuning uchun yigitlarga moslab bir yo'l ishlab chiqdilar.

So'ngra yengilroq vaznli she'rlar uchun yengil yo'llar tuzdilar, bularga "xafif" deb nom qo'ydilar. Og'ir yo'ldan so'ng bu xafif yo'lni chaldilar, musiqachilar bundan qarilar ham, yigitlar ham bahramand bo'lsinlar, deb o'yladilar. So'ngra yosh bolalar va yoqimli tabiatli odamlarning ba'zilari bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar, chunki hamma vaznlarning orasida taronadan yoqimli vazn yo'qdir. Demak, bularning hammasini bir xil qilib chalmagil, bir xil qilib kuylamagin, men aytgandek chalgil. Demak, butun xalq, sening sozingdan, ovozingdan bahramand bo'lsin". Kaykovusning mazkur fikrlari musiqa ilmining jamiyat talablariga asosan rivojlanib borganini o'rganishda muhimdir.

Musiqiy merosni o'rganishda Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi ham diqqatga sazovor manbalardan hisoblanadi. San'atshunoslik fanlari doktori A.F.Nazarovning tadqiqotida Forobiyning g'oyasi tarixda birinchi bo'lib vujudga kelgan musiqiyvirtual vaqt ta'limoti sifatida baholanadi. Shuningdek, Forobiy iyqo' nazariyasining unsuriy asoslari, davr, fosila, usul, djins, zamonul-mabda'a, mikyolul-avval, zamon (azmina), intiqol va boshqa tushunchalarining ma'no doiralari yoritiladi, iyqo' turlari, shaql va sinflarining tasnifi sharhlanadi.

Tadqiqotda Forobiy ilk bor tasnif qilgan 12 asosiy iyqo' shaqllari – usullar, ularning ikki – saqil va xafif – sinflarga ajratilgan turlari batafsil bayon etilgan. Forobiyning birinchilardan bo'lib tartib bergan 16 ritmik naziralar – ma'uulot tizimi ishda alohida tushuntirilgan. Eng avvalo, Forobiyning o'zi mohir musiqachi bo'lgan. U ijro etgan kuylarning tinglovchilarga qanchalik ta'sir etganligi haqida o'sha davrdagi afsona va rivoyatlar hozirgi kungacha yetib kelgan. Forobiy shu bilan birga mohir bastakor, musiqa nazariyotchisi, shuningdek musiqa cholg'usi ijodkori hamdir. U yasagan soz turli manbalarda turlicha, ya'ni ud, g'ijjak yoki qonun deb atalib kelingan.

Forobiy «Musiqa haqida katta kitob» nomli ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida mashhur bo'ldi. U musiqa ilmini nazariy, amaliy tarmoqlariga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib ilmi ta'rif va ilmi iqo'ga ajratadi.

Forobiy musiqa nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy-ilmiy ta'rifini beribgina qolmay, kuylar garmoniyasining matematik printsiplarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko'plab murakkab chizmalar keltiradi. U Sharq musiqasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab bergan. Ritmlarni tashkil etgan zarb birliklari bo'lmish naqralar, ularning birikmasidan hosil etiladigan ruknlarning turli xillari asosida yaratiladigan ritm o'lchovlari va

turlarini yoritib bergan. Bu asarda faqat musiqa nazariyasi emas, balki musiqa tarixi ham bayon etilgan. Yosh avlodni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori, san'atning tarkibiy qismi bo'lmish musiqa darslari katta ahamiyatga ega.

Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa darslari talabalarning estetik va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ulardagi go'zallikka bo'lgan his-tuyg'ularning rivojlanishiga yordam beradi, ularni barkamol shaxs bo'lib yetishiga zamin yaratadi. Jumladan, O'rta Sharq mutafakkirlarining musiqiy-pedagogik merosidan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari va mohiyatini aniqlash; sharq musiqiy merosi vositasida talabalarga musiqiy ta'lim berishning pedagogik shart-sharoitlari, shaql va metodlarini umumlashtirish va yagona tizimga keltirish masalalari hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda o'zbek xalqining boy musiqiy merosi jahon xalqlari musiqiy merosi bilan bir qatorda asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, musiqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Kadirov R. Muzikalnaya pedagogika. - T.: MUSIQA, 2009. – 504 s.

2. Karamatova B.M. Pedagogicheskiye osnovi ispolzovaniya muzikalnogo naslediya misliteley Srednego Vostoka v uchebno – vospitatelnom protsesse shkoli (na primere urokov muziki): - Avtoref. diss. … kand. ped. nauk. – T.: 2000 – 19 s.

3. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar). – T.: FAN va texnologiya, 2008. – 160 b.

4. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaqlar misolida). T., 2007,-76 bet.

5.Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonidao'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgandiss. (13.00.01.), 2006 y., -198 b.

6.Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoninitakomillashtirish. - T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishga oid tarixiy manbalarni sharhlash asosida ma'naviy musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, ularni ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida talabalarga taqdim etish, talabalarda madaniy sifatlarni tarbiyalash, musiqiy merosni o'rganish masalalari yoritildi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены вопросы сбора, изучения важной информации по формированию духовной музыкальной культуры у студентов высших учебных заведений на основе интерпретации исторических источников, касающихся формирования музыкальной культуры, их представления студентам в процессе лекций, семинарских занятий, самостоятельной работы, воспитания у студентов культурных качеств, изучения музыкального наследия.

SUMMARY

This article highlights the issues of collecting and studying important information on the formation of spiritual musical culture among students of higher educational institutions based on the interpretation of historical sources related to the formation of musical culture, their presentation to students during lectures, seminars, independent work, education of students' cultural qualities, studying musical heritage.

ЗАМОНАВИЙ МУТАХАССИСДА АКМЕОЛОГИК ФИКРЛАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Исроилов Қ.Т.
ЧДПУ мустақил тадқиқотчи

Таянч сўзлар: акмеология, акмеологик ёндашув, акмеологик қобилиятлар, акмеограмма, психограмма, автопсихологик компетентлик, креативлик, профессиограмма, акмеотехнология, автокогнитив қобилият, касбий тайёргарлик, ижодкорлик қобилияти, касбий тайёргарлик, акмеолог, касбий ижодкорлик, шахсий-профессионал ривожланиш.

Ключевые слова: акмеология, акмеологический подход, акмеологические способности, акмеограмма, психограмма, аутопсихологическая компетентность, креативность, профессионограмма, акмеотехнология, аутокогнитивные способности, профессиональная подготовка, творческие способности, профессиональная подготовка, акмеолог, профессиональное творчество, личностно-профессиональное развитие.

Key words: acmeology, acmeological approach, acmeological abilities, acmeogram, psychogram, autopsychological competence, creativity, professionalogram, acme technology, autocognitive abilities, professional training, creativity, professional training, acmeologist, professional creativity, personal and professional development.

Бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашни муҳим йўналишларини аниқлаш, ривожлантириш бўйича реал шароитларни яратиш акмеологик муҳитдан дарак берса, уларда касбий ижодкорлик қобилиятини аниқлаш ва ривожлантириш асосида бўлажак мутахассиснинг юқори поғоналарга эришувини таъминлашни ўзида амалий жиҳатдан акс эттиради.

Акмеологик ёндашувни муваффақиятли амалга ошириш, мақсадга йуналтирилган психолого-педагогик шартини ташкил этиш, (шунингдек, шахсни акмеологик йуналтиришни шакллантирувчи методлар ва усуллар), педагогик таъсир йуналишининг ижобийлиги ўзгаришига риоя этишни таъминлади [2].

В.Д. Шадриковнинг эътирофига кўра, олий педагогик таълим тизими ҳар қандай педагоги юксак даражадаги тилни билиш маданиятига,ўз фикр ва мулоҳазаларини аниқ ва равон турли тил имкониятларидан самарали

фойдаланган ҳолда ифодалай билиш, ўзининг предмети юзасидан ҳар томонлама мукаммал билимга эга бўлиши в уни ўқитиш усулларини яхши ўзлаштирган бўлиши керак [4].

Акмеология мажмуавий, интегратив фан сифатида, инсоннинг ривожланиш ва тикланиш динамикасида, шахс ижодий потенциалида ўз-ўзини намоён этиш қонуниятлари ва омиллари, ҳамда таълимий ва касбий ютуқларга эришиш йўлларини тадқиқ этади. Субъектнинг касбий фаолият муаммоси акмеологияда долзарб ҳисобланади.

Касбий таълимнинг акмеологик модели шахсни касбий фаолиятга тайёрлашда янги сифатга эришишга йўналтирилган таълим муҳити, акмеологик йўналтирилган таълим янги интегратив фикрлаш усуллари, замонавий ҳаётга мослаштиришда ва ўз-ўзини намоён қилиш кўникмаларини шакллантиришга эга бўлган булғуси мутахассисларни яхлит ва барқарор ривожлантиришга йўналтирилган бўлиб, педагогик мутахассислар тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга.

Замонавий мутахассисда акмеологик фикрлашни шакллантириш ва креатив фаолият усуллари, инновацияга, муваффақиятга, касбий моҳирликка интилиш, ижодий потенциални намоён этиш қобилияти, акмеологик ва умумий касбий маданиятнинг зарурий компонентлари ҳисобланади.

Мутахассисларни тайёрлашнинг рефлексивли ўз-ўзини фаоллаштириш технологияси кенг қўлланилади ва касбий фаолиятни предметли ва ижтимоий мазмунини яратиш имконини беради. “Касбий таълим акмеологияси” факультатив махсус курси, психологик-акмеологик-педагогик тренинглар психологик-педагогик амалиётни ўзида намоён этади ва диагностик методлардан, антропологик, акмеологик технологиялардан, ўз-ўзини бошқариш тамойилига асосланган, рефлекцияни ривожлантириш, таълим олувчиларни касбий шакллантириш ва ривожлантириш, стереотип ва установкаларни блоклаш, “Мен-концепциясини”ни ва акмеологик маданиятни онгли шакллантиришга йўналтирилган махсус машқлар ва иш ўйинларидан тузилган.

Ҳиссий-эмоционал-баҳолаш йуналганлиги шахс сифатида ижодий ўз-ўзини намоён этиши ва мақсадга йуналтирилган касбий ўз-ўзини ривожлантиришни баҳолаш, педагогик таъсир, талабаларнинг ахборотни онгли равишда қабул қилишни ташкил этиш билан боғлиқ.

Когнитив эса, (когнитив-шахснинг мустақил фикрлаш жараёни [4,-195 б], когнитив –у атроф олам ҳақидаги билим доирасини кенгайтириш,

дифференциалловчи тафаккурни шакллантириш, билиш эҳтиёжларини ривожлантириш таълими.

Тажриба-синов ишининг когнитив ташкил этувчиси касбга эришиш мақсади, касбий-ижодий ўз-ўзини намойиш этиш, касбий ривожланишнинг муҳимлиги ва мақсади, руҳий ҳолат, касбий фаолият мақсади, таълим олувчиларнинг назарий билимларини ўзлаштиришини таъминлашни ўз ичига олади. Бунда тафаккур ва ахборотни ўзлаштиришни ташкил этиш учун таълим олувчилар диққатини фаоллаштирувчи усуллар ва методлар,назарий материалларни хотирада тутиш ва эсга олиш, мустаҳкамлашга оид усуллар қўлланилди.

Инсонни ёшлигиданоқ маълум бир соҳага йўналтира олувчи технологияларнинг энг биринчиси ва муҳим механизми -акмеограммадир. Акмеограмма-шахснинг касбийлашуви ва муайян меҳнат мубъектлари фаолиятининг тараққиётига имкон берадиган талаблар шароит ва омиллар тизимини намоён этади.

Акмеограмма доим индивидуал бўлади, у шахснинг имкониятлари ва истиқболларини, хусусиятларини ўзида мужассам этади. Акмеограмма маълумотлар базаси орқали олиб борилди, унинг кўрсаткичлар мумкин қадар фоизларда белгиланди.

Олий таълим талабасининг акмеограммасини ишлаб чиқишда А.А.Деркач, А.А.Бодалевлар томонидан тақдим этилган ва ҳозирги кунда фаолият кўрсатаётган акмеограммани ўрганиб чиқиб [1] унга мослаштирилди.

Акмеограмма акмеографик ёндашувнинг асосий методи ва у прогрессив ривожланишга ҳамда шахснинг профессионализми конкрет меҳнат субъектлари фаолиятининг тараққиётига имкон берадиган талаблар, шароит ва омиллар тизимини намоён этади. Талабалар акмеограммаси индивидуал тавсифга эга, расмий равишда бўлиб, у самарали фаолият кўрсатаётган субъектнинг индивидуал “кесими”ни, унинг имкониятлари ва истиқболларини, кучли ва кучсиз томонларини ўзида мужассам этади. Акмеограмма профессиограмма ва психограммага нисбатан индивидуаллликнинг юқори даражада намоён этилиши билан фарқланади.
Акмеограмма талаба фаолиятининг барча жиҳатлари (касбий фаолиятга тайёргарлик, ҳар кунги муносабат, шахсий ривожланиш ва фаолиятнинг умумий натижаси) ҳамда бундан келиб чиқиб, бўлажак кадрнинг индивидуал психологик ва психофизиологик хусусиятларига қўйиладиган талабларни ўз ичига олади [5].

Акмеология педагогика билан ҳамкорликда қуйидаги унча оддий бўлмаган масалани ечиши зарур: инсон ўзининг ҳаёти йўлида қандай алоҳида хусусиятга эга бўлган, таъкидлангандек микроакмаларга эришиб бориши керакки, яъни у келгусида катта ”макроакма”ни ҳосил қилсин.

Шунга кўра, мутахассислар тайёрлаш жараёнида фанларни интеграциялаб кредит-модулли ўқитиш билан бир вақтда, талабанинг индивидуал истиқбол режаларини ишлаб чиқиш, индивидуал ривожлантириш дастури билан ишлаш, касбий компетенцияни шакллантириш, ўқув портфолиони юритиш, касбий таълим акмеологияси факультатив махсус курсни олиб бориш, акметехнологияларни, краетивликни шакллантирувчи ва ривожлантирувчи методларни қўллаш, гуруҳ раҳбарининг маънавият машғулотларини мукаммаллаштириш, касбий йўналтириш фаол ўқув машғулотларини олиб бориш каби ишларни амалга ошириш натижасида ҳар бир талабада ўзига хос микро акмеларга ва уларнинг мажмуасида касбий тайёрлик макроакмега эришишга ҳаракат қилинди.

Адабиётлар:

1. Акмеология: учебник/под ред. А.А.Деркача. М.: Издательство РАГС.2006, 688 с

2. Зашихин В.А. Инновационный проект развития акмеологической полипрофильной школы // Профильная школа. 2005. № 6

3. Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособной личности: учеб.-метод.пособие / Л.М.Митина; Моск.психол.-социал. ин-т. -М.: МПСИ; Воронеж : МОДЭК, 2002. - 400 с

4. Шадриков В.Д. Новая модель специалиста: инновационная подготовка и компетентностный подход // Высшее образование сегодня. - 2004 №8.- С. 120-128

5. Эрназарова Г.О. Акмелогик ёндашувни амалга оширишнинг педагогик-психологик шарт-шароитлари// Таълим, фан ва инновация. ИМЖ. Т.:. 2017 йил, №3, -Б 19-21

РЕЗЮМЕ

Мақолада шахснинг ривожланишини, уни касбий фаолиятга тайёрлашни акмеологик ёндашув асосида такомиллаштиришда акмеограмма методининг аҳамияти ёритилган. Акмеограмма профессиограмма ва психограммага нисбатан индивидуаллликнинг юқори даражада намоён этилиши билан фарқланиши ва унинг ёрдамида бўлажак мутахассиснинг касбий тайёргарлиги, ижодкорлик қобилияти, янгилик яратишга хоҳиши ва интилиши билан боғлиқ бўлган ресурслар аниқланиши ифода этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье подчеркивается значение метода акмеограммы в совершенствовании развития человека и его подготовке к профессиональной деятельности на основе акмеологического подхода. Акмеограмма отличается от профессионалограммы и психограммы высоким уровнем проявления индивидуальности, с ее помощью выявляются ресурсы, связанные с профессиональной подготовкой, творчеством, желанием и стремлением создавать новое.

SUMMARY

The article emphasizes the importance of the acmeogram method in improving human development and preparing him for professional activity based on the acmeological approach. The acmeogram differs from the professionalogram and psychogram by the high level of manifestation of individuality; with its help, resources associated with professional training, creativity, desire and desire to create new things are identified.

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNI YANGILASH

Yuldasheva I.A.
Чирчиқ давлат педагогика университети
мустақил-тадқиқотчиси

Tayanch so'zlar: innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyat, modellashtirish, pedagogik innovatsiya, innovatsion jarayon, pedagogik monitoring, gnoseologik.

Ключевые слова: инновационная деятельность, инновационная деятельность, моделирование, педагогическая инновация, инновационный процесс, педагогический мониторинг, эпистемологический.

Key words: innovative activity, innovative activity, modeling, pedagogical innovation, innovation process, pedagogical monitoring, epistemological.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning yangilangan talablari mohiyati: innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga sharoit yaratish, tez o'zgaruvchan mehnat mazmuni va doimiy ravishda uzluksiz yangilanadigan bilimlar zaruriyati bilan bog'liq A.V.Xutorskiy innovatsion jarayonning yaratish, rivojlantirish va qo'llash kabi uch tarkibiy qismi birligini ta'kidlaydi. Aynan shu uch tarkibli innovatsion jarayon pedagogik innovatikani o'rganish ob'ekti sanaladi va didaktikadan farqli ilmiy-tadqiqot ob'ekti sifatida ta'lim jarayoni e'tiborga olinadi [4].

Innovatsion jarayon tadqiqotchilari (A.S.Axiezer, A.G.Kruti¬kov, N.I.Lapin, A.I.Prigojiy, B.V.Sazonov, N.P.Stepanov, B.C.Tolstoy va boshqalar) innovatsion jarayonlar tuzilishini o'rganishga individual yangilikning makrodarajasida predmetli-fenomenologik yoki predmetli-texnologik, shuningdek, mikrodaraja – alohida yangiliklarning o'zaro aloqasi kabi ikki yondashuvni ajratadilar [2,3].

Sh.A.Abdullaeva, E.E.Xurramovlar bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida yangi yo'nalish – «o'qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. O'qituvchining innovatsion faoliyati – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat,

muayyan vaqt davomida shakllanib, takomillashib boradigan jarayon sifatida e'tiborga olingan [1].

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha g'oyalarni joriy etishdan avval biz bo'lajak tarix o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda mutaxassislarning modellashtirishdan foydalanish uchta jihatga ega ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, modellashtirish bo'lajak mutaxassislar tomonidan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qitish natijasida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mazmun, ular egallashlari kerak bo'lgan bilish metodi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, modellashtirish bo'lajak mutaxassisni to'laqonli tayyorlash uchun zarur bo'lgan o'quv hatti-harakat va vosita hisoblanadi.

Uchinchidan, belgi-timsolli vositalar asosida tuzilgan modellar bizga fikriy (mavhum) obrazlar natijasida va asosida hosil qilingan mutaxassislarni tayyorlash butun pedagogik tizimini yaqqol tasvirlaydi. Boshqa tomondan, mutaxassislarni tayyorlash jarayoni modelini qurish bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

a) aniq bir mutaxassislikdagi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimiga kiruvchi barcha tushunchalarni toifalar darajasida tizimlashtirish;

b) kuzatiladigan pedagogik hodisalarni umumlashtirish, ularning strukturasini va strukturaviy o'zaro aloqalarini va o'zaro ta'sirlarini yaqqol ko'rish;

v) mavhumlashtirish darajasida fikran tajriba o'tkazish va bu bilan ta'kidlovchi pedagogik tajriba-sinovni o'tkazishdagi xatoliklar va kamchiliklarning oldini olish;

g) yangi modelni umumiy va o'ziga xosni, eskirgani, yetuk va rivojlanish bosqichida bo'lganini aniqlash maqsadida boshqa modellar bilash solishtirish;

d) mutaxassislarni tayyorlashdagi uzluksizlik, an'anaviylik va boshqalarni o'rnatish.

Tadqiqot maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan bo'lajak tarix o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi modeli mazmunini amalga oshirish uchun biz pedagogik jarayonda «Bo'lajak tarix o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash» maxsus kursini joriy etdik.

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi tuzilishi va mazmunini modellashtirishda biz modellashtirishning asosiy printsiplarini inobatga oldik (ko'rgazmalilik, aniqlik, obyektivlik). Ular uning pedagogik tadqiqotdagi funktsiyalarini belgilaydilar, chunki faqatgina mazkur printsiplarni rioya etishda modellashtiriladi. Ilmiy tadqiqot metodi sifatida pedagogik tadqiqotdagi empirik va nazariyani umumlashtirishga, ya'ni pedagogik ob'ektni

o'rganish davomida bevosita kuzatish, dalillar, mantiqiy tuzilishlari va ilmiy mavhumliklarni qurish bilan tajribani birlashtirishga imkon beradi.

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqish davomida biz pedagogik monitoringning gnoseologik, ekspert metodlaridan foydalandik.

Gnoseologik metod talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasini aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur metod yordamida biz tajriba-sinov maqsadini talabalar va tarix o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasini aniqlashda belgiladik.

Vazifalar quyidagicha hisoblanadi: innovatsion faoliyatga nazariy tayyorgarlik darajasini aniqlash; nnovatsion faoliyatga amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlash; innovatsion faoliyatga metodik tayyorgarlik darajasini aniqlash;innovatsion faoliyatga texnologik tayyorgarlik darajasini aniqlash;

Tajriba-sinov quyidagilarni ko'rsatdi: talabalar o'qituvchining maktabdagi innovatsion faoliyati pedagogik nazariyasini yaxshi egallamaganlar; ta'limning rivojlanish mexanizmi bilimlarini egallamaganlar; o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilishi to'g'risida aniq tasavvurga ega emas; pedagogik innovatsionlarning xususiyatlari va farqli jihatlarini, ularning zamonaviy tasniflarini bilmaydilar; ko'pgina talabalar Tarix faniga oid nazariy, metodik, texnologik faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish ehtiyojini his etadilar.

Shu tariqa, bizning tajriba-sinov ishlarimiz pedagogik oliy ta'lim muassasalar talabasining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasi ko'rsatkichini va innovatsion faoliyatni ta'minlovchi bo'lajak o'qituvchilarning tayyorgarliklarining mazmuni, shakllari, metodlarining zaruriy dastlabki darajasini aniqlab berdi.

Aniqlangan muammoni hal etish uchun maxsus kurs ishlab chiqilib, unda tajriba-sinov ma'lumotlarining tahlili va hisobga olishini asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarini

innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi modelida biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutdik:

talabalarni innovatsion faoliyat sohasidagi bilimlar tizimi bilan qurollantirish;

zamonaviy maktabdagi boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyati mohiyati va mazmunini ochib berish;

talabalarda innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida ularga yordam berish;

maktabda individual va guruhli innovatsion faoliyat malakalarini singdirish;

bo'lajak o'qituvchilarni o'z ijodlarini refleksiv baholashlari uchun tegishli bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

innovatsion faoliyatning motivatsion yo'nalganligini shakllantirish.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ш.А., Хуррамов Э.Э. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлаш // Замонавий таълим. – Тошкент, 2016. – № 5. – С.15-22.

2. Абдурахманова М.А. Применение инновационного опыта в педагогической деятельности (теоретико-сравнительный анализ) // Проблемы современного образования. – Москва, 2017. – № 2. − С. 104-109. Электроный ресурс: http://www.pmedu.ru.

3. Адольф В.А., Ильина Н.Ф. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления. – Красноярск: Поликом, 2007. – 190 с.

4. Хуторской А.В. «Педагогическая инноватика − рычаг образования» // Интернет-журнал «Эйдос». Электронный ресурс: http://www.eidos.ru/journal/2005/0910–19.htm

РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, innovatsion faoliyati ahamiyati, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda mutaxassislarning modellashtirishning uchta jihati, asosiy printsiplarini inobatga olish, pedagogik monitoring, gnoseologik, ekspert metodlaridan foydalanishning afzalligi ifoda etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье выражена важность подготовки будущих специалистов к инновационной деятельности, инновационной деятельности, учет трех аспектов, основных принципов моделирования специалистов при подготовке будущих специалистов к инновационной деятельности, предпочтение использования педагогического мониторинга, эпистемологических, экспертных методов.

SUMMARY

The article expresses the importance of preparing future specialists for innovative activities, innovative activities, taking into account three aspects, the basic principles of modeling specialists in preparing future specialists for innovative activities, preference for the use of pedagogical monitoring, epistemological, expert methods.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

PYTHON DASTURLASH TILINI O‘QITISH SAMRADORLIGINI OSHIRISHDA DASTURLASHTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING IMKONIYATLARI

Isroilov N.S.
Navoiy davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: dasturlash, Python dasturlash tili, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi.
Ключевые слова: программирование, язык программирования Python, программированные образовательные технологии.
Key words: programming, Python programming language, programmed educational technology.

Bugungi kunda ta’limga zamonaviy o‘quv vositalarning joriy etilishi tufayli, fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishni hamda o‘quvch-talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishni va rivojlantirish yangicha yondashuvlarini joriy etishni talab qilmoqda [1].

Shu bois, ta’limga oid nazariyalarni qayta ko‘rib chiqish, ulardagi yangi imkoniyatlarni, ya’ni o‘quvchi-talabalarni ijodiy qobiliyatini oshirishga va kognitiv fikrlashini rivojlantirishga mo‘ljallangan ta’lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi. Pedagogika fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida, uzluksiz ta’lim tizimi uchun talab qilinayotgan texnologiyalardan biri, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasidir.

Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi – bu ta’lim oluvchi va beruvchini (yoki uning o‘rnini bosadigan o‘quv mashinasi) harakatlarini ta’minlash orqali oldindan tuzilgan dastur bo‘yicha o‘rganishdir [2]. Ya’ni ta’lim oluvchini shaxsiga yo‘naltirish orqali, ularni kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan texnologiya hisoblanadi [3].

Bugungi kunda ta’lim oluvchini shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhim ahamiyat kasb etmoqda [4]. “Bu ta’lim oluvchilarni har tomonlama rivojlanishini nazarda tutadi. Har bir ta’lim oluvchi o‘zining ichki dunyosiga, uning fikrlash tajribasiga, faoliyatiga, kechinmalariga murojaat qilishi juda muhimdir” [5]. “O‘quvchi qanday qilib va nima uchun bunday qilganligini tushunishi kerak. Shuningdek,

dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limni uyg‘un ravishda to‘ldiradi va ularga kerakli bilim darajasini yetkazish imkonini beradi” [6].

Demak, Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘zlashtirish va olingan bilimlarni o‘quv topshiriqlarini bajarishda qo‘llash imkoniyatini yaratadi” [7]. “O‘z navbatida, topshiriqlarning to‘g‘riligini bilib, o‘quvchilar o‘quv-ma’lumotlarni o‘zlashtirganliklariga ishonch hosil qilishadi. Binobarin, Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim o‘quvchilarni motivatsiyasini oshirishga va ta’limga salbiy munosabatni, ya’ni noto‘g‘ri tushunish tufayli muvaffaqiyatsizlikka, bilimdagi sezilarli bo‘shliqlarga to‘liq barham berishga imkon beradi” [8]. “Dasturlashtirilgan ta’lim taqdim etilayotgan o‘quv-ma’lumotni o‘z vaqtida takomillashtirish va tuzatish hamda qo‘yilgan muammoni hal qilish imkonini beradi” [9].

O‘qituvchini kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklardan biri shundaki, turli darajada o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish tizimini ishlab chiqishdan iborat. O‘quvchilarni ba’zi birlari o‘quv-ma’lumotlarni tez o‘zlashtiradi, ammo mukammal emas. Ba’zilari ham tez, ham chuqur. Shuningdek, ba’zi bir o‘quvchilar o‘quv-ma’lumotlarni juda sekin o‘zlashtiradi va hokozo. Ko‘pincha o‘qituvchi o‘rta darajadagi o‘quvchiga e’tibor qaratadi. Buning natijasida o‘quvchilarga ta’lim berishda turli muammolar kelib chiqadi [9].

Bu kabi muammolarni yechimlaridan biri, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni, jumladan, Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasini joriy etish lozim. “Ushbu texnologiyadan foydalanish orqali o‘quv-ma’lumotlarni o‘zlashtirish tezligini individuallashtirish imkonini beradi, ya’ni o‘quvchilar har bir mavzuni o‘rganguncha qayta takrorlaydi. Shunday qilib, o‘quvchilar o‘z-o‘zidan o‘rganish sur’atini nazorat qilib, javoblarini to‘g‘riligida darhol natijaga erishgan holda, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish va tushunish bilan yondashadilar. Bu shuni anglatadiki, ta’lim beruvchi va oluvchi o‘rtasida teskari aloqa saqlanib qoladi” [9]

“Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu texnologiya XX asrning 50-60-yillarida pedagogika, psixologiya hamda kibernetika chorrahasida paydo bo‘lgan va shakllangan. Uning asoschisi amerikalik psixolog B.F.Skinner hisoblanadi. Ushbu olim tomonidan eksperimental psixologiya va texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirishga erishgan” [9].

“Dastlab, dasturlashtirilgan o‘qitishning faqat alohida elementlari, asosan, bilimlarni nazorat qilish, maslahatlar va malaka oshirish uchun foydalanila boshlandi. So‘nggi yillarda dasturlashtirilgan ta’lim g‘oyalari yangi texnika asosida, ya’ni elektron ta’lim shaklida qayta tiklana boshladi. Yangi texnik baza o‘quv jarayonini deyarli to‘liq avtomatlashtirish, uni o‘quvchi va o‘qitish tizimi o‘rtasidagi erkin muloqot sifatida qurish imkonini beradi” [10]. Bu holatda o‘qituvchining roli asosan o‘quv dasturini ishlab chiqish, sozlash, tuzatish va takomillashtirishdan iborat. Ko‘p yillik tajriba shuni tasdiqladiki, dasturlashtirilgan o‘qitish, ayniqsa, kompyuterda o‘qitish nafaqat o‘rganishni, balki o‘quvchilarni motivatsiyasini oshiradi va ijodiy qobiliyatini yuksaltiradi [9]. Bunda quyidagi tamoyillarga tayanadi:

O‘quv materialini taqdim etish va keyinchalik o‘zlashtirish kichik, mantiqiy to‘ldirilgan qismlarda amalga oshiriladigan bosqichma-bosqich texnologik jarayon tamoyili. Ushbu tamoyil texnologik bosqichning tarkibi o‘zaro bog‘liq uchta amallar blokni o‘z ichiga oladi: ma’lumotlar; qayta aloqa bilan amallar; bilimlarning o‘rganilgan qismini o‘zlashtirishni boshqarish. Ushbu tamoyil o‘quvchining kognitiv harakatlarini ketma-ketligini belgilaydi.

O‘quvchilarning kognitiv faoliyatini individuallashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil har bir o‘quvchining o‘rganish darajasiga moslashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini o‘tkazishga imkon beradi. Bu esa har bir o‘quvchini qobiliyatiga mos keladigan tezlikda o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish imkonini beradi. Shuningdek, o‘quv ma’lumotlarni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun sharoitlar yaratadi.

Qayta aloqa tamoyili. Ushbu tamoyil o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan o‘quv-ma’lumotlarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi to‘g‘risida ma’lumot olish zarurligini aniqlaydi. Teskari aloqa o‘quvchi o‘rganilayotgan materialni tushunishi uchun, o‘qituvchi yoki boshqaruv moslamasi esa o‘quvchilar tomonidan taklif qilingan o‘quv-ma’lumotlarni o‘zlashtirish jarayonini to‘g‘rilash uchun zarurdir. Bunday holda, biz tezkor ichki va tashqi aloqani o‘rnatish haqida gapiramiz. Ichki fikr-mulohazalar o‘quvchini kognitiv faoliyatining tabiati va natijasini mustaqil ravishda tuzatish qobiliyati bilan belgilanadi va tashqi - agar bu tuzatish o‘qituvchi yoki boshqaruv apparati tomonidan amalga oshiradi.

Xavfsizlik tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quv jarayonini tegishli texnik o‘quv qurollari va birinchi navbatda, mahalliy axborot tarmog‘iga (kompyuter sinfi) birlashtirilgan kompyuterlar bilan ta’minlash.

Shunday qilib, dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi fanlarni, jumladan, Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki bugungi kunda dasturlashtirilgan ta’lim g‘oyalarini ishlab chiqish axborot texnologiyalari yutuqlari bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. “Bu

oʻquv jarayonini boshqarishning umumiy talablarini belgilaydi. Ushbu talablarni oʻquv dasturlarida amalga oshirish ta'lim jarayonining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganuvchi pedagogika-psixologik fanlari ma'lumotlariga asoslanadi" [11]. Biroq, bu turdagi mashgʻulotlarni ishlab chiqishda ba'zi mutaxassislar faqat psixologiya fanining yutuqlariga (bir tomonlama psixologik yoʻnalish), boshqalari esa faqat axborot texnologiyalari (bir tomonlama kibernetika) tajribasiga tayanadilar. Oʻqitish amaliyotida bu odatda empirik yoʻnalish boʻlib, unda oʻquv dasturlarini ishlab chiqish amaliy tajribaga asoslanadi. Bunda faqat kibernetika va psixologiyadan alohida ma'lumotlar olinadi [10].

"Dasturlashtirilgan ta'limning umumiy nazariyasi oʻquv-ma'lumotlarni oʻzlashtirish jarayonini dasturlashtirishga asoslanadi" [6]. Python dasturlash tilini oʻrganishda bunday yondashuv mantiqan toʻliq, qulay va yaxlit idrok etish uchun ochiq boʻlgan ma'lum miqdorda kognitiv ma'lumotlarni oʻrganishni oʻz ichiga oladi.

Bugungi kunda dasturlashtirilgan ta'lim deganda oʻquv qurilmasi (kompyuter, dasturlashtirilgan darslik, kino simulyatori va boshqalar) yordamida dasturlashtirilgan oʻquv-ma'lumotlarni boshqariladigan oʻzlashtirish tushuniladi. Dasturlashtirilgan ta'limda oʻrganish yaxshi boshqariladigan jarayon sifatida amalga oshiriladi, chunki taqdim etilayotgan oʻquv-ma'lumotlar kichik, sodda qabul qilsa boʻladigan miqdorlarga boʻlinadi. Ular oʻzlashtirish uchun oʻquvchiga ketma-ket taqdim etiladi. Har bir miqdorni oʻrganib chiqqandan soʻng, assimilyatsiya tekshiruviga oʻtkaziladi hamda oʻrganilgan ma'lumot-keyingisiga oʻtadi. Bu oʻrganishning bosqichi: taqdimot, assimilyatsiya, tekshirishdir [6].

Hozirgi vaqtda chet elda dasturlashtirilgan oʻqitish jarayoni (CAI - Compyuter Aided Instruction) mustaqil kompyuterlarda emas, balki telekommunikatsiya tarmoqlariga (CMC - Compyuter Mediated Communications) kiritilgan kompyuterlarda ishlash bilan tavsiflanadi. Telekommunikatsiyalar zarur ta'lim ma'lumotlarini oʻzlashtirishni koʻp marta tezlashtiradi, oʻqituvchidan ancha uzoqda boʻlishi mumkin boʻlgan auditoriyasini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi [9].

Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasining bu kabi imkoniyatlarni taqdim etish xususiyatiga koʻra, uchta asosiy shakli mavjud (1-rasm):



1-rasm. Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasining asosiy shakli

Python dasturlash tilida chiziqli dasturlar o‘quv-ma’lumotlarining kichik bloklarini nazorat vazifasi bilan ketma-ket o‘zgartiradi. Bunda o‘quvchilar to‘g‘ri javob berishi kerak, ba’zan bir nechta mumkin bo‘lganlardan birini tanlashi kerak. Agar javob to‘g‘ri bo‘lsa, u yangi ta’lim ma’lumotlarini oladi, javob noto‘g‘ri bo‘lsa, u dastlabki ma’lumotni qayta tekshirishga taklif qilinadi. Python dasturlash tilida tarmoqlangan dastur chiziqli dasturdan farq qiladi, chunki o‘quvchi noto‘g‘ri javob bergan taqdirda unga nazorat topshirig‘ini bajarish, to‘g‘ri javob berish va o‘quv-ma’lumotlarining yangi qismini olish imkonini beradigan qo‘shimcha o‘quv-ma’lumotlari berilishi mumkin. Aralash dasturda chiziqli va tarmoqlanuvchi dasturlarni o‘zida birlashtiradi.

“Dasturlashtirilgan ta’limning yana bir imkoniyati – bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishdan iboratdir. Bunda mavzu bo‘yicha diagnostik ravishda qo‘yilgan maqsadlar aniqlangandan so‘ng, o‘quv-ma’lumotlar qismlarga bo‘linadi. Keyin tekshirish ishlari bo‘limlarda ishlab chiqiladi (ta’lim elementlari yig‘indisi), so‘ngra o‘qitish tashkil etiladi. Tashkil etilgan o‘qitish o‘quvchilar tomonidan o‘quv elementlari va mavzulari, bo‘limlari to‘liq o‘zlashtirguncha amalga oshiriladi” [7].

Shu bilan birga dasturlashtirish bo‘yicha o‘qitish bir qator afzalliklarga ega:

- kam ma’lumotlar orqali o‘zlashtirish soddaligi;
- o‘zlashtirish tezligi o‘quvchilar tomonidan tanlanadi;
- yuqori natija ta’minlanadi;
- aqliy harakatlarning oqilona usullari ishlab chiqiladi;
- mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasining yuqoridagi afzalliklari bilan birga, bir qator kamchiliklarga ega, jumladan:

- ta’limda mustaqillikni rivojlantirishga to‘liq hissa qo‘shmaydi;
- ko‘p vaqt talab etadi;
- faqat algoritmik yechiladigan kognitiv masalalar uchun amal qiladi;
- algoritmga xos bo‘lgan bilimlarni egallashni ta’minlaydi va yangilarini o‘zlashtirishga hissa qo‘shmaydi.

Shu bilan birga, o‘rganishni haddan tashqari algoritmlashtirish samarali kognitiv faoliyatning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi ta’lim beruvchi va oluvchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotning subyektiv omilini maksimal darajada yo‘q qilgan holda o‘quv jarayonini rasmiylashtirishga urinish sifatida qarash mumkin. Hozirgi vaqtda bu yondashuv o‘zini oqlamadi, deb ishoniladi. Uning qo‘llanilishi shuni ko‘rsatdiki, o‘quv jarayonini to‘liq avtomatlashtirish mumkin emas, o‘quv jarayonida o‘qituvchining roli va o‘quvchi-talabaning muloqoti

ustuvorligicha qolmoqda. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalari va masofaviy ta’limni rivojlanishi dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasining o‘quv amaliyotidagi rolini oshiradi.

Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga Python dasturlash tillini o‘rganishda, ulardan foydalanib misol va masalalarni dasturlashni o‘rgatishda hamda o‘zini-o‘zi mustaqil ravishda baholashda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Мезенцева О.И. Современные педагогические технологии // Учебное пособие для студентов-бакалавров, обучающихся по педагогическим направлениям и специальностям. – Новосибирск: ООО «Немо Пресс», 2018. – 140 с.

2. Беспалько В.П. Программированное обучение // Дидактические основы. – М: Высшая школа, 2000. – 300 с

3. Мирсанов У.М. Узлуксиз таълим тизимида дастурлаш тилларини ўқитиш самарадорлигини оширишда дастурлаштирилган таълим технологиясининг имкониятлари // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў илмий-методикалық журнали. – Нукус, 2022. – № 4-1. – Б. 70-73.

4. Левицкая Т. Е. Изучение гибкости мышления как личностного ресурса психического здоровья школьников // Диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Наук. – Томск, 2002. – 128 с.

5. Новоселова Д. В. Теория и практика научных исследований: психология, педагогика, экономика и управление // Технология программируемого обучения. ¬¬¬– № 4 (8). 2019. ¬– С.75-79.

6. Беспалько В.П. Программированное обучение. Дидактические основы. – М., 1971. – 260 с.

7. Гальперин П.Я. Программированное обучение и задачи коренного усовершенствования методов обучения // К теории программированного обучения. – М.: Академия, 2003. – 312 с.

8. Мирсанов У.М. Узлуксиз таълим тизимида дастурлаш тилларини ўқитиш самарадорлигини оширишда дастурлаштирилган таълим технологиясининг имкониятлари // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў илмий-методикалық журнали. – Нукус, 2022. – № 4-1. – Б. 70-73.

9. U.M.Mirsanov. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 256 b.

10. Конышева А. В. Реализация технологии программированного обучения в информационно-образовательной среде вуза // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2012. – №3 (Март). – С. 46-50.

11. Баранов С.П. Сущность процесса обучения. – М.: Мысль, 2001. – 232 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasining imkoniyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga Python dasturlash tilini samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются возможности программированной образовательной технологии по обучению языка программирования Python. Кроме того, представлены предложения и рекомендации по использованию программированных образовательных технологий в повышении эффективности использования языка программирования Python для учащихся средних школ нашей страны.

SUMMARY

This article analyzes the possibilities of programmed educational technology in increasing the effectiveness of teaching the Python programming language. In addition, proposals and recommendations for the use of programmed educational technology in increasing the effectiveness of the Python programming language for secondary school students of our country are presented.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PYTHON DASTURLASH TILINI O‘QITISH HAMDA TALABALARNING DASTURLASHGA OID ALGORITMIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xoliqulov B.J.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti v.b, p.f.f.d. (PhD)

Tayanch so’zlar: dastur, ta’lim metodlari, dasturlash muhiti, funksiyalar, protsedura, komponent, ilova, ma’lumotlar bazasi.

Ключевые слова: программа, методы обучения, среда программирования, функции, процедура, компонент, приложение, база данных.

Key words: program, educational methods, programming environment, functions, procedure, component, application, database.

Hozirgi kunda inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish qamrab olgan bo’lib, bu hodisa har bir kishidan yuqori axborot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida fan o’quv dasturlari talabalarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan fanlar bilan to‘ldirishlari zarur. Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda o‘quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish ta’lim sifatini oshishiga olib keladi.

Hozirgi kunda bir nechta dasturlash tillari ishlab chiqilgan bo‘lib, bularga Python, JavaScript, PHP, Java, C++ va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu dasturlash tillari biror yo‘nalishdagi masalalarni hal qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari deyish mumkin. Dasturlash tillari haqida so‘z yuritishdan oldin “dastur”, “dasturlash”,

“dasturlash muhiti” tushunchalarining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Dastur – oldindan tayyorlangan algoritm va hisoblash texnikasi vositalariga asoslangan holda bajariladigan ishning shart-sharoiti, maqsadi va vazifasini e’tiborga olib, uning biror bir formal (shartli) algoritmik tildagi aniq va to‘liq ifodalanishi.

Dastur – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi. Dastur – biror masalani yechishda kompyuterda bajarishi lozim bo‘lgan amallarning izchil tartibi.

Dasturlash tili – kompyuterlar uchun dasturlar (ko‘rsatmalar yig‘indisi) yoziladigan, uni u yoki bu harakatlarni bajarishga majbur qiladigan rasmiy algoritm til.

Bizning fikrimizcha dasturlash bu – kompyuterlar va boshqa mikroprotsessorli elektron mashinalar uchun mo‘ljallangan dasturlarni yaratish, tajriba orqali sinovdan o‘tkazish hamda xatolarni tuzatib borish jarayonidan iboratdir. Boshqacha aytganda, kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash va dastur tuzadigan dasturchi deyiladi. Kompyuter tushunadigan algoritm til dasturlash tili deb ataladi.

Dasturlash muhiti bu – dasturchi yozadigan kodlarni aynan qanday tilda va muhitda yozishi tushuniladi. Masalan: keng tarqalgan va ko‘plab foydalanuvchiga ega muhitlarni misol qilish mumkin. PHPStorm– asosan PHP dasturchilarga, VisualStudio¬¬–.Net dasturchilarga, NetBeans –Java, PHP dasturchilarga, PHPDesigner–asosan web (PHP) dasturchilarga mo‘ljallangan. Hozirgi kunda dastur tuzish yuqori darajadagi dasturlash tillari (Python, JavaScript, PHP, Java, C++) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi inson tiliga yaqinligi bois dastur tuzish jarayonini osonlashtiradi.

Python dasturlash tilini o‘qitishda quyidagi asosiy tushunchalar muhim sanaladi. Funksiya - ma’lum bir vazifani bajaruvchi, qandaydir nomga ega, bir yoki bir necha qiymatni qabul qiluvchi, ishni tugatganidan keyin esa asosiy dasturga bir yoki bir necha natija qiymatlarni qaytaruvchi qism dastur.

Qism dastur- zarurat tug‘ilganda chaqiriladi. U ayni bir kodni bir necha marta yozish zaruratini bartaraf qilib, butun dastur davomida ko‘p marta foydalanilishi mumkin. Bu kodning blokliligini oshiradi, tushunishni osonlashtiradi va xatolarni topishda yordam beradi. Xato bor yoki yo‘qligini bitta kod blokining o‘zida tekshirsa bo‘ladi. Agar xato qism dasturda bo‘lsa, faqat qism dasturning o‘zini tuzatishga zarurat tug‘iladi. Agar qism dasturdan foydalanmasdan, kod bir necha joyda takror-takror yozilsa, u holda butun dastur bo‘ylab xatolarni qidirishga to‘gri keladi.

- kodni faqat bitta joyda yangilash kerak bo‘ladi: Kiritilgan barcha tuzatishlar qism dastur chaqirilishi bilan amal qila boshlaydi.
- protsedura- funksiyaga o‘xshash ko‘p marta foydalanilishi mumkin bo‘lgan qism dastur bo‘lib, yagona farqli jihati hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Python dasturlash tilining har xil masalalarni yechishga mo‘ljallangan bir necha foydali standart funksiyalari mavjud:

Har bir funksiya hamda protseduraga albatta nom berish kerak va bu nom Pythonda define (ing. Define – aniqlash) so‘zidan olingan def kalit so‘zi bilan boshlanadi.

def - funksiyani e’lon qiluvchi kalit so‘z.

funksiya_qmii - funksiya nomi.

parametrlar ro‘yxati - ushbu ro‘yxat bir necha parametrdan iborat bo‘lishi mumkin va ular vergul bilan ajratib yoziladi.

buyruqlar_bloki - funksiya tanasi boshqa operatorlar kabi bitta xat boshi tashlab yozilishi shart.

Funksiya nomi orqali chaqirilganda uning tarkibidagi buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Shundan so‘ng dastur funksiya chaqirilgan satrga qaytadi va shu satrdan keyingi buyruqlarga o‘tadi.

Pythonda protseduralar deyarli funksiyalardek yoziladi. Farqi shundaki, protseduralar hech qanday qiymatni qaytarmaydi.

Funksiyaning o‘zini o‘zi chaqirishiga rekursiya deyiladi va bunday funksiyalar rekursiv funksiyalar deb ataladi.

Rekursiv funksiyalar dasturlashning kuchli mexanizmi hisoblanadi, lekin ular har doim ham samarali emas. Chunki aksariyat hollarda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Xatolar ichidan eng ko‘p tarqalgani – cheksiz rekursiya. Unda funksiyaning chaqiruv zanjiri cheksiz bo‘lib, kompyuter bo‘sh xotirasi tugamaguncha davom etaveradi. Cheksiz rekursiya ro‘y berishining sabablari:

- rekursiyada shartni noto‘g‘ri qo‘llash. Masalan, faktorialni hisoblashda if **n==0** ni unutib qo‘ysak, **factorial(0)** funksiyasi **factorial(–1)** ni, **factorial(–1)** funksiyasi esa **factorial(–2)** va hokazolarni chaqiradi;

- rekursiv funksiyani noto‘g‘ri parametr bilan chaqirish. Masalan, **factorial(n)** funksiya **factorial(n)**ni chaqirsa, yana cheksiz zanjir yuzaga keladi.Shu boisdan, rekursiv funksiyani yaratishda rekursiyani yakunlash sharti hamda rekursiyani qachon, qanday tugatish haqida o‘ylab ko‘rish lozim.

Quyida Python dasturlash tilida funksiya va protsedulardan foydalanib dasturlarni ko’rib chiqamiz. Birinchi dasturimiz sharti quyidagicha: berilgan

ikki sonning eng kichik umumiy karralisi (EKUK)ni topish dasturini tuzing. Funksiyadan foydalaning.

```
def ekuk(a, b):
    n = a * b
    while a != 0 and b != 0:
        if a > b:
            a %= b
        else:
            b %= a
            return n // (a + b)
a = int(input('a = '))
b = int(input('b = '))
print('EKUK:', ekuk(a, b))
```

1-rasm

Ikkinchi dasturimiz sharti quyidagicha: berilgan n sonini rim raqamlarida ifodalovchi dastur tuzing. Funksiyadan foydalaning.

```
a = [(1000, 'M'), (900, 'CM'), (500, 'D'), (400, 'CD'), (100, 'C'), (90, 'XC'),
(50, 'L'), (40, 'XL'), (10, 'X'), (9, 'IX'), (5, 'V'), (4, 'IV'), (1, 'I')]
def rim(n):
    s = ''
    while n > 0:
        for i, r in a:
            while n >= i:
                s += r
                n -= i
                return s
n=int(input("Son kiriting="))
print(rim(n))
```

2-rasm

Uchinchi dastur sharti: berilgan to‘rtta sonning eng kichigini topuvchi dastur tuzing. Buning uchun min4(a, b, c, d) funksiyasini yarating.

Python dasturlash tili – obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tili bo‘lib, talabalar uchun tushinarli va sodda dasturlash tili hisoblanadi. Python dasturlash tilining afzallik tomonlari shundaki,

birinchidan: bu dasturlash tilida tuzilgan dastur boshqa platforma hamda operatsion tizimlarda ishlaydi;

ikkinchidan: bitta platforma yoki operatsion tizimda yozilgan kod boshqa platforma yoki operatsion tizimga o‘tkazilganda turli xil xotirani egallashi mumkin. Bu esa ba’zi bir xatoliklarga olib kelishi mumkin. Bunday dasturlar qatoriga C++ dasturlash tilini misol keltirish mumkin. Python dasturlash tilida esa bunday kamchilik bartaraf etilgan.

```
def min(a,b):
    if a>b:
        return b
    else:
        return a
def min4(a,b,c,d):
    return min(min(min(a,b),c),d)
a=int(input('a='))
b=int(input('b='))
c=int(input('c='))
d=int(input('d='))
print('Eng kichik son=',min4(a,b,c,d))
```

3-rasm

Xulosa va takliflar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitilishi talabalarda dasturlash muhitida ishlash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar:

1. Gayratovich, E. N., & Jovliyevich, K. B. (2023). Theory and Methodology of Software Modeling Using the Web Platform. Eurasian Scientific Herald, 16, 59-63.

2. Xoliqulov B.J., Panjiyev S .A. Transport masalasi va uni vizual dasturlash tilida potensiallar usulida yechish // Innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnal. –Qarshi, 2020. –№ 1/37. –B.43–49.

3. Xoliqulov B.J. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda modellashtirishdan foydalanish metodikasinining o‘rni // QarDU xabarlari. – Qarshi, 2022. – № 2/1(52). – Б. 138-141.

4. Xoliqulov B.J. Obyektga yo‘naltirilgan dasturlar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish // Ijtimoiy fanlar jurnali. – Qarshi, 2022. – №3. – Б. 95-98.

5. Xoliqulov B.J., Panjiyev S.A., Z.E.Chorshanbiyev., Z.A.Abdusamatov. “Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish” o‘quv qo‘llanmasi // Qarshi. “Intellekt” nashriyot 2021. – 300 b.

6. Xoliqulov B.J., Panjiyev C.A., Eshmurodov A.G‘. Zamonaviy dasturlash tillarini o‘qitishda qiyosiy tahlillardan foydalanish // Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘. Nukus, 2019 –№ 3. –Б. 86–80.

7. Kholikulov B.J. General analysis and problems of mathematical modeling theory // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. London. Vol.8 12, 2020 ISSN 2056-5852. P.124–129 (13.00.00; №3).

РЕЗЮМЕ

Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari keng taraqqiy etgan bir davrda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish hamda dasturlash tillarini o‘qitishda alohida uslub bilan yondashish, soddalashtirilgan algoritm usullarni ishlab chiqish, talabalarni yo‘nalishidan kelib chiqqan holda vazifalar tayinlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil dastur tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish, dasturlash tillariga

qiziqtirish, ularni o‘z kasbini yutik mutaxassi va mamlakat rivoji uchun mukammal dasturlar yaratishiga turtki bo‘ladi.

РЕЗЮМЕ

В эпоху современных информационных технологий развитие алгоритмического мышления студентов о программировании в вузах и особого подхода к преподаванию языков программирования, разработка упрощенных алгоритмических методов, постановка задач по заданию студентов является одной из актуальных задач. проблемы. В вузах студенты смогут развить навыки самостоятельного программирования, заинтересоваться языками программирования, мотивировать стать экспертами в своей профессии и создавать отличные программы для развития страны.

SUMMARY

In the era of modern information technologies, development of students’ algorithmic thinking about programming in higher education institutions and a special approach to the teaching of programming languages, development of simplified algorithm methods, assignment of tasks based on students’ direction is one of the urgent issues. In higher education institutions, students will be able to develop independent programming skills, get interested in programming languages, and motivate them to become experts in their profession and create excellent programs for the development of the country.

3D GRAFIK MODELLASHTIRISH UCHUN ENG YAXSHI DASTURIY VOSITALAR TAHLILI VA ULARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Shaynazarov R.M.
Researcher of Karshi Engineering - Economics institute

Tayanch so‘zlar: vizuallashtirish, vizual tasvirga aylantirish, Infografika, muhandislik grafikasi, 3D texnologiyalar, SketchUp, Blender.

Ключевые слова: визуализация, преобразование в визуальное изображение, инфографика, инженерная графика, 3D-технологии, SketchUp, Blender.

Key words: visualization, visual image conversion, infographics, engineering graphics, 3D technologies, SketchUp, Blender.

Kirish. Texnika rivojlanib bormoqda va shu bilan birga ko‘p narsalarni o‘zimiz qila olishimiz kerak, ulardan biri 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir. Shu sababli, endi biz ushbu maqsadda foydalanishning eng oson dasturlari haqida gaplashamiz. Shu tarzda siz ushbu dizayn dunyosida nimani boshlash ideallari haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin. Shuni eslatib o‘tish joizki, 3D modellarni yaratish bo‘yicha barcha dasturlar murakkablik darajasiga ega, ammo, albatta, hamma narsa unga bo‘lgan qiziqish darajangizga bog‘liq.

Biz sizga ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta mutaxassislarning fikriga ko‘ra, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihalar uchun ham 3D modellarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba’zi bir ro‘yxat orqali aytib beramiz. Biz allaqachon bilamizki, ushbu resurs juda ko‘p qirrali xususiyatga ega. Shu sababli, ushbu maqolada keltiriladigan dasturlarning har birining kamida asosiy jihatlarini bilishimiz muhimdir.

Tadqiqot metadologiyasi. Barchasini tushunarli va sodda tarzda bajarish uchun biz har birining narxiga va qiyinligiga qarab qilamiz. Sizga qoldiradigan dizayn dasturlari variantlarining har birida biz ularning bepul yoki pulli

ekanligini aniqlaymiz. Buning sababi, biz sizni qiziqtirishi mumkin bo'lgan har qanday raqamli manba haqida gapirganda shaffof bo'lishni muhim deb bilamiz.

3D modellashtirish bo'yicha eng yaxshi dasturlarni namoyish etishdan oldin, keyinroq ko'rishni xohlashingiz mumkin, 3D modellashtirish dasturlari:

SketchUp. Ushbu dastur 3D dizayn olamida boshlaganlar uchun ideal hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, biz buni yangi boshlanuvchilar uchun eng yaxshi variant deb ayta olamiz, chunki bu boshqalar bilan taqqoslaganda 3D modellarni yaratish dasturlari bu juda sodda va tushunish oson. Boshqaruv paneli juda intuitiv va ushbu faoliyatning barcha asosiy tamoyillaridan foydalanish oson. Ushbu dastur bizni ishlatishimiz mumkin bo'lgan asboblarning barcha piktogrammalarini yuqori va yon panellarda ko'rsatadi va ularni aniqlash juda oson.

Muhim narsa shundaki, biz chalkashmasligimiz va eskizni oddiy dastur deb o'ylashimiz kerak, aslida uni boshqarish oson. Ammo bu faqat 3D-dizayndagi yangi boshlanuvchilar tomonidan ishlatilishi mumkin degani emas. Darhaqiqat, platforma kengaytmalarni kiritish uchun bir nechta variantlarni taklif qiladi, ular yordamida siz olgan tajribangizga qarab tobora to'liq dastur tuzishingiz mumkin.

Sketchup bilan ko'proq professional ish namunasi.

Ushbu dasturning asosiy afzalliklaridan biri shubhasiz uning ko'p qirraliligi, undan barcha turdagi odamlar foydalanadilar. U duradgorlar va shkaf ustalari tomonidan o'z mijozlariga taqdim etadigan modellar uchun, shuningdek dizayn va muhandislik kabi kasblar talabalari tomonidan qo'llaniladi. Va, albatta, biz ushbu 3D modellashtirish dasturidan kompaniyalarda namoyish etadigan loyihalari uchun foydalanadigan ko'plab mutaxassislarni eslatib o'tolmaymiz.

Adabiyotlar tahlili. Sketchup uchun mas'ul kompaniya 1978 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Trimble kompaniyasidir. Shunday qilib biz ushbu platformaning jiddiyligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin, bu bizga arzon narxlarda ushbu kuchli tahrirlash dasturiga ega bo'lishni taklif qiladi.

Modellashtirish uchun ushbu 3D dizayn vositasining narxi va ishlatilishi haqida biz uning veb-versiyasida bepul deb ayta olamiz. Shaxsiy loyihalarni amalga oshirishingiz va ularni bulutda saqlashingiz mumkin bo'lgan joy, chunki u bizga 10 Gb saqlash hajmini taklif qiladi. Pulli versiyaga kelsak, biz narx yiliga 255 evroni tashkil qiladi deb aytishimiz mumkin. Bu har qanday shaxsiy va professional loyihalarni amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan dasturning eng to'liq versiyasi bo'ladi.

Tahlil va natijalar.

Siz Sketchup-ni qaysi qurilmalarda ishlatishingiz mumkin deb o'ylashingiz mumkin.

Ushbu dasturning eng yaxshi xususiyatlaridan biri shundaki, u turli xil platformalar va qurilmalar bilan mos keladi va biz sizning ismingizni ayting:

- Bulut, SaaS, Internet
- Mac (ish stoli)
- Windows (ish stoli)
- Linux (Mahalliy)
- Android (mobil)
- iPhone (mobil)

Ko'rib turganingizdek, bu juda ko'p qirrali, ammo bunga qo'shimcha ravishda bizda quyidagi xizmatlarni taklif qiluvchi mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi mavjud:

- Tez-tez so'raladigan savollar
- Bilimlar bazasi
- Telefon yordami

Elektron pochta orqali qo'llab-quvvatlash

Blender. Bu biz topa oladigan eng yaxshi 3D modellashtirish dasturlaridan yana biri. Bundan tashqari, bepul va ochiq manba, bu 3D modellarni yasashni o‘rganayotgan odamlar uchun ajoyib imkoniyatdir. Ammo bu sizni nafaqat bu bilan cheklab qo‘ymaydi, balki tekstura, suyuqlik va tutunni simulyatsiya qilish, zarrachalarni simulyatsiya qilish va kompozitsiyani ham bajarishingiz mumkin. Ko‘rib turganingizdek, bu juda to‘liq dastur bo‘lib, uning yordamida har bir funksiyasidan tez va oson foydalanishni o‘rganishingiz mumkin. Ammo bu hammasi emas, Blenderning yana bir afzalligi shundaki, u o‘rnatilgan o‘yin dvigateliga ega. Xuddi shu narsa uni ushbu sektorning eng ajoyib vositalaridan biriga aylantiradi.

Blender bizga nimani taklif qilayotganiga chuqurroq to‘xtaladigan bo‘lsak, bu loyihalarni taqdim etish, simulyatsiya qilish va yuqori sifatli videolarni tahrirlashda professional ishni istaganlar uchun ideal vosita deb ayta olamiz.

Ushbu o‘ta realistik tizim bizga GPU va protsessorlarni ko‘rsatish imkoniyatlarini taklif etadi, bu esa yuqori quvvatli dasturni talab qiladigan odamlar uchun maqbul sharoitda video simulyatsiyalarni bajarishi uchun qulaydir.

Blenderni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash

Ushbu dasturni ikkala Mac va Windows-da, ham ish stoli versiyalarida ishlatishimiz mumkin.

Yordamga kelsak, biz uni Chat orqali olishimiz mumkin, shunda platformadagi har qanday texnik muammoga aniqlik kiritishimiz mumkin.

Blender xususiyatlari

- Tezlikni sozlash
- Ovoz yozish
- Bo'linish va birlashish

3D modellashtirish loyihasi Blender bilan qanday ishlashiga misollar

Birinchi misolda biz kubok yoki Graelning oddiy namunasini ko‘ramiz, unda har bir detal asta-sekin o‘zgartirilishi mumkin.

Blender bilan 3D modellashtirishning ushbu ikkinchi misolida biz platforma tomonidan taqdim etiladigan vositalarning ko‘proq funksiyalari qo‘llaniladigan yanada rivojlangan loyihani ko‘rishimiz mumkin.

Blenderdan foydalanishni o'rganing.

Blender - bu ochiq kodli dastur, shuning uchun uni bepul ishlatishimiz mumkin, bu bepul dastur yordamida 3D modellarni qanday qilishni o‘rganishni istaganlar uchun katta afzallik. Agar siz ushbu dasturdan qanday foydalanishni bilishni xohlasangiz, biz sizga o‘zingizning tezligingizda o‘rganishingiz uchun ushbu platformadagi mutaxassisdan sizga juda yaxshi video darslikni qoldiramiz.

Blender haqida xulosalar. Shubhasiz, biz ushbu sohada o‘rganish va rivojlantirish uchun eng yaxshi dasturlardan biri. Bundan tashqari, yuqorida aytib o‘tilgan maxsus funksiyalar tufayli yangi boshlanuvchilar uchun ham, mutaxassislar uchun ham idealdir. Foydalanish qulayligi tufayli biz Blenderga 4.7 balli tizimda 5 reytingini bera olamiz va biz sizga qoldirgan variantdan bepul olishimiz mumkin.

Xulosa. Texnika rivojlanib bormoqda va shu bilan birga ko‘p narsalarni o‘zimiz qila olishimiz kerak, ulardan biri 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir. Shu sababli, endi biz ushbu maqsadda foydalanishning eng oson dasturlari haqida gaplashamiz. Shu tarzda siz ushbu dizayn dunyosida nimani boshlash ideallari haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin. Shuni eslatib o‘tish joizki, 3D modellarni yaratish bo‘yicha barcha dasturlar murakkablik darajasiga ega, ammo, albatta, hamma narsa unga bo‘lgan qiziqish darajangizga bog‘liq.

Biz sizga ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta mutaxassislarning fikriga ko‘ra, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihalar uchun ham 3D modellarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba'zi bir ro‘yxat orqali aytib beramiz. Biz allaqachon bilamizki, ushbu resurs juda ko‘p qirrali

xususiyatga ega. Shu sababli, ushbu postda gaplashadigan dasturlarning har birining kamida asosiy jihatlarini bilishimiz muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Берн, Д. Цифровое освещение и визуализация / Берн Д. – М.: Вильямс, 2003 – 330 с.

2. Ганеев, С.М. Формирование графической грамотности учащихся при обучении решению планиметрических задач в условиях компьютерной поддержки: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Ганеев Сабир Минигалиевич. – Омск, 2004 – 220 с.

3. Георге, И.В. Педагогические условия организации самостоятельной работы в структуре формирования профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования: дис. … канд. пед. наук: 13.00.08 / Георге Илона Владимировна. – Санкт-Петербург, 2016. – 192 с.

4. Докторова, Е.А. Мультимедиа технологии / Е.А. Докторова. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. 139 с.

5. Залогова, Л. А. Компьютерная графика. Элективный курс [Электронный ресурс]: практикум / Л. А. Залогова.– М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. – 245 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada 3d modellashtirish uchun eng yaxshi dasturlar va ulardan foydalanish texnologiyalari va shu bilan birga 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir zaruriyati asoslangan. Bundan tashqari, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihalar uchun ham 3D modellarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba’zi birlari aytib berilgan hamda ushbu muammolar bo’yicha tadqiqot olib borgan olimlar faoliyatiga nazar tashlab o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены лучшие программы для 3D моделирования и технологии их использования, а также обоснована необходимость изучения использования программ для 3D моделирования. Кроме того, были описаны некоторые из лучших вариантов обучения созданию 3D-моделей как для видеоигр, так и для профессиональных проектов, а также дан обзор деятельности ученых, проводивших исследования по этим проблемам.

SUMMARY

The article is based on the best programs for 3D modeling and the technologies for their use, and at the same time the need to learn how to use 3D modeling programs. In addition, some of the best options for learning how to make 3D models, both for video games and for professional projects, have been mentioned and a look at the activities of scientists who have conducted research on these problems.

WEB 2.0 TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OSHIRILADIGAN ARALASH TA'LIM MODELI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY TAHLILI

Eshmurodov A.G'.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: Aralash ta'lim, web 2.0 texnologiyalari, LMS, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim.

Ключевые слова: смешанное обучение, технологии Web 2.0, LMS, электронное обучение, дистанционное обучение.

Key words: mixed education, web 2.0 technologies, LMS, e-learning, distance learning.

Kirish. Bugungi dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turli sohalarda ta'sir ko'rsatmoqda. Insonlar o'z ishlarini bajarish uchun ko'proq bilim va yaxshiroq standartlarga muhtoj bo'lib qolmoqda. Ta'lim bu sohalarni rivojlantiradigan manbalardan biri bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o'qitish ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda[1]. Ayniqsa ta'lim zamonaviy innovatsiyalariga muhtoj va ta'lim sifatini yaxshilash uchun yangi yondashuvlar kerak deb hisoblaymiz. Shunday qilib, hozirgi ta'lim oluvchilar uchun ilg'or texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlanadigan yaxshiroq ta'lim usullari yoki usullarini izlash kerak.

Aralash ta'lim-bu turli xil ta'lim texnikasi va texnologiyalarini o'z ichiga olgan o'quv yondashuvining bir turi hisoblanadi. Ushbu ta'lim va o'qitish texnikasi, o'quv modeli xususiyatlari va funktsiyalarini birlashtirib, yanada samarali ta'lim tajribalarini taqdim etishga qaratilgan [3]. Odatda aralash ta'lim modeli turli xil yondashuvlar bilan ikki yoki undan ortiq texnikani o'z ichiga olishi mumkin. Bunday ta'lim tizimiga an'anaviy va onlayn o'qitish tizimi kiradi. Aralash ta'lim modellari o'qituvchilarga foydalanishga imkon beradi va an'anaviy ta'lim va onlayn ta'limning afzalliklari orqali samarali ta'limni ta'minlash ham mumkin. Aralash ta'lim yondashuvi deganda talabalar onlayn

ta’lim texnologiyalaridan foydalanishlari va o’qituvchilar yoki boshqalar bilan muloqot qilishlari mumkin bo’lgan muhit tuhsuniladi. Ta’lim faoliyatida aralash ta’lim modellaridan foydalanish orqali quyidagilarni amalga oshirish mumkin. Talabalarning o’zlashtirish ko’rsatkichlari va talabalar, o‘qituvchilar vaqtini optimallashtirish, ta’limni boshqarish tizimi yoki ta’lim bilan bog’liq boshqa o’quv materiallari tomonidan taqdim etilgan ilovalardan foydalanish mumkin. Aralash ta’lim-bu samardorliklar natijasida tez o’sib boradigan mashhur ta’lim modeli ta’lim va texnologiyasidir.

Ushbu maqola mashhur web 2.0 texnologiyalari bilan qo’llab-quvvatlanadigan aralash ta’lim modelining xususiyatlaridan foydalanishni tavsiflaydi. Web 2.0-bu interaktiv, onlayn dasturlar birlashgan web-saytning ikkinchi avlodi bo’lib, kompyuter foydalanuvchilari ma’lumotlarini shakllantirish va almashish, boshqa foydalanuvchilar bilan aloqa qilish va sozlash uchun foydalanishi mumkin bo’lgan tizimlardir. Amalga oshiriladigan ushbu ta’lim modeli an’anaviy muhit va bloglar, vikilar va ijtimoiy tarmoq xizmatlari kabi web 2.0 texnologiyalari bilan shakllangan elektron o’quv faoliyatidir. Elektron o’quv faoliyati tanlangan web 2.0 texnologiyalarining ilg’or xususiyatlari va funktsiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Web 2.0 texnologiyalari yordamida talabalar ham, o’qituvchilar ham turli xil ta’lim va o’qitishni amalga oshirish imkoniyatiga ega o’qitishning boshqarish tizimlari (LMS) ta’lim dasturlari bilan tajribasi yo’q foydalanuvchilarga katta imkoniyatlar yaratadi. Modelning tuzilishi aralash dasturiy-oqim yondashuviga muvofiq ishlab chiqilgan o’rganish modelni o’z ichiga oladi.

Jahonda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning muhim yo‘nalishi sifatida variativlik potentsialini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, klaster yondashuvi asosida ta’lim mazmunini innovatsion tashkil etishning mutaxassis asoslarini ishlab chiqish, ayniqsa, muhim dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, talabalarning kasbiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, pfofessionallikni pedagogik jarayonda namoyon bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, kasbiy yo‘nalganlik diagnostikasini amalga oshirish va talabalarning individual-kasbiy-intellektual xususiyatlarini o‘rganishga doir qator ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, “Kimyo” fani mazmunini zamonaviy bilimlar bilan boyitishning metodik tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim jarayonida kasbiy-texnologik variativlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Misol uchun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6- noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmonlari, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalar zamonaviy jamiyatning eng ilg‘or qismi. Ular tanlagan kasbi bo‘yicha chuqur bilim olib, kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlanadi. Ularni kasbiy kompetentligini shakllantirishni shartli ravishda uch davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davr-talabalikkacha bo‘lgan davr. Bu bevosita maktab davrini qamrab oladi. Unda o‘quvchilar fan o‘qituvchisining kasbiy mahoratini baholaydi va o‘zlari ham bevosita kelgusida o‘qituvchilik kasbini tanlash bilan bog‘liq tayyorgarlik ishlarini olib boradi. Bu bosqichda o‘qituvchining kasbini yaxshi bilishi, nutqi, tashqi ko‘rinishi, pedagogik muomala madaniyati o‘quvchilarga namuna, etalon bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu davrda, ayniqsa o‘rta va yuqori sinflarda bolalarga, butun insoniyatga mehr-muhabbat shakllanadi va pedagogik kasbni tanlashga chuqur poydevor qo‘yiladi. O‘z kasbi orqali insoniyatga, Vatanga xizmat qilish, yosh avlodni tarbiyalashda ishtirok etish motivlari yuqori bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘qituvchilarga yaqindan yordam berish, ular bilan jamoa bo‘lib shakllanish istagi barqarorlashadi. Bunday o‘quvchilarga o‘z vaqtida yordam berish, o‘qituvchi kasbi uchun dastlabki zarur bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarni berish, ularga maxsus adabiyotlarni tavsiya etish muhim. Shuningdek, bu davrda kasbga yo‘naltirish uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ish olib borish kerak. Bunda ma’lum sport turiga ixtisoslashuv, umumiy jismoniy tayyorgarlikni muntazam oshirib borish, mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan asosiy islohatlar va

ularning mazmuni, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari va ularga o'qishga kirish sinovlari (testlar) haqi da to'liq ma'lumot, bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha tadbirkorlik qilish, sportda rag'batlantirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqasi, o'quvchilar maktab davridanoq jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga yo'naltiriladi. Bu davr kamida 5-6 yilni o'z ichiga olishi kerak.

Ikkinchi davr- oliy ta'lim muassasasida o'qish davri. Bu davr ham o'z xususiyatlariga ega. O'quvchilar o'zlari tanlagan oliy ta'lim muassasasi to'g'risida oldindan ma'lumotga ega bo'ladi. Kasbga yo'naltirish maqsadida tashkil etilgan tadbirlar orqali ular tanlagan oliy ta'lim muassasasiga bir-necha bor kelib, undagi o'quv-tarbiya jarayoni bilan qisman tanishadi. Bu yerda ular o'ziga va kelgusi tanlagan kasblariga oid bilimlarini yanada oshiradi. Talabalar o'rtasida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir talaba birinchi olti oylik davrida o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. Yangi tartib-qoidalar, yangi kun tartibi talabalardan jarayonga moslashish bilan bog'liq turli muammolarni keltirib chiqaradi. Kasbini ongli tanlagan va yaxshi tayyorgarlik ko'rgan talabalar bu davrdan osonlik bilan o'tadi. Aksincha, kasbni tavakkal tanlagan talabalar ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi va ularni jarayonga moslashishi uzoq vaqt talab qiladi, ayrim talabalar o'qishni tashlab ketishiga majbur bo'ladi. Kam bo'lsada bu holatlar maktabda kimyo fani o'qituvchisi kasbi bo'yicha yetarli darajada kasbiy targ'ibot ishlari olib borilmaganligidan dalolat beradi.

Kimyo yo'nalishi talabalari o'quv yillari davomida, o'quv reja bo'yicha 50 ga yaqin fanlarni o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. Bunda ijtimoiy gumanitar fanlar, umumkasbiy fanlar va mutaxassilik fanlari alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalarining o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil qilish bo'yicha imtiyozlari o'quv rejasidagi fanlarni majburiy va tanlov fanlarga bo'lib, tanlov fanlar bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan fan yo'nalishlari va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olib rejalashtirmoqda. Bu xorijda ko'p yillar oldin keng joriy qilingan tizim bo'lishiga qaramasdan, bizda bu kimyo mutaxassislari tayyorlashga bo'lgan yangicha yondoshuv, yangicha texnologiyalardir. Bu ta'lim sifatini va samaradorligini yanada oshiradi, talabalarni oldindan kimyo fani faoliyatiga ixtisoslashib borishini ta'minlaydi. Tanlov fanlar kelgusida yanada takomillashib, o'quv jarayonini asosini, katta qismini tashkil qiladi. Tanlov fanlarini tanlash mutaxassislik kafedrasi jamoasidan katta tajriba va bilim, ilmiy salohiyat talab qiladi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib, tanlov fanlarga quyidagi muhim va dolzarb yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

kimyo mutaxassislari tayyorlashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;

kimyo faniga oid yuqori natijalarini modellashtirish;

kimyoda xususiy tadbirkorlik;

kimyoviy tadbirlarini molyalashtirish;

o‘quvchi va talaba-yoshlarni kimyo fani bilan mustaqil shug‘ullanishni tashkil qilish va boshqarish;

kimyoga oid ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish metodikasi va b.

Bo‘lajak kimyo mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik amaliyotning o‘rni beqiyosdir. Amaliyotni tashkil qilish va o‘tkazish muhim tashkiliy metodik tadbir.

Uchinchi davr-bu bevosita oliy ta’lim muassasasini bitirib, pedagogik faoliyatga kirishish davri. Bu davr mutaxassislarning ta’kidlashicha 5-7 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va ular haqiqiy pedagog sifatida to‘liq shakllanadi , faoliyatga moslashadi hamda kasbiy kompetensiyaga ega bo‘ladi. Albatta, bu davrda ham kasbiy kompetensiyani oshirib borish talab etiladi. Bular o‘z-ustida ishlash, malaka oshirish, tanlovlarda ishtirok etish, semenarlar, taqdimotlar o‘tkazish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish jarayonida qatnashish, ilmiy, uslubiy tadqiqotlar o‘tkazish, ilmiy, uslubiy adabiyotlar tayyorlash va chop etish jarayonida yanada mukammallashib boradi.

Talabalarning o‘zlari tomonidan o‘zlarining ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun tanlangan talabalarning individual ta’lim dasturlari zamonaviy inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga mos keladigan ta’lim yo‘nalishlarini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqilayotgan muammoning barcha jihatlarini tugatmaydi. Ilm-fan va o‘quv amaliyoti ehtiyojlariga muvofiq, shuningdek olingan va asoslangan natijalarni hisobga olgan holda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuniningning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ularni maktabning barcha darajalari va bosqichlarida amalga oshirish kabi mahalliy ta’lim bilan bog‘liq sohalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini davom yettirish kerak. Ta’lim texnologiyasining muhim qismi bo‘lgan ta’lim mazmuni asosan uning protsessual qismini belgilaydi. Ko‘pincha, mashg‘ulotning protsessual jihatlari turlicha bo‘lib, tarkib faqat tuzilish, dozalash va mantiqda o‘zgaradi. Biroq, usullarning tubdan o‘zgarishi maqsadlar, tarkib va shakllarning o‘zgarishiga olib keladi va maqsadlar va tarkibning tubdan o‘zgarishi ta’limning protsessual

tomonini qayta ko‘rib chiqishga olib keladi. Shunday qilib, ta’lim texnologiyasi va mazmuni bir-birini yetarli darajada aks ettiradi.

Kasbiy ta’lim texnologiyasi deganda, kasbiy ta’lim sharoitida insonni shakllantirishning ta’limiy, tarbiyaviy va tashkiliy yondashuvlari, tamoyillari, usullari, texnikasi va shakllari to‘plami bilan tavsiflangan va izchillik, takrorlanuvchanlik, mahsuldorlik belgilariga ega bo‘lgan ijtimoiy va pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda talabalarni kasbiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini tayyorlashga qaratilgan pedagogik faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy yoki ishlab chiqarish munosabatlari jarayonini qamrab olishi, kasbiy-texnikaviy, ijtimoiy - iqtisodiy va kimyo sanoati ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish asosida ularning ruhan, irodaviy, axloqiy, jismoniy hamda estetik jihatdan kamolotga yetishishini ta’minlovchi pedagogik jarayon hisoblanadi

Adabiyotlar:

1. G.O.Ernazarova, Q.I.Isroilov, M.E.Qurbonova, Pedagogik kompetentlik. O‘quv qo‘llanma.T.2023 y.

2. Islamova Maftuna Sharofiddinovna, Qurbonova Muattar Erkinovna, Kimyoviy bilimlar asosida umumta’lim maktablari o‘quvchilarining kasbiy dunyoqarashini shakllantirish. Monografiya. Toshkent. ZEBO PRINT. 2023.

3. Qurbonova M.E. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash va ta’lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishning strategik modellari” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2022-yil 17-dekabr 321-323- betlar.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘lajak kimyo fani mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari yoritib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются вопросы формирования профессиональной компетентности будущих специалистов-химиков.

SUMMARY

In this article, the issues of formation of professional competence of future specialists in chemistry are covered.

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ

Қодиров Р .К.
Сурхондарё вилояти педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази

Таянч сўзлар: танқидий фикрлаш, дидактик жараён, бошқариш, таълим ғоялари, метод.
Ключевые слова: критическое мышление, дидактический процесс, менеджмент, образовательные идеи, метод.
Key words: critical thinking, didactic process, management, educational ideas, method.

Танқидий фикрлаш қизиқувчанликни намоён этиш ва тадқиқот усулларидан фойдаланишни англатади. Танқидий фикрлаш маълум бир масала бўйича нуқтаи назарни ишлаб чиқиш ва мантиқий далиллар билан ушбу нуқтаи назарни ҳимоя қилишни кўзда тутади. Танқидий фикрлашга эга бўлар экан, инсон у ёки бу ғоялар билан танишади ва уларни амалга ошириш бўйича мумкин бўлган оқибатларни кўриб чиқади. Танқидий фикрлаш асосида анъанавий билиш жараёни индивидуалликка эга бўлади ва англаб етилган, узлуксиз ва маҳсулдор бўлади.

Ўқувчилар танқидий фикрлашини шакллантиришга бағишланган адабиётларнинг назарий таҳлили шундан гувоҳлик берадики, педагогика фани услубчилари ва арбоблари қарашларида унинг кўпгина жиҳатлари, жумладан, таълим жараёнида бошланғич синф ўқувчиларининг танқидий фикрлашлари моҳиятини тушунишда ҳозирча якдиллик йўқ. Шунингдек, уларда муаммо моҳиятни талқин қилиш деталларида турличадир.

Таълим олувчида танқидий фикрлашни ривожлантириш вазиятни баҳолаш, асосланган қарорларни қабул қилиш, ўзгараётган мураккаб ҳаётнинг мазмунини тушуниб етиш, шахсни ўсиши учун шароитлар яратишга имкон беради. Танқидий фикрлашни ривожлантиришга имкон берувчи ме-

тодик воситалар кўпдир. Уларнинг кўпчилиги ўқитувчи томонидан ўқув машғулотларида инновацион ўқитиш методлари шаклида қўлланилади. Улардан тизимли ва мақсадга йўналтирилган ҳолда фойдаланиш муҳим ҳисобланади. Бунда ўқитувчининг вазифаси таълим олувчига нисбатан фаолият олиб бориши ва унинг эҳтиёжларини қондириш ҳисобланади. Ўқитувчи таълим олувчиларнинг мустақил фикрлаш фаолиятини ташкил этиши лозим. Таълим олувчи ғояларни бериши, мустақил ёки кичик гуруҳ таркиби фаолиятига баҳо бериши лозим. Инновацион ўқитиш методининг норматив ўқитиш методидан асосий фарқи шундаки, у шахснинг барча салоҳиятли қобилиятларини ривожлантиради. Бунда норматив ўқитиш методи ҳам инновацион ўқитиш методи ҳам келажакка турлича қарашини таъкидлаш лозим.

Таълим олувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш учун қуйидаги шарт-шароитлар зарурдир:

- танқидий фикрлаш бўйича тажрибаларга эга бўлиш учун вақт ва имконият;
- ўқув жараёнида таълим олувчиларнинг фаоллигига кўмаклашиш;
- турли хил ғоя ва фикрларни қабул қилиш;
- кулгили ҳолатга тушмаслиги тўғрисида талабаларни ишонтириш;
- ҳар бир ўқувчи танқидий фикрлашга қодир эканлиги тўғрисидаги ғояни сингдириш;
- танқидий фикрлаш кўринишларини қўллаб-қувватлаш.

Танқидий фикрлашни шакллантирувчи воситалар ўқув жараёнидаги ҳар бир босқичнинг аниқ мақсадларини ҳисобга олган ҳолда танлов амалга оширилгандагина тизим сифатида юзага келади ва улар бирликда бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашининг ҳар бир компонентига таъсир этади. Танқидий фикрлаш мазмуни уч ташқи омиллар: объекти, мақсади, дидактик асослар ривожланишининг қонуниятлари орқали боғланади. Бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини шакллантиришнинг дидактик асоси деганда нимани тушуниш керак? Биз бу тушунчани қуйидагича англаймиз:

1. Танқидий фикрлаш мақсадларини асослаш.

2. Бошланғич синф ўқувчиларининг танқидий фикрлаши мазмунини илмий ишлаб чиқиш.

3. Дарс мотивларини шакллантиришни илмий ишлаб чиқиш.

4. Ўқувчилар танқидий фикрлашининг илмий асосланган ва амалий қўлланувчи шаклларини ишлаб чиқиш.

5. Дарс методларини илмий ишлаб чиқиш, яъни танқидий фикрлашни шакллантириш усуллари тизимлари ва ўқувчиларга дарс бериш методларини илмий ишлаб чиқиш.

6. Ўқувчилар танқидий фикрлашини шакллантириш воситалари тизими – дарсликлар, дидактик материаллар, кўргазмали қуроллар ва техник воситаларни ишлаб чиқиш.

7. Бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини ташкил этиш ва бошқаришни илмий ишлаб чиқиш.

Бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини шакллантириш анча мураккаб ва узоқ давом этадиган жараёндир. У ўқитувчи билан ўқувчининг биргаликдаги ишида шаклланади. Шу асосда, танқидий фикрлаш асосида бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини шакллантиришнинг барча муҳим компонентларини (мақсад, мазмун, шакллар, метод ва усуллар, восита ва мотивлар) биргаликда кўриб чиқиш имконияти пайдо бўлади.

Хулоса, ўқувчиларнинг фаол танқидий фикрлашини шакллантиришнинг мотивлари, методлари ва ташкилий воситаларини таъминлаш уни инсон тараққиётининг турли ёш босқичларида чуқур тадқиқ этиш зарурияти талаб этади.

Адабиётлар:

1. Балтаева А.Т. Ўқувчиларда танқидий баҳолаш кўникмаларини шакллантиришда саволларнинг аҳамияти. //«Бошланғич таълимни компетенциявий ташкил этиш: назария ва амалиёт» мавзусида онлайн халқаро илмий-назарий анжуман. – Нукус: – 2020. –Б.300–302.

2. Ходжаева Ф.О. Ўқувчиларни танқидий фикрлашга ўргатиш ва унинг муҳим жиҳатлари. /”Замонавий таълим” журнали/, 2017 йил, № 6, 43-47 б.

3. Ҳасанова А. Ўқувчи ёшлар тарбиясида рағбатлантириш ва танбеҳ мезони. – Т.: «Ўзбекистон», 1980.

РЕЗЮМЕ

Мақолада бошланғич синф ўқувчиларнинг танқидий фикрлашини ташкил этиш ва бошқариш, унинг дидактик жараёни ҳақида назарий маълумотлар баён этилган.

РЕЗЮМЕ

В статье изложены теоретические сведения об организации и управлении критическим мышлением младших школьников и его дидактическом процессе.

SUMMARY

The article describes theoretical information about the organization and management of primary school students’ critical thinking and its didactic process.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Muminova N.A.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Tayanch so‘zlar: nutq, imlo savodxonligi, o‘yin, didaktik o‘yin.
Ключевые слова: речь, орфография, игра, дидактическая игра.
Key words: speech, spelling, game, didactic game.

Darslarni samarali tashkil etish-murakkab jarayon. Buning uchun o‘qituvchi turli zamonaviy pedagigik texnologiyalardan unumli va o‘z o‘rnida foydalanishi darkor. Bunday texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quv-chilarning mustaqil fikrlashi, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardan to‘g‘ri foydalanishi va erkin mulohaza yuritishiga umkoniyat yaratadi.

Ona tili mashg‘ulotlari shunday qurilmog‘i lozimki, har bir o‘rganiladigan til hodisasi o‘quvchi e’tiborini o‘ziga qaratsin, uni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga un-dasin, o‘zligini namoyish etish imkoniyatini yaratsin. Bunga ta’limning noan’ana-viy usullaridan unumli foydalanish, ayniqsa, didaktik o‘yinlarni qo‘llash orqali erishiladi.

Pedagog K.D.Ushinckiy boshlang‘ich o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib uni markaziy va yetakchi fan hisoblaydi. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi… Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”, - deb ta’kidlaydi[2;16]. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’lim jarayonida ona tilini o‘ganishga alohida va katta ahamiyat beriladi. Ushbu darslar jarayonida o‘quvchilar ongli o‘qish, savodli, imlo qoidalariga rioya qilib yozishga o‘rganadilar, yozma nutq ko‘nikmalarini egallaydilar.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida har bir fanning o‘z o‘rni va vazifasi bor. Ona tili fani quyidagi vazilarni bajaradi:

– o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish;
– imloviy va tinish belgilariga rioya qilgan holda husnixat malaka talablari bo‘yicha yozuv ko‘nikmasini shakllantirish;
– so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish;
– dars jarayonida badiiy, ilmiy-ommabop va yangi adabiyotlar bilan tanish-tirish, o‘quvchilarda badiiy asarni o‘rganish, o‘qish, tushunish ko‘nikmasini hosil qilish;
– masqlar yordamida o‘quvchilarni mehnatsevar etib tarbiyalash.

Ta’kidlab o‘tilgan vazifalarni o‘qituvchi dars davomida bajarib boradi. Bunda faqatgina o‘qituvchining og‘zaki nutqi, ko‘rgazmalari, muhim rol o‘yna-masdan, balki interfaol metodlar va didaktik o‘yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili darslarida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar og‘zaki nutqni shakllantirishga, o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishga, o‘z fikrini yozma tarzda ifodalab berishga xizmat qilmog‘i lozim.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan didaktik o‘yinlar qo‘llanilar ekan, u quyidagi shartlarga amal qilmog‘i lozim:

– har bir sinfning o‘quv imkoniyatini bilishi;
– o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lishi;
– o‘rganilayotgan hodisaning maqsadini anglay olishi;
– qo‘llanilgan didaktik o‘yin aniq maqsadni ifodalay berishi;
– didaktik o‘yin orqali o‘quvchilar ma’lum bir yangilikni o‘zlashtirib olishlari zarur.

Ona tili darslarida o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlarning imkoniyatlari nihoyatda keng hisoblanadi. O‘yinlar o‘quvchilarni faollikka, tez va aniq fikrlashga, topqirlikka o‘rgatadi. Ona tili darslarida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlardan namunalar keltiramiz:

“So‘zdan marjon tuzing” didaktik o‘yini. Bu didaktik o‘yinda o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘zlarning aralash to‘plamini tavsiya etadi. Uyadosh so‘zlarni alo-hida, ya’ni marjon tuzgandek yozishni aytadi. O‘quvchilar yozishadi va navbat bilan o‘qib berishadi. Qaysi o‘quvchi tez harakat qilib, marjonni xatosiz chizib chiqsa, o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

Namuna: Tabiat manzarasiga oid so‘zlar: bog‘, dala, o‘rmon, tog‘, qir, adir, tepalik va h.k.

“Sirli kataklarni to‘ldir” o‘yini. O‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdan so‘zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, “toy” so‘zidan “soy”

so‘zigacha davom ettirish talab etiladi. Namuna: toy, loy, moy, oy, joy, choy, yoy, soy.

Tavsiya etilgan so‘zlar:

1. Bosh, tosh, osh, qosh, yosh.
2. Bol, tol, pol, ol, sol, mol, xol.

“Ikkala bo‘g‘inida bir xil unli bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish” o‘yinida birinchi bo‘g‘inida ham, ikkinchi bo‘g‘inida ham bir xil unli qo‘llaniladigan so‘zlarni (tutun, butun, uzun, quzg‘un, burgut, uyg‘un, mushuk, ustun, uchun, uzum, tushum va h.k.) toppish va so‘zlar ro‘yxatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdordan eng ko‘p so‘z topa olgan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

“Men boshlayman, sen davom ettir” o‘yini. O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdan qarama-qarshi ma’noli so‘zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so‘zning qarama-qarshi ma’nosini toppish talab etiladi. Masalan: do‘st - … , baland - … , yosh - … , qattiq - … , chiroyli -… va h.k.

Bu o‘yin partadoshlar orasida ham o‘tkazilishi mumkin. Shunga o‘xshash o‘yinlardan yana biri boshlanish qismi berilgan xalq maqollarini mustaqil davom ettirishdir. Masalan,

1. Ko‘z –qo‘qoq, ……..
2. Egri ozadi - ……..
3. Birlashgan uzar - ……
4. Oz so‘zla - ……..
5. Olqish olgan omondir - ……..
6. Dono o‘zini ayblaydi - …….

O‘yinda vazifa almashtiriladi. Maqollarning ko‘pchiligini to‘g‘ri davom ettira olgan guruh o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

“Domino” o‘yinini quyidagicha o‘tkazish mumkin: bir o‘quvchi so‘z aytadi, shu so‘z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so‘zni boshqa o‘quvchi aytishi kerak, bu o’yin shu tarzda davom ettiriladi. Namuna: ishla – adolatli – insofli – ilojsiz – zamindor – rostgo‘y – yilnoma – aqlli – irodali – izlanuvchanlik – kasbdosh – shaharlik – kuzgi – istiqbol.

“Belgilarni izohlang” o‘yini. Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘quvchilar uch guruhga ajratiladi. O‘qituvchi qovunning rasmini doskaga ilib qo‘yadi-da, 1- guruhdan qovunning rangini, 2-guruhdan esa shakl-hajmini, 3-guruhdan uning maza-ta’mini bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Kim ushbu sifatlarning ma’no turlarini bildiruvchi so‘zlarni birinchi bo‘lib yozib chiqsa, o‘yin g‘olobi sanaladi.

Namuna:

1-guruh: ko‘k, oq, sariq, sarg‘ish.

2-guruh: katta, kichik, uzun, dumaloq.

3-guruh: shirin, mazali, to‘yimli.

Ona tili darslarida didaktik o‘yinlarni qo‘llash ijobiy natijalarni beradi. Didaktik o‘yinlarni qo‘llagan holda dars yutuqlariga erishish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. O‘z o‘rnida va to‘g‘ri qo‘llanilgan didaktik o‘yin o‘quvchi-larning darsga qiziqishlarini oshiradi, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqlarini yanada rivojlantiradi.

Shinday qilib o‘qituvchi ta’limiy o‘yinlarni tanlash va uni o‘tkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilim saviyasi, o‘yinning o‘quvchilarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, dars maqsadi bilan o‘yin maqsadi orasidagi uyg‘unlikni ta’munlash, o‘yinning ularda o‘qish istagini, bilim olish va izlanish istagini vujudga keltirishi o‘yinda ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning birligi kabilarni hisobga olishi kerak. Albatta, bu o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi kuchayib, faolligi oshadi. O‘zlashtirish jarayonida darsdan chalg‘imagan holda dam olish sharoiti yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf), Toshkent 2020.

2. Toirova M.E. Ona tili 3-sinf 1-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. Toshkent, 2023.

3. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi.–T.: Noshir, 2009. – 163 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda, imlo savodxonligini oshirishda dars jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar xususida fikr yuritishga harakat qilingan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье делается попытка сосредоточиться на дидактических играх, используемых в классе для улучшения устных и вербальных навыков учащихся начальных классов и повышения их орфографической грамотности.

SUMMARY

This article seeks to focus on didactic games used in the classroom to enhance the oral and verbal skills of primary school students and to improve their spelling literacy.

ONA TILINI O‘QITISH JARAYONIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Choriyeva Z.T.
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
Berdinazarova B.M.
Shahrisabz davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

Tayanch so‘zlar: kasbiy kompetentlik, kasbiy tayyorgarlik, kompleks yondashuv, nutq madaniyati, diagnostik test, talaba, nutqiy malaka.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, профессиональная подготовка, комплексный подход, культура речи, диагностический тест, студент, навыки говорения.

Key words: professional competence, professional training, integrated approach, speech culture, diagnostic test, student, speaking skills.

Jahonda ta’lim XXI asrning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, Koreya Respublikasida o‘tkazilgan xalqaro ta’lim forumida 2030 yilgacha belgilangan konsepsiyada “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” [1] dolzarbligi qayd etilgan. Bu boshlang‘ich ta’lim talabalari o‘quv faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, innovatsion yondashuv asosida mustaqil ta’lim olish jarayonini tashkil etish, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanib bilim, ko‘nikma va malakasini oshirish uchun o‘quv-metodik ta’minotni yaratish imkoniyatini kengaytirdi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosi ijtimoiy islohotlar vaqtida ayniqsa muhim hisoblanadi. Mazkur sharoitlarda inson faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi masala ustuvor ahamiyatli hisoblanadi. Insonning kasbiy faoliyatga jalb etilganligi faoliyat subyektining shaxsi, kasbiy tayyorgarligi, tajribasining va kasbiy muhim sifatlarining mavjudligiga bog‘liq. Boshqa tomondan, bu shuningdek, obyekt xususiyatlari va faoliyat sohasiga, mazkur kasb xususiyatlariga va kasbiy faoliyatning aniq turiga

bog‘liq bo‘lib, ular ta’lim mazmuni, yo‘nalganligi va muddatini, shuningdek kasbiy tayyorgarlik vositalari va metodlarini belgilaydi.

Jahon ta’lim makoniga integratsiya jarayoni respublika ta’lim tizimini modernizatsiyalashni talab etadi. Ta’lim islohoti muvaffaqiyatining asosiy mezoni mamlakatimiz har qanday fuqarosi tegishli ma’lumot va malakani egallab, mehnat bozorida mutaxassis bo‘la oladigan darajaga erishishi hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, ta’lim tizimi oldiga “aqlli iqtisodiyot”ni shakllantirish vazifasi qo‘yiladi va “uni shakllantirish uchun, avvalo o‘zining shaxsiy inson kapitalini rivojlantirish kerak”. Shu tariqa, kasbiy tayyorgarlik – bu mutaxassisning intellektual, psixologik, ma’naviy va amaliy kompetensiyalari tizimi bo‘lib, ma’lum kasbiy faoliyat sohasidagi egallangan bilim, ko‘nikma, tajriba va boshqa xususiyatlar darajasini ifodalaydi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishning o‘quv va darsdan tashqari faoliyati doirasida ta’minlanishi kerak. Mazkur ta’minotni izlash tabiiy ravishda bizni, o‘quv faoliyati kasbiy faoliyatdan motivlar, maqsadlar, predmeti, hatti-harakatlari, vositalari, natijalari bo‘yicha sezilarli farqlanganligi sababli o‘quv faoliyatini kasbiy faoliyatga aylantirishning yo‘llari va vositalarini izlash zarurligi to‘g‘risidagi xulosaga olib keladi. Hozirgi vaqtda ta’lim sohasida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda va ular mavjud sharoitlarda boshlang‘ich ta’lim talabalarining bilim, ko‘nikma va malakasini oshirishda yangi ustuvorliklarni yuzaga keltiradi.[7]

Shuning uchun, talabalarni o‘quv faoliyatiga taalluqli qonunchilik hujjatlarida quyidagi vazifalar aniq belgilangan: keng fundamental bilimlarga ega bo‘lgan, tashabbuskor, mehnat bozori va texnologiyalarning o‘zgaruvchan talablariga moslasha oladigan yangi turdagi mutaxassislarni tayyorlash; butun ta’lim tizimining ta’lim jarayonini demokratlashtirish orqali barcha sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga motivatsiyasini kuchaytirish; talabalarning sifatli ta’lim olish huquqlarini mustahkamlash, Oliy ta’lim tizimida rahbar va professor-o‘qituvchilarning sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etishga javobgarliklarini belgilovchi mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish.

Yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda va talabalarni kasbiy tayyorlash sohasidagi sifatli o‘zgarishlarni ta’minlash Oliy ta’lim tizimining vazifasi hisoblanadi. Ta’limda kompotentli yondashuvni amalga oshirish boshlang‘ich ta’lim talabalarini bilim, ko‘nikma va malakasini oshirishning kasbiy faoliyatga tayyorgarliklarini oshirishning samarali metodikalari va vositalarini ishlab chiqish kabi murakkab vazifalarini qo‘yadi. Ma’lumki, ta’lim mazmuni jamiyatning har tomonlama rivojlangan mutaxassisni tayyorlashga ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirishning pedagogik modeli sifatida xizmat

qiladi. Ta’lim mazmuni esa mazkur modelning ahamiyatli elementi sifatida, pedagog va talabaning faoliyatini belgilovchi o‘quv axboroti qayd etiladigan element sifatida xizmat qiladi.[3] Bundan tashqari, ta’lim mazmuni talabaning ta’lim, tarbiya va rivojlanishi jarayoni quriladigan bazasi hisoblanadi, ya’ni mazkur pedagogik modelning amalga oshirilishi sodir bo‘ladi.

Bunday kompleks yondashuv ona tili o‘qitish metodikasi fanining mazmunini mazmunli strukturasini batafsil ishlab chiqish hisobiga yangilash imkonini beradi. Asosiy g‘oya – tanlangan ilmiy bilimlarning tabaqalashtirilishi; faqat yetakchi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi qo‘shimcha yoki ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlarni puxta aniqlashdan iboradir. [8]

Hozirgi vaqtda ta’limda bilimlarni yetkazish emas, balki ta’lim oluvchining shaxsi asosiy hisoblanadi. Ta’limning innovatsion metodikalar tizimini tashkil etishning asosi sifatida nochiziqli ta’lim insonda kerakli axborotga kerakli joyda va kerakli vaqtda qobiliyatni shakllantiruvchi o‘qitishning maxsus metodlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida boshlang‘ich ta’lim talabalariga talablar o‘sib bormoqda. Shuning uchun boshlang‘ich ta’lim talabalariga ta’lim berish sifatini takomillashtirish, talabalarni turli kommunikativ sharoitlarda, avvalo bevosita kasbiy faoliyatda til vositalaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, pedagogik muloqot madaniyatini o‘rgatish, pedagogik kommunikatsiya jarayonida o‘quvchilarga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi ifodali to‘g‘ri nutq malakalarini shakllantirish zarurati bilan bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim talabasining nutq madaniyatini rivojlantirish, bir tomondan o‘qitishni optimallashtirish vositasi sifatida, boshqa tomondan esa – uning tarbiyaviy ta’siri omili sifatida qaraladi. Talabaga alohida talablar qo‘yilib, ulardan biri – o‘quvchilar bilan ularda muloqot, faoliyat, ta’lim jarayonining teng huquqli sherigini ko‘rishga asoslangan muloqot qilish malakasi hisoblanadi. Bu o‘quvchilar bilan nutqiy aloqa o‘rnatish, sinfga ta’sirini ko‘rsata olish, o‘quvchilarning ruhiy holatlarini tushunish, ularning fikrlarini inobatga olish, ta’lim oluvchilarning nutq jarayonlarini boshqarishni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim talabasi namunaviy nutqning haqiqiy tashuvchisi bo‘lishi kerak. Agar uning lug‘at zaxirasi boy bo‘lmasa, uning o‘z nutqi ifodali bo‘lmasa, u o‘z fikrlarini ifodalashda bir xillikdan qochish uchun sinonim til vositalaridan foydalana olmasa, o‘quvchilarning umumiy nutq madaniyatlarining yuqori darajasiga erisha olmaydi.

Tilshunoslarning fikrlariga ko‘ra, talabalarning kasb mahoratlari shakllanishida nutq madaniyatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:[6]

1. Kasbiy mahoratning muhim komponenti sifatida nutqiy ta’sir etish va o‘zaro aloqa qilishning optimal vositalarini topish kompetentligini, malakasini shakllantirish.

2. Talabalarni kommunikativ yetakchi sifatida vaziyatning xususiyatini tezkor tushuna oladigan, tartibga soluvchi ta’sir etish texnologiyasini qo‘llaydilar va o‘zaro aloqalarga erishadigan nutq madaniyatiga oid shaxs sifatlarini tarbiyalash.

3. Turli kommunikativ vaziyatlarda nutqiy javob berish dasturlarini va o‘quv mashg‘ulotining, jumladan talabalarning salbiy nutq ssenariylariga spontan nutq mikrostrukturasini ishlab chiqish.

4. Nutq xususiyatini shakllantirish. Ta’lim va rivojlanish talaba shaxsining shakllanishiga yo‘naltirilgan Oliy ta’lim tizimida ta’lim olish muvaffaqiyatliligi nazoratining roli sezilarli o‘zgaradi. Boshlang‘ich ta’lim talabasi nafaqat nutqiy rivojlanish diagnostikasi vazifasini amalga oshirishi kerak. Pedagogik psixologiyada “diagnostika” atamasi (grekchadan diagnoz - tanish) talaba shaxsi ma’lumotliligi va rivojlanish sifatining darajasini aniqlashni anglatadi. Boshlang‘ich ta’lim talabasi uchun diagnostik malaka kasbiy ahamiyatli sifat hisoblanib, u avvalo o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishlari diagnostikasi metodlarini egallashi lozim.

Ona tilini an’anaviy o‘qitish metodikasida avvalo tilga oid bilim va malakalarni o‘zlashtirish nazoratiga e’tibor qaratilgan, tilga oid, kommunikativ, lingvistik va madaniyatshunoslik kompetensiyalari hamda nutq rivojlanishi diagnostikasi hozirga qadar to‘liq jihatdan amalga oshirilmaydi. Bunga sabab til bo‘yicha bilimlar nazoratining ahamiyatini yuqori baholash, ma’lumotlilikni baholashga yondashuvdagi konservatizm va nutq diagnostikasi metodlarini yetarli egallamaganlik, ona tili bo‘yicha diagnostik vositalar tizimining mavjud emasligi hisoblanadi.[7]

Lingvodiagnostika ostida maxsus nazorat va baholash vositalari yordamida amalga oshiriladigan talabaning zarur tilga oid va lingvistik kompetensiyasi darajasini aniqlash metodlarining majmui hamda mazkur darajalarni prognozlash va korreksiyalash tushuniladi. Shu sababli, talabalarning ona tili bo‘yicha ma’lumotliliklari mezonlarini, bilim va malakalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish, nutq rivojlanishi darajalarini aniqlash va diagnostik vositalar tizimini yaratish ona tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasining muhim muammosi hisoblanadi.

Oliy ta’limning rivojlanish mafkurasi boshlang‘ich ta’lim talabalarining bilim va malakalari nazorati va baholanishiga an’anaviydan ko‘ra o‘zgacha yondashuvlarni ko‘zda tutadi. Asosiy masala e’tiborni tilni o‘rganishdan nutqni

o‘rgatishga (tildan kommunikativ maqsadlarda foydalanish bo‘yicha insonning alohida faoliyati sifatida) ko‘chirish ona tilini o‘qitish sohasidagi pedagogik nazorat vazifalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etganligidan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. Адолф В.А. Теоретические основи формирования профессионалной компетентности учителя: дисс. … д-ра пед. наук. М., 1998. – 356 с.

3. Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессионалное образование. - Екатеринбург, 1998. - 186 с.

4. Зимняя И.А. Ключевие компетенсии - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Висшее образование сегоднЙ. - 2003. № 5. С. 34-42.

5. Зимняя И.А. Компетентностний подход. Каково его место в системе подходов к проблемам образования? // Висшее образование сегоднЙ. 2006. № 8. С. 20–26.

6. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil Malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped. fan. dok. … diss. – Toshkent: 1995. – 253 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirishning muhim omillari keltirib o‘tilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarning nutqiy darajasini aniqlovchi testlardan foydalanish haqida ma’lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье выделены важные факторы повышения профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов в процессе обучения родному языку. Приведена информация об использовании тестов для определения уровня речи будущих учителей начальных классов.

SUMMARY

This article highlights important factors in improving the professional competence of future elementary class teachers in the process of teaching their mother tongue. Information is provided on the use of tests to determine the level of speech of future primary school teachers.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH MAKTAB TA'LIMINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

Raximova R. B.
Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM katta o'qituvchisi

Tayanch so`zlar: ta'lim-tarbiya, shaxsini rivojlantirish, himoyachisi va do'sti.
Ключевые слова: образование, развитие личности, защитник и друг.
Key words: education, personal development, protector and friend.

Yurtimiz ravnaqi va islohotlarning samarasi har tomonlama ushbu xalqning bilim saviyasi va dunyoqarashiga bevosita bog'liq. Shaxsning ta'lim-tarbiya sohasidagi faolligi, uning haqiqiy fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir. «Ta'lim-tarbiya'' - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Hozirda zamonaviy uslubdagi ta'lim tizimi faoliyatini tubdan takomillashtirish va barqarorlashtirish hamda yoshlarning bilim olishga bo'lgan imkoniyatlarini ta'minlashda Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan keng foydalanish bilan bir qatorda rivojlangan chet el mamlakatlarining tajribasidan ham foydalanish muhim ahamiyat kasb etiladi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Natijada bola o'zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi. Tarbiya va ta'lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo'lgan mazmunni tanlaydi, uning o'zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib

qolmaydi. U o'zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi, o'sayotgan odam shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi.

Tarbiyaning o'zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L.S. Vigotskiy) bilan bog'liq bo'lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko'nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o'zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o'zlashtirish; ancha miqdordagi tasawurlarga ega bo'lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o'zlashtirish; buyum asosidagi o'yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va h.k.). Tarbiya va ta'lim eng yaqin rivojlanish zonasiga asoslanib, bugungi rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi. Inson shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich awalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun doimiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllarining aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.[6]

Shaxsning o'tmish avlodlar yaratib qoldirgan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonida shaxsning rivojlanishi haqida ta'limot maktabgacha ta'lim didaktikasida ta'lim mazmunini tanlash va tuzish prinsiplarini ishlab chiqishning metodologik asosi hisoblanadi. Bu didaktikada bola ta'lim va tarbiya olish jarayonida kamol topadi degan qoidaning qaror topishi barcha yosh davrlaridagi bolalarga mo'ljallangan bilimlar mazmunini tanlash prinsiplarini ishlab chiqishni dolzarb muammo qilib qo'ydi. Mazkur muammoni ishlab chiqishda L.S.Vigotskiy, Rubinshteyn, V.V. Davidov, L.Ya.Lerner, L.V.Zankov, A.RUsova, A.M.Leushina va boshqa pedagog va psixologlar katta hissa qo'shdilar.[5]

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S. Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab, shunday yozgan edi: «Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchimiz komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u o'z bolaligida tarbiya topganidan qarzdordir». [6]

Shu bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash umumiy ta'lim jarayonining bir qismidir; tafakkurni, nutqni, bilimdonlikni, hissiy sohani, axloqiy tarbiyani rivojlantirishga, ya'ni butun shaxsning shakllanishiga yordam beradi. Ekologik ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar elementar ekologik bilimlar to'plamiga, tabiatdagi sabab-oqibat munosabatlarini bilishga, barcha tirik mavjudotlarga hurmatga asoslangan ekologik jihatdan barkamol xavfsiz xulq-atvor normalarini o'zlashtiradilar. Tabiiy dunyoning «himoyachisi va do'sti» faol pozitsiyasini shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini tarbiyalash uchun asosdir. Bolalar ayniqsa ta'sirchan va sezgir, shuning uchun ular muhtojlarni himoya qilish uchun barcha choralarda faol ishtirok etadilar. Bolalarga odamlarning tabiiy dunyoga nisbatan kuchliroq pozitsiyani egallashini ko'rsatish muhimdir. Atrofdagi dunyo to'g'risida olingan bilimlar amaliy mashg'ulotlar va tasviriy misollar bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak, shunda bolalar o'z faoliyatining ijobiy natijasini ko'rishlari va yutuqlarini yaxshilash istagi paydo bo'lishi kerak. Zamonaviy ekologik ta'lim muammosi ko'p qirrali. Bugungi kunda ekologiya odamlarga omon qolishga yordam beradigan, yashash joylarini yashash uchun maqbul bo'lgan fanga aylandi. Ekologik tarbiya insonda ekologiya qonunlariga muvofiq harakat qilish qobiliyati va istagini shakllantirishdir. Hozirgi vaqtda ekologik ta'lim maktabgacha pedagogik nazariya va amaliyotning mustaqil sohasi sifatida shakllandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi - bu hissiy ijobiy munosabatda namoyon bo'ladigan ekologik g'oyalar va bilimlar tizimini, ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bolani tarbiyalash va rivojlantirishning uzluksiz jarayoni tabiatga, atrof-muhit holatiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish. Tabiatga mehr va unga mehrli munosabat bola qalbida faqat maktabgacha tarbiyachi har kuni kattalar, o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan tabiatga ehtiyotkorlik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish misollarini ko'rsagina shakllanadi. Bu holda ekologik ta'lim bolaning his-tuyg'ularini rivojlantirish, hamdardlik, hayratda qolish, hamdardlik, tirik organizmlarga g'amxo'rlik qilish, ularni tabiatdagi birodarlar sifatida qabul qilish, dunyo go'zalligini ko'rish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. butun manzara va bitta gul, shudring tomchisi, kichik o'rgimchak). Bularning barchasi, albatta, bolalarda atrof-muhit haqidagi ekologik savodxonlik g'oyalarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Biroq, bu etarli emas: bolalarga atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish zarurligini tushunishga yordam beradigan minimal ekologik bilim kerak. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'plab o'qituvchilar o'quv jarayonida bolalarning e'tiborini birinchi navbatda tirik narsalarga, ayniqsa hayvonlarga qaratadilar, jonsiz tabiat ob'ektlariga juda kam

e’tibor beriladi. Shu bilan birga, bolalar jonsiz tabiat ob’ektlariga katta qiziqish uyg’otadi va ishni to’g’ri tashkil qilish (tajriba, kuzatishlar o’tkazish) bilan bola jonsiz tabiat va uning hayvonot dunyosi bilan bog’liqligi haqidagi bilimlarni oson egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash jarayonida tabiat bilan majburiy uchrashuvlar bolalarning g’oyalarini kengaytiradi, ularning turli xil hodisalarga diqqat bilan qarash qobiliyatini oshiradi, tabiiy materialdan hunarmandchilikni yaratishda idrokning yaxlitligini saqlaydi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik nazariyada maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash muammosi etarlicha batafsil ko’rib chiqiladi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limi - bu insonning tabiatga mas’uliyatli munosabatini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydigan ekologik bilimlar, ko’nikmalar, munosabatlar, e’tiqodlar, axloqiy fazilatlar tizimini shakllantirishning maqsadli, tashkil etilgan, tizimli, izchil, tizimli pedagogik jarayoni. umuminsoniy qadriyat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashning asosiy vazifasi ekologik madaniyatni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o’zgarishlarga muvofiq, shaxsning atrofidagi o’ziga xos xarakterga ega bo’lgan muhitga moslashuviga hamda shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim va tarbiyasiga alohida talablar qo’yiladi. Xorijiy ta’lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalar shaxs ta’lim-tarbiyasi juda erta yosh davridan shakllantirishni nazarda tutmoqda. Jumladan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya ta’lim tizimida maktabgacha yosh davridanoq bolalar hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, kelajagi uchun ta’lim-tarbiyaga o’rgatib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajagiga bee’tibor bo’lmagan xalq baxtli va farovon kunlarini uning egalari bo’lmish yosh avlod istiqbolida ko’rgan millat ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor beradi. Mustaqillik yillarida eng avvalo, kelajagimiz egalari bo’lgan barkamol avlod kelajagi, ta’lim va tarbiyasiga mas’ul bo’lgan ustoz va murabbiylik kasbiga e’tibor kuchaydi. Jamiyatimizda bu sharafli va o’z navbatida katta mas’uliyatli bo’lgan kasb egalariga nisbatan cheksiz hurmat va ularga e’tibor ko’rsatish davlat siyosati darajasigacha ko’tarilgan.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish bilan amalga oshiriladi. Bu turlicha faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari kerak bo’lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ulaming yoshi bilan izohlanadi. Shu o’rinda, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ulaming mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi

yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalaming maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydi, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrof ma'lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan his-tuyg'u, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi. Dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bola hayotining ilk yillarida o'zidan kattalar bilan o'rnatadigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi bo'ladi. Bola bilan muloqot qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo'l bilan bola buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatning o'ziga xos tomonlarini o'rganib boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo'ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishadilar va ularning o'yin hamda tasviriy faoliyatga o'tishlari uchun ham asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida hamda faoliyatlarda o'z-o'zini anglab olishning dastlabki shakllari sekin-astalik bilan shakllanib boradi. Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak-atrofidagi tabiat to'g'risida, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib boradilar. Bundan tashqari, ularning aqliy va amaliy bilimlari yanada ortib boradi.

Bu kabi islohotlarni yanada kengaytirishga o'z xissasini qo'shish, mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga befarq bo'lmaslik jamiyatimizdagi har bir kishining asosiy vazifasidir. Zero, insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, ulami komillikka yetaklash eng oliy maqsadimiz bo'lsin.

Adabiyotlar:

1. Nikolayeva, S.N. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash. Bolalar bog'chasi o'qituvchilari uchun kitob. - M .: Mozaik-sintez, 2004. - 96s

3. Lee Youngil «Montessori ta'limi: Ma'daniy ta'lim» Qo'llanma. Qarshi: Intelekt. 2022y.

4. Qodirova. F. va boshqalar Maktabgacha pedagogika. Dasrlik. Toshkent: Tafakkur. 2019y.

5. O.U.Hasanboyeva va boshqalar Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Ilm Ziyo. 2012y.

6. Jalilova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Faylasuflar. 2017y.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha va boshlang'ich maktab ta'limining zamonaviy muammolari va ularni hal qilish yo'llari, ekologik tarbiyani shakllantirish imkoniyatlari haqida fikr mulohaza yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются современные проблемы дошкольного и начального школьного образования и пути их решения, возможности создания экологического образования.

SUMMARY

The article discusses modern problems of preschool and primary school education and ways to solve them, the possibility of creating environmental education.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH USULLARI

Irisova S.
QVPYMO‘MM katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachining mashg‘ulotga tayyorgarlik moduli, integrallashgan mashg‘ulot, kasbiy kompetentlik.

Ключевые слова: дошкольное образование, модуль подготовки педагога, интегрированное обучение, профессиональная компетентность.

Key words: preschool education, teacher training module, integrated learning, professional competence.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlkatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bosqichi bo‘lgan va uning poydevorini tashkil qiluvchi maktabgacha ta’lim hozirgi kunda ta’lim sifati va samaradorligini belgilashda asosiy o‘rin egallaydi. Snu munosabat bilan maktabgacha ta’lim zamonaviy talablar asosida bo‘lishi jiddiy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida yaratilayotgan shart-sharoitlar yangi texnologiyalar asosida pedagogik jarayonni tashkil etish usullarini izlash, ta’lim tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini oshirish dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishi bevosita pedagogning kasbiy darajasiga bog‘liq bo‘lib, u ma’lum bir dastur va pedagogik jarayonda yuzaga keladigan maxsus vaziyatlarni yengish imkonini beradigan ommabop va o‘ziga xos kasbiy munosabatlar yig‘indisi sifatida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori, Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-son buyrug‘ida maktabgacha ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalar belgilab o‘tilgan.

Kompetensiya bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy xususiyatlar va muayyan faoliyat sohasi bo‘yicha tajribalar to‘plamini ifoda etadi. Kompetentlik – shaxsning umumlashgan qobiliyatlari, kompetensiyaning hayotda namoyon bo‘lishi. Kompetensiya – bu shaxsning bilim va tajribani egallashi bilan bog‘liq masalalar ko‘lami, kompetentlik – kompetensiyalarga ega bo‘lish. Kompetentlik – hayotiy va kasbiy vazifalarga yechim topishga layoqatlilik, mas’uliyatli hayotiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyati, olam va jamiyat bilan faol hamkorlik qilish, hamkorlik davomida o‘zini va olamni anglash hamda o‘zgartirish qobiliyati. Bu xabardorlik, insonda tahlil qilish, xulosa chiqarish va samarali qarorlarni qabul qilish, ularni tadbiq etishdir.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish ijodiy individuallikni rivojlantirish, pedagogik yangiliklarga sezgirlikni shakllantirish, o‘zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyatidir. MTT tarbiyachisi kasbi o‘zining serqirraligi bilan ahamiyatlidir. Ta’lim tarbiya jarayonini samarali tashkil etish tarbiyachidan innovatsion fikrlash uslubi, ijodiy qobiliyat rivoji, keng dunyoqarash, estetik va nutq madaniyatiga yuqori darajada egalikni talab etadi. Buning asosini esa MTT tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasi tashkil etadi. Hech qanday texnik vositalar pedagogning jonli muloqoti, uning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va tashkilotchilik vazifalari o‘rnini egallay olmaydi. Tarbiyachida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni rejalashtirish, ta’lim faoliyatni samarali tashkil etish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bizning viloyat pedagoglarni yangi metodiklarga o‘rgatish milliy markazida ham bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha va boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi, MTT tarbiyachilari malakasini oshirish kursi tinglovchilari bilan MTT tarbiyachilarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida har oyda Mahorat darsi tashkil etilmoqda.

Mahorat darsiga tayyorgarlik jaryonida tinglovchilar mashg‘ulotlarning tarbiyachi tomonidan tayyorgarlik modulini tayyorlashni o‘rganadilar va modul asosida mashg‘ulot ishlanmasi tayyorlash vazifalari amaliy darslarda olib borilmoqda. Bu vazifalar tinglovchilar uchun qiziqarli hamda maktabgacha

ta’limda interfaol usullarni qo‘llab mashg‘ulot tashkil etishni o‘rganishga imkon bermoqda.

Interfaol usullarni qo‘llagan holda tayyorlov guruhida mujassam mashg‘ulotning tarbiyachi tomonidan tayyorgarlik moduli va mashg‘ulot ishlanmasidan namuna keltiramiz:

Tarbiyachining mashg’ulotga tayyorgarlik moduli.

<table>
<tr><td colspan="2">Bilish jarayoni rivojlantirish. Atrof-olam to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish va uni anglash
Mashg‘ulot mavzusi: Tog‘lar haqida suhbat.</td></tr>
<tr><td>Mavzu maqsadi:
Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirib borish, tog‘lar haqidagi tasavvurlarni shaklantirib borish, lug‘at boyligini oshirish, bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatni shaklantirish. Mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish</td><td>Bolalar egallashi lozim bo‘lgan asosiy g‘oya va tushunchalar:
Tog‘lar haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar;
Tog‘larning tabiati, o‘simlik va mevalarni bilib oladilar;
Geolog, alpinist so‘zlari va ularning ma’nolarini anglaydilar;
O‘yinlar orqali xursandchilikni his qiladilar va guruhlarga bo‘linadilar;
Faollik markazlarida hamkorlikda ishlashni o‘rganadi va ijod qiladilar;</td></tr>
<tr><td>Mashg‘ulotning texnologik xaritasi:
Tog‘lar haqida nimalarni bilamiz?
«Aqliy hujum»-5 daqiqa
Tog‘lar haqida suhbat.
Slayd-shou-15 daqiqa.
Enerjayzer «Tog‘ mevalari»-3 daqiqa.
«Kichik guruhlarda ishlash».
(Faollik markazlarida amaliy ishlash)-12 minut.
Taqdimot-5 minut.
Refleksiya-3 daqiqa</td><td>Mashg‘ulot uchun kerakli jihozlar: bolalar soniga yetarli ip, plastilin, rangli qog‘oz, qaychi, kley, gazlama qiyqimlari, slayd materiallari, stepler, «Do‘kon-do‘kon» o‘yini uchun oziq-ovqat mahsulotlar, globus sharchalar.</td></tr>
</table>

Mashg‘ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, men hozir sizlarga topishmoq aytaman:

U baland-baland joylardir,

Archalarga makondir.

Tuyalar o‘rkachiga o‘xshaydi,

Tekislikni o‘z ichiga qo‘shmaydi.

Qani javobini topingchi?

Bolalarning javoblari:

-Archa, -Yo‘q, -Tuya, -Yo‘q, -Tog‘

Tarbiyachi: -Barkalla. Bu tog‘ edi.

«Aqliy hujum»

Tarbiyachi: -Bolalar sizlar tog‘lar haqida nimalarni bilasiz.

Bolalarning javoblari:

Tarbiyachi:-Ha sizlar to‘g‘ri aytingdizlar. Tog‘lar baland bo‘ladi. Nozimaxon oila a’zolari bilan tog‘ sayliga chiqqanligini chiroyli ifodalab berdi, barkalla.

Tarbiyachi:-Hozir bir siz bilan «Sehrli tog‘» mashqini bajaramiz. Buning uchun siz stol ustidagi iplardan tog‘ shaklini yasaymiz. Barakalla, hammangiz tog‘ni to‘g‘ri tasvirladingiz. Endi esa, cho‘qqisi baland tog‘lar yasaymiz. Qani ko‘raylikchi, barkalla, to‘g‘ri bajardingiz.

Bolalar endi yasaydigan tog‘ enliroq bo‘lsin.

Tarbiyachi bolalar ishlarini kuzatadi va rag‘batlantirib boradi.

Tarbiyachi: Bolalar «Sehrli tog‘» mashqi sizga yoqdimi.

Bolalarning javoblari:

Tarbiyachi: Hozir men sizlarga tog‘lar haqida so‘zlab bermoqchiman.

Slayd materiallari orqali suhbat olib boriladi.

Bolalar bilasizmi?, Yer yuzi quruqlik va suvlardan tashkil topgan, buni mana bu globusga qarab o‘rganamiz. Globus-yerning kichraytirilgan ko‘rinishi. Globusda quruqlik sariq rangda, suvlar esa ko‘k rangda ko‘rsatilgan. Bolalar stol ustidagi har bir bola uchun qo‘yilgan globus to‘pchalari bilan tanishadilar.

Tarbiyachi: Bolalar globus sharchalaridagi quruqlikga e’tibor bering. Quruqlikda tekis yerlar va tog‘lar bor. Hozir men sizlarga tog‘lar haqida so‘zlab beraman.

Tog‘lar balandligiga qarab har xil bo‘ladi. Baland tog‘lar, o‘rtacha tog‘lar va past tog‘lar.

Yer yuzidagi eng baland tog‘ Himolay tog‘i hisoblanadi.

(Tog‘lar slayd orqali ko‘rsatiladi.)

O‘zbekistonda Tyanshan va Hisor-Oloy tog‘lari joylashgan.

Nurota tog‘ tizmasi Navoiy viloyatda joylashgan. Bizning Qashqadaryo viloyatimizda Hisor, Qo‘ng‘irtog‘, Zarafshon tog‘lari joylashgan.

Tog‘larning tabiati bahor faslida juda go‘zal boladi. Cnunki, tog‘da birinchi bo‘lib lola guli ochiladi. Dorivor o‘simliklardan zira, kiyik o‘ti, yalpiz, mevali daraxtlardan bodom, pista, do‘lana daraxtlari o‘sadi.

Tog‘larda har xil qazilma boyliklari bo‘lib, bularni izlab turuvchilar geologlar deb ataladi.

Tog‘lardan eng baland cho‘qqilarini zabt etuvchilar apinistlar deb ataladi. Alpinistlar tog‘lardan tog‘larda uzoq vaqt yurganligi uchun o‘zlariga kerakli bo‘lgan oziq-ovqat va kerakli buyumlarni ryukzak (safar xalta)da olib yuradilar.

Bolalar tog‘lar haqidagi ma’lumotlarni bilib oldingiz. Hozir siz bilan qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz, bu o‘yinning nomi «Tog‘ mevalari» deb nomlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ta’lim-tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan uyg‘unligini ta’minlash prinsipiga qat’iy amal qilish kerak. Bola rivojiga individual yondashuv, shaxsiyatini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, his-tuyg‘ularini e’tiborga olish zarur. Shu asosda tarbiyachilarning tarbiyaviy ishlarining mazmuni, shakllari, vositalari va metodlarini o‘zlashtirishlariga erishiladi. Tarbiyachilar bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish metodlarini ham egallashlari lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachilar oldiga qo‘yiladigan vazifalar murakkab va ko‘p qirralidir. Shuning uchun ham tarbiyachilarda ilmiy dunyoqarash asoslari, yuksak ma’naviy xislatlar, jamoa, jamiyatda o‘zini tuta bilish ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish sohasida tizimli tarzda ish olib borish talab etiladi. MTT tarbiyachilari kasbi bo‘yicha egallagan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni amaliyotga qo‘llay olishi qobiliyati, layoqati va kasbiy muammolarni mustaqil hal qila olishlari lozim Shuningdek, ular mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishi, yangi axborotlarni o‘rganishi, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishi, yangi ma’lumotlarni izlab topishi, ularni qayta ishlasho va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishi talab etiladi.

Adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.

3. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018.

4. Takomillashgan “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.

5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

РЕЗЮМЕ

Maqolada integrallashgan mashg‘ulot tashkil etish hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligini oshirish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье показаны методы организации интегрированного обучения и повышения профессиональной компетентности педагога дошкольной образовательной организации

SUMMARY

The article shows methods for organizing integrated learning and improving the professional competence of a teacher in a preschool educational organization

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA ONA TILI FANIGA OID KOMPITENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Choriyeva M.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: Yuldashev S.N.

Tayanch so'zlar: ona tili, nutq, kompetensiya, kompetentlik, savod, savodxonlik, ilm-fan,dunyoqarash, bilim, ko ‘nikma, malaka.

Ключевые слова: родной язык, речь, компетентность, компетентность, грамотность, грамотность, наука, мировоззрение, знание, умение, квалификация.

Key words: mother tongue, speech, competence, competence, literacy, literacy, science, worldview, knowledge, skills, qualifications.

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardayoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlanishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulugbek va boshqa ko'plab allomalar ilm—fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin o'z farzanddarini savodli bo'lnshini orzu qilganlar. Farzandlarini yoshligidanoq maktabga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga sabokq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan.

Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetensiyalarning o‘ziga xos o‘rni muhim sanaladi. Mavzuga doir mashqlar topshirig‘ini mustaqil bajarish, mashq tarkibida gaplardan va matnlar mazmunidan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tinglab tushunish orqali matndan anglashiladigan asl g‘oya mazmunini qayta hikoya qilish va adabiy til me'yorlariga asoslanib so‘zlab berish hamda yozish, o‘z nutqini og‘zaki va yozma shaklda erkin ifodalashi zaruriydir. Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar

bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,-deb e’tirof qilinishi ona tili o‘qitish metodikasi oldiga ta’lim jarayonining sub’ektlarini jahon yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, turli informatsiyalarni tinglab tushunadigan, ma’lum fikrini ma’noli ifodalab, aniq, sermazmun so‘zlab yetkazadigan va diqqat bilan o‘qish qobiliyatlariga ega bo‘lgan hamda yozish jarayonida orfografik qoidalarga amal qiladigan, turli ma’lumot va axborotlarni o‘qib kerakli xulosani chiqaradigan, o‘z pozitsiyasiga ega bo‘lgan kuchli raqobatbardosh bilim egalari qilib tarbiyalashdek dolzarb va muhim vazifani qo‘yadi. Shuningdek, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida: “Ona tili mashg‘ulotlari nutq san’atini egallash va undan samarali foydalanish bilim, ko‘nikma va malakalarni tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat shakllanadi.

Ona tilini o’rganish jarayonida o’quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o’rgatishga asos bo’ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g’oyaviy yo’nalishi va badiiy ifodaliligi o’quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg’ulariga ta’sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o’quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o’stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta’sir ko’rsatadi. Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o’qituvchilar uchun nashr qilingan qo’llanmalar materiali mazmuniga qo’yilgan talablar anchagina ortdi.

Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog’lanishi, matnlarning g’oyaviy-mavzuviy yo’naltirilganligi, kichik yoshdagi o’quvchilarga mosligidir.

Shunday talablarni amalga oshirish, boshlang’ich sinf o’quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o’stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko’zda tutadi. Birinchidan, boshlang’ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o’zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so’zlarning o’zgarishi va gapda so’zlarning bog’lanishi haqidagi, so’zlarning morfemik tarkibi va so’z yasalishi, so’zlarning leksik - semantik guruhi haqidagi, o’zbek tilining to’g’ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o’quvchilar nutqini o’stirishga xizmat qiladi. Ona tili o’qitishning mazmuni va metodlari o’quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko’nikma va malakalar hosil qilishga ko’maklashishi

lozim. Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi, o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Ona tili fanining o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Boshlang'ich ta'limda - o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, 1-4-sinflarda Ona tili fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o'quv soatlari A1 bosqichda 608 soat bo'lsa, A1+ bosqichda esa 680 soatni tashkil etadi. O'rta umumiy ta'lim mazmunida uzviylikni ta'minlash maqsadida 2017-yilda tasdiqlangan o'quv dasturida 3-sinf ona tili fani mazmunida «Asos», «Asosdosh so'zlar» mavzulari «Asos», «Asosdosh so'zlar» mavzulariga o'zgartirildi.

Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishidan kimga?, nimaga?, qachon?, qaerda?, qanday? so'zlashgacha bo'lgan muomala-muloqot sirlarini o'rgatadi; sharqona odob-andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi", - deyiladi. Shunisi ayonki, ona tili darslarida eng asosiy vazifa – bu o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutqiy ko'nikmalarini, mustaqil, ijodiy, mantiqiy fikrlashini o'stirish va turli nutqiy vaziyatlarlarda purma'no, o'rinli so'zlar ishlatib kommunikatsiyadagi ishtirok etishini rivojlantirishdir.

Professor Sh.Yusupovaning ta'kidlashicha, ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bo'yicha "Sharhlash usuli"ni qo'llashdan turli maqsadlar ko'zlanishi nazarda tutiladi. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): mavzu doirasida o'qituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna

oladi, ko'rgan rasmlari va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan o'qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, matnni mazmunan bog'langan gaplardan tuzilishini aytib bera oladi; kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplarni, gaplarni mazmuniga ko'ra farqlaydi, oxiridagi nuqta, so'roq va undov belgilariga qarab o'qiy oladi, ajrata oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi; gapni bosh harf bilan boshlab yoza oladi, rasmlarga qarab gap tuzadi va yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga ulab, ko'chirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, 15-20 so'zli diktant yoza oladi. Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi, so'zlarni talaffuz me'yorlariga rioya qilagan holda bo'g'inlab ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi. O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi; nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib, gap ohangiga rioya qilib ravon va ifodali o'qiy oladi; shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta?, qancha? so'roqlariga, shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi; 3-4 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi; rasmlar asosida qisqa matn tuza oladi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qila oladi. Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi; bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi; mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi; 30-40 so'zli diktant yoza oladi. A1+ Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish): mashq va topshiriqlardagi axborotni tushuna oladi; mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib ravon o'qiydi; 4-5 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi. Lingvistik kompetensiya: nutqda so'zlarning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalana oladi; 35-45 so'zli diktant yoza oladi.

O'quvchilarni o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish, so'zlardan nutqida to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish maqsad qilib olingan. Har bir o'qituvchi 1-4-sinf ona tili fanidan yaratilgan multimedia ilovali metodik qo'llanmalardan ta'lim sifatini oshirishda

o’rinli va maqsadli foydalanishi zarur. Ayniqsa, ona tili darslarida matn ustida ishlashga va ularning xususiyatlari haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shuning uchun mazkur metodikalar mazmuni, unda berilgan didaktik materiallar, savol topshiriqlarga ilmiy va tanqidiy yondashuv asosida amaliyotga tatbiq etish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang’ich sinf o’quvchilarda ona tiliga oid kompetansiyalarni shakllantirish davr talabidir. O’quvchilar ona tili faniga oid savodxonlikni oshirish bilan birgalikda ularda fanga oid bilimlarni rivojlantirish, yurtimiz kelajagi bo’lgan yoshlarni yuksak salohiyatga ega bo’lishiga ko’maklashadi.

Adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent -»O’zbekiston» -2016. 488 B.

2. Qosimova Q. «2-sinflarda ona tili darslari», T. «O’qituvchi», 1998 yil

3. Jumaev M. E., Yuldasheva M. Yu., Mingbaeva B. U., Mamatova G. A., Levkina M. F. Boshlang’ich ta’lim fanlarini o’qitish metodikasi O’UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

4. Ortiqov O. R. o’qituvchi faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompentlikning roli va ahamiyati //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 5. - S. 42-47.

5. Murodova M. M. bo’lajak boshlang’ish sinf o’qituvchilari faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompetentlik //Scientific progress. - 2022. - T. 3. - №. 1. - S. 90-97

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida ona tilaga oid kompetensiyalarni shakllantirish, o’quvchilarning sinflar kesimida o ‘zlashtirishi lozim bo ‘lgan me’yorlar haqida fikr-mulohazalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье приводятся мнения о формировании компетенций, связанных с родным языком, у учащихся младших классов, нормах, которые учащиеся должны усвоить на уроке.

SUMMARY

This article provides feedback on the formation of mother tongue competencies in primary school students and the norms that students should master in the classroom.

BOSHLANG‘ICH SINF O`QUVCHILARINING TAFAKKUR TEZLIGINI OSHIRISH IMKONYATLARI

Berdiyeva L.N.
Qashqadaryo viloyati PYaMO’MM katta o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tanqidiy yondashuv, tafakkur jarayoni, motiv, analogiya, evristik, korreksiyalash.

Ключевые слова: критический подход, мыслительный процесс, мотив, аналогия, эвристика, коррекция.

Key words: critical approach, thought process, motive, analogy, heuristics, correction.

Tanqidiy yondashuv – yetuk aql alomatidir. Notanqidiy yondashuv – har qanday mos tushishni tushuntirish sifatida va birinchi to‘g‘ri kelgan yechimni uzil-kesil deb qabul qiladi.

Teshirish yakunlangandan so‘ng, tafakkur jarayoni keyingi bosqichga – mazkur savol yuzasidan mulohoza qilishga o‘tiladi.

Tafakkur jarayoni – shunday jarayonki, u holatni anglashdan boshlanib, u anglangan va maqsadli bo‘lib, tushunchalar va obrazlar orqali harakatlanadi hamda qandaydir natija bilan yakunlanadi (holat haqida fikr yuritish, yechimni topish, mulohozani shakllanishi va boshqa boshqalar) [10].

Tafakkur jarayonining tarkibiy tuzilmasi va muammoning yechimi:

1. Motiv (muammoni yechishga bo‘lgan hohish).

2. Muammoning tahlili (“nima kerak”, “nimani topish talab etiladi” kabilarni ajrata olish, qanday ma’lumotlar yetishmaydi yoki ortiqcha va boshqalar).

3. Yechimni izlash:

3.1. Birgina ma’lum algoritm asosida yechimni izlash (reproduktiv tafakkur).

3.2. Ko‘pchilik ma’lum algoritmlardan optimal variantni tanlash asosida yechimni izlash.

3.3. Turli algoritmlar alohida qismlarining kombinatsiyalari asosida yechish.

3.4. Prinsipial jihatdan yangi yechimni izlash (ijodiy tafakkur).

3.4.1. Teran mantiqiy mulohozalar asosida (analiz, taqqoslash, sintez, tasniflash, umumlashtirishlar va boshqalar).

3.4.2. Analogiyalardan foydalanish asosida.

3.4.3. Evristik usullardan foydalanish asosida.

3.4.4. Xato va tekshirib ko‘rish kabi empirik metodlardan foydalanish asosida.

Muvaffaqiyatsizlikka uchragan holatda:

3.5. Boshqa faoliyatga diqqatni qaratish: “inkubatsion dam olish davri” – “g‘oyani pishib yetilishi”, fikrni tug‘ilishi, ijod, insayt, qandaydir muammoni yechimini birdaniga anglanishi (intuitiv tafakkur). Fikrni tug‘ilishiga turtki beruvchi faktorlar:

- muammo bilan yuqori darajada qiziqish;
- muammoni yecha olish imkoniyati va muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ishonch;
- ongning yuqori assotsiativlik faoliyati (uyquda, temperatura yuqori bo‘lganda, emotsional ijobiy stimulda).

4. Yechim topilish g‘oyasini mantiqiy asoslash, yechimni to‘g‘riligini mantiqiy isbotlash.

5. Yechimni amalga oshirish.

6. Topilgan yechimni tekshirib ko‘rish.

7. Korreksiyalash (zarurat bo‘lganda 2-bosqichga qaytish).

Ma’lumki, tafakkur faoliyati ong darajasida amalga oshiriladi va muvaffaqiyatli harakatlar natijasida maqsadga erishiladi. Anglanganlik va anglanmaganlik muammosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri (anglanganlik) va yordamchi (anglanmaganlik) mahsuldor harakatlarning munosobatlari muammosida aniqlashtiriladi. Yordamchi mahsuldor harakatlar ham subyekt tomonidan aks ettiriladi. Bu aks ettirish keyingi rostlash va moslash harakatlarida ishtirok etishi mumkin, lekin u verbal shaklda ishtirok etmasdan faqat ong faoliyatida nomoyon bo‘ladi. Yordamchi mahsuldorlik aniq buyumlar va hodisalar xossalari ta’sirida to‘planadi, lekin u maqsad nuqtai nazaridan unchalik muhim bo‘lmaydi.

Tafakkur qo‘yilgan masala yechimiga taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiya va umumlashtirish kabi turli amallar yordamida keladi:

Taqqoslash – predmet va hodisalar yoki alohida belgilar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashdir. Taqqoslash bir tomonlama (to‘liq bo‘lmagan, bitta belgiga ko‘ra) va ko‘ptomonlama (to‘liq, barcha belgilariga ko‘ra), sirtqi va chuqur, bevosita va bilvosita bo‘ladi.

- Analiz – yaxlitni fikran qismlarga yoyish yoki bir butunni fikran tomonlarga, harakatlarga, munosobatlarga ajratishdir. Elementar shaklda analiz predmetni tashkil qiluvchi qismlarga amaliy jihatdan yoyishda ifodalanadi. Analiz amaliy (fiklash jarayoni bevosita gapirish jarayoniga qo‘shilgan paytda) va aqliy (nazariy) bo‘ladi.

- Sintez – fikran qismlar, xossalar, harakatlarni birlashtirib, bir butun yaxlitlikka keltirish. Sintez amali analizga qarama-qarshidir. Sintez jarayonida alohida predmetlar o‘rtasidagi munosobatlar yoki hodisalar murakkab yaxlit predmet yoki hodisaning elementi sifatida aniqlanadi. analiz va sintez har doim birgalikda boradi.

Analiz va sintez tafakkurda o‘zaro bir-biri bilan bog‘lanadi. Sitezsiz analiz butunni qismlar yig‘indisi haqidagi mexanik ma’lumotgagina olib keladi, xuddi shuningdek analiz ham sintezsiz mavjud emas, chunki u analiz tomonidan qismlarga ajratilganni yaxlitligini tiklashi lozim. Ba’zi-bir insonlar tafakkurida og‘ma rivojlanish kuzatiladi – ba’zilarda analizga, boshqalarda esa sintezga nisbatan. Analitik tafakkuri rivojlangan insonlarni ham hayotda uchratish mumkin, ularning asosiy kuchi – sintezning kengligi va rivolanganligidadir.

- Abstraksiya – o‘rganilayotgan obyektdan subyekt qandaydir xossa yoki belgiga ko‘ra boshqalardan chetga chiqarilgan, ajratilganligidan iborat. Bu jarayonda obyektdan ajratilgan belgi ustida, predmetning boshqa belgilariga bog‘lanmagan holda fikr yuritiladi ya’ni tafakkurning mustaqil o‘rganiladigan predmeti bo‘lib qoladi.

- Umumlashtirish yoki generalizatsiya – hodisa va predmetlarni ularning muhim belgilariga qarab fikran birlashtirish ya’ni umumiy belgilarini saqlagan holda alohida belgilarni tashlab yuborish. Oddiy umumlashtirishlar – tasodifiy va alohida belgilari asosida obyektlarni birlashtirish. Murakkab majmuaviy umumlashtirishlar – obyektlarning turli asoslarga ko‘ra birlashtirishdir. O‘ta murakkab umumlashtirishlar – tur va sinf belgilariga qarab ajratiladi va obyekt tushunchalar tizimiga kiritiladi

Abstraksiya va umumlashtirish – yagona tafakkur jarayonining ikkita o‘zaro bog‘langan tomonlaridir, ular yordamida fikr bilimga qarab boradi. Bilim esa tushunchalar, mulohozalar va xulosalar natijasida amalga oshadi.

Mulohoza tafakkur jarayoni natijasining asosiy shaklidir. Mulohoza irodadan ham darak beradi chunki unda obyekt o‘z tasdig‘ini topadi yoki rad etiladi. Fikr – tafakkurning mulohoza ustida ish yuritishidir.

Agar dalillardan kelib chiqib, mulohozalar tizimi ochib berilsa u holda fikr xulosa bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiya va umumlashtirishlar tafakkur amallariga tegishlidir. Tafakkur tushunchalarda va tasavvurlarda amalga oshiriladi hamda tafakkurning borishini asosiy shakli – fikr bo‘lib, u mulohoza ustida ish olib boradi. Deduktiv fikr yuritish – asoslash deb ataladi, induktiv fikr yuritish esa – yakuniy xulosadir.

Tafakkur turli darajalarda borishi mumkin: ko‘rgazmali tafakkur, abstrakt tafakkur va nazariy. Qayd etib o‘tganimizdek, inson tasaavvur qilmasdan faqat tushunchalar orqali ko‘rgazmalilikdan ajralgan holda tafakkur qila olmaydi, lekin shu bilan birga tushunchalarsiz faqat sezgi obrazlari orqali ham tafakkur qila olmaydi. Shu sababdan tafakkurning bu ikki darajasi o‘zaro bog‘liqdir.

Lekin shunday holatlar ham borki unda abstrakt tasavvur talab qilinmaydi. Xususan, elementar amaliy masalalar. Ba’zi-bir insonlar yuqori darajadagi tafakkurga ega bo‘lgan holda, murakkab nazariy masalalarni juda oson yecha oladilar, lekin amliy murakkab holatlardan chiqish lozim bo‘lganida ular hech narsa qila olmaydilar. Yoki teskarisi: amaliy jihatdan juda murakkab vaziyatlarda yo‘l topa oladigan insonlar elementar nazariy muammoni yecha olmasliklari mumkin. buni tushuntirish uchun u holda bu holda ham tafakkur amallarining bajarilish ketma-ketligi o‘rtasida farq mavjudligini qayd etish lozim. Bevosita harakat qilish holatida, dastlab yechimning boshlang‘ich bosqichini aniqlashtirish hamda birinchi navbatda qilinadigan harakatlarni belgilash va ularni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga harakatlar boshlanishidan oldin nazarda tutilmagan holatlar ham mavjud bo‘lishi, ya’ni holatda birdaniga o‘zgarish ro‘y berishi mumkin va jarayon davomida ham o‘zgarishlar paydo bo‘lishi mumkin. Shunday sababli, tafakkur jarayonining dastlabki bosqichlari harakatlarida holatning barcha o‘zgarishlarini e’tiborga olish mumkin emas.

1. Boshlang‘ich ta’lim davomida o‘quvchida nazariy tafakkur rivojlanadi, u yangi bilimlarga, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi – o‘zining keyingi ta’limi uchun zaruriy baza yaratadi. Lekin o‘quv faoliyati bu bilan nihoyasiga yetmaydi: kichik maktab yoshidagi o‘quvchining bevosita rivojlanishi uning tavsifi va natijaviyligiga bog‘liq. Bolaning muvaffaqiyatli ta’limi, unga nisbatan kattalarning va tengdoshlarining munosobatiga bog‘liq. Unda ana shular asosida o‘z-o‘zini aniq baholash shakllanadi.

2. O‘yin shaxs shakllanishida yangi sifatlarni, undagi muhim jihatlarni aniqlaydi; aynan o‘yinda bolalar o‘zini tuta olish normalarini o‘zlashtiradi, u o‘qishga o‘rgatadi, tarbiyalaydi. O‘quv jarayonida o‘yindan foydalanishning quyidagi maqsadlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: aniq ko‘nikmalar shakllanadi; aniq nutq ko‘nikmalari shakllanadi; muomola qilishga o‘rganadi; zaruriy qobiliyatlar va ruhiy funksiyalar rivojlanadi va boshqalar. O‘yin

faoliyati diqqatni, xotirani, tafakkurni, tasavvurni, barcha bilish jarayonlarni rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Shu bilan birga ta’kidlashimiz joizki, ta’limning vositasi sifatida o‘yinning samaradorligi quyidagi qator talablarga amal qilinishiga bog‘liq: o‘quvchilar harakat va tasavvur qiladigan holatni, rejani mavjudligiga; bolalar tomonidan o‘yin natijasini, o‘yin qoidasini albatta anglanilishi. O‘yin – jamoaviy birgalikda amalga oshiriladigan jarayon. Bu barcha ta’limdagi vazifalarni oshirishdagi asosiy usul, shu sababdan: bola ilgari bilmagan va o‘yin davomida o‘zlashtiradigan bilimi uchun qanday ko‘nikma va malaka talab qilinishini aniq bilishi hamda o‘yin o‘quvchini tafakkur qilishga majbur etishi lozim.

Shunday qilib, o‘yin ta’lim berish vositasi bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiradi, o‘quv jarayonini qiziqarli va hayojonli qiladi, tilni shakllanishiga kuchli turtki beradi.

Adabiyotlar:

1. Aslanova O.P. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped.fanlari bo‘yicha falasafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan. 2020.-47 b.

2. Abduraimov Sh.S. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini ta’minlashda tarmoqlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish. Dissertasiya pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).-Toshkent, 2017.-40 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang’ich sinf o`quvchilarining tafakkur tezligini oshirish imkoniyatlari, boshlang’ich sinf o`quvchilarining tafakkur tezligini oshirishda o`yinning orni haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются возможности повышения скорости мышления младших школьников, роль игры в повышении скорости мышления младших школьников.

SUMMARY

The article discusses the possibilities of increasing the speed of thinking of junior schoolchildren, the role of the game in increasing the speed of thinking of junior schoolchildren.

BOLALAR MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA AKTDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Oripova N.X.
QarshiDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, prof.
Umurqulova M.P.
Shahrisabz Davlat Pedagogika instetuti magistranti

Tayanch so'zlar: mantiqiy fikrlash, AKT, multimediya vositalari, maktabgacha ta'lim, ta'limiy o'yin faoliyati, kompyuter texnologiyasi.

Ключевые слова: логическое мышление, ИКТ, средства мультимедиа, дошкольное образование, образовательная игровая деятельность, компьютерные технологии.

Key words: logical thinking, ICT, multimedia, preschool education, educational gaming activities, computer technology.

XX asrning 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish sohasi va uni kishilar tomonidan iste'moli keskin rivojlanib ketdi. XXI asrni esa tom ma'noda axborotlashtirish va kommunikatsiya asri, deyish an'anaga aylandi. Axborot va axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, xususiyatlari qanday, degan savollar jamiyatdagi katta-yu, kichikni qiziqtirishi tabiiy. Chunki, inson turmush tarzini, faoliyatini axborotsiz tasavvur qilish qiyin masalaga aylandi. Yurtimizda ham kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va ma'lumot uzatish tarmoqlari, internet xizmatlarini rivojlantirish va zamonaviylashtirish, ularni dunyo standartlariga ko'tarish va shu asosda axborotlashgan jamiyat sari jadal intilish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Ayni kunlarda dunyodagi eng takomillashgan axborot texnologiyalari yurtimizga olib kelinmoqda. Ulardan foydlanish yildan yilga kuchayib borayotgani hech birimizga sir emas. Axborot texnologiyalarining fan va ta'lim sohasidagi asoslari bo'lgan ko'plab zamonaviy texnika vositalari: kodoskop, audio va video magnitofonlar, televizor, kompyuter, skaner, mikrofon, kolonka, videoko'z, videoproektor va nusxa olish apparatlaridan ta'lim berish jarayonida

maksimal foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning yana bir muhim vositasi bu multimediyalar hisoblanadi. Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini, jumladan, multimedia texnologiyasini tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Shu bilan birga, yuksak texlogiyalar zamonida bolalarning kreativ tafakkurini multimedialarsiz rivojlantirish aslo mumkin emas. Ularga elektron qo‘llanmalar, kompakt disklar, video-audio kassetalar, turli xil taqdimotlar va hokazolar kirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda multimedia texnologiyasidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, mazkur texnologiyalarni joriy etish jarayonida bolalar yoshini hisobga olish va mantiqiy fikrlashni o‘stirishga oid didaktik materiallarni tanlash maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ muhitni yaratishning muhim omili bo‘lib hisoblandi. Shuningdek, bunday jarayonni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad, mashg‘ulotlar jarayoni uchun multimediali ta’limiy va didaktik o‘yinlar yaratishdir.

Multimedia vositalarini maktabgacha ta’lim tizimiga joriy etishda Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7 iyundagi 110-sonli qaroriga asosan Xalq ta’limi vazirligi huzurida “Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi” tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha ushbu markazda ko‘plab multimediali disklar ishlab chiqildi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar bilim berish maqsadida multimediali ta’lim disklari (B.Boltayev, A.Valixonov, M.Mahamov va B.Hayitovlar) shular jumlasidandir. Biroq, ushbu muammo hamon respublikamiz ta’lim tizimida yetarlicha hal etilmagan.

Bizga sir emaski, bugungi davr bolalari ko‘proq axborot vositalariga qiziqadilar. Ularning ushbu qiziqishlaridan maqsadli foydalanish, ya’ni mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda multimedia ta’lim vositalarini tadbiq etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta’limiy-o‘yin faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi.

Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga taqdim etiladigan multimedia vositalari quyidagi talablarga javob berishi lozim, deb hisobladik:

1. Mutimedia ilovalari bolalarning yoshiga mos bo‘lishi.

2. Mutimedia ilovasining davomiyligini hisobga olish.

3.Mutimedia ilovasining ta’limiy-tarbiyaviy darajasining yuqoriligiga e’tibor qaratish.

4. Ilovalarning real hayotga mosligini ta’minlash.

Mana shu talablardan kelib chiqqan holda bolalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda mashg‘ulotlar jarayoni uchun mo‘ljallangan turli multimediali taqdimot materiallarini tayyorlash mumkin. Masalan bolalarni “Tabiat bilan tanishtirish” mashg‘ulotlarida multimedali didaktik vosita yordamida tarbiyalanuvchilarning kreativ tafakkurini o‘stirish mumkin. Bunda tayyorlangan multimediya ilovasi orqali bolalarga tabiatda mavjud bo‘lgan go‘zalliklar va ularning harakatlanishi ko‘rsatiladi. Masalan, gullar, daraxtlar, qo‘shlar, baliqlar, turli rangdagi toshlar, musaffo osmon, ko‘m-ko‘k maysazorlar, sharsharalar, okean va dengizlar, kuzdagi yaproqlar, oppoq qor, hayvonlar kabilar bo‘lishi mumkin. Bu kabi multimediali taqdimot yordamida bolalar tafakkurida tabiatdagi go‘zalliklarni his etish, undagi turli-tumanlikni idrok qilish, tabiatdan zavq olish kabi ijobiy sifatlar shakllanadi. Shu bilan birga, bu jarayonda bolalarning nutqi o‘sadi, o‘zlariga notanish bo‘lgan hayvon yoki gullar nomlarini bilib oladilar. Albatta, bu jarayonda tarbiyachining mahorati muhim rol o‘ynaydi. Uning mavzu doirasida bolalarga savollar bilan murojaat qilishi bolalarning tafakkuri boyishiga hissa qo‘shadi.

Shuningdek, bolalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda kompyuterdan samarali foydalanish mumkin. Buning uchun dastlab kompyuterga bolalarning yoshi va o‘tiladigan mashg‘ulot turiga qarab ta’limiy o‘yinlar joylashtiriladi. Kompyuter orqali o‘ynaladigan bunday o‘yinlar asosan bolalarga ta’lim berish, o‘rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratiladi. Shuningdek, ular o‘rganiladigan material uchun yuqori darajadagi ko‘rgazmalilikni ta’minlab beradi va bolalarda mashg‘ulotlarga nisbatan qiziqishning ortib borishiga sabab bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan kompyuterli ta’limiy o‘yinlarga quyidagilar kiradi: “Uy yasash”, “Sonini top”, “O‘rta bo‘ylisini aniqla”, “So‘z yasash”, “Alifboni o‘rganamiz”, “Katakni to‘ldir”, “Ekologik o‘yin” va boshqalar.

Masalan, kompyuterli o‘yin “Uy yasash” o‘yinining ta’limiy jihatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu o‘yin yordamida tarbiyalanuvchilarning matematik tasavvurlari shakllanadi va geometrik figuralar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Ya’ni ular uchburchak, to‘rtburchak va kvadrat shakllarini o‘rganadilar. Dastlab mashg‘ulotni samarali tashkil etish uchun uning texnologik xaritasi tuziladi va Power Point dasturi asosida animatsiyali, rangli va ovozli taqdimot tayyorlanadi, so‘ngra u kompyuter xotirasiga kiritiladi. Taqdimot uch qismdan iborat bo‘ladi:

1.Uchburchak;

2. To‘rtburchak;

3. Kvadrat.

Shunday qilib tarbiyachi mavzu asosidagi taqdimot materialini monitor ekraniga namoyish etadi va unga bolalarning e'tiborini jalb qiladi. Tarbiyachi bolalardan birini kompyuter oldiga o'tkazadi. Boshqa guruh bolalariga mashg'ulotni kuzatib borishni buyuradi va monitor ekraniga e'tibor berishlarini ta'kidlaydi. Ekrandagi birinchi slaydda uchburchak shaklidagi archa, bayroqcha va deraza va eshik tasvirlangan. Bu rasmlar bolalarga ko'rsatiladi. Aytilgan material (buyum) larni kompyuter yonida o'tirgan bola qayta takrorlaydi: uchburchak shaklidagi archa va bayroqcha, deraza, eshik.

Tarbiyachi: bolalar, e'tibor bering, uchburchakning uchta tomoni va uchta burchagi bo'ladi. "Sichqoncha"dan foydalanib, uning kursorini bitta - bittalab har bir tomoniga, har bir burchagiga olib borib ko'rsatadi. So'ngra kompyuter yonida o'tirgan Azamatga aytilganlarni qaytarishni buyuradi: uchburchakning uchta tomoni va uchta burchagi bo'ladi. Tarbiyachining nazorati ostida "sichqoncha" ning kursorini uchburchakning tomonlari va burchaklariga olib borib ko'rsatadi. Tarbiyachi: Azamat, xat solishga mo'ljallangan konvert sirtida qanday shakllar bor va ularning soni nechta? Azamat konvert sirtiga e'tibor berib, to'rtta uchburchak shaklidan iborat ekanligini aytadi.

Tarbiyachi Azamatning bilimini baholaydi va yana bir nechta tarbiyalanuvchilar bilan shu tartibda shug'ullanadi. Guruh bolalari Azamatning ishini kuzatib turgani uchun, ular ham uchburchak to'g'risida ma'lumot oladilar. Tarbiyachi yana ikki-uch tarbiyalanuvchiga Azamatning bajargan ishini qayta bajarishni topshiradi. Uchburchakdan keyingi slayd "to'rtburchak" deb nomlangan. Ushbu slaydda kitob, doska va eshiklarning tasvirlari joylashtirilgan, kvadrat slaydida esa kvadrat shakldagi g'ishtcha, kvadrat shakldagi deraza va kvadrat shaklidagi doska tasvirlari berilgan.

Tarbiyachi ushbu slaydlardan foydalanib, yuqorida keltirilgan tartibda mashg'ulotni davom ettiradi. Uchburchak, to'rtburchak, kvadrat to'g'risida ma'lumot berib bo'lingach, tarbiyalanuvchilarga uy mavzusidagi multimediali taqdimot namoyish etiladi va ularning e'tibori undagi elementlarga qaratiladi. Shundan keyin, tarbiyachi bolalar bilan dam olish daqiqasini o'tkazishi mumkin. Masalan, tarbiyachi: "Uchburchakni hosil qil" o'tkaziladi. Bunda tarbiyachi to'rtburchak shaklidagi qog'ozni qanday qilib buklash va ikkita uchburchak yasash mumkin?", degan savolni qo'yadi va bolalarga o'ylab ko'rib, javobni kim birinchi bo'lib topsa, shu tarbiyachi taqdirlanishi aytadi.

Navbatdagi kompter o'yini "Mosini top" o'yinidir. Maktabga tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilar bilan meva va sabzavotlarning bosh harflarini rasmlar ustiga joylashtirish o'yinini o'tkazish mumkin. Tarbiyachi ushbu kompyuterli ta'limiy o'yinni o'tkazish uchun dastlab o'yin tartibini

tarbiyalanuvchilarga tushuntiradi. Ushbu o‘yinning maqsadi: bolalarda bosh harflarni farqlash va kompyuterdan foydalanish malakasini hosil qilish. O‘yin quyidagicha tashkil etiladi. Ya’ni: rasmda keltirilgan meva va poliz mahsulotlari tasvirining bosh harflarini topish va rasmlar ustiga bosh harflarni joylashtirish topshiriladi.

Ushbu o‘yin natijasida bolalarning mantiqiy va kreativ tafakkuri rivojlanadi hamda ularning matematik tasavvurlari shakllanadi.

Adabityolar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son. www.lex.uz.

3. Болалар энциклопедияси. –Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – 664 б.

4. Брушинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение. Избранные психологические труды. 2-е изд., испр. – Воронеж: 2003. – 408 с.

5. Веккер Л. М. Психические процессы. – СПб.: Изд-во Ленин- градского университета, 1981. – 325 с.

6. Загашев И.О., Заир-Бек С.И., Муштавинская И.В. Учим детей мыслить критически. – СПб.: Альянс-Дельта//с изд-вом Речь, 2003. – 192 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bolalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda AKTdan foydalanish pedagogik muammo ekanligi va multimediya vositalaridan maktabgacha ta’lim jarayonida foydalanish samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada ta’limiy o‘yin faoliyatlarida kompyuter texnologiyasidan foydalanish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещается тот факт, что использование ИКТ в развитии логического мышления детей является педагогической проблемой и повышается эффективность использования средств мультимедиа в процессе дошкольного образования. Также в статье упоминаются способы использования компьютерных технологий в учебной игровой деятельности.

SUMMARY

This article highlights the fact that the use of ICT in the development of logical thinking in children is a pedagogical problem and increases the effectiveness of the use of multimedia in the process of preschool education. The article also mentions ways to use computer technology in educational gaming activities.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR XULQIDAGI SALBIY O‘ZGARISHLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OMILLARI

Choriyeva F.
Ilmiy rahbar
Xusanova D.
Magistr

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bola, xulq-atvor,salbiy o‘zgarish, subektiv omil, muammo, temperament.

Ключевые слова: дошкольное образование, ребенок, поведение, негативные изменения, субъективный фактор, проблема, темперамент.

Key words: preschool education, child, behavior, negative changes, subjective factor, problem, temperament.

Har qanday jamiyatning yutug‘i jismonan va ma’nan yetuk avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Biroq turli sabab va omillarga ko‘ra ayrim hollarda yoshlar tarbiyasida buzilish va bo‘shliqlar borligi kuzatiladi. Tashvishlanarlisi shundaki, bunday illatli holatlarning kamayishi deyarli sezilmayapti. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarning xulq-atvori ilk bolalik davridan boshlab shakllana boshlaydi. Bolalar xulq-atvorining shakllanish jarayoni birmuncha murakkab jarayon bo‘lib, u kattalardan o‘ta mas’uliyatli va e’tiborli bo‘lishni talab etadi. Chunki mana shu jarayonda kattalarning xatosi tufayli bola kelajagiga putur yetishi va bola jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga qiynalishi mumkin. Biz mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqish sabablari va omillarini o‘rganishga harakat qildik.

Davlatimiz rahbarining fikricha, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishlari, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatlarini yuzaga

chiqarishlari, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz. Imom Buxoriy bobomiz to‘plagan muborak hadislardan birida: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”–deb aytiladi.

Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo‘shganlari tarixdan yaxshi ma’lum. Ana shunday qutlug‘ an’analarni davom ettirib, yurtimizda yangi xorazmiylar, farg‘oniylar, beruniylar, ibn sinolar, mirzo ulug‘beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir”[10]. Mana shu burchni bajarish uchun esa yoshlarni bolalikdanoq to‘g‘ri tarbiyalash, ruhiy barqaror qilib ulg‘aytirish masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsi uni o‘rab turgan voqelik ta’sirida shakllanadi. Natijada u ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan vazifalarni anglay boshlaydi va jamiyatning boshqa a’zolari bilan mustaqil munosabatga kirishadi va shu tariqa bola shaxsning ijtimoiylashuvi yuz beradi. Shu bilan birga, bola shaxsi ijtimoiy tajriba elementlarini o‘zlashtirish natijasida shakllanib boradi. Ya’ni bu jarayon bolalar tomonidan kattalarning xatti-harakatlarini takrorlash va taqlid qilish, o‘zlashtirish bilan kechadi. Obyektiv omil sifatida B.Umarov ushbu fikrni ilgari suradi: “Obyektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlar...”ni e’tirof etadi [94; 6] Ijtimoiy hayotda nosog‘lom muhit bor ekan, demak, maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar ham, avvalo, uni o‘rab turgan nosog‘lom muhit ta’sirida sodir bo‘ladi. Ma’lumki, oila go‘dak uchun ilk ijtimoiylashuv markazidir.

Aynan shu markazda bola ijtimoiy muhit bilan munosabatga kirisha boshlaydi, jamiyatdagi ijtimoiy meyorlar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Go‘dak oilada voyaga yetar ekan, u kattalarning o‘zaro munosabatlarini kuzatadi va ulardan andoza oladi. Shular asosida bolaning xulq-atvori shakllanib boradi. Ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning u yoki bu ko‘rinishi, ya’ni oiladagi xotirjamlik yoki kelishmovchilik, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyati bolaning xulq-atvorini belgilab beruvchi omillar sirasiga kiradi.

Ayniqsa, bunda oiladagi nizolar, ota-onalardan birining nomaqbul xulq-atvori va ularning farzand tarbiyasiga nisbatan befarqligi, qattiqqo‘lligi natijasida sodir bo‘ladi. Bu borada mashhur psixolog olim Getting tadqiqotlariga nazar tashlash kifoya. Uning fikricha, oilalardagi muammo va nizolar bolalardagi

agressivlikni keltirib chiqarishi, ayniqsa, ularning qahrli, jahldor, qo‘pol bo‘lib voyaga yetishiga sabab bo‘ladi. Gettingning xulosalariga ko‘ra, mojaroli oilalarda asosiy e’tibor o‘zaro ziddiyatlarga qaratiladi, bola tarbiyasi esa tahdid va jazolashdan iborat bo‘lib qolaveradi [44;175]

Kelajak avlod haqida qayg‘urish, jismoniy va ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdan biridir. Xuddi shunday bugungi kunning har bir oilasi va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifa ham shu hisoblanadi. Ota-ona farzand ko‘rish va uni tarbiyalash orzusi bilan yashar ekan, uning kelajakda yetuk inson, komil shaxs bo‘lishini istaydi. Bu masala har bir pedagog, ta’lim muassasasining ham jamiyat oldidagi burchi bo‘lib, ota-ona kabi ustozlar ham shogirdlarini yetuklik sari da’vat etadi.

Demak, oqil farzand nafaqat ota-ona, balki ustoz, qolaversa jamiyatning, yurtning baxtu iqbolidir. Shunday ekan, “ta’lim-tarbiya kabi muhim va strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mutlaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg‘or tizimni yaratmasak, oldimizda ko‘ndalang bo‘lib turgan bironta muammoni yecholmaymiz” [9;148]. Bu ishlarni “jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan munosabatini butunlay o‘zgartirmasdan turib”amalga oshirib bo‘lmaydi [9; 149].

Psixolog olim B.Umarov “Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar” nomli uslubiy qo‘llanmasida bolalar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarning sababini subyektiv va obyektiv omillarga ajratadi va subyektiv sabablarga quyidagilarni kiritadi: “Xulq og‘ishining subyektiv sabablariga o‘smir shaxsining qiziqish va ehtiyojlari, dunyoqarash va ma’naviy olami, maqsad va yo‘nalishlari, qadriyatlari, huquqiy ongi, hayotiy rejalari, turmush tarzi va motivlari kiradi.

Subyektiv shart-sharoitlarga esa aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, etnopsixologik jihatlari, xarakteri, temperamenti, yoshi va jinsi mansub. Obyektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlar namoyon bo‘ladi” [94; 6-7].

Xuddi shunday biz ham maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarning subyektiv omillariga bola shaxsining shakllanish jarayonidagi muammolar, ularning temperamentidagi xususiyatlarni kiritdik.

Umuman olganda, bolalar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar biror-bir shaxsga xos subyektiv xulq-atvor natijasi emas, balki subyektiv va obyektiv omillar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlar sababi bir necha omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Bizningcha, ular quyidagilar hisoblanadi:

Oilaviy muhitning nosog‘lomligi.

2. Ota-onalarda bolalar psixologiyasi va fiziologiyasi, pedagogikasiga doir bilimlarning yetishmasligi.

3. Bola kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi.

4. Oilada farzand ko‘rishning rejalashtirilmaganligi.

5. Bolada har qanday jamoaga nisbatan adaptiv jarayonning qiyin kechishi.

6. Ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siri.

7. Bola tarbiyasiga noto‘g‘ri yondashish.

Umuman olganda, yuqoridagi sabab va omillar tufayli bolalar xulq-atvorida juda ko‘p muammolar uchramoqda. Bu, o‘z navbatida, jamiyat a’zolari, xususan, pedagog va psixolog, ota-onalar zimmasiga qator vazifalarni yuklamoqda.

Ayniqsa, bu borada oila bilan olib boriladigan profilaktik ishlar samaradorligini yanada oshirish, ota-onalarga bolalar psixikasi, fiziologiyasi va pedagogikasiga doir bilimlar berishni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Rasulova F.F. “O‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari”.: ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 22 b.

2. Sattorov M. “O‘zbek udumlari: millatning kenja bo‘g‘iniga”. – Toshkent: “Fan”, 1993. – 48 b.

3. Sattor Mahmud. “O‘zbek udumlari”. – Toshkent: “Fan”, 1993. – 222 b.

4. Safarov O., Mahmudov M. “Oila ma’naviyati”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 160 b.

5. Semenyuk L.M. “Psixologicheskiye osobennosti agressivnogo povedeniya podrostkov i usloviya yego korreksii”. – Moskva-Voronej, 1996. – S. 6-18.

6. Sidiqmetov Q. “Islom odoblari ensiklopediyasi”. Ikkinchi kitob. –Toshkent.: “Hilol-Nashr”, 2019. – B. 342.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarning subyektiv omillariga bola shaxsining shakllanish jarayonidagi muammolar, ularning temperamentidagi xususiyatlar.

РЕЗЮМЕ

К субъективным факторам негативных изменений в поведении детей дошкольного возраста относятся проблемы в процессе формирования личности ребенка, особенности его темперамента.

SUMMARY

Subjective factors include negative changes in the behavior of young children related to problems in the formation of the child’s personality and the characteristics of his temperament.

BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Usarova M.N.
Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktaranti

Tayanch so‘zlar: pedagogik texnologiya, o‘qitish jarayoni, texnika, mahorat, samarali usullar, usul, maqsad, vazifa.

Ключевые слова: педагогическая технология, процесс обучения, прием, умение, эффективные методы, метод, цель, задача.

Key words: pedagogical technology, teaching process, technique, skill, effective methods, method, goal, task.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda o‘quvchi shaxsi asosiy o‘rinda turishi, ya’ni o‘quvchi ta’lim markazida bo‘lishi kerak. Bizda esa hali-hanuz bosh rolda o‘qituvchi bo‘lishi holatlari kuzatilmoqda. U axborot berish, darsni tezroq o‘tish, o‘quvchilarni tezroq o‘qitish bilan ovora, ammo o‘quvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi, yangiliklarni qabul qilishi, tushunishi turlicha. Bularni hisobga olish, qanday bo‘lsa-da har bir o‘quvchini darsda faol ishtirok etishga jalb etish lozim. Dars jarayonida o‘quvchi harakatlanuvchi asosiy kuchga ega bo‘lishi, ya’ni u o‘qish, o‘rganish, o‘zlashtirish va mutolaa qilishda faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi esa o‘quvchilarga o‘qitishdan o‘rganishga, bilim berishdan bilimlarni mustaqil egallashga ko‘maklashishi zarur. Shu bilan birga, ularni faol ishtirokchi bo‘lish uchun muhit yaratish va mas’uliyatni sezishga yo‘llashi kerak.

Ma’lumki, har bir dars uchun ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ya’ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan uch yoqlama maqsad qo‘yiladi. Darsni tashkil etish shakli dars ishtirokchilarining o‘zaro aloqalariga bog‘liq bo‘lib, yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish o‘quv materiali xususiyatlari, ta’lim metodlari, o‘quv imkoniyatlari, o‘qituvchi mahorati va texnikasiga bog‘liq. Bularning barchasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchi boshqaruvchi sifatida o‘quvchilar bilan birgalikda harakat qiladi. Xuddi mana shu jarayon faol amalga oshirilsagina, o‘quv jarayonining samaradorligi ta’minlanadi.

O‘quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimlarni puxta va chuqur o‘zlashtirish, zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, kuzatuvchanlik, tafakkur va bog‘lanishli nutq, xotira va ijodiy tasavvurlarni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik tamoyil – ta’limdagi faollikdir. Bunday tizimda o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham ta’lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda amalga oshiradi. Ular ham ijodkorlikda har bir o‘quvchining bilim va qobiliyati, individual intilish va ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o‘qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilim yetkazuvchi manbaga aylanadi. Darsda o‘quvchilar faoliyatiga nafaqat o‘qituvchi, balki o‘quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avval a’lochi o‘quvchilar, so‘ngra boshqa o‘quvchilar ham o‘qituvchi topshirig‘iga binoan nima ish qilganlarini ko‘rsatib namoyish qilishadi va natijada bu holatdan qolgan o‘quvchilar o‘zlariga xulosa chiqarib, ergashadilar. Bunday «izohli boshqaruv» o‘quvchi maktab ostonasiga qadam qo‘ygan kundan boshlanishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.Ta’lim tizimida dars samaradorligini oshirish uchun biz bugun, avvalo, o‘quvchiga boshlang‘ich sinfning dastlabki pallasidan boshlab «sen buni bilishing shart», degan majburlovchi da’vatdan olim A.Mallaboev aytganidek, har bir bolaga individual yondashgan holda «menga bu zarur, men buni bilishga, uddalashga, uni hayotga tatbiq etishga qodirman», degan bir ichki tuyg‘u, xohish- istakni uyg‘otishga harakat qilishimiz lozim. Ushbu holatdan ko‘rinib turibdiki, har bir o‘qituvchi o‘qitishning mavzu mazmuniga mos ilg‘or, samarali usullarini izlab topishi, ma’lum bo‘lgan samarali usullarni unumli, ijodiy ravishda mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llashi zarur.

Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan avval tashkil qilinadigan ta’lim turlarini aniq ravishda aniqlab, to‘g‘ri tashkil qilishda ixtiyoriy ravishda shakllanayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslar shakli, qo‘llanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bog‘liq. Masalan, o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quv materiallariga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirish hamda mahsuldor faoliyat turlarini tashkil etish bilan bir qatorda ularni rivojlantirish uchun darsning noan’anaviy shakllari (uyg‘unlashtirilgan darslar) bilan birgalikda konferensiya darsi, ishchan o‘yin darslari, integrallashtirilgan (ikki komponentli) darslardan foydalanish lozim. Mazkur vaziyatda ham ta’lim metodlari ta’lim maqsadi bilan mutanosib bo‘lishi kerak.

Yetarli darajadagi rag‘bat bilan ham o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishda ko‘zlangan natijalarga erishish kafolatlanmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtai- nazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo‘llarini to‘g‘ri tanlash orqali ta’minlanadi.

Pedagogik texnologiyalarni boshqarish o‘zida ikki yo‘nalishni mujassamlashtiradi:

1. Faoliyatni boshqarish.
2. O‘quvchilar jamoasini boshqarish.

Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan an’anaviy kategoriyalardir. Aynan shu kategoriyalar ma’lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalar maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Pedagogik jarayonning mohiyati o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o‘quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Bu o‘rinda ta’lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), ta’lim mazmunini tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta’lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta’lim metodi va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o‘quvchilarning ko‘nikma va malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo‘l bilan?) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo‘llanishi o‘quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda pedagogik vazifaning qo‘yilishi va uni hal etishga alohida e’tibor berilishi zarur. Qachonki maqsad va vazifalar aniq belgilab olinsa, ularni amalga oshirish yo‘llari to‘g‘ri tanlansa, Davlat ta’lim standarti talablarini o‘zlashtirish kafolatlanadi.

Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

– ta’lim maqsadlari asosida o‘quv predmeti mazmunini aniqlash;
– o‘quv predmetining axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o‘quv mashg‘ulotlari tizimi ko‘rinishida ifodalash;
– o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish darajalarini avvaldan belgilash;
– o‘quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash;
– moddiy baza hamda ta’limning tashkiliy shakllariga qo‘yiladigan chegaralarni belgilash.

Natijalar. Boshlang‘ich ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar asosiy yo‘llardan hisoblanadi, chunki:

– o‘quvchining talabi, moyilligi, istak-xohishi, uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
– o‘quvchining mehnat mas’uliyati, javobgarligi, burchi oshadi;
– bilimlarni mustaqil egallash, erkin fikrlash, ijodiy yondashuv malakalari shakllanadi;
– har bir yangilikni o‘zi tatbiq etish, o‘zi kashf etishga intiladi;
– pedagogik texnologiyalarda muayyan muammoni ishlab chiqish ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanadi;

– umumta'lim ta'lim dasturi qatnashchisi potensial imkoniyatlarini o'zaro hamkorlik asosida, barchaning sa'y-harakatlarini integratsiyalash orqali rivojlantirishga tayaniladi;
– boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyalardan barcha fanlar kesimida ta'lim berish jarayonida foydalanish eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quv jarayonini yuqorida ta'kidlangan pedagogik xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi, kutilgan pirovard natijaning qo'lga kiritilishini kafolatlaydi. Bunda pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, u orqali ta'lim jarayonida rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud bo'lganligi sababli o'quvchilarda dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit shakllantirish bilan bog'liq jarayondir. Umumta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan amaliy foydalanishning samarali bo'lishi uchun uning metodologiyasini ishlab chiqish va aniq texnologiyalarini yaratish zarur. Umuman, pedagogik texnologiyadan dars jarayonida oqilona foydalanilsa, o'quvchilarning bilimlarini yuqori darajada rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J.G'., Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim sifat kafolati. (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). – T.: 2018 y. –11-b.
2. Mallaboev A. O'quvchilar bilan individual munosabatda bo'lishning psixologik asoslari. // Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – Andijon, 2016. -27-b.
3. Ochilov F. Pedagogik texnologiyalar asosida tabiatshunoslik darslari samara- dorligini oshirish. // «Tafakkur sarchashmalari» (Magistrantlarning ilmiy-metodik maqolalari to'plami). – T.: 2013. -219-b.
4. B.Ziyomuxammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2016.
5. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raev. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015.
6. Berdiyev B. R. Talabalar mustaqil ishining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim sifatini ta'minlash omili // "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali. 2021. №5 67-70 b (13.00.00; №17)

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinf o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning muammolari va ularni bartaraf etishdagi yechimlarning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish va ulardan oqilona foydalanish samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье раскрываются проблемы повышения эффективности образовательного процесса начальной школы и педагогические особенности решения их преодоления. Также обсуждались вопросы эффективного внедрения передовых педагогических технологий и их рационального использования в начальных классах.

SUMMARY

The article reveals the problems of increasing the effectiveness of the primary school educational process and the pedagogical features of solutions to overcome them. Also, the effective introduction of advanced pedagogical technologies and their rational use in primary classes were discussed.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA AXLOQIY MAVZUDAGI SUHBATLARNI O`TKAZISH: MUMMOLAR, IZLANISHLAR VA YECHIMLAR

Hamroyev Sh.E.
pedagogika fanlari nomzodi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri

**Tayanch so`zlar:** tarbiyaviy ishlar, axloqiy mavzudagi suhbat, boshlang‘ich ta’lim, o`qituvchi.
Ключевые слова: воспитательная работа, нравственная дискуссия, начальное образование, учитель.
Key words: educational work, moral discussion, primary education, teacher.

Kirish. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. Bu haqida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev “Yangi O`zbekiston-taraqqiyot strategiyasi” asarida: “Dunyo shiddat bilan o`zgarib, barqarorlik va xalqlarining mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi va xavflilar payoda bo`layotgan bugungi kunda ma`naviyat va ma`rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e`tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta`lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o`smirlardan tashqari, sholining katta qismi orasida ma`naviy-ma`rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo`lga qo`yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o`tkir zaruratga aylanmoqda”-deb yozgan edi.[1:273]. Bu vazifalarni muvafaqqiyatli bajarish uchun shubhasiz, xalqimizning bir necha asrlarga borib taqaluvchi urf-odat, an’ana va qadriyatlari hamda pedagogik merosidan, umumbashariyat tafakkur xazinasiga katta hissa ko‘shgan ma’rifatparvarlarimizning axloqiy asarlaridan ijodiy foydalanish juda muhimdir. Zero, sinfdan tashqari vaqtda o‘quvchilar bilan olib boriladigan

ishlar keng tarbiyaviy imkoniyatga ega bo‘lib, so‘z bilan ish birligini, axloqiy tushunchalarining xulqiy ko‘nikma, odat, malakalarga aylanishini ta’minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topishi, boshlang‘ich ta’lim amaliyotida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mummosi bilan M.Q. Bozorova kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda xalq an’analaridan foydalanish muammosini o`rgangan, u o`z ishida o‘zbek xalq ertaklarini vosita qilib olgan [2] bo`lsa, O. Musurmonova “Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari asosida)” mavzusida pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan[4]. “Odobnoma” darsligi orqali yuqori sinf o`quvchilarini axloqiy madaniyatini shakllantirish muammosi bo`yicha T. Qurbanovilmiy tadqiqot ishini olib brogan[3]. Tlyabova N.U. esa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirish [8], shuningdek, Usmonov S. boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari mavzusida dissertatsiya himoya qilganlar [9]. Sarsenbayeva R. M., Mavlonova R. A., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo`yicha o`quv qo`llanma[5] va darslik[6] nashr qildilar[7]. Hamroyev Sh. E. “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish” mavzusida monografiya chop ettirgan.[10]

Nazariy asos. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta’sir ko‘rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o‘qituvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo o‘qituvchilar, jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Biz tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdorlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlarni asos qilib oldik. Boshlang‘ich ta’lim amaliyotida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni quyidagi shakl-usullarda o‘tkazish maqsadga muvofiq:

- axloqiy mavzudagi suhbatlar;
- kitoblar ko‘rgazmasi;
- adabiy ertaliklar;
- kitobxonlik konferensiyalari;
- qiziqarli savol-javob o‘yinlari (viktorinalar).

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilimdon, odob-axloqli, o‘z kasbining fidoyisi bo‘lishi zarur. O‘qituvchi sinfdan tashqari o‘tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlarga alohida e’tibor berishi kerak. Zero, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan ishlar jarayoni muhim bo‘lib, o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda yetakchi ahamiyatga ega. Bizning kuzatishlarimiz, ilmiy-tajriba ishlarimizning ko‘rsatishicha, boshlang‘ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlar o‘tkazishning ahvolini qoniqarli holda deb bo‘lmaydi. Bunga asosiy sabablar:

a) aksariyat maktablarning boshlang‘ich sinflarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida yangi usul maktabi tarafdorlarining merosiga doir axloqiy mavzudagi suhbatlar deyarli o‘tkazilmaydi;

b) juda kam maktablarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida axloqiy mavzudagi suhbatlar o‘tkazib turilsada, bunda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Xususan:

– ko‘plab o‘qituvchilar axloqiy mavzuda suhbatlar o‘tkazish metodikasini bilmaydilar, shu sababli ko‘zlangan maqsadga erisha olmayaptilar;
– axloqiy mavzudagi suhbatlar har oyda, ba’zan har ikki oyda bir marta nomigagina, yoxud turli xil sabablar bahonasida o‘tkaziladigan hollar ko‘p uchraydi;
– bunday suhbatlar ko‘pincha quruq nasihatbozlikka aylanib ketmoqda va o‘quvchilar shuuriga deyarli ta’sir ko‘rsata olmayapti;
– bunday suhbatlarda xalqimizning ma’naviy-axloqiy mavzudagi boy pedagogik merosidan juda kam foydalanilayotir;

v) o‘qituvchilar uchun axloqiy mavzuda suhbatlar o‘tkazish bo‘yicha metodik qo‘lanma va tavsiyanomalar deyarli yo‘q, borlari ham eskirib o‘z ahamiyatini yo‘qotib qolganligini ta’kidlash joiz.

Axloqiy mavzudagi suhbatlar asosan ikki xil ko‘rinishda-yakka va guruh tartibida o‘tkazilib, bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi quyidagilarga alohida e’tibor bermog‘i lozim:

– har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbat mavzularini o‘quv yili boshidayoq tanlab olishi va maktab pedagogik kengashi, sho‘ba yig‘ilishlarida muhokamadan o‘tkazib, boshlang‘ich sinflar ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tasdig‘idan o‘tkazishi;
– sinfdan tashqari o‘tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlar qat’iy reja va aniq maqsad asosida bo‘lishi;
– bunday suhbatlar uchun alohida daftar tutilishi va o‘tkaziladigan suhbatlar unga tushirib borilishi;

– axloqiy mavzudagi har bir suhbatda ko‘rgazmali qurollardan foydalanilishi, axloqiy tarbiyaga doir asarlardan namunalar keltirilishi;
– axloqiy mavzudagi suhbatlarni ko‘proq noan’anaviy tarzda o‘tish va bunda munozarali, qiziqarli va erkin bo‘lishiga e’tibor berish;
– axloqiy mavzudagi suhbatlarning davom qilish vaqti aniq bo‘lishi kerak. Bizningcha boshlang‘ich sinflarda yakka tartibda 12-15 daqida; guruh tartibida 25-30 daqiqa bo‘lishi lozim;
– har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi suhbatdoshining yoshi, bilim darajasi, xulq-atvori, odob-axloqi kabilarni alohida e’tiborga olishi;
– odatda axloqiy mavzudagi suhbatlar o‘quvchilarning xohish-istaklarini o‘zida ifodalashi, ular uchun bu suhbatlar dolzarb ahamiyat kasb etishini tushuna bilishlari;
– har bir axloqiy suhbat avvalgi mavzuni davomi va to‘ldiruvchisi bo‘lishi, o‘zaro aloqador bo‘lishi, osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga qoidalarga alohida e’tibor berish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlarning shakllari turli xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

– axloqiy mavzudagi kitoblar tavsiyasiga bag‘ishlangan suhbatlar;
– o‘quvchilarning ijobiy yoki salbiy xulq-atvori, hatti-harakatlariga bag‘ishlangan suhbatlar;
– turli xil tadbir va bayramlarga bag‘ishlangan axloqiy mavzudagi suhbatlar;
– buyuk allomalar, qahramonlarning hayoti, faoliyati va fazilatlariga bag‘ishlangan suhbatlar

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-; Nishon tumanidagi 3-; Kasbi tumanidagi 32-; Mirishkor tumanidagi 1-; 2-; 6- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganish maqsadida o‘quvchilarga og‘zaki-yozma ravishda savollar berildi.

Qashqdaryo viloyati Nishon tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabidagi 4 “a” sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan “Rostgo‘y bola” nomli mavzuda o‘tkazilgan suhbatning reja-sxemasi:

– Mavzu: Rostgo‘y bola.
– Maqsad: a) o‘quvchilarga rostgo‘ylik haqida bilim berish;
– B) rostgo‘ylik-insonga xos eng yaxshi fazilat ekanligini tushuntirish;
– V) o‘quvchilarni rostgo‘ylikka, to‘g‘ri so‘zlashga odatlantirish.
– Mashg‘ulotning jihozlanishi:

– A) axloqiy tarbiyaga doir asarlar: Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi soniy” darsligi, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari;
– B) o‘quv texnika vositalari: Ukraina-5 kinoapparati, magnitofon;
– V) plakatlar: Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniyning rasmlari;
– G) didaktik materiallar: “Egri va To‘g‘ri” diafilmi;
– I-mashg‘ulotning borishi: O‘quvchida mavjud bilimlarni egallash va mustahkamlash uchun savollar:
– Vatan va vatanparvarlik haqida gapirib bering?
– Vatanni sevmoqlik deganda nimani tushunasiz?
– Siz nima uchun O‘zbekistonni sevasiz?
– Vatan xoini deganda nimani tushunasiz?
– Vatan haqida she’r aytib bering.
– II.Yangi suhbat mavzusi bayoni:
– rostgo‘ylik fazilatining mazmun, mohiyati va tavsifini tushuntirib berish;
– rostgo‘ylik, to‘g‘ri so‘zlash hamda yolg‘on so‘zlash tushunchalarining o‘zaro farqini Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi soniy” darsligidagi “Sodiq ila Orif” va Abdulla Avloniyning “Haqqoniyat” hikoyatlari orqali tushuntirib, bu masalada o‘quvchilar bilan fikr almashish;
– o‘quvchilardan rostgo‘ylik haqidagi she’r, hikoya, hikmatli so‘zlar va Hadis namunalarini so‘rash va muhokama qilish;

Xulosa va takliflar. Axloqiy mavzudagi suhbatlar sinfdan va maktabdan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda bir qator afzalliklarga ega. Tajriba ishimizning ko‘rsatishicha, bular asosan quyidagilardan iborat:

– bunday suhbatlar orqali o‘qituvchilar o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa oladilar. O‘qituvchilar bilan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yaqinlik, keyinroq esa hattoki, sirdosh bo‘lish hollari uchraydi;
– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari har bir o‘quvchining individual xususiyatlari-fe’l-atvori, xohish-istak, mayllari, xulqi va odobini o‘rganishlari, ba’zi hollarda esa xulqida paydo bo‘ladigan salbiy holatlarni bartaraf qilishda axloqiy mavzudagi suhbatlar yetakchi rol o‘ynaydi:
– o‘qituvchilar uchun bunday suhbatlar o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ta’sir o‘tkazishning muhim shakli bo‘lib, shubhasiz o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Takliflar. Boshlang‘ich sinflarda yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik merosi bo‘yicha quyidagi suhbat mavzularini tanlash va o‘tkazish mumkin:

birinchi sinfda: “Yaxshi xulqli bola”, “Yolg‘onchilik-eng yomon fazilat”, “Do‘stlik-ulug‘ fazilat”, “Ochko‘zlik”, “Vatanimiz”.

ikkinchi sinfda: “Yomon va yaxshi bola”, “Sabr”, “Rostgo‘ylik-eng ulug‘ fazilat”, “Munislik”, “Vatanimiz ramzlari”.

uchinchi sinfda: “Yolg‘onchi bola”, “Tarbiyali bola”, “Do‘st har xil bo‘lur”, “Nafs”, “Mustaqil O‘zbekiston”.

to‘rtinchi sinfda: “Tarbiyali va tarbiyatsiz bolalar”, “Yolg‘onchi cho‘pon”, “Sabrning tagi rohat”, “Rostgo‘y bola”, “Vatanni sevmoq-iymondandur”.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. -Тошкент:”O`zbekiston” нашриёти, 2022. -440 бет.

2. Бозорова М.Қ. Кичик ёшдаги мактаб ўқувчиларида дўстлик, ўртоқлик ҳиссини тарбиялашда халқ анъаналаридан фойдаланиш (ўзбек халқ эртаклари асосида). Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1994, – 172 б.

3. Курбанов Т. Формирование этической культуры старшеклассников на основе учебника “Одобнома”. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. В форме научного доклада. – Ташкент: 1995. – 23 с.

4. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари. Пед. фан. докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1993, – 364 б.

5. Sarsenbayeva R. M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O`quv qo`llanma. -T. 2019

6. Мавлонова Р. А. Нормуродова Б. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент: “Фан”¸ 2008.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlarni tashkil etish va o`tkazish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещены вопросы организации и проведения бесед на нравственные темы в начальных классах.

SUMMARY

The article covers the issues of organizing and holding conversations on moral topics in primary classes.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANATIRISH METODIKASI

Quvanov Z.
Shahrisabz davlat pedaagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat, psixologik xususiyatlar,analiz, sintez.
Ключевые слова: логическое мышление, мыслительная деятельность, психологические характеристики, анализ, синтез.
Key words: logical thinking, mental activity, psychological characteristics, analysis, synthesis.

Ta’lim poydevori – boshlang‘ich ta’lim. Yangi O‘zbekistonning ta’lim sifatini rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi qatoriga yetkazish avvalo boshlang‘ich ta’limdan sifat va samaradorlikni talab etadi. Bu esa o‘quvchilarning fanlarni bilish va o‘zlashirish darajasiga bog‘liq. Bugungi kunda aynan boshlang‘ich sinflarning bilim salohiyatida mantiqiy fikrlash yetakchi o‘rin kasb etmoqda.

O‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni berishi, balki ularni hayotda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. Fikrlashning ekssentrikligini rivojlantirish, muammolarni «taqlid» yordamida hal qilish uslubidan voz kechish kerak. Aynan boshlang’ich maktab yoshida, psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, mantiqiy fikrlashni, muammoni hal qilish uchun nostandart yondashuvni shakllantirish zarur. Agar maktabgacha yoshda bolaning o‘yin faoliyati yetakchi bo‘lsa, boshlang’ich maktabda o‘qishga yo‘naltirish mavjud. Fikrlash asosiy funksiyaga aylanadi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish boshlang’ich maktabda ustuvor ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash bolani o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalaridan foydalangan holda, shuningdek, nazariy va amalda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga, shuningdek, kerakli ma’lumotlarni topishga o‘rgatishni tartibga soladi. Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, agar u asosiy vazifa bo‘lmasa, keyinchalik bolaning boshlang’ich maktabda o‘qishi davrida eng muhimlaridan biriga aylanishidan dalolat beradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilar muhim: tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, bahslashish va eng muhimi, mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish, g'ayrioddiy yechimlarni izlash. Aqliy faoliyat, boshqa har qanday faoliyat kabi, o'qitilishi va rivojlanishi kerak. Zamonaviy dunyoda bola ko'pincha shunga o'xshash qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun bu mavzu bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi. Rivojlanish muammolari ko'plab o'qituvchilar va psixologlarni qiziqtirgan (P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, A. N. Leontiyev, A. R. Luriya, P. I. Zinchenko, A. A. Smirnov, B. M. Velichkovskiy, G. G. Vuchetich, Z. M. Istomina, G. S. Ovchinnikov, J. Piaget). Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 4-sinf o'quvchilarining hammasi ham mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga to'liq yoki hech bo'lmaganda qisman ega emaslar. Ba'zan ba'zi o'quvchilar hatto o'rta maktabda ham ularni o'zlashtirmaydilar. Ushbu dalillarning barchasi boshlang'ich maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi muayyan muammolarni, shuningdek, bolalarga aqliy operatsiyalarning asosiy usullarini o'rgatish bo'yicha maqsadga muvofiq ish olib borish zarurligini ko'rsatadi. Ko'pincha, ushbu yo'nalishdagi ishlar kichik o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga eng samarali ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlarni, o'qitish usullari va pedagogik texnologiyalarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ko'pincha ikkita muammoni hal qildi: olingan bilimlarning mazmuni qanday bo'lishi kerak va o'qituvchi o'quvchilar ongiga qanday ma'lumot yetkazishi mumkin. Axir bilimlarni mexanik ravishda o'rganish mumkin, fikrlashning oqilona usullari ularni tushunishga imkon beradi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati 1-sinf o'quvchilari uchun zarurdir. Mantiqiy fikrlashning eng kichik usullariga ega bo'lmasdan materialni to'liq o'zlashtirish mumkin emas. Mantiqiy fikrlashni o'rgatish, shuningdek uni rivojlantirish tabiiy, hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lishi kerak. Mavjud maktab o'quv dasturlarida, albatta, mantiqiy universal harakatlarni shakllantirish mashqlari mavjud, ammo mavhum fikrlashni rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo'shimcha dastur ishlab chiqish uchun tajriba o'tkazish mantiqan to'g'ri keladi va har qanday darsga mashqlarni o'quv jarayonida ham kiritish mumkin. Hozirgi vaqtda mantiqiy universal ta'lim harakatlarini shakllantirishning turli xil usullari mavjud. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo'shimcha mashqlarni kiritish uchun har bir o'qituvchi kichik o'quvchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlarini tahlil qilishi va hisobga olishi, har bir bolaning individualligini hisobga olishi kerak. Bunday vazifalar o'quv jarayonida ham, sinfdan tashqari ishlarda ham mutlaqo har qanday darsda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu mashqlarning turi quyidagicha bo'lishi mumkin: mantiqiy ketma-ketlik (bir

qator tavsiya etilgan narsalarning ortiqcha miqdorini toping yoki rasmlarning mantiqiy turkumini yarating); labirint; mantiqiy aloqalarni topish (ikkita obyekt o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash); xato toping; xususiyatlarga ko‘ra narsalarni ajratish. Eng samarali usullardan biri bu rasmdir. Chizish jarayonida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, rang, hajm, makon kabi tushunchalar shakllanadi. Ushbu muammoning yechimi shundan iboratki, diqqatni o‘quvchiga beriladigan ma’lumot hajmini ko‘paytirishdan, mantiqiy universal ta’lim harakatlarini shakllantirishdan o‘tkazish kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘z e’tiborini kichik maktab o‘quvchisida umumiy mantiqiy aqliy faoliyatni o‘rnatishga, har xil xulosalar turlari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratishi kerak. Ta’lim jarayonini shakllantirishga bunday yondashish standart darsning borishini butunlay o‘zgartirishi mumkin, masalan, ilgari o‘qituvchi dars mavzusini so‘ragan bo‘lsa, endi u talabalarni yetakchi savollar bilan boshqarishi kerak, shunda ular o‘zlari mavzu nima ekanligini va nimani o‘rganish kerakligini aniqlaydilar. Kichik maktab yoshi - bu mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning faol propedevtik bosqichi, bu davrda umumta’lim maktabining o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun asos bo‘lgan tahlil, sintez, umumlashtirish, cheklash, tasniflash, taqqoslash, mavhumlashtirish va boshqalarning mantiqiy operatsiyalarini amalga oshirish uchun asoslar yaratiladi. Kichik maktab o‘quvchilari tomonidan mantiqiy operatsiyalarni bajarilishini tavsiflovchi yoshga bog’liq asosiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi: sezgirlik, mavhumlikka nisbatan faoliyatni tahlil qilish, sintezni asosan vizual vaziyatda obyektlar bilan harakatlarni to‘xtatmasdan amalga oshirish, taqqoslash operatsiyasini obyektlar, bog’lanishlar va obyektlar bilan o‘zaro munosabatlarni tartibga solish bilan almashtirish istagi, xususiyatlar, obyektlarning muhim xususiyatlarini ularning yorqin tashqi belgilari bilan almashtirish. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining eng muhim vazifalaridan biridir.

Ko‘plab psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, aynan boshlang’ich maktab yoshida, mantiqiy fikrlashni, muammoni hal qilish uchun nostandart yondashuvni shakllantirish zarur ekan. Agar maktabgacha yoshda bolaning o‘yin faoliyati yetakchi bo‘lsa, boshlang’ich maktabda o‘qishga yo‘naltirish yetakchiligi mavjuddir. Bu davrda fikrlash asosiy funksiyaga aylanadi va shu sababli aqliy faoliyatni rivojlantirish boshlang’ich maktabda ustuvor ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash bolani o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda, shuningdek, nazariy va amalda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga, shuningdek, kerakli ma’lumotlarni topishga o‘rgatishni tartibga soladi. Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, agar u asosiy vazifa bo‘lmasa,

keyinchalik bolaning boshlang'ich maktabda o'qishi davrida eng muhimlaridan biriga aylanishidan dalolat beradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilar muhim: tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, bahslashish va eng muhimi, mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish, g'ayrioddiy yechimlarni izlash. Aqliy faoliyat, boshqa har qanday faoliyat kabi, o'qitilishi va rivojlanishi kerak. Mantiqiy fikrlashni o'rgatish, shuningdek uni rivojlantirish tabiiy, hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lishi kerak. Shu bilan birga, pedagogik vositalar bola rivojlanishining yoshga bog'liq xususiyatlarini (psixologik va jismoniy) hisobga olishi kerak. Mavjud maktab o'quv dasturlarida, albatta, mantiqiy universal harakatlarni shakllantirish mashqlari mavjud, ammo mavhum fikrlashni rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo'shimcha dastur ishlab chiqish uchun tajriba o'tkazish mantiqan to'g'ri keladi va har qanday darsga mashqlarni o'quv jarayonida ham kiritish mumkin. Bunday vazifalar o'quv jarayonida ham, sinfdan tashqari ishlarda ham mutlaqo har qanday darsda amalga oshirilishi mumkin. Yana bir guruh pedagoglar (D. D. Zuyev, V.V. Krayevskiy) o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini konkret o'quv fani mazmuniga kirgan mantiqiy amallarni tushuntirish orqali rivojlantirish mumkin degan g'oyani ilgari suradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga yondoshuvlar turlicha bo'lishga qaramay, tadqiqotchilarning asosiy qismi ta`lim jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi degan umumiy qarashlar mavjud: o'quvchilarda qaralayotgan predmetlarni qiyos lashga, ulardagi o'xshashliklar va farq qiluvchi hususiyatlarini aniqlashga o'rgatish; predmetlarning eng muhim va ikkinchi darajali xususiyatlarini ajratib olishga o'rgatish, o'quvchilarga predmetlarni tarkibiy qismlarga (analiz) bilish maqsadida ajratish, alohida tashkil etuvchi qismlarni yaxlit predmet sifatida birlashtirish (sintez) hamda bu jarayonda qismlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashga o'rgatish; o'quvchilarga kuzatish va mavjud faktlar asosida to'g'ri xulosa chiqarish, bu xulosalarni tekshirish, ishonarli tarzda isbotlash, yolg'on mulohazalarni inkor qilishga o'rgatish; o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini ma`lum bir tartib va ketma-ketlikda, asoslangan holda, bir-birini inkor qilmaydigan mulohazalar yordamida bayon qilishlarini nazorat qilish. Shunday qilib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bevosita ta`lim jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Ta`lim jarayonida turli tipdagi modellardan muttasil va o'rinli foydalanish bolalarda mantiqiy-obrazli fikrlash hissini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun birdaniga predmet va xodisalarning ta`siriga e`tibor qaratishga moyil bo'ladilar. Ularning aqliy faolligi takrorlash va qo'llashga yo'naltiriladi. Bu yoshdagi bolalar predmet

va xodisalarning mohiyatlariga unchalik ko‘p qaratilmaydi. Ular odatda predmet va xodisalarning bir ko‘rishda his qilishi mumkin bo‘lgan hususiyatlari haqidagi taassurotlarini bildiradilar. Muammolarning murakkab tomonlariga kamdan-kam hollardagina e`tibor berishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ravishda xodisa va predmetlarning sabab va oqibatlarni o‘rganishga qiziqish bo‘lmaydi, ular faqat u yoki bu amalni qanday bajarish haqida savol berishlari mumkin, muhim va muhim bo‘lmagan hususiyatlarni ajratishga e`tibor berishmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi analiz, sintez, qiyoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy amallarni bajarishni o‘rganar ekan, tadqiqotchilar quyidagi xulosaga kelishdi: kichik yoshdagi bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining asosiy xususiyati quyidagilardan iborat: his qilishning ustunligi; abstrakt narsalar ustida faolyait ko‘rsatish; sintezni predmetlar bilan aloqani uzmagan holda ko‘rgazmali holatda amalga oshirish; predmetlar ustida qiyoslash amalini xususiyatlarini osongina his qilish mumkin bo‘lgan usulda qayta joylashtirish; predmetlarning muhim alomatlarini ajratishga qodir emaslik.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L.S.Fikrlash va nutq / L.S. Vygotskiy - M: AST, 2005 yil.

2. Galperin P. Ya. Maktab o‘quvchilarida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish muammolari va maktabda o‘qitishning yangi usullari / Galperin P. Ya., Zaporozhets NV, Elkonin D.B. - M.: Ta’lim., 1963.

3. Бердиев Б. Р. Boshlangich sinf o‘quvchilari bilan matematika fanidan mustaqil mantiqiy masalalar bajarish. // “Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў” Илимий - методикалық журнал. Нукус, №2 2021 жил, 130-134 б.

РЕЗЮМЕ

Bu maqolada mantiqiy fikrlashning ahamiyati yoritilgan. Mantiqiy fikrlash bolani o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalaridan foydalangan holda, shuningdek, nazariy va amalda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga, shuningdek, kerakli ma’lumotlarni topishga o‘rgatishni tartibga soladi. Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, agar u asosiy vazifa bo‘lmasa, keyinchalik bolaning boshlang’ich maktabda o‘qishi davrida eng muhimlaridan biriga aylanishidan dalolat beradi. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье подчеркивается важность логического мышления. Логическое мышление организует обучение ребенка принимать решения в нестандартных ситуациях, а также находить необходимую информацию, используя полученные знания, умения и навыки. Все это свидетельствует о том, что развитие логического мышления, если оно и не является основной задачей, становится одной из важнейших в период обучения ребенка в начальной школе. В статье использован описательный метод.

SUMMARY

This article highlights the importance of logical thinking. Logical thinking organizes the child’s learning to make decisions in non-standard situations, as well as find the necessary information using acquired knowledge, skills and abilities. All this indicates that the development of logical thinking, even if it is not the main task, becomes one of the most important during a child’s education in primary school. The article uses a descriptive method.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING BILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHIDA O'YIN MUHIM VOSITA SIFATIDA

Alimardonova M.B.
Qarshi Davlat Universiteti Maktabgacha ta`lim kafedrasi o`qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'limiy o'yinlar, bolalar, bilish, ko'nikma, rolli o'yin.
Ключевые слова: развивающие игры, дети, знания, умения, ролевая игра.
Key words: educational games, children, knowledge, skills, role-playing game.

Shaxs hayotining dastlabki davrida uning asosiy ehtiyojlari, xohish-istaklari, orzu-umidlari aynan o'yin mazmunida, harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bola ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, u har qanday faoliyatni mustaqil amalga oshirishga intiladi, katta yoshdagilarning faoliyatlariga bevosita ishtirok etishga harakat qiladi. Bola tashqi olam haqida qanchalik ko'p ma'lumotga ega bo'la boshlasa, uning kattalar hayotiga qiziqishlari ham ortib boradi. O'yin faoliyati davomida esa bola katta yoshdagilar xatti-harakatlariga taqlid qilgan holda o'zini kattalardek tutish imkoniyati paydo bo'ladi. Aynan o'yin faoliyatida bola mustaqil harakatlanadi, o'z xohish irodasini, orzularini, tasavvurlarini, tuyg'ularini erkin ifodalaydi. O'yin jarayonida bola boshqa faoliyat turlarini ham o'zlashtira boradi: bilimlarni o'zlashtiradi, mehnat ko'nikmalari shakllanadi, jismoniy mashqlarni o'zlashtiradi, muloqot qoidalari, tartib-intizom qoidalariga amal qilishni o'raganadi.

Boladagi qiziqishlarni kuchaytirishda va erkin fikrlarini namoyon etishda o'yinlarning imkoniyati kattadir. Chunki, o'yinlar bolaning bilish ko'nikmasini rivojlanishida foydalaniladigan vosita sifatida muhim o'rin egallaydi.

O'yinlar mohiyatiga ko'ra ta'lim va tarbiya maqsadlari hamda ijodiy o'yin elementlarini o'zida birlashtiradi.

Bolalar o'yinlarini ularning ijtimoiylashuvidagi, ya'ni tashqi olamga moslashuvi, voqea-hodisalarni tushunishlari uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, ularga ta'lim berish va davolashda ham asosiy vosita bo'lib xizmat

qiladi. Chunki, o‘yin bolalar uchun eng qiziqarli faoliyat turi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, o‘yinlarni tashkil etishda bolaning mayl-istaklarini inobatga olinishi hamda bolani yoshiga mos keluvchi holatlarni ifoda etishi maqsadga muvofiq. Bolalarni ular uchun qiziqarli o‘yin faoliyatiga jalb qilishdan maqsad ularning o‘zligini kengroq namoyon qilishga imkon beradigan rollarga murojaat qilish; bolaning o‘sishi, rivojlanishi, ulg‘ayishining ifodalanishi; o‘yin jarayonida o‘z muammolarini hal etishdir.

Psixologiyada o‘yinlar muammosi ustida katta izlanishlar olib borgan P.F.Kapterevning didaktik o‘yinlarni tanlash va o‘tkazishdagi qarashlari muhim hisoblanadi. U bolalarga ta’lim berishda turli holatlarni va vaziyatlarni inobatga olish lozimligini va bunda o‘yinlar juda qo‘l kelishini ta’kidlab o‘tadi.

O‘quv jarayoni va o‘yin faoliyatining bir-biriga mosligi, ular o‘rtasida qarama-qarshilikning bo‘lmasligi ta’limiy maqsadlarga erishishga yordam beradi. O‘quv jarayoni o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirilganda bilim oluvchilarni zeriktirmaydi va ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

P.F.Kapterevning ta’biricha, o‘yinlar tizimli o‘rganishga asoslangan bo‘lib, bahs-munozara muhitini vujudga keltirishi kerak. O‘qish, o‘rganish jarayoni bilan o‘yin faoliyati o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi hodisalardir. Ular o‘zining tabiatiga ko‘ra bir-birini boyitadi.

O‘yin bola shaxsining va organizmining har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat turi hisoblanadi. Ya’ni o‘yinlarda bola rivojlanishini jadallashtirish va ijtimoiylashtirish imkoniyatlari juda katta. O‘yinlarning yana bir muhim o‘ziga xos xususiyatlari bolalar ijtimoiylashuvi, jismoniy va fiziologik rivojlantirish bilan bir qatorda kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tafakkurning tezkorligi, tasavvurning boyligi kabi xususiyatlar xarakterlidir. Shu sababli ham ushbu yosh davrida ular obrazga tez kirishadilar va ular bilan rolli o‘yinlarni o‘tkazish yengil kechadi. Ularning ishonuvchanligi, kirishimliligi, ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ehtiyoji o‘yin faoliyatiga kirishishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari ular o‘yin qoidalariga qat’iy amal qiladilar, turli buyumlar, o‘yinchoqlar yordamida amalga oshiriladigan o‘yinlarga ham juda qiziqadilar.

Ta’limiy o‘yin faoliyatining ahamiyatli tomoni shundaki, bu o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar qatoriga kiradi. Ta’limiy o‘yinlarda o‘yin maqsadi bilan birgalikda harakat elementlari ham ko‘rsatiladi. Shuningdek, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlar ham amalga oshiriladi. O‘yinlar davomida bolalarning shaxsiy sifatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ularda turli ijobiy sifatlar bilan bir qatorda tabiatga va jamiyatga ijobiy munosabatlarni, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish imkoniyatlari juda katta. Shu

bilan birga o‘yinlar davomida berilayotgan topshiriqlar bolalarga o‘z xulq-atvorlari va xatti-harakatlarini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O‘yinlar davomida erishiladigan g‘alabalar, yutuqlar ularni keyingi faoliyat turlariga rag‘batlantiradi, ularni jamoa bo‘lib harakat qilishga undaydi. Jamoa a’zolarining o‘yinlar davomidagi muloqoti turli fikrlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, umumiy maqsadga erishish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar o‘yin faoliyati davomida ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtiradilar, jamoaviy tafakkurlari shakllanib boradi. Jumladan, katta yoshdagilarning muloqot uslublari, mehnat faoliyatlari, ijtimoiy tajribalari o‘yinlarda o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, ularning jamoaga kirishimliligi, mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ijobiy sifatlari ham tarkib topib boradi. Mazkur ko‘nikma va sifatlar o‘yinlar davomida bola ongida tadrijiy tarzda o‘zlashtirib boriladi. Shuning uchun ham, maktabga tayyorlov jarayonidagi mashg‘ulotlar davomida bolalarning barcha faoliyatlari o‘yin bilan muvofiqlashtirgan hamda uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg‘ulotlarning samaradorligi muloqot muhitining yaratilganligi va pedagog tomonidan to‘g‘ri loyihalashtirilganligiga bog‘liq. Pedagog o‘yinli mashg‘ulotlarni loyihalashtirishda ijtimoiy tajriba va xalq og‘zaki ijodiy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini ham inobatga olishi muhimdir. Chunki o‘yinlar tashqi olamdagi voqelikni, voqea-hodisalarni bolalar ongiga yetkazishning asosiy vositasidir.

Bolalar hayotida o‘yin ularning ijtimoiy munosabatlarga kirishishlarini ta’minlaydi. Ular o‘yin orqali jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qoidalarini, me’yorlarini o‘zlashtiradilar, tartib-intizomga o‘rganadilar, jamoat joylarida o‘zlarini tutishni mashq qiladilar. O‘yin bolalarning jamoa a’zolari bilan o‘tkazadigan hamkorlikdagi faoliyatining yagona turi emas. Shu sababli ham didaktik o‘yinlar bolalarning barcha faoliyat turlarini o‘zida aks ettirgan holda ularning ichki imkoniyatlarini, layoqatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Jumladan bolalarga birgalikda ishlash, faoliyat yuritish bilan birga hamkorlikda ijod qilish imkoniyatlarini ham yaratib beradi. Hamkorlikda ijod qilish davomida bolalar o‘zgalar mehnatini hurmat qilish, atrofidagilar xohish-irodasi hamda fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Natijada, ijtimoiy bolalar xulq-atvor me’yorlarini va insonlar bilan hamjihatlikda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar.

Didaktik o‘yinlar davomida hamkorlikdagi faoliyatiga kirishishning asosiy ko‘rsatkichi bolalarning muloqotga kirishuvi bilan belgilanadi. Ya’ni, bolalarning o‘yin davomidagi xatti-harakatlari emas, balki o‘zaro muloqotlari hamjihatlikdagi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalar kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishda ularning xotiralarida ma’lumotlarni saqlashlari, saqlangan ma’lumotlarni qayta tiklashlari ham muhim bo‘lib, o‘zlashtirilgan bilimlar tahlilida bolalar ushbu ma’lumotlarni o‘z onglarida aks ettiradilar. Bunday jarayonlar bolalarga muayyan vazifalarni va faoliyatlarni o‘zlashtirib uning mazmuniga muvofiq tarzda harakatlanishni o‘rganib boradilar.

Ta’kidlash joizki, jamiyatdagi ijtimoiy tajribani mashg‘ulotlar davomida bolalarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari faol harakatlar mahsuli hisoblanadi. Agar pedagog maktabga tayyorlov mashg‘ulotlarida asosiy e’tiborni bolaning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratmaydigan bo‘lsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim mazmuni o‘rtasida uzilish sodir bo‘ladi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarni kognitiv rivojlantirish va ijtimoiy muloqot hamda hamkorlikka tayyorlash vazifasi ularning yosh xususiyatlari va individual rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda o‘yinlarni tanlash natijasidagina muvaffaqiyatli hal qilinadi. Chunki didaktik o‘yinlar ta’lim berish bilan bir qatorda bolaning psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlarini rivojlantirishga qaratiladi va maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim o‘rtasida o‘zaro uzviy aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi. Buning natijasida, bolaning turli psixologik xususiyatlari samarali rivojlanadi, ularda ijtimoiy muloqot va hamkorlik munosabatlari tarkib topadi.

Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalar uchun foydalaniladigan o‘yinlar mazmuni, rang-barangligi, qisqa muddatliligi bilan farqlanadi.

Ta’limiy o‘yinlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

1. Dasturga mosligi.
2. Bolalarning yoshiga mosligi.
3. Bolalarning jismoniy imkoniyatlari
4. Moddiy-texnik bazaning mavjudligi.

O‘yin faoliyati davomida bolalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda ularning bilimlari va tasavvurlarini boyitishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева Н. Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш// пед.ф.б.ф.д(PhD) илмий даражасини олиш учун автореферати –Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2019. – 25 б.

2. Alimardonova M. B. Methods of solving cognitive tasks in the organization of preschool education. proceedings international scientific-practical conference on “cognitive research in education” Samarkand. 202l. 417-419 pages

3. Каптерев П.Ф .https://ru/m/wikipedia.org/wiki/Каптерев,_Петр

4. Туйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотларида тайёрлов гуруҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш // пед.ф.б.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2020. –194 бет.

5.Тошева Н.Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини ривожлантирувчи ўқув вазиятларини ташкиллаштиришнинг дидактик шарт-шароитлар. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.я автореферати. Нукус. 2019. - 50 б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘yinlar bolalarning ijtimoiylashuvidagi, ya’ni tashqi olamga moslashuvi, voqeahodisalarni tushunishlari uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, ularga ta’lim berishda ham asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi yoritilgan. Bolalarni qiziqarli o‘yin faoliyatiga jalb qilishda o‘zligini kengroq namoyon qilishga imkon beradigan rolli o’yinlarga murojaat qilish orqali bolaning o‘sishi, rivojlanishi bilan birga bolalarda bilish ko’nikmasini rivojlantirilishi nazariy jihatdan asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подчеркивается, что игры являются основным инструментом социализации детей, то есть их адаптации к внешнему миру и осмыслению событий, а также их воспитания. Теоретически в ее основе лежит развитие познавательных способностей детей по мере роста и развития ребенка путем использования ролевых игр, которые позволяют детям шире проявить свою индивидуальность, вовлекая детей в интересную игровую деятельность.

SUMMARY

This article, it is highlighted that games are the main tool for children’s socialization, that is, their adaptation to the outside world, and their understanding of events, as well as their education. It is theoretically based on the development of cognitive skills in children along with the child’s growth and development by using role-playing games, which allow children to more widely express their identity while engaging children in interesting game activities.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Ibragimova G. R.
Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalik xarakter, omil, temperament, fikrlash, nutq, diqqat, xotira, tasavvur, oila, o'yin, bolalar psixologiyasi.: в этой

Ключевые слова: дошкольное образование, детство характер, фактор, темперамент, мышление, речь, внимание, память, воображение, семья, детпсихология: в этой статье речь пойдет об аннуляции: в этой статье рассматривается детская психология в дошкольных организациях.

Key words: preschool education, childhood character, factor, temperament, thinking, speech, attention, memory, imagination,family, play, child psychology.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu shaxs shakllanishining qisqa, ammo muhim davri hisoblanadi. Bu yillar davomida bola atrofdagi hayot haqida dastlabki bilimlarni oladi, unda odamlarga, mehnatga, to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari shakllanadi, xarakterga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi. Shaxs haqida so'z borar ekan , shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsining rivojlanishi,shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.[1]«Shaxs» deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Shaxs bo'lmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga nisbatan shaxsiy munosabati bilan boshqalardan farq qiladi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib mazkur xususiyatlar rivojlanib ma'lum bir bosqichga yetsagina, u kamol topgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Demak, inson ijtimoiy

mavjudot unga ijtimoiy iqtisodiy hayot sharoitlari (muhit) tarbiya muhim sanaladi. Muhit hamda tarbiya takomillashib borishi odamning rivojlanib, shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. [2] Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta’sir ko’rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta’siri tarbiya asosida kechadi. Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta’sirlarning barchasi bilan bog‘liq holda ta’sir qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o‘zlariga tushunarli bo‘lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba’zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg‘otish, Vatanga muhabbat tuyg‘usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. O‘zbekistonning qaysi bir hududiga bormaylik, buyuk zotlar uchun qurilgan obida-yu ziyoratgohlarni, yodgorlik majmualarini mehr va iftixor, g’urur va hayajon bilan kuzatamiz [3]. Ana shunday ma’naviy boyliklarimiz zamirida albatta yaxshi xulq va tarbiya yotadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida kishi organizmi rivojlanadi hamda muhitni stixiyali ta’minlay olmaydigan narsalar ta’lim-tarbiya orqali o‘rganiladi. Aqliy ta’lim - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta’lim yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki ta’lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta’lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta’lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida bolalarda o‘quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta’limning ikki xil yo‘l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Masalan, bola o‘z ona tili atrofini o‘rab olgan muhitning ta’sirida o‘rganib olishi mumkin. Ammo o‘qish va yozishni maxsus ta’lim orqali o‘rganadi. Ma’lum bilim, ko‘nikma malakalar ta’lim-tarbiya jarayonida egallanadi. Ta’lim-tarbiya yordamida bolaning ba’zi bir tug‘ma kamchiliklarini kerakli tomonga o‘zgartirish mumkin. Masalan, ba’zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug‘iladi. Ta’lim-tarbiya yordamida muhitni salbiy ta’siri natijasida yuz bergan ba’zi bir kamchiliklarni tugatish mumkin. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatni har xil turlari shakllanadi. Ularning asosiylari munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyum bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, oddiy mehnat va

o‘quv faoliyatlaridan ta’lim va tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni bolalar o‘zlari mustaqil o‘zlashtira ololmaydilar. Ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida asta-sekin o‘zlashtirib boradilar. Bolalarning har xil faoliyatlarni muvaffaqiyatli egallab olishlari asosan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya ishining tashkil etilishiga bog‘liqdir. Kishi hayotining dastlabki faoliyatidagi eng oddiy turi undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar asosida ma’lum bir munosabatni shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Harakat usullarini egallab borish orqali faollik rivojlanib boradi. Faollikdan esa qay darajada rivojlanib borish ko‘proq irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog‘liq.

Birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog’liq ko’nikma va malakalar hosil bo’ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug’ma kamchiliklar ham bartaraf etilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo’qotish mumkin. To’rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi yoki yo’q qilishi mumkin. Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta’sir ko’rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta’siri tarbiya asosida kechadidir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya yetakchi o’rinda turadi. Tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir bir qancha yondashuvlar mavjud.

Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo’lib, uning butun xatti harakatlari tug’ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo’ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug’iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta’siri ostida ijtimoiylashadi.

Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo’nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi. Bog‘cha yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muxit bilan bo‘ladigan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola bog‘cha yoshiga etgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod

bo‘lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi[4].

Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo’lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o’ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta’sir ko’rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o’ynaydi.

Bola psixologiyasining rivojlanishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi. Shuning uchun u uzoq vaqt davomida o’zi qiziqqan narsasi bilan shug‘ullanishdan charchamaydi. Bu esa, o‘z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixologik jarayonlarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova.Sh.A.Maktabgacha pedagogika. Darslik. Tafakkur bo‘stoni 2013y

2. Е.А.Мелникова Социализация старших дошкольников на этапе подготовки их к школьному обучению 2009

3. Jumaev E. “Ommaviy madaniyat”ning zararli oqibatlari // “Jamiyat va boshqaruv” jurnali, 2008-yil, 4-son. 30-bet.

4. Kipchakova, Y. (2021). Methodological and didactic aspects of information and intellectual culture in the education of a developed generation. Экономика и социум, (6-1), 156-159.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolalar psixologiyasi va ularning o‘rganish yo‘lida nimalarga e’tibor berish kerakligi va bolaning o’ziga xos xususiyatlarga, xarakter temperamentga ega bo’lgan noyob shaxs ekanligini, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo’lgan ba’zi psixologik xususiyatlar haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается детская психология в дошкольных организациях и на что обращать внимание на пути их обучения и что ребенок-уникальная личность с определенными особенностями, характером темперамента, а также некоторыми психологическими особенностями, присущими дошкольникам

SUMMARY

This article covers the psychology of children in preschool educational organizations and what to look out for on their way to learning and whether the child is a unique person with special characteristics, character temperament, as well as some psychological characteristics inherent in preschool children.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVI

Botirova L.L.
Qarshi davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: individual, ijtimoiylashtirish, muloqot, individ, ijtimoiy bilimlar, akademik bilimlar, modellashtirish, ontogenez, emotsiya, optimizm.

Ключевые слова: личность, социализация, общение, социальное знание, академическое знание, моделирование, онтогенез, эмоция, оптимизм.

Key words: individual, socialization, communication, individual, social knowledge, academic knowledge, modeling, ontogenesis, emotion, optimism.

Har bir bola maktabgacha yosh davrida o'zining individual rivojlanishida uzoq yo'lni bosib o'tadi. Ijtimoiylashtirish bolaning rivojlanishi va insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ijtimoiylashuv - bu bolaning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Maktabgacha yoshdagi bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir. Bolaning madaniyat va umuminsoniy tajribani o'zlashtirishi boshqa odamlar bilan o'zaro muloqotisiz mumkin emas. Muloqot orqali ong va yuqori aqliy funksiyalar rivojlalanadi. Bolaning ijobiy muloqot qilish qobiliyati unga kelajakda odamlar bilan birga qulay yashash imkonini beradi. Muvaffaqiyatga erishish uchun muloqot tufayli u nafaqat boshqa odamni (kattalar yoki tengdoshlari), balki o'zini ham bilib oladi.

Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Muomala va faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi:

- go'daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;
- go'daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr-rolli o'yinlar;
- ilk maktab davri-o'quv faoliyati;

– o‘smirlik davri-kasb ta’limi faoliyati;

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiy, yetakchi bo‘ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi. Bola tug‘ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o‘zlashtirib oladi. Bu esa bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o‘zlashtirishida yetakchi vazifani bajaradi

Moslashuv - bu nafaqat bolaning maktabgacha ta’lim muassasasiga dastlabki ko‘nikishi, balki kundalik hayotda ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni.

Moslashuv davrining davomiyligi ko‘p sabablarga bog’liq:

- oliy nerv faoliyati xususiyatlari va bolaning yoshi bo‘yicha;
- uning asab tizimining oldingi tayyorgarligi mavjudligi yoki yo‘qligi to‘g‘risida;
- salomatlik holati to‘g‘risida;
- bola uyda bo’lishga odatlangan muhit va u maktabgacha ta’lim muassasasida bo’lgan muhit o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilikdan;

Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar bola tushunmovchilikka duch kelgan va uning mazmuni uning qiziqishlari va istaklariga mos kelmaydigan muloqotga jalb qilishga urinishgan hollarda yuzaga keladi. Bolalarni tarbiyalashda asosiy pedagogik qoidalarga rioya qilmaslik bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishidagi buzilishlarga va xatti-harakatlarning salbiy shakllarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

O‘jarlik sabablari:

- kuchli taassurotlar va tajribalar orqali bolaning asab tizimini ortiqcha rag‘batlantirish;
- avtonomiya va mustaqillikka intilish, o‘z xohish-irodasini ifoda etishga beparvo urinishlar;
- buzilgan bolaning odatiy xatti-harakati shakli;
- uning mustaqilligi va tashabbusining kattalar tomonidan qo‘pol va asossiz bostirilishiga qarshi norozilikning o‘ziga xos shakli.

Qo‘pollik, beadablik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik sabablari:

- kattalar tomonidan bolaga nisbatan hurmatsizlik;
- bolani yolg‘on, dangasalik yoki nomaqbul xatti-harakatlarda adolatsiz, qo‘pol ayblashiga munosabat.

Moslashish paytida bolaga qanday yordam berish kerak?

2-3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolaning ijtimoiy moslashuvida pedagoglar, ota-onalar va tengdoshlari faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta‘lim sharoitlariga moslashish bolaning va mehribon ota-onalarning hayotidagi oson jarayon emas, ammo ba‘zi fikrlarni inobatga olish moslashish jarayonlarini sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin.

Bola ota-onasining maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilariga ishonishini ko‘rishi muhim (bolaning huzurida maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglar haqida faqat ijobiy fikrlar aytilishi lozim). Ota-onaning ishonchi va optimizmi bolaga o‘tadi. Avvaliga bolani dadasi bolalar muassasasiga olib borishi mumkin.

Tarbiyachi bolani tashkilotga kelgan birinchi kunida unga:

– shkaf, guruh, o‘yinchoqlar, hojatxonani ko‘rsatishi;
– yotoq xonasini, kravatini ko‘rsatishi;
– birinchi kunida bola faqat 2-3 soat davomida guruhda qoladi. Ota-onalar tarbiyachilarga farzandini olib ketish uchun kelishlarini aniq aytishlari muhim hisoblanadi.
– bolaga ota-ona qachon olib ketishi uchun kelishini (hamma sayrga chiqqanda, sayrdan qaytganda, tushlikka tayyorlanayotganda va hokazo) aytish juda muhim. Ota-ona tarbiyachi bilan birga farzandingizning bolalar muassasasida bo‘lish muddatini, bir muncha vaqt bolalar muassasasida bo‘lish imkoniyatini va bolalar bog’chasiga moslashish davrida bolaning uy jadvalini muhokama qilish kerak.

Shuningdek, ota-ona tarbiyachilarga bolasining xarakter xususiyatlari, boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi va uning maxsus odatlari haqida gapirib berishi lozim.

Ota-ona farzandi bilan xayrlashuv marosimini oldindan muhokama qilishi (Masalan: «Keling, yechinamiz, o‘pamiz, mahkam quchoqlaymiz va men ketaman»). Ajralish paytida bola yig‘lashi mumkin va moslashishning birinchi bosqichida bu bolaning normal reaksiyasi, agar ota-ona qolsa, bola o‘ziga va ota-ona unga achinishni boshlaydi. Ota-onalar ketganda, yangi muhit, tarbiyachilar va bolalar yangi kelgan bolani chalg‘itadi va u tinchlanadi. Bolaga o‘zining sevimli o‘yinchog‘ini, ota-onasining fotosuratini olib kelishga va o‘z xohishiga ko‘ra xonani bezashiga ruxsat berish mumkin.

Bolalar muassasasidagi bolaga qulay va zahira kiyim kerak (ichki kiyim, guruh kiyimlari, paypoqlar), kiyim kiyish oson bo‘lsa yaxshi bo’ladi.

Uyda ota-ona bolalar muassasasi rejimiga muvofiq kun tartibiga rioya qilishingiz kerak. Moslashuv davrida bola ko‘p sonli bolalardan, shovqinlardan, qoidalardan juda charchaydi, shuning uchun bolaga albatta dam olish, uyda hissiy tinchlik kerak, bu, birinchi navbatda, ko‘ngilochar tadbirlarning yo‘qligi, televizor ko‘rishni cheklash, o‘ynashni cheklash bilan bog‘liq. Massaj,

tinchlantiruvchi sokin musiqa, rasm chizish, modellashtirish, ko‘ngilochar o‘yinchoqlar, parkda sayr qilish va hokazolar bolalarning dam olishlari uchun juda foydali.

Ota-onalar farzandining bolalar muassasasidagi faoliyatiga imkon qadar ko‘proq qiziqish bildirishi, uning hikoyalarini diqqat bilan tinglashi, u olib kelgan chizmalar va rasmlarni saqlashi; qiziqish va harakatga intilish tarbiyachilari bilan yaqin aloqada bo‘lish va muntazam ravishda suhbatlashishi kerak. Pedagog ota-onaga farzandi haqida ular sezmagan va bilishga qiziqadigan ko‘p narsalarni aytib berishi mumkin. O‘z navbatida, tarbiyachi bilan suhbatlashish orqali bolaning nima bo’layotganiga munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam berishi va kattalar xatti-harakati uchun eng yaxshi variantni topishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ijtimoiy hayot talablari, ya‘ni axloqiy meyyorlarni bajarish yoki bajarmaslikka bog‘liq ravishda muayyan kechinmalar yuzaga keladi. Burch hissining ilk bor namoyon bo‘lishi 4-5 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda mavjud bilimlar, ko‘nikma va malakalar asosida bolada axloqiy ong shakllana boshlaydi. Shuningdek, bu davrda bolalar kattalarning talablarini tushuna boshlaydi va ularning hatti harakati boshqalarning xulq atvoriga taqlid qila boshlaydi. Maktabgacha yoshda bolalarda faxr va uyat kabi kechinmalar ham paydo bo‘ladi. Faxr hissning paydo bo’lishi uchun bola ongida konkret fazilatlar bilan atrofidagilarning ularga beradigan ijobiy bahosi, ular o‘rtasida mavjud aloqadorlik haqida shakllangan tasavvurlar ichki asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, 4-5 yoshli bolalar faoliyatning har-xil turlarida erishadigon miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan birgalikda chiroyli raqsga tusha olish, tez yugura olish, axloqiy xususiyatlar bilan ota onalar faxrlanadilar. Maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib oliy hissiyotlar tabora ko’proq bola xulq-atvorining motivlariga aylanib boradi. Hissiyotlari vositasida bolalar jamiyatda o‘rnatilgan estetik axloqiy talablarga muvaffiq ravishda o‘z xoxish istaklarida, xati-harakatlarini boshqara boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya va hissiyotlaring rivojlanishi bir qator shartlar bilan bog‘liq.

Bolada ota-onaga nisbatan rashkning namoyon bo‘lishi oilada yangi farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq bo’ladi. Emotsiyalar maktabgacha yosh davrida yetakchi bo‘lgan faoliyat turi o‘yinda juda jadal rivojlanadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yetakchi, balki xilma-xil kechinmalarga keng boy faoliyat turi hisoblanadi. Hissiyotlar bola faoliyati kechadigan ijtimoiy psixologik vaziyat bilan bog‘liq. Emotsional vaziyatlar, yani kuchli kechinmalarni uyg‘otuvchi vaziyatlar yangiligi, g’ayri oddiyligi bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatdan ancha ko‘p emotsiyalarni boshdan kechiradi, buning sababi

shundaki, bolaning hayotiy tajribasi hali ko‘p bo’lmaganligi uchun ko’p narsa unga g‘aroyib va yangi bo’lib ko’rinadi. Vaziyatga ko‘ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muhabbat, xursandchilik), ham salbiy (jahl, nafrat) bo‘lishi mumkun, agar bola ehtiyojlarining qondira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi ijobiy kechinmalar (stenik kechinmalar) hosil bo’ladi. Agarda, vujudga kelgan vaziyatda bola o’z ehtiyojlarining qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, salbiy (astenik) emotsional kechinmalar paydo bo’ladi. Umuman olganda, bolalar hayotiy vaziyatlarga optimistik munosabatda bo’ladilar, ularga tetik, hayotdan mamnunlik kayfiyati xos, emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarning, shunigdek shartlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlikni shakillantirish imkonining beradi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov A. Ijtimoiy pedagogika. Buxoro, “Kamolot” 2023, 244 b.
2. Мардахаев Л.М. Соционалная педагогика. Москва, “Просвещение” 2006, 270 стр.
3. Мудрик А.В. Соционалная педагогика. Москва, “Просвещение” 2005, 183 стр.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. -T.: O’qituvchi 2016, 287 b.
5. Xasanboyeva O.U va boshqalar. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. “Ilm Ziyo” –T.: 2012, 182 b.
6. Qodirova F. va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. “Tafakkur” –T.: 2019, 686 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni, xususiyatlari, moslashuv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liqligi masalalari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрен процесс социализации дошкольников, его особенности, трудности, возникающие в процессе адаптации, причины их возникновения и их профилактика, вопросы о том, как нравственное воспитание дошкольников тесно связано с социальным развитием.

SUMMARY

In this article, the process of socialization of preschool children, its characteristics, the difficulties that arise in the process of adaptation, the causes of their origin and their prevention, the issues of how moral education of preschool children is closely related to social development are revealed.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Xamidjonova M.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta`lim, innovatsiya, kreativlik, innovatsion fikrlash, mustqil fikrlash, intelliktual rivojlanish, innovatsion ta’lim.

Ключевые слова: дошкольное образование, инновации, творчество, инновационное мышление, самостоятельное мышление, интеллектуальное развитие, инновационное образование.

Key words: preschool education, innovation, creativity, innovative thinking, independent thinking, intellectual development, innovative education.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda sohada yechimini kutayotgan bir qator vazifalar o‘z ifodasini topgan. Xususan, “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish” [1] kabi bir qator vazifalar o‘z aksini topgan.

Shu kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama o‘sishi va barkamol shaxs sifatida kamol topishiga va ularning innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Finlandiya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy va estetik rivojlanishi bilan bir qatorda, tafakkuri, dunyoqarashi, intellektual qobiliyati va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga nisbatan alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni innovatsion fikrlashga

o‘rgatish, ularni intellektual qobilyati, qiziqishi, ehtiyojlari va yosh xususiyatlariga mos har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlari va qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan muammolar yuzasidan bir qator izlanishlar olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha [2] M.V.Klarin bir qator fikrlarni keltirib o‘tgan. U o‘z qarashlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishning ijtimoiy - madaniy loyihalarini ishlab chiqish uzluksiz ta’limning sifat va samaradorligi bilan bog‘liq ekanligini ilgari suradi.

J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi “Rim klubi” ma’ruzasida innovatsion ta’limni an’anaviy, ya’ni “normativ” ta’limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsiflaydi. Normativli ta’lim “takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan” bo‘lsa, innovatsion ta’lim yangi vaziyatlarda birgalikda, hamkorlikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

P.Torrens fikricha, kreativlik muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Natijalar. Olimlarning qarashida innovatsiya rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan ijodiy mehnatning natijasi va maxsuli ekanligi o‘z ifodasini topgan. Demak, innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy - madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimi, ayni vaqtda u boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmi bo‘lib hisoblanadi [3].

“Innovatsiya” tushunchasi mazmunan “yangi”, “yangilik” tushunchalarining aynan o‘zi emas. Istalgan yangilik, qachonki, amaliy faoliyatda o‘zining keng qamrovli samarasini bersa va keng ko‘lamli ehtiyoj ob’ektiga aylansagina, tom ma’nodagi innovatsiya deb atash mumkin bo‘ladi”, degan fikrlar ilgari suriladi. [4]

Shuningdek, “innovatsion fikrlash” tushunchasi, avval yechimi bo‘lmagan masalalarning yangi, original yechimlarini o‘ylab topishga, izlanishga, imkon topishga amaliy yordam beruvchi ijodkorlik faoliyati natijasida shakllanadi.

Kreativlik - yangi g’oyalarni yaratish, yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijodiy yondashish degan ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Kreativlik - bu tamoyilning kashf qilinishi, yangilik esa tamoyilning foydali tovarlar va xizmatlarga aylanishi. Innovatsiya jarayonida g’oyalar tashkilotga qo’shimcha daromad keltiradigan real tovarlar va xizmatlar bilan ifodalanadi. Innovatsiyalar - yangi narsalar yaratish imkoniyatlarini ongli, aniq yo’naltirilgan izlanish natijasi sanaladi. Shunday qilib, «innovatsion fikrlash» tushunchasi kreativlikni o’z ichiga oladi, buning natijasida inson ilgari hech qachon hal qilinmagan yangi vazifani

muvaffaqiyatli hal etadi va bu vazifa inson ilgari ishlatmagan g'ayritabiiy, o'ziga xos tarzda hal etiladi. Innovatsion fikrlash nafaqat yangi ijodiy mahsulotni yaratishni emas, balki uni tanitish va targ'ib qilishni ham o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun avvalo ularda yangiliklarni o'zlashtirishga to'g'ri yo'naltirish, kreativ fikrlashga odatlantirish, innovatsion faolligini oshirish, qiziqishi va iqtidorini ro'yobga chiqarish, ularni ma'naviy qo'llab quvvatlash orqali maktab hayotiga sifatli tayyorlashga qaratilgan vazifalarni to'laligicha amaliyotga tadbiq qilishni ta'minlash lozim. Buning uchun tarbiyachi - pedagoglarni yangiliklarni o'zlashtirishga nazariy tayyorligini ta'minlash, ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish, yangiliklarni o'zlashtirishga motivatsion tayyorgarligi, ko'p qirrali ilmiy uslubiy ishlar tuzilishini takomillashtirish, yangi amaliy g'oyalar yoki tadqiqotlarning paradigmasi va ishlanmalari zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish lozim.

Muhokamalar: Innovatsiyaga oid pedagogik nazariyada turli mualliflarning ta'riflari asosida (innovatsiya, yangilik, yangi tartib-qoidalar) qarashlar ilgari surilgan. K.Yu.Belaya, S.F.Bagautdinova, V.S.Lazarev, A.V.Lorensov, M.M.Potashnik, O.G.Xomeriki va boshqalar, ushbu tushunchalarni guruhlashtirib, "yangi - yangilik", "innovatsiya - yangilik kiritish" so'zlarini sinonim hisoblashgan. Yangilik bu - aynan yangicha yondashish, vosita, yangi usul, uslub, texnologiya, dastur va h.k. Innovatsiyalar - yangiliklar bu - ushbu vositalarni o'zlashtirish jaryoni sanaladi. Yangiliklar yuqorida qayd etilgan mualliflar tomonidan maqsadga yo'naltirilgan o'zgarish, muhitga yangi mustahkam tarkibiy qismlarni (yangiliklarni) kiritib, tizimni bir holatdan ikkinchisiga o'tishini yuzaga keltiradi. "Innovatsion jarayon"ga ta'rif berganda, K.Yu.Belaya, V.S.Lazarev, M.M.Potashniklar "faoliyat" turkumini (kategoriya)sidan foydalanishadi. Innovatsion jarayon bu - yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va targ'ibot qilishdir [57] [127] [154].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy-metodik jihatdan boyitish va ularni intellektual rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan D.A.Abdurahimova, M.K.Abduhakimova Z.Azizova, M.Asqarova, N.X.Begmatova, U.Bo'taeva, F.N.Vaxabova, D.T.Mahmudova, kabi pedagog, psixolog va faylasuflar tomonidan tadqiq qilingan.

Jan Piaje , Selesten Frene , A.Inizan, J.Kalmi , M.Montessori , O.Dekroli, P.Kergomar, S.Bendjamin singari olimlar bolalarning erkinligini ta'minlash zarurligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Ularning fikricha ruhiyati erkin bo'lmagan bola mustaqil fikrlay olmaydi. Buni dunyo miqyosida pedagog-mutaxassislar bundan ikki asr oldin o'z tadqiqotlarida alohida ta'kidlab ko'rsatib o'tishgan. Ularning asarlarida qayd etilishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi shart-sharoit imkon qadar oiladagi sharoitga yaqinlashtirilishi, o'qitish metodlari esa maksimal darajada muomala-muloqotning tabiiy asoslariga tayanishi lozim.

Xulosa: Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bolalarning dunyoqarashi, tasavuri, tafakkuri, qiziqishi, mayllari, mustaqil fikrlashi, intelektual qobiliyati orqali amalga oshirish jarayonlarini inobatga olish ko‘zlangan maqsadga erishishda o‘ziga xos omil bo‘lib xizmat qiladi. Har bir tarbiyachi-pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarlarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi deb ta’kidlash bejiz emas. Tarbiyachi mashg‘ulotlar jarayonida muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, bolalarning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga, topqirlik, zukkoligini tarkib toptiradigan usul va vositalardan keng foydalanishi ularning innovatsion fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarlarning muammoli masalalarni yechishga o‘rgatish, ularni nafaqat innovatsion fikrlashga balki mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan muammolarni anglab yetishga va ularni bartaraf etishga o‘rgatib boradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida farmon. 30.09. 2017 y., PF-5198. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/17/5198/0043-son.

2. Qodirova F.R.,.Toshpo‘latova Sh.Q,. M.N..A’zamova .Maktabgacha pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.:Ma’naviyat, 2013- 157 b.

3. Горбылева. Е.В. Воспитательные сенности в педагогическом наследии. Дисс. кан.пед.наук. Смоленск.: 2002.-199 с.

4. Kozlova S.A.,KulikovaT.A. Doshkolnaya pedagogika: Ucheb. posobie dlya stud. sred. ped. ucheb. zavedeniy.-3-ye izd.,isprav.i dop. - M.:Izdatelskiysentr «Akademiya»,2001. - 416 s

5. Qodirova F.R., Jo‘raeva N.T. Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. O‘UM. TDPU huzuridagi XTXQTMOXM.T.:2018

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning mohiyati va uni amaliyotga tatbiq qilishning samaradorligi haqida fikr va mulohazalar kiritilgan bo`lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning mazmuni sifatida, didaktik o‘yinlardan foydalanilishi va maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье собраны мысли и комментарии о сущности формирования навыков инновационного мышления у детей дошкольного возраста и эффективности его реализации, даны предложения и рекомендации по формированию навыков инновационного мышления.

SUMMARY

This article collects thoughts and comments about the essence of developing innovative thinking skills in preschool children and the effectiveness of its implementation, and provides suggestions and recommendations for developing innovative thinking skills.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITILISHINING DIDAKTIK AHAMIYATI

Jumayev F.A.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika
instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,
Raximova L.B.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: konseptual, didaktik, metod, janr, xarakter, DTS, obraz, personaj, diolog, xatboshi,kreativ.

Ключевые слова: концептуальный, дидактический, метод, жанр, характер, ДТС, образ, характер, диолог, абзац ,креатив.

Key words: conceptual, didactic, method, genre, character, DTS, image, character, diologist, paragraph,creative.

Buyuk mutafakkir, jadid adabiyotining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat shunday yozadi: “Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar [Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. 2021. N.Ismatova va boshqalar .b-15].

Darhaqiqat, bola kamolotida ta’lim jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish , ta’limda metod va uslublardan o‘rinli foydalanish o‘qitishning konseptual asoslaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Binobarin, ta’lim-o‘ziga xos uzluksizlikni talab etuvchi jarayon. Bu jarayonda bolaning yosh xususiyatlari, tashqi muhit bilan aloqasi, oilaviy munosabatlardagi o‘rnini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Mashhur bolalar adibi Antuan-De-Sent Ekzyuperi, jumladan, shunday yozadi: “Bu dunyoda faqat bir muammo bor-odamlarga hayotdan ma’naviy qoniqish hissini qaytarish kerak. Ma’naviy boyliksiz qalb toshga aylanur… Komillikka yo‘naltirilgan didni tarbiyalamoq kerak [B.To’xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi T-2020. b-3].

Aslida ta’lim va tarbiya bir-biri bilan bog‘liq tushunchalar bo‘lib hisoblanadi. Adabiyot esa, ayniqsa, bolalar adabiyoti bu borada tarbiyaning ilk mezonlarni qamrab oladi.

Aytaylik, boshlang‘ich sinflarning DTS asosidagi ish rejalarida didaktik xarakterdagi afsona va rivoyatlar beriladi. Bu singari hajm jihatdan kichik, ammo tarbiyaviy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadigan bu kabi janrlar o‘quvchilarda yaxshigina qiziqish uyg‘otishi barobarida ularda tarixga oid bilim va ko‘nikmalarni ham shakllantirishga yordam beradi. Bunday afsonalardan “To‘maris” va “Shiroq” kabi asarlarni olish mumkin. Bu har ikkala afsona ham umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarida o‘qitilishiga qaramay, o‘quvchilar mazkur asarlarini yuqori sinflarda ham yaxshi eslay olishadi.

Boisi, asarlardagi sujetning qiziqarliligi, ta’sirchanligi, ertak janri singari oson o‘qilishida deb o‘ylaymiz. Bolalar adabiyotida obrazlar tasvirida ham ijodkorlar o‘ta sodda, tushunarli tasvir yo‘nalishini tanlaydilar. Personajlar o‘rtasidagi diologlar ham qisqa va ta’sirli bo‘ladi.

Shuning uchun asarni xatboshilarga bo‘lib tahlil qilinganda ham qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Binobarin, tahlil jarayonida o‘qituvchi asosiy rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida ijodiy fikrlash -yozma nutqni rivojlantirishning bosh omili. Bu haqda Abu Nasr Farobiy shunday deydi: “O‘qituvchi aql- farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishini uddalamog‘i lozim. O‘qituvchining vazifasiga aynan o‘xshashlik dono davlat rahbarida mavjud, xolos. Shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim” [Namunali o‘qish haqida. Abu Nasr Farobiy. 328-329-bet]

Masalan, boshlang‘ich ta’limning ilk bosqichlarida, aynan, 3-sinflarda DTS asosidagi ish rejada Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag‘ishlangan rivoyat beriladi. Rivoyatning nomi “Bobur va kabutar” deb ataladi.

Garchi rivoyat juda qisqa diologlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, badiiy matn mavzu jihatdan ham, lisoniy jihatdan ham bolalarga tushunarli va ibratli sujetga ega.

Mazkur rivoyat orqali o‘quvchilar asardan tarbiyaviy jihatni o‘rganish barobarida tarixiy shaxslar haqida ham ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Masalan: Umarshayx Mirzo, Bobur Mirzo haqida.

Shuningdek, ushbu darslikdan yosh ijodkor Go‘zal Begimning “Opa-singil daryolar” adabiy ertagi ham o‘rin olgan. Bu adabiy ertakda ham ahillik, insonlarga ezgulik ulashish, atrofni bog‘-rog‘larga aylantirishga bel bog‘lagan

uch opa-singillar: Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari haqida juda ta'sirli ertagi o'rin olgan.

Aslida daryo nomlarining uch opa-singil tarzida berilishi orqali O'zbekiston-ona Vatanimizning geografik jihatdan qanday daryolarga ega ekanligi ko'rsatib berilsa, ularning ezgu ishlari orqali o'quvchilarda tarbiyaviy ahamiyati tushuntiriladi. Shu mavzuning o'zi orqali ham suvni qadrlash, isrof qilmaslik haqida mulohazalarni o'rtoqlashish mumkin.

Boshlang'ich sinf maktab dasturlarida beriladigan matnlar nafaqat nutq o'stirish va o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi, balki ularni tabiatga, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bolalar adabyotining, ayniqsa, umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida o'qitishi o'quvchilarda ijodkorlikni, nutq o'stirishdagi ahamiyatini, kreativ fikrlash jarayonini takomillashtirishda yordam beradi.

Faqat o'qituchining vazifasi xoh u dars jarayonida bo'lsin, xoh sinf soatlarida, xoh sinfdan tashqari o'qiladigan asarlar tahlilida bo'lsin badiiy matnlarni to'g'ri tanlay olish va ularni o'quvchilarga metodologik jihatdan imkon qadar oson yetkazib berishi lozim. Imkoni bo'lsa, albatta, o'quvchilarning o'zlariga ham savol va topshiriqlar beriladi.

Bundan ko'rinadiki, badiiy asarning o'zaro tahlili va nutq o'stirish muammolari o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning, ulardagi badiiy-estetik didni rivojlantirish yo'lidagi harakat va yaxlitlikning asosidir.

Adabiyotlar:

1. Adabiyot o'qitish metodikasi B.To'xliyev. T-2020. b-3
2. Namunali o'qish haqida. Abu Nasr Farobiy. 328-329-bet
3. Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. 2021. N.Ismatova va boshqalar .b-15.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyoti o'qitilishining tarbiyaviy-didaktik ahamiyati, shuningdek, bolalar adabiyotining lisoniy xususiyatlari borasida fikr yurtiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается воспитательно-дидактическое значение обучения детской литературе в начальных классах, а также языковые особенности детской литературы.

SUMMARY

This article reflects on the educational and didactic importance of teaching children's literature in elementary grades, as well as on the linguistic features of children's literature.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ИННОВАЦИОН БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИНИНГ ЗАРУРАТИ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ ХУСУСИДА

Тиркашова Г.Б.
Чирчик шаҳар Мактабгача ва мактаб таълими бўлими тасарруфидаги 26- сонли умумий ўрта таълим мактаби директори

Таянч сўзлар: инновацион бошқарув, педагогик инновациялар, инновацион фаолият, бошқарув фаолияти, таълим, модернизация, динамика, ижтимоий-иқтисодий жараён, эҳтиёж, инновация, менежмент.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, педагогические инновации, инновационная деятельность, управленческая деятельность, образование, модернизация, динамика, социально-экономический процесс, потребность, инновации, менеджмент.

Key words: innovative management, pedagogical innovations, innovative activity, management activity, education, modernization, dynamics, socio-economic process, need, innovation, management.

Ҳозирги вақтда замонавий сифатли таълим ва жамият ривожланиши истиқболлари орасидаги боғлиқлик яққол кўзга ташланади. Ривожланишнинг инновацион йўлига ўтган мамлакат учун таълим тизимига олға қараб силжиш учун рағбатлантиршни бериш ҳаётий жиҳатдан муҳимдир. Бу шу ҳақида хулоса чиқаришга имкон берадики, таълим тизимида инновацион жараёнларнинг сабабларини, тузилмасини, динамикасини ва эҳтимолий келажагини тадқиқ қилишга мавжуд ижтимоий буюртма шакллангандир. Мазкур ижтимоий буюртманинг субъектлари бўлиб ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устивор йўналишлари қаторига инновацион фаолиятни ҳам қўшган давлат; умуман олганда, ривожланишнинг инновацион йўлини танлаб олган ва унинг асоси сифатида умумий таълимнинг ривожланишига ўткир эҳтиёж сезаётган бутун жамият; ҳозирги ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларда талаб кучли бўлган сифатли таълимни олишидан манфаатдор бўлган оила; шахсий салоҳиятини

юзага чиқариши ўзи ўқийдиган мактабнинг таълим имконятларига боғлиқ бўладиган ўқувчи саналадилар.

Сўнгги ўн йилликларда рўй бераётган ижтимоий-иқтисодий жараёнлар таълимда янгича ёндашувларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш йўли билан умумтаълим мактабларини модернизациялашнинг йўллари излаб топилишини рағбатлантирди. Бунга эришиш бошқарув сифатини ошириш орқали мумкин бўлиб, унинг кўрсаткичи сифатида таълим фаолиятининг инновационлиги саналади.

Бугунги ижтимоий ва иқтисодий шароитларда инновационлик асосан таълим фаолиятининг аниқ ва уйғун ҳолда ташкил этилишига боғлиқ бўлади. Мана шунга боғлиқ ҳолда бош роль энг аввало, ташкилот раҳбарига ажратилади, чунки, айнан унинг касбий ва шахсий сифати бутун таълим жараёни қанчалик самарали ташкил этилганлиги боғлиқ бўлади. Фақат таълим муассасаси раҳбари раҳбарликнинг тўғри фаолиятини танлаш орқали таълим муассасасидаги инновацион жараёнларга самарали таъсир кўрсатиши мумкиндир. Бу борада мос ҳолдаги бошқарув фаолиятининг шакллантирилиши ҳисобига умумтаълим мактабининг барқарор инновацион ривожланишини таъминловчи бошқарув киши, жамият ва давлатнинг манфаатлари йўлида замонавий таълимни ривожлантиришнинг объектив эҳтиёжи бўлиб ҳисобланади.

Бунга таълим муассасасини ривожлантиришнинг стратегик мақсади сифатида унинг инновацион типдаги муассасага айлантирилишини, тактик мақсад сифатида эса шунга мос ҳолдаги бошқарув фаолиятини танлаб олиш йўли билан эришиш мумкин. инновацион жараёнлар устидан самарали бошқарув энг аввало, муаммолари ҳал қилиш методологиясининг асосланганлиги, методологик ёндашувнинг мослиги, яъни, бошқарув фаолияти тадқиқотнинг таянч тушунчалари, тамойиллари ва методлари жамланмаси сифатида мос ҳолдаги назарий-методологик асосда қурилиши билан белгиланади.

Мактабнинг инновацион ривожланишини бошқаришни такомиллаштириш учун энг аввало, “инновация”, “инновацион жараён”, “инновацион фаолият”, “инновацион салоҳият”, “инновационн ресурс” каби тушунчаларнинг моҳиятини англаб олиш лозим бўлади.

“Инновация” тушунчаси биринчи бор XIX асрда маданий антропология тадқиқотларида пайдо бўлди ва бунда у бир маданиятнинг иккинчи маданиятга айрим элементларнинг киритилишини англатар эди. Бундай ёндашув маданиятдаги ўзгаришларни вақт ва маконда турли хил тезликда борадиган диффузия жараёни сифатида олиб қаралар эди. Инновация

одатда “нуқсон”, берилган этнос учун “универсал” бўлган нарсаларнинг бузилиши деб қабул қилинар эди. Анъаналардан ташқарига чиқувчи нарса инновация бўлиб саналади ва бундай позиция бугунги кунларда ҳам ҳалигача кенг тарқалгандир.

Инновациялар муаммосини ишлаб чиқиш борасида ижтимоий-иқтисодий тадқиқотлар соҳасида катта тажриба тўплангандир. Турли хил олимлар бу тушунчани ўз тадқиқотларининг объекти ва предметидан келиб чиқиб талқин қиладилар. Инновацияларни тадбиркорлик руҳи билан мотивацияланган ишлаб чиқариш омилларининг илмий-ташкилий комбинацияси сифатида талқин қилиш мумкин. Инновацияларнинг ички мантиғида иқтисодий ривожланишни динамиклаштиришнинг янги ҳолати деб қараш мумкин.

Б.Сантонинг фикрга кўра, инновация – бу шундай ижтимоий (техник-иқтисодий) жараёнки, у орқали ғоялар ва ихтиролардан амалий фойдаланиш ўз хоссалари бўйича энг яхши буюмлар, технологияларнинг яратилишига олиб келади.

Лекин вақт ўтиши билан жамият турмуш фаолиятининг барча соҳаларида инновацияларнинг сифат хусусиятларини баҳолаш муаммоси юзага келди, бу ўзгаришларни эса фақат иқтисодий назария доирасида аниқлаш мумкин бўлмай қолди. Шунинг учун инновацияларнинг тадқиқотлари бошқача ижтимоий соҳаларда, тизимларда ва институтларда ҳам амалга оширила бошланди. Хусусан, бизнинг мамлакатимизда таълим тизимидаги инновациялар муаммоси ҳақида XX асрнинг 80-йилларидан бошлаб сўз юритила бошланди. Бу даврда инновация деганда анъанавий таълим тизимига киритиладиган исталган янги ғоя, янги метод ёки янги лойиҳа тушунила бошлади. Бошқачасига айтганда, дастлаб инновациялар анъаналарга қарама-қарши қўйила бошлади. “Инновациялар” ва “анъаналар” – таълим мазмуни, таълим тизими ўзгаришлари жараёнларини таҳлил қилишда дастлаб келиб чиқиладиган бинар позиция мана шундан иборат эди.

“Таълимдаги инновациялар” ва “педагогик инновациялар” тушунчалари синонимлар сифатида педагогик инноватиканинг категориал аппаратига илмий жиҳатдан асосланиб, киритилди. Лекин, А.В.Хуторскийнинг таълимдаги инновацияларни учта – ижтимоий-иқтисодий, психологик-педагогик ва ташкилий-бошқарув жиҳатларидан олиб қараш мумкинлиги ҳақидаги фикри билан келишган ҳолда, биз педагогик инновациялар бу санаб ўтилганлар ичидан фақат иккинчи жиҳатига тегишли деб ҳисоблаймиз.

Умумтаълим муассасасидаги инновацион фаолият ҳам янги методлар, методикалар, воситалар, технологиялар, ўқув дастурлари ва шу кабиларнинг яратилишига, ҳам уларни ўзлаштириш, улардан фойдаланиш ва уларни тарқатишга йўналтирилади. Шунинг учун шартли равишда инновацион фаолиятнинг қуйидаги турларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

1) таълим янгиликларини яратиш, ишлаб чиқиш ўйича фаолият (яратувчанлик ёки назарий);

2) таълим янгиликларини ўзлаштириш бўйича фаолият (прагматик);

3) таълим янгиликларидан фойдаланиш бўйича фаолият (амалий);

4) таълим янгиликларини тарқатиш бўйича фаолият (тарғиботчилик).

Инновацион фаолиятнинг ҳар бир тури инновацион жараённинг маълум бир босқичи билан боғланган. Инновацион фаолиятни агар янги воситанинг ўзлаштирилиши умумтаълим муассасасини ривожлантириш вазифаларини ҳал қилишга имкон берадиган бўлса, муваффақиятли деб ҳисобланиши лозим.

Лекин инновацион фаолиятни фақат умумтаълим муассасасини ривожлантириш бўйича фаолиятга боғланадиган бўлса, у ҳолда янгиликларнинг туғилиши, ишлаб чиқилиши, фойдаланилиши ва тарқатилишидаги ички таркибий қисмларни, айнан олганда эса таълим жараёнига шахсий қарашларнинг қайта ўзгартирилиши бўйича ички ишларни кўздан қочирамиз. Мана шундай ёндашув шуни билдирадики, исталган инновацион фаолият субъектлидир. Таълим муассасалари даражасида инновацион фаолиятнинг субъекти бўлиб педагогик жамоа саналади. инновацион фаолиятда кўп нарсалар унинг субъектларида у ёки бу типдаги қадриятлар, қарашлар, эътиқодлар, мотивлар ва манфаатларнинг жамланмаси мавжудлигига боғлиқ бўлади.

Инновациялар ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолмайди, улар илмий изланишларнинг, айрим ўқитувчилар ва бутун жамоанинг илғор педагогик тажрибаларининг натижаси бўлиб ҳисобланади. Ҳозирги вақтларга келиб кўплаб таълим амалиётлари, шу жумладан умумтаълим мактабларидаги амалиётлар ҳам шу даражада мураккаблашиб кетиб, тез-тез турли хилдаги янгликларга дуч келинмоқдаки, янгиликларни жорий қилиш ўтган даврлардагига қараганда стихияли тарзда амалга ошмай қолмоқда, оддийгинасига кўчириб қўя қолиш ўрнига эндиликда рациональ бошқарувни талаб қилмоқда. Мана шунга боғлиқ ҳолда XX аср охирларига келиб илмфан ва амалиётнинг янги тармоғи – ижтимоий инновацияларни бошқариш юзага келди.

Бошқарув – бу барча субъектларнинг ташкилотнинг пайдо бўлиши, барқарорлашуви, оптималь амал қилиши ва албатта ривожланишини таъминловчи мақсадга қаратилган фаолиятидир. Мазкур таъриф иккита муҳим моментни қайд этади: биринчидан, исталган бошқарув мақсадга қаратилган фаолиятдир; иккинчидан, бошқарув қолган фаолият турларидан ўзининг мақсади билан фарқ қилади. Лекин бу таъриф ўзига хос фаолият сифатида бошқарувнинг мазмунидаги хусусиятларни тўла ёритиб беролмайди. Ҳозирги замон шароитларида мактабни бошқариш мураккаб жараён бўлиб, унинг таркибий қисмлари бўлиб мақсадлар ва вазифаларни танлаб олиш, ўқув-тарбиявий ишларнинг эришилган даражасини ўрганиб чиқиш ва таҳлил қилиш, ўқувчилар ва педагоглар жамоалари фаолиятини ташкил этиш, ўқитиш ва тарбиялаш даражасини ошириш учун оптимал йўлларни танлаб олиш кабилар ҳисобланади.

Мактабни бошқариш – бу ўқув фанларини чуқур ўрганиш, шахснинг ҳар томонлама ривожланиши ва касбни онгли равишда танлаб олишга тайёрлаш мақсадларида ўқув-тарбиявий жараёнларда ўқитувчилар ҳамда ўқувчиларнинг вақти ва кучларидан рационал фойдаланишга йўналтириладиган мактаб маъмуриятининг илмий асосланган ҳаракталаридир. Бу масалаларнинг ҳал қилиниши мактаб раҳбари ва педагогларнинг илм-фан ва илғор тажрибаларнинг энг янги ютуқлардан, жамоадаги ўзаро муносабатлардан, педагоглар ва ўқувчиларнинг инновационлигидан ижодкорона фойдалана олиш маҳоратига боғлиқ бўлади. Умумтаълим мактабида инновацияларни бошқариш – бу ижодий инновацион фаолиятга қобил бўлган таълим субъектлари шахсининг оёққа туришларига йўналтириладиган муносабатлар тизимининг тузилишидир.

Айни даврда умумтаълим муассасаларининг узлуксиз инновацион ривожланишини таъминловчи шарт-шароитларни назарий англаб етишга эҳтиёж ўсиб бормоқда. Бошқарув назариясининг ҳозирги замон ҳолати ташкилот ривожланишининг ижтимоий-инновацион ресурсларига – менежментнинг инсонга йўналтирилганлигига, кишиларда ўзаро ҳаракат қилишга қобилликнинг шакллантирилишига, уларнинг саъй-ҳаракатлари самарадорлигига диққатнинг қаратилиши билан тавсифланади.

Бунда умумтаълим муассасасини ташкил этиш ва бошқариш шакллари ҳамда методларининг ўзи ўқув муассасасининг педагогик жамоасидаги айрим ходимлар ва бўлинмалар орасидаги оптимал ахборотли-ишбилармонлик ўзаро алоқаларига кўмаклашувчи ва ижодий муҳитни ҳосил қилувчи ҳамда ходимларни бошқарувнинг тўғри танаб олинган фаолияти воситасида узлуксиз такомиллашиб боришга ундовчи бошқарувнинг

рационал ташкилий тузилмасининг ижтимоий-инновацион ресурси бўлиб ўртага чиқади. Бир қатор олимларнинг фикрига кўра, бунга шахсий-йўналтирилган ёки субъектли-йўналтирилган ёндашувлар орқали эришиш мумкин бўлиб, бунга кўра қанчалик кўп ходимлар қарорларни қабул қилишга жалб этиладиган бўлса, улар орасидаги муносабатлар ҳам шунчалик камроқ формал бўлиб қолади. Бир вақтнинг ўзида ташкилий тузилмаларнинг горизонталлик даражаси ортади.

Раҳбарнинг жамоа билан бундай тарзда ўзаро ҳаракат қилишидаги барқарор намоён бўладиган ўзаро алоқалардаги ўзига хослик бошқарувнинг ҳам объетив ва субъектив шарт-шароитлари, ҳам раҳбар шахсининг индивидуал-психологик ўзига хосликлари таъсири остида шаклланади.

Адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Ахлидинов Р.Ш. Мактабни бошқариш санъати. –Тошкент, Фан, 2006.–304 б

3. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Ворис, 2006. -264 б.

4. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари. - Тошкент: «Фан», 2006

5. Пўлатов Ш.П. Таълим менежменти, ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш стратегияси. Ўқув-методик қўлланма. –Тошкент: Ёш куч, 2019. -592 б.

6. Usarov J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2019. – T. 15. – №. 1. – C. 270-272.

7. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. - T.: Fan, 2011.

8. Inomov I. Iqtisodiy tarbiya nazariyasi.-T.,TDIU.2009

9. Fayzullaeva N. Ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. -T.: Fan va texnologiya, 2012.

РЕЗЮМЕ

Мақолада умумтаълим мактабларида инновацион бошқарув фаолиятининг зарурати ва имкониятлари хусусида ҳамда педагогик имкониятлар тўғрисида фикр юритилиб, тавсиялар берилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются необходимость и возможности инновационной управленческой деятельности в общеобразовательной школе, а также педагогические возможности, даются рекомендации.

SUMMARY

The article discusses the necessity and possibilities of innovative management activities in secondary schools, as well as pedagogical possibilities, and gives recommendations.

O‘QUVCHILARNI ARIFMETIK AMALLAR YORDAMIDA OG‘ZAKI HISOBLASH USULLARIGA O‘RGATISH

Nortojiyeva M. Z.
Xalqaro innovatsion universiteti
“Pedagogika va jismoniy madaniyat fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar, og‘zaki hisoblash, arifmetik amallar, algoritm.
Ключевые слова: начальная школа, учащиеся, словесная арифметика, арифметика, алгоритм.
Key words: elementary school, students, verbal arithmetic, arithmetic, algorithm.

“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros- bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu ilmsizlikdir”,- deb ta’kidlaydilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. “Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”. Biz bilamizki hayotimiz davomida juda ko‘p hisob-kitoblar bilan bog‘liq jarayonlarni boshdan kechiramiz, deyarli hamma narsa hisob kitobli. Do‘kondan xarid qilamiz, transportda yuramiz, restoranda ovqatlanamiz, ish haqi, mahsulot miqdori, aholi soni va hakozolar. Bu jarayonlarga har bir shaxsning ongli munosabat bildirishi uchun og‘zaki hisoblash malakalariga ega bo‘lish juda muhim. Ko‘pchilik insonlar oddiy amallarni ham telefonga o‘rnatilgan kalkulyator yordamida bajaradi, ammo biz ko‘proq miyada hisoblagan insonlarga qoyil qolamiz.

Arifmetik amallar bilan berilgan ko`pgina misollarni og‘zaki hisoblash to‘rt yillik boshlang‘ich ta’limda keng o‘rgatiladi. Quyida bir nechta og‘zaki hisoblash algoritmlar bilan tanishamiz:

43+9 ni qanday oson qo‘shiladi?

Eng qulayi 43 ga 10 ni qo‘shamiz va 53 ni hosil qilamiz, hamda 1 ni ayiramiz. Natija 52 ga tengdir. Demak, songa 10 ni qo‘shish qulaydir, ya’ni 32 ga 10 ni qo‘shish va 42 ni, 45 ga 10 ni qo‘shish orqali 55 ni hosil qilish.

Og‘zaki qo‘shish qoidasi quyidagicha:

Songa 9 ni qo‘shish uchun, unga 10 ni qo‘shib, natijadan 1 ni ayirish kerak, songa 8 ni qo‘shish uchun, unga 10 ni qo‘shib, natijadan 2 ni ayirish kerak, songa 7 ni qo‘shish uchun, unga 10 ni qo‘shib, natijadan 3 ni ayirish kerak va hokazo.

Agar songa 46 ni qo‘shish kerak bo‘lsa unga 50 ni qo‘shib, 4 ni ayirish kerak, 198 ni qo‘shish uchun esa 200 ni qo‘shib, natijadan 2 ni ayirish kerak. Og‘zaki hisoblash qulay va oson bo‘lishida bundan foydalanish lozim. Demak, 146 ni qo‘shish uchun, 150 ni qo‘shib, natijadan 4 ayirish kerak, 186 ni qo‘shish uchun esa 200 ni qo‘shib, natijadan 14 ni ayirish kerak. Qo‘shishni og‘zaki bajarishga intiling. Masalan, 46 ga 9 qo‘shish uchun, 10 ni qo‘shib 1 ni ayiring. Ya’ni, dastlab 10 ni qo‘shib, natijani 1 ga kamaytirib ayting. Bunga o‘xshash misollardan ko‘plab bajaring va usulni egallab oling.

Ikki xonali sonlarni qo‘shishni og‘zaki hisoblash. Songa 36 ni qo‘shishni qanday bajargan bo‘lardingiz? 36 ni qo‘shish uchun berilgan songa 40 ni qo‘shib, natijadan 4 ni ayirish kerak. 67 ni qo‘shishni qanday bajargan bo‘lardingiz? Dastlab berilgan songa 70 ni qo‘shib, keyin yig‘indidan 3 ni ayirish kerak.

Yig‘indini og‘zaki hisoblashning quyidagicha qulay qoidasini keltiramiz:

Agar ikkinchi qo‘shiluvchini birlar xonasidagi raqami 5 dan katta bo‘lsa, u holda sondan katta 0 bilan tugagan sonni qo‘shib, yig‘indidan raqamni 10 ga to‘ldiruvchisini ayirish kerak. Agar ikkinchi qo‘shiluvchini birlar xonasidagi raqami 5 dan kichik bo‘lsa, u holda sondan kichik 0 bilan tugagan sonni qo‘shib, yig‘indiga raqamning o‘zini qo‘shish kerak.

Ikki xonali sonni og‘zaki hisoblashda sonning 10 lik xonasidagi raqamlarini, keyin esa birlik xonasidagi raqamini qo‘shish qulaydir. Agar birlik xonasidagi raqami 5 dan katta bo‘lsa uni keyingi 0 bilan tugagan son bilan hisoblab, natijadan farqni ayirishni bajarish qulaydir. Masalan, 48 ni qo‘shganda, dastlab 50 ni qo‘shib, natijadan 2 ni ayirish qulaydir.

Endi 36, 65 va 74 sonlarining yig‘indisini qaraymiz. 36 ni 40 ga almashtirib, 40+65=105 yig‘indidan 4 ni ayiramiz. 105-4=101. Endi hosil bo‘lgan yig‘indiga 70 ni 101+70=171, keyin esa 4 ni qo‘shamiz 171+4=175. Natija 175 ga teng.

Bularga o‘xshagan misollarni amalda bajarish orqali og‘zaki qo‘shish malakalari shakllanadi va katta sonlarda qo‘shishni bajarishga zamin tayyorlanadi.

Uch xonali sonlarni qo‘shish. Uch xonali sonlarni qo‘shishda ham shu metoddan foydalanamiz. 445, 694 va 792 sonlari yig‘indisini qaraymiz. Demak, to‘rt yuz qirq besh, olti yuz to‘qson to‘rt, yetti yuz to‘qson ikki sonlarining yig‘indisini topamiz. Dastlab yuzliklarni, o‘nliklarni, keyin birliklarni qo‘shishimiz mumkin. Yoki oltita kam yetti yuzga sakkizta ta kam sakkiz yuzni va beshta kam to‘rt yuz ellikni qo‘shishimiz mumkin. Jami yetti yuz, sakkiz yuz yana to‘rt yuz elliklar yig‘indisi bir ming to‘qqiz yuz ellik bo‘ladi. Bu yig‘indidan beshni, oltini keyin esa sakkizni ketma-ket ayiramiz. Natijada, bir ming to‘qqiz yuz o‘ttiz bir hosil bo‘ladi.

445+694+792=(400+50-5)+(700-6)+(800-8)=(400+50+700+800)-5-6-8 =1950-5-6-8=1931

Bunga o‘xshash misollardan zarur miqdordagisini bajarish orqali qo‘shishni bajarish avtomotizm darajasiga yetkaziladi. Qo‘shishning yana bir usuli yaxlit son hosil qilish uchun to‘ldirish va qolgan qismini keyin qo‘shish mumkin ya’ni 7 8 9 ni yig‘indi ko‘rinishida ifodalash.

13+8=13+(7+1)=(13+7)+1=20+1=21 yoki

13+8=(10+3)+8=10+(3+8)=10+11=21

Endi sonlarning ayirmasini og‘zaki topish usullarini qarab chiqamiz. Istalgan sondan 7, 8, 9 ayirishning qulay usuli:

Sondan 9 ni ayirish uchun undan 10 ni chiqarib, 1 ni qo‘shish kerak. Istalgan sondan 8 ni ayirish uchun undan 10 ni chiqarib, 2 ni qo‘shish kerak. Istalgan sondan 7 ni ayirish uchun undan 10 ni chiqarib, 3 ni qo‘shish kerak. Yaxlit sonlar ustida amallar bajarish osonroq bo‘ladi. Masalan, 63-9 ni qanday qilib oson hisoblash mumkin. Sondan 9 ni ayirishda dastlab 10 ni ayiramiz, natijaga 1 ni qo‘shamiz. Demak, 63-9 ni bajarish uchun dastlab 63 dan 10 ni ayiramiz va 53 ni hosil qilamiz, natijaga 1 ni qo‘shamiz. Natija 54 ga teng. Ayirmani topishning yana bir usuli, dastlab 63 dan 3 ni, keyin esa 6 ni ayirishni bajarish mumkin. Yana bir usul ustun shaklida ayirishdir. Natija esa bir xil. Ko‘pchilik oson ayirishni mana shu qoida bo‘yicha bajaradi va bu qoida yuqori konsentrlarda juda oson hisoblanadi. Sondan 90 ni ayirishni qanday oson hisoblash mumkin? Dastlab sondan 100 ni ayirish kerak, natijaga 10 ni qo‘shish lozim. Sondan 80 ni ayirishni qanday oson hisoblash mumkin? Dastlab sondan 100 ni ayirish kerak, natijaga 20 ni qo‘shish lozim. Sondan 70 ni ayirishni qanday oson hisoblash mumkin? Dastlab sondan 100 ni ayirish kerak, natijaga 30 ni qo‘shish lozim. Masalan, 23300 dan 70 ni ayirish uchun dastlab 100 ni ayiramiz va 23200 ni hosil qilamiz, natijaga 30 ni qo‘shamiz, 23230 hosil bo‘ladi.

Sonni 4 ga va 8 ga bo‘lish yoki ko‘paytirishda sonni ikki yoki uch marta 2 ga bo‘lish yoki ko‘paytirish misolni bajarish uchun qulaylik tug‘diradi:

48÷4=12, 48÷2÷2=12; 48×8=384, 48×2×2×2=384.

6 ga ko‘paytirish uchun 2×3=6 ekanligidan foydalanib, avval 2 ga keyin 3 ga ko‘paytirish oson, masalan: 218×6=1308 218×2×3=1308

5 ga ko‘paytirishning oson yo‘li sonni 5 ga ko‘paytirish, 2 ga bo‘lib 10 ga ko`paytirish bilan bir xil (2 ga bo‘linadigan sonlar uchun). Masalan 62×5=310, 62÷2=31, 31×10=310. Shuning uchun har doim sonni 5 ga ko‘paytirishga to‘g‘ri kelganda, uni 2 ga bo‘lib, 10 ga ko‘paytirish kifoya. Yoki 10 ga ko‘paytirib 2 ga bo‘lish mumkin: 84×5=420, (84×10):2=420.

25 ga ko‘paytirish uchun esa 4 ga bo‘lib 100 ga ko‘paytirish o‘rinli bo‘ladi:

64×25=1600 64÷4×100=16×100=1600

10 ga ko‘paytirish oson, buning uchun sonning oxiriga bitta nol qo‘yish kifoya. Sonni 10 ga ko‘paytirishdan foydalanib 9 ga ko‘paytirishning ham qulay usulini bajarish mumkin, masalan:

25×9=225 (25×10)-25=225

72×9=648 (72×10)-72=648

Ikki xonali sonni bitta xonali songa ko‘paytirishning eng oson usuli bu ikki komponentga bo‘lishdir, ya’ni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalash. Masalan, 65 =60+5 ga. Keyin har bir komponentni ko‘paytiramiz,

65×6=390 (60+5)×6=60×6+5×6=360+30=390

Uch xonali sonni ham tarkibiy qismlarga ajratib, har birini ko‘paytirib qo‘shsa osonroq bo‘ladi. 237=200+30+7

(200+30+7)×8=200×8+30×8+7×8=1600+240+56=1000+(600+200)+40+56=1896 Shuningdek, 128 ni 130- 2 sifatida ifodalab komponentlarning har birini ma’lum songa ko‘paytirib natejalarni ayirish mumkin:

128×4=512 (130-2)×4=130×4-2×4=520-8=512

Ikki xonali sonni ikki xonali songa ko‘paytirishning ham qulay usuli mavjud, biroq inson bir vaqtning o‘zida bir nechta sonni xotirada saqlab turishi va amallar bajarishi zarur.

63×85=(60+3)×(80+5)=60×80+60×5+3×80+3×5=4800+300+240+15=5355

Ko‘rib turganingizdek sonni yig‘indi ko‘rinishida ifodalash va shu yig‘indining har bir komponentini ikkinchi yig‘indining har bir komponentiga ko‘paytirib qo‘shish kerak.

Og‘zaki hisoblashning algoritmlaridan foydalanib arifmetik amallarni qulay usullarda hisoblash dars jarayonini qiziqarli o‘tishi hamda o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

48×5=(24×2)×5=24×(2×5)=24×10=240

48×50=(24×2)×50=24×(2×50)=24×100=2400

Qo‘shishning distrebutevlik (yig‘indini songa ko‘paytirish) qonuniga ko‘ra:

15×50=(14+1)×50=14×50+1×50=700+50=750

175÷5=(175×2)÷(5×2)=350÷10=35

4250÷50=(4250×2)÷(50×2)=8500÷100=85

O‘qituvchi og‘zaki va yozma hisoblashda hisoblashning qulay usullaridan foydalanishni o‘quvchilarga odat qildirsa, ular juda yaxshi natejalarga erishadilar.

32×25=(8×4)×25=8×(4×25)=8×100=800

28×25=(7×4)×25=7×(4×25)=7×100=700

O‘quvchilar imkon boricha qisqa holat tanlashiga o‘qituvchi e’tiborli bo‘lishi lozim:

84×25=(84÷4)×(25×4)=21×100=2100

96×25=(96÷4)×(25×4)=24×100=2400

9, 99 va 999 ga ko‘paytirishda sonlarni (10-1), (100-1), (1000-1) ko‘rinishlaridan foydalanish juda qulay. Distrebutevlik qonuniga ko‘ra:

354×9=354×(10-1)=354×10-354×1=3450-354=3186

652×99=652×(100-1)=65200-652=64548

42×999=42×(1000-1)=42000-42=41958

1-masala: Buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy „Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi kuni Navro‘zdir, – deydi. Agar kalendar yili hisobida 21-mart yilning 1-kuni bo‘lsa, 1-yanvar yilning nechanchi kuniga to‘g‘ri keladi?

Yechish: 21-mart yilning birinchi kuni bo`lganligi va 1-yanvar yilning nechanchi kuni ekanligi so`ralgani uchun bu ikki kun ham hisobga qo`shib olinadi. Mart oyi 31 dan qaytganligi uchun bu oyda 11 kun bor. Aprel, iyun, sentabr, noyabr oylarida 30 kundan, jami 120 kun bo‘ladi. May, iyul, avgust, oktabr va dekabr oylarida 31 kundan, jami 155 kun bo‘ladi. Hammasini qo‘shsak 11+120+155=131+155=286 kun bo‘ladi. Shunda 1-yanvar yilning 287- kuni hisoblanadi.

Javob: 1-yanvar yilning 287-kuni.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, hisoblashning qulay usullaridan foydalanish bir qator afzalliklarga ega:

- og‘zaki hisoblash usullari, murakkab harakatdan osonroq yo‘llarini topishga yordam beradi;
- og‘zaki hisoblash usullari yozma bajarishning imkoni mavjud bo‘lmagan vaziyatlarda juda qo‘l keladi;
- og‘zaki hisoblash usullari hisoblash vaqtini qisqartirishi mumkin.

– og‘zaki hisoblash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, bu qiyin hayotiy vaziyatlardan tezda chiqib ketishga yordam beradi;
– og‘zaki hisoblash texnikasi hisob-kitoblar jarayonini qiziqarliligini oshiradi;
– og‘zaki hisoblashning turli usullari yordamida kundalik hayotimizdagi hisob-kitoblar bilan bog‘liq ehtiyojlarimizga barham beramiz.

Adabiyotlar:

1. Berdiyev B.R, Matematika o‘qitish metodikasi. II kitob. (OO‘Y uchun darslik.) Qarshi. “ Fan va ta’lim ”, 2021 yil. 250 b.

2. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi.(OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol”, 2016 yil. 426 b.

3. Berdiyev B.R, “Matematika o‘qitish metodikasi” (Mustaqil ish va kurs ishlarini bajarish ta’lim texnologiyasi)O‘quv qo‘llanma Qarshi.“Fan va ta’lim” nashriyoti. 2022 yil. 208 b

4. Berdiyev B. R. “Speci¬city In The Modern Methodological Training Of Future Teachers Of Primary Education In Mathematics”// The american journal of interdisciplinary innovations and research. USA. Volume-2 Issue-7 2020. 185-189 p

5. Qosimov F.M., Hakimova M.H., Saidova U.J. Boshlang’ich sinflarda arifmetik amallarni organish metodikasi (metodik qo’llanma). Buxoro: “Durdona”, 2016-y. -100b.

6. Shodiyev R.D., Xudoynazarov E.M., Yo‘ldoshev J.T. Matematika darslarida sinfdan tashqari ishlar. O‘quv qo‘llanma. Qarshi davlat universiteti, “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2023.–172

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning og‘zaki hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirishda arifmetik amallarni og‘zaki hisoblashning algoritmlaridan foydalanish to‘g‘rida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается использование алгоритмов словесно-арифметических действий при формировании словесно-арифметических умений учащихся начальных классов.

SUMMARY

This article discusses the use of algorithms for verbal arithmetic operations in the formation of students’ verbal arithmetic skills in primary school.

ADAPTIVLIK TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Normatova N.K.
Qarshi davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi doktoranti

Tayanch so'zlar: adaptatsiya, moslashuv, moslashuvchanlik, shaxs, bola, tabiat, jamiyat, tevarak-atrof, faolyait, o'yin.

Ключевые слова: адаптация, приспособление, приспособляемость, человек, ребенок, природа, общество, среда, деятельность, игра.

Key words: adaptation, adaptation, adaptability, person, child, nature, society, environment, activity, game.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib amaliyotga joriy etilmoqda, bunga birgina misol: "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi" [1] hamda Respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirilishidir. Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim - tarbiya olishini ta'minlash masalasi Davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish, maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Sh.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-maydagi PQ - 4312- sonli qarorini imzoladi [2]. Bir so'z bilan aytganda mazkur konsepsiya maktabgacha talim tizimini rivojlantirishning

maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo‘lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Bu esa o‘z navbatida har bir tarbiyachidan kasbiy mahoratlilikka ega bo‘lishni hamda bolalarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida kechadgian turli xil adaptatsion muammolarni xal etishni toqazo etadi.

Insonning ijtimoiy hayotga moslashchanligi muammosi uzoq davrlardan buyon ko‘plab fanlarning tadqiqot obekti bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, uni ijtimoiy hayotga moslashtirish masalasi pedagogika fani oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bizga ma‘lumki, inson dunyoga kelishi bilan yorug‘ olamdagi barcha narsalarga, xususan, yorug‘likka, qorong‘ulikka, tevarak-atrofga, tabiatga, iqlimga, jamiyatga, insonlarga, fasllarga, ta’lim muasssasalariga, mahallaga, do‘stlarga, voqea-hodisalarga, axborotlarga moslashib boradi.

Insonning borliqdagi barcha narsa va predmetlarga moslasishi asosida uning ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlashi, nutqi, axloqi rivojlanib boradi. Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasini (lotincha adaptation-moslashish) ilmiy muomalaga dastlab nemis fiziologi X.Aubert tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida (1865 yil) kiritgan. X.Aubert bu tushunchani tana a’zolarning tashqi muhit o’zgarishlariga moslashishini tavsiflash uchun qo‘llagan. Fiziologiyada keng qo‘lanilgach moslashuv xususiy ilmiy tushuncha sifatida qolsada, biologiyaning boshqa sohalarida ham qo’llangan. XX asrning o’rtalaridagina moslashuv atamasi tibbiyot, kibernetika, psixologiya va boshqa fanlarda qo’llandi va hozirda umumilmiy tavsifga egadir [4;155].

Adaptatsiya tilimizga lotincha “adaptatio” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, tabiat yoki jamiyat hayotida va insonlarning ma‘naviy-ruhiy olamida kechadigan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, biror bir muhit yoki sharoitga, yangilikka mosluvini bildiradi.

Adaptasiya tushunchasi ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyasi hisoblanib, u shaxsni ijtimoiy hayot va jamiyatga moslashuvchanligini samarali tashkil etishga yordam beruvchi asosiy omildir. Shaxs o‘zini o‘rab turgan voqelikdagi barcha narsalar, jarayonlarga moslashar ekan, uning ma‘naviyati, psixologik xususiyatlari shakllanadi. Chunonchi, sezgi, diqqat, idrok, nutq, tafakkur, hayol, xotira kabining rivojlanishi natijasida shaxs ilm oladi, hunar o‘rganadi, shaxslararo muloqotga kirishadi.

Moslashuv hodisasining ko‘plab ta‘riflari mavjud: Moslashuv (adaptatsiya) – jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo‘ladigan moslashuv jarayoni adaptogenezning ma‘lum natijasi [4;105].

Moslashuv – tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma‘naviy-ruhiy olamida kechadigan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi [7;15].

Ijtimoiy moslashuv jarayoni nafaqat shaxsning yangi muhitga moslashishi balki, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini amalga oshirishi hamdir.

Shaxs yangi ijtimoiy muhitga kirib, uning to‘laqonli a‘zosiga aylanadi, o‘zini tasdiqlaydi va individualligini rivojlantiradi. Ijtimoiy moslashuv natijasida jamiyatda qabul qilingan aloqa, xulq-atvor va ob’ektiv faoliyatning ijtimoiy sifati shakllanadi, shu tufayli inson o‘z intilishlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini amalga oshiradi va o‘zini o‘zi belgilay oladi [6;55].

Pedagogika fanlari doktori N.M.Egamberdiyeva ta‘kidlab o‘tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta’lim-tarbiya ta‘sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Xulosa qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta‘sir ko‘rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir [3;120].

Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, adaptatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. Sensor adaptatsiya – organizmning turli turli xil subektiv o‘zgarishlarga moslashuvi. (Inson organizmining o‘zi yashab turgan yoki boshqa iqlim sharoitlari, ob-havo, tabiatga moslasha olishi).

2. Ijtimoiy adaptatsiya – insonning ijtimoiy muhitga faol moslashuvi (inson o‘zi ijtimoiy mavjudot sanaladi. Jamiyatda moslashish natijasida uning dunyoqarashi, ma’naviyati, tafakkuri, nutqi rivojlanib boradi).

Demak adaptatsiya shunday jarayonki, uning natijasida shaxsda quyidagi sifatlar tarkib topib boradi:

- jamiyatdagi shaxslar o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi vujudga keladi;
- uning natijasida insonlarning maqsadu-maslaklari birlashib, jamiyatni harakatga keltiradi;
- inson adaptatsiya tufayli jamiyat va tabiatga to‘g‘ri va oqilona munosabatda bo‘lishga o‘rganadi;
- shaxsning moslashganlik darajasi o‘sib borishi natijasida ma‘lum kasbda uzoq va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi osonlashadi;
- shaxsda mustaqil fikrlash, o’z qobiliyatini erkin namoyon etish, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlar tarkib topadi.

Umuman olganda shaxsda adaptivlikni qancha erta shakllantirishni boshlasak, shuncha maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki, moslashish orqali shaxsda bilim, ko’nikma va tajriba shakllanadi. Shaxsda bilim va tajribani hosil qilish esa uzoq muddat davom etadigan jarayondir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2016 yil, 29-dekabr, PQ-2707-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qarori.

3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.

4. Falsafa: ensiklopedik lug’at. – T.: “O ‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.

5. Ковалев, А. Г. Шахс психологияси. / А.Г. Ковалев - М .: Мйсл, 1973.

6. Georgieva, I.A Jamoada shaxsning moslashuvining ijtimoiy-psixologik omillari: muallif. dis. kand. psixolog. fanlar. / I. A. Georgieva - L., 1985. – 167 b.

7. Ma‘naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada adaptatsiya tushunchasining mazmuni va mohiyati hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya jarayoninin samarali tashkil etishning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqolada tadqiqotchi olimlarning adaptatsiya tushunchasiga bergan ta’riflari, munosabatlari ham yoritib o’tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье раскрыты содержание и сущность понятия адаптации и содержание эффективной организации адаптационного процесса детей дошкольного возраста. В статье также освещены определения и отношение ученых-исследователей к понятию адаптации.

SUMMARY

This article reveals the content and essence of the concept of adaptation and the content of the effective organization of the adaptation process of preschool children. The article also highlights the definitions and attitudes of academic researchers to the concept of adaptation.

POSSIBILITIES OF GAME ACTIVITIES IN THE FORMATION OF A VALUABLE ATTITUDE TOWARDS THE FAMILY IN CHILDREN OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Xo'jaqulov A.E.
Karshi state university, in Uzbekistan
Doctor of Philosophy Pedagogical Sciences (PhD), docent

Tayanch so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalash samaradorligi, birinchi qadam, ta'limni tashkil etish, o'yin faoliyati.

Ключевые слова: дошкольники, воспитанники, эффективность обучения, развитие и воспитание, первый шаг, образовательная организация, игровая деятельность.

Key words: pre-school children, pupils, effectiveness of education, development and education, first step, educational organization, game activities.

State requirements for the development of preschool children are based on the following management principles in accordance with world educational experiences:

- that all children, regardless of gender, ethnic origin, religion, social needs and cultural affiliation, health and special needs, have equal opportunities in the education system;
- children learn better through play. The game is used as a teaching tool in the educational process;
- taking into account the child's holistic perception of the environment, a holistic approach to development requirements is the basis for their development.
- the development and education of children depends on the training and professional potential of educators, the development of cooperation with children and their parents.
- all children have the potential to fulfill their demands if they are given the necessary support, encouragement, education and development.

According to the «First Step» State curriculum of the preschool educational institution approved by the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan, the purpose of the educational process is to create appropriate conditions for the formation of general basic competencies and competencies of development areas in children.

This document reflects the 4 general important competencies of a preschool age (6-7 years old) child: communicative competence - the ability to use communication tools in various situations; game competence is the child's creative use of experience, knowledge and skills in the game process and its organization, which is the basis for the educational process; social competence - the ability to behave in real life situations in communication with adults and peers, observing the rules of ethics and norms; cognitive competence - conscious perception of the surrounding world and use of acquired knowledge, skills, competences and values to perform educational and practical tasks.

G.A. Dzhanpeisova said that the main goal of games is to develop a small person, to correct his existing and manifested qualities, to direct him to the behavior of creative research. On the one hand, the child is offered «food» for action, on the other - a space for fantasy and personal creativity.

The formation of a valuable attitude towards the family in the children of the preschool educational organization can be solved through game activities. This is explained as follows:

firstly, children's game activity is not an activity aimed at producing some kind of material product. Therefore, the reason (motive) that urges children to play does not depend on the result, but on the content of various actions in the process of this game;

secondly, during the game, children are free to act as they wish, turning the things they have at their disposal into things that interest them but belong only to adults.

Children's play activities are the only didactic tool for their physical and mental development. Play is such a multifaceted activity in children's lives that adult labor, thinking about various things, imagination, relaxation, and cheerfulness are all evident in play.

It should also be emphasized that the game is not only a means of learning about things and events in the external environment, but also a powerful means of education. Together with all the mental processes of children, their individual characteristics are formed in creative and plot games. Therefore, the success of family and preschool educational activities largely depends on children's ability to organize play activities.

Children's creation of various imaginary and mythical images in play shows that a person's reflection of objects and events in the external environment is not a slow process, but an active, creative process.

The child's actions and roles during the game often have a general character. In his various games, the child reflects the behavior of the professions he is familiar with. Of course, young children who do not have enough experience will only reflect specific people and their actions in their games. For example, his mother, father, brother, tutor and so on.

And in the games of children of middle or senior kindergarten age, such images begin to have a character of generality.

The games of children of preschool educational organization are a tool for learning about things and events around them, but also have a great social value. Through children's games, it is possible to educate socially useful, that is, high human qualities. In the course of the game, all their personal qualities, interests, and their relationship to the environment are clearly manifested. Therefore, children's play activities are a convenient means of their individual learning.

It is convenient to observe the individual characteristics of children, in particular, through their team games. In these games, children reflect not only the attitude of adults to objects, but also their interactions. Also, in team games, children reflect the complex life activities of a group of people. This requires each child to use his full potential. Team play activities divided into certain roles require children to obey strict rules and perform certain tasks within the requirements. Therefore, such team games of children are of great importance mentally. Because such games educate and develop other positive qualities in children, such as willfulness, politeness, obedience to the rules of the game, and discipline.

Plot-role games at the age of senior kindergarten are distinguished by the richness and diversity of their subject. In the course of these games, children develop leadership qualities, develop organizational skills, and develop a valuable attitude towards the family.

The formation of a valuable attitude towards the family in the pupils of the preschool educational organization takes place in the following sequence:

- study of value elements;
- games with individual subjects, role-playing games with a collective plot;
- individual and group creative activity;
- family communication;
- housework.

When thinking about the play activities of the children of the preschool educational organization in the formation of a valuable attitude towards the family, it is necessary to consider their activities related to toys. When giving toys to children, it is necessary to take into account their age characteristics, levels of development and, at the same time, what they are most interested in. It is known that children of 1-3 years old have mastered the external environment very little. They cannot distinguish the color and size of many things well. Therefore, together with the doll, they should be given various colorful toys and toys. Especially girls practice by wrapping their dolls in different colored cloths and wrapping them in scarves. As a result, children develop a valuable attitude towards family and family relations.

Game activity prepares children for educational activity, which is an active form of acquiring the social experience of humanity. In order to actively acquire social experiences, the child must first of all acquire speech skills.

The formation of the valuable attitude of the children of the preschool educational organization towards the family is mainly based on the observation of the adult character of the children. Since childhood, personal characteristics such as will, independence and initiative, which are considered important, begin to develop in the child. Pupils of preschool education organization learn to communicate and interact with people around them in various activities. This will benefit them in their ability to communicate with people in the future, to effectively establish work and personal relationships. In the formation of the personality of children of this age, their opinions about their parents and their evaluations are extremely important.

Below are examples of some game activities that allow the formation of valuable relationships with the family among the children of the preschool educational organization.

Small lectures for parents. Some MTTs have lecture rooms for parents, where classes or talks (mainly for mothers) on various topics of interest to parents are held. Interviews can be conducted in small groups or individually. Below are examples of short (5-10 minute) lectures.

Children and television. Good emotional communication with adults around him is important for a child at the stage of speech formation.

Literature:

1. Абдуллаева М. Оилада мактабгача таълим ёшидаги болаларда эстетик тасаввурларни шакллантириш (услубий қўлланма). – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2008.– 91 б.

2. Абдуллаева Н. Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асосида такомиллаштириш// пед.ф.б.ф.д(PhD) илмий даражасини олиш учун автореферати –Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2019. – 25 б.

3. Абдураҳимова Д. А. Мактабгача тарбия ёшидаги болаларни ахлоқий руҳда тарбиялашда халқ эртакларидан фойдаланиш. Пед. фан. номзоди … дисс. – Т., 1998. –165 б.

4. Азизова З. Мактабгача катта ёшдаги болаларда қўғирчоқ театри воситасида ахлоқий-эстетик сифатларни шакллантириш. –Т.: Ўқитувчи, 2010. –90 б.

5. Акутина С.П. Взаимодействие педагогов и родителей в процессе воспитания духовно-нравственных ценностей старшеклассников//С.П. Акутина, В.В. Николина // Инновационные проекты и программы в образовании, 2011, № 3, С.33-36

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarida oilaga qadriyatga asoslangan munosabatni shakllantirishda o’yin faoliyatining imkoniyatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rag’batlantirish va o’rganish uchun xavfsiz muhitni yaratish, ta’lim samaradorligi har bir bola ta’limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shartdir. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati o’yindir. To’g’ri tashkil etilgan o’yinda bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, o’quv faoliyatiga tayyorligini shakllantirish va maktabgacha tarbiyachining ijtimoiy muvaffaqiyati uchun sharoitlar yaratiladi. Shunday qilib, odob va qadriyatlar munosabatlari normalari haqida mazmunli suhbat tayyorlash va o’tkazish murakkab jarayondir. Pedagogikaga oid adabiyotlarning aksariyatida qadriyat munosabatlarini shakllantirishning ko’plab texnika va usullari mavjud. Ularning hammasi ham qimmatli munosabatlar o‘rnatishga birdek e’tibor qaratmagani kundek ayon.

РЕЗЮМЕ

Возможности игровой деятельности в формировании ценностного отношения к семье у детей дошкольной образовательной организации. Создание безопасной среды для поощрения и обучения детей дошкольного возраста, эффективность образования является необходимым условием достижения каждым ребенком успеха на последующих этапах обучения. Таким образом, ведущей деятельностью дошкольников является игра. В правильно организованной игре создаются условия для развития физических, психических и личностных качеств ребенка, формирования готовности к учебной деятельности и социальной успешности дошкольника. Таким образом, подготовка и проведение содержательной беседы об этикете и нормах ценностных отношений – сложный процесс. В большей части литературы по педагогике встречается множество приемов и приемов формирования ценностных отношений. Ясно как день, что не все из них одинаково сосредоточены на построении ценных отношений.

SUMMARY

The creation of a safe environment for encouraging and learning preschool children, the effectiveness of education is a necessary condition for every child to achieve success in the next stages of education. Thus, the leading activity of preschool children is play. In a properly organized game, conditions are created for the development of the child’s physical, mental and personal qualities, the formation of readiness for educational activities and the social success of the preschool child. Thus, preparing and conducting a meaningful conversation about the etiquette and norms of valuable relationships is a complex process. In most of the literature on pedagogy, there are many methods and methods of forming valuable relationships. It is clear as day that not all of them are equally focused on building valuable relationships.

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

TA’LIM TIZIMIDA O‘QUVCHILARGA RANGSHUNOSLIK TARIXINI O’RGATISH

Gulmurodova D. M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Sanatshunoslik fakulteti, Tasviriy san’at va dizayn, kafedrasi “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Tayanch so’zlar: rangshunoslik, rang, iliq ranglar, sovuq ranglar, rang uyg’unligi, kompozitsiya, xromatik ranglar, axromatik ranglar, asosiy ranglar, yordamchi ranglar, yorug‘lik, masofa.

Ключевые слова: цветоведение, цвет, теплые цвета, холодные цвета, цветовая гармония, композиция, хроматические цвета, ахроматические цвета, основные цвета, вспомогательные цвета, свет, расстояние, эффект.

Key words: flower Science, color, warm colors, cool colors, color harmony, composition, chromatic colors, achromatic colors, primary colors, light, distance effect.

Respublikamizda yuqori malakali va ma’rifatli kadrlarni yetishtirish va ilm sohiblari safini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda.

Keyingi qisqa muddat davomida, mamlakatimizda Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan ilm-fan va texnika taraqqiyotiga alohida e’tibor berilib, pedagoglar, olimlar va professor-o’qituvchilarning jamiyatdagi obro’li mavqeini tiklash, ularning turmush darajasini yanada oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish borasida ko’plab Farmonlar, Qarorlar qabul qilindiki, ularning bajarilishi bugunning o’zidayoq samara bera boshladi.

Hozirgi kunda shiddat bilan yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham tub islohotlar o‘tkazishni, ta’lim-tarbiyaviy ishlarni davr talablari darajasiga olib chiqishni taqozo etmoqda. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning «Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish alohida qayd qilinadi.

Milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, o‘quvchilarning estetik ongini shakllantirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, tasviriy san’atdan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qadim-qadimdan san’at vositalari yordamida o‘z hayotini go‘zal qilishga intilgan. Buni anglash uchun avlodlarimizdan meros qolgan me’moriy-madaniy yodgorliklar va tasvirlarga diqqat bilan nazar tashlash kifoya bo‘ladi. Ularning barcha-barchasini rassom, me’mor mehnati mahsuli deyishimiz mumkin.

Dunyo tan olgan, o‘lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk olim, musavvir Leonardo da Vinchi “Amaliyotga ilmsiz mehr qo‘yadigan kishilar rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o‘xshaydilar, chunki ular qayerga ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o‘rgan, so‘ngra esa shu ilm orqasidan tug‘ilgan amaliyotga murojaat qil” deya bejiz ta’kidlamagan edi.

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ularni o‘rganish uchun cheksiz inson umri kerak bo‘ladi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne’matlarning sirli olamini, sabablarini o‘rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan.

Chunonchi, “rang” atamasi to‘rtta harfdan iborat bo‘lsa-da, uning ma’nosiga va sirli olamini o‘rganishiga insonlaming umri yetmaydi.

Rangni ilmiy jihatdan o‘rganish uchun “Rangshunoslik” fani yuzaga kelgan. Rang inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda hattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar ishlab kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio shahridagi rang instituti dunyoga mashhur. Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma’noda gapirish; ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilg‘asi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo‘jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish; insonlar ma’naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o‘rganilmoqda.

Rangshunoslik fani insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan.

Ranglarning turlarini, ulaming bir-biriga nisbatan hamohangligini, kontrastligini, tusini ko‘zimiz orqali idrok qilishimizga bu fan yaqindan yordam beradi. Asosiy ranglar va qo‘shimcha, ya’ni ular yordamida hosil bo‘ladigan ranglarni his qilishimizni, ularni amalda aniqlay olishimizni mashq qilishni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Shuningdek, ranglar bilan bog‘liq kasb egalariga ham yaqindan yordam beradi.

Rang haqidagi ilmda rangshunoslar tomonidan rassomlarni qiziqtiradigan ko‘plab savollar - yorug‘lik, masofa, qo‘shni rang ta’siri, bo‘yoqlar aralashuvi va boshqalar o’rganiladi.

O‘tgan asrda rang haqidagi savollar mustaqil ilm sifatida izlanuvchi olimlaming diqqat-e’tiboriga tushdi. O‘tgan davr buyuk rassomlari va nazariyotchilari - Chekkino Chennini (1400-yillar), Leon Battista Alberti (1404-1472), Pyero della Franchesko (1416-1492), Leonardo da Vinchi (1452-1519), Djordjo Vazari (1511 1574), Djanpaolo Lomatsoo (1539-1600), Albrext Dyurer (1471 - 1528), Fransisko Pacheko (1564-1654) rangtasvir haqidagi izlanishlarini yozib qoldirganlar. Buyuk fan namoyandalaridan Nyuton (1642-1727), M.Lomonosov (1711-1765) ham rang haqida izlanishlar olib borganlar. Lomonosov asosiy ranglami kashf etdi. Buyuk nemis shoiri va tabiatshunosi Gyote (1749-1832) “Rang haqida fan” nomli maxsus asar yozib qoldirgan.

Rassomlarning rang o‘zgarish qonunlarini bilishi katta ahamiyatga ega. Rangshunoslik ijod qilish usullarini o‘rgatmasa-da, tabiatda ranglar bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tushuntirib, rangtasvirchi rassomlar ijodiga yaqindan yordam beradi.

Rang haqidagi fan eng qadim zamonlarda dunyoga kelgan. Eramizdan avvalgi IV asrda yunon olimi Aristotel rang va rangning har xil ko‘rinishini tushuntirib berishga harakat qilgan. Italiya uyg‘onish davrida yashagan olim Leonardo da Vinchi esa o‘zining “Tasviriy san’at haqida risola” asarida rassomlar uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan rang haqida ma’lumot beradi. Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo‘lg‘usi rassomlarga ranglarning tabiatda hosil bo‘lish va tarqalishi masalalarini, atrof-muhit ta’sirida o‘zgarib ko‘rinishini, bo‘yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yollarini o‘rgatadi

.O‘zbekistonda ranglar haqidagi ta’limot qadimdan kitob miniaturasi, naqqoshlik va devorlarga freska pannolar ishlash bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ish bilan bog‘liq kimyoviy jarayonlami o‘rganishga majbur bo‘lgan

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo‘lish va tarqalish hodisasi qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg‘onish davri buyuk rassomlari va nazariyotchilari — Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar. Mashhur olimlar — Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglaming mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Isaak Nyuton qator tajribalar o‘tkazib, oq yorug‘lik ko‘p ranglarga taqsimlanib ketishini isbotlagan, ekranda spektr ranglarini hosil

qilgan. Nyuton quyosh yorugligi asosida o‘z nazariy farazini amalda isbotladi. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug‘ligini uch qirrali prizmadan o‘tkazib, ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug‘lik dastasi hosil qildi. Ekranda ko‘ringan ranglar spektr ranglar bo‘lib, ular quyidagi tartibda joylashgan: qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, zangori, ko‘k va binafsha rang.

Maxsus asbob - spektroskop yordamida ko‘plab aniq va ravshan spektrlarni hosil qilish mumkin. Oq yorug‘lik aslida murakkab bo‘lib, rangdorlik jihatidan shunchalik turli- tumanki, bir rangdan ikkinchisiga o‘tishda yana bir qator rang turlari seziladi. Spektr ranglarni yomg‘ir yog‘ib o‘tgandan keyin osmonda paydo bo‘ladigan kamalakda, favvoralarda otilayotgan suv zarralarida kuzatish mumkin. Spektr ranglarni qayta bir joyga to‘plansa, oq yorug‘lik hosil boladi. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtayi nazaridan o‘rgangan bolsa, nemis shoiri va san’atshunosi I.V. Gyoteni ko‘proq ranglarning kishi tanasiga ko‘rsatadigan ta’siri qiziqtirgan, Gyote “Ranglar haqidagi ta’limot” nomli asarida ranglarni iliq va sovuq turlarga ajratib, iliq (sarg‘ish - qizil) ranglar kishida kayfichog‘lik tuyg‘usini uyg‘otishi haqida yozgan. |

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko‘p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarni - rang toni (nomi), rangning och-to‘qligi va to‘yinganligi kabi uchta asosiy alomati asosida turkumlash kerakligini ko‘rsatdi.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma’nolari, inson sog‘lig‘iga ta’siri va boshqalar haqida juda ko‘p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o‘zining “ Kitob al javohir fi ma’rifat al javohir” (Mineralogiya) asarida ranglaming 200 dan ortiq nomlarini sanab o‘tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglaming yuzdan ortiq turini ajrata olganlar.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya’ni ularning biri qizil, ikkinchisi ko‘k, uchinchisi binafsha va hokazo deb atalishiga asos bo‘lgan belgisi rang toni deyiladi. Biror xromatik rangga ozroq kulrang qo‘shsak, uning sho‘xchanligi pasayib, nursizlanadi. Bu rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uning tarkibida sof bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi, demak, rangning to‘yinganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushunish kerak. Yuqorida aytilganlardan ma’lum bo‘ldiki, xromatik ranglar bir biridan rang toni (rangning o‘zi), rangning och-to‘qligi va to‘yinganligi kabi uchta xususiyati bilan farq qiladi. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning

eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasidagi o‘xshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo‘shilsa, ularning oralig‘ida qirmizi rang hosil bo‘ladi. Bu hosil bo‘lgan rangni qizil, binafsha rangning o‘rtasiga joylashtirib spektr tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Bu rangshunoslikda ranglar aylanasi deb yuritiladi.

O‘quvchilarda rangshunoslik va rangtasvir sohalari haqida chuqurroq tasavvur uyg‘otish, rang tanlashda o‘quvchilarning mahoratini oshirish, rang bilan ishlashni teranroq talqin qilish, shuningdek, ranglar tarixiga murojaat qilish, ularning tabiati haqida kengroq tushuncha berish, rang tanlash sohasida ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘llarini tushuntirish, ranglarni bir biridan ajrata bilish, tus holatlarini sezish va maqsadli ishlata olish qobiliyatini o‘stirish, ranglarning o‘zbek tilidagi nomlarini mustahkam belgilash lozim.

Rangshunoslik fanini chuqurroq tushunish maqsadida uni boshqa bir qator fanlar, ya’ni fizika, kimyo, psixologiya, fiziologiya va estetika fanlari bilan bog‘lab o‘rganiladi. Bu o‘z navbatida rangning fizik, kimyoviy, psixofiziologik va estetik xususiyatlarini atroflicha o‘rganishga keng imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar:

1. A.Karirnov. “Ma’naviy yuksalish yo’lida” IT.Uz.nashr.1998.
2. Avliyakulova Nafisa Muzafarovna “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma.
3. Rustam Xudayberganov “Rangshunoslik asoslari” Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo’llanma.
4. Ankabaev R.T. “Rangtasvir” / elektron darslik 2021. Axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma’lumotlar bazalari uchun olingan guvohnoma (DGU 10825).
5. Ankabaev R.T. “RANGTASVIR” / o‘quv qo‘llanma. T.“ISHONCHLI HAMKOR”, 2021.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tasviriy san’atni balki butun insoniyatni qamrab olgan rangshunoslikning tarixini qisqacha mazmuni bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлен краткий обзор истории науки о цвете, охватывающей изобразительное искусство и все человечество.

SUMMARY

This article provides a brief overview of the history of color science, covering the fine arts and all of humanity.

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA BO’LAJAK TASVIRIY SAN’AT O’QITUVCHISINI BADIIY-IJODIY RIVOJLANTIRISH VA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH SHARTLARI

Baymetov B.B.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti San’atshunoslik fakulteti,
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi professori

Tayanch so’zlar: rassom-pedagog, kasbiy tayyorgarlik, badiiy ijod, badiiy tafakkur, kompetentlik, badiiy obraz.

Ключевые слова: художник-педагог, профессиональная подготовка, художественное творчество, художественное мышление, компетентность, художественный образ.

Key words: artist-teacher, professional training, artistic creativity, artistic thinking, competence. artistic image, artistic image.

Bugungi ijtimoiy hayot va bozor iqtisodiyoti xususiyatlari yangicha fikrlaydigan, mustaqil, harakatchan, ijodkor, tashabbuskor va kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishga intiluvchan mutaxassislarga talabgir. Zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim muammolari orasida yuqorida zikr etilgan kasbiy va maxsus sifatlar, xususan, badiiy ta’lim sohasida muayyan tayyorgarlikka ega mutaxassislarni tarbiyalash ustivor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik texnika va ta’lim-tarbiya berish bo‘yicha pedagogik texnologiyalar emas, balki o‘qituvchining bilimdon va ma’naviy ustoz sifatidagi shaxsi masalasi ustivor o‘rin tutishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaralsa, avvalo “o‘qituvchini ijodkor sifatida rivojlangan shaxs etib tarbiyalash muammosi ilgari suriladi” [1; 40].

Xususan, professor Larisa Mitina kasbiy rivojlanishni pedagogik mehnatda o‘sish, muhim shaxsiy fazilat va qobiliyatlar, ixtisoslikka doir bilim, malaka hamla ko‘nikmalarni ro‘yobga chiqarish va ularni tanlagan mutaxassisligi bilan uyg‘unlashtirish, insonning o‘z ichki dunyosini boyitish va shu orqali hayotiy faoliyatiga boshqacha joziba, jilo berish ma’nosida ta’riflaydi.

Faoliyat sub’ektining kasbiy rivojlanishi dinamik jarayon bo‘lib, u ixtisoslik bo‘yicha olib boriladigan mehnat faoliyatini to‘la-to‘kis qamrab oladi va muayyan bir davr bilan cheklanmaydi. Kasbiy rivojlanish muammosini o‘rganishga qaratilgan

turli yondashuvlarni tahlil qilish uning umumiy xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

- kasbiy rivojlanish - bu uzoq davom etadigan, kasb sir-asrorlarini o‘rganish muddati cheklanmagan, uzluksiz jarayon;
- kasbiy kamolot zamirida o‘z ustida ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish tamoyili yotadi;
- kasbiy rivojlanish davomida mehnat sub’ekti sifatida shaxsning muayyan xislatlari o‘zgarib boradi va u yetuk muxatassis hamda inson qiyofasini shakllantirishning uzluksiz va izchil jarayoni maqomida kechadi;
- oliy o‘quv yurtining kasbga tayyorlash tizimi juda muhim bosqich hisoblanadi va bo‘lajak mutaxassisning tanlangan sohasi bo‘yicha rivojlanishi o‘quv-kasbiy faoliyat jarayonida o‘tadi [2;94].

Oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘lajak mutaxassislarni badiiy-ijodiy va kasbiy-pedagogik jihatlar bo‘yicha tarbiyalashni nazarda tutadi. Biz bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini professional faoliyatga tayyorlashni uning kasbiy kompetentligini yagona psixologik-pedagogik va badiiy-ijodiy yo‘nalishlar uyg‘unligida shakllantirish sifatida ko‘ramiz.

Kasbga badiiy-ijodiy jihatdan tayyorlash muayyan tajribalar orttirishni talab qiladi va ular quyidagilarni shakllantirishga yo‘naltirilgan:

- turli davr va xalqlar san’ati nazariyasi va tarixini o‘rganishni nazarda tutadigan madaniy-tarixiy kompetentlik;
- san’atning turli sohalariga taalluqli badiiy ifodalash vositalari bilan ishlashni o‘rganishdan iborat badiiy-amaliy kompetentlik;
- yuksak ma’naviy-ahloqiy, estetik ideallarga tayangan badiiy did va baholash mezonlarini singdirish.

Mutaxassis kasbiy faoliyati ijodkorlik, yaratuvchanlik bilan bog‘liq bo‘lgani sababli badiiy tayyorgarlik masalasi ustivor ahamiyat kasb etadi. Biz bu jarayonni tasviriy san’at sohasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish, badiiy-ijodiy tafakkur, turli ifodalash vositalari hamda materiallar yordamida badiiy obraz yaratish sohasi bo‘yicha maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish sifatida tasavvur qilamiz.

Rassom-pedagog tayyorlashning oliy maqsadi mutaxassisligi bo‘yicha badiiy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega ijodkor shaxsni shakllantirishdan iborat. Tasviriy savodxonlik esa bu o‘rinda rassomning o‘z faoliyati mobaynida qo‘llaydigan oddiy ish vositasi rolini o‘ynaydi xolos. Ta’lim olish jarayonida orttirilgan barcha badiiy-tasviriy malaka va ko‘nikmalar yig‘indisi badiiy obrazlar yaratish, ya’ni ijodiy jarayonda unumli xizmat qiladi. Ijodkor shaxs maqomiga chiqish kasbiy mahorat sirlarini anglab yetish, tasavvur, badiiy obrazlar orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi, bu esa san’at sohasidagi kasbiy tayyorgarlikning majburiy sharti hisoblanadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisini badiiy-ijodiy komillik sari yetaklaydigan eng muhim kompetensiyalar sirasiga, nazarimizda, quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijodiy faoliyatni tavsiflovchi badiiy obraz yaratish sohasida - badiiy obrazning dunyoga kelishida muhim rol o‘ynaydigan tasviriy-ifodaviy vositalar bilan ishlashni o‘rganiish; tasviriy san’atning o‘ziga xos tilini o‘zlashtirish; turli badiiy materiallar va texnikalarni qo‘llash malakasi va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- tasviriy san’at nazariyasi va tarixi bo‘yicha bilimlarni tavsiflovchi tasviriy savodxonlik sohasida - badiiy didni rivojlantirish;
- badiiy-ijodiy ishlarni baholash mezonlari bo‘yicha bilimlarni tavsiflovchi nazorat-baholash faoliyati sohasida - o‘ziga nisbatan ishonchni oshirish, ijodiy refleksiyani rivojlantirish;
- kasbiy va shaxsiy rivojlanish sohasida - mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash, xususiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish.

Tasviriy san’at nazariyasi va tarixi yuzasidan bilim, malaka va ko‘nikmalar orttirish, pedagogik va badiiy-ijodiy faoliyat bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lish, tanqidiy tafakkur, hissiy barqarorlik, ijtimoiy kompetensiya, jamoa tarkibida ishlash salohiyati, sayqal berilgan shaxsiy zehniyat sohibiga aylanish - bularning barchasi kasbiy tayyorgarlik natijasidir.

Rassom-pedagog tayyorlashning badiiy-ijodiy va kasbiy-pedagogik yo‘nalishlari yosh mutaxassis layoqatini shakllantiradi, uning ixtisosligi bo‘yicha rivojlanishiga turtki beradi. Aytish mumkinki, badiiy ta’lim sohasida yetuk mutaxassislarni tarbiyalash ko‘p qirrali jarayondir. [3; 44], “Rassom-pedogoglarga ta’lim berish va ularni tarbiyalash tizimi aniq, ilmiy dalillarga asoslangan bo‘lishi hamda yagona maktab doirasida amalga oshirilishi lozim”. Mualliflar “maktab” atamasi ostida ta’lim-tarbiya berish bo‘yicha mukammal ishlab chiqilgan hamda badiiy amaliyot tajribasidan o‘tgan, ilmiy asoslarga ega bilim zamiriga qurilgan tizim va usullarni nazarda tutishgan. Ikkinchidan, bo‘lajak rassom-pedagog badiiy-grafika fakultetida tahsil olarkan, badiiy mahorat sirlarini chuqur o‘rganishi, o‘zida tasviriy, dekorativ-amaliy san’at sohalarida mustaqil ijodiy faoliyat olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim. Uchinchidan, talabada o‘quvchilar bilan ijodiy ishlash istagini tarbiyalash, unda bolalar badiiy ijodiga nisbatan qiziqish uyg‘otish, tasviriy san’at darslari hamda shogirdlarining maktabdan tashqari faoliyatida pedagogik jarayonni tashkil qilish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar tizimini hosil qilish kerak. To‘rtinchidan, talabalarda o‘z ichki imkoniyatlarini anglab yetish, yashirin qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish, o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish imkonini beradigan salohiyatni tarbiyalash zarur. Beshinchidan, bo‘lajak rassom-pedagog badiiy-ijodiy faoliyat natijalarini tanqidiy o‘rganish, o‘z ishini tahlil qilish hamda refleksiv baholash qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim [3; 44],

Bo‘lajak rassom-pedagogning faoliyati ijodiy ish bilan bevosita bog‘liq ekanini inobatga olib, maxsus va pedagogik tayyorgarlik yo‘nalishlarini o‘zaro uyg‘un ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Talabalarga o‘zlarida bo‘lajak o‘qituvchiga xos sifatlarni shakllantirish uchun zarur barcha imkoniyatlarni taqdim etish kerak. Ularga berilayotgan nazariy va amaliy bilimlarning pedagogik mahorat saboqlariga

yo‘g‘rilgan bo‘lishi, tasviriy san’at fanlari bo‘yicha o‘tkazilayotgan darslarning talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mashg‘ulotlaridan uzilib qolmasligiga e’tiborli bo‘lish shular jumlasidandir. Xulosa qilish mumkinki, kasbiy tayyorgarlik talabaning badiiy-ijodiy, pedagogik faoliyati mobaynida o‘zini yaratuvchi sifatida qaytadan kashf etish jarayoni kabi kechadi.

Pedagogik ijodkorlik va kasbiy rivojlanish mutaxassis mahoratini takomillashtirish asnosida kamol topadi. Pedagog shaxsining ijodiy salohiyati orttirgan ijtimoiy tajribasi, psixologiya, pedagogika va bevosita ixtisosligi bo‘yicha olgan bilimlari, yangi g‘oyalari, kutilmagan yechimlar topish va ularni amaliyotda qo‘llash malaka hamda ko‘nikmalari, yaratuvchi va kashfiyotchi ustoz sifatidagi faoliyati, o‘z kasbiy mahoratini sayqallab borish ishtiyoqidan oziqlanadi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining mutaxassis maqomida rivojlanishi uchun xizmat qiladigan badiiy-ijodiy tayyorgarligida ijodkorlik alohida o‘rin tutadi. Badiiy-ijodiy faoliyat talabalarning tasviriy vositalarni qunt bilan o‘rganishini nazarda tutadi. Bo‘lajak rassom-pedagogning ijodiy ishlarni baholash layoqati esa uning badiiy tafakkurini rivojlantirish, kasbiy kompetentligini oshirishda ko‘maklashuvchi samarali usuldir. Ijodiy ishlarni nazorat-baholash faoliyati jarayonida tahlil qilish talaba sa’y-harakatlari, uning maqsadlarini chuqurroq anglashga imkon beradi. Olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy nuqtai nazardan qayta idrok etish, badiiy-ijodiy vazifalar yechimini topish jarayoni talabalarni erkin fikrlash, qaror qabul qilish, mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Talabada bu sifatlar yaqqol namoyon bo‘lsa, bu uning ijodiy faoliyatda yordam beradigan o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirilganidan dalolat beradi. Zero, ijodiy faoliyat - o‘quv materiallarini o‘rganishning eng samarali yo‘lidir.

Ijodkorlik darajasini oshirish, kasbiy kompetentlikni yanada takomillashtirishda o‘z-o‘zini baholashning o‘rni beqiyos. Shaxsiy nazorat va o‘zini o‘zi baholash tizimi talaba hamda ta’lim muhiti o‘rtasidagi munosabatlarda muvofiqlashtiruvchi vazifasini o‘taydi. Badiiy-ijodiy ishlarni baholash va tahlil qilish jarayonida talabaning mutaxassis, ijodkor sifatidagi mahorati sayqallanadi va bu borada orttirgan fazilatlari, tajribasi kelgusi pedagogik faoliyatida ko‘makdosh bo‘ladi. Zero, o‘zini o‘zi baholash qobiliyatini kamolga yetkazish - malakali mutaxassis tayyorlashning zarur sharti hisoblanadi.

Baholash bilan muntazam shug‘ullangan, badiiy obrazlar olami bilan bog‘liq ijodiy vazifalarni hal qilish ustida tinimsiz ish olib borgan talabada o‘z oldiga maqsadlar qo‘yish, ularni amalga oshirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, faoliyat natijalariga tanqidiy ko‘z bilan qarash singari ijodiy jarayon bosqichlari yetilib boradi. Bu esa bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining yangi sifat darajasiga chiqqanidan darak beradi.

Talabalarning badiiy-ijodiy faoliyati natijalarini tizimli tahlil qilish va sifatini baholash o‘z faoliyatini mantiqiy asosga qurish, aql va ko‘ngil talabini uyg‘unlashtirish, badiiy obraz yaratish bo‘yicha vazifalarni muayyan ketma-ketlikda, sovuqqonlik bilan hal qilish, ularni zaruratga ko‘ra qayta ko‘rib chiqish

qobiliyatini rivojlantiradi, erkin va mustaqil ishlashga undaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada yuksaltiradi. Bu jarayonni, tom ma’noda, ijodiy faoliyat deb atash mumkin, chunki uning zamirida izlanuvchanlik, tanqidiy yondashuv, kuzatish, mantiqiy xulosa chiqarish, lozim bo‘lsa, yangicha qarashdan cho‘chimaslik mavjud.

Xulosa shuki, bo‘lajak pedagog-rassom shaxsini uning badiiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish orqali tarbiyalash bir necha muhim masalalarni o‘z ichiga oladi va ulardan ayrimlarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

- talabalarda baholash kompetentligini rivojlantirish;
- o‘z ustida izlash ehtiyojini tarbiyalash;
- ijodiy refleksiya zehniyatini shakllantirish;
- o‘z ichki imkoniyatlarini kashf qilishda jur’atli bo‘lishga chorlash;
- kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish uchun mehnat qilishga rag‘batlantirish.

Ham rassom, ham pedagog shaxsini o‘zida mujassam etgan mutaxassislarni tayyorlash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagoglik kasbi va badiiy ijodga nisbatan munosabat, tanlangan sohasi bo‘yicha mehnat qilish ishtiyoqi, malaka, ko‘nikma, tajribaga bog‘liq. Albatta, uning dinamikasiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan omillar talaygina. Lekin badiiy-ijodiy faoliyatga ongli yondashish, uning natijalariga tanqidiy nigoh bilan qarash, yetuk badiiy didga ega bo‘lish eng muhimlaridir.

Adabiyotlar:

1. Baymetov B.B. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning ilmiy nazariy va metodik asoslari. Monografiya, Toshkent:.” ZEBO PRINT”, 2023 yil

2. Baymetov B.B. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning ilmiy nazariy va metodik asoslari. Monografiya, Toshkent:.” ZEBO PRINT”, 2023 yil

3. Художник, Учёный, Педагог. Шорохов Евгений Васильевич; ответственный редактор В.К. Лебёдко. - М., 2005, с. 44.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada bo‘lajak rassom-pedagoglarni kasbiy tayyorlashda ularning badiiy bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodkor shaxsni shakllantirishda tasviriy san’at sohasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyani, badiiy-ijodiy tafakkur, turli ifodalash vositalari hamda materiallar yordamida badiiy obraz yaratish sohasi bo‘yicha maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ

В даной статье расскрывается вопросы профессиональной подготовки будущих художников-педагогов, развитии их художественных знаний, умений и навыков, формирование творческой личности, профессиональной компетентности в области изобразительного искусства, художественно-творческого мышления, области создание художественного образа с использованием различных выразительных средств и материалов, ориентированных на развитие специальных способностей.

SUMMARY

This article focuses on the development of artistic knowledge, skills and abilities of future artist-teachers in the process of professional training. Their, professional competence in the field of fine arts, formation of creative personality, artistic and creative thinking, special abilities in the field of fine arts. area of creating an artistic image using various expressive means and materials.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

JAS FUTBOLSHÍLARDÍŃ TEXNIK-TAKTIK TAYARLIǴIN JETILISTIRIWDIŃ ZAMANAGÓY USILLARÍ

Abdullaev I.
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı "Sport oyınları" kafedrası assistent oqıtıwshısı

Tayanch so'zlar: futbol, pedagogik imkoniyatlar, o'yinchi tanasi, model, interaktiv, antropometriya, tezlik-kuch sifatlari, texnik mahorat, morfofiziologik va biologik xususiyatlar, texnik va taktik tayyorgarlik.

Ключевые слова: футбол, педагогические возможности, организм игрока, модель, интерактив, антропометрия, скоростно-силовые качества, техническое мастерство, морфофизиологические и биологические особенности, технико-тактическая подготовка.

Key words: football, pedagogical possibilities, player's body, model, interactive, anthropometry, speedpower qualities, technical skill, morpho-physiological and biological characteristics, technical-tactical training.

Kirisiw. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.Mirziyoev hámde húkimetimiz tárepinen mámleketimizde Olimpiyda oyınlarına kirtilgen komandalıq sport oyınların, atap aytqanda futboldı rawajlandırıw máselesine úlken itibar qaratılıp kelinbekte. Bul baǵdarda Ministrler Kabineti tárepinen jıllar dawamında qabıl etilgen "Dene tárbiyası hám sport haqqında"ǵı Nızam, «Ózbekstan Respublikasında futboldı rawajlandırıw is-ilajları haqqında"ǵı 144-sanlı, "Ózbekstan futbolın rawajlandırıw fondı iskerligin jaqsılaw hám onı qollap-quwatlaw is-ilajları haqqında"ǵı 283-sanlı, 2018-jıl 16-mart kúngi "Futboldı jánede rawajlandırıw is-ilajları haqqında"ǵı PQ-3610-sanlı, 2019-jıl 4-dekabr kúngi PF-5887-sanlı "Ózbekstanda futboldı rawajlandırıwdı ulıwma jańa basqıshqa alıp shıǵıw is-ilajları haqqında"ǵı Qarar hám Pármanları atap ótiwimizge boladı.

Jas futbolshılardıń texnik-taktik tayarlıǵın jetilistiriw, onıń texnikalıq hám taktikalıq sheberliginiń qáliplesiwi menen úzliksiz baylanısta ámlege asadı. Usı processke xızmet etiwshi shınıǵıwlarǵa qatań tártipte, izbe-izlikte kirisiledi. Futbolshılardıń texnik-taktik tayarlıǵın jetilistiriw ushın interaktiv metodlardan

paydalanıw zárúrligi búgingi kúnde bul baǵdardaǵı aktual máselelerden biri bolıp tabıladı.

Sonlıqtan bul ilimiy izertlew jumısımızdıń maqseti shınıǵıwlar processinde jas futbolshılardıń texnik-taktik tayarlıǵın interaktiv metodlardan paydalanǵan halda jetilistiriw nátiyjeliligin úyreniw espalanadı. Bul óz gezeginde bir qatar wazıypalar menen baylanıslı.

Birinshiden, jas futbolshılar texnik-taktik tayarlıǵın jetilistiriw boyınsha ótkeriletuǵın shınıǵıwlar processin úyreniw;

Ekinshiden, jas futbolshılardıń texnik-taktik tayarlıq dárejesin úyreniw;

Úshinshiden, shınıǵıwlar processiniń tıǵızlıǵın anıqlaw hám metodikalıq usınıslar islep shıǵıw.

Futbolshılardı oyın iskerligi tek ǵana sekiriw, juwırıw hám júriwden ibarat emesligi, olardıń háreketi anaǵurlım quramalı bolıp, qarsılas penen gúres alıp barıwı, eń joqarı tezlikte juwırıwı, quramalı taktikalıq wazıypalardı atqaradı. Sonlıqtan futbolshılardıń fizikalıq tayarlıǵı olardıń oyın iskerligin, xarakterin esapqa alǵan halda sonday shólkemlestiriw zárúr, bul olarǵa texnikalıq hám taktikalıq sheberligin jetilistiriwge tiykar bolsın.

R.A.Akramov futbolshınıń ulıwma tayarlıǵı fizikalıq qábiletti hár tárepleme tárbiyalaw, ulıwma jumıs qábiletin arttırıw wazıypaların sheshiwdi hám ulıwma rawajlandırıwshı shınıǵıwlardıń shuǵıllanıwshılar organizmine ulıwmalıq tásir kórsetiwshi sporttıń basqa túrleri menen baylanıslı ekenligin atap ótken.

G.A.Lisenchuk (2003), ulıwmalıq tayarlıqtı arrıtıw maqsetinde qollanılatuǵın kóp ǵana shınıǵıwlar organizmge hár tárepleme tásir kórsetiwin, atap aytqanda, biyik-pás jerlerde uzaq múddet juwırıw kóbirek shıdamlılıqtı, qısqa aralıqlarda tez juwırıw tezlikti rawajlandırıwǵa, gimnastikalıq shınıǵıwlar shaqqanlıqtı rawajlandırıwǵa qaratılǵanlıǵın ayrıqsha atap ótedi.

Ulıwma texnik-taktik tayargarlıqta bulshıq et-shemirsheklerdiń rawajlanıwı hám bekkemleniwine ishki aǵzalr hám sistemalar funkciyasınıń jetilisiwine, háreketlerdi koordinaciya etiwdi jaqsılaw hám háreket sapaları ulıwmalıq dárejesin arttırıwǵa erisiledi.

Texnik-taktik tayarlıqtıń bul dáwirdegi wazıypası, dáslep jas futbolshılardıń háreket funkciyaların (kúsh, tezlik, shıdamlılıq, shaqqanlıq hám epshillik, sonday-aq áz háreketlerin waqıt aralıǵında, hawada hám muskullerdiń zor beriw dárejesine kóre basqara alıq háreket funkciyasınıń tiykarǵı komponentleri esaplanadı) qáliplestiriwden ibarat boladı.

Háreketler tezligin tárbiyalawǵa úlken itibar qarataıw lazım, sebebi balalıq hám ósmirik jasında mine usı eń áhmiyetli fizikalıq sapanı tárbiyalaw ushın keń imkaniyatlar bar boladı.

Sonı ayrıqsha atap ótiw lazım, dáslepki tayarlıq hám baslanǵısh sport qánigelesiwi basqıshlarında tezlik, shaqqanlıq penen tıǵız baylanısta rawajlanadı, bul bolsa jıljıwdıń (bir orınnan ekinshi orınǵa ótiwdıń) racional texnikasın iyelep alıw ushın zárúr tiykar jaratadı. 8-12 jaslar dáwirinde juwırıwdaǵı maksimal tezliktiń anaǵurlım artıwı háreketler tezliginiń tábiyiy ósiwi menen baylanıslı.

12-14 jasta bolsa tezlik tiykarınan tezlik-kúsh sapalarınıń hám muskul kúshiniń ósip barıwı sebepli atrtadı.

Sonıń ushın tezlikti rawajlandırıwda juwırıw tempi hám úlkem muskul kúshin talap etetuǵın háreketler chastotasın maksimal ráwishte arttırıwǵa háreket etiw lazım. Bunda tábiyiy háreketlerge kóbirek orın ajıratıw lazım. Oyın, jarıs formasında atqarılatuǵın sport oyınları hám háreketli oyınlar, shınıǵıwlar da úlken járdem beriwi múmkin.

Oyın shınıǵıwların orınlaw jas futbolshılardı jeńiske erisiw ushın maksimal kúsh sarıplawǵa májbúr etedi. Oyın materiyalı shınıǵıwdaǵı ulıwma waqıttıń 50% ǵa shekem iyelew kerek. Hár bir shınıǵıw qısqa waqıt ishinde (10-15 sek) bir neshe seriyalı usılda orınalanadı, dem alıw intervalı 10-15 min boladı. Maksimal tezlik penen qayta juwırıw ayrıwsha áhmiyetke iye, bul 20 m.ge shekem aralıqta estafeta usılda orınlanadı.

Shınıǵıwlarǵa estafetalardan tısqarı 10-15 m.ge juwırıw boyınsha qadaǵalaw shınıǵıwların kirgiziwde usınıs etiledi.

Futbol oyınlarında jeńiske erisiw kóp tárepten ádep-ikarmlılıq hám erk sapalarınıń dárejesine baylanıslı. Sonlıqtan jeke futbolshılardı da, ulıwma

komandanı da tayarlawdıń elementi tárbiyalıq is-ilajlar esaplanadı. Ádette keskin gúres astında, kóbinshe qıyın klimatlıq sharayatta ótkeriletuǵın júdá áhmiyetli oyınlar hám turnirler sanı arıtp barmaqta. Futbolshılar abzıda jarıs maydanlarına barıwda uzaq saparlardı ámelge asırıwǵa, kilmatlıq-geografik aymaqlar hám reginallıq waqıttıń keskin ózgerislerine shıdawǵa májbúr boladı. Bulardıń barlıǵı oqıw-shınıǵıw processiniń nátiyjeliligin arttırıwǵa qaratılǵan hár qıylı pedagogikalıq, gigienalıq hám basqa quralların keń qollawdı talap etedi.

Trenerlerdiń aldıńǵı tájiriybe hám gúzetiwleri nátiyjelerin ulıwmalastırıw jas futbolshılarǵa qoyılatuǵın tiykarǵı talaplardı anıqlawǵa imkan beredi:

– joqarı dárejedegi ádep-ikramlılıq, erk sapaları (mártlik, batıllıq, baslamashılıq, erkinlik, shıdamlılıq hám ózin-ózi qadaǵalaw)na iye bolıw;
– ekstremal sharayatlarda texnikalıq usıllardı isenimli orınlaw;
– zamanagóy taktikalı korinistegi oyındı alıp barıw;

– arnawlı fizikalıq sapalar (tezlik, tezlik-kúsh, shaqqanlıq, shıdamlılıq) rawajlanıwınıń joqarı dárejesine iye bolıw;
– bekkem salamatlıqqa iye bolıw, fizikalıq tárepten jaqsı rawajlanǵan bolıwı, joqarı dárejede funksional tayarlıqqa iye bolıwı;
– komanda taktikasın kúshettiriw boyınsha teoriyalıq bilimlerden paydalanıw.

Juwmaq. Jeke pedagogikalıq gúzetiwler hám izertlew nátiyjelerinen kelip shıǵıp tómendegi juwmaqqa keldik:

1. Izertlewlerden belgili boldı, jas balalardı futbol sport túri menen shuǵıllanıwı 8-10 jaslardan baslanadı. Jas futbolshılardıń dástlepki tayarlıǵında texnik háreketlerdi rawajlandırıwǵa kóbirek itibar beriliwi, fizikalıq sapalardan shaqqanlıq hám iyiliwsheńlikti tárbiyalaw áhmiyetli esaplanadı.

2. 13-14 jaslı futbolshılardıń shınıǵıwlarında ulıwma fizikalıq tayarlıǵın tárbiyalawǵa rawajlandırıwǵa jıllıq reje boyınsha tayarlıq dáwirinde úlken itibar beriliwi anıqlandı.

Ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018-jıll 5-mart kúngi “Dene tárbiyası hám sport tarawında mámleketlik basqarıw sistemasın túpten jetilistiriw
is-ilajları haqqında”ǵı PF-5368-sanlı Pármanı.
2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018-yil 16-mart kúngi “Futboldı jánede rawajlandırıw is-ilajları haqqında”ǵı PQ-3610-sanlı qararı.
3. Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń “Dene tárbiyası hám sport haqqında”ǵı Nızamı. T., «O‘zbekiston». 2000.
4. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. T., 2006.
5. Айрапетянс Л.Р., Годик М.А. Спортивные игры. Т., изд. Ибн Сино, 1991.
6. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Т., изд. Ибн Сино, 2002.
7. Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash. T., izd. Meditsina, 1989.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy futbolda texnik-taktik tayyorgarlikni samarali tashkil etish masalalari ilmiy asosda o‘rganiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье на научной основе изучаются вопросы эффективной организации технико-тактической подготовки в современном футболе.

SUMMARY

This article studies on a scientific basis the issues of effective organization of technical and tactical training in modern football.

YOSH FUTBOLCHILARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING VOSITA VA USULLARI

Bobomuradov S.E.
Navoiy davlat pedagogika instituti,"Jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti

Tayanch so'zlar: yosh futbolchilar,jismoniy sifatlar, tezkorlik, chaqqonlik, harakat faoliyati, yakka harakat,maxsus mashqlar majmui, o'zgaruvchan usul.

Ключевые слова: юные футболисты, физические качества, быстрота, ловкость, двигательная активность, индивидуальное движение, комплекс специальных упражнений, вариативный метод.

Key words: young football players, physical qualities, speed, agility, physical activity, individual movement, a set of special exercises, variable method.

Futbol o'z mohiyati va mazmuni, o'yin davomida darvozabon hamda futbolchilar tomonidan namoyish etiladigan tezkor va jozibali hatti-harakatlari, kattayu-kichik yoshdagi insonlar e'tiborini o'ziga rom qiluvchi texnik-taktik harakatlari bilan nafaqat millionlab oddiy ixlosmandlar diqqat markazidan joy olgan, balki davlat va jamoat arboblari, san'atkoru-olimlar qo'yingki,barchani qalbiga singib ketgan. Ehtimol shu sabab futbol yer yuzida son jihatdan ham, geografik miqyosdan ham eng ommalashgan sport turi sifatida rasman tan olingan.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida jumladan futbolni rivojlantirish borasida qabul qilayotgan qonun va qarorlarining samarasi o'laroq, turli yosh toifasida futbolchilarimiz qit'a va jahon yashil maydonlarida musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, sog'lom turmush tazrzini kelajak avlod ongiga singdirish, ularda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish, jismonan sog'lom va ma'nan boy yoshlarni tarbiyalash va shu asosida mamlakatimizning jaxon hamjamiyatidagi mavqeyini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Mashg'ulot yoki musobaqalar jarayonida tezkorlik va chaqqonlik harakatlarining xususiyatlari bir-birini to'ldiradi, uni faqat harakatlar muvofiqlashuviga ko'ra o'hshash

bo‘lgan holdagina aniqlash mumkin. Harakat va faoliyatlarning tezlik xususiyatlari tezkorlik deb ataladigan umumiy nom ostiga birlashtirilgan. U hatti-harakatlarni ya’ni mashqlarni berilgan sharoitlar uchun eng kam (minimal) vaqt mobaynida bajarilishini tavsiflaydi. Shuning uchun umuman tezkorlik va chaqqonlik sifatini rivojlantirish to‘g‘risida emas, odam harakatlarining muayyan tezkorlik xususiyatlarini rivojlantirish xususida so‘z yuritsak to‘g‘ri bo‘ladi. Futbolchining musobaqadagi natijasiga ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatadi va ularning har birini o‘rganish, bashorat qilish uchun avvalo murabbiydan katta maxorat talab qiladi. Mutaxassislarning mashg‘ulot jarayonidagi sharoit hamda o‘yinning turli bosqichlari davomida har xil sharoitlarda futbolchilarda tezkorlik va chaqqonlikni yuzaga keltirish bilan bog‘liq fikrlari bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek futbolchilarning harakat faoliyatlariga xos individual hususiyatlari haqidagi axborot ham dolzarb va amaliy jihatdan ahamiyatlidir, chunki u yosh futbolchi natijalarini bashorat qilish imkoniyatini beradi. Harakat reaksiyasining tezkorligini oddiy va murakkab reaksiyalar tashkil etadi. Oddiy reaksiya shunday reaksiyaki, bunda avvaldanshartlangan signalga sportchi organizmi oldindan shartlangan harakat bilan javob beradi. Murakkab reaksiya harakatlanayotgan ob’ektga reaksiya qilish va tanlash reaksiyasidir. Yakka harakatning tezkorligi, shuningdek, harakat kuchiga ham bog‘liq. Harakatlar sur’ati sportchining tezda kerakli mushaklarni ishga solishi va tez bo‘shashish qobiliyati bilan aloqador. Mutaxasis murabbiylar futbolchilarda tezkorlik va chaqqonlik namoyon bo‘lishining elementar va miqdoriy shakllarini ajratadilar. Mashqlarning ketma-ketlikdagi shakllari masofaviy tezlikning yuqori darajasiga erishish qobiliyati, standart tezlikni tez ko‘tarish, harakatlarni yuqori tezlik bilan bajarish qobiliyatlari kiradi.

Tadqiqot va tahlillar natijalariga ko‘ra 10 oy davomida o‘tkazilgan o‘quvmashg‘ulot jarayonlarida quyidagilar ham aniqlandi. O‘quv-mashg‘ulot ishlarida katta hajmdagi mashg‘ulotlar umumiy chidamkorlikni tarbiyalashga yunaltirilgan. Mashg‘ulotlarning umumiy hajmi esa 179 soatni tashkil etadi (45,3%). Shuni ta’kidlash kerakki, katta hajmdagi o‘quv-mashg‘ulot ishlari umumiy chidamkorlikni tarbiyalashga qaratilgan, metodika nuqtai nazaridan olib qaralganda bu ish unchalik ham to‘g‘ri emas. Mutaxasislarning ta’kidlashicha, yosh futbolchilarga mashg‘ulotlar jarayonida katta hajmda mashg‘ulotlarni, jismoniy sifatlarni tarbiyalashga, chaqqonlikni, egiluvchanlikni, tezkorlik sifatlarini tarbiyalashga qaratilishi kerak. Umumiy chidamkorlikni tarbiyalash esa 12-13 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda tezkorlik, chaqqonlik va chidamkorlikni tarbiyalashga 23,7 soat (64%) vaqtni ajratadi. Chaqqonlik va egiluvchanlikka ajratilgan mashq miqdori

22,3%, kuch imkoniyatlariga esa 6,8 % mashq miqdoriga vaqt ajratiladi. YUgurish tezligini tarbiyalashga esa 46,2 soat vaqt ajratiladi.

Bu esa har bir mashg‘ulotda 10,7 daqiqa vaqt demakdir. Bu degani ushbu bosqichda tezkorlik sifatlariga murabbiylar juda kam vaqt ajratishgan. Tezkorlik sifatini tarbiyalashga 31,9 soat vaqt ajratilgan. Bu esa o‘rtacha 8,2 % o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoni vaqtini tashkil etadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, tezkorlik va chaqqonlik sifatini tarbiyalashga ham deyarli bir xil vaqt ajratilgan. Musobaqa davrida futbolchilar tomonidan bajarilgan umumiy tez yugurishlar soni deyarli bir xil. Mashg‘ulot va musobaqalar jarayonida futbolchilar aksariyat o‘rtacha va maksimal tezlikda bajariladigan yugurish, sakrash, xatlash, burilish, egilish, yiqilish hamda aylanishlar kabi elementlarni bajarishadi.

Agar murabbiy shug‘illanuvchi bolalarni jismoniy qobiliyatlari va imkoniyatlaridan ortiqcha yuklama bersa, futbolchilar organizimida (birinchi navbatda oyoq mushaklarida) lokal va global toliqish alomatlarini yuzaga keltiradi. Demak, “katta-kichik” futbolchining bugungi kunda dolzarb muommolaridan biri real jismoniy va funksional zahiraga asoslangan ish qobiliyatini muntazam tiklab borish choralarini izlab topishdan iboratdir. Jismoniy sifatlarga asoslangan ish qobiliyati ko‘p qirrali va keng qamrovli integral tushuncha bo‘lib, uning mohiyati jismoniy, funksional, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari yig‘indisi bilan chambarchas bog‘liq.

Ayrim mutaxassis-olimlarning ta’kidlashicha, organizmda yig‘ilgan «shlaklarni chiqarib tashlash», modda almashinuv sur’atini jadallashtirish, toliqish yoki zo‘riqish asoratlarini bartaraf etish va shu orqali ish qobiliyatini tiklash hamda kuchaytirish uchun qayishqoqlik (bukuluvchanlik) ashqlardan iborat ertalabki jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ulanish faydali natija berar ekan.

Olimlarning tadqiqot natijalariga qaraganimizda o‘quv-mashg‘ulotlarini o‘tkazilishini ishlab chiqish va jismoniy sifatlarini yosh futbolchilarda tayyorlashda tezkorlik va chaqqoonlik sifatlarini aniq yuklama kompanentlari ostida tarbiyalash ahamiyatlidir. Hozirgi zamon futbolining rivojlanishida o‘yin usullari takomillashib,futbolchilarning harakatlari mukammalashib bormokda. Futbol mutaxassislarining ta’kidlashicha, hozirgi zamon futbolining rivojlanishi o‘z ichiga juda ko‘p jixatlarini qamrab oladi: bu jihatlardan

- ► har bir futbolchi o‘yinning oxirigacha bor kuchi bilan kurash olib borishi;
- ► futbolchilarning maydon bo‘ylab, yuqori tezlikda to‘p bilan va to‘psiz harakatlanishlari;
- ► texnik-taktik harakatlarni tezkorlik bilan bajarishlari.

O‘yin davomida to‘pni jamoadoshiga aniqlik bilan uzatishi, darvozaga zarbalarni to‘g‘ri yo‘naltirishni va boshqa texnik usullarni bexato bajarishlari kerakdir. Nufizli xalqaro musobaqalarda turli yoshdagi terma jamoalarimiz erishayotgan yutug‘lari diqqatga sazovor, O‘zbekiston futboli bir necha yillar ichida jahonda va Osiyoda o‘z o‘rinlariga ega bo‘ldilar. Xalqaro futbol qo‘mitasi, futbol federatsiyalar uyushmasi, Osiyo futbol konfederatsiyasining bizga nisbatan ijobiy fikrlari oshdi.

Hozirgi zamon futboli har bir futbolchidan to‘p bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lishni,to‘pni o‘z jamoadoshlariga aniq uzatishni, darvozaga to‘g‘ri zarbalar yunaltirishni hujumda, himoyada va butun o‘yin davomida aniqlik bilan harakat kilishlarini talab etmoqda. Chunki noaniq bir harakat ham jamoaning uyushtirilgan hujumlarini tugallanmay, samarasiz yakun topishi, himoyada esa o‘z darvozasiga gol olib kelishi bilan yakunlanishi mumkin. Har bir futbol jamoasi maydonda texnik-taktik, jismoniy harakatlarni bexato bajarishlari bu raqib jamoaning ustidan bo‘lgan g‘alabaga yakinlashishidir. Ko‘pincha murabbiylar, futbol jamoalarining maydonda raqibni o‘yin mahoratiga, kuchli,kuchsiz jamoalariga qarab taktik sistemalarni qo‘llashadi, buning uchun futbolchilarning tezkorlik hamda chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilishi lozim. Har bir futbolchi bir o‘yin davomida jamoasining g‘alaba qozonishi uchun ko‘pgina harakatlarni bajarishadi. Bizga shu narsalar ma’lumki, futbolchilarning maydondagi asosiy harakatlariga: yurish,yugurish, to‘p bilan yurish, to‘p bilan yugurish, sakrashlar, to‘pga zarba berish to‘p bilan aldab o‘tish, to‘p uzatish, to‘pni qabul qilish,to‘xtatish, to‘pni yon chiziqdan tashlash, jarima to‘pini bajarish, burchakdan to‘pni tepish, fintlar, podkad tashlash, to‘pni aniq mo‘ljalga yetkazish, raqib bilan to‘p uchun kurashish va boshqa bir qancha harakatlar kiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, futbol mutaxassislari o‘z tadqiqot ishlarida futbolchilarning yuqorida ta’kidlangan harakatlarini o‘rganishgan va ular uchun kerak bo‘lgan usul va uslublarni ishlab chiqishgan.

O‘zbekiston terma komandasining yirik millatlararo musobaqalarda qatnashish tahlilihamda ilmiy izlanishlar shuni ta’kidlaydiki, musobaqa paytida samaradorlikka yetolmaydigan asosiy sifatlardan biri futbolchilarimizning jismoniy tayyorgarligining va tezkorlik tayyorgarligining pastligidir. Ilmiy izlanishlarga qo‘shilgan holda 17 yoshga to‘lgan futbolchilarda tezkorlik sifati yuqori kvalifikatsion sportchi darajasiga yetib borgan bo‘ladi. Keyinchalik uning sifatlari sezilarli darajada o‘zgaradi. Bunday jarayon sabablaridan biri nerv koordinatsiya aloqalari va nerv tuqima apparati shakllanishining to‘xtashidir. Yana bir tomondan esa uslubiy faktorlarni ta’siribo‘ladi. Bunda

mashg‘ulotlar davomida tezkorlik sifatiga yunaltirilganlik yetarli darajada emasligi va mashg‘ulot samaradorligini oshirayotganda qo‘llaniladigan usul va uslublar oddiy, bir xilda ekanligi sabab bo‘lib kelmokda. Yosh futbolchilar malakali futbolchilarga qaraganda belgilangan vaqt ichida ko‘proq usullarni bajarar ekan. Lekin hozirgi zamon futbolida esa bunday katta farq bo‘lishi mumkin emas.

Adabiyotlar:

1. R.A.Akramov. Futbol darslik Toshkent 2006 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y.

4. Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. - 2020. - №. 6 (51).

5. Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). - 2020. - Т. 9. - №. 11. - С. 99-103.

6. Terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. - Т. 10. - С. 470-471.

7. Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. using of innovation

8. Варюшин, В.В. - Подготовка юных футболистов: учебное пособие / В.В. Варюшин - М.: ФОН. 2008. - 75 с.

9. Волков, Л.В. Физические особенности детей и подростков: учебное пособие / Л.В. Волков. - Киев: Здоровя, 2013. - 46 с.

10. Гуревич, И.А. Круговая тренировка при развитии физических качеств. 3-е изд. / И.А. Гуревич. - Минск: Пламя, 2015. - 70 с.

11. Коробейник, А.В. Футбол: самоучитель игры / А.В. Коробейник. - Р-на-Д.: Феникс, 2000. - 68с.

12. Можаев, Э.Л. Физическая подготовка футболистов: учебнометодическое пособие / Авторы составители Э.Л. Можаев, Р.В. Фаттахов, Д.Ю. Денисенко, М.Р. Рахимов. - Казань: Отечество, 2017. - 211 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada yosh futbolchilarni jismoniy sifatlarini, mashg‘ulot yoki musobaqa jarayonida tezkorlik hamda chaqqonlikni ahamiyati va uni rivojlantirishning vosita va usullari haqida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о физических качествах юных футболистов, значении быстроты и ловкости во время тренировок или соревнований, а также средствах и методах ее развития.

SUMMARY

The article talks about the physical qualities of young football players, the importance of quickness and agility during training or competition, and the tools and methods of its development.

KURASH TURLARI NAZARIYASI VA METODLARI TASNIFI

Suvonov Q.Yo.
Qarshi davlat universiteti, Sport fakulteti,
Sport faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kurash turlari, kurash taktikasi, jismoniy tarbiya va sport, kurash texnikasi, murakkab texnik-taktik harakatlar.

Ключевые слова: виды борьбы, тактика борьбы, физическое воспитание и спорт, приемы борьбы, сложные технико-тактические действия.

Key words: types of wrestling, wrestling tactics, physical education and sports, wrestling techniques, complex technical and tactical actions.

Jismoniy tarbiya va sport hamda sportning barcha turlari insonning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Insonni tarbiyalash, uning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, sportchilarda zarur bo‘lgan ruhiy muhitni yaratishning ko‘p qirrali jarayonida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati yuqoridir. Sog‘lom insonlarni tarbiyalashda yordam beradigan sport kurashining har xil turlari jismoniy tarbiya tizimida muhim o‘rin egallaydi. Shu jumladan, kurash turlari ham jismoniy tarbiya tizimida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi.

Kurash turlarida o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarning tamoyillari va xususiyatlari, kurash turlari bo‘yicha muammolarni tadqiq etish jarayonida qo‘llanadigan usullar, ulaming tadqiqot yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashdan, mavzularni to‘g‘ri shakllantirish, amalga oshiriladigan tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlashtirishdan boshlab, yig‘ilgan ilmiy ma’lumotlarning tahlili va umumlashtirilishigacha – hamma asosiy bosqichlari hamda ketma-ketligi ko‘rib chiqilishi muammoning yechilishida yordam beradi.

Kurash turlari bo‘yicha olimlar va boshqa bir qator ilm-fan sohasi vakillarining kurash turlari nazariyasi va uslubiyati fani mohiyatini aniqlashga, uning rivojlanish qonuniyatlarini, inson organizmida mavjud ruhiy-funksional va jismoniy imkoniyatlar zaxiralarini bilishga qiziqishi nihoyatda ortdi.

Kurash turlari nazariyasi va uslubiyatiga boshqa turli bilim sohalari vakillarining diqqatlarini tobora ko‘proq jalb etgan holda bosib o‘tgan yo‘li bizni hozirgi bosqichda yagona sport fani bunyodga kelayotgani haqidagi masalani kun tartibiga qo‘yishga hamda uni jiddiy muhokama qilishga undaydi. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati to‘g‘risidagi bilimlar tizimini yagona fan sifatida shakllantirish, uning bilish usullarini ishlab chiqishni amaliyot talablari ham, sport fanlari tizimidagi mustaqil ilmiy fan sifatida yuzaga kelgan sport to‘g‘risidagi fanning nazariy-metodologik muammolarini ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojlar ham taqozo etadi. Hozirgi paytda kurash turlari nazariyasi va uslubiyatini o‘rganadigan mustaqil ilmiy fanlar anchagina: biomexanika, bioximiya, fiziologiya, pedagogika, sport nazariyasi va boshqalar. Barcha ilmiy fanlar kabi ularning tadqiqot obyekti sifatida kurashchining alohida xususiyatlari, munosabatlari, jihatlarini ajratib oladilar. Ularning har biri kurashni o‘zicha, o‘z tadqiqot predmeti nuqtai nazaridan tushunadi va, tabiiyki, bu sport to‘g‘risida yaxlit tasavvur bermaydi. Har qanday haqqoniy fan, ayni chog‘da kurash turi haqidagi fan ham, yaxlit bir tizimdan iborat bo‘lishi zarur. Tizimlilik nazariy bilimning o‘ziga xos xususiyati, u bilimning rivojlanishida ichki mantiq, bilimni tashkil etgan tarkibiy qismlar orasida qonuniy aloqadorlik mavjudligidan darak beradi.

Kurash turlarida o‘qitish — bu kurash turlari nazariyasi va uni o‘qitish usullari to‘g‘risidagi bilimlar kurashchining asosiy o‘ziga xos musobaqa, hakamlik, pedagogik, tashkiliy faoliyati hisoblangan ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishga qaratilgan maqsadli tashkil qilingan pedagogik jarayondir.

O‘qitish maqsadi shug‘ullanuvchilarda trenerning kasb faoliyati konsepsiyasini aks ettiruvchi bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ushbu konsepsiya bilimlar va malakalar, ilmiy fikrlash uslublari, shug‘ullanuvchilarda ongli hamda amaliy faoliyatga ijodiy munosabatni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

Kurash turlari nazariyasi va o‘qitish usuliyati o‘quv fanining o‘ziga xos sharoitlari hamda xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy vazifalar quyidagilardan iborat:

– sport turi nazariyasi va o‘qitish usuliyati bo‘yicha bilimlaming optimal hajmi, har tomonlamaligi va yetarlicha chuqur bo‘lishini ta’minlash;
– ijodiy anglash imkoniyatlarini takomillashtirish;
– kurashchining umumiy tayyorgarlik mashqlarini bajarish malakalarini shakllantirish va takoinillashtirish;
– kurash texnikasi usullari himoyalanishlar va qarshi usullarni bajarishni shakllantirish hamda takomillashtirish;
– musobaqa bellashuvlaridagi texnik-taktik harakatlaming optimal hajmi va turli xilligini shakllantirish;

– o‘quv, o‘quv-mashg‘ulot, nazorat, musobaqa va ko‘rgazmali bellashuvlami olib borish ko‘nikmalari hamda malakalarini shakllantirish;
– kurash usullarini bajarish texnikasini tahlil qilish bilimlari malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish;
– kurash texnikasini ko‘rsatib berish va tushuntirish malakasini egallash;
– murakkab texnik-taktik harakatlarni bajarishga o‘rgatish va takomillashtirish bilimlari, malakalari hamda ko‘nikmalarim shakllantirish va takomillashtirish;
– kurash bo‘yicha darslami tahlil qilish va o‘tkazish malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish;
– kurash musobaqalariga hakamlik qilish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazish bilimlari, malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish.

Kurash taktikasi – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to‘g‘ri olib borishda ma’lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek, taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan. Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchida musobaqada g‘alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko‘rsatish maqsadida sport bellashuvini to‘g‘ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iboratdir.

Sport taktikasini egallash jarayonida bir qator xususiy vazifalar hal qilinadi. Bunda sportchi:

– musobaqa vaziyatini shunday qabul qilishi va tahlil qilishi lozimki, ushbu vaziyatdan kelib chiqadigan taktik vazifalarni tushuna bilishi hamda qisqa vaqt ichida uni hayolan va harakat bilan hal etishi zarur;
– musobaqada o‘z kuchidan shunday foydalanishi kerakki, raqib ustidan g‘alaba qozonish maqsadida, uni oxirigacha safarbar qila olishi lozim;
– to‘satdan o‘zgarib qolgan vaziyatlarda bellashuv rejasini mustaqil o‘zgartira olishi kerak.

Taktik tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilar:

– taktik bilimlarga ega bo‘lish;
– taktik ko‘nikmalarni egallash;
– taktik malakalarga ega bo‘lish.

Taktika vositalariga qat’iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan sportchilar harakatlari kiradi.

Kurashda taktika uchta asosiy bo‘limlardan tashkil topadi:

– hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi;
– bellashuvni tuzish taktikasi;
– musobaqalarda qatnashish taktikasi.

Kurashda musobaqa faoliyatining tahlili hujumning ikkita turini aniqlab beradi:

– oddiy, qachonki hujum darhol asosiy usuldan so‘ng boshlanadi;
– murakkab, qachonki kurashchi ikkita yoki uchta turli xil harakatlarni qo‘llaydi (birinchisi keyingi harakatlar bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratadi). Ularning ikkalasi to‘xtovsiz, bir butun harakat sifatida bajariladi. Murakkab hujum harakatlarining ikkita turini ajratish qabul qilingan:
– qulay dinamik vaziyatni tayyorlashning maxsus usuli va (u bilan o‘zaro bog‘liqlikda) hal qiluvchi usulni o‘z ichiga oluvchi hujum;
– bir nechta usullardan iborat kombinatsiyali hujum. Ushbu hujum mantiqan bitta, sifat jihatdan yangi tuzilgan usul bo‘lib, qulay dinamik vaziyat yaratuvchi boshlang‘ich harakatni hamda bu vaziyatdan foydalaniladigan boshqa usulning yakuniy qismini o‘z ichiga oladi. Odatda, qulay dinamik vaziyatni tayyorlash uslubi hamda hujum usuli tuzilmasi yaxlit harakatga, ya’ni harakat ansambliga qo‘shilib ketadigan hujum harakatlari muvaffaqiyat keltiradi.

Tasnifga muvofiq usullar (ular yordamida texnik harakatlarni amalga oshirish uchun qulay bo‘lgan sharoitlar yaratiladi) uchta guruhga bo‘linadi:

– shunday usullarki, ular yordamida kurashchi o‘ziga zarur bo‘lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi (xavf solish, harakatni cheklash, kishanlash, qurshab olish muvozanatdan chiqarish);
– kurashchi uchun foydali bo‘lgan raqibning faol reaksiyani ta’minlaydigan usullar (chorlash);
– shunday usullarki, ularni bajarish natijasida raqib kurashchining m a’lum bir harakatlariga yoki e’tibor qilmaydi, yoki bo‘sh himoya bilan javob beradi, yoki bo‘shashadi (takroriy hujum, qayta chorlash, qo‘shaloq aldash va boshq.). Texnik usullarni amalga oshirish taktik tayyorgarligining hamma usullari nafaqat mustaqil, balki uyg‘unlashgan holda qatnashishi mumkin (ya’ni usulni amalga oshirish uchun bir xil bo‘lgan qulay sharoitlar bitta emas, balki bir-birini to‘ldirib keladigan bir qancha usullar bilan tayyorlanadi). Qulay dinamik vaziyat murakkab hujumning birinchi qismi (birinchi usul) bilan yaratilishi mumkin. U kombinatsiya, deb ataladi. Taktik tayyorgarlik usullari guruhlarining tasnifiga muvofiq quyidagi harakatlar ajratiladi:

– birinchi usul, u orqali hujum qiluvchi o‘ziga zarur bo‘lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi. Bunday reaksiya hujum harakatini (usulni) amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, hujum qiluvchi yelkasidan oshirib tashlashni amalga oshiradi, raqib, himoyalanib gavdasini to‘g‘rilaydi, bu bilan qo‘lni va shunga mos bo‘lgan oyoqni ichkaridan ushlab olib zarba bilan ag‘darishni amalga oshirishga yordam beradi;
– usul raqibning faol reaksiyasiga erishish maqsadida amalga oshiriladi, ya’ni: raqib qarshi usul qo‘llaydi, undan so‘ng hujum qiluvchi ikkinchi usulni amalga oshiradi. Masalan, hujum qiluvchi oyoqni ushlab olib ag‘darish, raqib - uzoqdagi sondan teskari ushlab olib ag‘darishni amalga oshiradi. Hujum qiluvchi vaziyatdan foydalanib, qo‘ldan ushlab oladi va yelkadan oshirib tashlashni bajaradi.
– hujum qiluvchi birinchi usulni amalga oshirish natijasida raqibni shunday holatga solib qo‘yadiki, u yoki bu himoya, bo‘shashish bilan javob qaytaradi, yoki javob qaytarmaydi.

Shunday qilib, kelib chiqishi amaliyotdan iborat bo‘lgan muammoni tadqiq etish teran ilmiy-nazariy dalil-isbotsiz o‘z natijalari bilan yana amaliyotga qaytadi.

Adabiyotlar:

1. Бабанский Ю.К. и др. Введение в научные исследования по педагогике. Учебное пособие. М., Просвещение, 1988.

2. Власов К.П. Методы научных исследований и организация эксперимента. Учебное пособие. Санкт-Петербург, 2000.

3. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Darslik. T., 2004.

4. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев: Олимпийская литература, 1999.

5. Селуянов В.Н., Шестаков М.П., Космина И.П. Основы научно-методической деятельности в физической культуре. Учебное пособие. М., СпортАкадемПресс, 2001.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yoziyeva U.L.
Qarshi davlat universiteti, dotsent.
Ergasheva N.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, salomatlik, jismoniy barkamollik, gigiyenik xulq, tibbiy madaniyat.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, здоровье, физическая подготовленность, гигиеническое поведение, медицинская культура.

Key words: healthy lifestyle, health, physical fitness, hygienic behavior, medical culture.

Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir.

Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’limning oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi.

Sog‘lom turmush tarzi – bu faol mehnat, ijod og‘ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o‘ta xavfli va zararli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yengil ko‘tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir.

Falsafa va ijtimoiy gigiyenaga oid adabiyotlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammolariga so‘ngi paytlarda katta e’tibor berilmoqda. Bu masalaning ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-gigiyenik, iqtisodiy, shaxsning o‘ziga aloqador motivatsion tomonlari tadqiq etilmoqda. Biroq, sog‘lom turmush tarzining

metodologik muammolari va ijtimoiy-gigiyenik mezonlari ayrim mintaqalarning o‘ziga xos tomonlari, iqlimiy-geografik sharoitlari, aholi turmush madaniyatining etnik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilgan emas.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning milliy konsepsiyasi namunaviy modeli respublika aholisi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi shakllantirish jarayonini ma’lum bir tartibda va ilmiy asosda olib borishga imkon yaratadi, uning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga sog‘lom turmush tarzi namunaviy modeli – odamlar o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni hamda namunaviy hulqni shakllantirish jarayonini tartibga solib boradi va tezlashtiradi. Odamlar jamiyatda o‘zlarining mavjud yashash tarzlarini, gigiyenik xulqlarini, shuningdek tibbiy madaniyligi va faolliklarini namunaviy etap bilan qiyoslab ko‘rish va unga tegishli o‘zgartirishlar kiritib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omilining o‘rni xaqida gap yuritmoqchi bo‘lsak, avvalo motivatsiya atamasi o‘z mazmuniga ko‘ra shaxsni ma’lum bir faoliyatni bajarishga kirishishi uchun harakatga keltirish, uning muhimligini asoslash va anglatishdan iboratdir. Jumladan sog‘lom turmush tarzi shakllantirish muammosida motivatsiya omili odamlarga ularning nima uchun sog‘lom turmush tarzida yashash lozimligi, ne sababdan nosog‘lom turmush tarzini tanlash yuzasidan kerakligini anglatishga qaratilgandir. [3].

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida motivatsiya omilining o‘rnini baholashda har bir shaxsda uning kundalik hayot faoliyatini taxlil qilish uchun zarur bo‘lgan uchta asosiy elementning mavjudligiga e’tiborni qaratish lozim. Jumladan har bir shaxsda:

– sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarning mavjudligi;
– sog‘lom turmush tarzida yashashning insonni sog‘lom qilishga va umrini uzaytirishi mumkinligiga qat’iy ishonchning bo‘lishi;
– sog‘lom turmush tarzida yashash uchun astoydil harakatning mavjud bo‘lishi kabilar kiradi.

Nazariy jahatdan olib qaralganda odamlarning kundalik hayotida bu uchburchak turlicha variantlarda shakllangan bo‘lishi mumkin. Har bir shaxsning o‘z salomatligini mustahkamlashga bo‘lgan ichki ehtiyoji uning bu yo‘ldagi amaliy harakatini belgilaydi. Shunga ko‘ra barcha omillarni:

– gigiyenik jihatdan to‘g‘ri va asoslangan turmush tarzida, ya’ni sog‘lom turmush tarzida yashovchilarga;
– tibbiy gigiyenik jihatdan asoslanmagan, ya’ni nosog‘lom turmush tarzida yashovchilarga ajratish mumkin. [4].

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o‘sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy-gigiyenik mezonlarini aniq belgilab olishning ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimizda

sog‘lom turmush tarzi mafkurasi – inson salomatligining qonuniyatlari va bilimlari majmui emas, balki, inson salomatligini mustaxkamlashga bo‘lgan qarashlar tizimidan iboratdir. Sog‘lom turmush tarzi mafkurasi, R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog‘lom turmush tarzini shakllanishi bo‘yicha yuritayotgan siyosatini, sog‘lom turmush tarzining huquqiy, ahloqiy asoslarini, sog‘lom turmush tarzining pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati va etikasini o‘zida mujjasamlashtirgan bo‘lishi lozim [1].

Ma’lumki, me’zon – bu shunday bir o‘lchamki, uning yordmida biz uchun o‘lchanishi zarur bo‘lgan jarayonlarni shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lamiz, uni baholay olamiz. Sog‘lom turmush tarzidek murakkab ijtimoiy jarayonlarni o‘lchashda uning biz uchun maqbul va zarur bo‘lgan o‘lchamlarini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Sog‘lom turmush tarzini o‘lchashda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bunday me’zonlar qatoriga shaxsning:

– jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko‘rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi;
– oilada va kundalik turmushda namunali yashashi;
– o‘zidagi jismoniy va ma’naviy qobilyatlarni ro‘yobga chiqarishga intilishi;
– tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi;
– sog‘lom va barkamol inson bo‘lib shakllanish uchun o‘z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi;
– nosog‘lom turmush tarziga xos zararli odatlarning quliga aylanib qolishdan va o‘z umrini hayot oqimining ayovsiz girdobiga tushib qolishdan asrashga intilib yashashi;
– faqat uzoq yashayotgani uchungina emas, balki hayotda to‘g‘ri yashayotganidan ham qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi;
– sog‘lom turmush tarzini o‘zi uchun bir umrga hamroh qilib olishi kabi qimmatli sifat va xususyatlarini kiritish mumkin.

Har bir inson o‘z tana a’zolarining zahiraviy imkoniyatlarini oshirish uchun, ularni muntazam ravishda chiniqtirib borishi lozim. Salomatlik zahiralarini yaratish uchun sog‘lom turmush tarzining quyidagi qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi:

– muntazam ravishda jismoniy tarbiya va jismoniy mehnat bilan shug‘ullanish. Xaftada organizmga kamida 6 soat jismoniy yuklama berish;
– meyoriy aqliy va jismoniy yuklama bilan ishlash, kuchli aqliy mehnatdan so‘ng faol dam olish. Mehnat bilan dam olishni galmagal va mazmunli tashkil qilish;

– ratsional va tarkib jihatdan tenglashtirilgan ovqatlanish, ortiqcha vazndan qutilish, hayvon yog‘lari, qand va shirinliklarni iste’mol qilishini chegaralash;
– zararli odatlardan yuz o‘girish;
– organizmni chiniqtirish;
– toza havoda har kuni kamida 2-3 soat bo‘lish;
– kun tartibiga qat’iy amal qilish, bir kecha-kunduzda kamida 8 soat uxlash;
– ehtiyoj tug‘ilganda turmush tarzini va ishini o‘zgartirish;
– turmush, o‘qish va ishdan qanoatlanib yashash. [1].

Jumladan: turli xil jismoniy mashg‘ulotlar yordamida yurak va tana mushaklarini ishlashga majbur qilish, bunday mashg‘ulotlarni belgilangan bir vaqtda bajarish va bunda ma’lum tartibga rioya qilish, aqliy va jismoniy mehnatni galmagal almashtirib bajarishni odat tusiga kiritish, kabilar shular jumlasidandir.

Ma’lumki biz naslimizning kelajagi – sog‘lom avlod uchun kurashar ekanmiz o‘z maqsadimizga erishish uchun millatni sog‘lom turmush tarzida yashashga o‘rgatishimiz kerak bo‘ladi. Sog‘lom avlod deganda, biz faqat jismonan baquvvat farzandlarni emas, balki ma’naviy jihatdan ham boy va sog‘lom avlodni nazarda tutishimiz lozim. Zero, ma’naviy sog‘lom bo‘lmasdan turib, jismonan sog‘lom bo‘lish mumkin emas. Har ikkala tushuncha bir biriga mos va biri ikkinchisini taqazo qiladi. Ham jismonan, ham ma’naviy sog‘lom avlodga ega bo‘lgan xalqni esa sindirib bo‘lmaydi. Biz jismonan sog‘lom, yuksak ma’naviyatli va yagona milliy g‘oya asosida jipslashgan millatni shakllantirishni bosh maqsad qilib qo‘yar ekanmiz uni sog‘lom turmush tarzida yashashga o‘rgatishimiz lozim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. R.U.Arziqulov “Sog‘lom turmush tarsi asoslari” 1-tom. T: 2005-yil, 228-b
2. G.Jumaqulova “Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda milliy ahloqiy qadriyatlarni ahamiyati” T: 2007-yil, 182-bet.
3. U.L.Yoziyeva. Tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma//Qarshi davlat universiteti, Fan va ta’lim nashriyoti. 2020. 4,88 b.t.
4. U.L.Yoziyeva., T.A.Buriyeva. The Role And Role Of The Media In The Formation Of The Natural Scientific World Of Preschool Children. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. Volume 12, Issue 7, 19 April 2021.
5. X.Mo‘minov. Sog‘lom turmush tarzi va uning evolyutsion asoslari. “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash” gazetasi, 2004-yil, 19-son.

РЕЗЮМЕ

Maqolada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning ahamiyatliligi va dolzarbligi hamda amalga oshirish uchun tanlangan mezonlar haqidagi fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены мнения о важности и актуальности формирования здорового образа жизни и критерии, выбранные для реализации.

SUMMARY

The article presents opinions about the importance and urgency of forming a healthy lifestyle and the criteria selected for implementation.

KURASH SPORT TURNING QOIDALARI TEXNIKA VA TAKTIKASI

Yusupov E. T.
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti

Tayanch so'zlar: kurash, sport, qoida, texnika, taktika, polvon, epchil, davra, tarbiya.
Ключевые слова: борьба, спорт, правило, техника, тактика, борец, ловкость, раунд, воспитание.
Key words: wrestling, sport, rule, technique, tactics, wrestler, dexterous, round, education.

Kurashning ko'p ming yillik tarixini chuqur o'rganish xaqiqatan xam Kurash azaldan polvonlarning jismoniy va ma'naviy yetukligi namunasi sifatida sharaf topganligini, qadrlanganligini tasdiqlaydi. SHu bois polvonlarning jismoniy baquvvatliligi, navqiron qaddi-qomati yoki Kurashchanlik, harakatchanlik, chaqqonu epchillik jixatlari bir tomonu, ularning keng davrada o'zlarini qanday tutishi, odob-axloqi, ma'naviy qiyofasi, raqibiga muomalasi, jamiYatga, tevarak-atrofga munosabati, vatanparvarligi aloxida o'rin tutgan. Kurash shunchaki sport turigina yemas, balki insonning jismoniy, ma'naviy kamolotga yerishish vositasidir. Ulug' ajdodlar Kurashni tarbiya maktabi deb atashgan. Ushbu maktab tarbiyalanuvchilarini, maydon ko'rganlarni yesa quyidagicha ta'riflaganlar: • Polvonlar qasam ichmaydilar, lekin xech qachon o'z yurtlariga xiyonat qilmaydilar. • Polvonlar xarom-xarish, zinodan, makrdan, giyoxvandlikdan nari yuradilar, bunday illatlarga qarshi Kurashadilar. • Polvonlar irodali odamlardir, inchunun, kim nima desa yergashib ketavermaydilar. • Polvonlar zaiflar va nochorlarni ximoya qiladilar, xalol g'alabasiga berilgan sovrinning bir ulushini muxtojlarga tarqatadilar. • Polvonlar oliyjanoblik, insoniylik, raqibiga nisbatan chuqur xurmat tuyg'ulari bilan boshqalardan ajralib turadi. • Polvonlar o'z qat'iy fikriga yega bo'ladi. Kurashchilarga berilgan yuqoridagi ta'riflarda asrlar davomida shakllangan Kurash falsafasi mujassamlashganini ko'rish mumkin. Ular quyidagilar: • Mustaqil dunyoqarash va yerkin tafakkurni shakllantirish; • Xur fikrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, o'z bilimi va kuchiga ishonib Yashaydigan qat'iyatli

insonni tarbiyalash; • Odamlar, ayniqsa, yoshlarning irodasini baquvvat qilish, iymon-e'tiqodini mustaxkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muxit yoratish; • Inson tafakkurida o'zlikni anglash, muqaddas qadriYatlarni asrab-avaylash, mexr-muxabbat tuyg'usini kamol toptirish; •Oliyjanob insonlarga xos bo'lgan iymon-e'tiqod, insof-diyonat, saxovat, xalollik, mexr-oqibat kabi fazilatlarni yuksaltirishIshonch bilan shuni aytish mumkinki, irodani toblaydigan, kishini xalollik sari intilishga undaydigan, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengib o'tishga o'rgatadigan, inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladigan Kurash shiddatkor xayot talablariga javob bera oladigan shaxslarga, bunyodkor yoshlarning barkamol bo'lishida o'zining benazir xissasini qo'shadi. Zero, polvonlik falsafasi kishini komillik sari yetaklaydi. Demak, kurash bu - « maqsadga xalol erishish yo'lidir!» Chunki Kurash turli millatlarni bir-biriga Yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi, yaxshi yo'lga yergashtiruvchi g'am ma'naviy, xam jismoniy sog'lomlashtiruvchi kuchdir.

Bu yesa shubxasiz xammamizning yutug'imizdir. Kurashning shunchaki sport turigina yemas, balki insonning u orqali jamiyatning nafaqat jismoniy, ma'naviy kamolotga yerishishida xam salmoqli omil yekanligini inobatga olib, ulug' bobokalonlarimiz uni tarbiya maktabi deb ataganliklarini yuqorida kayd yetgan yedik. Kurash maktabining xar bir a'zosi, ishtirokchisi o'z xayoti va amaliy faoliYatini muayYan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy odob tamoyillari asosida qurmog'i, ularga qat`iyan amal yetmog'i kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, Kurashchilar — polvonlar baxsi, olishuvining o'zi shakllangan, mantiqiy izchillik, qatьiy ilmiy tizimga asoslangan, an'analar shakliga kirgan, axloqiy-odobiy sifatlarni o'zida mujassam yetgan muayYan qonun-qoidalar va me'yoriy normalarni taqozo yetadi. Modomiki, Kurash Kurashchilar-polvonlardan javonmardlik, jasurlik, qat'iylik, xalollik, to'g'rilik, mardlik va poklik singari yuksak fazilatlarni namoyon yetishni talab yetar yekan, bu o'z navbatida ularning zimmasiga katta mas'uliYat xissini xam yuklaydi. Zero, boshqalarga ibrat-namuna ko'rsatadigan bu toifaga mansub kishilar avvalo o'z shaxsini jismonan va ruxan takomillashtirib, yetuklik va komillik sari doimiy xarakatlanib borishlari zarur bo'ladi. Asrlar davomida amal qilib kelgan va bugungi kunda xam o'z axamiYatini yo'qotmagan XV asrning buyuk mutafakkiri Xusayn Voiz Koshifiyning Kurashchilar odobi borasidagi o'gitlari bugungi kun Kurashchilarining xam zaruriy odob tamoyillari yetib qabul qilingan. Bundan ko'rinadiki, Kurash o'ziga xos nozik xunar, ilmu-odob qorishmasi, uyg'unlashuvi bo'lib, bunda ustoz va shogirdlar o'rtasidagi o'zaro samimiylik, xamkorlik, xamrozlik, beg'arazlik, do'stona munosabat ko'p narsani belgilaydi.Ustoz o'z bilimi, malakasi, Kurash ilmini o'z shogirdiga qanchalik puxta o'rgata bilsa, uning sa'y-xarakatini aniq maqsad-muddaolar sari yo'naltira olsa, bu albatta o'z samarasini berishi shubxasiz. Buning uchun shogird xam o'z betinim

mashqi, iqtidori, iste'dodini muntazam mukammallashtirib, ustoz o'gitlarini jon qulog'i bilan tinglab, qabul qilib, ularga izchil amal qilishi, o'z jismu dilida yeng yaxshi xislatu fazilatlarni jo yetib borishi ayni muddaodir. Shundagina unda ulug' ajdodlarimizga munosib vorislik, komil shaxs bo'lib voyaga yetishdek sifatlar tarkib topib boradi. Kurashni to'liq o'rganishni istagan xar bir yigit yoki qiz uning qonun-qoidalariga, yetikasi va axloq-odob tamoyillariga rioya qilmoqliklari zarur. U o'z xatti-xarakatlari va axloqi bilan xech qachon o'z vatanining va albatta Kurashning obro'sini to'kmasligi kerak xamda xayotining oxirgi daqiqasigacha xalqiga, yurtiga, Kurashiga xar qanday xolatda xam sodiq qolishi kerak. Shu bilan bir qatorda Kurashchilar mashg'ulot vaqtida yoki olishuv paytlarida ortiqcha gapirmasliklari (agar bunga zaruriyat bo'lmasa), diqqatlarini bir joyga to'plab, boshqa narsalarga qaratmasliklari, bir-birlariga shikast yetkazmasliklari, biror usulni o'rganish uchun yig'ilayotgan vaqtlarida xam bir-birovlarini Kurash yaktaklarida biror kamchilik bo'lsa darrov sheriklariga bildirishlari zarurdir. Kurash oilasiga kirgan xar bir shaxs quyidagi odob-axloq normalari-tamoyillarini yod olishi va amal qilishi shart, aks xolda murabbiy yoki Kurashchi degan nomga noloyiq deb xisoblanadi.

Murabbiy ustozlar odobi tamoyillari Shogrdlaridan birortasi yomon Kurash tshsa, jerkib tashlamasin, balki mloyimlik bilan tshuntirsin. Ustoz pok niYatli va nqsonsiz inson bo'lsin Kurash ilmining barcha nozikliklarini mfassal bilishi shart. Shogrdlariga mehribon bo'lsin Shogirdiga kupchilik orasida dakki berib, izza qilmasin. Shogrdlarini poklikka da'vat yetsin. Shogrdlari mol-mulkiga ta'magir bo'lmasin. Har bir shogrdning qobilyatiga qarab ta'lim bersin. Baxil bo'lmasin shogrdlaridan hech narsani aYamasin. O'z stozini doimo xotirlab yurishi shart Kurashchilar odobi tamoyillari To'g'ri so'z va to'g'ri fikirli bo'lishi. Yaxshi muomalali bo'lishi. Ko'rinishi. kiyim kechagi toza orasta. Yaxshi axloqli bo'lishi. Pok niyatli bo'lishi. Hech kimga xasad qilsh yemas. havas qilish. Ustozlarning aytganlarini sidqidildan bajarish. Baxil bo'lmaslik. Dilozor bo'lmaslik odamlar kunglini topuvchi bo'lish. Boshqa shogirdlar hamkasiblar bilan tilda va dilda do'st ittifoq bo'lish. O'z kuchiga mag'rur bo'lmaslig kerak. Raibning mag'lbiYatidan quvonmaslik. Ustoz oldida oz gapirish. boshni yegib tinglash ustoz gapirganda ye'tiroz bildirmaslik.

Boshqalarin g'iybat qimaslik.

2. Kurash formasi paxtadan tayyorlangan bo'lishi, Yaxshi xolatda bo'lishi, mato o'ta qattiq bo'lmasligi shart.

3. quyidagicha belgilash ruxsat beriladi:

– davlat gerbi (chap ko'krakda, maksimal o'lchami 10 x 10 sm);
– ishlab chiqaruvchining savdo belgisi (3x3 sm, yaxtakning oldi pastki qismida);
– yelkadagi belgi (25 sm dan ko'p bo'lmagan, 5 sm yeniga);

– tikishlar (25x25 sm, orqa tarafda ruxsat beriladi, sportchining familiYasini joylashtirish mumkin).

4. Yaktakning uzunligi tizzadan 10-15 sm balandda bo'lishi kerak. Yaktak ustidan bel atrofida ikki marta o'ralib bog'langan belbog'ning tugundan uchigacha bo'lgan qismi 20 sm dan kam bo'lmasligi, Yaktak yenglari uzunligi ko'pi bilan qo'l tirsagidan 20-25 sm pastda bo'lishi, qo'l va yeng orasi 5 sm bo'lishi, ishton uzunligi oyoq to'pig'igacha bo'lishi, oyoq va ishton orasidagi bo'shliq butun uzunligi bo'yicha 10-15 sm, belbog' 4-5 sm yeniga, rangi qizil bo'lishi kerak. Yaktakni kiyish (2-rasm) va belbog'ni bog'lash tartibi qo'yidagicha. (3 rasm)

5. Kurashchi ayollar yaktak ichidan oq rangli, maxkam futbolka yoki kalta yengli yoqasiz ko'ylak kiyishi kerak.

6. Agar Kurashchining kiyimi (yaktak va ishton) talabga javob bermasa, xakam Kurashchidan uni almashtirishni talab qilishi shart. Kurashchn qo'llarini oldinga uzatib, xakamni yaktak yenglari belgilangan qoidalarga mos yekanligiga ishontirishi shart.

7. Xar ikkala jinsdagi Kurashchilar xam yalangoyoq Kurashadilar. Agar kutilmagan ob-xavo bo'lsa, bosh xakam ruxsati bilan oyog'iga yengil oyoq kiyimi kiyishi mumkin.

Kurashchining kiyimi (yaktak va ishton) toza, quruq, yoqimsiz xid bo'lmasligi, qo'l va oyoq tirnoqlari kalta olingan bo'lishi, uzun sochlar boshqa Kurashchiga xalaqit bermaydigan qilib yig'ishtirib olinishi kerak.

Gigiena qoidalarini bajarmagan xar qaysi Kurashchi musobaqalarda qatnashish xuquqidan maxrum bo'ladi.

1. Kurash gilamining minimal o'lchami 10x10 m, 12x12 m, 14x14 m bo'lishi, maksimal o'lchami 16 x 16 m. Kurash gilami odatda qizil, Yashil, ko'k, oq va och Yashil ranglardan iborat material bilan qoplanishi shart.

2. Kurash gilami ikkita maydonga bo'linadi. Bu maydonlarni ajratib turadigan chiziq «xavfli chiziq» deyiladi, u xar doim qizil rangda va yeniga 1 m bo'ladi.

3. Xavfli chiziq, ichidagi maydon «xavfsiz maydon» deyiladi, uning minimal o'lchamlari 8 x 8 m, maksimal o'lchamlari yesa 10 x 10 m.

4. Xavfli chiziq tashqarisidagi maydon «xavfli maydon» deyiladi va yeniga 3-m bo'ladi.

5. Eniga 1 m va uzunligi 2 m bo'lgan xavfsiz maydondagi ikki oq chiziq olishuvni boshlash va tugatish maydonchalarini belgilaydi. Bu chiziqlar ish zonasiga chiziladi va bir-biridan 5 m uzoqlikda bo'lishi kerak.

6. Kurash gilami yumshoq polda yoki maxsus platformada joylashishi, Kurash gilami atrofida 1 m dan kam bo'lmagan bo'sh maydon bo'lishi shart.

XXI. Olishuvning boshlanishi va tugashi

1. Xar bir olishuv boshlanishidan oldin uchta xakam (o'rtadagi xakam, ikkita

yon xakam) musobaqalar o'tkaziladigan maydonning chetiga birgalashib turishadi, ung qo'llarini chap ko'krakka qo'yib, o'z joylarini yegallashdan oldin ta'zim qiladilar. Musobaqalar o'tkaziladigan maydondan chiqishdan oldin xakamlar takroran chetda yig'iladilar va o'ng qo'llarini chap ko'krakka qo'yib tomoshabinlar ko'p tomonga qarab, ta'zim qiladilar.

2. Kurashchilar xam gilamga chiqishdan oldin va uni tark yetishda, Kurash maydoniga kirishda va undan chiqishda, xar bir olishuvning boshlanishida va oxirida o'ng qo'llarini chap ko'krakka qo'yib ta'zim qiladilar. Kurash maydoni oldidagi ta'zimdan so'ng Kurashchilar maxsus belgilangan joyga qadar to'g'riga yurishlari shart, keyin o'ng qo'lni chap ko'ksiga qo'yib, bir-birlariga ta'zim qilishlari shart.

3. Xakam olishuv natijasini ye'lon qilgandan so'ng Kurashchilar yana bir bor o'ng qo'llarini chap ko'ksiga qo'yib bir-birlariga ta'zim qiladilar va gilamdan chiqib ketadilar.

4. Xakam va yon tomondagi xakamlar tayyorgarlik xolatida olishuvdan oldin, Kurashchilar gilamga chiqishlaridan oldin turishlari shart.

5. Xamma ta'zimlar bo'yin va gavdaning yegilishi orqali bajariladi. Agar Kurashchilar ta'zimni bajarmasalar, xakam uning bajarilishini talab qilishi shart.

6. Gilamdagi xakamlar maydonni nazorat qilar yekanlar, gilamning usti tekis, toza, tatamilar orasi ochiq bo'lmasligiga, yon xakamlar kursilari o'z joylarida joylashishlariga va Kurashchilar belgilangan qoida talablariga javob berishlariga ye'tibor qaratishi shart. Xakam gilam o'rtasida vaqt ro'yxatga olinadigan stolga qarab tik xolatda turishi kerak.

7. Xakam «TO'XTA» buyrug'ini berar yekan, Kurashuvchilarni ko'rib turishi kerak, agar ular buyruqni yeshitmay qoladigan xol kelib chiqsa, o'rtadagi xakam tezda ularga yaqinlashib to'xtatadi.

Adabiyotlar:

1. Azizov N.X. Belbog'li turkiston Kurashi. - Toshkent: o'qituvchi, 1998.

2. Борисов К. Практика рукопашного боя. Учебное пособия под/рек. 2003 г

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari – Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 238 b.

4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil - 171 b.

5. Dzyudo Kurashi. A.A.Absatarov. A.A.Istomin. Toshkent Iqtisod-Moliya 1993 yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kurash sport turning qoidalari texnika va taktikasi haqida qisqacha mazmuni bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлено краткое изложение правил, приемов и тактики борьбы.

SUMMARY

This article provides a summary of the rules, techniques, and tactics of wrestling.

TURLI TOIFADAGI GANDBOLCHILARNING TAYANGAN HOLDA DARVOZAGA TO‘P OTISH HUJUM TEXNIKASI KINEMATIKASINI ANIQLASH VA SOLISHTIRISH

Boltabayev Sh.O.
Namangan davlat ubiversiteti Tayanch doktorant

Tayanch so‘zlar: kinematika, 3D MA tahlil, sagittal o‘q, diapazon, burchak.
Ключевые слова: кинематика, 3D MA анализ, сагиттальная ось, диапазон, угол.
Key words: kinematics, 3D MA analysis, sagittal axis, range, angle.

Dolzarbligi. Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Bugungi kunda yaratilayotgan imkoniyatalar natijasida yurtimiz sportchilari xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqdalar. Barcha sport turlari qatori gandbol sport turining ham rivojlanishi, o‘yin qoidalarining o‘zgarishi o‘yinchilardan juda katta mahorat talab qilmoqda.

O‘yin davomida sakrab darvozaga to‘p otish qobiliyati ayni paytdagi gandbolchilarga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biridir. Mashg‘ulotlar jarayonida to‘p otish texnikasini takomillashtirishtirish hamda hujum texnikasi biomexanikasining asosiy qonuniyatlarini bilish zarur [4]. Hujum harakatlarining biomexanik ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish murabbiylarga to‘p otish texnikasini takomillashtirishda vosita va metodlarni to‘g‘ri tanlashga yordam beradi.

Gandbolchilar harakatlarining biomexanikasini o‘rganish va kinematik asoslarini aniqlash bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolar bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan J.Akramov gandbol o‘yinida to‘pni darvozaga otish mezonlarini kuzatish va tahlil qilish usullarini asoslash [3], A.Mo‘minov malakali gandbolchilarda maxsus mashqlarni qo‘llash asosida texnik tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati [8], R.Ismoilov malakali gandbolchilarning hujum texnik harakatlarini takomillashtirish samaradorligini oshirishga [7] doir tadqiqotlar olib borganlar. Xorijiy olimlardan Q.B.Yaseen, I.Petracheva, Y.N.Kotov, R.S.Eltibi yuqori malakali gandbolchilarning sakrash paytidagi zarbalari kinematik parametrlari [10], H.A.Plummer, G.D.Oliver gandbol sport turida yuqoriga sakrash kinematikasi va unga charchoqning ta’siri [6], I.A.Yousef, H.A.Kilani, A.S.Al-Za’abi, J.Alnuaimi, L.F.Alkilani, W.M.Shaheen, S.M.Liftawi, T.G.Raja gandbolda yuqoriga sakrash kinematikasi va aniqligi [5], A.Akl, I.Hassan, A.Hassan va P.Bishop malakali gandbolchilarda sakrashning kinematik

o‘zgaruvchanligi va to‘p tezligi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni [2] o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. Lekin yuqorida tilga olingan olimlarning o‘tkazgan tadqiqotlarida turli sport toifasidagi gandbolchilar texnik harakatlarining kinematik tahlili taqqoslanmagan.

Darvozaga to‘p otish texnikasini kinematik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega sanalib, bunday tahlillar bizga hujum texnikasi samaradorligi haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin va shu boisdan biz tanlagan uch qadamdan so‘ng sakrab darvozaga to‘p otishning kinematik xususiyatlari mavzusi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Birinchi razryadli hamda sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnikasining kinematik xususiyatlarini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifasi:

- Birinchi razryadli va sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakatlari kinematik ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- Birinchi razryadli va sport ustaligiga nomzod gandbolchilardan tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakatlari kinematik xususiyatlarini solishtirish.

Tadqiqot usullari va uning tashkillashtirilishi. Tadqiqot ishi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti qoshidagi “SPORTS 360° 3D MA biomexanik laboratoriya” da olib borildi. Tadqiqot ishida 3 yildan buyon muntazam gandbol bilan shug‘ullanib kelayotgan birinchi razryadga ega bo‘lgan va sport ustaligiga nomzod 10 nafar (*n=10*) gandbolchi ishtirok etdi. 15 daqiqalik chigalyozdi mashqlaridan so‘ng ularga qanday tarzda to‘pni darvozaga otishlari va 3D tahlil xususiyatlari to‘g‘risida tushunchalar berildi. Sinaluvchilarga qanday tarzda zarb bilan tayangan holda darvozaga otish texnikasining nazariy asoslari tushuntirib berildi.



1-rasm. Gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnikasining 3D ko‘rinishi



A



B

2-rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida umurtqa pog‘onasining oldinga va orqaga egilish kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili. Tadqiqot ishimizda birinchi razryadli hamda sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayanib darvozaga to‘p otish harakati davomida umurtqa pog‘onasining sagittal o‘q bo‘ylab oldinga va orqaga egilishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari (2-rasm) aks ettirilgan.

1- jadval

Umurtqa pog‘onasining oldinga-orqaga va yonga egilishi kinematik ko‘rsatkichlari

	Birinchi razryadli gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari			**Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**		
Umurtqa		Min.	Maks	Diapazon	Min.	Maks	Diapazon
	Egilish	-7°	23°	30°	1°	28°	29°
	Yonga egilish	-15°	-12°	-27°	-14°	10°	24°

Sport ustasi toifasidagi gandbolchi harakatining boshlang‘ich nuqtasida umurtqa pog‘onasining oldinga orqaga egilishi sagittal o‘q bo‘ylab -3° burchak ostida joylashadi va harakat davomida ushbu ko‘rsatkich sagittal o‘q bo‘ylab oldinga ko‘chib minimal 1° dan maksimal 28° ga ko‘tarilib 29° gacha oraliqda bo‘lib bo‘ladi (1-jadval). Gandbolchilar dastlab uch qadam tashlab to‘p otish jarayonida gavdasini oldinga eggan holda harakatini davom ettiradi. Yuqoridagi harakatlar kinematikasi tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki, birinchi razryadli gandbolchilar to‘p otish davomida sport ustaligiga nomzod gandbolchilarga nisbatan gavda harakatlarini minimal -8° ga, maksimal 5° ga, diapazonda esa 6° ga oshirib bajargan.

A B

3- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida umurtqa pog‘onasining yon tomonlarga egilishi kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Birinchi razryadli hamda sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida umurtqa pog‘onalarining ko‘ndalang o‘q bo‘ylab yon tomonlarga egilishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlili ko‘rsatilgan. Birinchi razryadli

gandbolchilarning harakati davomida umurtqa pog‘onasi ko‘ndalang o‘q bo‘ylab o‘ng yonga minimal -15° dan maksimal -12° gacha burchak osti oraliqda egilib, so‘ngra chapga -27° burchak ostiga qaytgan (3-rasm). Gandbolchi dastlab uch qadam tashlab sakraydi va to‘p otish jarayonida gavdasini yonga eggan holda harakatini davom ettiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki to‘p otishda birinchi razryadli gandbolchi sport ustaligiga nomzod gandbolchiga nisbatan egilish harakatlarini minimal -1° ga oshirib, maksimal -22° ga va diapazonda esa 51° ga kamroq bajarganlar (1-jadval).



A B

4- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida bo‘yin mushaklarini bukish va yozish kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida bo‘yinning sagittal o‘q bo‘ylab bukilishi va yozilishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari (4-rasm) ko‘rsatilgan.

2-jadval

Bo‘yinning bukilishi, yonga bukilishi va aylanishi kinematik ko‘rsatkichlari

Bo‘yin	**Birinchi razryadli gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**				**Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**		
		Min.	Maks	Diapazon	Min.	Maks	Diapazon
	Bukilishi	-37°	-18°	55°	-38°	-5°	43°
	Yonga bukilishi	-32°	29°	61°	-44°	13°	57°
	Aylanishi	-80°	64°	144°	-81°	30°	111°

Birinchi razryadli gandbolchi darvozaga to‘p otish harakatining boshlang‘ich nuqtasida bo‘yin pog‘onasi sagittal o‘qqa nisbatan oldinga -16° burchak ostida joylashadi, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich dastlab sagittal o‘q bo‘ylab minimal -37° dan maksimal -18°ga va diapazonda 62° oraliqda bo‘ladi (2-jadval). Gandbolchi qadam tashlagandan so‘ng to‘p otish maqsadida darvoza tomonga qaraydi va zarbani amalga oshiradi. Yuqoridagi harakatlardan shuni aniqlash mumkinki, sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning bo‘yin pog‘onasi birinchi razryadli gandbolchilarnikiga qaraganda sagittal o‘qqa nisbatan oldinga minimal -1° ga ko‘p, maksimal 34° ga va diapazonda 33° ga harakatlarni kamroq bajarishi xisobiga yaxshi natia qayd etishi mumkin.



5- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida bo‘yin mushaklarining yonga bukilishi kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Birinchi razryadli gandbolchining tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida bo‘yinning ko‘ndalang o‘q bo‘ylab bukilishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari harakatning boshlang‘ich nuqtasida bo‘yin ko‘ndalang o‘q bo‘ylab -30° burchak ostida joylashganligini, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal -32° ga burilganligini, maksimal 29° ga va diapazonda 61° burchak ostida joylashganligini ko‘rsatadi (5-rasm). To‘p otish paytida gandbolchi dastlab darvozani ko‘rib olish uchun nigohini shu tomon qaratganligi, so‘ngra zarba yo‘nalishiga qarash hisobiga yuqoridagi ko‘rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, birinchi razryadli gandbolchi, sport ustaligiga nomzod gandbolchiga nisbatan harakatning boshlang‘ich nuqtasida minimal -12° ga kam, harakatlar davomida maksimal 16° ga va diapazonda 4° ga ortiqcha harakatlarni bajarganligi aniqlandi (2-jadval).



6- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida bo‘yin mushaklarining aylanishi kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Birinchi razryadli va sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida bo‘yinning yon tomonlarga gorizontal sath bo‘ylab burilishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijasi (6-rasm). Birinchi razryadli gandbolchi hujum harkatining boshlang‘ich nuqtasida bo‘yin mushaklari sagittal o‘q bo‘ylab 65° da joylashganligini va harakat davomida ushbu ko‘rsatkich chap tomonga minimal -80° ga, maksimal 64° ga burilganligini, ko‘rishimiz mumkin. Tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida gandbolchi darvozani ko‘rish uchun oldinga qaraganini va to‘pni otib bo‘lgandan so‘ng zarba yo‘nalishini kuzatishi xisobiga yuqori natija qayd etilgan. Yuqoridagi (2-jadval) natijalarni tahlil etish natijasida sport ustaligiga nomzod gandbolchi birinchi rzaryadli gandbolchiga nisbatan

bo‘yinning yon tomonlarga gorizontal sath bo‘ylab burilishi bilan bog‘liq harakatlarni bajarish davomida minimal -1° ga, maksimalda 34° ga va diapazonda esa 33° ga harakatlarni kamroq bajargan.

3-jadval

Yelkalarning burilishi va yon tomonlarga siljishining kinematik ko‘rsatkichlari

	Birinchi razryadli gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari					Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari		
			Min.	Maks	Diapazon	Min.	Maks	Diapazon
Yelkalar	Burilishi	**Chap**	-40°	20°	60°	-58°	30°	108°
		O‘ng	-100°	120°	220°	78°	90°	168°
	Yon tomonga siljishi	**Chap**	11°	49°	60°	17°	66°	83°
		O‘ng	-11°	10°	21°	-2°	90°	92°

Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida o‘ng chap yelka bo‘g‘imlarining sagittal o‘q bo‘ylab bukilishi va yozilishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari (7-rasm) ko‘rsatilgan.



7- rasm. To‘p otish jarayonida o‘ng va chap yelka suyaklarining oldinga, orqaga harakatlanishi kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Sport ustaligiga nozmod gandbolchining tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida o‘ng va chap qo‘llar yelka suyaklarining sagittal o‘q bo‘ylab oldinga va orqaga burulishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlili natijalari, harakatning boshlang‘ich nuqtasida o‘ng qo‘l yelka suyaklari sagittal o‘q bo‘ylab old tomonga 2° burchak ostida tutilganligini, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal 78° dan maksimal 90° burchak oralig‘ida bo‘lgani, chap qo‘l yelka suyaklari esa sagittal o‘q bo‘ylab 16° da joylashganini so‘ngra harakat davomida old tomonga minimal -58° burchak ostidan maksimal 30° gacha yetganini aniqlash mumkin bo‘ldi (3-jadval). To‘p otish jarayonida o‘ng yelka sagittal o‘q bo‘ylab ko‘proq oldinga egilgan bo‘lsa, chap yelkaning havo qarshiligini yengishda yordamchi sifatida kamroq oldinga bukilganligi kuzatildi.

Yuqoridagi kinematik ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘ldiki, sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning o‘ng qo‘l yelka suyaklari birinchi razryadli gandbolchilarnikiga nisbatan harakatning boshlang‘ich nuqtasida sagittal o‘q bo‘ylab deyarli bir hil 3° nuqtada, chap qo‘l yelka suyaklari minimal -18°, harakat davomida o‘ng qo‘l yelka suyaklari maksimal 30° ga pastroq nuqtada, diapazonda -48° ga, chap qo‘l yelka suyaklari esa harakatning maksimal nuqtasida 10° ga, diapazonda 48° ga kamroq harakatni amalga oshirgan (7-rasm). Ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan gandbolchilar to‘p otish jarayonida kamroq o‘zgarishlar qiladilar va natijada to‘p otish uchun juda ham kam vaqt sarflaydilar [9]. Birinchi razryadga ega bolgan gandbolchilar darvozaga to‘p otish jarayonida yuqori toifadagi gandbolchilarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflashlarini aniqlash mumkin.



8- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida o‘ng va chap yelka suyaklarining yon tomonlarga siljishi kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Birinchi razryadli gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida o‘ng va chap qo‘llar yelka suyaklarining ko‘ndalang o‘q bo‘ylab yon tomonlarga siljishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, harakatning boshlang‘ich nuqtasida o‘ng qo‘l yelka suyaklari ko‘ndalang o‘q bo‘ylab 50° burchak ostida joylashib, harakat davomida minmal -11° dan maksimal 10° gacha oralig‘ida tashqariga siljigan, chap qo‘l yelka suyaklari esa dastlab ko‘ndalang o‘q bo‘ylab 58° burchak ostida bo‘lib, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal 11° dan 49° gacha osti oralig‘ida siljigan (8-rasm). Tayangan holda darvozaga to‘p otish jarayonida to‘pni ushlab turgan o‘ng qo‘l ko‘ndalang o‘q bo‘ylab tashqariga siljiydi, chap qo‘l esa tashqi qarshilikni yengishni ta’minlash uchun ichkariga tomon yo‘naladi. Olingan tahlil natijalaridan quyidagilar aniqlandi:

- harakatning boshlang‘ich nuqtasida o‘ng qo‘l yelka suyaklarining birinchi razryadli gandbolchi sport ustaligiga nomzod gandbolchiga nisbatan o‘ng qo‘l yelka suyaklari ko‘ndalang o‘q bo‘ylab 20° ga balandroq burchak ostida joylashganligi va harakat davomida maksimal 80° dan minimal -9° gacha, diapazonda esa 71° ga ortiqcha tashqariga siljiganligini, chap qo‘l yelka suyaklari esa dastlab ko‘ndalang o‘q bo‘ylab 18° ga ortiqroq burchak ostida tashqariga siljiganligini, harakat davomida minimal 6° dan maksimal 17° gacha diapazonda kamroq harakatlanganliklarini ko‘rishimiz mumkin (3-jadval).



9- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida o‘ng va chap tirsaklarning bukilish kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Birinchi razryadli gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida o‘ng va chap qo‘llar tirsak bo‘g‘imlari tegishli tartibda sagittal va ko‘ndalang o‘q bo‘ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari (9-rasm).

4-jadval

Tirsaklar burilishining kinematik ko‘rsatkichlari

Tirsaklar	**Birinchi razryadli gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**					**Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**		
			Min.	Maks	Diapazon	Min.	Maks	Diapazon
	Bukilish	**Chap**	35°	66°	101°	64°	116°	180°
		O‘ng	63°	89°	152°	37°	96°	133°

Tayangan holda darvozaga to‘p otish harakatning boshlang‘ich nuqtasida birinchi razryadli gandbolchining o‘ng qo‘l tirsak bo‘g‘imi ko‘ndalang o‘q bo‘ylab 40° da joyllashganiligini, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal 63° dan maksimal 89° ga tashqariga siljiganligini dipazonda esa 152° da joylashganligini kuzatdik. Chap qo‘l tirsak bo‘g‘imi esa harakatning boshlang‘ich nuqtasida 45°da joylashib harakat davomida sagittal o‘q bo‘ylab old tomonga minimal 35° burchak ostida, maksimal 66° ga bukulib yozilganinkigini kuzatdik (4-jadval). Tayangan holda darvozaga to‘p otish paytida o‘ng qo‘l bir maromda harakat bajarib, tirsak bo‘g‘imlari ko‘proq bukiladi. Chap qo‘l esa to‘p otish yakunidagi bukilish hisobiga burchak osti ko‘rsatkichi yuqoridagi grafikdagidek o‘zgarishga ega bo‘ldi. Yuqoridagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha harakatning boshlang‘ich nuqtasida birinchi razryadli gandbolchilar sport ustaligiga nomzod gandbolchilarga nisbatan o‘ng qo‘l tirsak bo‘g‘imining ko‘ndalang o‘q bo‘ylab 50° ga, chap qo‘l tirsak bo‘g‘imining 57° ga pastroq nuqtada joylashganini kuzatdik. Harakat davomida esa o‘ng qo‘l tirsak bo‘g‘imining minimal nuqtada 26° ga ortiqcha, maksimal nuqtada 7° ga, chap qo‘l tirsak bo‘g‘imi minimal 29° ga, maksimal nuqtada 50° ga kamroq harakatlanganligini, diapazonda o‘ng qo‘l tirsak bo‘g‘imining 19° ga ortiqcha harakatlanganligi aniqlandi.



10- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida o‘ng va chap son suyaklarining bukilish kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Birinchi razryadli gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida o‘ng va chap oyoqlar son suyaklarining sagittal o‘q bo‘ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari (10-rasm) aniqlandi.

5-jadval

Sonning bukilishi va yon tomonlarga siljishining kinematik ko‘rsatkichlari

	Birinchi razryadli gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari					**Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**		
			Min.	Maks	Diapazon	Min.	Maks	Diapazon
Son	Bukilishi	**Chap**	37°	42°	79°	10°	43°	33°
		O‘ng	-20°	-4°	24°	-18°	13°	30°
	Yon tomonga siljishi	**Chap**	-4°	27°	31°	9°	27°	18°
		O‘ng	-4	17°	21	7°	31°	23°

Birinchi razryadli gandbolchining tayangan holda darvozaga to‘p otish harakatning boshlang‘ich nuqtasida o‘ng oyoq son suyaklarining sagittal o‘q bo‘ylab -2° burchak ostida joylashgan. Harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal -20° dan maksimal -4° gacha oralig‘ida o‘zgarganligi, chap oyoq son suyaklarining esa sagittal o‘q bo‘ylab 22° burchak ostida joylashib, harakat davomida ushbu ko‘rsatkichning minimal 37° dan maksimal 42° gacha yetganligi aniqlandi (5-jadval). To‘p otish holatida chap oyoq son suyagi oldinga harakatlanib, o‘ng oyoqqa nisbatan ko‘proq bukiladi, o‘ng oyoq son suyaklari esa kamroq bukilib, ortga yoziladi va to‘p otish davomida muvozanatni saqlashga zamin yaratadi. Yuqoridagi harakatlarning kinematik ko‘rsatkichlaridan quyidagilarni aniqlash mumkin. To‘p otish texnik harakatining boshlang‘ich nuqtasida birinchi razryadli gandbolchilarning o‘ng oyoq son suyaklari sport ustaligiga nomzoda gandbolchilarga nisbatan sagittal o‘q bo‘ylab -3° ga, kamroq harakat qilgan bo‘lsa, chap oyoq son

suyaklari -18°ga ortiqcha harakatni amalga oshirgan. Harakat davomida o‘ng oyoq son suyagining maksimal ko‘rsatkichi -9°ga, diapazoni 6° ga, chap oyoq son suyagi ko‘rsatkichi minimal -27° ga maksimal 1° va diapazoni 46° ga ortiqcha harakatlarni bajarganliklarini ko‘rishimiz mumkin (10-rasm).



11- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida o‘ng va chap son suyaklarining yon tomonlarga siljish kinematikasi. A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlair kinematikasi.

Birinchi razryadli gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakatini bajarishi davomida o‘ng va chap oyoq son suyaklarining ko‘ndalang o‘q bo‘ylab yon tomonlarga siljishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, harakatning boshlang‘ich nuqtasida o‘ng oyoq son suyaklarining ko‘ndalang o‘qqa nisbatan 23° da joylashganini, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich o‘qqa nisbatan tashqariga va ichkariga minimal -4° dan tashqariga maksimal 17° burchak ostida siljiganligi, chap oyoq son suyaklari esa ko‘ndalang o‘q bo‘ylab minimal -4° dan maksimal 27° tashqari tomonga siljimagani aniqlandi (11-rasm). Darvozaga to‘p otish holatida o‘ng oyoq son suyagi harakatning birinchi qismida tashqariga siljiydi va so‘nggi harakat dastlabki harakat boshlangan nuqtaga qaytadi. Darvozaga to‘p otish texnik harakatining boshlang‘ich nuqtasida birinchi razryadli gandbolchilarning o‘ng oyoq son suyaklari sport ustaligiga nomzod gandbolchilarga nisbatan ko‘ndalang o‘qqa nisbatan deyarli bir hil nuqtada joylashgani, harakat davomida son suyaklarining maksimal va diapazonda 6° ga kamroq harakatni bajarganligi, chap oyoq son suyaklarining esa harakatning boshlang‘ich nuqtasida ko‘ndalang o‘qqa nisbatan -2° ga kamroq va harakat davomida son suyaklarining maksimal darajada 14° ga ortiqcha miqdorda harakatlarni amalga oshirganliklari aniqlandib (5-jadval).



12- rasm. Darvozaga to‘p otish jarayonida o‘ng va chap oyoq tizzalarining bukilishi kinematikasi A-birinchi razryadli sportchining harakatlari kinematikasi, B-sport ustaligiga nomzod gandbolchining harakatlari kinematikasi.

Gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish texnik harakati davomida o‘ng va chap oyoq tizza suyaklari sagittal o‘q bo‘ylab oldinga va orqaga bukulishi bilan bog‘liq 3D biomexanik tahlil natijalari (12-rasm) aniqlandi.

6-jadval

Tizzalar bukilishining kinematik ko‘rsatkichlari

Tizzalar	**Birinchi razryadli gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**					**Sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning kinematik tahlili natijalari**		
			Min.	Maks	Diapazon	Min.	Maks	Diapazon
	Bukilishi	**Chap**	15°	45°	60°	37°	56°	18°
		O‘ng	13°	33°	46°	37°	65°	27°

Birinchi razryadli gandbolchilar harakatining boshlang‘ich nuqtasida o‘ng oyoq tizza bo‘g‘imi sagittal o‘qqa nisbatan 23° da joylashgan, harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal 13° dan maksimal 33° gacha burchak oralig‘ida bukilganini, chap oyoq tizza bo‘g‘imi esa sagittal o‘qqa nisbatan 20° da joylashganligini harakat davomida ushbu ko‘rsatkich minimal 15° dan maksimal 45° gacha burchak oralig‘ida ko‘rinishiga kelganini kuzatdik. Darvozaga to‘p otish harakati davomida chap oyoq tizza bo‘g‘imi to‘p otishni amalga oshirgandan so‘ng bukiladi (6-jadval). O‘ng oyoq tizza bo‘g‘imi bir tekis bukiluvchi harakatni bajaradi. Bundan ko‘rinib turibdiki harakatning boshlang‘ich nuqtasida birinchi razryadli gandbolchilar sport ustaligiga nomzod gandbolchilarga nisbatan o‘ng oyoq tizza bo‘g‘imining joylashuvi 24° ga, keyingi harakati davomida minimal 24° ga maksimal 32° ga kamroq hamda diapazonda 19° ga ortiqcha harakatlarni amalga oshirgan. Chap oyoq tizza bo‘g‘imi harakatning boshlang‘ich nuqtasida 45° ga, keying harakatda minimal 22° ga, maksimal 11° kamroq hamda diapazonda esa 42° ga ortiqcha harakatlarni bajargan.

Xulosa. Birinchi razryadga ega bo‘lgan va sport ustaligiga nomzod gandbolchilar hujum texnikasining 3D biomexanik tahlili asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha mamlakatimiz va chet el olimlarining o‘tkazgan tadqiqotlari tahlili bizga turli sport toifasidagi gandbolchilarning hujum texnik harakatlarini kinematik tahlil qilish zaruratini ochib berdi.

2. Birinchi razryadli gandbolchi umurtqa pog‘onasining oldinga va orqaga bukilish harakatlarini sport ustaligiga nomzod gandbolchiga nisbatan to‘p otish davomida sport ustaligiga nomzod gandbolchilarga nisbatan gavda harakatlarini minimal -8° ga, maksimal 5° ga, diapazonda esa 6° ga oshirib bajarganligi aniqlandi.

3. Tayangan holda darvozaga to‘p otish jarayonida birinchi razryadli gandbolchilar yelka suyaklarining oldinga va orqaga egilishi, tashqariga va ichkariga siljishi tahlili natijalaridan shuni aniqlash mumkinki, sport ustaligiga nomzod gandbolchilarning o‘ng qo‘l yelka suyaklari birinchi razryadli gandbolchilarnikiga nisbatan harakatning boshlang‘ich nuqtasida sagittal o‘q bo‘ylab deyarli bir hil 3° nuqtada, chap qo‘l yelka suyaklari minimal -18°, harakat davomida o‘ng qo‘l yelka suyaklari maksimal 30° ga pastroq nuqtada, diapazonda -48° ga, chap qo‘l yelka suyaklari esa harakatning maksimal nuqtasida 10° ga, diapazonda 48° ga kamroq harakatni amalga oshirgan. Ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan gandbolchilar to‘p otish jarayonida kamroq o‘zgarishlar

qiladilar va natijada to‘p otish uchun juda ham kam vaqt sarflaydilar degan xulosaga kelish kumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ayta olamizki hujum texnikasini takomillashtirish uchun turli sport toifasiga ega bo‘lgan gandbolchilarning harakatlarini kinematik tahlil qilish texnik harakatlarning optimal modelini yaratishga imkon beradi va bu natijalardan gandbol bo‘yicha mutaxassislar foydalanish imkoniga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyun “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3031-son qarori http://Lex.uz

2. A.Akl, I.Hassan, A.Hassan, P.Bishop: Relationship between Kinematic Variables of Jump Throwing and Ball Velocity in Elite Handball Players. Appl.Sci.2019,9,3423;

3. Акрамов Ж. Обоснование методики контроля и анализа критериев техники бросков мяча в ворота в гандболе: Автореф. дисс. Кондидата пед. наук/ Москва, 1992. 4-с.

4. И.В.Петрачева, Ю.Н.Котов, К.Б.Ясин, А. Ю.Вагин Биомеханические основы техники выполнения гандбольных бросков различными способами: Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта – 2016.

5. I.A.Yousef, H.A.Kilani, A.S.Al-Za’abi, J.Alnuaimi, L.F.Alkilani, W.M.Shaheen, S.M.Liftawi, T.G.Raja. Kinematics and accuracy of the upward jumping throw in handball. International Journal of Innovation, Creativity and Change. www.ijicc.net Volume 15, Issue 2, 2021.

6. H.A.Plummer, G.D.Oliver. The effects of localised fatigue on upper extremity jump shot kinematics and kinetics in team handball. J. Sports Sci. 2017, 35, 182–188.

7. Isroilov R. Malakali gandbolchilarni hujum texnik harakatlarini takomillashtirish samaradorligini oshirish: Diss. Avtoref. Falsafa fanlari doktori (PhD) Chirchiq-2023. 7-bet.

8. Mo‘minov A. Malakali gandbolchilarda maxsus mashqlarni qo‘llash asosida texnik tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati: Diss. Avtoref. Falsafa fanlari doktori (PhD). Chirchiq. 2023-yil. 8-bet.

9. M.M.Gutiérrez-Dávila, M.Ortega-Becerra, J.Párraga, J.Campos, F.J.Rojas-Ruiz. Influence of the throwing direction on biomechanics of movement patterns in handball throws. e-balonmano.com: Revista de Ciencias del Deporte, 9 (2), 59-70. (2013). ISSN 1885 – 7019

10. Q.B.Yaseen, I.Petracheva, Y.N.Kotov, A.R.Eltibi Kinematic variables of elite handball players during throwing from upward jumps. South African Journal for Research in Sport, Physical Education and Recreation, 2021.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola turli sport toifasidagi gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish hujum texnikasini 3D MA labaratoriyasida kinematik tahlil qilish va solishtirish maqsadida olib borilgan. Tadqiqotdan olingan natijalarimizdan hujum texnikasini baholash, taqqoslash va solishtirish maqsadida foydalanish mumkin.

РЕЗЮМЕ

Данная статья проведена с целью кинематического анализа и сравнения 3D лаборатории МА гандболистов разных спортивных разрядов. Результаты наших исследований можно использовать для оценки, сравнения и сопоставления методов атак.

SUMMARY

This article was carried out for the purpose of kinematic analysis and comparison of the 3D laboratory of MA handball players of different sports categories. Our research results can be used to evaluate, compare, and contrast attack methods.

“YOSH FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA VA MASHG’ULOTLARDAGI INDIVIDUAL TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINING SAMARADORLIGINI O’RGANISH”

Xabibullayev S .X.
CHDPU, Jismoniy madaniyat nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: futbolchilar, mashg’ulot, musobaqa, individual, texnika, taktika, harakatlar, samaradorlik, tahlil.

Ключевые слова: футболисты, тренировка, соревнование, индивидуальный, техника, тактика, действия, эффективность, анализ.

Key words: football players, training, competition, individual, technique, tactics, actions, efficiency, analysis.

Dunyo miqyosida futbol o‘yinining sur’ati jadal oshib bormoqda. Zero bu futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini doimiy o‘sib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, shu orqali maydondagi harakatlar ko‘lami kengayib bormoqda. Ushbu omil futbol bo‘yicha zaxiralarni ta’minlash bilan birga yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligiga ham yuqori talablarni qo‘yadi, bu esa yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini oshirish va ularning o‘quv mashg‘ulotlari sifatini yaxshilash talabini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda sport maktablarida futbol mashg’ulotlarini tashkil etish va ularda shug‘ullanuvchi futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish ham dolzarb masalalardandir.

O‘zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash, qobiliyatli yoshlarni futbolga faol jalb etish, milliy futbolimizni yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yosh futbolchilarni tanlab olish va ularda professional mahorat hamda ko‘nikmalarni chuqur rivojlantirishni ta’minlash, shuningdek, ulardan futbol bo‘yicha mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zahirani shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlari qabul qilindi. Jumladan 2018 yil 16 martdagi PQ-3610-son “Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019 yil 4 dekabrdagi PF-5887-son “O‘zbekistonda

futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023 yil 7 apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2024 yil 20 martdagi PQ-245-son “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qaror va Farmonlar futbolni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

Tadqiqotning maqsadi Yosh futbolchilarning mashg‘ulot va musobaqalardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

– yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ilmiy manbalarni tahlil qilish;
– yosh futbolchilarning mashg‘ulot va musobaqalardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini tahlil qilish orqali ularning texnik-taktik tayyorgarligini baholash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Yosh futbolchilar bilan ish boshlagan har bir murabbiy avvalo uning texnikasini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. To’pni tepishni, olib yurishni, uzatishni, qabul qilishni, oyoq va boshda zarba berishni o’rgatadi. Shug‘ullanuvchilar bilan yil davomida har hil mashg‘ulotlar o’tkiziladi.

Hozirgi zamondagi nuktai nazar asosida aytish mumkinki, futbol texnikasiga, ongli ravishda bajariladigan harakatlarga 9-11 yoshdan boshlash o’rgatish uslubiy jihatdan to’g‘riroq. Bunda to’g‘ri rivojlanayotgan bolalar futboldagi harakatlarni o’rganish uchun zarur imkoniyatlarga egalar. Biroq bu yosh futbolchilar 9-11 yoshgacha to’p bilan shug‘ullanmasliklari kerak, degani yemas. Ma’lumki, eng kichik yoshdan boshlab bolalarning sevimli o’yinchog‘i to’p (koptok) hisoblanadi [2,3].

Kichik yoshda bolalarni futbol texnikasi elementlariga majburan o’rgatib bo’lmaydi. Bu yoshda bolalarga ruxsat berish mumkin bo’lgan yagona narsa shuki, bolalar boshqa erkin o’ynaladigan o’yinlar bilan bir qatorda to’pning xususiyatlari bilan tanishishlari lozim, chunki bu yoshda ‘’to’pni bola emas, to’p bolani harakatlantiradi’’. U tajriba orttiradi, unda to’p bilan muomala qilish borasida minimal malakalar avtomat ravishda hosil qilinadi.

Futbol o’yinida taktika har doim ham muhim ahamiyatga ega. Futbol texnikasi arsenalining ko’payishi, o’yinchilar jismoniy tayyorgarligining o’sishi, o’yin qoidalari hamda tizimining o’zgarishi, yanada takomillashib borayotgan mashg’ulot sikli o’yinni ongli ravishda tashkil qilishda amaliy rejalar, izlanishlar, yangilanishlarga keng yo’l ochib berdi. O’yin maydonida kechadigan strategik kurash, hujum va himoya o’rtasidagi olishuv, yanada yangi va kutilmagan taktik fikrlarni, yangiliklarni yuzaga keltiradi [4;5].

Yosh futbolchilarning mashg'ulot va musobaqalardagi individual texnik-taktik harakatlarining tahlili

1-jadval.

F.I.SH. ampluasi	To'pni to'xtatish	To'p uzatish			Raqibni aldab o'tish	To'pni olib yurish	To'pni olib qo'yish (xavoda)	Darvozaga zarba berish	To'pni olib qo'yish (erda)	Jami TTX	Samaradorlik koeffisti %
		qisqa	o'rta	uzoq							
1. Karimov Abdusalim Himoyachi	+16/-5	11/4	6/2	2/1	-2	+3	5/3	-	6/3	+49/-20 69 itth	71 %
2. Olimjonov Ferdavs Hujumchi	+11/3-	4/1	3/1	-	7/4	5/2	2/1	9/3 2 ta-gol	+2	+43/-15 58 itth	74.1%
3. Mavlonov Kamron Himoyachi	+18/6-	12/5	6/3	3/1	+1	+4	6/3	-	7/3	+57/-21 78 itth	73 %
4. Begmatov Shoxrux Hujumchi	+14/3-	5/1	4/1	-	6/4	4/2	2/1	10/3 3ta-gol	+2	+47/-15 62 itth	76.9%

Yosh futbolchilarining o'yinlardagi individual texnik-taktik harakatlarini tahlili. Futbol maydonida futbolchilarning; darvozabon, himoyachi, yarim himoyachi, hujumchilarga bo'linishi bu futbol talabidir. Qisqacha qilib aytganda, har bir futbolchi o'z ampluasida ishtirok etishi- bu maydonda o'z vazifasini bajarishi demakdir. Ma'lumki, jamoa o'yin harakatlarini takomillashtirishga, raqib bilan kurashayotganda, har bir futbolchi zimmasiga aniq vazifa qo'yiladi. Futbolchining individual o'yini deganda, sheriklarining yordamisiz har bir o'yinchining raqibga qarshilik ko'rsata olishining har qanday ko'rinishini tushunmoq kerak. Bir o'yinda har bir futbolchi maydondagi ampluasiga qarab texnik-taktik harakatlarni bajaradi. Bunday harakatlarga to'pni to'xtatish, to'p uzatishlar, to'pni olib qo'yish (havoda yerda), to'pni olib yurish, to'pga zarba berish, to'pni yon chiziqdan tashlash, to'pni burchakdan o'yinga kiritish kabi bir qancha individual texnik-taktik harakatlarini bajarishadi [4;5].

Ilmiy manbalar tahlili asosida yosh futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlarining samaradorlik darajasini baholash bo'yicha tajriba o'tkazildi. Tajriba Toshkent viloyati Chirchiq shahrida joylashgan sport maktabda shug'ullanuvchi yosh futbolchilarning mashg'ulot va musobaqalardagi individual texnik-taktik harakatlari tahlil qilindi (1-jadval).

Himoyachi Karimov Abdusalim 5 ta o'yinda o'rtacha 69 ta ITTH ulardan 49 tasi samarali, 20 tasini samarasiz bajargan.Samaradorlik ko'satkichi 71 % ni, Shu jamoaning hujumchisi Olimjonov Ferdavs 5 ta o'yinda o'rtacha 58 ta ITTH ulardan 43 tasi samarali, 15 tasini samarasiz bajargan.Samaradorlik ko'satkichi 74,1 % ni, Shu jamoaning himoyachisi Mavlonov Kamron himoyachisi 5 ta o'yinda o'rtacha 78 ta ITTH ulardan 57 tasi samarali, 21 tasini samarasiz bajargan. Samaradorlik ko'satkichi 73 % ni, Shu jamoaning hujumchisi Begmatov Shoxrux 5 ta o'yinda o'rtacha 62 ta ITTH ulardan 47 tasi samarali, 15 tasini samarasiz bajargan. Samaradorlik ko'satkichi 75,8 % ni tashkil qildi.

Himoyachi Karimov Abdusalim 5 ta o'yinda to'pni olib qo'yish (havoda) 37,5 %, to'pni olib qo'yish (erda) 33 %, to'pni to'xtatishda 23,8 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani, shu jamoaning boshqa bir himoyachisi Mavlonov Kamron 5 ta o'yinda to'pni olib qo'yish (havoda) 33 %, to'pni olib qo'yish (erda) 30 %, to'pni to'xtatishda 25 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani aniqlandi. Himoyachi Mavlonov Kamron, himoyachi Karimov Abdusalimga nisbatan o'yinda to'pni havoda va yerda olib qo'yishda kam nuqsonlarga yo'l qo'ygan.

Shu jamoaning hujumchisi Olimjonov Ferdavs 5 ta o'yinda to'pni to'xtatish 21,4 %, raqibni aldab o'tish 36,3 %, darvozaga zarba berish 25 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani, shu jamoaning boshqa bir hujumchisi Begmatov Shoxrux 5 ta o'yinda to'pni to'xtatish 17,6 %, raqibni aldab o'tish 40 %, darvozaga zarba berish 30 %, nuqsonlarga yo'l qo'ygani aniqlandi.

Hujumchi Olimjonov Ferdavs, hujumchi Begmatov Shoxruxga nisbatan raqibni aldab o‘tish va darvozaga zarba berishda kam nuqsonlarga yo‘l qo‘ygan.

Hujumchi Begmatov Shoxrux, hujumchi Olimjonov Ferdavsga nisbatan to‘pni to‘xtatishda kam nuqsonlarga yo‘l qo‘yganligi aniqlandi. Biz tadqiqotimiz davomida bitta jamoaning himoyasida va hujumida harakat qilgan o’quvchilarning samarali va samarasiz ITTH aniqlab, ularni bartaraf etish uchun amaliy tavsiyalar berdik.

Xulosalar. Mazkur tajribadan xulosa qilash mumkinki, o’yin davomida alohida amplualariga to’xtalab o’tadigan bo’lsak, hujumchilarga nisbatan himoyachilar, o’yin davomida to’pni olib qo’yishda, to’pni to’xtatishda, to’p uchun havoda kurashishda natijalari yuqoriligini aniqlandi.

Himoyachilarga nisbatan hujumchilar harakatlarida raqibni aldab o’tish, to’pni olib yurish va darvozaga zarba berishda natijalarni yuqoriligi aniqlandi.

Olingan natijalardan xulosa qiladigan bo’lsak, turli amplua o’yinchilarning o’yindagi kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan mashqlarni ishlab chiqish va o’tkazilgan tahlil asosida yosh futbolchilarning o’yinlardagi qaysi texnik elementlarni bajarishda ko’proq nuqsonlariga yol qo’yayotganini aniqlab murabbiyga amaliy tavsiyalar berdik.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20 martdagi PQ-245-son “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” da Qarori.

2. Akramov R.A. Yosh futbolchilarni tanlab olish va tayyorlash: O‘quv qo‘llanma.-T.1989.-87 b.

3. Akramov R.A. Futbol darslik: O‘quv qo‘llanma. O‘z.DJTI.:2006.- 406 b.

4. Qurbonov O.A. Yosh futbolchilarda bosh bilan to‘p oshirish va zarba berish aniqligini takomillashtirishning noan’anaviy usullari: O‘quv qo‘llanma.- T.:2008.-128 b.

5. Махамаджанов Ф.Р. Подготовка юных футболистов с учетом возрастных особенностей. Автореф.дис. … док. фил. пед. наук. (PhD) по педагогическим наукам. Чирчик 2019. - 55 С.

РЕЗЮМЕ

Maqolada yosh futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini baholash natijalari yoritilgan. Bunda olingan natijalar tahlil qilinib o‘zaro solishtirish asosida aniq va noaniq texnik-taktik harakatlar aniqlangan. Mazkur ma’lumotlar murabbiylarga keyingi mashg’ulotlarni to’g’ri rejalashtirish uchun xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны результаты оценки эффективности отдельных технико-тактических действий юных игроков. На основе анализа и взаимного сравнения полученных результатов были определены ясные и неясные технико-тактические действия. Эта информация поможет тренерам правильно спланировать следующие тренировки.

SUMMARY

The article describes the results of evaluating the effectiveness of individual technical and tactical actions of young players. Based on the analysis and mutual comparison of the obtained results, clear and unclear technical and tactical actions were determined. This information will help the coaches to plan the next training sessions correctly.

KICHIK VOLEYBOL SPORT TURIGA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASINI VOLEYBOLGA INTEGRATSIYALASH

Shukurllayev J.M.
ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.
Murodova R.M.
ChDPU Jismoniy madaniyat HQS 23/1guruh talabasi

Tayanch so'zlar: voleybol, akmeologiya, metodika, sifat, talaba, ilm, mexanizm, natija, integratsiya.

Ключевые слова: волейбол, акмеология, методология, качество, студент, наука, механизм, результат, интеграция.

Key words: volleyball, acmeology, methodology, quality, student, science, mechanism, result, integration.

Jismoniy tarbiya darslarida shug`ullanuvchilarni kichik voleybol sport turi asosida jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash va ularga akmeologik ta'lim berish, o'rganilayotgan harakatlar majmuini puxta egallashi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni amalga oshirish, har tomonlama ularning sog'lomligini mustahkamlash va jismoniy tayyorgarligik darajasini oshirib borish zarur. Ushbu vazifani bajarishda akmeologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur yondashuv o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini mo'tadil rivojlanishida hamda takomillashishida istiqbolli hisoblanadi. Ushbu sabab mazkur maqola mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatni rivojlantirishga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalari, jumladan, maktab jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini oshirishda akmeologik yondashuv o‘quv-tarbiyaviy va boshqarish jarayonida jamiyat tomonidan qo‘yilgan mustaqil fikrlovchi, muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qiluvchi, muloqotga kirishuvchan shaxsini tayyorlash talabining bajarilishini qanchalik amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Bunda akmeologik usullar, akmetexnologiyalar o‘quvchi jismoniy tayyorgarligining muvaffaqiyatli rivojlanishida tegishli savollarni yechishga amaliy yordam beradi.

Kichik voleybol mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalashni akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish vazifasining bajarilishi voleybol sport turiga tayyorgarlik sifatini oshirishga shart-sharoit yaratadi.

Kichik voleybol mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash akmeologik yondashuv harakatlar majmui, qiyoslash, organizmni individual rivojlantirish, morfo-funksional jihatlarni hisobga olish kabi determinantlarga ustuvorlik berish, mashg‘ulotlarda voleybol o‘quvchilarning reproduktiv, adaptiv, refleksiv kompetentlik darajalari baholashning past, o‘rta va yuqori mezonlari hamda nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini akmeologik rivojlantirish, o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini maqsadli va ehtiyojga yo‘nalgan hamkorlik shakllari va SMART mezonlari (aniqlik, o‘lchamlilik, erishimlilik, resurs bilan ta’minlanganlik, reglament) maqsad belgilash va natijaga mo‘ljal olish tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashadi.

Bunda akmeologik yondashuv asosida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini kichik voleybol mashg‘ulotlari doirasida voleybol sport turi bo`yicha nazariy bilim hamda amaliy malakalar tizimini takomillashtirish texnologiyalari, sifatli pozitiv o‘zgarishni intensiv ta’minlaydigan interfaol usullari va ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi adaptiv kompleks mashqlar tizimini, fiziologik o‘sish parametrlari darajalariga integratsiyalash orqali takomillashtiriladi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalashni tatbiq etishda invariant - mashg‘ulotlarda o‘rganilayotgan harakat aynan voleybolning qaysi jismoniy sifatlarini aniq rivojlantirishi va morfologik - Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalashning fiziologik jihatdan o‘sish darajasi bilan bog‘liq xususiyatlar inobatga olinishi lozim. Bu esa Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash amaliyotiga joriy etishni osonlashtiradi.

Ularning o‘zaro aloqasining asosiy turi shug`ullanuvchining faoliyat sub’ekti sifatidagi butunligiga asoslangan, ya’ni shug`ullanuvchining jismoniy harakatlar faoliyati uchun ajratilgan har bir invariant jihati boshqalaridan tashqari mavjud emas va faqat o‘quvchining jismoniy harakatlar texnikasini oshirish va ularning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishni ifodalaydi (1-rasm).



Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni akmeologik yondashuv orqali jismoniy tayyorgarlik sifatlarini shakllantirishda amalga oshirilayotgan harakatlar majmui, shuningdek, anotomik hamda fiziologik jihatlarni ham bir vaqtning o‘zida qiyoslash imkoniyatini yaratib beradi. Buning natijasida jismoniy tayyorgarlik progress holatlarini bir maromda kechishini, unda qo‘llanilgan metod, vositalarni bir butun qolibga solishga imkon beradi. Bu esa voleybol sport turi bo`yicha shug`ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik sifatlarini takomillashishida muvaffaqiyatli va samarali natijasini, mashg`ulot jarayonining qonun qoidalari, ya’ni unga qo‘yilgan talab va mezonlarni qay darajada amalga oshirilishini standartlab beradi.

Shu bois voleybol mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik sifatlarini rivojlantirishda akmeologik o‘sish darajasini ta’minlovchi mezon sifatida o‘quv mashg‘ulotlarini tizimlashtiradi va individual, shaxsiy hamda sub’ektiv o‘zgarishlarga erishishda noaniqlik va salbiy xususiyatlarni bartaraf etishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. «ZAMONAVIY TA`LIM» jurnali 2021 №1(98).

2. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. Илмий рисола. Ғ.И. Мухамедов, У.Н. Ходжамқулов. ЧДПИ 2019.

2. Shukurllayev J.M. Voleybolga yosh talabalarni tanlashning uslubiy xususiyatlari. ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. № 1. 2020 yil 2 oktyabr.

3. Shukurllayev J.M."Maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)" PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.

4. Shukurllayev J.M. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni. "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali. 2023. № 5. B. 28-30.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash bo'yicha ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлены рекомендатsii и предложения по интеграция акмеологии в волейбол для юношеского волейбола.

SUMMARY

This article provides guidelines and suggestions for integrating acmeology into volleyball for the sport of junior volleyball.

PEDAGOGIK KATEGORIYA SIFATIDA KOMPETENTLILIKNING MOHIYATI VA UNING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDAGI O'RNI

Nurmatov F.A.
ChDPU Jismoniy madaniyat nazaryasi kafedrasi mudiri dotsent

Tayanch so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, kasbiy faoliyat, samaradorlik, yondashuv, muloqot, mahorat, sifat, istedod, iqtidor.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, эффективность, подход, общение, мастерство, качество, талант, талант.

Key words: competence, competency, professional activity, efficiency, approach, communication, skill, quality, talent, talent.

Ma'lumki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatda erkin va mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi zaruriy omillardan biri bu ulardagi kasbiy-pedagogik kompetentlikning shakllanganligi bilan asoslanadi. Bunda pedagogik kompetentlikning o'ziga xos tuzilmasi, shakllanish bosqichlari va bu jarayonda o'qitishning zamonaviy shakl va metodlardan foydalanishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dunyoda inson va jamiyatni takomillashtirish omili sifatida jismoniy madaniyatning roli sezilarli darajada oshib bormoqda¬. Shunga ko'ra, jamiyat va uning a'zolari tomonidan jismoniy tarbiya sohasida xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlash sifati va samarasiga yetarli darajada e'tibor qaratilib kundan kunga kasb malakalari darajasiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga murojaat qilish pedagogik ta'limning, shu jumladan jismoniy tarbiyaning yangi maqsadlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yo'qoridagilardan kelib chiqqan holda, universitetning ta'lim maydoniga yangicha yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarur.

Ta'lim amaliyotida kompetentli yondashuvni amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan

birga, ta’kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo‘lib, u fanlarda etarli darajada talqin etilgan, o‘rganilgan va o‘zining mustahkam o‘rniga ega. U ijtimoiyiqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to‘laqonli singdirilmagan.

Shu bilan birga, ta’limda kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligi tufayli “kompetentlik”, “kompetensiya”, “tayanch kompetensiyalar” atamalari ta’limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko‘proq ishlatilmoqda hamda keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarining qanaqaligini tushunib etish jarayoni jadallashib bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko‘plab ta’riflari va talqinlari mavjud.

Kompetentlik – bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay, balki ulardan kerak vaqtda va o‘zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida foydalana olish demakdir.

Bu ma’noda kompetentlik kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga mutaxassisning samarali kasbiy faoliyatga qodirligining tavsifi sifatidagi kompetentlik ta’limga kompetentli yondashuvning asosi bo‘lib qoldi. Bunday kompetentlikning murakkab, integral xarakterini ta’kidlab o‘tgan holda, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi yoki turi ajratib ko‘rsatiladi:

-integrativ kompetentlik – bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga va tashqi muhitning tez o‘zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana olishga qodirlik;

-ijtimoiypsixologik kompetentlik – zehnidrok, odamlarning xulqatvorini tushunish bo‘yicha bilimlar va ko‘nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqot madaniyatining yuqori darajadaligi.

-boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari bo‘yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig‘ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar.

Yangi ijtimoiyta’limiy g‘oyalar nuqtai nazaridan kompetentlik tushunchasi yanada rivojlanib bormoqda. Kompetentlikni rivojlantirish bosqichlaridan birinchisi – uning tarkibiy qismlari doirasini sub’ekt kasbiy faoliyati uchun muhim bo‘lgan kompetensiyalarning qo‘shimcha sohalarini kiritish hisobiga kengaytirish bilan bog‘liq. Kompetentli yondashuvining asoschilaridan biri bo‘lgan J.Raven buning muhimligini shunday tushuntiradi: “biz ko‘proq va kamroq kompetentli fermerlar, o‘qituvchilar, haydovchilar, temirchilar, menejerlar va harbiy ofitserlarni solishtirganimizda, har bir holatda o‘z ishining ustalari namoyish qilgan siyosiy xulqatvor aynan eng muhim bo‘lib chiqdi .

Psixologik jihatdan kompetentlik – atrofdagi olamni tushunish mezoni va u bilan o‘zaro ta’sirining mutanosibligi sifatida belgilanadi yoki yanada batafsilroq ta’riflansa, faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir yoki insonning atrofmuhitga va o‘zo‘ziga ta’sir etish metodlarini egallaganligidir.

V.Yu. Krichevskiy kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarni ko‘rib chiqar ekanlar, kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogiktashkilotchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik va boshqa sifatlar bilan bir qatorga qo‘yadilar . Kompetentlikning o‘zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o‘z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologikpedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi.

Pedagogolimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan.

L.M. Dolgovaning fikricha, kompetentlik − egallagan bilimlar asosida faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishdir. Kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik – ijtimoiy-amaliy ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalardan iborat mavjudligi bo‘lib, ta’lim jarayoni natijalariga jamiyat tomonidan ijtimoiymadaniy talablar talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Umumiy holda ta’riflaydigan bo‘lsak, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofidagi ob’ektlar va sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha muayyan malakalar va kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasini demakdir.

Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik ijodkorligining shakllanishi uning jamiyatdagi o‘rni, pedagogika oliy ta’lim muassasasidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari, ya’ni fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va boshqalarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak

o‘qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari qarama-qarshiligini his qilish, ularning echimini topish uchun esa o‘ziga xoslik va maqsadga muvofiqlik kabi kasbiy xislatlar tarkib topadi.

Kompetentlikning shakllanganligi to‘g‘risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentliligi darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Kompetentlik to‘g‘risida insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo‘lmaydi.

M.P.Choshanov fikricha, kompetentlik kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

kompetentli mutaxassisning bilimlarni egalashda xarakatlari amaliy tezkor va harakatchan, ular doimo yangilanib turadi;

kompetentlik mazmuniy (bilimlar) va protsessual (ko‘nikmalar) komponentlarga ega. Muammo mazmunini tushunishning o‘zigina etarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan hal eta bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tasnifi hisoblanadi;

kompetentlik darajalarini rivojlantirishning maqbul echimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri qaror qabul qilish yo‘llaridan voz kechish, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

A.K. Markova kasbiy kompetentlikni quyidagi turlarga ajratadi:

- maxsus kompetentlik – kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kasbiy jihatdan bosqichma-bosqich o‘sib borishini loyihalashtira olish;
- ijtimoiy kompetentlik – birgalikdagi (guruhli, kooperativ) kasbiy faoliyat, hamkorlik, shuningdek, mazkur kasbga tegishli kasbiy muloqot yo‘llarini puxta egallaganlik, o‘zining kasbiy faoliyati natijalariga ijtimoiy jihatdan javobgarlik;
- shaxsiy kompetentlik – shaxsiy dunyoqarashlari va o‘zo‘zini rivojlantirish yo‘llarini egallaganlik, shaxsning kasbiy jihatdan faoliyatining izdan chiqib ketishiga qarshilik ko‘rsata olishga qodirligi;
- individual kompetentlik – kasbiy faoliyati doirasida o‘z-o‘zini namoyon qila olish va individualligini rivojlantirish, kasbiy rivojlanishga tayyorlik, o‘zining individualligini saqlay bilish, o‘z mehnatini oqilona tashkil eta bilish, mehnat faoliyatini zo‘riqishlarsiz amalga oshirishga qodirlik.

Yuqorida sanab o‘tilgan kompetensiyalarning barchasi bir insonda mujassam bo‘lmasligi mumkin. Inson o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha yaxshi mutaxassis bo‘lishi mumkin, lekin muloqotga kirisha olmasligi, o‘zo‘zini takomillashtirish

bo‘yicha vazifalarni amalga oshira olmasligi mumkin. Shunga ko‘ra, uning maxsus kompetentligini yuqori darajada, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini pastroq darajada deb e’tirof etish mumkin.

Shunday kasbiy kompetensiyalar borki, ular ko‘plab kasblar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham qo‘llanilganda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan kasbiy kompetentliklarning har bir turi shunday kasblararo umumiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, maxsus kompetentlik ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, texnika bilan ishlash ko‘nikmalari, texnik hujjatlarni o‘qiy olish, qo‘l ishlarini bajarish malakalariga; shaxsiy kompetentlik – o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish, nostandart echimlarni topa olish (kreativlik), muammoni ko‘ra bilish, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallay olish layoqatiga; individual kompetentlik – motivatsiyaga ega bo‘lish, bajaradigan ishining sifatini oshirishga intilish, o‘zo‘zini safarbar qila olish, o‘ziga ishonch va optimizmga ega bo‘lishni taqozo etadi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish joizki, mutaxassisning kasbiy kompetentligi mohiyatini va tuzilishini aniqlash jarayonida, bo‘lajak kasb ta’limi mutaxassisning kasbiy kompetentligini o‘rganishning asoslariga ega bo‘lamiz.

Shaxsning o‘z kasbiy vazifasini bajarishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish, o‘z kasbiy mahoratini tinmay oshirib borish, pedagogik jarayonlarni emotsional-qat’iylik bilan boshqara bilish, kompetensiya yuzaga chiqishi va h. Shunday qilib, mutaxassis kasbiy kompetensiyasining mohiyati, mazmuni va tuzilishini aniqlar ekanmiz, kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini o‘rganishning asoslariga ega bo‘lamiz. Lekin mutaxassisning kasbiy kompetentligi shakllanishida psixologik-pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim insonning o‘z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun ham olib boradigan faoliyatining asosiy sohalaridagi muvaffaqiyatini ta’minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o‘zlashtirishiga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta’lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini zamonaviy ta’lim tamoyillariga asosan birdek o‘zgartirish zarur. Bunda o‘zgartirilgan shakllar ta’lim oluvchilarga muayyan kompetensiyalar bo‘yicha bilim bermasdan, balki butun ta’lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta’minlashi kerak. Ya’ni, ta’lim oluvchi navbatdagi ko‘nikmalar to‘plamini shakllantirish yo‘li bilan kelgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida singdirib borishi kerak. Shuning uchun kompetentli yondashuv natijasida quyidagilar ta’minlanishi lozim:

– o‘zo‘zini rivojlantirish manbai sifatida ta’lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo‘lishi;

– yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o‘quv faoliyati jarayonida o‘z-o‘zini safarbar eish qobiliyati;

– har bir odamga o‘zining u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtira olish darajasini aniqlash imkonini beruvchi o‘zo‘zini differensiatsiyalash (o‘z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

– ta’lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishish;

– ta’lim jarayonini sub’ektlari faoliyati o‘zaro bog‘liqligi.

Xulosa qilsak, kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’limning metod va texnologiyalari ma’lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarning boshqa bir sharoitlarga oson ko‘chishi va moslashuvchanligini ta’minlashi kerak, ya’ni “noadaptiv faollik” xususiyatini hosil qilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Krichevskiy V.Yu. Finansovaya samostoyatelnost v sfere obrazovaniya: Pervыe shagi: posobie dlya rukovoditeley obrazovatelnыx uchrejdeniy - M.: Prosveщenie, 2007.- 176 s.

2. Dolgova L.M. Probnыe deystviya uchaщiхsya v prostranstve innovatsionnoy shkolы. 2007. S.191-193.

3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.–308 s.

4. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., o‘quv qo‘llanma O‘zDJTI, 2005 yil - 238 b.

5. Shomirzayev M.X. Practical lessons in technology: Characteristics of organization and conduct // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 991-1001.

6. Eshqobilov E.M . (2023). Development of professional pedagogical creativity of future physical education teachers on the basis of a competent approach. International bulletin of engineering and technology, 3(3), 201–204.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada muallif tomonidan bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda kamptentli yondashuvni o’rni, uni o’zlashtirish, va faoliyatda o’zlashtirilgan harakat amallarini qo’llay olish shuningdek kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta’lim oluvchining o‘z-o‘zini anglashi haqida faktlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

